



ISSN 2181-1709 (P)  
ISSN 2181-1717 (E)

2025/№ 5

**ТА'ЛИМ ВА  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**

**TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



**№ 5/2025**  
**MAY**

**Muassis:**

Buxoro davlat universiteti  
Fan va ta'lim MChJ

**Bosh muharrir:** Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori

**Jamoatchilik kengashi raisi:** Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori

**Mas'ul kotib:** Akramova Gulbahor Renatovna

**Texnik muxarrir:** Davronov Ismoil Ergashevich

**Tahririyat manzili:** Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:  
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:  
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan **PEDAGOGIKA,**

**PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI** bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

**Bosishga ruxsat etildi:**

04.04.2025 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar <https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi

**Jurnal 28.07.2021 yilda 9305**

raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
Abduvohidov D. N. Sovet davrida davlatning xristian cherkovlariga nisbatan siyosati (samarqand viloyatidagi cherkovlar misolida)	8
Жамолова Д. Абдулла Кодирийнинг Туркистон жадидчилиқ ҳаракатида тутган ўрни	12
Mirzoyev Sh. M. Buxoro oblastida sug'oriladigan yer maydonlari kengaytirilishi: yangi va qo'riq yerlarni o'zlashtirish	18
Убайдуллаева Б. Фориш тумани қишлоқлари этномаданий туризм объекти сифатида	22
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
Avazov X. P. Ingliz va o'zbek tillarida to'liqsiz gaplarning umumiy xususiyatlari	28
Akramova S. R. Poetik nutqning antroposentrik tahlili lingvistik hodisa sifatida (Jamol Kamol ijodi misolida)	32
Djabbarova F. A. Lingvokulturologiyaning tarixi va teorik asoslari	36
Islamov O'. H. Qadimgi turkiy yozma manbalarda nutq odobi xususidagi qarashlar	41
Kurbanazarova N. Sh. Etonimlarning semantik-struktur xususiyatlari	45
Курбанова Г.Дж., Сейтназарова Г.А., Курбанова А.Дж. Интеграция с русского языка на уроках химии для повышения качества образования	53
Маджидова Р. У. Принцип антропоцентризма в современной лингвистике: обзор, предпосылки и тенденции развития	60
Nurboyeva M. V. Frazeologik omonimiyanning korpus tizimida bartaraf etilishi masalasi	64
Ro'zimurodova Z. D. Leksik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi	70
Samadova S. J. Linguistic, cognitive, and pedagogical perspectives on temporal words in esl learning	76
Тажбенова С. С. Boshlang'ich ta'limda lingvistik kompetensiyani shakllantirishga kognitiv yondashuvlar	82
To'xtayeva D. A. Jahon tilshunosligida darajalanishning o'rganilishi	87
To'rayeva D. A. Dialektik yondashuv asosidagi tahlillarning lingvistik ekspertizadagi o'rni	93
Xudoyberdiyeva N.O'. Bolalar adabiyotida folklorizmlarning o'rni (She'riy asarlar misolida)	96
O'rinova O. T. Devonu lug'otit turkda chorvachilikka oid oziq-ovqat mahsulotlarining leksik-semantik xususiyatlari	99
Saydamatova D. X. Abdulrazzoq Gurnah asarlarida inson ruhiyati tahlili	104
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
Akbarov Sh. A. 7-9 yoshli o'quvchilarning koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishda aylanma mashg'ulotni tashkil etish	109
Ashurova T. E. Bo'lajak tarbiyachilar kasbiy kompetentligini shakllantirishning mazmuni	113
Abdurahmonov A L. Yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligini an'anaviy tarzda rivojlantirish uslubi-yatini takomillashtirish	118
Bakhromova F. O., Razzoqov D. N. Bo'lajak tarbiyachilarda tarbiyalanuvchilarni bilish faoliyatini shakllantirish	121
Boypolvonov B. Dj. Oliy ta'limda mobil texnologiyalardan foydalaning dolzarb masalalari va zamonaviy aspektlari	130
Djurayeva M. Z. 6-8 yoshdagi qizlarda jismoniy tayyorgarlikni baholash va gimnastika musobaqalariga tayyorlashning innovatsion yondashuvlari	137
Elquliyeva F. D. Yosh sportchilarni yengil atletika sport turiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mexanizmi	142

Eshniyozov U. A. Elektrotexnika fanidan talabalarning eksperimental ko'nikmalarini fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi sharoitida rivojlantirish metodikasi	146
Fataeva F. R. Kiberbullingni bartaraf etishda o'quvchilarni pedagogik himoyalash strategiyalari	156
Faxridinova M. F. Vektorlar bo'yicha bilimlarni shakllantirishda innovatsion va interfaol yondashuvlar	160
Ismoilov H. Jismoniy tarbiya darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari	170
Ikramova B. M. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini o'quv-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida loyihalashga tayyorlash strategiyasi	175
Isomova F.T. Maktabgacha ta'lim tashkiloti katta guruh tarbiyalanuvchilarining kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishda motivatsion-kognitiv usullarni qo'llash metodikasi	179
Joldasbaeva A. R. Bo'lajak pedagoglarda o'quv jarayonini loyihalash ko'nikmalarini 7K modeli asosida takomillashtirish mexanizmlari	185
Jovliyev B. X. So'lak dimlanishining sababi, belgilari, asoratlari va oldini olish	190
Karimova U. Sh. Maktabgacha ta'lim muassasasida uslubiy ishlar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish vositasi sifatida	196
Maxmudova N. H. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnlarni o'qib tushunish jarayonida kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi	200
Nomozova D. M. Ne'matullayeva G. X., Ishqalanish va uning zamonaviy texnologiyalardagi o'rni mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning o'rni	204
Nuriddinova M. I., Muhammadqodirova N. B. Boshlang'ich sinf tabiiy fanlarining samaradorligini oshirishda muammoli ta'limdan foydalanish uslublari.	209
Nabiyeva F.M. Talabalarda raqamli kompetensiyalar asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari	214
Nazarova M. X. Boshlang'ich ta'limda art-terapiya vositasida hissiy-kognitiv qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishning metodik asoslari	218
Nuralieva U. Sh. Raising the general physical fitness of wrestler students with a circular training metod	222
Ochilova N. U. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining diskursiv kompetentsiyasini shakllantirish: didaktik shart-sharoitlar va samarali yondashuvlar	227
Очилов Ф. Э. Интеграция искусственного интеллекта в преподавание черчения: сохранение традиций и инноваций	231
Очилов Ф. Э., Хамраев А. Б. Педагогическая организация и совершенствование методических подходов к оцениванию творческих работ по изобразительному искусству в общеобразовательной школе	235
Primova N. B. . Zamonaviy o'quv muhitida o'quvchilarda tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni ta'limiy vaziyatlar orqali rivojlantirishning pedagogik mexanizmi	240
Qo'lyiyev B. J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik jismoniy sifatini aylanma mash'g'ulot uslubida rivojlantirish	243
Qurbonova E. Sh. Yuridik terminologiya tadqiqida qo'llaniladigan metodlar	247
Rizayeva M. E. Tub va murakkab sonlar	251
Raxmatova N. I. "Texnologiya" darsida o'quvchilarning raqamli vositalar orqali kognitiv va o'quv faoliyatini faollashtirish mexanizmlari	256
Sapayeva U. R. Bo'lajak o'qituvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari	260
Sohibov D. B. Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari va muammolari	264
Tursunov M. A. Raqamli ta'lim muhitida Python tili operatorlarining qo'llanilishini o'rganishda Blum Taksonomiyasining ahamiyati	268
Ulug'bekov B. U. O'quvchilarga yo'l harakati qoidalarini o'rgatishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv	274
Usanova X. I. Tarixiy-madaniy muzeylar vositasida talabalarda vatanparvarlik madaniyatini qaror toptirish	279
Utepberganov A. K. Akmeologiya asosida jismoniy tarbiya o'qituvchisining professional kompetensiyalarini rivojlantirish	283
Zaripova M. Q. Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv va o'ziga xos treninglarni amalga oshirganda ta'lim muhiti	286

Zoxidov J. B. Pedagogik ta'lim jarayoniga integratsiya qilinadigan raqamli texnologiyalarning afzalliklari va xususiyatlari	290
Бекназарова Ч. Н. Профилактика нарушений осанки детей с помощью упражнений по плаванию	294
Горбунова М. Б. Страновые Социокультурные Реалии Как Основа Развития Независимой Оценки Качества Образования В Республике Беларусь	297
Хуррамов Ж. К. Развитие скоростно-силовых способностей школьников с помощью круговой тренировки	303
Yadgarova D. I. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida volontyorlik faoliyati orqali kollaborativ kompetensiyani shakllantirish	309
Yuldasheva Sh. B. Bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanishda syujetli rolli o'yinlarning o'rni	315
Хусанов С. А. Развитие скоростно-силовых способностей паралимпийцев-прыгунов в длину по методу круговой тренировки	320
Sharipov B. Z. Jinoyatchilikka qarshi ta'limiy tadbirlar: maktab, oila va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik	326
Shodmonova A. Sh. Transformativ ta'lim tamoyillari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ o'z-o'zini rivojlantirish salohiyatini oshirish	331
Shoyimova Sh. S. Ta'limda boshqaruv strategiyasi: zamonaviy yondashuvlar va adabiy talqin	335
Shokirova D O. Ta'limda texnologiyalaridan foydalanishda integratsiyalashuvining turlari va ularning maqsadlari	341
Rajabova G. S. HTML tilida ro'yxat va jadval teglarining imkoniyatlari	347
Toshmatov B. E. Pedagog kasbiy faoliyatini optimallashtirishning o'ziga xos modeli va uni ta'lim muassasalarida qo'llashning ijtimoiy-psixologik shartlari.	354
Qoryog'diyev Sh. Sh. Ota-onalar infantilligini ijtimoiy-psixologik tadqiq etish jabhalari	357
Tojibayeva N. K. Ayollar tizimi xodimlari samaradorligini oshirishda performativ yondashuvning ahamiyati	366
Yakubova M. F. Kimyo darslarida muammoli ta'lim va xalqaro baholash sistemadan foydalanish.	370
Yuldashev B. Boshlang'ich sinf matematika darslarida tranformatsion yondashuv	375
Haydarova M. Boshlang'ich sinf "Texnologiya" fanini o'qitishda individual topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari	378
Orziqulov X. T. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining manaviy-marifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	381
Zulfiqorov B. B. Yangi O'zbekistonni barpo qilish yo'lida yoshlar bilan harbiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish asoslari	386
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Haydarova S. Talaba shaxsning statusiga ta'sir qiluvchi psixologik xususiyatlarini o'rganishning psixodiagnostikmetodlari	391
Kushanova M. I. O'smirlardagi agressiv xulq-atvorni psixokorreksiyalash imkoniyatlari	396
Mirzayeva S. R. Bugungi kunda oila imijiga berilayotgan baho va uning ijtimoiy ahamiyati	403
Нурымбетова Э. Ж. Взаимосвязь ценностных ориентаций с самоуправлением студентов-психологов	408
Sayfutdinova N. N. O'quv muhitining stress omillarining talabalarning kognitiv sohasiga ta'sirini psixofiziologik o'rganish	412
Shamshetova A.K. Ta'lim tizimida psixologik mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish	417
Qodirov M. S. Jinoyatchilikni aniqlashda kriminal profayling usulining ahamiyatli jihatlari	420
Yuldasheva N. Sh. Ijtimoiy taqqoslash, rigidlik va imposter sindromining o'zaro aloqadorligi	427



# TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

## JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

*Djurayev Risboy Haydarovich*, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.  
*Shamsutdinov Rustambek Temirovich*, Andijon davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori

*Majidov Inom Urushevich*, texnika fanlari doktori, professor. O'zbekiston milliy universiteti

*Olimov Qahramon Tanzilovich*, pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich*, texnika fanlari doktori, professor

*Musurmonova Oyniso*, pedagogika fanlari doktori, professor

*Safarova Rohat G'aybulloyevna*, pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich*, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

### XORIJ OLIMLARI

*Artamonova Yekaterina Iosifovna*, pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti

*Yemelyanova Irina Yevgenyevna*, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika universiteti. Rossiya

*Kuzmenko Galina Anatolevna*, pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti

*Safaraliyev Bozor Safaraliyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi

*Kulishov Vladimir Vasilevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

*Lazarenko Irina Rudolfovna*, pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya

*Filippova Oksana Gennadevna*, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika universiteti. Rossiya

*Xristo Kyuchukov*, pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti. Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya

*Kumskov Mixail Ivanovich*, fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti

*Maksimenko Sergey Dmitriyevich*, akademik, psixologiya fanlari doktori, professor. Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasining akademigi

*Padalka Oleg Semenovich*, pedagogika fanlari doktori, professor, M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina

*Hazretali Tursun*, tarix fanlari doktori, professor, Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori

*Mamedova Irada*, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i

*Timur Xo'jao'g'li*, tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)

*Nurettin Hatunoglu Doç. Dr.*, Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)

*Mullojjanov Sayfullo Kuchakovich*, tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti

*Gushko Sergey Vladimirovich*, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

## O'ZBEKISTON OLIMLARI

### TARIX FANLARI

*Azamat Ziyov*, tarix fanlari doktori, akademik, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori

*Rajabov Qahramon Kenjayevich*, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi

### FILOLOGIYA FANLARI

*Madjidova Ra'no Urishevna*, filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

*Sharipova Laylo Frunzeyevna*, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

*Nigmatova Lolaxon Xamidovna*, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

*Yusupova Hilola O'ktamovna*, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

*Akramova Surayo Renatovna*, filologiya fanlari bo'yicha falsafa do'ntori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

### PEDAGOGIKA FANLARI

*Tolipov O'tkir Qarshiyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

*Olimov Shirinboy Sharofovich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti

*Dilova Nargiza Gaybullaevna*, pedagogika fanlari doktori DSc, professor. Buxoro davlat universiteti

*Tilavova Matlab Muxammadovna*, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

*Sohibov Akram Rustamovich*, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti

*Umarov Baxshullo Jo'rayevich*, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

*Hasanova Gulnoz Qosimovna*, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

*Inoyatov Abdullo Shodiyevich*, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti

*Davronov Nurzod Ismoilovich*, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

*Umarov Baxriddin Mingbayevich*, psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti

*Bafayev Muxiddin Muxammadovich*, psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

### IQTISODIYOT FANLARI

*Kurolov Kobuljon Kulmanovich*, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori

*Mamanazarov Abdusakim Bozorovich*, pedagogika fanlari doktori DSc. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali

### FALSAFA FANLARI

*Namozov Bobir Bahriyevich*, falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

### BIOLOGIYA FANLARI

*Artikova Hafiza To'ymurodovna*, biologiya fanlari doktori, professor. Buxoro davlat pedagogika instituti

## ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

### ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

- Джурраев Рисбой Хайдарович*, доктор педагогических наук, академик АНРУз  
*Шамсутдинов Рустамбек Темирович*, профессор Андиганского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук  
*Мажидов Ином Урушевич*, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека  
*Олимов Кахрамон Танзилович*, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена  
*Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович*, доктор технических наук, профессор  
*Мусурмонова Ойнисо*, доктор педагогических наук, профессор  
*Сафарова Рохат Гайбуллоевна*, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи  
*Ибрагимов Холбой Ибрагимович*, доктор педагогических наук, академик АНРУз

### РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

- Артамонова Екатерина Иосифовна*, доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук  
*Емельянова Ирина Евгеньевна*, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет, Россия  
*Кузьменко Галина Анатольевна*, доктор педагогических наук, профессор, Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья  
*Сафаралиев Бозор Сафаралиевич*, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии  
*Кулишов Владимир Васильевич*, доктор педагогических наук, профессор, Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина  
*Тазаренко Ирина Рудольфовна*, доктор педагогических наук, профессор, Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия  
*Филиппова Оксана Геннадьевна*, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет, Россия  
*Христо Кючюков*, доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социоллингвистики, Германия  
*Кумсков Михаил Иванович*, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова  
*Максименко Сергей Дмитриевич*, академик, доктор психологических наук, профессор, Академик Национальной академии педагогических наук Украины  
*Падалка Олег Семенович*, доктор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина  
*Хазретали Турсун*, доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави  
*Мамедова Ирада*, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана  
*Тимур Хужаугли*, лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)  
*Nigettin Hatipoğlu*, Assoc. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)  
*Муллоджанов Сайфулло Кучакович*, доктор исторических наук, профессор, Национальный университет Таджикистана  
*Гушко Сергей Владимирович*, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина

### УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

#### История

- Азамат Зиё*, доктор исторических наук, академик, директор Института истории Академии наук Узбекистана  
*Раджабов Кахрамон Кенжаевич*, доктор исторических наук, профессор, главный научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана

#### Филология

- Маджидова Рано Уришевна*, доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков  
*Шарилова Лайло Фрунзеевна*, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет  
*Нигматова Лолахан Хамидовна*, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет  
*Юсупова Хилола Уктамовна*, кандидат филологических наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт  
*Акрамова Сураё Ренатовна*, доктор философских наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт

#### Педагогика

- Толипов Уткир Каршиевич*, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.  
*Олимов Ширинбой Шарофович*, доктор педагогических наук, профессор, Бухарский государственный университет  
*Тилавова Матлаб Мухаммадовна*, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт  
*Дилова Наргиза Гайбуллаевна*, доктор педагогических наук (DSc), профессор, Бухарский государственный университет  
*Сохибов Акрам Рустамович*, кандидат педагогических наук, доцент, Каршинский государственный университет  
*Умаров Бахтиулло Джурраевич*, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт  
*Хасанова Гулноз Касимовна*, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт  
*Иноятлов Абдулло Шодиевич*, доктор философских наук (PhD) по педагогическим наукам, доцент, Бухарский государственный университет  
*Давронов Нурзод Исмоилович*, PhD по педагогическим наукам, доцент, Бухарский государственный педагогический институт

#### Психология

- Умаров Бахриддин Мингбаевич*, доктор психологических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет  
*Бафиев Мухиддин Мухаммадович*, PhD по психологическим наукам, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

#### Экономика

- Куролов Кобулжон Кулманович*, доктор экономических наук, профессор, Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова  
*Маманазаров Абдухаким Бозорович*, доктор педагогических наук (DSc), доцент, Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова

#### Философия

- Намозов Бобир Бағриевич*, доктор философских наук, Бухарский государственный университет

#### Биология

- Артикова Хафиза Тоймуродовна*, доктор биологических наук, профессор, Бухарский государственный педагогический институт

# EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

## MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL

- Risboy Haydarovich Djuraev**, doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan  
**Rustambek Temirovich Shamsutdinov**, professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences  
**Inom Urushevich Majidov**, doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.  
**Kahramon Tanzilovich Olimov**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen  
**Zokirkhoja Abdusattorovich Tadjikhodjaev**, doctor of Technical Sciences, Professor  
**Oyniso Musurmonova**, doctor of pedagogical sciences, professor  
**Rohat Gaybulloevna Safarova**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.  
**Kholboy Ibragimovich Ibragimov**, doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

## MEMBERS OF EDITPRIAL COUNCIL

- Ekaterina Iosifovna Artamonova**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences  
**Irina Evgenyevna Emelyanova**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia  
**Galina Anatolevna Kuzmenko**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health  
**Bozor Safaralievich Safaraliev**, doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy  
**Vladimir Vasilevich Kulishov**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine  
**Irina Rudolfovna Lazarenko**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia  
**Okšana Gennadevna Filippova**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia  
**Christo Kyuchukov**, doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany  
**Mikhail Ivanovich Kumskov**, doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University  
**Sergey Dmitriyevich Maksimenko**, academician, doctor of psychological sciences, professor. Academician of the National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine  
**Oleg Semenovich Padalka**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine  
**Tursun Hazretili**, doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi  
**Khuzhaugli Timur**, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)  
**Hatunoğlu Nurettin**, Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)  
**Mullojanov Sayfullo Kuchakovich**, doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan  
**Gushko Sergey Vladimirovich**, doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukrain

## SCIENTISTS OF UZBEKISTAN

### History

- Azamat Ziyov**, doctor of Historical Sciences, Academician, director of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Rajabov Kakhramon Kenjayevich**, doctor of Historical Sciences, Professor; main researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan

### Philology

- Majidova Rano Urishevna**, doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages  
**Sharipova Laylo Frunzeyevna**, professor, Doctor of Philology. Bukhara State University  
**Nigmatova Lolaxon Xamidovna**, doctor of Philology. Bukhara State University  
**Yusupova Khilola Oktamovna**, candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute  
**Akramova Surayo Renatovna**, doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

### Pedagogy

- Tolipov Utkir Karshiyevich**, doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.  
**Olimov Shirinboy Sharofovich**, doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University  
**Tilavova Matlab Muhammadovna**, candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute  
**Dilova Nargiza Gaybullayevna**, doctor of pedagogical sciences (DSc), Professor. Bukhara State University  
**Sohibov Akram Rustamovich**, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University  
**Umarov Bakhshullo Djurayevich**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute  
**Khasanova Gulnoz Kasimovna**, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Bukhara State Pedagogical Institute  
**Inoyatov Abdullo Shodievich**, doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University  
**Davronov Nurzod Ismoilovich**, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

### Psychology

- Umarov Bakhridin Mingbayevich**, doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University  
**Bafaev Muhiddin Mukhamadovich**, PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

### Economy

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich**, doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov  
**Mamanazarov Abdukhakim Bozorovich**, doctor of pedagogical sciences (DSc), associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov

### Philosophy

- Namozov Bobir Baxriyevich**, doctor of Philosophy. Bukhara State University

### Biology

- Artikova Khafiza Tuymurodovna**, doctor of Biological Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

### SOVET DAVRIDA DAVLATNING XRISTIAN CHERKOVLARIGA NISBATAN SIYOSATI (SAMARQAND VILOYATIDAGI CHERKOVLAR MISOLIDA)

*Abduvohidov Dilshod Narbotirovich, PhD doktorant,  
Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston.*

*Annotatsiya. Sovet davri Turkistonda, jumladan, Samarqand viloyatida madaniy va diniy merosga bo'lgan munosabatning shakllanishida muhim davrlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda yangi siyosiy tuzumning shakllanishi va ateistik qarashlarning kuchayishi natijasida diniy tashkilotlar, jumladan, xristian cherkovlari faoliyatiga jiddiy cheklovlar qo'yildi. Ushbu maqola Sovet davrida Samarqand viloyatidagi xristian cherkovlariga nisbatan olib borilgan siyosatni o'rganishga qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: xristian cherkovi, Sovet Ittifoqi, Samarqand viloyati, Turkiston, Samarqand viloyati arxivi, Turkiston general-gubernatorligi arxivi, bolsheviklar.*

*Аннотация. Советский период считается одним из важнейших периодов в формировании отношения к культурному и религиозному наследию в Средней Азии, в том числе в Самаркандской области. В этот период формирование новой политической системы и рост атеистических взглядов привели к серьезным ограничениям деятельности религиозных организаций, в том числе христианских церквей. Целью данной статьи является изучение политики, проводимой в отношении христианских церквей в Самаркандской области в советское время.*

*Ключевые слова: Христианская церковь, Советский Союз, Самаркандская область, Туркестан, архив Самаркандской области, Туркестанский генеральный губернаторский архив, большевики.*

*Abstract. The Soviet era is considered one of the most important periods in the formation of attitudes towards cultural and religious heritage in Central Asia, including the Samarkand region. During this period, as a result of the formation of a new political system and the strengthening of atheistic views, serious restrictions were imposed on the activities of religious organizations, including Christian churches. This article is aimed at studying the policy pursued towards Christian churches in the Samarkand region during the Soviet era.*

*Keywords: Christian Church, Soviet Union, Samarkand region, Turkestan, Samarkand region archive, Turkestan general governorate archive, Bolsheviks.*

*Kirish. Sovet davri tarixi turli din va konfessiyalarga nisbatan davlatning murakkab va ko'p qirrali siyosatini o'rganish uchun boy mavzularga to'la. Xususan, xristian cherkovlariga bo'lgan munosabat ushbu davrning diniy va ijtimoiy hayotini tahlil qilishda muhim o'rinni egallaydi. Sovet davlati diniy tashkilotlarni boshqarish va ularga cheklovlar joriy qilish orqali jamiyatning dunyoviy xarakterini kuchaytirishga intilgan. Shu nuqtayi nazardan, Samarqand viloyatidagi pravoslav cherkovlarining faoliyati va ular bilan bog'liq siyosiy jarayonlarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Samarqand, Markaziy Osiyoning tarixiy markazlaridan biri sifatida, turli madaniyatlar va dinlarning uchrashuv nuqtasi bo'lib kelgan. Xristianlikning ushbu mintaqadagi rivojlanishi ham uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, pravoslav cherkovlari Sovet davrida ham muhim ahamiyatga ega edi. Ammo ushbu davrda davlatning qattiq nazorati va ateistik siyosati sababli cherkovlar faoliyatida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Cherkov binolarining musodara qilinishi, ularning boshqa maqsadlarda ishlatilishi va diniy hayotga nisbatan ta'qiblar – bularning barchasi*

Sovet siyosatining Samarqand viloyatidagi xristian jamoalariga ta'sirini o'rganishga zamin yaratadi. Mazkur tadqiqotda Sovet davrida davlatning xristian cherkovlariga nisbatan olib borgan siyosati Samarqand viloyatida joylashgan pravoslav cherkovlari misolida chuqur o'rganiladi. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishi Sovet davrida davlat va din munosabatlarining xususiyatlarini aniqlashda hamda Samarqand viloyatining tarixiy merosini yanada boyitishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Sovet davrida davlatning xristian cherkovlariga nisbatan munosabatini o'rganishda turli tarixiy hujjatlar, qonunlar, dekretlar, ilmiy maqolalar va asarlar tahlil qilinadi. Ushbu bo'limda asosiy adabiyotlar va manbalarga oid qisqacha sharh beriladi:

Sovet Ittifoqi Konstitutsiyasi (1918-yil). Ushbu konstitutsiya diniy tashkilotlarni davlatdan ajratish bo'yicha birinchi qonuniy asosni yaratgan. Unga ko'ra, barcha diniy tashkilotlar huquqiy maqomdan mahrum qilindi va davlat mulkiga aylantirildi.[1] Ushbu hujjat butun mamlakatda bo'lgani kabi Samarqand viloyatidagi cherkovlarning faoliyatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Turkiston general-gubernatorligi arxiv materiallari. Turkiston o'lkasidagi diniy tashkilotlarga nisbatan Sovet siyosatining olib borilishi ushbu arxiv hujjatlarida keng yoritilgan. Jumladan, xristian cherkovlarining milliy lashtirilishi, binolarining davlat ehtiyojlari uchun qayta ishlatilishi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.[2]

Samarqand viloyati arxivida diniy rahnamolar va tashkilotlarga nisbatan qatag'on siyosati haqida ko'plab hujjatlar saqlanadi. Bu hujjatlar orqali Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan repressiyalarni o'rganish mumkin.[3]

Ikkinchi Jahon urushi davridagi davlat va din munosabatlari haqida davlat qarorlari. Ushbu davrda mamlakatda diniy tashkilotlarga nisbatan qisqa muddatli yumshatish siyosati olib borildi. Qarorlar to'plami Samarqanddagi cherkovlarning qayta faoliyat boshlashi uchun imkoniyat yaratilgan davrni o'rganish uchun muhim manbadir.[4]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishi quyidagi metodlar asosida olib borildi:

Tarixiy manbalarni o'rganish. Tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor Sovet davri hujjatlari, arxiv materiallari, hukumat qarorlari va zamonaviy tarixiy tadqiqotlarga qaratildi. Samarqand viloyati arxivi, Turkiston general-gubernatorligi arxivlari va boshqa rasmiy manbalardan foydalanildi. Bu manbalar orqali cherkovlarning faoliyati, ularning musodara qilinishi va qayta tiklanishi haqida aniq ma'lumotlar yig'ildi.

Adabiyotlarni tahlil qilish. Ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa nashrlar tahlil qilinib, Sovet davridagi diniy siyosatning umumiy konteksti va Samarqand misolidagi o'ziga xos jihatlari aniqlab olindi. Bu esa tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamladi.

Kontekstual tahlil. Tarixiy voqealar va qarorlar kontekstida cherkovlarga nisbatan siyosatni tushunish uchun siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillar hisobga olindi. Sovet mafkurasi, ateizm siyosati va diniy erkinliklarga bo'lgan munosabat tahlil qilindi.

Kvalitativ yondashuv. Tadqiqotda asosiy ma'lumot sifatida sifatli tahlil usuli qo'llanilib, arxiv hujjatlari va adabiyotlarning mazmuni chuqur tahlil qilindi. Bu usul cherkovlarning faoliyati va ularning jamoat hayotidagi o'rnini aniqlashga yordam berdi.

Ushbu yuqoridagi metodologiyalar tadqiqotning ilmiy asosli va maqsadga muvofiq bo'lishini ta'minlab, Sovet davrida Samarqand viloyatidagi xristian cherkovlariga munosabatni keng va tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelib, sotsialistik jamiyatini qura boshlar ekan, nafaqat sinfsiz jamiyatni yuzaga keltirish uchun, balki barcha narsaga faqat o'z kuchi bilan erisha oladigan dinsiz, yo'qsullar mamlakatini barpo qilish maqsadida dinga qarshi ayovsiz kurash olib bordilar. Dinni inkor etuvchi dunyoqarash sifatida ateizm Sovet Rossiyasi va SSSRda davlat mafkurasining elementi sifatida rasman e'lon qilinmagan, lekin 1988-yilgacha davlatning siyosiy va mafkuraviy liberallasuvi amalga oshirilgunga qadar partiya va davlat organlari tomonidan faol qo'llab-quvvatlangan. Kommunistik partiya dohiysi Leninning dinga qarshi kurash haqidagi gapini hammaga ma'lum: "Biz dinga qarshi kurasha olishimiz kerak, buning uchun esa omma

orasida e'tiqod va dinning manbasini materialistik tarzda tushuntirishimiz kerak".[5] Davlat organlari ateizm targ'iboti ("ilmiy-materialistik dunyoqarash") bilan bir qatorda mamlakatda 1920—1930-yillarda ruhoniylar va diniy targ'ibotchilarni ommaviy qamoqqa olish va ta'qib qilishni amalga oshirdi. Shu bilan birga, uyushgan diniy hayotni butunlay yo'q qilish va dinga rasmiy taqiq qo'yish (masalan, Albaniyada bo'lgani kabi) SSSRda hech qachon sodir bo'lmagan va o'z tarixining ma'lum davrlarida SSSR rahbariyati hatto o'z siyosiy manfaatlarini ko'zlab, ba'zi konfessiyalarni qo'llab-quvvatlagan.

Samarqand viloyati o'zining geografik va madaniy jihatlari bilan Sovet Ittifoqi doirasida alohida mavqega ega bo'lgan hudud hisoblangan. Samarqand shahri va viloyatining tarixiy o'tmishi bu hududni turli dinlar, jumladan, xristianlikning muhim markazlaridan biriga aylantirdi. XIX asr oxirlarida Rossiya imperiyasi bosqini natijasida Samarqandda rus pravoslav cherkovlari faoliyat boshlagan. Ushbu cherkovlar birinchi navbatda imperiyaning turli hududlaridan kelgan ma'murlar va harbiylarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida qurilgan edi.

Umuman olganda, Sovet Ittifoqi tashkil topgach, yangi hukumat diniy tashkilotlarga nisbatan qat'iy siyosatni joriy qildi. Bu siyosatning asosi yuqorida ta'kidlangan ateistik mafkura bo'lib, u dinni «xalqning afyunidir» deb atadi va diniy tashkilotlarning faoliyatini cheklash, ularni davlat nazorati ostiga olishga qaratildi.[1] Turkistonda bo'lgani kabi Samarqand viloyatidagi xristian cherkovlari ham ushbu umumiy siyosat doirasida keskin bosimga duch keldi. Xususan, 1920-yillardan boshlab cherkovlar binolari ko'plab holatlarda musodara qilindi va ular davlat ehtiyojlariga moslashtirildi. Masalan, cherkovlar maktab, omborxonalar, yoki madaniy markaz sifatida qayta ishlatildi, bu esa diniy faoliyatning to'xtatilishiga sabab bo'ldi.[2] Ushbu jarayonlar cherkovlarning nafaqat binolariga, balki ularning jamiyatdagi roliga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Samarqanddagi cherkovlarda faoliyat yuritgan ruhoniylar va diniy rahnamolar ham qatag'on qilindi yoki qamoqqa olindi. Cherkovlarga tegishli ko'plab mulklar davlat nazoratiga o'tkazildi va ularning diniy vazifalari to'xtatildi. Ko'plab din arboblari hibsga olinib, sud qilindi yoki qamoq va surgunlarga yuborildi. Bu esa cherkovlarning ijtimoiy faoliyatini butkul to'xtatishga olib keldi. [3] Repressiyalar nafaqat diniy rahbarlarga, balki cherkovga faol tashrif buyuruvchi jamoalarga ham ta'sir qildi, natijada xristian jamoalarining faoliyati sezilarli darajada kamaydi.

Shuningdek, Sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan propagandalar orqali ateizm tinimsiz targ'ib qilindi, diniy marosimlar tanqid qilindi va diniy tashkilotlar ijtimoiy hayotdan chetlashtirildi. Bu esa cherkovlarga nisbatan nafaqat siyosiy, balki madaniy va ijtimoiy bosimlarni ham oshirdi. Sovet rejimi diniy urf-odatlarini yo'q qilish va yangi sovet fuqarosi obrazini yaratishga intildi. Bunday qat'iy siyosat Samarqand viloyatidagi xristian cherkovlarining an'anaviy faoliyatini deyarli to'xtatib qo'ydi va ularning hududdagi mavjudligini faqatgina arxitektura yodgorligi sifatida saqlanishiga olib keldi. Bu holat Sovet rejimining diniy va madaniy merosga bo'lgan murakkab munosabatini ochib beradi. Shu bilan birga, Sovet hukumati diniy tashkilotlarni cheklash bo'yicha umumiy siyosat yuritgan bo'lsa-da, Samarqand viloyatidagi cherkovlarga nisbatan olib borilgan qarshi siyosatida ma'lum hududiy sharoitlar ham rol o'ynadi. Masalan, Samarqandning uzoq tarixiy merosi sababli ba'zi cherkov binolarini to'liq vayron qilishdan voz kechilgan. Aksincha, ularning ayrimlari boshqa maqsadlarda foydalanish uchun qayta moslashtirildi.[3]

Ikkinchi Jahon urushi davrida Sovet hukumatining diniy siyosatida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Urushning murakkab va inqirozli sharoitida davlat diniy tashkilotlarga nisbatan qat'iy ta'qiblardan vaqtinchalik voz kechdi. Bu o'zgarishlar Sovet qo'shinlari urush maydonida qo'shma milliy birlikni ta'minlash zarurati bilan bog'liq edi va diniy e'tiqodlarni rag'batlantirish orqali xalqning ruhiy kuchini oshirish maqsad qilingan edi.[4] Samarqand viloyatida ham bu siyosat o'z aksini topdi. Urush yillarida viloyatdagi xristian cherkovlariga cheklangan, ammo ruxsat etilgan darajada faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Cherkovlar ma'lum darajada ochildi, diniy xizmatlar o'tkazildi va ruhoniylarga ma'lum erkinliklar berildi.[6] Bu davrda cherkov jamoalari o'z faoliyatini qayta boshlashga harakat qildi, garchi ularning faoliyati hali ham qattiq nazorat ostida bo'lgan. Biroq, bu qayta faollashuv uzoq davom etmadi. Urush tugagach, Sovet

hukumati diniy tashkilotlarga nisbatan yana qat'iy nazoratni tikladi va cheklovlarni kuchaytirdi. Samarqanddagi cherkovlar faoliyatining ko'p qismi yana to'xtatildi yoki juda cheklangan shaklda davom ettirildi.[3] Bu davr Sovet diniy siyosatining o'zgaruvchan va mantiqiy jihatdan murakkab tabiatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, urush davrida cherkovlarning qisqa muddatli qayta faollashuvi xristian jamoalarining o'z-o'zini saqlab qolish va diniy an'analarni davom ettirish imkoniyatini yaratdi. Bu jarayon Samarqand viloyatidagi diniy madaniyatning qisman tiklanishiga xizmat qildi va kelajakda cherkovlarning madaniy meros sifatida saqlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Sovet davrida diniy tashkilotlarga nisbatan siyosat juda qat'iy bo'lganiga qaramay, ba'zi xristian cherkovlari o'zining arxitektura va madaniy ahamiyatini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Samarqand viloyatidagi cherkovlar nafaqat diniy faoliyat markazlari sifatida, balki madaniy va tarixiy yodgorliklar sifatida ham e'tirof etildi.[7] Cherkovlarning qisman saqlanishi ularning madaniy meros sifatidagi qadriyatini hukumat tomonidan tan olish bilan bog'liq edi. Bu esa ularning tarixiy muhitda saqlanishiga, o'rganilishiga va kelajak avlodlarga yetkazilishiga imkon yaratdi.[8] Bundan tashqari, cherkovlarning me'moriy uslubi va bezaklari o'zining noyoblighi bilan ajralib turardi. Ko'plab cherkovlar neoklassik va rus pravoslav an'alariga mos arxitektura elementlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, ular madaniy va tarixiy tadqiqotlarda muhim ob'ekt sifatida qabul qilindi.[7] Shuning uchun ularning buzilishi yoki yo'q qilinishi hukumat uchun qimmatbaho madaniy boylikning yo'qolishi sifatida baholangan. Sovet davrining oxirgi yillarida, madaniy merosga bo'lgan e'tibor kuchayib, cherkov binolari tarixiy yodgorlik sifatida ro'yxatga olinib, himoyalaniishi ta'minlandi. Bu jarayon, ayniqsa, Samarqand kabi qadimiy shaharlar uchun muhim bo'lib, u yerda turli millat va dinlarga mansub madaniy obidalar mavjud edi.[9] Bu holat Sovet hokimiyatining diniy e'tiqodni cheklashga qaratilgan qattiq choralari fonida cherkovlarning qisman saqlanishi ularning madaniy va tarixiy ahamiyatining tan olinishining yorqin namunasi hisoblanadi.

Xulosa. Sovet davrida Samarqand viloyatidagi xristian cherkovlariga nisbatan munosabat o'z ichiga keskin repressiv choralarni olgan bo'lsa-da, ushbu siyosatni hududning madaniy va tarixiy o'ziga xosliklari ta'siri ostida bir qadar murakkab holatda deb baholash mumkin. Cherkovlarning milliy lashtirilishi va ularning diniy vazifalari to'xtatilishi davlatning diniy tashkilotlarga qarshi qat'iy siyosatini aks ettiradi. Shu bilan birga, hududdagi ba'zi cherkovlar butunlay yo'q qilinmadi, balki boshqa maqsadlarda foydalanildi yoki tarixiy obidalar sifatida saqlanib qoldi. Umuman olganda, davlatning xristian cherkovlariga nisbatan olib borilgan siyosatini tahlil qilish Sovet davridagi diniy siyosatning murakkab jihatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu tahlil madaniy va tarixiy obidalarining saqlanib qolishi bilan bog'liq masalalarni hamda Sovet tuzumining din bilan bog'liq munosabatlarini tushinishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

- Sovet Ittifoqi Konstitutsiyasi, 1918-yil;  
Turkiston general-gubernatorligi arxiv materiallari, fond 35, ro'yxat 6, hujjat 12;  
Samarqand viloyati arxivi, fond 50, ro'yxat 4;  
Ikkinchi Jahon urushi davridagi davlat va din munosabatlari haqida davlat qarorlari, 1943-yil;  
Об отношении рабочей партии к религии (13 (26) мая 1909 г.). Ленин В. И. Полное собрание сочинений. — 5-е изд. — М.: Издательство политической литературы, 1964—1981.  
Samarqand viloyati arxivi, fond 50, ro'yxat 7.  
Samarqandning madaniy merosi, 1985-yil.  
Samarqand viloyati arxivi, fond 60, ro'yxat 9.  
Samarqand viloyati arxivi, fond 60, ro'yxat 12.

## АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИДА ТУТГАН ЎРНИ

Жамолова Дилноза

ФА Тарих институти директорининг илмий ишлар бўйича ўринбосари, тарих фанлари  
доктори

*Аннотация: Туркистон жади́дчилик ҳаракатининг ёрқин намояндаларидан бири Абдулла Қодирийнинг болалиги, оиласи, таълими, жади́д матбуоти ривожига қўшган ҳиссаси, ёзувчилик ва таржимончилик фаолияти, большевикларнинг зўравонлик, иккиюзламачилик, босқинчилик сиёсатига қарши дадил ҳаракатлари ҳамда қатагон қилиниши ҳақида маълумот берилади.*

*Калит сўзлар: жади́д, таълим, газета, журнал, маърифий кеча, драма, матбуот, таржима, бадиий асарлар, қатагон.*

## РОЛЬ АБДУЛЛЫ КАДИРИ В ТУРКЕСТАНСКОМ ДЖАДИДСКОМ ДВИЖЕНИИ

Джамолова Дилноза

Заместитель директора Института истории Академии наук по научной работе,  
доктор исторических наук

*Аннотация: В статье представлена информация о детстве, семье и образовании одного из ярких представителей движения джадидов в Туркестане — Абдуллы Кадири, о его вкладе в развитие джадидской печати, писательской и переводческой деятельности, о его смелых действиях против политики насилия, двуличия и захвата, проводимой большевиками, а также о его репрессировании.*

*Ключевые слова: джади́д, образование, газета, журнал, просветительский вечер, драма, печать, перевод, художественные произведения, репрессии.*

## THE ROLE OF ABDULLA QADIRI IN THE TURKESTAN JADIDISM MOVEMENT

Jamolova Dilnoza

Deputy Director for Research at the Institute of History, Doctor of Historical Sciences

*Abstract: This article provides information about the childhood, family, and education of Abdulla Qadiri, one of the prominent figures of the Turkestan Jadidism movement. It also discusses his contributions to the development of Jadid press, his work as a writer and translator, his courageous resistance against the Bolshevik regime's policies of violence, hypocrisy, and occupation, as well as his repression.*

*Keywords: Jadid, education, newspaper, magazine, educational evening, drama, press, translation, literary works, repression.*

Абдулла Қодирий Туркистонни Россия империясидан кутқариш, миллий давлатчиликни тиклаш ишига ўзини бағишлаган толмас ва кўркмас курашчи. Жади́дчилик миллий ҳаракатининг йирик ва ёрқин вакили. Илмий ва маърифий юксалиш ғояларини олға сурган буюк шахс. Ўзбек романчилигининг асосчиси бўлиб ҳисобланади.

Абдулла Қодирий 1894 йил 10 апрелда Тошкент шаҳри “Самарқанд Дарвоза” маҳаласида туғилган. Ўғли Ҳабибулла Қодирий тергов кўрсатмасида отасининг туғилган йилини 1892 ёки 1893 йили, яна бир ўғли Маъсуд Абдуллаев 1895 йил ёки 1897 йили деб айтган. Отаси Қодирмуҳаммад (1821–1924) тошкентлик Ҳожимуҳаммаднинг иккинчи ўғли бўлиб,

Тошмуҳаммад ва Хайринисо исмли акаси ва синглиси бўлган. Йигитлик пайти савдо ишлари билан шуғулланган. 1870 йиллардан умрининг охиригача Самарқанд дарвозада 0,5 гектардан каттароқ боғда боғдорчилик билан шуғулланган. Фарзанд кўрмаганлиги сабабли 3 марта уйланиб, ажрашган, тўртинчи марта тошкентлик Азизбойнинг қизи Жосиятга (1862 – 1936) уйланган. 15 та фарзанд кўрганлар, аммо улардан фақат 3 таси яшаб қолган: Раҳимберди (1879 – 1963), Абдулла (1894 – 1938) ва Қудратилла (1898 – 1956) [1; 7].

Абдулла Қодирий таржимаи ҳолида оилавий шароити ҳақида куйидагиларни ёзган: “Бошида бой оилада туғилдимми ёки камбағал оиладами, албатта билмадим: Аммо ёшим етти-саккизга етгач, қорним ошга тўймаганидан аниқ билдимки, беш жоннинг томоғи фақат саксон ёшли бир чол отамнинг меҳнатидан, 1300 саржин (ярим гектардан кўпроқ ер) боғнинг ёзда етиштириб берадиган ҳосилидан келар экан. Агар баҳор ёмон келиб, боғ мевалари офатга учраб қолса, биз ҳам очликка дуч келиб, қиши билан жаврашиб чиқар эканмиз...” [2; 3].

Абдулла Қодирий 1914 йили Расулмуҳаммадбойнинг катта қизи Раҳбаройга (1897 – 1943) уйланган. Улар 5 та фарзандни вояга етказганлар: Назифа (1916 – 1987), Ҳабибулла (1918 – 1988), Адиба (1924), Масъуд (1926 – 1997) ва Аниса (1928).

Абдулла Қодирий мактаб ёшига етгач, дастлаб эски мактабда бошланғич билимни олган. Мактабда икки йилча ўқиган Абдулла Қодирийни ота-онаси 12 ёшида мактабдан олиб тошкентлик ишбилармон Расулмуҳаммадбой хонадонига хизматчиликка берганлар. Расулмуҳаммадбой Абдулла Қодирийдаги истеъдод ва қобилиятни англаб, русча ўқиш-ёзишни биладиган кишига эҳтиёжи борлиги сабабли уни рус-тузем мактабида ўқитган [1; 8]. 1908 – 1912 йиллари рус-тузем мактабида таҳсил олган Абдулла аъло баҳоларда ўқигани учун Туркистон генерал-губернатори Самсонов томонидан кумуш соат билан тақдирланган. Мактабни тугатгач, Расулмуҳаммадбой унга мирзалик ишларини топширган. Абдулла Қодирий мирзалик қилиш билан бир пайтда рус, араб, форс ва турк тилларини мукаммал ўрганган. Расулмуҳаммадбой хонадонига ташриф буюрувчи зиёлилар билан танишиб, унда ҳам илмга рағбат пайдо бўлган. 1914 йили 1916 – 1917 йиллари Абулқосим мадрасасида ўқиган.

Абдулла Қодирийнинг кайнотаси уйда тез-тез илмий ва маърифий йиғинлар бўлиб, унда жадидлар асосий иштирокчилардан бўлганлар. Йиғинларда “Садойи Туркистон”, “Ойна”, “Самарқанд”, “Турон” каби газета ва журналлар ўқиб муҳокама қилинган. Абдулла Қодирий шундай муҳит таъсирида ижодга кириб келганини эътироф этган: “Садойи Туркистон”, “Самарқанд”, “Ойна” чиқа бошлагач, менда шуларга гап ёзиб туриш фикри уйғонди. 1913 йилда чиққан “Падаркуш” таъсирида 1915 йили “Бахтсиз куёв” деган театр китобини ёзиб юборганимни ўзим ҳам пайкамай қолдим” [1; 8]. Асарда ҳашаматли тўй, ортиқча сарф-харажатлар ва уларнинг аянчли оқибатлари кўрсатиб берилган. Қизини узатаётган отасининг чексиз орзу ҳаваслари уйланаётган йигитни боши берк кўчага киритиб қўяди. Фоизини бериш эвазига катта қарз олиб тўй қилган куёв уни тўлай олмаслиги оқибатида тўйдан олти ой ўтиб ўз жонига қасд қилади. Эри ўз жонига қасд қилгач, келин ҳам ўзини ўлдиради. Бу ҳашаматларга бошидан қарши чиққан элликбоши ушбу фожиа содир бўлгач, халққа мурожаат қилади: “Шариати мустафога бўйсунинглар, энди кўзларингизни очинглар. Бидъат тўйга исроф бўладурган ақчага ўғилларингизни ўқитинглар, ёки жамияти хайрияга иона қилинганлар. Ўғил ўқитмоқ яхши ҳам фарздир, тўйга исроф қилмоқ бидъатдир” [3; 117-118].

“Бахтсиз куёв” пиесаси 1919 йили “Изчилар” тўдасининг “Кўштут қўли” томонидан саҳналаштирилган ва намойиш этилган [4]. Аммо саҳна кўриниши оммалашмаган ва шухрат қозонмаган.

Абдулла Қодирийнинг “Янги масжид ва мактаб” илк мақоласи “Садойи Туркистон” газетасининг 1914 йил 5 ноябр сонида эълон қилинган. Унда тошкентлик бир бойнинг масжид ёнида 3 хонали усули жадид мактаби қурдирганини эътироф этади [5]. Шу газета

бир нечта шеърлари ҳам эълон қилинган тараққийпарварнинг дастлабки чиқишлари миллатпарварлик, маърифатпарварлик руҳида ёзилган. Муаллиф жаҳолатни қоралаб, илм ўрганиш зарурат эканлигини таъкидлайди, миллатни огоҳликка чорлаб, уйғоқлик ва фикрлашга даъват этади.

1917 йил февралда Россияда императорнинг тахтдан воз кечиши натижасида Туркистонда содир бўлган ижтимоий-сиёсий жараёнлар Абдулла Қодирийнинг давлат идораларида фаолият юритишига тurtки берган. У халқ милициясига кўнгилли бўлиб ишга кирган. Шу билан бирга “Нажот” газетасида ҳам ҳикоялар эълон қилиб борган. Жумладан, газетанинг 1917 йил март сонисида эълон қилинган “Шодмарг” ҳикоясида мавжуд тузумнинг инсонларнинг ижтимоий аҳволига таъсири масаласи очиқланган. Ҳикоя қаҳрамони Мулла Карим ҳожи қозиларнинг порахўрлигини танқид қилгани учун юқори ташкилот томонидан қамоққа олинган ва орадан 5 ой ўтгач, тергов қилинган. “Мундай ҳукуматни такроран золим ва ҳукумат тарафидан қўйилган маъмурларни золим ёрдамчилари” дегани учун дастлаб ўлим жазосига ҳукм қилинган, суд қарори билан ҳукм ўзгартирилган ва 15 йиллик сургунга алмаштирилган. 15 йиллик жазони ўтаган Мулла Карим жамоат ишларига аралашмаслик шarti билан Ватанига қайтарилган. 1917 йил феврал воқеаларидан кейин Туркистон жадидларининг мухториятчилик ҳаракатларини эшитиб хурсанд бўлган ва “Хуррият” сўзини айтиб вафот этган [6; 34-35]. Абдулла Қодирий бу ҳикояси орқали чор ҳукуматининг кирдикорларини фoш қилар экан, 1917 йил мартада содир бўлган воқеаларга катта умид билан қарайди.

1918 йили Эски шаҳар озиқ комитетида саркотиб сифатида фаолиятини бошлаган. 1919 йили ушбу комитетнинг даврий нашри “Озиқ ишлари” газетаси чиқа бошлагач, Абдулла Қодирий газета муҳаррири этиб тайинланган. Кейинчалик “РосТА” деворий газетасида мухбир, “Иштирокиюн”, “Қизил байроқ” газеталарида ходим, “Муштум” журнали муанниси (тузувчи) ва таҳририят аъзоси сифатида 1924 йилгача меҳнат қилган. Ушбу газета ва журналларда 1923 йилгача 50 дан ортиқ мақолалари ва кичик асарлари тўплами чоп қилинган. Мақола ва асарларини асосан “Жулқунбой” тахаллуси билан ёзган. Абдулла Қодирий ижодий фаолияти давомида йигирмадан ортиқ, жумладан, Жирийинбой, Жулбой, Убай, Бойкуш, Индамас сўфи, Думбулбой ўғли, Думбулбой девона, Шаккок каби тахаллуслардан фойдаланган [7; 16].

Абдулла Қодирий даврий матбуотдаги чиқишларидан бирида аскарлик, ҳарбий иш бўйича ўз қарашларини илгари сурган. Узининг “Иштирокиюн” газетасининг 1919 йил 4 ноябр сонисида чоп қилинган “Бизда аскарлик масаласи” мақоласида миллий кўшин масаласини кун тартибига қўйган: “Бошқалар тарафидан ҳуқуқининг топталмови, четларга маҳкум, мазлум бўлмаслик, чет миллатларга ўз товушини эшитдируб эшитмоққа мажбур этувга шубҳа йўқким, кўлингдаги қуролингга, аскарлий кучингга қараб бўлур” [8].

Европа ва Америка ҳарбий соҳани ривожлантириб, Шарқ мамлакатларини босиб олгани ва ҳарбий куч билан уларни мустамлака зулми остида сақлаётганини таъкидлайди. Аскар йўқлиги ва қуролсизлик туфайли Туркистон халқи ҳам шу ҳолатга тушиб қолганидан афсусланган. Миллий кўшин тузишнинг долзарб эканлигини кўшни Афғонистондаги вазият билан кўрсатиб беришга ҳаракат қилган: “Бунинг учун далил қилиб афғон қариндошларимиздан кўрсатилса мумкиндирки, афғон халқи ҳозирда ва мундан элли-олтмиш йил илгарида ҳам маданиятча биз туркистонлилардан ортиқ бўлмай юрар эди. Лекин бошқа маданий миллатларнинг тахт ҳокимиятига ўткани йўқдир. Бу нимадан эди?.. Кўз олдимиздирким, шу маданиятсиз афғон халқи бутун дунёга ҳокимлик даъвосига етишган Англиядан ўзининг озгина ҳарбий кучи ила ўз тилагини имзо этдирди” [8].

1918 йил апрелда тузилган Туркистон АССР ҳукуматида 1919 йилдан миллий кадрлар ҳам ўз фаолиятини бошлагани кўзга ташланади. Улар олдида турган муҳим масалалардан бири армия тузиб, мудофаа тизимини жорий қилиш бўлган. Аммо йигитлар армияга

боришдан бош тортиб, мудофаа ишида иштирок этишни хоҳламаганлар. Абдулла Қодирийни туркистонликларнинг аскарликдан қочишга ҳаракат қилаётгани ранжитади: “Аммо биз Туркистон ишчиларига келганда оғзимизга қўюлган тайёр ошни ҳам эблаб ичолмаймиз. Курол, кийим, жой ва овқат ҳозир бўлган ҳолда аскар бўлувдин фарсахларча йироқга қочамиз...” [8].

1922 йили “Инқилоб” журналида “Ўткан кунлар” романининг дастлабки бобларини чоп эттирган. Ушбу асар 32 ёшни қаршилаган Абдулла Қодирийга катта муваффақият олиб келган, адабиётшунослар томонидан эътироф этилган. Абдурахмон Саъдий, Неъмат Ҳаким, Вадуд Маҳмуд, Қаюм Рамазон, Али Исмоилзодалар бир овоздан Абдулла Қодирийни моҳир адиб деб тан олганлар [9]. Айниқса, адабиётшунос Абдурахмон Саъдий томонидан Абдулла Қодирийнинг 6 йиллик ижоди ва “Ўткан кунлар” романига ижобий баҳо бериши диққатга сазовордир: “Ҳикоялар ва айниқса, ҳажвий ҳикоялар ёзмоққа кўп усталик кўрсатувчи кучли ёш инқилобий ўзбек адиби Жулқунбой (Абдулла Қодирий) ҳам олти йиллик даврида ўзбек шеърий адабиётининг кўтарилишида катта бир омил бўла олади. Бу шеърий талант “Инқилоб” журналида босилиб кетган “Ўткан кунлар” деган рўмони билан ўзбек шеърий адабиёт майдонида рўмон ёзувчиликнинг биринчи қадамини босиб юборди” [10].

Кейинчалик бу асар миллий ва рус адиблари томонидан нотўғри танқид қилинган бўлса-да, туркий халқлар, жумладан, татарлар, озарбойжонлар ва бошқалар томонидан илиқ кутиб олинди. Роман 1931 йили Озарбойжонда ўзбек тилшуноси Холид Саид ҳамда ўзбек журналчиси Абдулла Қамчинбек томонидан озарбойжон тилига таржими қилинган ва нашр қилинган [11; 278].

Абдулла Қодирий 1924 йили Москвага СССР давлат журналистлар институтида таҳсил олиш учун жўнаб кетади, аммо оилавий шароити туфайли бир йилдан кейин Тошкентга қайтиб келган ва “Муштум” журналида фаолиятини давом эттирган. Журналнинг 1926 йил 2-сонида “Овсар” таҳаллуси билан “Йиғинди гаплар” мақоласини нашр қилдирган. Унда совет ҳокимиятининг кирдикорларини Йўлдош Охунбобоевнинг савиясиз маърузаси орқали аёвсиз фош қилган. Унинг таълим тизими ҳақидаги фикрларни таҳлил қилар экан, Ўзбекистонга, ўзбек халқининг саводли бўлишига душман кишининг қарашлари деб баҳолайди. Йўлдош Охунбобоевнинг “Жумҳуриятимизда ҳар 200 мурассаъ чақирим ерга, ёхуд ҳар 4909 одамга битта мактаб бор. Ёки ўқиш ёшида бўлган болаларнинг ҳар (эмас, хўтук) 979 тасига бир мактаб тўғри келадир!” деган сўзларидан нафратини яширмайди: “Ана бу мияси ачимаганнинг гапига қаранг энди! Худога шукр, қорнинг тўқ, қайғунг йўқ, бас, тинчкина фаройизхонлик қилмасдан оқсоқоллиғингни қилаверсанг бўлмайдим, уста Йўлдош!” [12; 2-3].

Абдулла Қодирий айнан шу мақоласи учун ҳукумат раҳбарларини обрўсизлантиришда айбланган ва терговга тортилган. Уч ойлик терговдан сўнг, Ўзбекистон ССР Олий суди жиноят ишлари ҳайъатининг 1926 йил 16 июндаги ҳукми билан, Абдулла Қодирий Ўзбекистон ССР Жиноят кодексининг 73-моддасида (контрреволюцион характерга эга адабиётларни тарқатиш ва тарқатиш мақсадида тайёрлаш, саклаш) назарда тутилган жиноятни содир этганликда айбли деб топилиб, 2 йил муддатга озодликдан маҳрум қилиш жазоси тайинланган. Бироқ, Ўзбекистон ССР Марказий ижроқўми Раёсатининг 1926 йил 17 июндаги қарорига асосан адиб жазодан озод этилган [13; 153].

Ушбу воқеадан сўнг, Абдулла Қодирий журнал таҳририятига ишга бормай қўяди ва ўзининг иккинчи буюк асари “Меҳробдан чаён”ни ёзиб тугаллайди. Аммо китобни чоп этишда бир қатор тўсиқларга учрайди. Чунки китоб гўё муҳаббат ҳақида ёзилган бўлса-да, аслида жамиятдаги муаммоларни очикчасига кўрсатишни мақсад қилган эди. Абдулла Қодирий бу асарни нашр қилиш учун жиддий киришиб, Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи котиби Акмал Икромов билан учрашган. Акмал Икромов асар қўлёзмасини ўқиб кўриб, устига босилсин, деб имзо қўйган. Шундан сўнг китоб, 1928 йили нашр қилинган [2; 5].

Ота касбини пухта эгаллаган Абдулла Қодирий 1930 йили боғ яратади. Шаҳарнинг таникли усталари боғ ўртасида икки қаватли шийпон қурадилар. Шийпоннинг биринчи қавати қишин-ёзин ҳавоси мўътадил, қўш деразали, катта эшикли ҳаводор уй бўлиб, иккинчи қавати ўнта ғиштин устунлардан иборат бўлган. Шийпон халқ орасида “Жулқунбой шийпони”, “Абдулла Қодирий боғи” номи билан машҳур бўлган. Ўша пайтда олимлар, адиблар, санъаткорлар шу шийпонда йиғилиб, суҳбатлар, мушоиралар ўтказганлар [2;6].

1931 – 1932 йиллари Ёзувчилар уюшмаси томонидан Абдулла Қодирий ва бошқалар Ўзбекистон ССРнинг турли шаҳар ва қишлоқларига хизмат сафарига юборилган. Абдулла Қодирий Қўқон шаҳрида Мирзойи Қўқондий деган киши билан учрашган. У Қодирийга Худоёрхоннинг ўғли Ўрмонбек ва Андижон ҳокимининг расмини, Умархон ва Мадалихон даврига оид Ўратепа ҳокими Ҳакимбек тўра томонидан ёзилган ва қайта кўчирилган қўлёзма асарни тақдим қилган. Абдулла Қодирий Умархон даврига оид асар ёзиш ҳаракатида юрганлиги сабабли бу расмларга қизиқиш билдирган. Шериклари суратлар Умархондан 50 йил кейин яшаган шахсларга оидлигини айтиб, қизиқиши сабабини сўраганларида Қодирий расмлар ўша давр кишиларининг аҳволи, руҳияти ва кийимлари ҳақида бирмунча тасаввур олиш имконини беришини айтади [14; 17]. Ҳатто расмларни олиб Андижонга борган ва Умархоннинг авлодларини излаб топган.

Абдулла Қодирийга сафдошлари, асарларининг мухлислари “фақат тарихий мавзуларда ёзасиз, ҳозирги давр, завод-фабрика ҳаётидан ёзмайсиз” деганларида, “Мен завод-фабрика ҳаётини яхши билмайман, балки келажакда бу соҳалар ҳам менда қизиқиш уйғотар” деб жавоб берган [14; 24].

Абдулла Қодирий 1932 йили бир неча ўзбек адиблари бирга Москвада Бутуниттифоқ ёзувчилари уюшмасининг Ташкилий қўмитаси мажлисида қатнашади. 1934 йили Москвада бўлиб ўтган Бутуниттифоқ ёзувчилари уюшмасининг 1-қурултойида иштирок этади. 1936 йил июлда Қозон шаҳрида Татаристон ёзувчиларининг биринчи қурултойида қатнашади [6; 10-11].

Абдулла Қодирий калами ўткир ёзувчи, қўрқмас ва толмас адиб бўлгани учун ҳукумат раҳбарларининг доимий эътиборида турган. Ҳукумат раҳбари Файзулла Хўжаев Абдулла Қодирийни уч-тўрт марта чақиртириб, ундан колхозчилар ҳаёти ҳақида асар ёзиб беришини сўраган [14; 47]. Колхоз ҳаётига оид янги асар ёзиш учун Тошкент атрофидаги қишлоқларга бориб, колхозлар ҳаётини ўрганади [6; 13]. Ушбу ўрганишлар натижаси ўлароқ 1932 – 1934 йиллари “Обид кетмон” қиссасини ёзади. Муаллиф асар қаҳрамони Обид орқали ўша даврнинг ижтимоий ҳаётини ҳаққоний очиб беришга ҳаракат қилган. колхозлар одамларнинг ташаббускорлиги, шахсий эғалик, манфаатдорлик туйғуларини йўқ қилиб юборишини уқтирган [11].

Абдулла Қодирий А. Чеховнинг “Буқаламун” ҳикояси, “Олчазор” асарини, Гоголнинг “Уйланиш” пиесаси, Д. Дидронинг “Роҳиба” (парча), А. Доденинг “Саодатли Августиннинг азиз дуоси”, Э. Золянинг “Лурд” (парча), “Эвергард авлиёнинг каромати”, М. Твеннинг “Дабдаба ва тиланчилик”, “Муқаддас инквизиция роҳибларининг қизиқ найранглари”, “Роҳиблар ғаройиботи”, Э. Кейрошнинг “Патер Амаруннинг жинояти” (парча), В. Маргертининг “Ўртоқ” (парча), С. Гусев-Оренбургскийнинг “Кахетинка” асарларини ўзбек тилига таржима қилган [6; 49].

Абдулла Қодирий совет ҳукумати билан муроса йўлини танлаб, унинг сиёсатини адабий жиҳатдан тарғибот қилиш ишларига киришса-да, босқинчи ҳукумат уни йўқ қилиш йўлини танлади. 1937 йил 31 декабрда Абдулла Қодирий НКВД (Ички ишлар халқ комиссариати) томонидан қамоққа олинган. ЎзССР Ички ишлар халқ комиссари, Давлат хавфсизлиги майори Апресян тасдиқлаган қарорда Абдулла Қодирийга қуйидагича айбловлар эълон қилинган:

“Миллий иттиҳод” аксилинқилобий миллатчилик ташкилоти аъзоси бўлиб, қатор

йиллар мобайнида совет ҳокимияти ва партияга қарши фаол аксилинқилобий-миллатчилик курашини олиб борган;

матбуотда партия ва ҳукумат раҳбарлари сиёсатига нисбатан кескин аксилинқилобий-миллатчилик ва тухматдан иборат мақолалар билан чиққан;

шу кунларда тугатилган ўзбек аксилинқилобий-пантуркистик ташкилотининг аъзоси бўлиб, унинг аксилинқилобий ишида фаол қатнашган;

йиғилишларда мунтазам равишда аксилинқилобий-миллатчилик, аксилшўровий-миллатчилик руҳидаги фикрларни баён қилган.

Қодирий мазкур қарор билан танишиб, унинг тагига “Ушбу қарор менга эълон этилган (ўқудим), бунда кўрсатилган айбларга рози эмасман ва бўйнимга олмайман”, дея имзо чеккан [15; 55]. Абдулла Қодирий 1938 йил 4 октябрда Тошкент шаҳрининг Юнусобод туманида жойлашган НКВД махсус полигонидан отиб ташланган ва шу ердаги хандақлардан бирида махфий равишда дафн этилган.

Абдулла Қодирий 1958 йили Ўзбекистон ССР Олий суди томонидан оқлангач, у ва асарлари бўйича тадқиқотлар амалга ошира бошланган. 1991 йили Абдулла Қодирий Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Республикаси Давлат мукофоти ва “Мустақиллик” ордени билан тақдирланган [6; 15-16]. 1994 йили Абдулла Қодирий таваллудининг 100 йиллиги, 2019 йили 125 йиллиги кенг нишонланган. 2019 йил декабрда Абдулла Қодирий яшаган уйда ва Абдулла Қодирий боғида унга атаб музей ташкил қилинган. Абдулла Қодирий номидаги ижод мактаби ташкил қилинган.

Хулоса қилиб айтганда, Абдулла Қодирий бугун ҳам айрим олимлар илгари сураётганидек 19-юзйиллик бошларида ижод билан шуғулланган ёзувчи, адиб эмас, балки жаҳидчилик миллий сиёсий ҳаракатининг энг фаол етакчиларидан бўлган. У жаҳид матбуотчилигини ривожлантириш йўлида жонбозлик кўрсатди. Асарлари орқали Туркистон жамиятидаги иллатлар, муаммоларни танқид қилиб, ечимларини тақдим қилди. Миллий иттиҳоднинг аъзоси сифатида Россия империясининг босқинчилик сиёсатига қарши чиқди, болшевикларнинг зўравонликка, иккиюзламачиликка ва ёлғонга асосланган бошқарув тартибини фош қилиб, халқни миллий озодлик учун курашга чорлади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

Мирвалиев С. Абдулла Қодирий. Тошкент. 2004.

Қодирийни кўмсаб: “Ёднома”. Тошкент. 1994.

Абдулла Қодирий. Бахтсиз куёв // Н. Каримов. Жаҳид театри. Тошкент. 2016.

“Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 24 декабр.

Абдулла Қодирий. Янги масжид ва мактаб // “Садойи Туркистон” газетаси. 1914 йил 5 ноябр.

Каримов Б. Абдулла Қодирий. Тошкент, 2022.

Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. Тошкент. 1983.

Жу-бой. Бизда аскарлик масаласи // “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 4 ноябр.

“Туркистон” газетаси. 1924 йил 21 июн.

“Туркистон” газетаси. 1924 йил 25 июн.

Абдулла Қодирий. Обид кетмон. Тошкент, 2017.

Овсар. Йиғинди гаплар // “Муштум” журнали. 1926 йил 2-сон.

Ўзбекистон Миллий архиви. 1714-йиғмажилд, 26-жамғарма.

Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида. Тошкент. 1986.

Ўзбекистон Республикаси Давлат Хавфсизлик хизмати архиви (ДХХА). 4269-йиғмажилд.

## BUXORO OBLASTIDA SUG‘ORILADIGAN YER MAYDONLARI KENGAYTIRILISHI: YANGI VA QO‘RIQ YERLARNI O‘ZLASHTIRISH

*Mirzoyev Sharifjon Mirshakarovich*

*Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası t.f.f.d (PhD) o‘qituvchisi*

*Annotatsiya: XX asrning 1950-1970 yillari O‘zbekiston SSRning Buxoro oblasti irrigatsiya-melioratsiya qurulish maydoniga aylandi. Zarafshon dariyosidan keladigan suv, ayni vegetatsiya davrida oblast dalalarning suvga bo‘lgan ehtiyojnini 45 foizga qondiradi xolos. Bu esa, hukumatni Amudaryodan suv olish loyihasi, yirik dasturini amalga oshirishga undadi. Shu bilan, yonmayon asosiy maqsad, sug‘oriladigan yer maydonlarini kengaytirish va paxtachilikni yuksaltirish tadbirlari jadallik bilan olib borildi. Ushbu ishda oblastda olib borilgan yangi va qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish jarayoni tahlil etiladi.*

*Kalit so‘zlar: yangi yer, qo‘riq er, irrigatsiya, melioratsiya, obyekt, ekish, yetishtirish*

## РАСШИРЕНИЕ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ: ОСВОЕНИЕ ЦЕЛИННЫХ И ЗАЛЕЖНЫХ ЗЕМЕЛЬ

*Аннотация: В 1950–1970-х годах XX века Бухарская область Узбекской ССР превратилась в зону активного ирригационно-мелиоративного строительства. Вода, поступающая из реки Зеравшан, в период вегетации покрывала лишь 45% потребности сельскохозяйственных полей области в воде. Это побудило правительство реализовать масштабную программу по забору воды из Амударьи. Наряду с этим активно проводились мероприятия по расширению орошаемых площадей и развитию хлопководства. В данной работе анализируется процесс освоения новых и залежных земель, проведённый в области.*

*Ключевые слова: целинные земли, залежные земли, ирригация, мелиорация, объект, посев, выращивание*

## EXPANSION OF IRRIGATED LANDS IN BUKHARA REGION: DEVELOPMENT OF NEW AND FALLOW LANDS

*Abstract: In the 1950s–1970s, the Bukhara Region of the Uzbek SSR became a major site of irrigation and land reclamation development. Water from the Zeravshan River covered only 45% of the region’s agricultural water needs during the growing season. This prompted the government to implement a large-scale program to draw water from the Amu Darya River. Simultaneously, active efforts were undertaken to expand irrigated lands and promote cotton cultivation. This paper analyzes the process of developing new and fallow lands carried out in the region.*

*Keywords: new land, fallow, irrigation, reclamation, project, cultivation, production*

XX asrning 50-yillarida O‘zbekistonda yangi erlarni o‘zlashtirib, paxtachilikni rivojlantirishga e‘tibor kuchaydi. Bu holat 1980-yillarning ikkinchi yarmiga qadar izchilik bilan davom ettiriladi. Biroq, ma‘lum bir davrda nafaqat paxtachilik, balki boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. 1950-yillarda respublikada o‘zlashtirilgan yangi erlar asosan paxta maydonlariga aylantirilgan bo‘lsa, 1960-yillarning ikkinchi yarmidan chorvachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va meva-sabzavot etishtirishga ixtisoslashtirildi.

1970-yillarda yangi erlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlashga mo‘ljallangan ko‘p tarmoqli agrosanoat birlashmalariga asos solindi. Demak, ma‘lum bir davr oralig‘ida yangi xo‘jaliklar ixtisoslashuvi o‘zgarib borgan. O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishning mazmun-mohiyati 80-yillar oxirlariga qadar ustuvor vazifa sifatida saqlab qolingan bo‘lsada, 1960-yillar ikkinchi yarmidan agrar siyosatda shaklan o‘zgarishlar amalga

o'shirlanganiga guvoh bo'lish mumkin.

1950-yillar uchun Buxoro oblastida paxtachilik istiqbollari belgilandi. Jumladan, 1950 – 1955 yillarda gektariga 25,0 s hosildorlikka erishib, 305,0 ming tonna paxta xomashyosini etishtirish reja qilindi[1]. Oblastning Kogon, Romitan, Buxoro rayonlari hamda “Narpay” sovxozi va barcha kolxozlarda 5 yilda jami: 59,2 ming ga qo'riq va bo'z er o'zlashtirilib shundan, 39,5 ming ga er paxta ekish uchun ajratilishi maqsad qilindi[2].

Besh yil davomida belgilangan rejalar amalga oshirilganida oblast Respublika paxta xirmoni uchun salmoqli hissa qo'shgan bo'lardi. O'tgan besh yillik tahlil etilganda oblastda yangi er o'zlashtirish ishlari jadallik bilan olib borilgani ma'lum bo'ladi. Ammo, erlarni qishloq xo'jaligi muomalasiga kiritish, mahsulot etishtirish jarayonida ko'plab muammolar ko'zga tashlandi. Asosan, suv tanqisligi ta'sirida o'zlashtirilgan erlarni qayta yaylovlarga aylanishi odatiy holga aylanib qoldi. Suv manbalariga nisbatan yaqin o'zlashtirilgan yangi erlarda tashkil etilgan xo'jaliklarda ham paxtachilik sohasida jo'yali natijalarga erishildi, deb ayta olmaymiz. 1950-yillarda qo'riqda tashkil etilgan xo'jaliklar mahsuldorligi raqamlarda o'z aksini topgan. Jumladan, Malikcho'li massivida tashkil etilgan “Yangiobod” paxtachilik kolxozida 1954 – 1956 yillarda gektaridan 8,5 s hosil olindi[3]. 1957 yilda kolxozda hosildorlikni gektariga 15 s ga etkazish reja qilingan bo'lsada, amalda ko'zlangan natijaga erishish imkoni bo'lmadi. Oqibatda kolxoz 1957 yil 5 fevralda Karmana rayon ijroiya qo'mitasi qaroriga binoan “Narpay” sovxoziga birlashtirildi[4].

Kogon rayoni vakillari yangi erlardan foydalanishda o'zgacha yo'l tutishdi. Ular yangi erda makkajo'xori, beda, jo'xori etishtirishga qaror qildi. Biroq natijalar kutilganiday bo'lmadi, 1958 yil tahlil etilganida rayonning Lenin, Oxunboboev va O'bacho'li kolxozlarida makkajo'xori, jo'xori ekish rejaları 25-27 foiz[5] bajarilgani ma'lum bo'ladi. Bu holatda tabiiyki hosildorlik ham shunga mos bo'ldi. Shu yilda Kogon sovxozida pilla etishtirish rejasi 12,2 foiz, qorako'l teri – 11,8 foiz, sut – 12,7 foizga bajarildi[6]. Arxiv manbalari Kogon rayon ijroiya qo'mitasi yangi xo'jaliklar faoliyatini muntazam muhokama qilganidan dalolat beradi. Biroq, hujjatlar tahlili yangi xo'jaliklar faoliyatini tashkil etishda kamchilik va xatolarga yo'l qo'yilganini ko'rsatadi. Masalan, yil davomida yangi erlardagi xo'jaliklar faoliyatini muhokama qilishga mo'jallangan 12 yig'ilishdan 9 tasi o'tkazilgan. Shundan aksariyati (4 ta yig'ilish) yanvarda tashkil etilgan. Ya'ni boshlanishida rejalar ishlab chiqib, qarorlar qabul qilishga kirishgan mexnatkashlar deputatlari Kogon rayon ijroiya qo'mitasi va oblast qishloq xo'jaligi boshqarmasi ayni rejalarini amalga oshirishda no'noqlik qildi. Xo'jaliklar faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishlar bahor va yoz oylarida tashkil etilib, jarayon qat'iy nazoratga olinganida balki ijobiy natijalarga erishilgan bo'lardi.

“Narpay” sovxozida paxtachilik borasida amalga oshirilgan ishlar nisbatan o'zining ijobiy samarasini berdi. Katta mablag' va sarf-xarajatlar evaziga ushbu natijalar qo'lga kiritilgandi. Sovxozda tuproq xususiyati o'ziga xos bo'lib, 45-50 sm dan so'ng mayda shag'al chiqadi. Qo'yilgan suv shag'al oralab erning pastki qatlamiga oqib ketadi[7, -B.106]. Shu kabi holatni Malikcho'li massivida ham uchratish mumkin bo'lardi. Massivda tashkil etilgan qo'riq xo'jaligiga qarashli tuproq osti 10 – 15 sm chuqurlikda mustahkam gips qatlami bilan qoplangan bo'lib, bu vegetasion tadbirlarni o'z vaqtida to'g'ri amalga oshirishni talab etgan[8], aks holda qilingan mehnat samara bermasdi.

Respublika rahbariyati tomonidan 1958 yilda Buxoro oblast qo'riq xo'jaliklari muammolarini o'rganish maqsadida maxsus komissiya tashkil etilgandi. Komissiya Qishloq va Suv xo'jaligi Ministrligi, soha laboratoriyasi vakillari hamda oblastning aloqodar tashkilotlari malakali mutaxassislaridan tarkib topdi. Komissiya o'z faoliyatini 1940-yillar oblastda tashkil etilgan qo'riq xo'jaliklarni o'rganishdan boshlagandi. Ya'ni 1941 yilda oblast kolxoz va sovxozlarida yangi erlar o'zlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar bilan 1950 – 1958 yillarda jarayon o'zaro qiyosiy tahlil etilgandi. Komissiya xulosalariga tayanilganda o'tgan 8 yil mobaynida oblastning yangi xo'jaliklarida etishtirilgan paxta yalpi hosildorligi gektariga 20 s oshmagani (aslida 7-8 s bo'lgan edi) aniqlangan[9]. Buxoroning o'ziga xos tabiiy-iqlimi yangi erlar o'zlashtirish uchun har bir hududga alohida yondashuvni talab etardi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar oblast hududida

o'zlashtirilgan erlarda bir xildagi almashlab ekish sxemani qo'llash mumkin emasligini ko'rsatdi. Shofirkon, G'ijduvon va boshqa shu kabi kam sho'rlangan rayonlarda – o'n dalali(3 ta qo'riq maydoni beda va 7 tasi paxta etishtirish) sxema bo'yicha ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq ko'rilgan. O'rta darajada sho'rlangan Vobkent, Romitan va Qorako'l rayonlarida – to'qqiz dalali(3 ta beda va 6 ta paxta) sxema tadbiriq etilgandi. Kogon, Galaosiyo kabi sho'rlanish kuchli bo'lgan rayonlarda –sakkiz dalali(3 ta beda va 5 ta paxta) almashlab ekish sxemasidan[10, -B.16-17] foydalanilganda samarali natijaga erishilgan bo'lardi. Monitoring va ilmiy tahlil natijalari oblastda 1950-yillardagi qo'riq xo'jaliklarida chorva uchun ozuqabop o'simliklar etishtirishning samaraliroq bo'lishini ko'rsatdi.

1950 – 1960 yillarda respublikaning boshqa mintaqalarida tashkil etilgan qo'riq xo'jaliklarida esa aksincha, paxtachilik jadal rivojlanayotganing guvohi bo'lish mumkin. Jumladan, 1965 yilda Mirzacho'l qo'riq zonasida 11 ta davlat xo'jaliklari mavjud bo'lib, ulaning 10 tasi paxtachilik va 1 tasi uzumchilik davlat xo'jaligi edi[11, -B. 150]. Janubiy mintaqalar qo'riq xo'jaliklarining natijalari 1970-yillarda ko'rinib qolgandi. 1973 yilda Qarshi cho'lida ilk xo'jalik-Cho'li Begimqulov nomli 9-davlat xo'jaligi tashkil etilgan bo'lsa, 1978 yilda 18 ta xo'jalik mahsulot etishtirdi[12, -B. 165]. Ushbu dalillar respublika yangi erlari paxta maydonlariga aylantirilayotganidan dalolat berib turibdi.

1964 yil Qozog'iston SSRning Komsomolskiy stansiyasida (Kustanay oblasti) N.S.Xrushyov ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda N.S.Xrushchyov nutq so'zlab, jumladan: "O'tgan 10 yil mobaynida sovet kishilarining fidokorona mehnati bilan 40 mln ga er o'zlashtirildi. Qo'riq erlardagi xo'jaliklar – don, go'sht, sut va boshqa mahsulotlar etishtirib beruvchi fabrikalardir. Qo'riq erlardan 1960 yilda 112 ming so'm foyda olingan bo'lsa, 1963 yilga kelib 653 ming so'm daromad qilingan[13] ”-deb ta'kidladi. Buxoro oblast qo'riq xo'jaliklari mahsuldorligi haqida gap ketganda, "Narpay" sovxosi alohida o'rin egallaydi. Davlat xo'jaligi 1967 yilda 12 ming tonnadan ortiq paxta etishtirib berdi. Har bir gektardan o'rtacha 27 s hosil olinib, 2 mln 400 ming so'm o'rniga 3 mln 200 ming daromad qilindi. Bu 1961 yilga nisbatan 2 mln so'm ko'pdir[14, -B. 140].

Amu-Qorako'l (1963 yil) mashina kanalining foydalanishga topshirilishi Qorako'l rayon Zamonbobo va Eshakchi zonalari yangi o'zlashtirilgan erlarida 10 – 15 ming tonna paxta etishirilib, rayonda hosildorlikni har bir gektaridan o'rtacha 25 s ga oshirish reja qilingan edi[15]. Biroq, rayon ma'muriyati tomonidan rejani amalga oshirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar o'zini oqlamadi. 1965 yilda rayon mehnatkashlari davlatga 48 ming tonna[16] paxta tayyorlashi lozim bo'lgan bir paytda, mehnatkashlari 39 ming tonna paxta sotdilar[17].

Amu-Buxoro mashina (1965 yil) kanalining ishga tushirilishi munosabati bilan oblastda sug'oriladigan yer maydonlari 24 ming ga oshdi. Shundan Kogon rayonida – 7377 ga, Buxoro rayonida – 12462 ga, Romitan rayoni – 1430 va Sverdilov rayonida– 2555 ga oshdi[18, -B. 113]. Oblast rahbarlari yaratilgan imkoniyatlardan foydalanishga harakat boshlashdi. Qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish pirovardida oblast mehnatkashlari turmush darajasini yaxshilash ko'zda tutilgandi.

1950-yillar va 60-yillarning ikkinchi yarmiga qadar oblastda o'zlashtirilgan yangi erlardan foydalanish davomida muammolar ko'lami kengaydi. Ya'ni o'zlashtirilgan erlarni qishloq xo'jaligi muomalasiga kiritish jarayonida murakkab kechdi. Xalq xo'jaligini rivojlantirishning etti yillik rejasiga ko'ra (1959-1965 yy) Buxoro oblasti hududida 27 ming ga qo'riq o'zlashtirilib, shundan 10 ga erni qishloq xo'jaligi muomalasiga kiritishga erishildi[19, -B. 117]. 17 ming ga er kuchli sho'rlanish, ishchi kuchi etishmasligi va shu kabi boshqa muammolar ta'sirida muomalaga kiritilmadi. Ushbu holat 1968 yilda O'zbekiston KP MK va O'zbekistonSSR Ministrlar Sovetida muhokama qilindi. Muhokamalar yakunida: "Yangi erlarni o'zlashtirish ishlarini yaxshilash va paxtachilik sovxozlarini tashkil etish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qarorda 1962 – 1968 yillarda Respublikada o'zlashtirilgan yangi erlarning 329 ming ga muomaladan chiqib ketganligi

qayd etildi[20]. Respublika hukumati aloqador va manfaatdor markaziy muassasalar e'tiborini ushbu muammoga qaratishni ta'min eta oldi. O'rganishlar natijasida yangi erlardan samarali foydalanish uchun nafaqat paxta balki, tuproq tarkibi va xususiyatiga qarab ixtisoslashtirish lozim topildi. Ushbu imkoniyat Buxoro oblastining hududlarida o'zlashtirilgan qo'riqda-bog'dorchilik, uzumchilik, poliz, meva-sabzavot etishtirish va chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar tashkil etishga yo'l ochildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat.

1. Buxoro viloyat davlat arxivi 1184-fond, 1-ro'uxat, 158-yig'ma jild, 29-varaq.
2. Buxoro viloyat davlat arxivi 1184-fond, 1-ro'uxat, 158-yig'ma jild, 30-varaq.
3. Karmana tuman davlat arxivi 2-fond, 1-ro'uxat, 263-yig'ma jild, 14-varaq.
4. Karmana tuman davlat arxivi 2-fond, 1-ro'uxat, 263-yig'ma jild, 15-varaq
5. Qorovulbozor tumani davlat arxivi 4-fond, 1-ro'uxat, 1-yig'ma jild, 23-varaq.
6. Qorovulbozor tumani davlat arxivi 4-fond, 1-ro'uxat, 1-yig'ma jild, 24-varaq.
7. Шарофутдинов С. Бухоро илғорлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1968. –Б. 106.
8. Buxoro viloyat davlat arxivi 1196-fond, 1-ro'uxat, 123-yig'ma jild, 45-varaq.
9. Buxoro viloyat davlat arxivi 1196-fond, 1-ro'uxat, 56-yig'ma jild, 52-varaq .
10. Ищенко Ф.И. Настойчиво и систематический внедрять севообороты в колхоз Бухарской области.// Сельского хозяйство Узбекистана.– Ташкент, 1959. -№12. –С. 16-17.
11. Комилов О.К. Ўзбекистонда ирригация тизимлари ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951-1991 йй). Тарих фан. док. ...дисс. –Андижон, 2017. –Б. 150.
12. Комилов О.К. Ўзбекистонда ирригация тизимлари ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951-1991 йй) Тарих фан. док.... дисс. –Андижон, 2017. –Б. 165.
13. Совет Ўзбекистони, 1964 йил 13 август
14. Шарофутдинов С. Бухоро илғорлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1968. –Б. 140.
15. Buxoro viloyat hokimligi arxivi 22-fond, 3-ro'uxat, 23-yig'ma jild, 3-varaq.
16. Buxoro viloyat hokimligi arxivi 22-fond, 3-ro'uxat, 23-yig'ma jild, 4-varaq.
17. Олға 1965 йил, 24 январь.
18. Байбурун Р.З. Роль государственных капитальных вложений в развитии колхозного производства (На материалах ирригации и мелиорации земель Бухарской области)// Экономика и культура Бухарской области после великого октября. –Ташкент: Фан, 1968. –С. 113.
19. Кизбаев Я.К. Развития хлопководства Бухарской области в годы семилетки// Экономика и культура Бухарской области после великого октября. –Ташкент: Фан, 1968. –С. 117.
20. Правда Востока, 1968 год 24 ноябрь.

## ФОРИШ ТУМАНИ ҚИШЛОҚЛАРИ ЭТНОМАДАНИЙ ТУРИЗМ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

Убайдуллаева Барно,  
Ўзбекистон Миллий университети Тарих факультети “Археология ва этнология”  
кафедраси профессор в.б

*Аннотация.* Ушбу мақола Фориш туманидаги этномаданий туризм салоҳияти ва унинг ривожланиши масаласига бағишланган бўлиб, унда Фориш туманининг этнотуристлик салоҳиятга эга қишлоқлари туризмга йўналтирилган имкониятлари ўрганилган. Хусусан, Ухум, Ҳаёт, Можирум ва бошқаларнинг қишлоқларидаги анъанавий меҳмон уйлари, маҳаллий маросимлар ва табиий-тарихий объектларнинг туризм инфратузилмасига интеграциялашуви таҳлил қилинган.

*Калит сўзлар:* қишлоқ, туризм, Фориш, меҳмон уй, этномаданий, турист, анъанавий, Ухум, Можирум, маданий, этнографик, аҳоли, Ўзбекистон

## СЕЛЬСКИЕ НАСЕЛЁННЫЕ ПУНКТЫ ФОРИШСКОГО РАЙОНА КАК ОБЪЕКТЫ ЭТНОКУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА

*Аннотация.* Данная статья посвящена этнокультурному туристическому потенциалу Форишского района и вопросам его развития. В ней рассматриваются туристические возможности сельских населённых пунктов Форишского района, обладающих этнотуристическим потенциалом. В частности, проанализирована интеграция традиционных гостевых домов, местных обрядов и природно-исторических объектов в туристическую инфраструктуру в таких сёлах, как Ухум, Хаёт, Можирум и других.

*Ключевые слова:* село, туризм, Фориш, гостевой дом, этнокультурный, турист, традиционный, Ухум, Можирум, культурный, этнографический, население, Узбекистан

## RURAL SETTLEMENTS OF FORISH DISTRICT AS OBJECTS OF ETHNOCULTURAL TOURISM

*Abstract.* This article is devoted to the ethnocultural tourism potential of the Forish district and the issues related to its development. It explores the tourism-oriented opportunities of villages in the Forish district that possess ethnotouristic potential. In particular, it analyzes the integration of traditional guest houses, local ceremonies, and natural-historical sites into the tourism infrastructure in villages such as Ukhum, Hayot, Mojirum, and others.

*Keywords:* village, tourism, Forish, guest house, ethnocultural, tourist, traditional, Ukhum, Mojirum, cultural, ethnographic, population, Uzbekistan

**Кириш.** Сўнгги йилларда туризм бутун дунё бўйлаб кенг ёйилиб, жадал ўсиб борар экан, унинг истикболли йўналишларидан бири бўлган, этнографик туризм ҳам фаол ривожланмоқда. Мутахассисларнинг прогнозларига кўра, XXI аснинг иккинчи чорагида ҳам этник-маданий ўзига хослик билан танишиш кўпчиликка саёҳат учун кучли рағбат беради ва этнотуризм халқаро туризмнинг барқарор турларидан бирига айланади. Бу бежиз эмас, туризмнинг ушбу тури ўзининг ўзига хослиги ва ноёблиги туфайли келажакда катта эҳтиёжни келтириб чиқаради, чунки ҳозирги даврда этник хилма-хиллик шиддат билан камайиб бормоқда [7, 309].

Ўзбекистон ҳудудида этномаданий туризм маҳаллий халқнинг урф-одатлари, анъанавий турмуш тарзи, тарихий ёдгорликлари ва миллий меросини ўрганиш ва намоён этишга

хизмат қилади. Этномаданий туризм нафақат сайёҳлар учун, балки маҳаллий аҳоли учун ҳам иқтисодий ва маданий ривожланиш имконини яратади. Жиззах вилоятининг Фориш туманидаги Ухум, Ҳаёт, Можрум, Ана-Муна ва бошқа қишлоқлар айнан ана шундай этнотуризм йўналиши учун бой салоҳиятга эга.

Мавзуга оид адабиётлар ва методлар. Фориш туманида этнотуризм салоҳиятини ўрганишда қатор адабиётлар ва манбалардан фойдаланилди. Назарий асос сифатида А.Г. Бутузов, М.Ю. Балаганская, Ч.Б.Сундуев, Л.В.Хышектеуева ва бошқа шу каби олимларнинг этнотуризм моҳияти, турлари, туризмда этномаданий меросдан самарали фойдаланиш бўйича фикрларига таянилди[2,1,5]. Шунингдек, Ш.Толиповнинг Гараша қишлоғининг тарихи ва анъаналарига бағишланган тарихий-этнографик рисола ва Қ.Ҳакимовнинг Жиззах вилояти топонимикаси, анъанавий қишлоқлар ва уларнинг маънавий қадриятларга бағишланган асарларида келтирилган маълумотлар этномаданий туризмга оид маълумотларни бойитиш ва қиёслашда манба сифатида хизмат қилди[6; 8; 9].

Ҳуқуқий асос сифатида эса этнотуризмни ривожлантиришга қаратилган Президент Фармони ва Вазирлар Маҳкамасининг Қарори давлат сиёсати йўналишларини белгилаб беради [10; 11].

Халқаро манбалар орасида Жон Смит (2019) ва Эмили Жонсон (2020) этнотуризмнинг барқарор ривожланишда оимларнинг роли борасидаги тажрибаларни Ўзбекистон шароитида қўллаш мумкин [12; 13].

Тадқиқотнинг асосий материаллари этнографик экспедиция орқали йиғилган. Тадқиқот жараёнида бевосита ва билвосита кузатув, чуқурлашган интервью ва маҳаллий аҳоли билан жамоавий суҳбатлар ўтказилди.

Таҳлил ва натижалар. Этномаданий туризм тушунчаси этник мазмунга йўналтирилган саёҳатнинг барча турларини бирлаштириш мақсадида қўлланилган. Аммо, айрим хорижий тадқиқотларда этномаданий туризм — бу туристларнинг турли этник гуруҳлар маданияти, урф-одатлари ва анъаналари билан танишишга қаратилган саёҳатлари, ёки этномаданий туризмни туристларнинг маҳаллий аҳоли маданияти, санъати ва турмуш тарзи билан танишишга қаратилган фаолият сифатида таърифланади [12; 13].

Охирги йилларда локал маданиятни намойиш этувчи анъанавий қишлоқларга қизиқиш ортиб бормоқда. Бундай саёҳатда турист маълум бир тарихий даврга тегишли бўлган объектни шахсан кўриши, унинг мақсадини билиши ва шу орқали ўз ўтмиш маданияти ёки бошқа этник гуруҳларнинг маданияти билан алоқада бўлиши мумкин. Демак, этномаданий туризмда саёҳатчиларни этнографик объектлар ўзига жалб этади. Маълум бир ҳудудда этнографик мерос объектлари қанча кўп бўлса, унинг туризм учун жозибадорлик даражаси шунчалик юқори бўлади.

2020 йилда Фориш туманидаги “Дўстлик” МФЙ га қарашли Ухум, Можрум қишлоқлари туризм қишлоғи мақомига, Дўстлик, Сайёд, Учкулоч маҳаллалари “Туризм маҳалласи” мақомига эга бўлди.

Фориш тумани Нуротанинг энг баланд серсув ҳудудларида жойлашган бўлиб, нафақат ўзининг табиий манзаралари, балки анъанавий турмуш тарзи, меъморий ёдгорликлари ва миллий ҳунармандчилиги билан ҳам туристлар учун катта қизиқиш уйғотади.

Фориш тумани номига оид маълумотлар кўп эмас, ва турлича талқин қилинади. Айрим маълумотларга кўра, Порашт, яъни Фориш номи унинг жойлашган жойига боғлиқ бўлиб, арабча “Фарш” (уч томони баланд, ўртаси текис жой) сўзидан олинган деган тахмин ҳам бор.

Фориш номи мазкур тумандаги Порашт қишлоғининг номидан олинган бўлиши мумкин. Мавжуд ривоятларга кўра, Порашт қишлоғининг ҳозирги жойи кўл, қамишзор бўлган. Маҳаллий аҳоли ҳозир ҳам қишлоқ номи сифатида Порашт сўзини қўллайди, аммо расмий ҳужжатларда Эски Фориш деб юритилмоқда. Ахборотчиларнинг фикрича, “Порашт” (Фориш) “салқин жой” ёки “тоза ҳаволи ҳудуд” мазмунини ҳам билдиради.

Чунки атрофдаги чўл билан солиштирганда жойнинг иқлимига салқинлигига ишора қилади. Бошқа ахборотчилар эса, “Фориш” номи форсий “фаришта” (фаришта) сўзидан келиб чиққан, деган тахминни илгари суришади. Шаҳарга кириш жойида катта Эйфел минораси макети ўрнатилган. Бу Фориш сўзи Париж сўзидан олинган деган версияни тасдиқлаш учун ўрнатилган бўлиши мумкин.

Фориш туманида тош, ёғоч ва хом ғиштдан қурилган қадимий қишлоқлар сақланган. Маҳаллий аҳолиси орасида турли касб-хунарлар: хунармандчилик, кулолчилик, поябзалчилик, тегирмон ва тегирмонтош яшаш, темирчилик, заргарлик, тунукачилик, дурадгорлик, мисгарлик, қассоблик, деҳқончилик, чўпонлик, ва бошқа шу қабилар кенг тарқалган бўлиб, ҳар бир қишлоқда ўзларининг хунармандлари бўлган, масалан, темирчилар болта, ўроқ, болта, тақа, заргарлар узук, узук, билагузук ва бошқа зеб-зийнат буюмлари, мисгарлар мисдан қозон, қуёш соати, қўл ювиш учун идиш, тақа ва бошқалар ясаган. Дурадогор усталар ёғочдан лаган, чумич, калбез, қўғирчоқ, бешик ва бошқа буюмлар ясаганлар. Бундан ташқари, ҳар бир қишлоқнинг ўз муллеси, ўтинчиси, новвойи, табиби, овчи ва ошпази, кайвониси бор эди.

Фориш туманида Осмонсой ва Ана-Муна каби анъанавий бозорлари бор. Бу бозорлар нафақат савдо қилиш жойи, балки маҳаллий аҳолининг маданий ҳаётининг муҳим қисми ҳисобланади.

Этнографик туризмни ривожлантириш учун катта аҳамиятга эга қишлоқ бу - Можрум қишлоғи бўлиб, қишлоқ аҳолиси асрлар давомида ўзининг анъанавий турмуш тарзини сақлаб келган. Улар асосан чорвачилик, деҳқончилик ва хунармандчилик билан шуғулланиб, ўзларининг маданий меросини авлоддан-авлодга ўтказиб келганлар. Бу ерда қадимий анъанавий турмуш тарзи сақлаб қолган тожиклар яшайди.

Можирумдан ўтган тоғ йўли орқали Кочак – Андаген қишлоғига йўл ўтган. Можирум ва Андиген қишлоғи одамлари бир халқ, бир- бирига қариндош оилалар бўлгани. Қабристон ва масжид Можирумда бўлган. Можирумнинг тепа тоғли ҳудудларида қадимдан одамлар яшаган ва ҳар бир кишининг яшайдиган уйидан ташқари боғдорчилик қиладиган майдонлари бўлган. Ўтган асрнинг ўрталарига қадар одамлар яшаган. Маълум сабабларга кўра, одамлар бу ерларни тарк этишган Аммо уларнинг тош ва лойдан қурилган уй харобалари ҳозиргача сақланиб турибди [15].

«Можирум» сўзининг келиб чиқиши ҳақида аниқ маълумотлар мавжуд эмас. Бироқ, маҳаллий ривоятларга кўра, қишлоқ номи қадимги замонларда бу ҳудудда яшаган бир қавмнинг номи билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Можирумда экологик туризм билан бирга агротуризм ҳам ривожланган. Бу ерда меҳмонлар маҳаллий аҳоли билан биргаликда қишлоқ хўжалик ишларида иштирок этишлари, анъанавий таомларини тайёрлашни ўрганишлари мумкин.

Ухум қишлоғи ҳам бой этномаданий туристик салоҳиятга эга. Мазкур қишлоқда маҳаллий аҳолининг анъанавий уй-жой меъморлиги, миллий либослари, урф-одатлари ва маросимлари сақлаб қолган. Бу эса этнотуризмни ривожлантириш учун катта имкониятлар яратади.

Қишлоқдаги меъморий ёдгорликлар ва табиий манзаралар уни этнотуризм учун жозибатор қилади. Ухум қишлоғидаги юқори тепаликда қадимий қалъа ва қўрғоннинг харобалари жойлашган. Ухумнинг энг баланд тоғли ҳудуди Сайиддин деган жойда тошларга архарларнинг ўйиб ишланган расмлари бор [17]. “Ухум”нинг тоза ҳавоси, тоғ булоқлари ва этномаданий ўзига хослиги нафақат маҳаллий туристларни балки, дунёнинг ривожланган давлатлари – АҚШ, Буюк Британия, Германия, Канада сингари мамлакат туристларини ҳам диққатини тортмоқда.

Туристлар маҳаллий қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини тановул қилиши, жойларда пишириладиган анъанавий таомлар билан танишиши мумкин. Бу ерда қишлоқ атрофида

сайр қилиш, от миниш, тоғ дарёсида балиқ овлаш, кечки фольклор гуруҳлари ёрдамида маданий кўнгил очар тадбирлар ва кечалар ҳам ташкил этиш имкониятлари бор.

Ҳаёт қишлоғи ҳам табиий гўзаллиги ва тарихий аҳамияти билан машҳур қишлоқлардан бири ҳисобланади. Қишлоқ узок тарихга эга бўлиб, унинг тарихи бир неча асрларга бориб тақалади. Қишлоқ аҳолиси асосан чорвачилик, деҳқончилик ва ҳунармандчилик билан шуғулланиб, ўзларининг маданий меросини авлоддан-авлодга ўтказиб келганлар.

Маълумотларга кўра, Ҳаёт қадимги сўғдча сўздан олинган бўлиб, ҳоит ёки ҳоят, «бахор жойи» деган маънони англатади. Яъни бу ном қишлоқнинг табиий гўзаллиги ва соф ҳавоси билан боғлиқ бўлиши мумкин [18].

Катта Боғдон қишлоғи ҳам этномаданий туристик салоҳиятга эга. Бу жойда ҳақиқатдан ҳам боғлар, кўп узумзорлар, ёнғоқзорлар мавжуд. Қишлоқ аҳли ўртасида турли ҳил эртак ва ривоятлар мавжуд. Ана шундай ривоятлардан бири “Қиз учган қоя” ҳақидаги ривоятдир [19].

Фориш туманида юқорида маълумоти келтирилган қишлоқлардан ташқари, этномаданий салоҳиятга эга яна бошқа қишлоқлар ҳам бор. Хусусан, бетакрор табиий манзараларга эга Қоратош, Нурак ва Ана-Муна каби учта қишлоқ ҳам анъанавий турмуш тарзига ва этнографик локал хусусиятларга эга. Ана-муна қишлоғида уй музейи мавжуд бўлиб, унда XIX – XX асрларга тегишли экспонатлар, халқ анъанавий турмуш тарзига тегишли предметлар бор. Бу уй музейни Тошқулов Бектемир ташкил этган [16].

Тадқиқотлар давомида Фориш туманидаги этнотуризм анъанавий меҳмон уйлари ва қишлоқ бозорлари орқали ривожланаётгани аниқланди.

Маълумки, меҳмон уйлари институти Фарбдан биосфера резерватлари яратиш ғояси билан кириб келган бўлиб, республикадаги меҳмон уйлари Шарқда қадимдан мавжуд анъана меҳмонга ҳурмат билан муносабатда бўлиш каби қишлоқ удумларига ҳам мослаштирилган [3].

Фориш туманидаги Ухум, Ҳаёт ва Мажрум қишлоқлари бир неча меҳмон уйлари фаолият юритмоқда. Ушбу уйлар Нурота кўриқхонасига яқин тоғли ҳудудида жойлашган бўлиб, экологик тоза ҳаволи, хушманзара атроф-муҳит шаҳар муҳитидан чарчаган саёҳларни ўзига тортади. Аксарият меҳмон уйлари яқинидан булоқ сувлари оқиб ўтади.

Барча меҳмон уйлари миллий ва қишлоқ анъаналаридан келиб чиққан ҳолда қурилган ва зарур турмуш шароитлари билан таъминланган. Улар қуйидагиларни ўз ичига олади: электр таъминоти, ётоқхоналар, ошхона, душ, булоқ суви ва бошқа маиший шароитлар. Меҳмон уйлари эгалари турли миллий таомларни таклиф қилишлари мумкин. Шунингдек, меҳмонлар меҳмондўст хонадон эгалари билан биргаликда турли қишлоқ хўжалик ишлари билан шуғулланишлари мумкин, масалан, тандирда нон ёпиш, таом тайёрлаш, гилам тўқиш, кашта тикиш ёки мевалар ва сабзавотлар ҳосилини йиғишда ёрдам беришлари мумкин.

Фориш туманидаги энг машҳур меҳмон уйларида бири – Эски Форишда жойлашган “Замира” меҳмонхонасидир. У тўлиқ анъанавий қишлоқ уйи бўлиб, у ерда меҳмонлар тўшақда ухлашлари мумкин [4].

Яна шундай меҳмон уйлари Ҳаёт қишлоғида жойлашган. Ушбу меҳмон уйларида туристлар дам олишдан ташқари тоғларга чиқиб, машҳур Паррандоз ва Бешбармоқ тоғ чўққилари манзараларидан баҳраманд бўлишлари, эшак ва отларда автомобиллар чиқа олмайдиган жойларга сайр қилиш имкониятлари яратилган бўлиб, масалан, баланд тоғ дарасидаги қоя суратларини-петроглифларни, шунингдек, яқин ердаги кўриқхонада Қизилқум архари (Северцов кўйи)ни кўришлари мумкин [18].

Ухум қишлоғида ҳам ана шундай комплекс дам олишга шароит яратилган бир неча меҳмон уйлари бор. Бу меҳмон уйлар орасида энг йириги, бу – Юқори Ухумда жойлашган “Ҳаёт Эко” меҳмон уйидир. Ушбу меҳмон уйи бир гектардан ортиқ майдонни эгаллайди, булоқ суви оқиб турган жуда сўлим жойда жойлашган. Бу ерга Испания, Германия ва бошқа шу каби Европа давлатларидан туристлар келишади. Туристлар тоғ ён бағирларига от ёки

эшакда саёҳат қилишлари, анъанавий ўчоқда ўзлари овқат тайёрлашлари, нон ёпишлари, гилам тўқишлари мумкин. Меҳмон уйи ҳовлисида сув тегирмонлар, сув чархпалаклари ҳам ўрнатилган. Маҳаллий тўқувчилар томонидан тўқилган гилам ва шолчалар тўшалган. Айни пайтда меҳмон уйлари замонавий шароитлар ҳам яратилган, Интернет алоқа воситалари ҳам ишлайди. Қисқаси, туристлар бу ерда замонавий шароитлардан фойдаланиб анъанавий маданияти, этнографияси билан ҳам танишадилар [17].

Хулоса ва таклифлар.

Фориш туманидаги Ухум, Можрум ва Ҳаёт каби этноқишлоқлар юртимизда этномаданий туризмни ривожлантириш учун улкан салоҳиятга эга. Ушбу ҳудудларда сақланиб қолган миллий анъаналар, тарихий меъморчилик, ҳунармандчилик, халқ оғзаки ижоди ва табиий гўзалликлар этнотуристлар учун бетақрор таассурот бағишлайдиган манбалардир.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, мазкур қишлоқлар нафақат табиий ресурслар, балки маданий мерос объектлари, этнографик кадриятлар ва меҳмондўст аҳолига эгалиги сабабли этнотуризмни ривожлантиришнинг комплекс модели сифатида қаралиши мумкин. Шу билан бирга, мавжуд муаммолар — инфратузилманинг етарли эмаслиги, кадрлар тайёрлашдаги камчиликлар, туризмни ташкил этишда тажрибанинг етишмаслиги — комплекс ёндашув асосида ҳал этилиши лозим. Этнотуризмни самарали йўлга қўйиш учун маҳаллий аҳолининг фаол иштирокини таъминлаш, ҳудудий брендлар яратиш, электрон тарғиб ва халқаро ҳамкорлик имкониятларидан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, Фориш туманида этномаданий туризмни ривожлантириш нафақат ҳудудий ривожланиш, балки миллий маданий меросни асраб-авайлаш ва глобал туризм бозорида Ўзбекистон нуфузини оширишда муҳим кадам бўла олади.

Фориш туманида этномаданий туризмни ривожлантириш учун куйидаги йўналишларга эътибор қаратиш керак бўлади:

1. Муҳим тарихий ва этнографик ҳудудларни тадқиқ қилиш – Форишнинг қадимий қишлоқлари ва муқаддас зиёратгоҳлари бўйича кенгроқ изланишлар олиб бориш лозим.

2. Туристлик инфратузилмасини яхшилаш – янги меҳмонхоналар, этно-туризмга мос шароитлар яратиш даркор.

3. Маркетинг ва ташвиқот ишларини кучайтириш – Форишнинг тарихий ва маданий бойликларини маҳаллий ва халқаро туристларга танитиш керак.

4. Сув ресурсларидан самарали фойдаланиш – бу ҳудуддаги булоқлар ва муқаддас сув манбаларини муҳофаза қилиш ва туристлик мақсадларида ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар:

1. Балаганская М. Ю. Роль этнокультурного компонента в формировании туристического продукта // [https://tourlib.net/books\\_tourism/balaganskaya](https://tourlib.net/books_tourism/balaganskaya) 20.03.24)

2. Бутузов А.Г. Этнокультурный туризм. – М.: КНОРУС, 2017.

3. Особенности этнографического и экологического туризма в Узбекистане// <https://livingasia.online/2020/08/10/osobennosti-etnograficheskogo-i-ekologicheskogo-turizma-v-uzbekistane-ili-gotov-tursani-letom/>

4. Открывая чудеса округа Фариш// <https://eurasia.travel/uzbekistan/jizzakh/>

5. Сундуев Ч.Б., Хышектеуева Л.В. Этнотуризм как одно из направлений культурного-познавательного туризма // <https://cyberleninka.ru/article> (11.03.24)

6. Толипов Файзулла Мозийга бўйлашган маскан Гараша қишлоғи ҳақида тарихий-этнографик рисола. – Тошкент, 2008.

7. Убайдуллаева Б. Этнотуризм тушунчаси, Ўзбекистонда этнотуризм шарт-шароитлари ва муаммолар // “Тарихий объектлар ва табиий масканлар уйғунлиги асосида Ўзбекистоннинг туристик салоҳиятини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари ва истиқболлари”

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент, 2024. Б. 309-317.

8. Ҳакимов Қ. Жизах вилояти топонимлари. “Сангзор” – Жиззах, 2014.
9. Ҳакимов Қўчқор Аждодлар маскани. Самарқанд, 2023.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 ноябридаги “Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 27.02.2023 йил 86-сон Қарори. 1-илова. <https://www.lex.uz/uz/docs/6394296> Мурожаат санаси. 11.06.2024.
12. John Smith, «The Role of Cultural Tourism in Promoting Cultural Heritage»// *International Journal of Heritage Studies*, 2019// <https://www.tandfonline.com/journals/rjhs>
13. Emily Johnson *Ethnocultural Tourism: A Tool for Sustainable Development* // *Journal of Sustainable Tourism*, 2020 <https://www.tandfonline.com/journals/rsus>
14. Дала ёзувлари. Фориш тумани қишлоқлари бўйлаб, 2024 йил.
15. Дала ёзуви, Можирум қишлоғи, 2024 йил.
16. Дала ёзуви. Ана-Муна қишлоғи, 2024 йил.
17. Дала ёзуви. Ухум қишлоғи, 2024 йил.
18. Дала ёзуви. Ҳаёт қишлоғи, 2024 йил.
19. Дала ёзуви. Катта боғдон қишлоғи, 2024 йил.

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

### INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TO‘LIQSIZ GAPLARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Avazov Xamza Panjiyevich  
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

*Annotatsiya. To‘liqsiz gaplar (elliptical sentences) har ikki tilda ham nutqni ixcham, dinamik va ifodali qilishga xizmat qiladigan sintaktik vositadir. Ular sintaktik jihatdan to‘liq bo‘lmagan, ya’ni ayrim grammatik komponentlari – ayniqsa, kesim, yordamchi fe’l yoki gap bo‘laklari tushirib qoldirilgan gaplardir. Shunga qaramay, bu gaplar kontekst orqali to‘liq tushuniladi va kommunikativ qiymatini yo‘qotmaydi.*

*Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, ingliz tili, to‘liqsiz gap, grammatika, dialog, fe’l, nutq uslublari, ellipsis, og‘zaki nutq.*

### ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НЕПОЛНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Аннотация. Неполные предложения (elliptical sentences) - это синтаксические средства, которые в обоих языках служат для того, чтобы речь была компактной, динамичной и выразительной. Это предложения, которые синтаксически неполны, то есть в них отсутствуют определенные грамматические компоненты, особенно междометие, вспомогательный глагол или фрагменты предложения. Тем не менее, эти утверждения полностью понимаются через контекст и не теряют своей коммуникативной ценности.*

*Ключевые слова: узбекский, английский, неполное предложение, грамматика, диалог, глагол, стили речи, многоточие, устная речь.*

### GENERAL CHARACTERISTICS OF INCOMPLETE SENTENCES IN ENGLISH AND UZBEK

*Annotation. Elliptical sentences are syntactic tools used in both languages to make speech compact, dynamic, and expressive. These are sentences that are syntactically incomplete, meaning they lack certain grammatical components, especially interjections, auxiliary verbs, or sentence fragments. Nevertheless, these statements are fully understood through context and do not lose their communicative value.*

*Keywords: Uzbek, English, incomplete sentence, grammar, dialogue, verb, speech styles, ellipsis, oral speech.*

**Kirish.** Bugungi kunda tilshunoslikda gap tuzilmalari orasida to‘liqsiz gaplar alohida e’tiborga loyiq hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday gaplar, ingliz tilida ellipsis hodisasi deb ataladi. To‘liqsiz gaplar har ikki tilda nutqni ixcham, aniq va emotsional ifodalash imkonini beradi. Xususan, ingliz va o‘zbek tillarining sintaktik tizimi va stilistik madaniyati turlicha bo‘lganligi sababli, bu gap turlarining ishlatilishida muhim o‘xshashliklar bilan bir qatorda sezilarli farqlar ham mavjud. Aynan shu sababli to‘liqsiz gaplarni qiyosiy-lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish zamonaviy lingvistik tadqiqotlar doirasida muhim masalalardan biri hisoblanadi.

To‘liqsiz gaplar atamasining kelib chiqishi qadimgi yunonchadan tarjima qilganda “qoldirib ketish” ma’nosini beruvchi ellipsis so‘ziga borib taqaladi. Bunday gaplar konstruktsiyasi birmuncha o‘zgacha, ya’ni gapda bir yoki bir nechta so‘zlarni tushirib qoldirilsa ham qolgan qismlar asosida gapning ma’nosi anglashilishi mumkin. Sintaktik jihatdan to‘liqsiz gaplarning

ko'plab turlari farqlanadi, pirovardida, nazariy yondashuvlar to'liqsiz gaplarning sintaktik va semantik xususiyatlarini, tushirib qoldirilgan so'zlarni qanday qilib anglash mumkinligini hamda ularning gapdagi maqomini tushuntirishga intiladi. Tilshunoslikda to'liqsiz gaplar gap tuzish jarayonida iqtisodiylik, qisqalik va tabiiylikni ta'minlaydi. Bunday gaplar ba'zi bo'laklarning tushirilganiga qaramay, matn orqali to'liq tushunilish imkoniga ega. Ingliz va o'zbek tillarida bu hodisa turlicha ifodalanadi, ammo umumiy maqsad o'xshash gap tuzishdagi ortiqcha takrorlardan qochish va muloqotni samaraliroq qilish uchun foydalaniladi.

Har ikkala tilda ham to'liqsiz gaplarning gapdagi asosiy funksiyalari sifatida gap bo'laklarining grammatik vosita sifatida takrorlanishni oldini olishi va adabiy vosita sifatida dramatik ta'sir yaratish vazifalarini keltirish mumkin. To'liqsiz gaplarni hamda matndagi tushib qolgan birliklarni uch nuqta "... " belgisini qo'llash orqali ham ifoda etish mumkin [1]. Ingliz va o'zbek tili grammatikasida gapdagi bir yoki bir nechta so'zlar tashlab ketilish orqali nutqni yetkazish hodisasi uchraydi, bunday vaziyatlarda o'quvchi yoki tinglovchi umumiy gap mazmunini mavjud kontekst orqali tushunib oladi [2]. Ular, ko'pincha dialogik nutqda keng qo'llaniladi. Misol sifatida, suhbatlarda aytiladigan "Ha", "Yo'q" so'zlari ham to'liqsiz gap bo'lib, ularning ma'nosi vaziyatdan anglashiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbek tilida ellipsisning maxsus tadqiqotchilari haqida ma'lumotlar kam uchraydi, lekin umumiy sintaksis va nutq tuzilishi bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda. Masalan, sintaksis va semantika sohasida ish olib boruvchi olimlar ellipsisning lingvistik jihatlarini o'rganishda qatnashmoqdalar. Sintaksis, stilistika va semantika doirasida elliptik qurilmalar yuzasidan muhim ishlarga hissa qo'shgan ba'zi o'zbek tilshunos olimlar va ularning shu asosdagi ishlari mavjud. Xususan, N. Sayfiyev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida to'liqsiz gaplarning shakliy va mazmuniy turlari haqida fikr bildiradi [3:210-213]. Q. Xudoyberganov esa "Hozirgi o'zbek tili sintaksisi" darsligida to'liqsiz gaplar kesim tushirilgan, gap bo'lagi tushirilgan va birlashtiruvchi vositalar orqali bog'langan shakllarda ko'p ishlatilishini tahlil qiladi [4:134]. Olimning fikriga ko'ra "To'liqsiz gaplar nutqni ixcham ifodalashda xizmat qiladi. Ular sintaktik strukturada ma'lum bo'laklarning kontekst asosida tushirib qoldirilishi orqali yuzaga keladi."

M. Jo'raev, H. Mahmudov, G. Raximov kabi tilshunoslar o'zbek tilidagi gap tuzilmalarini pragmatik va sintaktik jihatdan yoritishda to'liqsiz gaplarga ham e'tibor qaratgan [5:290]. X. Narbayeva esa [6:37-40] tadqiqotlarida bevosita va bilvosita to'liqsiz fe'llarning semantik-strukturaviy xususiyatlari, to'liqsiz gaplarda ishlatiladigan fe'l birliklari, ularning kontekst asosida ma'no kasb etishi tahlil qiladi, zamonaviy yondashuvlar bilan sintaktik-psixologik izohlar beradi.

Ingliz va o'zbek tillarida to'liqsiz gaplar umumiy xususiyatlarga ega bo'lishsa-da, ularning tuzilishi va qo'llanilishi bir qancha farqlarga ega. Nutq vaziyatidan ma'lum bo'lgan bo'laklarning tushirilishi va ko'pincha dialogik nutqda qo'llanilishi ikkala tildagi umumiy xususiyatlar qatoriga kiradi. Shuning bilan birga, to'liqsiz gaplarning o'zaro farqli jihatlarini har ikki tilning grammatik tuzilishi va qo'llanish kontekstida ko'zga tashlanadi, ya'ni o'zbek tilida to'liqsiz gaplar ko'proq sintaktik tuzilish bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilida bu holat kamroq uchraydi. Qolaversa, ingliz tilida to'liqsiz gaplar ko'pincha rasmiy yoki norasmiy so'zlashuvlarda qo'llanilsa, o'zbek tilida bu holat ko'proq norasmiy so'zlashuvlarda uchraydi [7:69-71]. Quyida ellipsisning ingliz va o'zbek tilida qanday turlari mavjud bo'lishi mumkinligi va ular qanday tarzda tadqiq etilayotganiga doir umumlashtirilgan ko'rinish berilgan:

1. Sintaktik ellipsisda gapning grammatik tuzilmasida ba'zi qismlar (ayniqsa otlar yoki fe'l frazalari) tushib qolgan bo'ladi, lekin matn orqali ular anglashiladi.

He likes coffee, she tea – U qahvani yoqtiradi, u esa choyni.

Bu yerda "likes" (yoqtiradi) so'zi ikkinchi qismda tushirib ketilgan, lekin birinchi qismdan ma'no aniq.

2. Stilistik ellipsis esa ko'proq nutq uslubi va ekspressivlik bilan bog'liqdir. Bunday tur adabiy til, badiiy matnlar yoki xalq og'zaki ijodida uchraydi. "To'liqsiz gaplar badiiy uslubda emotsional

ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi." [5:153-155].

Bahor keldi. Yashnadi dala. Gulladi gul.

Yana bir tuyg'u, yana bir...

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bu yerda "... " ifodasi dramatik pauzani bildiradi, avvalgi fikr to'liq aytilmagan, lekin kontekstdan anglashiladi, yoki ingliz adibi Shekspir qalamiga mansub jumlaning o'ziga xosligi:

To be, or not to be... that is the question.

Bu mashhur jumlada ellipsis pauza bilan falsafiy chuqurlik beradi. Uning yordamida yozuvchi yoki nutq sohibi muayyan ma'no yoki fikrni qisqartirish, lekin uni chuqur va ta'sirli tarzda yetkazish imkonini beradi. Bu esa o'quvchi yoki tinglovchida kuchli emotsional ta'sir uyg'otadi, fikrning kuchli va nozik tomonlarini ochib beradi.

O'zbek tilida ellipsisning badiiy-estetik qimmatini uning ifodalilik, obrazlilik, emotsional kuch va milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bu usul yozuvchi va shoirlarning ijodida asarlarning estetik go'zalligini oshiradi, fikr va tasvirlarni qisqartirish orqali chuqur ma'no va ta'sir kuchini kuchaytiradi. Bu orqali yozuvchi yoki shoir o'z fikrini yoki tasvirini qisqartirib, muayyan obraz yoki holatni o'quvchining tasavvuriga taqdim etadi. Bu usul yordamida matn yoki nutq yanada boy va estetik jihatdan jozibali bo'lib, o'quvchi yoki tinglovchining tafakkurini kengaytiradi.

3. Semantik ellipsis gapdagi mazmunli birliklarning tushirilishi lekin ularning kontekst orqali anglashilishini o'rganadi. Og'zaki nutqda keng qo'llanilib, savol-javoblarda, dialoglarda ko'p uchraydi.

Bugun bozorga borasanmi?

– Ertaga.

(To'liq shakli: Yo'q, bugun emas, ertaga boraman).

4. Qiyosiy ellipsis, bu yo'nalishda o'zbek tili boshqa tillar bilan solishtirilib, ellipsisning turli grammatik shakllari tahlil qilish orqali qiyoslanayotgan tillardagi to'liqsiz gaplarning strukturaviy o'ziga xosliklari aniqlanadi (masalan, ingliz, rus yoki turkiy tillar bilan).

O'zbek tilida ellipsis turlari tizimli tasnif asosida to'liq kamroq o'rganilgan deyishimiz mumkin, biroq ingliz tilida to'liqsiz gaplar sohasida tadqiqot olib borgan mashhur tilshunos olimlar keng qamrovni tashkil etadi:

Tadqiqodchi C. Phillips va D. Parker ishlari to'liqsiz gap qurilmalarini ongda qanday aks etish mexanizmini tushunishga qaratilgan[8:78-95]. J. Merchant esa to'liqsiz gaplar bo'yicha eng yetuk tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U ayniqsa sluicing (ya'ni qisqartma so'roq gaplar) va preposition stranding (predloglarning qoldirilishi) masalalariga e'tibor qaratgan[9:121-124].

I.A. Sag, E. Williams, J. Grinder kabi olimlar esa to'liqsiz gaplarni grammatik nazariyalar doirasida o'rganishga qaratilgan[9:118].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** To'liqsiz gaplar nutqning tabiiylikini oshirish va ortiqcha takrorlardan qochish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ularning fikriga ko'ra, ko'pchilik ellipsis shakllari ixtiyoriy bo'ladi. Masalan:

He will help, and she will (help), too.

Bu yerda ikkinchi "help" so'zini aytish yoki aytmaslik gapiruvchining ixtiyoriga bog'liq bo'ladi.

To'liqsiz gaplarning real muloqotdagi uchrash ko'lami statistik ma'lumotlar orqali ham aniqlangan. Bu maqsadda ingliz va o'zbek tillarida mavjud korpuslar asosida tahlillar o'tkazilgan. Ingliz tili korpusi asosidagi kuzatuv British National Corpus (BNC) va Corpus of Contemporary American English (COCA) ma'lumotlariga ko'ra, ellipsis hodisasi ayniqsa quyidagi vaziyatlarda keng uchrashini ko'rishimiz mumkin:

Og'zaki nutqda: 62%

Dialogik matnlarda: 55%

Badiiy asarlarda: 41%

Rasmiy maqolalarda: 17%

Ta'kidlab o'tish joizki, ingliz tilida to'liqsiz gaplar badiiy asarlarda ham, xususan, ulardagi dialoglarda keng qo'llaniladi. Ular asarning ta'sirchanligini oshirish, obrazlarni jonliroq tasvirlash va muloqotning tabiiy oqimini saqlash uchun ishlatiladi. Masalan, Artur Konan Doylning "Sherlok Holms" hikoyalarida to'liqsiz gaplar dialoglarni qisqartirish va tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi [10:55-60]. Bunday gaplar asarning saviyasini oshiradi, o'quvchida chuqur his-tuyg'ular uyg'otadi va obrazlarni yanada real qiladi. To'liqsiz gaplar yordamida yozuvchi muloqotning tabiiy oqimini saqlab, o'quvchini asar bilan chuqurroq aloqaga jalb qiladi.

O'zbek tilida bunday rasmiy korpuslar hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, "O'zbek tilining milliy korpusi" (<https://corpus.ziyonet.uz>) orqali quyidagi umumiy kuzatuvlar qilingan:

Og'zaki suhbatlar va dramatik asarlarda: 60–65%

Publitsistik va norasmiy maqolalarda: 30%

Rasman yozilgan matnlarda: 10%

O'zbek tilida eng keng tarqalgan ellipsis turlari:

Fe'l tushirilgan gaplar: 48%

Egasi tushirilgan gaplar: 27%

Gap bo'lagi va ergash gaplarning tushirilishi: 25%

Misol (drama matnidan):

– Bozorga?

– Kechqurun. (Bu yerda to'liq shakli: Bozorga borasanmi? Kechqurun boraman).

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda ham to'liqsiz gaplar og'zaki muloqotda, dramatik matnlarda va badiiy nutqda yuqori foizda uchraydi. Ingliz tilida bu hodisa rasmiy maqolalarda kamroq ko'rinadi, o'zbek tilida esa norasmiy kontekstlarda erkin ishlatiladi. Korpus tahlillari to'liqsiz gaplarning tabiiy nutqda real qo'llanilishini, uning funksional yukini va muloqot jihatidan samaradorligini aniq ko'rsatadi.

Qayd etish lozimki, ingliz tilida to'liqsiz gaplar maqsad va vazifasi nuqtayi nazaridan keraksiz takrorlarni oldini olish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari gapni ixcham va tabiiy qilishga xizmat qiladi. Ko'pincha og'zaki nutqda va norasmiy yozuvlarda uchraydigan bu til hodisasi deyarli barcha tillar uchun xosdir. Xuddi shuningdek, o'zbek tilida ham lisoniy birliklarni tejash, matnda aniq bo'lgan ma'lumotni takrorlamaslik uchun so'zlovchi yoki yozuvchi to'liqsiz gaplardan foydalanadi. Har ikkala til uchun umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan to'liqsiz gaplar sintaktik struktura jihatidan ham o'xshashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

<https://en.m.wikipedia.org/wiki/Ellipse>

<https://oefen.uz/uz/documents/diplom-ishlar/umumiy/sintaktik-tarkibi-qisqargan-gaplar-tadqiqi-va-ta-limi-1>

Sayfiyev, N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – B.210-213.

Xudoyberganov, Q. Hozirgi o'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B.134.

Jo'raev M., Mahmudov, H., Raximov, G. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: Fan, 2002. – B.290.

Narbayeva X. A. To'liqsiz fe'llar // Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – № 5. – B.37-40. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11119725>.

Maripjonov B. Sh. Ingliz va o'zbek tillarida o'xshatishlar va ularning tahlili // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari / Innovative Academy, 2023. — B.69-71. — DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8162686>.

Phillips C., Parker D. The psycholinguistics of ellipsis // *Lingua*. – 2014. – Vol. 151. – P.78-95. – DOI: 10.1016/j.lingua.2013.10.003.

Frazier L., Clifton Ch. Jr. The Syntax–Discourse Divide: Processing Ellipsis // *Syntax*. – 2005. – Vol. 8, № 2. – P.121-124. – DOI: 10.1111/j.1467-9612.2005.00077.x.

Bekberganova G.M. Ingliz va o'zbek tillaridagi so'roq gaplarning tarjima jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlaridagi o'xshash va farqli tomonlari // *Journal of New Century Innovations*. – 2023. – №1(6). – B.55-60.

## POETIK NUTQNING ANTROPOSENTRIK TAHLILI LINGVISTIK HODISA SIFATIDA (Jamol Kamol ijodi misolida)

Akramova Surayo Renatovna.,  
 BDPI boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti (PhD)

*Annotatsiya. Mazkur maqolada har bir nutqiy aktning individualligi, inson etikasi, ruhiyati, dunyoqarashi nutqida aks etishi, har bir harakat, ijtimoiy munosabat markazida inson obrazi yetakchilik qilishi o'zbek shoiri Jamol Kamol ijodi misolida yoritib berilgan.*

*Аннотация. В статье на примере творчества узбекского поэта Джамола Камола подчеркивается индивидуальность каждого речевого акта, отражение в речи этики, психологии и мировоззрения человека, доминирование образа человека в центре каждого действия и общественных отношений.*

*Annotatsion. The article, using the example of the work of the Uzbek poet Jamol Kamol, emphasizes the individuality of each speech act, the reflection of ethics, psychology and worldview of a person in speech, the dominance of the image of a person in the center of each action and social relations.*

Til shaxsi muammosi G.I.Bogin, Yu.N.Karaulov, S.G.Vorkachev, V.A.Maslova, A.N.Baranova, K.F.Sedov, V.V.Krasnix, V.I.Karasik, V.P.Neroznak, G.G.Infantova, I.V.Golubeva va boshqa olimlar ishlarida o'rganilgan bo'lib, I.V.Golubeva, O.L.Morozovalarning "filologiyada uzoq vaqtlardan oldin paydo bo'lgan va V.V.Vinogradov nomi bilan bog'liq bo'lgan til shaxsiga e'tibor hozirgacha o'z kuchini yo'qotgani yo'q" degan fikrlarga tayanilmoqda.

Ma'lum bir badiiy asar tilini to'kis tadqiq etish uchun tilshunoslik doirasidagina ish ko'rishning o'zi kamlik qiladi. Shu bois, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda boshqa fanlar yutuqlaridan ham keng foydalanilmoqda. Ana shunday urinishlarning samarasi o'laroq, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, pragmalolingvistika kabi sohalar rivoj topmoqda va bu sohalar tilga, an'anaviy strukturalizmdan farqli ravishda doimiy harakatdagi, o'sish-o'zgarishdagi hodisa sifatida yondashayotgani bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sotsiolingvistika ham jamiyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo'lgan soha sifatida tilning asoslarini jamiyatdan, jamiyatning asoslarini tildan qidiradi, ijtimoiy-siyosiy omillarning tilga ta'siri kabilarni inobatga oladi.

She'riy nutqqagina xos deb qaraladigan bir qancha tasviriy vositalar nasriy asarlarga nisbatan lirik matn tilida bo'rttiribroq ko'rsatilishi bilan xarakterlanadi. Mana shu jihatlar hisobga olinganda, she'riyat tili o'ziga xos hisoblanib, uning xususiyatlarini o'rganish har bir davrda ham kitobxon ahlida, adabiyotshunoslik olamida qiziqish uyg'otgan masala sanalmoqda. Lirik nutqning o'ziga xos ajralib turuvchi bir qator jihatlari bo'lib, lirik nutq mohiyatan turli ifoda vositalari, uni yuzaga chiqaruvchi usullarga, tashbehlariga asoslanuvchi obrazli, ta'sirchan ifodadan ham iboratdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har qanday nutq mohiyatidan kelib chiqib saralab, tanlab ishlatilgan so'zgina shoir ichki kechinmalarini, poetik fikrni to'liq ifodalashiga sabab bo'ladi. Albatta, she'riyat tili ham nutqning barcha turlari singari adabiy til uchun umumiy bo'lgan lug'at bazasiga tayanadi. Lug'at fondidagi eng sara, ta'sirchan, ekspressiv bo'yoqdorligi yuqori bo'lgan leksik birliklar esa poetik so'zlar qatlamining vujudga kelishi uchun asos bo'lgani ma'lum.

Har qanday til jamiyat bilan birgalikda uzluksiz taraqqiy etib borar ekan, lingvistik omillar tilshunoslar oldiga yangi-yangi masalalarni ko'ndalang qo'yaveradi. Ayniqsa, badiiy asar tilini o'rganish o'zbek tilshunosligining hozirgi kunda eng ahamiyatli jihatidir. She'r poetik nutq talablari asosida ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solingan, hayotga munosabatni his-tuyg'ular vositasida ifodalaydigan, o'quvchiga estetik ta'sir etadigan, muayyan ritmik qurilishga ega

bulgan ijod mahsulidir. She'riyatda ohangdorlik yoki xushohanglikni ta'minlash eng birinchi shart hisoblanadi. Unda so'zlar tarkibida qatnashuvchi tilning eng kichik birligi fonemalar ham, qofiyalar ham xushohanglikka xizmat qilishi lozim. Bularning hammasiga til vositalari orqali erishiladi. Ayni shu o'rinda tilshunoslik bilan adabiyotshunoslikning tekshirish ob'ekti ham, manfaati ham to'qnashadi.

Badiiy matnning lisoniy tahlili haqidagi yuqorida aytilgan nazariy bilimlarga tayangan holda, o'zbek adabiyotida alohida mavqega ega bo'lgan Jamol Kamol ijodida qo'llangan so'zlardagi ko'p ma'nolilik, ularning qo'shimcha ma'nolarini o'rganuvchi polisemiyadan, aytmoqchi bo'lgan fikrni kuchaytirish, ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llangan omonimlardan, jummalarda bir xillikdan qochish, emotsionallikni ta'minlash va uslubiy ravonlikka erishish uchun qo'llanadigan sinonimlardan, predmet va hodisalarning sifatini, qarama-qarshi ma'nolarini ifoda etishda antonimlardan, lirik qahramon nutqining tabiiyligini ta'minlashda dialektizmlardan, tarixiy yoki zamonaviy hayotning tasvirida, ijtimoiy muhitning koloritini yaratganda eskirgan so'zlardan mohirona foydalanganini ko'ramiz.

“Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo'lar ekan”, bunda leksemalar shakliy jihatdan leksik omonimlar va paronimlarda yuzaga chiqsa, mazmuniy jihatdan leksik sinonimiya va antonimiya, graduonimiya kabi semantik paradigmalarda voqelanadi. Qalam ahli leksemalarning mazkur semantik munosabatidan unumli foydalangan holda o'z ijod namunalarining ta'sirchanligini ta'minlashga erishmoqdalar. Jamol Kamol she'rlarida ham leksik semantik munosabat uyg'un tarzda ifodalangan jihatlarni ko'p o'rinlarda uchratish mumkin. Shoir she'rlarida qo'llangan leksemalarning paradigmatic munosabatidan yuzaga kelgan leksik-semantik tabiati o'zgacha ifodalarda ko'rinadi.

“She'riyat tili, leksikasi” tushunchasi juda keng tushunchadir. Badiiy asar tilining badiiyligi, obrazlilik va ta'sirchanligi, janr xususiyatlariga ko'ra bu tushunchalar ma'nosi keng bo'lib, she'riyatda qo'llanadigan barcha til birliklarini, so'z shakllarini, shu o'rinda, poetik leksikani ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, poetik leksika o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Poetik leksikaning poetik nutq uchun tabaqalanishiga tilning o'zi imkoniyat yaratib beradi. Bu imkoniyatdan foydalanish holati esa shoirning iqtidor va mahoratini belgilab beradi. Har qanday badiiy asarning abadiy asar darajasiga ko'tarila bilishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog'atiga bog'liq. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o'ziga xosligi tahlil etilishi zarur. Til va ijodkor o'rtasidagi munosabat shundayki, har bir so'zning mavqeyi, darajasi, ifoda yo'sini avvaldan belgilangan. Ana shu ma'no ifodasini tugal egallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli ijodkor tamoman yangi, kutilmagan ma'noviy burilishlar qiladi, betakror kombinatsiyalar yaratadiki, asarga tushunarlilik, xalqchillik imkonini beradi. Tilda ham har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, yangi semani paydo qila oladiki, kitobxon adibning g'oyasi bilan o'z-o'zidan tanishadi. Bunda shoir umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

So'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emas ekanligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatta, so'zning qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo ta'kidlash joizki, bunday qo'shimcha ma'no nozikliklari aksar hollarda, avvalo, so'z ma'no qurilishining o'zida imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi, ular so'zning ma'no qurilishi tarkibida ilgaridan qayd etilgan bo'ladi.

Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasi mavjud bo'lib, bu masalani monografik tarzda tadqiq etgan V.N. Teliya

ta'rificha, «konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okkozional ravishda kiradigan, nutq subyekting borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy – baholash va uslubiy munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat"dir . Konnotatsiya – so'zlovchining borliqni ifodalash vositalariga munosabatiga daxldor bo'lgan jihatdir. "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida so'z narsa-hodisani ifodalashi barobarida ko'pincha shu narsa-hodisaga so'zlovchining sub'yektiv munosabatini ham anglatishi alohida ta'kidlangan: «...Lug'at tarkibidagi so'zlarni kuzatish ularning ba'zilar biror narsa yoki hodisalarni atabgina qolmay, ayni paytda so'zlovchining ifodalanayotgan tushunchaga o'z bahosini, munosabatini ifodalanishini ham ko'rsatadi. Bu munosabat doirasiga taassuf, xitob, sog'inch, alam, ko'nikish, alqash kabi xilma-xil emotsional munosabat ko'rinishlari kiradi. Xususan, Jamol Kamol ijodida vatanni onadek mehribonligini atovchi siynayi olam; chok-chok bo'lgan qalbni ifodalovchi dilpora; zamondagi holatga nisbatan kuchli achinish, g'azabni ifodalovchi nochorlik, notavonlik, xo'rlik, haqirlik leksemalarining ketma-ket keltirilishi ma'lum tushuncha anglatishdan tashqari, so'zlovchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobiy va salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham ko'rsatib turadi. Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda so'zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi. Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo'lgan leksika emotsional - ekspressiv leksika deb yuritiladi.

Poetik sathni lisoniy tahlil qilish jarayonida shoirning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaiik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanishi shoir she'riyatiga xos individualligini ko'rsatuvchi omillar desak bo'ladi.

Jamol Kamol she'rlari misolida ifodadorlikni oshiruvchi ekspressiv bo'yoqdorlikka ega leksemalardan unumli foydalanishning betakrorligini ko'ramiz. Zero, shoir nutqida ifodalanayotgan tushunchani butun emosional bo'yog'i bilan aniq ifodalash talab qilinadi. Bu jarayonda nutqiy vosita sifatida asosiy vazifani leksema bajaradi. So'z o'zida mavjud bo'lgan ma'lum bir qirradi bilan she'riy nutqning ko'tarinkiligi, ifodadorligini yuzaga chiqaradi. Jamol Kamol she'rlarida umumnutqqa tegishli an'anaviy so'zlar bilan bir qatorda poetik so'zlarning ma'lum bir uslubiy vazifa bajariganiga guvohi bo'lamiz:

Mehr ham o'zingsan, tobon ham o'zing,

Shu so'ngsiz, qiroqsiz koinotga bosh .

Shoir ijodiga mansub "Nido" she'rida quyoshga nisbatan an'anaviy "mehr" leksemasi qo'llangan. Fors-tojik tilidan o'zlashgan "tobon" so'zi "yorug', porloq, yaltiroq, yorqin, nurli" so'zlariga ma'nodosh sifatida ishlatiladigan leksema bo'lib, she'riy nutqda "mohi tobon, xurshidi tobon" izofali birikma tarkibida qo'llangan. Ushbu birlik uslubiy vazifa bajarganki, umumnutqqa tegishli so'z sifatida qaralmaydi. Keyingi misrada ham xuddi shu jarayonni kuzatamiz, ya'ni "koinot"ga tashbeh sifatida "so'ngsiz" birligi keltirilganki, bu so'z an'anaviy umumiste'moldagi birlik deb qaraladi. "Qiroqsiz" birligi esa o'zbek tilining izohli lug'atida uchramaganini alohida qayd etish lozim. Bu shoirning poetik nutqidagi topilmalardan biri bo'lib, koinotning chegarasizligi, hadsizligini ifodalashga xizmat qilayotgani ma'lum. Chunki qirg'oq suv havzasi birikmasi bilan birga qo'llanadigan, mazmunan "daryo, dengiz" leksemalari bilan yonma-yon turishini e'tiborga olsak, "koinot" leksemasiga nisbatan "qiroqsizlik" "chek-chegarasizlik" ma'nosini tashiydi.

Lingvistik tahlildan shuni ko'rish mumkinki, ijodkorlarning so'z qo'llash mahorati natijasida til yangi so'zlar bilan boyib boradi. Ayni paytda muallif so'z ijodkorligini ifodalovchi lisoniy vositalar muallifning til va tilshunoslik qonuniyatlaridan xabardorlik darajasini, ijodiy uslubining o'ziga xos jihatlarni ham ko'rsatadi. Shu tufayli muallif so'z ijodkorligi badiiy matn, xususan, she'riyatda muhim estetik vazifa bajaradi. Ijodkorning individual mahoratini namoyon etadigan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va boshqa lisoniy vositalarga kognitiv yondashuv, ularning

qo'llanilish tamoyillarini aniqlash, shubhasiz, jahon tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida mavzuni yoritish zaruratini yuzaga keltiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jamol Kamol. Saylanma. Olti jildlik. I jild. Asr bilan vidolashuv. – Toshkyent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018. – B.131.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent. 2005. –B.151.
3. Караулов, Ю. Н. (Вступительная статья) // Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – 216 с.
4. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М. 1986, с-5
5. Эрназарова И. Муаллиф сўз ижодкорлигининг тил лексик қатламини бойитишдаги аҳамияти // Ўзбекистонда илм-фан ва таълим. Республика илмий конференция материаллари. – Қўқон, 2020. – Б. 113-117.

## LINGVOKULTUROLOGIYANING TARIXI VA TEORIK ASOSLARI

Djabbarova Feruza Azamovna  
 Osiyo Xalqaro instituti tayanch doktoranti

*Annotatsiya. KIRISH:* Ushbu maqolada lingvokulturologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida uning rivojlanish tarixi va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Kishilar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy-siyosiy, madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator masalalarni kun tartibiga qo'yishni talab qilmoqda Bu esa tilshunoslik va madaniyatshunoslik o'rtasida alohida, o'z yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan lingvokulturologiyaning chuqur tadqiq etilishiga sabab bo'lmoqda.

*MAQSAD:* Zamonaviy ta'lim tizimida lingvokulturologiyaning nazariy asoslar, zamonaviy yondashuvlarni o'rganish bo'lib, tilshunoslikning ilmiy fan sifatidagi maqomini belgilashda muhim ahamiyatga ega

*MATERIALLAR VA METODLAR:* Ushbu maqolada lingvokulturologiyaning tarixi va nazariy asoslarini tahlil qilish uchun turli xil metodlardan foydalanildi: adabiyotlarni tahlil qilish, amaliyotga oid tadqiqotlar, statistik tahlil

*MUHOKAMA VA NATIJALAR:* Ushbu maqolada lingvokulturologiyaning tarixi va nazariy asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvokulturologiya til, tafakkur va madaniyatning murakkab o'zaro ta'siri haqida tanqidiy fikrlarni taqdim etuvchi dinamik soha bo'lib, uning lingvistik nisbiylik va madaniy semiotikadagi tarixiy ildizlari mustahkam nazariy asosga aylanib, madaniyatlararo muloqot va madaniy o'ziga xoslik haqidagi ilmiy tushunchalarni boyitadi.

*XULOSA:* Til nafaqat madaniyat bilan bog'liq, balki u o'zida madaniyatning o'sishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning o'zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta'minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma'naviy madaniyat hamda borliqdagi real hayotiy ehtiyoj resurslari yaratiladi.

*Kalit so'zlar:* Lingvokulturologiya, til, madaniyat, nazariy asos, til birliklari, nazariya, semiotika, antropologiya, madaniyatshunoslik, madaniy kod

*Аннотация. ВВЕДЕНИЕ:* В данной статье анализируется история развития и теоретические основы лингвокультурологии как отдельной области языкознания. Экономико-политические, культурные коммуникативные процессы между людьми, народами, странами требуют постановки на повестку дня ряда вопросов в области лингвистики, таких как взаимодействие языков и языковая культура, а также национальное своеобразие языка. Это приводит к глубокому изучению лингвокультурологии, которая имеет свое направление и предмет между лингвистикой и культурологией.

*ЦЕЛЬ:* изучение теоретических основ лингвокультурологии в современной системе образования, современных подходов, имеющих важное значение в определении статуса лингвистики как научной дисциплины.

*МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:* в данной статье для анализа истории и теоретических основ лингвокультурологии были использованы различные методы: анализ литературы, практические исследования, статистический анализ.

*ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:* Лингвокультурология - это динамичная область, которая представляет критические взгляды на сложное взаимодействие языка, мышления и культуры, и ее исторические корни в лингвистической относительности и культурной семиотике становятся прочной теоретической основой, обогащая научное понимание межкультурной коммуникации и культурной идентичности.

*ЗАКЛЮЧЕНИЕ:* Язык не только связан с культурой, но и представляет собой рост

культуры. Язык одновременно является инструментом творчества, частью культуры, обеспечивающей ее развитие и сохранение, поэтому с помощью языка создаются ресурсы духовной культуры и реальных жизненных потребностей бытия.

*Ключевые слова:* Лингвокультурология, язык, культура, теоретическая основа, языковые единицы, теория, семиотика, антропология, культурология,

*Abstract. INTRODUCTION:* This article analyzes the history and theoretical foundations of linguoculturology as a separate branch of linguistics. Economic-political, cultural-communicative processes between people, peoples, and countries require putting on the agenda a number of issues in the field of linguistics, such as the interaction of languages and language culture, as well as the national identity of language. This leads to the in-depth study of linguoculturology, which has its own direction and subject between linguistics and cultural studies.

*OBJECTIVE:* studying the theoretical foundations of linguoculturology in the modern education system, modern approaches, which is important in determining the status of linguistics as a scientific discipline.

*MATERIALS AND METHODS:* In this article, various methods were used to analyze the history and theoretical foundations of linguoculturology: literature analysis, practical research, and statistical analysis.

*DISCUSSION AND RESULTS:* In this article, the history and theoretical foundations of linguoculturology are analyzed from a scientific and theoretical point of view. The results of the study show that linguoculturology is a dynamic field that presents critical views on the complex interaction of language, thought, and culture, and its historical roots in linguistic relativity and cultural semiotics become a solid theoretical foundation, enriching scientific understanding of intercultural communication and cultural identity.

*CONCLUSION:* Language is not only connected with culture, but it also represents the growth of culture. Language is at the same time a tool of creation, a part of it that ensures the development and preservation of culture; therefore, with the help of language, spiritual culture and resources of real-life needs in existence are created.

*Keywords:* Linguoculturology, language, culture, theoretical basis, language units, theory, semiotics, anthropology, cultural studies, culture

Hozirgi davrda tilshunoslik fanining rivojlanishining yuksalish davri bir qator mavjud omillar bilan izohlanadi: jahon muammolarining tez globallashuvi, turli xalqlarning xatti-harakati va muloqotining umuminsoniy va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurati; gumanitar fanlar rivojlanishining ob'ektiv integral tendentsiyasi, tilshunoslarning turdosh bilim sohalari (psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, madaniyatshunoslik, litologiya va boshqalar) vakillari tomonidan olingan natijalarni o'zlashtirish zarurati; lingvistik bilimlarning amaliy tomoni, tilni ommaviy axborotning kommunikativ muhitida reklama va siyosiy ta'sir amaliyotida to'g'ridan-to'g'ri chiqish yo'llarini topadigan jamoaviy tajribani jamlangan tushunish vositasi sifatida tushunish. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni tushunish tabiati nafaqat ekstralingvistik, balki jamiyatning ma'naviy va moddiy madaniyati kabi fandan tashqari omillarga ham bog'liq. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish tarixi ming yillarga borib taqaladi. Tilning madaniyat shakllantiruvchi tabiati klassik antik davr faylasuflari asarlarida tadqiqot ob'ektiga aylangan.

Lingvokulturologiyaning ildizlari 20-asr boshlaridagi lingvistik va antropologik an'analarga borib taqaladi. Turli ilmiy maktablar til va madaniyat o'rtasidagi munosabatga turlicha qarashadi, biroq ularning deyarli barchasi madaniyat va til bir-biri bilan uzviy bog'liqligini tan oladi. V.Gumboldt, L.Vintgenshteyn, E.Sapir, B.Vorf, D.Fodor, P.O.Yakobson, I.A.Korten, L.Boduin, L.A.debning asarlari tasdiqlaydi. Vygotskiy, N. I. Jinkin, N. I. Tolstoy, Yu. M. Lotman, A. Vejbitskaya, V. N. Telia, V. G. Kostomarov, E. M. Vereshchagin, G. A. Brutyan, N. D. Arutyunova

, N. V. Ufimtseva va boshqa ko'plab tadqiqotchilar til va madaniyatning o'zaro ta'siri bo'yicha fundamental qoidalarni ilgari surdi, bu esa lisoniy nisbiylik nazariyasini yaratishga turtki bo'ldi va antropotsentrik tilshunoslik rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Vilgelm fon Gumboldtning asarlari tilni dunyoqarash (Weltanschauung) sifatida ta'kidlab, har bir til voqelikni idrok etishning o'ziga xos usulini o'zida mujassamlashtirganini ko'rsatdi [1]. G'arb tilshunosligidagi alohida olimlarning til va madaniyat o'rtasidagi munosabat masalasiga o'ziga xos yondashuvlari A. S. Aleshin monografiyasida tahlil qilingan. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar muammosini rivojlantirishga AQShda tilshunoslikning antropologik yo'nalishi vakillari Edvard Sapir va Benjamin Li Uorf Sapir-Uorf gipotezasini ishlab chiqdilar, lingvistik nisbiylikni taklif qildilar: tilning tuzilishi so'zlashuvchilarning bilishi va madaniy dunyoqarashiga ta'sir qiladi[2]. Bu g'oyalar tilning madaniy singdirilishini o'rganish uchun asos yaratdi. 1930-yillarda B.Vorf, E.Sapir g'oyalari asosida ishlab chiqilgan lingvistik determinizm gipotezasi nazariyasining muqaddimasi, amerikalik antropolog F.Boasning asarlari deb hisoblash mumkin. U birinchilardan bo'lib til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni e'tiqod va qadriyatlar tizimi sifatida ta'kidlagan F.Boas boshqa madaniyatni uning tiliga to'g'ridan-to'g'ri kirmasdan tushunish mumkin emasligini ta'kidladi.

D.Xayms birinchilardan bo'lib til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni yangicha shaklda shakllantirdi, nutq etnografiyasi odatda grammatiklar tomonidan o'rganiladigan narsalar (ya'ni, tilning tuzilishi) va nima o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligini ta'kidladi. Nutq etnografiyasi sohasidagi tadqiqotchining vazifasi tilning tarkibiy elementlari va uning ijtimoiy-madaniy kontekstda qo'llanilishini belgilovchi tamoyillar to'g'risida ona tilida so'zlashuvchining nuqtai nazarini aniqlashdir. G. Palmer bu yondashuvni madaniy tilshunoslik deb atashni taklif qildi[3]. G. V. Elizarova ishida madaniy tilshunoslik atamasi ma'noning madaniy komponentini aniqlashga qaratilgan har qanday lingvistik tadqiqotlar va tavsiflarni bildirish uchun ishlatiladi. Stepanov til va madaniyatning ajralmasligini innovatsion tarzda ifodalab, til jamoaviy qadriyatlar, e'tiqodlar va tarixiy tajribalarni kodlovchi madaniy kod sifatida ishlashini ta'kidladi. Olim lingvistik dunyoqarash, madaniy kod va etnospesifik leksik birliklar kabi muhim tushunchalarni kiritdi va ishlab chiqdi, olimlarga madaniyatning til orqali qanday namoyon bo'lishini tahlil qilish uchun konseptual vositalar bilan ta'minladi[4]. Ushbu atamalar lingvomadaniyatshunoslik fanlarida asosiy o'ringa ega bo'lib, fanlararo dialoglarda yordam beradi. Bu sof strukturaviy lingvistik tahlildan madaniy kontekstli til tadqiqotlariga paradigma siljishini kuchaytirib, madaniyatlararo muloqot va etnolingvistika sohasidagi keyingi tadqiqotlarga ta'sir ko'rsatdi. Sababi bungacha til va madaniyat o'rtasidagi munosabat tilshunoslik, antropologiya va madaniyatshunoslik bo'yicha tarqoq yo'llar bilan o'rganilgan. Stepanovning nazariy asoslari ixtisoslashgan soha sifatida lingvokulturologiyaning ko'lami, maqsadlari va metodologiyasini belgilab beruvchi yagona yondashuvni ta'minladi.

Lingvokulturologiyaning nazariy asoslari tilshunoslik, semiotika, antropologiya va madaniyatshunoslik tushunchalarini birlashtiradi. Uning nazariy asosi quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

Til madaniy kod sifatida-Til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy kodlash tizimi sifatida ham ko'rib chiqiladi. So'zlar va iboralar madaniyatga xos bo'lgan, jamiyat madaniyatiga kiritilgan qadriyatlar, me'yorlar va e'tiqodlarni ochib beruvchi ma'nolarni o'z ichiga oladi[5].

Lingvistik dunyoqarash (lingvistik ong)-Bu kontseptsiya tilning kognitiv doiralar va madaniy in'ikoslarni shakllantirish usulini bildiradi. Lingvokulturologiya tilning fikrlash shakllarini qanday qurishini, tajribani tasniflashini va ma'ruzachilar uchun haqiqatni qurishni o'rganadi[6].

Madaniyatga xos leksik birliklar-Madaniy meros va bilimlarni kodlaydigan idiomalar, maqollar, metaforalar va leksik maydonlar kabi etnospesifik yoki madaniyatga bog'liq leksik birliklarga katta e'tibor qaratilgan[7]. Ushbu birliklar o'zlarining madaniy jihatdan o'ziga xos ma'nolari tufayli ko'pincha tarjima va madaniyatlararo muloqotda qiyinchiliklar tug'diradi.

Semiotik va kognitiv yondashuvlar-Lingvokulturologiya lingvistik belgilarning madaniy

ma'nosini dekodlash uchun semiotik tahlildan va madaniy tushunchalarning aqliy tasavvurlarini o'rganish uchun kognitiv lingvistikadan foydalanadi.

Shunday qilib, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar muammosini rivojlantiruvchi hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan barcha ilmiy yo'nalishlar u yoki bu tarzda Sapir-Uorf lisoniy nisbiylik nazariyasiga asoslanadi. Shu bilan birga, xulosa qilish mumkinki, antropologik tilshunoslik, nutq etnografiyasi (muloqot) va madaniy tilshunoslik falsafa, antropologiya, etnografiya, psixologiya, kognitiv fanlarning sintezini ifodalaydi, ya'ni so'zsiz ahamiyatiga qaramay, hozirgi vaqtda ushbu yo'nalishlarning aniqlangan ilmiy ma'nosiga ega emas. Ushbu ilmiy fanlar yoki o'zlarining kontseptual apparatlari uchun mustaqil maqom. Ushbu tadqiqot yo'nalishlarining barchasi madaniyatlararo muloqotni optimallashtirishga qaratilgan.

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida ko'rindi[8]. Tilshunoslikka oid bir qancha mashhur ta'riflarni keltiramiz: “tilshunoslik madaniyat va filologiyani o'rganuvchi fanlar o'rtasida chegaradosh bo'lgan sintezlovchi tipdagi ilmiy fandır”[9]; «tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida paydo bo'lgan va tilda aks ettirilgan va mustahkamlangan xalq madaniyatining ko'rinishlarini o'rganadigan fan»[10]; «etnolingvistikaning til va madaniyatning sinxron o'zaro ta'siridagi mosligini o'rganish va tavsiflashga bag'ishlangan qismi»[8]; Alefirenko zamonaviy tilshunoslikka quyidagicha ta'rif beradi: «Zamonaviy tilshunoslik - bu tilda madaniyat ob'ektlarini ifodalash usullari va vositalarini, tilda ma'lum bir xalqning mentalitetini aks ettirish xususiyatlarini, til birliklari semantikasida madaniyatning qiymat-semantik toifalarini aks ettirish modellarini o'rganadigan ilmiy fan» [11].

Bugungi kunda lingvokulturologiya bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: 1. Lingvokulturologiya yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o'z ichiga oladigan alohida sotsial guruh. 2. Diaxronik lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o'tish vaqtining o'zgarishlarini o'rganadi. 3. Qiyosiy lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatda paydo bo'ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug'ullandi. 4. Tavsifiy lingvokulturologiya. 5. Lingvokulturologik leksikografiya.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, til nafaqat madaniyat bilan bog'liq, balki u o'zida madaniyatning o'sishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning o'zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta'minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma'naviy madaniyat hamda borliqdagi real hayotiy ehtiyoj resurslari yaratiladi. Tilshunos faylasuf olimlar g'oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi va natijada hozirda keskin sur'atlarda rivojlanayotgan bo'limlardan biri bo'lib kelmoqda. Lingvokulturologiya til, tafakkur va madaniyatning murakkab o'zaro ta'siri haqida tanqidiy fikrlarni taqdim etuvchi dinamik soha bo'lib, kengayishda davom etadi. Uning lingvistik nisbiylik va madaniy semiotikadagi tarixiy ildizlari mustahkam nazariy asosga aylanib, madaniyatlararo muloqot va madaniy o'ziga xoslik haqidagi ilmiy tushunchalarni boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Humboldt, W. von. (1999). On Language: The Diversity of Human Language-Structure and Its Influence on the Mental Development of Mankind (M. Heath, Trans.). Cambridge University Press. (Original work published 1836)
- 2.Whorf, B. L. (1956). Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf (J. B. Carroll, Ed.). MIT Press.
- 3.Palmer, Gary B. 1996. Toward a Theory of Cultural Linguistics. Austin, TX: University of Texas Press.
4. Stepanov, Y. S. (1997). Linguoculturology: The Theory and Practice. Moscow: Flinta
5. Lotman, Y. M. (1990). Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. I.B. Tauris.
6. Wierzbicka, A. (1992). Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. Oxford University Press.

7. Sharifian, F. (2017). Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language. John Benjamins Publishing Company
8. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti. –M.: Shkola: Yaziki russkoy kulturi, 1996. P. 288.
9. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya (Teoriya i metodi). –M., 1997. P. 87.
10. Maslova V.V. Lingvokulturologiya v sisteme gumanitarnogo znaniya / Kritika i semiotika. Vip.7. – 2004. P. 238-243.
11. Зиновьева Е. И. Лингвокультурология: от теории к практике. Учебник. — СПб. : СПбГУ; Нестор-История, 2016. — 182 с.

## QADIMGI TURKIY YOZMA MANBALARDA NUTQ ODOBI XUSUSIDAGI QARASHLAR

*Islamov O'tkurjon Hosiljonovich*

*Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti O'zbek va horijiy tillar kafedrasida professori*

*Annotatsiya. Maqolada qadimgi turkiy yozma manbalar, xususan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida nutq odobi bilan bog'liq fikrlar, axloqiy-me'yoriy qadriyatlar tahlil qilinadi. Ushbu asarda keltirilgan maqollar, nasihatlar va izohlar orqali turkiy xalqlarning nutqqa, so'zlash madaniyatiga, hikmatli so'zga bo'lgan munosabati o'rganiladi. Nutq madaniyati tarixiy ildizlarga ega bo'lib, bu qadriyatlar xalq tafakkuri va ijtimoiy ong shakllanishida muhim o'rin tutgan.*

*Kalit so'zlar: nutq odobi, qadimgi turkiy manbalar, Devonu lug'otit turk, so'zlash madaniyati, hikmat, axloq, maqollar.*

## VIEWS ON SPEECH ETIQUETTE IN ANCIENT TURKIC WRITTEN SOURCES

*Islamov Utkurjon Hosiljonovich*

*Professor of the Department of Uzbek and Foreign Languages,  
Institute of Social and Political Sciences.*

*Abstract. This article deals with the issues based on analyzing the ethical and normative views on speech in ancient Turkic written sources, with a focus on Mahmud al-Kashgari's "Devonu lug'otit turk." The text includes numerous proverbs, advice, and commentaries that reflect Turkic people's respect for eloquence, wise speech, and communicative etiquette.*

*Keywords: speech etiquette, ancient Turkic texts, Devonu lug'otit turk, speech culture, wisdom, morality, proverbs.*

## ВЗГЛЯДЫ НА РЕЧЕВОЙ ЭТИКЕТ В ДРЕВНЕТЮРКСКИХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ

*Исламов Уткуржон Хосилжонович*

*Профессор кафедры узбекского и иностранных языков  
Института социальных и политических наук*

*Аннотация. В статье рассматриваются представления о речевом этикете в древнетюркских письменных памятниках, в частности в труде Махмуда Кашгари «Дивану лугат-ит тюрк». Через пословицы, наставления и толкования, приведённые в тексте, раскрывается отношение тюркских народов к культуре речи, мудрости слова и речевым нормам. Речевая культура имеет глубокие исторические корни, сыграв значительную роль в формировании общественного сознания и духовных ценностей.*

*Ключевые слова: речевой этикет, древнетюркские тексты, Devonu lug'otit turk, культура речи, мудрость, нравственность, пословицы.*

**KIRISH.** Nutqda tildan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish haqidagi nazariyalarning shakllanishi juda qadimiy tarixga ega. O'tmishda yashagan ajdodlarimiz tilni insonni tarbiyalovchi, kamolga yetkazuvchi, uning taqdirini o'zgartira oluvchi qudratli vosita, deb bilishgan. Ular inson nutqi uni baxtli yoki baxtsiz bo'lishiga sababchi bo'la oladi, deb ishonganlar. Shu sababli tildan ehtiyotkorlik bilan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishning o'ziga xos tartib-qoidalari, muayyan me'yorlari yaratilgan. Ushbu qoidalarga amal qilish jamiyatga nutq odobi deb yuritiluvchi tushunchaning kirib kelishiga turtki bergan. Nutq odobi haqidagi dastlabki nazariy qarashlar bugungi kunda nutq madaniyati deb yuritiluvchi tilshunoslik sohasining shakllanishiga turtki bergan bo'lib, uning qadimiy ildizlari hisoblanadi. Boshqacha aytganda, nutq odobi, uning sifatleri

bo'yicha bildirilgan qarashlar qadimda yashab o'tgan ajdodlarimiz tafakkurining mevasidir.

O'tmish ajdodlarimiz tilni nafaqat insonlar orasidagi muloqot va munosabat vositasigina emas, balki insonni tarbiyalash, to'g'rilik va adolatga undash, shaxsdagi barcha ijobiy va go'zal fazilatlarni ro'yobga chiqarish, odamni ulug' va mo'tabar amallarga rag'batlantirish vositasi, deb bilganlar.

Tahlil va muhokamalar. Nutq odobida tildan to'g'ri foydalanish ham muhim o'rin tutadi. Masalan, nutqda qo'pol, aytish nojoiz so'zlarni tilga olmaslik ham odob belgisidir. Til madaniyati adabiy tildan foydalanishda umumiy me'yorlarini ko'zda tutsa, nutq odobi esa shaxs nutqining odob-axloq me'yorlariga ko'ra baholanishidir. Bunda nutq odobining aniq talablari, mezonlari, qoidalari muhim o'rin tutadi.

Nutq odobi – bu nafaqat tilga oid madaniyat, balki xalqning umumiy axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiruvchi tushunchadir. Har bir jamiyat o'z tarixiy taraqqiyoti davomida nutqni to'g'ri, chiroyli va samimiy yo'l bilan ifoda etishni ma'naviy mezon sifatida qaror toptirgan. Ayniqsa, qadimgi turkiy yozma manbalar til madaniyati va nutq odobining boy tarixiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi.

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari turkiy xalqlar tili, adabiyoti, turmush tarzi va madaniyatini chuqur aks ettiruvchi bebaho manbadir. Unda so'zlash odobi, to'g'ri va hikmatli nutq, samimiy muloqotga oid ko'plab maqollar, hikmatlar, izohlar uchraydi. Ushbu maqolada anashu fikrlar tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Bu orqali qadimgi til merosi zamonaviy nutq madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatgani ko'rsatib beriladi.

Devon XI asrda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan turkiy qabilalar va ularning til xususiyatlarini o'rganishda va hozirgi ayrim turkiy xalqlarning shakllanishi va taraqqiyotini belgilashda ham muhim ahamiyatga egadir. Devon XI asrdagi hamda undan oldingi va so'nggi davrdagi yozma yodgorliklarni tushunish va o'rganish uchun qimmatli bir qo'llanma bo'lib qoladi [2]. F.A.Abdullayev [1], V.V.Bartold [5], A.N.Kononov [6], V.I.Aslenov[4], A.K.Kurishjenov [7] tomonidan “Devonu lug'otit turk” asarining leksik jihatlari o'rganilgan. 1975-yilda Qirg'iziston davlat universtiteti tadqiqotchisi Z.Musabevaning “Омонимы в “Дивану лугат-ит тюрк” Махмуда Кашгарского” [3] mavzusida yozgan nomzodlik dissertatsiyasi “Devonu lug'otit turk” asarida keltirilgan omonim so'zlarni tahlil etishga qaratilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda til siyosatini yanada qo'llab-quvatlash maqsadida olib borilayotgan ishlarning mazmun-mohiyatini boyitishda o'tgan ajdodlarimizdan qolgan boy madaniy meroslar qatorida “Devonu lug'otit turk” asari ham alohida o'rin tutadi. Asarda keltirilgan nutq madaniyati va odobiga oid fikrlar bizning tadqiqotimiz markazida turgan o'zbek nutq madaniyatining tarixiy ildizlarini ochib berishda asosli manba sifatida xizmat qiladi.

Qiyosiy tilshunoslikning asoschisi mashhur tilshunos M.Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari XI asrda turkiy xalqlar amal qilgan nutq odobi qoidalari haqida qimmatli ma'lumot beruvchi manba hisoblanadi.

Qadimda turkiy xalqlar farzandlarini odob-axloqli qilib tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratishgan va tarbiyaning turli usullari, amaliy yo'llarini o'ylab topishgan. Ular tarbiyaning eng asosiy yo'li til (nutq) odobi deb bilishgan. Bu xulosa M.Koshg'ariyning “Odobning boshi til” (Erdam bashi til) (“Devonu lug'otit turk”. I tom, 131-bet) maqolida aniq o'z ifodasini topgan.

Keltirilgan maqol tilning inson ma'naviy, axloqiy hayotida muhim o'rin tutishini anglatadi. Chunki til insonni uning nutqi orqali ma'naviy, axloqiy dunyosini namoyish qiladigan ko'zgudir. Bu ko'zguning qanchalik tiniq, shaffof, maftunkor bo'lishi odamning axloqiy fazilatlari, ezgu maqsadiga bog'liq. Shu sababli o'tmish ajdodlarimiz nutqqa, uni yaratuvchi til egalari qator talablar qo'yishgan. Suhbatdoshlarning nutqiga e'tibor berib, ularning kommunikativ maqsadi va bu maqsadning ifodalanish usullariga alohida e'tibor qaratishgan. Ular insonning nutqi maqsadli, chin, to'g'ri, foydali va ta'sirchan, mayin va go'zal bo'lishi lozimligini shart qilib qo'yishgan. Bu talablar ko'pqirrali va sermazmun bo'lib, qadimgi yozma manbalarda ham o'z ifodasini topgan.

Jumladan, M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ularning ba'zilari tilga olingan.

M.Koshg'ariyning mazkur asari XI asrda yaratilgan bo'lsa-da, hanuzgacha nutq odobi, nutq madaniyatiga aloqador masalalarni o'rganishda o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Asarda bayon etilgan nutq odobiga oid xulosalar, tavsiyalar nafaqat ushbu asar yaratilgan davr, balki bugungi davr kishilari uchun ham taalluqlidir. Til faktlari esa XI asrdan oldingi davrlarga ham tegishli. Ushbu "Devon"ni arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan professor S.Mutalibov bu haqida shunday yozadi: "Devondagi til faktlari yolg'iz XI asrgagina oid bo'lmay, ular yana ham qadimgi davrlar tilidan ham namunadir. Chunki M.Koshg'ariy til faktlariga tarixiy asosda yondashgan. U o'z oldiga til tarixini yoritib berishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Uning o'z so'zi bilan aytganda, u bu asarni tilning qadimgi holini o'rganuvchilarga narvonlik xizmatini qiluvchi qo'llanma, keyingi davrdagi til o'rganuvchi tadqiqotchilarga unga qiyos qilib foydalanishlari va kerakli ilmiy xulosalarni chiqara olishlariga mos ko'prik qilmoqchi bo'lgan. Shuning uchun u o'z asarida til faktlarining o'sha davrga xos xususiyatlarini ham, avvalgi holatini ham, qadimgi davrlardan boshlab kitob yozilgan davrgacha yuzaga kelgan o'zgarishlarni ham izohlab beradi. Bu jihatdan devon tilning juda qadimgi tarixini, urug'chilik davri tilini ochib berish ahamiyatiga ham ega bo'lgan benihoyat muhim manbadir". [2.26]

Darhaqiqat, M.Koshg'ariy ushbu "Devon"ni yaratishda uning tili bilan qiziquvchilar, o'rganuvchilarga amaliy qo'llanma bo'lishini ko'zda tutgan. U "Devon"da so'zlarni tartiblash va izohlash usuli haqida gapirar ekan, shunday yozadi: "Bu tartib arab tili bilan ikki ulochi ot singari teng poyga qilib o'zib borayotgan turk tilini to'liqroq yoritish jihatdan ham yaxshi edi. Lekin men o'quvchilarga foydalanish masalasiga asoslandim. Men iste'moldagi so'zlarnigina berdim, iste'moldan chiqqanlarni tashladim. Men tutgan tartib to'g'riroqdir". [2.46]

M.Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida nafaqat til faktlarini tahlil qildi, balki jamiyatda shakllangan nutq odobi masalalariga ham munosabat bildirdi. Uning ushbu asarida nutq odobiga oid quyidagi g'oyalar o'z ifodasini topdi:

Insonning maqsadi uning nutqida namoyon bo'ladi:

Chaqmoq tosh chaqilsa, olov tutadi, so'z eshitilsa, maqsad bilinadi.

("Devonu lug'otit turk". II tom, 31-bet )

Yaxshi so'zlarni olimlardan ibrat olib o'rgan:

Olim kishi so'zidan olgil o'git,

Yaxshi so'zlar ta'siri dilga singar.

("Devonu lug'otit turk". I tom, 169-bet)

Ota-onang so'zlarini eshit va har so'zini qadrla:

Eshitib ota-onangning so'zlarini qadrla.

("Devonu lug'otit turk". I tom, 204-bet)

Nutqingda faqat ezgu so'zlarni so'zla:

Yoz ko'rkingga ishonma,

Suvlar uza tayanma.

Yomonlikka o'tlanma,

Tildan chiqaz, ezgu so'z.

("Devonu lug'otit turk". III tom, 176-bet)

M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari mohiyatan lug'at bo'lgani uchun unda til, nutq va nutq odobi, axloq-odobga oid tushunchalarni anglatadigan birliklar ham izohlangan. Xususan, asarda nutq odobi masalalariga aloqador quyidagi birliklar izohi uchraydi:

"Ol mend ezgya sez eshittirdi" – U menga yaxshi so'z eshittirdi ("Devonu lug'otit turk". I tom, 227-bet);

"ushaq" – chaqimchilik ("Devonu lug'otit turk". I tom, 144-bet); "kenedya" – chaynalib so'zladi ("Devonu lug'otit turk". II tom, 23-bet); "chaqdy" – chaqdi, u so'zni uning qulog'iga eshittirdi va u ikki kishining orasini buzdi ("Devonu lug'otit turk". II tom, 24-bet);

“mund” – aljiradi, ozdi (“Devonu lug‘otit turk”. II tom, 38-bet);

“qari er mundi” – qari odam aljiradi, aqldan ozdi (“Devonu lug‘otit turk”. II tom, 38-bet);

“ch‘mg‘uqland” – chaqimchi bo‘ldi (“Devonu lug‘otit turk”. II tom, 319-bet).

“Devonu lug‘otit turk” uchun tuzilgan “Indeks”da ham asarda uchraydigan nutq odobiga oid birliklar izohi hamda o‘nga yaqin maqollar keltirilgan:

“Ichkardi” – yomonladi, chaqdi (“Devonu lug‘otit turk”. Indeks-lug‘at, 102-bet);

“Jalaldi” – tuhmat qilindi (“Devonu lug‘otit turk”. Indeks-lug‘at, 108-bet); “jalari er” – tuhmatchi, badgumon odam. (“Devonu lug‘otit turk”. Indeks-lug‘at, 108-bet);

“jastadi” – gap-so‘z tegirdi (“Devonu lug‘otit turk”. Indeks-lug‘at, 119-bet)[2].

“Devonu lug‘otit turk” asarining deyarli har bir bobida yaxshi va yomon so‘z xususida, mayin, yoqimli, to‘g‘ri va yolg‘on so‘z haqida, ezmalik, chaqimchilik to‘g‘risidagi fikrlarni uchratish mumkin.

Shuningdek, M.Koshg‘ariy ayrim hollarda o‘zi o‘rganib chiqqan har bir lahja, shevalarga xos bo‘lgan xususiyatlar – dag‘al va mayin ohang, qattiq va yumshoq talaffuz, nazokatli va qo‘rs, qo‘pol muomala haqida ham o‘z mulohazalarini bayon etgan. Albatta, adibning bevosita nutq odobi va madaniyatiga daxldor qarashlari ahamiyatli bo‘lib, ular o‘sha davrda yashagan turkiy xalqlar amal qilgan odob-axloq, nutq odobi qoidalaridir.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, “Devonu lug‘otit turk” asari qadimgi turkiy jamiyatlarda nutq odobi yuksak qadrlanganini ko‘rsatadi. So‘zlashda samimiylik, haqiqatgo‘ylik, muloyimlik va hikmatga asoslangan nutq – bu xalq ma‘naviy olamining ajralmas qismidir. Qadimiy manbalardagi bu qadriyatlar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, zamonaviy nutq madaniyatini shakllantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. M.Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida XI asrda yashagan turkiy xalqlar amal qilgan nutq odobi masalalarini yoritish bilan birga, bu masaladagi o‘z qarashlarini, tavsiyalarini bayon qilib, bugungi kunda nutq madaniyati deb nomlangan sohaning tarixan shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Абдуллаев Ф.А. “Девону луғотит турк” асарида ўғуз компонентининг ўрни масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1971. – № 5.

Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси, 1960.

Мусабева З.М. Омонимы в “Дивану лугат-ит тюрк” Махмуда Кашгарского: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1975.

Асленов В.И. «Дивану лугатит тюрк» Махмуд Кашгари и азербайджанский язык. // Современная тюркология. – Баку, 1972. – №1.

Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – М., 1927.

Кононов А.Н. Махмуд Кошгарский и его «Дивану лугатит турк» // Современная тюркология. – Баку, 1972, – №1.

Курышженов А.К. Махмуд Кашгари о кыпченском языке. // Современная тюркология. – Баку, 1972. – №1

## ETNONIMLARNING SEMANTIK-STRUKTUR XUSUSIYATLARI

*Kurbanazarova Nargis Shodiyevna,*

*Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti (PhD)*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada qo'ng'iroq urug'ining tarkibiga kiruvchi etnonimlarning semantik-struktur jihatlari yoritilgan. Tadqiqotning asosiy mazmunini ifodalash uchun etimologik tahlillardan foydalanilgan bo'lib, tarixiy-ilmiy manbalardagi hamda xalq etimologiyasiga oid ma'lumotlar bilan asoslangan. Tanlangan etnonimlar bir nechta mavzuiy guruhlariga ajratilib o'rganilgan va mavzuga oid avvalgi tadqiqotlarga munosabat bildirilgan.*

*Kalit so'zlari: Etnonim, tilshunoslik, etimologiya, birlik, ekstralingvistik, toponim, semantika, tamg'a, totem, antroponim, mavzu, kasb, unvon, ijtimoiy, geografik, etnos, tarix, madaniyat.*

## СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЭТНОНИМОВ

*Курбаназарова Нургис Шодиевна,*

*Термизский государственный университет Доцент кафедры узбекского языкознания (PhD)*

*Аннотация. В статье рассматриваются семантические и структурные аспекты этнонимов, входящих в семью кунграт. Для выражения основного содержания исследования использовался этимологический анализ, основанный на сведениях из исторических и научных источников, а также народной этимологии. Выбранные этнонимы были изучены путем их разделения на несколько тематических групп и с учетом предыдущих исследований по данной теме.*

*Ключевые слова: Этноним, лингвистика, этимология, единица, внелингвистический, топоним, семантика, знак, тотем, антропоним, тема, профессия, титул, социальный, географический, этнос, история, культура.*

## SEMANTIC-STRUCTURAL FEATURES OF ETHNONYMS

*Kurbanazarova Nargis Shodiyevna,*

*Termiz State University, Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics (PhD)*

*Abstract. The article examines the semantic and structural aspects of the ethnonyms included in the kungrat family. To express the main content of the study, an etimological analysis was used based on information from historical and scientific sources, as folk etymology. The selected ethnonyms were studied by dividing them into several thematic groups and taking into account previous on this topic.*

*Keywords: Ethnonym, linguistics, etymology, unit, extralinguistic, toponym, semantics, sign, totem, anthroponym, theme, profession, title, social, geographic, ethnos, history, culture.*

Etnonimlar tilshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida murakkab, keng qamrovli xususiyatga ega bo'lib, turli lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida shakllangan va toponimik va appelyativ lug'at bilan bog'langan til birliklari tizimi sifatida qaralishi lozim[1]. Ular xalqning tarixi, madaniyati va o'ziga xos turmush tarzini ifodalovchi lingvistik birliklar sifatida boy manba, tarixiy asos hisoblanadi. Ularning tarkibi qanday komponentlardan tashkil topganligini tahlil qilish, o'rganish shu etnonimlar etimologiyasini aniqlash imkonini beradi.

Tilning lug'at tarkibi aloqa aralashuv jarayonlarida, so'zlarni qo'llash asnosida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish semantik tadqiqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, etnonimiyani an'anaviy etimologik yondashuvning tizimli-strukturaviy birligini o'rganuvchi soha sifatida etnonimlardagi

etnik belgilarning tuzilishi va semantikasini keng, batafsil o'rganish bilan uyg'unlashtirish, mukammallashtirish zarur.

Bizgacha bo'lgan bir qancha tadqiqotlarda etnonimlar tarkibidagi komponentlar anglatgan semantik ma'nolari jihatdan guruhlashtirilgan. Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, avvalgi tadqiqotlarda berilgan etnonimlarning mavzuiy guruhlari yanada kengaytirilishi va mukammallashtirilishi mumkin. Bu esa etnonimlar etimologiyasini o'rganish va tilshunoslik uchun qiziqarli yangi ma'lumotlar bera oladi, deb hisoblaymiz.

Etnonimlar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarda, xususan, A.Otajonovanning tadqiqotida etnonimlar mavzuiy jihatdan quyidagicha guruhlashtirilgan:

Totemlar asosida yuzaga kelgan etnonimlar: burgut, shunqor, turumtoy;

Tamg'a va belgi asosida yuzaga kelgan etnonimlar: ilonli;

Rang-sifat bildiruvchi so'zlardan yasalgan etnonimlar: aqnog'ay, qoraqonli;

Miqdor bildiruvchi so'zlarga asoslangan etnonimlar: ming, yuz, beshqoy, onalti.

Antroponimlarga asoslangan etnonimlar. Tadqiqotchi antroponimga asoslangan etnonimlarni ham bir qancha jihatlarga ko'ra farqlagan:

a) kishi laqablaridan yuzaga kelgan etnonimlar: manqa, yovmas (anqov), chaqanla (ola ko'zli odam). Bu laqablarning xarakterli xususiyatini yoritish ekan, A.Otajonovanning fikricha, ular qadimda atoqli ot bilan birgalikda qo'llangan. Ammo vaqt o'tishi bilan faqat o'zi qo'llana boshlangan. Shu sababdan laqablarni ham antroponimlar asosida shakllangan etnonimlar sifatida ajratgan. Bizning fikrimizcha, laqablar alohida semantik guruhga bo'lib o'rganilishi lozim.

1) kasb-hunar va mashg'ulot bilan bog'liq etnonimlar: uychi, damirchi kabi.

2) unvon va mansab nomlari asosida paydo bo'lgan etnonimlar: biy, maxsim, xoja, eshon kabi[2].

A.Otajonovanning tadqiqoti etnotoponimlar tahliliga bag'ishlagani, etnonimlarning tarkibiy qismlari borasida yuqoridagi kabi keng tahlillarni amalga oshirganini ijobiy tomondan e'tirof etgan holda, ayrim o'rinlari borasida mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Bizningcha, antroponimlar asosida hosil bo'lgan etnonimlar tarkibida o'rganilgan kasb-hunar va unvon-mansab bilan bog'liq etnonimlarni alohida tasnif qilish kerak. Chunki, antroponimlar atoqli otlardan tashkil topgan holda, kasb-hunar va unvon-mansab bilan bog'liq jihatlari izohlash mazmunini ifodalab, shunchaki qo'shimcha ma'no-mazmun ifodalaydi.

K.Marqayev o'z tadqiqotida etnonimlarning ma'noviy-mavzuiy tasnifini ancha kengaytirgan va yangi mavzuiy guruhlarga ajratgan holda quyidagicha ajratgan:

1. Nomlanish asosida totemistik tasavvurlar yotgan etnonimlar: avjin, buqa, kiyikchi;

2. Nomlanish asosini tamg'a, maxsus belgilar tashkil etgan etnonimlar: barmoq, bolg'ali, tuyoqli, oytamg'ali;

3. Son, miqdor tushunchalariga asoslangan etnonimlar: mang'it, ming, to'g'iz;

4. Hajm, shakl tushunchalariga asoslangan etnonimlar: olchin, parcha, aymoq;

5. Rang-tus tushunchalari bilan bog'liq etnonimlar: oqmang'it, jonqora, qizilboy;

6. Etnosning ijtimoiy ahvoli, mavqeyiga daxldor tushunchalar asosida nomlangan etnonimlar: jalong'och, yalangbosh, boylarto'p;

7. Etnosning kasb-kori, doimiy mashg'ulotiga ishora qilish asosida nomlangan etnonimlar: ovchi, mirishkor, qorovul;

8. Etnosning yashash joyi, geografik o'rniga nisbat berib yasalgan etnonimlar: tog'chi, o'rmoniyiq, nilkon;

9. Antroponimlarga asoslangan etnonimlar: qo'ng'irot, barlos, qurlas[3].

K.Marqayev jelkillak, mo'nka kabi urug' nomlarni laqab asosida hosil bo'lgan deb hisoblab, antroponimlar asosida shakllangan etnonimlar sifatida ajratadi. Bizning fikrimizcha, mazkur etnonimlar alohida, insonning o'ziga xos belgi-xususiyatlarini ifodalovchi jihatlarga asoslangan etnonimlar guruhiga kiritish lozim. Chunki bu jihatlari laqab bo'lishdan oldin shaxsning tashqi ko'rinishi va harakat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Shu urug'vakillarining keying avlodlarida

ham shunday xarakter yoki ko'rinishlar ko'zga tashlanib turgan. Keyinchalik bu jihatlar laqabga va yakunda etnonimga aylangan.

Yuqoridagi tasniflarni tahlil qilib chiqqan holda Qo'ng'iroq urug'i va uning shaxobchalarini nomlovchi etnonimlarni paydo bo'lish mezonlariga ko'ra quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

Tamg'a va belgi (ramz) asosida yuzaga kelgan etnonimlar;

Totemlar asosida yuzaga kelgan etnonimlar;

Rang-sifat bildiruvchi so'zlardan yasalgan etnonimlar;

Miqdor bildiruvchi so'zlarga asoslangan etnonimlar;

Geografik joylashuvi va yashash joyiga nisbat berib hosil qilingan etnonimlar;

Insonning o'ziga xos belgilari bilan bog'liq etnonimlar;

Oziq-ovqat nomlari asosida hosil bo'lgan etnonimlar;

Etnik birlashma: qabila, elat, xalq, davlat nomlari bilan bog'liq etnonimlar;

Antroponimlarga asoslangan etnonimlar;

Tamg'a va belgi (ramz) asosida yuzaga kelgan etnonimlar

O'zbek tilida qadimiy urug' va qabilalarning, qabila uyushmalari, tarmoqlari nomlariga nihoyatda boy bo'lib, buni o'zbek xalqi tilida saqlangan etnonimlarni to'plash va tadqiq qilish yorqin ko'rsatdi. Etnonimlar o'zbek tili leksikasining qadimiy qatlamiga mansub bo'lib, ko'pchiligining ma'no va etimologiyasi, nomlanishi davrlar o'tishi bilan, o'zgargan va unutilgan. Mana shu nuqtayi nazardan etnonimlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) nomlash motivi unutilgan (noaniq) nomlar. Bularda nom ma'nolari etimologik tadqiqotlar orqali aniqlanishi mumkin. Masalan, totemik tasavvurlar bilan bog'liq etnonimlarni aynan shu guruhga kiritish mumkin: qiyg'ochli, qorabura, jilontamg'ali.

Nomlash motivi va ma'nosi aniq sezilib turuvchi etnonimlarning katta qismini nomlash motivi tamg'a va maxsus belgilar, hajm, shakl, rang-tus tushunchalarini bildiruvchi leksemalar, etnosning ijtimoiy-tarixiy ahvoli, kasb-kori yashash sharoiti va joyi kabi jihatlar bilan bog'liq etnonimlar tashkil qiladi.

Xalqning tamg'a va maxsus belgilari bilan aloqador bo'lgan etnonimlar o'zbek etnonimiyasining tarixan eng ko'hna qatlami hisoblanadi. Mazkur tushunchalar bilan bog'liq etnonimlar o'zida etnosni nomlash vazifasidan tashqari ularning o'tmish ajdodlarning ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, madaniy-ma'naviy qarashlariga oid tushuncha va tasavvurlarni ham mujassamlashtiradi. Ko'rinish turibdiki, etnonimlar etimologiyasini aniqlash bir jihatdan lingvistik (nominativ), boshqa jihatdan ekstralingvistik, ya'ni ijtimoiy-tarixiy, madaniy-etnografik qimmatga egadir va yuqoridagi sohalarining rivoji uchun, shubhasiz, xizmat qiladi.

Qadimgi turkiy urug' va qabilalar o'ziga xos, bir-biridan farqlanuvchi shartli ramziy belgilarga ega bo'lgan, bu tamg'a deb yuritilgan. Tamg'alar, asosan, turli urug' va qabilalarga mansub chorva va boshqa hayvonlarni farqlash uchun ishlatilgan. Tamg'a shakli molning tanasiga kuydirib bosilgan yoki maxsus kesib solingan belgilar orqali ifodalangan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, tamg'alar nafaqat iqtisodiy va xo'jalik maqsadlarida, balki etnik ajratish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli, tamg'alar asosida shakllangan etnonimlar ham mavjud bo'lib, ular qabila yoki urug'ning o'ziga xosligini ifodalagan.

Turkiy urug' va qabilalarning tamg'alari, ularga oid ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida, Rashididdin va Ali Yazdiyning, shuningdek, Abulg'azi Bahodirxonning tarixiy asarlarida uchraydi.

Mahmud Koshg'ariy 22 ta turkiy qabila haqida ma'lumot berar ekan, ularning tamg'alari haqida ham gapiradi: "... Ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg'alari bordirkim, urug'larni shu tamg'alariga qarab ajratadilar"[4].

Abulg'azi Bahodirxon O'g'uzning yigirma to'rt nabirasining ismlarini anglatuvchi ma'nolar, "tamg'alarining qanday ekanligi" va totem hisoblangan shu qabilalarning nomlari haqida ma'lumot berar ekan, quyidagi qabilalarni sanab o'tadi: shayxi, bayot, alqa, uyli, qoraulyli, yozir, yasir, dudurga, avshar, qizilbash, bekdili, karxin, boyindur, bajana, chovuldur, chapqin, solar,

imir, olachanotli, uragir, igdir, buk diz, avo, kinik qavmlarning tamg'alari yuzasidan ham fikr bildirgan[5].

O'zbek tilida mavjud bir qancha etnonimlar tamg'alar asosida shakllangan. Xususan, qo'ng'irot urug'i tarkibiga kiruvchi vaxtamg'ali, qo'shtamg'ali, oyinni, qo'ldovli, qonjig'ali, qoraqonjig'ali, qoraqursoq (qoravursoq), oytamg'ali, ochamayli (ochomoyli), boymoqli, taroqli, chan-chiqli, qozoyoqli, cho'michli, qaychili, qiyg'ochli, jilontamg'ali, bolg'ali, qoraqo'ng'irot, bug'ajili, irg'oqli, aboqli, kesovli kabi etnonimlar aynan tamg'a va maxsus belgilar asosida shakllangan deb hisoblanadi.

Ochamayli – Qumqo'rg'on tumanidagi joy. Ochamayli – etnonim. Achamayli, achimayli, ochamayli shakllarida uchraydi. Samarqand viloyati, Bulung'ur, Urgut tumanlari, Toshkentning Bekobod, Bo'ka tumanlarida, Qashqadaryoning Kitob tumanida, Qoraqalpog'istonning Kegayli tumanida Achamayli qishloqlari bor. Ochamayli – qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali bo'limining bir urug'i. Qoraqalpoqlarda ashamayli deb ataladi. S.Qorayevning izohlashicha, ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan egar yoyinki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar ochamay (achamay) deyilgan. Achamayli (ochamayli) “egarli”, “tamg'asi egar shaklidagi urug'” demakdir.

## 2. Totemlar asosida yuzaga kelgan etnonimlar

Totemizm urug'chilik jamoasi ya'ni ijtimoiy jamoalarning diniy tasavvurlarida ilk tarixiy asos bo'lib xizmat qilgan. Totemizm ta'sirida paydo bo'lgan urf-odatlar, nomlar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari – birlashtiruvchilik va tartibga soluvchilik hisoblangan. Mazkur e'tiqod diniy shakllarining dastlabkisi bo'lishiga qaramasdan hozirda ham ba'zi xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning qoldiqlari saqlanib qolgan (masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi). Totemizmning mohiyatini odamlar bilan ayrim hayvonlar va o'simliklar orasida qandaydir yaqinlik, aloqa, qon-qarindoshlik, ajdodlik bor deb ishonish tashkil etadi. Aynan totemistik tasavvurlarning etnonimlarda aks etishi etnosning shunday diniy-aqidaviy qarashlari bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib, etnonimlarning totemlar asosida shakllanganlarini alohida guruh sifatida ajratish mumkin. Bunday mazmundagi etnonimlar o'zbek tilida ham ko'pchilikni tashkil etib, qo'ng'irot urug'i tarkibiga kiruvchi bir qancha etnonimlarda ko'zga tashlanadi. Quyida shunday etnonimlardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Qorag'ursoq – Qo'ng'irotlarning qonjig'ali bo'limi tarkibidagi urug'lardan biri. Oqqursoq turi ham mavjud. Qarsaq – mo'ynali hayvon, cho'l tulkisi. Ko'pgina turkiy tillarda tulkinning turini anglatadi. Xususan, qirg'iz tilida ham cho'l tulkisi ma'nosini bildiradi. Qo'ng'irot urug'ining aynan shunday nom bilan atalgan etnonimgaqarsaq – totem, muqaddas hayvon asos bo'lgan deb hisoblanadi.

Qarg'ali – Surxondaryo qo'ng'irotlarining qonjig'ali bo'limiga kiruvchi qoraqursoq urug'ining bir tarmog'i. Surxon vohasi juzlarini jilontamg'ali bo'limining qarg'a degan urug'i bor. Qarg'a aslida totem, muqaddas qush. Qarg'a qadimgi turklarda chiqayotgan quyoshning timsoli bo'lgan. Quyosh esa tonggi ko'k samo bilan birga Tangrini o'zida mujassam etgan. Burgutdek qanotini yozgan qizil qarg'a tasviri qadimgi turk shahzodasi Kulteginning tojida o'rnatilgan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, qadimgi turkiy qavm – usunlarning totemi qarg'a bo'lgan. VIII asr ikkinchi yarmiga oid tibet manbasida O'rta Osiyoda yashagan qabilalar orasida gar-rga-pur nomli qabila tilga olinadi. Bu so'z “qarg'a o'g'li” degan ma'noni bildiradi. Sosoniylar sarkardasi Bahromning laqabi Cho'bin bo'lib, u ham qarg'a degan ma'noni beradi. Sh.Kamoliddinning fikricha, Bahrom Cho'binning laqabi uning yuqorida qayd etilgan qar-rga qabilasiga mansubligidan dalolat berishi mumkin. Totem ifodalovchi so'z (qarg'a) etnonimga o'tish jarayonida -li affiksi qo'shilgan. Qishloq nomiga juzlarning urug'i nomi asos bo'lgan. Totemdan etnonim, undan oykonim vujudga kelgan. Sherobod va Jarqo'rg'onda Alaqarg'a nomli qishloqlar bor[7].

Qorabura – Qumqo'rg'on tumanidagi mahalla nomi. Qorabura – etnonim. Surxondaryo qo'ng'irotlarining qonjig'ali bo'limiga kiruvchi urug'i. Qadimgi turkiy tilda bug'ra – erkak tuya. Bug'ra – buyra – bura shaklida fonetik o'zgarishga uchragan. Bug'ra totemi asosida shakllangan.

Keyinchalik totem urug' nomiga, urug' nomi esa joy nomiga aylangan. Etonimiyada qora – ulug', buyuk; qudratli; kuchli; katta.

Qiyg'ochli – Surxondaryo qo'ng'irotlarining Vaxtamg'ali shaxobchasining tarkibidagi urug' nomi. Ba'zi qipchoq shevalarida qaldirg'ochning bir turi – qiyg'och. Urug' nomiga totem – sig'iniladigan parranda – qush asos bo'lgan.

Ko'rinib turibdiki, qo'ng'irot etnonimi tarkibiga kiruvchi etnonimlar, asosan, hayvon va qush nomlariga asoslangan. Ularni totem sifatida tanlanishiga sabab, aynan shu tushunchalarda o'zbek milliy madaniyatida va tarixan mo'g'ullarga borib taqaladigan etnonimlarda mo'g'ul madaniyatiga xos qarashlar aks etadi. Bu esa xalq madaniyatining shakllanishida totemistik qarashlarning o'rni muhim ekanligini ko'rsatadi.

### 3. Rang-sifat bildiruvchi so'zlardan yasalgan etnonimlar

Etonimiyada etnonimlarga asos bo'lgan tushunchaning aslida qanday ma'no-mazmun ifodalashini aniqlash uchun bir qancha etimologik tahlillarni amalga oshirish talab etiladi. Bunda xalq madaniyati bilan bog'liq jihatlar ahamiyatli bo'lib, har-xil hududda yashovchi va turli madaniy belgilarga asoslanuvchi xalqlar e'tiqodi va dunyoqarashida ranglarning ham farqlanishi ko'zga tashlanadi. Madaniy (shuningdek, lingvistik) materiallarga, asosan, o'rganilayotgan til mamlakati haqidagi bilimlarga asoslangan holda, ma'lum, me'yorlashtirilgan tematik yo'naltirilgan qismlarni o'rganish nafaqat kommunikativ funksiya sifatida tilni o'zlashtirishga yordam beradi, balki, shu madaniyat haqidagi bilimlarni ham oshiradi. Madaniy kodlarini tushunish qanchalik yuqori bo'lsa, keng ijtimoiy motivlar bilan birlikda til mavjud bo'lgan mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga ijobiy yoki salbiy munosabatlarni ta'minlaydigan ichki motivlar haqida shunchalik kuchli va ishonchli ma'lumotlar olish mumkin bo'ladi. Ranglar ham boshqa lingvomadaniy belgi sifatida shunday o'ziga xoslikka ega.

K.Sh.Shoniyozovning ma'lumotlariga ko'ra qora, qizil, ko'k, sariq, oq kabi etnik nomlar Oltoy, Janubiy Sibirda yashagan qadimgi turkiy qabilalar nomlaridan kelib chiqqan[8]. Shu fikrga tayanadigan bo'lsak, yuqoridagi ranglar turkiy xalqlar uchun madaniy belgiga ega va ahamiyatli hisoblanadi. Mo'g'ul va turkiy xalqlarga aloqador hisoblangan qo'ng'irot urug'i tarkibidagi bir qancha etnonimlarda rang va sifat bilan bog'liq ma'no-mazmun mavjud bo'lib, ularning ba'zilari inson yoki ma'lum bir totem hisoblangan hayvon, qushning rangiga, ayrimlari esa maxsus belgi – tamg'a rangiga ishora qiladi. Misol uchun, oqpichoq, qoraxonjig'ali, qora kabi etnonimlar urug' tamg'asining rangiga ishora qilsa, qorabuvra, qoraqursoq, oqtona (oqtana) etnonimlari esa totem sifatida tanlangan qush va hayvon ranglariga asoslanadi. Shuningdek, qo'ng'irotlarning qoraqo'ng'irot, tunqora kabi shaxobchalarining nomlarini ham aynan rang bildiruvchi so'z asosida shakllangan etnonim sifatida ko'rsatish mumkin. Umuman olganda, rang-sifat bilan bog'liq etnonimlar qo'ng'irot urug'i tarkibida ko'pchilikni tashkil etadi.

### Miqdor va son bildiruvchi so'zlarga asoslangan etnonimlar

Qo'ng'irot urug'i tarkibiga kiruvchi etnonimlar orasida miqdor va songa asoslanganlari ham mavjud bo'lib, ayrimlari miqdor bildiruvchi so'zlar bilan hosil qilingan bo'lsa, ba'zilari sonlarga asoslangan. Jamlikni, ko'plikni ifodalovchi xalq so'ziga ma'nodosh o'rinlarda ham qo'llaniluvchi ulus so'ziga asoslangan ulus etnonimi ma'zmunan miqdor ifodalagani uchun mazkur guruhga kiritishni o'rinli deb hisobladik. Xuddi shunday, uyuvli etnonimi ham uyushganlik, jamlik ma'nosini ifodalaydi. Tadqiqotimiz obyekti hisoblangan qo'ng'irot urug'i tarkibiga kiruvchi etnonimlar orasida son bildiruvchi so'zga asoslangan etnonim sifatida beshbola urug'ini ko'rsatish mumkin.

### Geografik joylashuvi va yashash joyiga nisbat berib hosil qilingan etnonimlar

Qo'ng'irot urug'i tarkibida mavjud bo'lgan cho'llik etnonimini geografik joylashuvi va yashash joyiga nisbat berib hosil qilingan etnonim sifatida ajratish mumkin. Cho'llik etnonimida ma'no aniq anglashilib turibdi. Ya'ni, dastlab cho'llik shaklida mavjud bo'lgan, keyinchalik cho'llik shakliga o'tgan etnonim bo'lib, cho'l hududida yashovchilar – cho'l hududida yashovchi xalq ma'nosini anglatadi. Bu yerda -lik aynan bir joyda tug'ilgan, yashagan, oid degan mazmuni

ifodalashi (choʻlliqlik shaklida -lik qoʻshimchasining qipchoq lahjasiga xos fonetik varianti -liqlik shaklida qoʻllanilgan koʻrinishi mavjud) ham shunday xulosa chiqarishimizga qarshilik qilmaydi. Xalq etimologiyasiga oid qarashlarda ham mazkur etnonim choʻl hududida yashovchi degan maʼnoni anglatishi bilan bogʻliqlik qarashlar mavjud.

Insonning oʻziga xos belgilari bilan bogʻliqlik etnonimlar

Shunday etnonimlar borki, ular shu urugʻ vakillarining tashqi koʻrinishi, oʻziga xos belgi-xususiyatlari bilan bogʻliqlik boʻladi. Misol uchun, qoʻngʻirot urugʻi tarkibiga kiruvchi kal, koʻsa, moʻnka, jelkillak kabi etnonimlarni aynan shunday belgi-xususiyatga ega etnonimlar sifatida ajratish mumkin. Mazkur etnonimlar insonning tashqi koʻrinishini ifodalaydi. Koʻsa etnonimi qoʻngʻirotlarning qoʻshtamgʻali urugʻi tarkibiga kiradi. Mazkur urugʻga mansub erkaklar siyrak soqolli boʻlib, genetik jihatdan bir necha avlod davomida saqlanib kelmoqda.

Moʻnka etnonimi ham tashqi koʻrinishga ishora qilib, biroz bukchayib yuradigan bukri kishiga nisbatan moʻnka leksemi ishlatiladi. Qoʻngʻirot urugʻining keksa vakillari bergan maʼlumotlarga koʻra, mazkur urugʻning bosh bobosi bukri kishi boʻlgan. Jelkillak ham genetik jihat bilan bogʻliqlik va u tez harakat qiluvchi, tinib-tinchimas kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Oziq-ovqat nomlari asosida hosil boʻlgan etnonimlar

Goʻjaxoʻr etnonimi qoʻshtamgʻali urugʻining bir shoxobchasi boʻlib, ovqat nomi – goʻja osh bilan bogʻliqlik deb qaraladi. Etnonim tarkibidagi xoʻr qismi ham fors-tojikcha xoʻrdan - yemoq feʼli bilan bogʻliqlik inobatga olgan holda mazkur farazni toʻgʻri deb hisoblashimiz mumkin. Mazkur etnonimning toʻliqroq etimologiyasi tadqiqotimizning ikkinchi bob 2.3-faslida keltirilgan.

Etnik birlashma: qabila, elat, xalq, davlat nomlari bilan bogʻliqlik etnonimlar

Etnonimlar etnik birlashmalarining nomi boʻlib, avvalgi oʻrinlarda aytib oʻtganimizdek, bir qancha asoslarga koʻra shakllangan. Odatda etnonimlarning koʻpchiligi, dastlab, qabila yoki urugʻ jamoasi boʻlib, keyinchalik xalq, davlat nomiga koʻchganini kuzatish mumkin. Lekin shunday etnonimlar borki, ular urugʻ, qabila nomi boʻlgani holda katta xalq yoki davlat nomi asosida shakllangan. Bunda etnonim oʻzi anglatgan xalq yoki davlatga aloqador ekanligiga ishora mavjud boʻladi. Qoʻngʻirot urugʻi tarkibiga kiruvchi jaloyir etnonimini ham aynan shunday etnonim sifatida koʻrsatishimiz mumkin. Mazkur etnonimning shakllanishi boʻyicha tarixiy manbalarda bir qancha maʼlumotlar, qarashlar mavjud.

Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, Jaloyir – oʻtmishda yirik turkiy tilli qabila. Rashididdinning maʼlumotiga koʻra, jaloyirlar koʻp sonli qabila boʻlib, jat, tukaraun, kunksaut, kumsaut, uyat, nilkan, kurkin, tulangit, turi, shankut urugʻlariga boʻlingan[9]. Ayrim tarixchilar jaloyirlarni moʻgʻul qabilasi sifatida qayd etishadi. Rashididdinning yozishicha, chingiziylar davriga kelib koʻplab qabilalar oʻzlarini moʻgʻul deb hisoblashgan, lekin oʻtmishda ular turk boʻlgan. Mazkur turk qabilalariga jaloyirlar, sunitlar, tatarlar, merkitlar, targutlar, oyratlar, bargutlar, korilar, tulaslar, tumatlar, bulagachinlar, keremuchinlar, urasutlar, telengutlar, kushtemilar, uryankatlar, kurkan, sakaitlar, naymanlar, keraitlar, ongutlar va boshqalar kirgan. Tashqi qiyofasi, laqabi, udumlari va oʻzini tutishi koʻp jihatdan bir-biriga oʻxshaganligi uchun moʻgʻullar orasida oʻsgan nangyas, uygʻur, qipchoq, turkman, qarluq, xalach, shuningdek, barcha asirlar va tojik xalqining ayrim qabilalari ham oʻzlarini moʻgʻul deb atashgan.

XIII – XIV asrlarda jaloyirlar, asosan, Ohangaron vodiysi va Xoʻjandda oʻrnashib oldilar. XIV asr oʻrtalarida Xoʻjand hokimi Boyazid Jaloyir boʻlgan. Bundan tashqari, XIII asr davomida jaloyirlarning katta guruhi Iroq va Ozarbayjonga koʻchib oʻtib, mustaqil jaloyiriylar davlatiga asos solganlar.

AmirTemurning qaramogʻidagi qirq aymoqdan 12 tasiga tamgʻa berilgan boʻlib, bular xos navkarlar qatoriga kiritilgan edi. Ular orasida jaloyirlar ham boʻlgan.

XVIII – XIX asrlarda Turkistonda yashovchi jaloyirlar oʻzbek, qozoq, qirgʻiz va qoraqalpoq xalqlari tarkibiga kirganlar. Oʻzbek jaloyirlari ikki asosiy guruh – qaychili va bolgʻali urugʻlariga hamda qargʻali, boshqird, qorabdal, qorakoʻli, qorachopon, chuvuldoq, jastaban va shu singari

mayda urug' bo'linmalaridan tarkib topgan. Qozoq jaloyirlari sirmonoq, oriqtinim, boychegir, qaychili, sigirchi, bolg'ali, kuchuk, qorachopon, andas, qalpas, mirza, o'roqli, oqbo'yim urug'lariga; qirg'iz jaloyirlari esa kichik, mang'itay, supatay urug'laridan tashkil topgan.

Antroponimlarga asoslangan etnonimlar

Qo'ng'irot urug'i tarkibiga kiruvchi mavlish, tilovmat kabi etnonimlarni aynan antroponimlar asosida hosil bo'lgan deb hisoblashimiz mumkin. Axborotchilardan olingan ma'lumotlarga ko'ra mavlishlar bilan tilovmatlarning bosh bobolari aka-uka Mavlonberdi va Tilovberdi ismli kishilar bo'lgan.

Etnonimlarning grammatik xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning yasalishi va tarkib topishi bilan bir qatorda, etnonimlar asos bo'lgan boshqa onimlar, xususan, etnotoponimlarga ham to'xtalib o'tishni lozim deb topdik.

Surxondaryo hududida bir qancha joy nomlari qo'ng'irot urug'i va uning tarkibidagi kichik bo'linmalar nomlari asosida paydo bo'lgan. Bunday joy nomlari shu urug' va urug' shoxobchalarining yashaganligini yoki mazkur joy ularga qarashlilikini ko'rsatadi. Misol uchun, Surxondaryo hududidagi quyidagi joy nomlarini qo'ng'irot va uning tarkibidagi boshqa etnonimlar asosida hosil bo'lgan, deb hisoblashimiz mumkin:

Qo'ng'irot – Surxondaryoning Qumqo'rg'on, Muzrabot tumanidagi mahalla (aholi yashash punkti) nomi. Qo'ng'irot – etnonim. Mazkur etnonim etimologiyasiga doir mulohazalar haqida keying tadqiqotimizda to'xtalamiz.

Qoraqasmoq – Surxondaryo viloyati Bandixon tumaniga qarashli joy nomi. Qoraqasmoq – etnonim. Qo'ng'irotlarning qo'shtamg'ali bo'limidagi 16 urug'ning biri. Ko'rsatilgan urug' vakillari yashaganligi uchun shunday nomlangan.

Ochamayli – Qumqo'rg'on tumanidagi joy nomi bo'lib, ochamayli etnonimi asosida shakllangan. Qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali bo'limi tarkibidagi urug'lardan hisoblanadi va achamayli, achimayli, ochamayli, ochamoyli shakllarda uchraydi.

Qoraqalpoqlarda ashamayli deb ataladi. S.Qorayevning izohlashicha, ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan egar, yoki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar ochamay (achamay) deyilgan. Achamayli (ochamayli) “egarli”, “tamg'asi egar shaklidagi urug'” demakdir[10]. Boshqa bir ma'lumotga ko'ra, mazkur urug'ning tamg'asi tuyaning egari shaklida bo'lgan. Mazkur urug' o'zbeklar bilan birga qozoqlarda va qoraqalpoqlarda ham mavjud. Qozoqlarda ochamayli urug'i uy qurishda juda usta bo'lganligi uchun uyshi deb ham ataladi[11].

Ko'rto'g'ay – Qumqo'rg'on tumanidagi joy, paxta maydoni. Ko'rto'g'ay – Surxon vohasidagi yashovchi qo'ng'irotlarning qanjig'ali bo'limidagi urug'. Qamish va turli butalar zich o'sgan, hayvon va odam yurish qiyin bo'lgan to'qayni ko'rto'qay deb atashadi. Shunday joylarda yashagan kishilar guruhi ko'rto'qay/ko'rto'g'ay nomini olgan. Etnonim asosida joy nomi kelib chiqqan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, qo'ng'irot urug'i tarkibiga kiruvchi etnonimlar semantik jihatdan turli xil ma'noviy guruhlariga oid leksemalar asosida shakllangan. Yuqorida tahlilga tortilgan etnonimlar qo'ng'irot urug'ining ichki kichik shoxobchalari bo'lib, ilmiy manbalarda deyarli tilga olinmagan. Shu o'rinda, keltirilgan etimologik ma'lumotlarning ko'pchilik qismi xalq etimologiyasiga asoslangan va ayrim o'rinlarda boshqa ma'nbalarda keltirilgan ma'lumotlar bilan farqli o'rinlar mavjud ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Богомягкова Елена Владимировна. Этнонимы современного немецкого языка. Афтореф. дисс.канд.филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005. – С.4

Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари: Филол.фан. номз.дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 36-46.

Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: Филол.фан.номз.дис. – Тошкент, 2007. – Б.73-97

Кошғарий Маҳмуд. Девону луғатит турк. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017 – Б.36.

Абулғозий Баҳодурхон. Шажарайи тароқима. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – Б.22-23.



- Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. – Тошкент, 2016. – Б. 110.  
Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.73.  
Рашид ад-Дин. Сборник летописей. – Москва: Ленинград, 1952.  
Қораев С. Топонимика. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари жамияти нашриёти, 2006.  
– Б.83.  
Норбоев Н. 92 бовли ўзбек эли. – Тошкент: 1997 й. – Б.21

## **ИНТЕГРАЦИЯ С РУССКОГО ЯЗЫКА НА УРОКАХ ХИМИИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**

*Курбанова Г.Дж., Сейтназарова Г.А., Курбанова А.Дж.*

*Академический лицей КГУ, Нукусский военно-академический лицей «Темурбеклар мактаби» МВД Республики Узбекистан, Чирчикский государственный педагогический университет*

*Аннотация. В статье рассматривается значение межпредметных связей в обучении русскому языку и литературе в лицеях и среднее профессиональных учебных заведениях. Описаны основные направления интеграции русского языка с химическими теориями, понятиями, явлениями, такие как морфология, номенклатура, окислительно-восстановительные реакции, свойства металлов и другие. Подчеркивается роль межпредметного подхода в развитии критического мышления, функциональной грамотности и коммуникативных навыков студентов. Приводятся примеры эффективных методик и приемов, способствующих повышению интереса студентов к изучению языка и литературы через связь с химическими дисциплинами.*

*Ключевые слова: интеграция, русский язык, химические дисциплины, номенклатура, окислительные – восстановительные реакции, лицей.*

## **TA'LIM SIFATINI OSHIRISH UCHUN KIMYO DARSLARIDA RUS TILI BILAN INTEGRATSIYA**

*Kurbanova G. Dj., Seytnazarova G.A., Kurbanova A. Dj.*

*QDU qoshidagi akademik litseyi*

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi "Temurbeklar maktabi" Nukus harbiy akademik litseyi Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Annotatsiya. Maqolada litseylar va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida rus tili va adabiyotini o'qitishda fanlararo aloqalarning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Rus tilini kimyoviy nazariyalar, tushunchalar, hodisalar, masalan, morfologiya, nomenklatura, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, metallarning xususiyatlari va boshqalar bilan birlashtirishning asosiy yo'nalishlari tasvirlangan. Talabalarning tanqidiy fikrlash, funktsional savodxonligi va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda fanlararo yondashuvning o'rni ta'kidlangan. Talabalarning kimyoviy fanlar bilan aloqasi orqali rus tili va adabiyotni o'rganishga qiziqishini oshirishga yordam beradigan samarali usul va usullarga misollar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: integratsiya, rus tili, kimyoviy fanlar, nomenklatura, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, litsey.*

## **INTEGRATION WITH THE RUSSIAN LANGUAGE IN CHEMISTRY LESSONS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION**

*Kurbanova G.Dzh., Seitnazarova G.A.; Kurbanova A.Dzh.*

*Academic Lyceum of KSU*

*Nukus Military Academic Lyceum «Temurbeklar Maktabi» of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Chirchik State Pedagogical University*

*Annotation. The article examines the importance of interdisciplinary connections in teaching Russian language and literature in lyceums and secondary vocational educational institutions. The main directions of integration of the Russian language with chemical theories, concepts, and phenomena such as morphology, nomenclature, redox reactions, metal properties, and others are described. The role of the interdisciplinary approach in the development of critical thinking, functional literacy and communication skills of students is emphasized. Examples of effective*

*methods and techniques that help to increase students' interest in learning the Russian language and literature through their connection with chemical disciplines are given.*

*Keywords: integration, Russian language, chemical disciplines, nomenclature, redox reactions, lyceum*

Введение. Занятия по химическим дисциплинам, проведенные в интеграции с русским языком, являются очень интересными, увлекательными и познавательными. Подготовка преподавателя к такому занятию требует большого количества времени, приходится часами выискивать материалы, структурировать, анализировать, делать выборку. Поэтому обязательным является подключение к ведению занятий студентов. Они старательно находят материалы, составляют схемы, готовят сообщения, презентации. Совместная работа приносит свои плоды и способствует разрешению проблемы культурного совершенствования личности. Поэтапно постараемся изложить наш наработанный опыт по решению данной проблемы [1].

Использование на уроках химии интеграционных связей с русским языком. Практически на каждом занятии мы обращаемся к знаниям о русском языке, к анализу средств выражения мысли. Стараемся применять интегративный подход при изучении различных химических терминов, названий веществ и лабораторного оборудования, а также анализ химической терминологии на русском языке. Систематическое обращение к происхождению названий химических элементов, веществ, приборов помогает сформировать у студентов системные знания и интегративные умения оперировать межпредметными категориями. Знание происхождения того или иного слова поможет студенту и верно употребить его, и правильно написать, и глубже осмыслить значение того или иного химического термина. На занятиях рассказываем студентам, что некоторые химические названия произошли от слов, обозначающих части тела человека и животных (язычок пламени, горлышко пробирки, колбы, носик пипетки, стакана, лапка штатива) или от слов, обозначающих предметы быта (печь, баня, стакан, тарелка, чашка, ложечка, воронка) [2,3,4].

Методы и методология. Морфологический раздел языкознания, занимающийся изучением процесса образования слов как лексических единиц языка, так и грамматических форм слова. Студенты уже хорошо усвоили на занятиях русского языка, что для образования новых слов в нашем языке используются различные суффиксы. Следует обратить внимание школьников на то, что знание значений этих суффиксов помогает раскрыть содержание того или иного понятия. Рассмотрим, например, процесс растворения. Какое же значение имеет суффикс “-ение”, при помощи которого образовано это слово? Студенты вспоминают другие слова, образованные при помощи этого суффикса: “удаление”, “строение”, “умывание” и т. д. Делается вывод, что суффикс “-ение” (“-ние”) – это суффикс существительных со значением процесса, действия, образованных от глагольных основ [5]. Таким образом, “растворение”, “нагревание”, “горение”, “обугливание” и другие явления, обозначаемые существительными с суффиксом “-ение” – это процессы. Аналогично рассматриваем суффикс “-тель”. Это суффикс существительных, обозначающих лицо или предмет, совершающий действие, выраженное глаголом, от которого и образуется данное существительное: читать – читатель, учить – учитель, строить – строитель, нагревать – нагреватель. Знание значений суффиксов поможет студентам в дальнейшем правильно подбирать родовое понятие при составлении определений: “горение (окисление, восстановление, растворение) – это процесс, ...”, “растворитель (окислитель, восстановитель) – это вещество (элемент), ...”, а также красиво и грамотно формулировать свои мысли [6].

Процесс развития речи очень длительный и трудоемкий, необходим поиск приемов, способствующих не только формированию грамотной речи, но и совмещение при этом освоения новых химических понятий. Самый простой приём при изучении первоначальных химических понятий — это работа с текстом учебника. Процесс чтения эффективен, если

осуществляется в системе диалога, когда студент читает, а преподаватель, приостанавливая его чтение, задает вопросы и формулирует возникшую во время чтения проблему [7].

Другой прием работы с текстом заключается в использовании текста, составленного преподавателем. Текст должен быть интересным, познавательным и иметь законченный характер. Содержание текста определяется дидактической целью. В данном тексте должна прослеживаться связь с жизнью и иметь экологический аспект. Прием имеет ряд последовательных действий: - ознакомление с предложенным текстом; - ответы на вопросы; - формулировка дидактического понятия. Например: студентам предлагается ознакомиться с текстом по теме «Простые и сложные вещества». Фрагмент текста «Вещества, взаимодействуя друг с другом, подвергаются различным изменениям и превращениям. Например, уголь, сгорая, образует углекислый газ. Уголь - твердое вещество, углекислый газ – газообразное вещество, они имеют свои индивидуальные свойства. Ржавление железа, получение металлов из руд. Все это – химические явления, и т.д.» [8]. По теме можно задавать следующие вопросы: 1. Что происходит с веществами при химических явлениях? Ожидаемый ответ: - при химических явлениях одни вещества превращаются в другие. 2. Чем отличаются образованные при химических явлениях вещества от исходных? Ожидаемый ответ: - образованные вещества отличаются от исходных веществ составом и свойствами.

Происходит формирование дидактического понятия - химические явления. Химические явления – явления, при которых одни вещества превращаются в другие, отличающиеся от исходных веществ, составом и свойствами. Данный прием позволяет не только развивать химическую речь, но и удерживать внимание студентов на протяжении всего занятия, формировать умение рассуждать и делать выводы [9].

Одним из приемов развития речи при работе с книгой является прием – Инсерт, который представляет собой особую маркировку текста при его прочтении. Прием предполагает либо на полях в тексте, либо в табличной форме с последующим ее заполнением относить фрагменты текста, его абзацы к следующим категориям: - уже знал (x); новое (+); думал иначе (-); не понял (?). Затем в парах, группах или фронтально осуществляется обсуждение категорий таблицы. Данный прием эффективно позволяет проверить задание для самостоятельной работы, заменив им традиционную задачу студентов «прочитать параграф учебника».

Обсуждение и результаты. Широкое использование как в речи преподавателя, так и в ответах студентов разнообразных метафорических словосочетаний, синонимов и синонимических рядов, антонимов, омонимов и многозначных слов позволит показать студентам красоту и богатейшие возможности русского языка как средства выражения человеческой мысли. Следует также знакомить студентов, обращать внимание на паронимы (однокоренные слова, часто очень близкие по написанию и произношению, но не имеющие возможности заменять друг друга в тексте без искажения смысла, например, “сульфид” и “сульфит”). Осуществлять данный вид работы помогает кластер понятий.

Кластер — это ряд связанных или взаимодействующих понятий одной темы. Виды работы с кластером могут быть различны. Предлагаются понятия: восстановление, катод, анион, окисление, анод, катион.

Далее проговариваем, значение понятий в первой части. Восстановление – процесс присоединения электронов. Катод – отрицательный электрод. Катион – положительный ион. Студентам предлагается объяснить понятия, записанные во второй части, учитывая, что они являются словами – антонимами.



Yangi leksik minimum bilan tanishish bosqichida dastlab leksik birlik semantizatsiya qilinadi. Ma'noni tushunish tekshiriladi, leksema fonetik jihatdan qayta ishlanadi va grafik shakli ko'rsatiladi.

Talabalarining yangi leksik birliklar bilan harakatlarini avtomatlashtirish so'z shakli, so'z birikmalari va iboralar darajasida amalga oshiriladi hamda quyidagilarni ta'minlaydi:

- Nutq namunasiga taqlid qilish,
- Nutq namunasiga qo'yish;
- Nutq namunasini kengaytirish;
- Savollarga javoblar;
- Birliklarni mustaqil ishlatish;

frazali birlik darajasida nutq namunalarining monologik va dialogik birlikka birlashuvi sodir bo'ladi.

Nafaol leksik minimum - bu talabalar o'z g'zar fikrini og'zaki shaklda (tinglab tushunishda)

va yozma shaklda (o'qishda) qabul qilishda tushunishlari kerak bo'lgan leksikadir. Nofaol minimumning yangi leksik birligi bilan tanishishda semantizatsiya (ma'noni lug'atdan aniqlash, kontekstdan taxmin qilish, so'z yasalişini tahlil qilish) jarayoni ham kechadi. Talabalarning yangi leksik birliklar bilan ishlashini avtomatlashtirish gap va mikromatn darajasida amalga oshiriladi.

Leksik birliklar ma'nosini bir necha ma'nolar ichidan tanlab olish;

Matnda leksik birlikni topish;

Leksik birlikning ma'nosini aniqlash;

Ona tilidagi tegishli komponentlarning leksik birligini tanlash.

Potensial lug'atga leksik birliklarning ma'nosi haqida asosli taxmin qilish ko'nikmalari va turli xil lug'atlardan (ikki tilli, bir tilli, frazeologik, tematik) foydalanish ko'nikmalari kiradi.

Leksikani o'qitish jarayonida talabalarda quyidagi leksik bilimlar shakllantiriladi:

1) leksik birliklarning eshitish-harakat obrazlari asosida ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan fonetik bilimlar;

2) grafika sohasidagi bilimlar, so'zlarni yozish va ularni matnda so'z ko'rgazmali-grafik tasvirlari asosida tanib olish uchun zarur bo'lgan imlo qoidalari;

3) so'z shakllarining yasalişini bilan bog'liq grammatika sohasidagi bilimlar;

4) o'rganilayotgan leksik birliklar semantikasini bilish;

5) chet tilida so'z birikmalarining moslik qoidalari.

Leksik kompetensiyani egallash so'zning shaklini, ma'nosini va qo'llanilishini bilishni anglatadi. So'zning shakli deganda uning tovush shakli tushuniladi, busiz so'zni ovoz chiqarib to'g'ri tushunish va uni o'zingiz yetarli darajada talaffuz qilish, shuningdek, uning yozma shaklini aks ettirish mumkin emas, busiz so'zni o'qish va yozishda qo'llab bo'lmaydi. Ma'noga kelsak, ingliz tilida, boshqa har qanday tildagi kabi, so'zlar bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ingliz tilida ko'p ma'noli so'zlarning hajmi boshqa tillardagidan ko'ra salmoqliroq. Bu o'quvchi so'zning barcha ma'nolari bilan bir vaqtning o'zida tanishishi kerak degani emas, lekin ularning eng ko'p uchraydiganlarini bilib olish maqsadga muvofiq, ayniqsa bog'lovchi so'z ma'nosini sezilarli darajada o'zgartirganda. Bu jihatdan «phrasal verbs» deb ataladigan predlogli so'z birikmalari alohida ahamiyatga molikdir, bunda predlog so'zning ma'nosini tubdan o'zgartiradi, masalan: to look for, to look after, to look through, to look at. Ammo so'zning ma'nosidan tashqari, uning konnotatsiyasini, ya'ni bu so'z keltirib chiqaradigan assotsiatsiyalarni, uning ijtimoiy tagma'nosini ham ko'rsatish kerak, bu esa so'zning qo'llanilishi bilan bog'liq.

So'z ma'nolari xotira ishlashini (ya'ni eslab qolish va esga tushirish) talab qiladigan bilim sifatida o'zlashtiriladi.

Kasbiy Informatika va axborot texnologiyalari terminologiyasi leksik minimumning tarkibiy qismi sifatida talabalarning chet tilini zarur va yetarli darajada o'zlashtirishi uchun texnik oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbga yo'naltirilgan nutqqa o'rgatishning samarali usullarini ishlab chiqish maqsadida puxta o'rganishni talab qiladi. Terminologik minimum - bu dasturiy maqsadli ko'rsatmalarning bajarilishini ta'minlaydigan, maxsus mezonlar asosida tanlangan Informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi leksik birliklar to'plami bo'lib, ularning to'liq ro'yxati o'quv lug'atlari-minimumlar va terminologiyani o'rgatish hamda uning o'zlashtirilishini nazorat qilish uchun foydalaniladigan boshqa didaktik materiallarni tayyorlashda majburiy boshlang'ich ko'rsatkich hisoblanadi. Tanlangan terminologik minimum o'quv maqsadlarida lug'atni to'g'ri tashkil etishning zaruriy shartidir. Agar terminologik minimumni majburiy o'zlashtirish uchun mo'ljal sifatida qaralsak, unga o'rganilishi lozim bo'lgan lug'atning minimal ro'yxati sifatida an'anaviy munosabatni o'zgartirish, uni lug'atni o'zlashtirishni tashkil etish vositasi sifatida baholash lozim.

Leksik minimumlarning asosiy mezonlari quyidagilardir:

leksik birliklarning nutqda birikish qobiliyati;

Informatika va axborot texnologiyalari tarmog'ining asosiy tushunchalarini aks ettiruvchi eng

muhim atamalarning xolisona tanlanishini ta'minlovchi semantik qiymat;

uslubiy cheklanmaganlik - nutq uslublarining hech biriga ustunlik berilmasligi [4, 93-bet].

Informatika va axborot texnologiyalari sohasining leksik minimumini tanlashning qo'shimcha mezonlariga quyidagilarni kiritamiz:

chastota - kasbiy sohada eng ko'p qo'llaniladigan so'z va iboralarni o'z ichiga oladi;

namunaviylik - asosiy so'z yasash modellari va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish namunalari aks ettiruvchi eng ko'p ishlatiladigan atamalarni minimal darajada tanlashni ta'minlaydi, ular bilan o'xshashlik bo'yicha lug'atga kiritilmagan ko'plab atamalar ma'nosini tushuntirish mumkin;

ko'p shakllilik - lug'at-minimumga sinonimik qatordan faqat bitta, eng ko'p ishlatiladigan va betaraf so'z kiritiladi;

istiqbollilik - dastlabki bosqichda unchalik dolzarb bo'lmagan, ammo keyinchalik kasbiy ingliz tilini o'rganishda asosiy maqomni olishi mumkin bo'lgan atama birliklarini jalb qilishni nazarda tutadi.

Lug'atning so'z yasash qobiliyati birlamchi asoslarni o'z ichiga oladi. Bu asoslarni o'zlashtirish ko'plab noma'lum murakkab va hosila terminlarni, shuningdek, barqaror terminologik birikmalarni mustaqil ravishda ma'nosini tushunish uchun zamin yaratadi. Yuqorida tavsiflangan muammoni yanada chuqurroq o'rganish istiqbollari shunda ko'rinadiki, biz ko'rsatgan bilim va ko'nikmalar, leksik kompetensiyani shakllantirish bosqichlari hamda kasbiy yo'nalishdagi leksik birliklarni tanlash mezonlari Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishi talabalarining kasbga yo'naltirilgan nutqida leksik kompetensiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Методика формирования межкультурной иноязычной коммуникативной компетенции: Курс лекций: учеб.-метод, пособие. для студ, языковых спец, осн. «квалиф, уровня «магистр»] / [Бигич О. Б., Бориско Н. Ф., Борецкая Г. Э. и др.]; под ред. С. Ю. Николаевой К.: Ленвит, 2011. – 344 с.

2. Сиземна А.Е. Методика развития лексической компетенции студентов лингвистического вуза на основе формирования мотивационной базы обучения (английский язык) автореф. дис... на соискание ученой степени канд. пед. наук: спец. 13.00.02 «Теория и методика обучения воспитания (иностраный язык, уровень высшего профессионального образования)» / Александра Евгеньевна Сиземина. Нижний Новгород, 2009.-22 с.

3. Горбунова Н.В. Лексическая компетенция детей дошкольного возраста в современных исследованиях [Электронный ресурс] / Н.В. Горбунова//Педагогика формирования творческой личности в высшей и общеобразовательной школе. 2010. Вып. 8. С. 85-91.

4. Макаренко И.П. Формирование у студентов рецептивных лексических навыков основе системы текстов для чтения автореф. дис. на соиск. ученой степени канд. пед. наук спец. 13.00.02 «Теория методика обучения и воспитания (иностраные языки)» / И.П. Макаренко. Минск, 2010.-26 с.

5. Методика преподавания иностранных языков в средних учебных заведениях учеб. для студ. высш. учеб. закл. образования]/[Николаева С.С. Ю., Бигич О. Б., Бражник Н. О. и др.]. К.: Ленвит, 2002. – 328 с.

6. РОЛЬ ЛЕКСИКИ В Обучении английскому языку: теоретический анализ . (2025). fan, ta'lim, texnologiya va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida rivojlanish istiqbollari, 2(2), 34-36. <https://universalpublishings.com/index.php/fan/article/view/10669>

7. Программа по английскому языку для профессионального общения / [Бакаева Г. С., Борисенко О. А., Зуенко И. И. и др.]. К.: Ленвит, 2005. 119 с.

8. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе Шатилов С.Ф.Л. Просвещение, 1986. -С.129.

## LINGUISTIC, COGNITIVE, AND PEDAGOGICAL PERSPECTIVES ON TEMPORAL WORDS IN ESL LEARNING

*Samadova Svetlana Jontoshevna,*

*Senior Teacher at the Interfaculty Department of Foreign Languages, Faculty of Tourism,  
Chirchik State Pedagogical University*

*Abstract: This article examines the pedagogical implications of teaching temporal words to ESL learners by integrating theoretical insights from second language acquisition research with evidence-based classroom practices.*

*Key words: Temporal Words, ESL (English as a Second Language), Temporal Adverbials, Language Pedagogy, Cognitive Development, Cross-Linguistic Influence, Discourse Coherence, Time Conceptualization, Sequencing Connectors*

*Аннотация: В данной статье анализируются педагогические аспекты обучения студентов ESL (изучающих английский как второй язык) словам, обозначающим время, на основе теоретических исследований в области изучения второго языка и проверенных на практике методик обучения.*

*Ключевые слова: словам, обозначающие время, ESL (английский язык как второй язык), показатели времени (темпоральные наречия), языковая педагогика, когнитивное развитие, межъязыковое влияние, связность речи, концепт времени, связки последовательности.*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ESL (ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchi) talabalarga vaqt bildiruvchi so'zlarni o'rgatishning pedagogik jihatlari ikkinchi tilni o'rganish bo'yicha nazariy tadqiqotlar va sinovdan o'tgan amaliy mashg'ulot metodlari asosida tahlil qilinadi.*

*Kalit so'zlar: vaqt bildiruvchi so'zlar, ESL (Ingliz tili ikkinchi til sifatida), vaqt ko'rsatkichlari (Temporal Adverbials), til pedagogikasi, kognitiv rivojlanish, tillardagi o'zaro ta'sir, nutqning muvofiqligi, vaqt tushunchasi, ketma-ketlik bog'lovchilari*

**Introduction.** The use of temporal expressions - words and phrases that indicate the sequence or timing of events - is essential for coherent communication in English. These include terms such as before, after, then, while, and finally, which enable speakers to describe events in chronological order and signal transitions in discourse. For ESL learners, mastering temporal words is crucial not only for narrative and academic writing but also for everyday spoken communication. However, despite their utility, temporal words present unique challenges, especially when learners' first languages conceptualize time differently or use different grammatical structures.

This paper explores the intersection of linguistic structure, cognitive processing, and pedagogical practice in the acquisition of temporal expressions. In particular, it highlights the challenges faced by Uzbek-speaking learners due to the structural and cultural differences between English and Uzbek temporal systems.

**Methods.** This study takes a theoretical and applied linguistic approach rather than an experimental one. The methodology consists of:

**Literature review:** Synthesizing findings from second language acquisition (SLA), cognitive linguistics, and language pedagogy related to temporal expressions.

**Comparative linguistic analysis:** Examining structural and functional differences in expressing temporality in English and Uzbek.

**Pedagogical case design:** Illustrating strategies such as chunking, visualization, repetition, and explicit form-focused instruction through classroom-based examples and activities.

**Cross-linguistic influence analysis:** Evaluating common learner errors and transfer phenomena observed in Uzbek-speaking ESL learners.

## Results

The analysis revealed several key findings regarding the acquisition of temporal words: Temporal words function at both the sentence level (e.g., adverbial modifiers) and the discourse level (e.g., signaling event sequence and coherence). These connectors support various text types, including narratives, procedural texts, and expository writing.

Temporal expressions require cognitive abilities such as:

Mental time travel: Projecting oneself backward or forward in time.

Working memory engagement: Maintaining and manipulating multiple event relationships.

Conceptual understanding: Mapping abstract time concepts onto linguistic forms.

- For Uzbek speakers: Temporal markers are often implied rather than explicitly stated.

Sentence structure tends to be subject-object-verb (SOV), which differs from English's SVO pattern.

Errors include omission of connectors, overuse of basic words like then, and word-order errors.

- Four effective classroom practices emerged:

Chunking: Teaching temporal expressions in meaningful groups.

Visualization: Using timelines and story maps to make abstract concepts concrete.

Repetition: Reinforcing temporal structures through retelling and transformation tasks.

Explicit focus on form: Directing learners' attention to structure and usage in context.

## Discussion

Temporal words, also known as temporal adverbials or sequencing connectors, are linguistic tools that establish chronological relationships between events or actions. These expressions are critical in structuring coherent discourse, particularly in narrative, procedural and expository texts. They serve not only to indicate time relationships (e.g., before, after, while) but also to signal logical sequencing (then, next), simultaneity (meanwhile, at the same time), and conclusion (finally, in the end). Their mastery enables learners to produce and comprehend temporally organized texts, which is essential for both everyday communication and academic success.

From a linguistic point of view, temporal expressions operate at multiple levels of discourse. On the sentence level, they often function as adverbials modifying the verb phrase (e.g., He ate lunch before he went to class). On the discourse level, they contribute to text cohesion and coherence by marking transitions between events or ideas. Their frequent use in narratives, instructions and explanations makes them indispensable in both spoken and written communication.

Cognitively, the acquisition of temporal expressions involves the integration of linguistic form, semantic understanding, and conceptual development of time. Young learners and second language learners alike must develop the ability to mentally represent sequences of events and relate them to linguistic forms. This process is influenced by the learner's age, cognitive maturity, and familiarity with time-related concepts. Temporal words are inherently abstract, often requiring learners to engage in inferential thinking and mental time travel - the ability to mentally project oneself backward or forward in time [4]. These cognitive demands can be particularly taxing for L2 learners who are simultaneously acquiring vocabulary, syntax, and discourse skills.

Moreover, the acquisition of temporal expressions cannot be isolated from contextual usage. Learners benefit from encountering these words in meaningful contexts where time relationships are made explicit through narrative structure, visual sequencing or multimodal cues. Incidental exposure to temporal words in authentic input (e.g., stories, classroom instructions, videos) contributes to the development of implicit knowledge, while explicit instruction facilitates conscious understanding of their functions and proper usage [2].

The acquisition and use of temporal expressions in English is often influenced by a learner's first language (L1), both in terms of grammatical structure and conceptualization of time. These cross-linguistic differences can either facilitate or hinder the development of temporal language in English, depending on the degree of similarity between the L1 and English temporal systems. Linguistically, languages differ in how they encode time. Some languages - such as English - tend

to rely heavily on tense and aspect markers along with explicit temporal adverbials (e.g., yesterday, soon, before, after). Others may rely more on contextual inference, verb aspect or discourse markers without consistently using separate lexical items to indicate temporal sequencing.

Beyond grammatical differences, cultural and cognitive conceptualizations of time can also influence temporal language use. Theory of “thinking for speaking” suggests that speakers of different languages are trained to attend to different elements of events when encoding them linguistically. For example, speakers of English are often taught to explicitly sequence and label events, which aligns with the communicative expectations of English-speaking contexts. In contrast, learners from cultures that rely more on holistic or event-based narratives may initially find this linear sequencing unnatural or overly rigid. These cross-linguistic influences can lead to various difficulties for ESL learners:

Underuse or avoidance of temporal connectors

Incorrect literal translations of L1 structures

Overgeneralization of a few temporal words (e.g., overusing then in all situations)

Confusion between similar temporal terms (e.g., while vs. during, after vs. later)

Similarly, for Uzbek speakers, temporal relationships are typically inferred from context and verb tense, with less reliance on explicit temporal connectors. In Uzbek, temporal adverbs like *keyin* (then or after that) and *oldin* (before) are used, but often the sequence is understood without multiple linking devices. For instance, a learner might produce an English sentence like “I woke up, I ate, I went school” without using any connectors, reflecting a structure that would be acceptable or even natural in Uzbek. Additionally, the flexible word order in Uzbek can lead to errors in English, such as “After school he homework did” due to subject-object-verb (SOV) transfer patterns. Such cross-linguistic influence may lead to both underuse of temporal adverbials and misordered sentence structure, especially in written discourse [5].

### Comparison of temporal constructions in English and Uzbek

Function/ concept	English temporal words	Uzbek temporal words	Example (English)	Example (Uzbek)
Before	Before, prior to	oldin	She arrived before the meeting	U yig'ilishdan oldin keldi
After	After, later	keyin	He went to the store after school	U maktabdan keyin do'konga bordi
Simultaneity	While, at the same time	Bir vaqtda	He was reading while she was cooking	Bola o'qiyotgan paytda, qiz ovqat pishirayotgan edi
Then	Then, next	keyin	I will finish my work, then go home	Men ishni tugataman, keyin uyga ketaman
Finally	Finally, in the end	Oxir oqibat	Finally, we reached the destination	Oxir oqibat biz manzilga yetib keldik.
During	during	davomida	We met during the conference	Biz konferensiya davomida uchrashdik

This table compares how temporal relationships are expressed in English versus Uzbek, noting

key differences in adverbial use and sentence structure. For Uzbek speakers, the flexibility of word order and use of fewer explicit temporal connectors can cause errors in English, especially in complex sentences that require clear sequencing of events.

**Before/After:** In English, before and after are often used with clear temporal markers, whereas in Uzbek, these relationships are commonly conveyed using verbs or auxiliary phrases and sometimes implied by context.

**Simultaneity:** English has a wide range of temporal markers (e.g., while, at the same time), while in Uzbek, the temporal concept is conveyed using a singular phrase (e.g., bir vaqtda).

**Flexibility in Word Order:** Unlike English, which typically follows a Subject-Verb-Object (SVO) order, Uzbek allows greater flexibility (SOV), which can result in errors like word order inversion in English.

The acquisition of temporal language in ESL learners is not solely a matter of linguistic input; it is also deeply intertwined with cognitive development and the learners' ability to conceptualize time. Temporal expressions - such as those indicating sequence, simultaneity, or result - require learners to engage in mental time travel, a cognitive ability that involves manipulating mental representations of past, present, and future events [4]. The cognitive complexity involved in understanding and using these expressions means that age, cognitive maturity and proficiency in both the first and second languages play significant roles in determining how easily learners can master temporal language.

The process of learning and using temporal words also places demands on working memory, the cognitive system responsible for holding and manipulating information over short periods of time. Temporal words often operate in complex sentence structures, requiring learners to track multiple events or actions and their interrelationships. This can be particularly challenging for lower proficiency learners, who may already be stretched in terms of their working memory capacity when processing vocabulary, grammar, and discourse simultaneously.

Furthermore, as learners progress in their L2 proficiency, they are able to handle more complex temporal structures. However, beginner learners might find it difficult to juggle multiple temporal markers within one sentence. For example, a sentence like "After she finished reading the book, she went for a walk" involves two events and two temporal relationships, requiring learners to track the sequence (finish reading → go for a walk) while maintaining other syntactic and lexical elements.

Cognitive development in language acquisition is often conceptualized in terms of implicit versus explicit knowledge. Implicit knowledge refers to an intuitive understanding of language rules that learners acquire through exposure, while explicit knowledge involves conscious awareness and understanding of those rules, often gained through formal instruction. Temporal expressions are particularly complex in that they require both implicit and explicit learning: learners need to encounter temporal words in real-world contexts (implicit) and also learn their formal rules (explicit) in a classroom setting. In the case of temporal adverbials, a learner might first grasp the meanings of basic words like before and after through exposure to simplified texts or oral storytelling, but it is through explicit instruction that learners master the more nuanced uses of temporal words, such as when to use while versus during or how to order events in complex narratives [3].

There are several cognitive strategies that can aid in the acquisition of temporal words, particularly for younger learners or those with limited working memory capacity:

**Chunking:** Grouping words or concepts together (e.g., grouping before and after with other temporal markers like first and next) to simplify processing. A teacher can introduce a set of basic temporal connectors (e.g., before, after, then, next) by presenting them together in a sequence that mimics a daily routine. This allows learners to easily remember and apply these words in context.

**Example Activity:**

Step 1: Write a list of common temporal words on the board: first, then, next, after, finally.

Provide learners with a story or sequence of events, and ask them to chunk the words and phrases into a coherent timeline:

“First, I wake up. Then, I eat breakfast. Next, I go to school. After school, I go home. Finally, I go to bed.”

Step 2: Encourage learners to practice telling a similar story, using the same chunks in their sentences. This way, learners are able to group these words into chunks they can more easily recall and apply to other contexts.

Visualization: Using visual aids such as timelines, graphic organizers, or story maps to illustrate temporal relationships. Using a timeline helps students visualize the order of events, which is particularly helpful when working with complex sentences or narratives.

Example Activity:

Provide students with a timeline graphic that has a horizontal line with markers representing past, present, and future. Ask them to place different temporal words (e.g., before, after, during, next) at the appropriate points on the timeline. Then, have them use the timeline to describe a sequence of events in their life or a narrative: “Before I went to school, I ate breakfast. After school, I went to the park.” This visual representation of time makes abstract temporal concepts more concrete for learners.

Repetition: Repeated exposure to temporal words in different contexts (e.g., retelling stories, completing sequencing tasks) helps solidify their use in the learner’s cognitive framework.

Example Activity:

Step 1: Give students a list of sentences with temporal expressions:

“I ate breakfast before I went to school.”

“She finished her homework after dinner.”

“He played soccer while I watched TV.”

Step 2: Ask students to repeat each sentence, first in pairs and then in front of the class, focusing on the temporal connectors.

Step 3: Have learners change the subjects or actions in the sentences while keeping the temporal structures intact:

The more learners repeat these structures in varying contexts, the better they will internalize the temporal words and their appropriate usage.

4. Explicit Focus on Form. This strategy involves directing learners’ attention to specific forms or structures (in this case, temporal markers) within authentic contexts, helping them to notice and understand their usage in a conscious manner. When working with complex sentences involving multiple temporal words, learners should be taught how to analyze and produce such sentences consciously.

Example Activity:

Step 1: Select a story or passage that uses multiple temporal expressions (e.g., first, then, before, after). For instance, a short narrative like:

«First, I went to the store. Then, I went home. After that, I made dinner.»

Step 2: Ask students to underline the temporal markers in the text.

Step 3: Engage students in a discussion on why the temporal words were used in specific positions and how they influence the meaning of the sentence. “Why is then used after first?” “What would happen if we swapped before and after in this sentence?”

Step 4: After the discussion, have students rewrite the story, changing the order of events while using the same temporal connectors correctly.

By focusing learners’ attention on the structure of temporal words and their usage in context, they become more aware of how to apply them in their own speech and writing.

Conclusion

The effective acquisition and use of temporal words are vital for English language learners as

they support the ability to structure coherent discourse, convey chronological relationships and engage in meaningful communication across both academic and everyday contexts. As this article has shown, teaching temporal expressions to ESL learners - particularly those whose first languages conceptualize time differently, such as Uzbek - requires a multidimensional approach grounded in both linguistic theory and cognitive development. Challenges stem from cross-linguistic differences, cognitive demands such as mental time travel and working memory limitations, and the abstract nature of temporal language itself.

Addressing these challenges demands intentional pedagogy that balances implicit and explicit learning strategies. Classroom practices such as chunking, visualization, repetition and explicit focus on form can support learners in internalizing temporal markers and applying them with increasing accuracy and flexibility. Moreover, tailoring instruction to reflect learners' linguistic backgrounds, as in the case of Uzbek speakers, helps bridge gaps caused by L1 transfer and fosters greater metalinguistic awareness.

### References

Celce-Murcia, M., Larsen-Freeman, D. *The grammar book: An ESL/EFL teacher's course*, 1999.

Ellis, R. *Instructed second language acquisition: A literature review*. Research Division, Ministry of Education, 2005.

Gass, S., Selinker, L. *Second language acquisition: An introductory course* (3rd ed.). Routledge, 2008.

Suddendorf, T., Corballis, M. C. *The evolution of foresight: What is mental time travel, and is it unique to humans?* *Behavioral and Brain Sciences*, 30(3), 299–313, 2007.

<https://jainkwellpublishing.com/index.php/conferences/article/view/599> Comparative analysis of representation temporal relations in proverbs of english and Uzbek languages, Nigora Berdiyeva

<https://jainkwellpublishing.com/index.php/conferences/issue/view/17>

## **BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHGA KOGNITIV YONDASHUVLAR**

*Тажбенова Сауле Сарсенгалиевна,  
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти, Бошлангич таълим  
кафедраси доцент, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

## **КОГНИТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

*Тажбенова Сауле Сарсенгалиевна,  
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза,  
доцент кафедры начального образования, кандидат педагогических наук (PhD)*

## **COGNITIVE APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCE IN PRIMARY EDUCATION**

*Tajbenova Saule Sarsengaliyevna,  
Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of  
Primary Education, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

*Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirishda kognitiv yondashuvni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash faoliyatini faollashtirish va til ongin rivojlantirishning ahamiyati alohida ta‘kidlangan. Milliy ta‘lim kontekstini hisobga olgan holda kognitiv paradigmaga mos keladigan pedagogik usullar ko‘rib chiqilgan.*

*Kalit so‘zlar: kognitiv yondashuv, lingvistik kompetensiya, boshlang‘ich ta‘lim, til ongi, ko‘nikma, malaka.*

*Аннотация. В данной статье проанализированы особенности применения когнитивного подхода в формировании лингвистической компетенции у младших школьников. Особое внимание уделено актуализации мыслительной деятельности учащихся и развитию языкового сознания. Рассмотрены педагогические методы, соответствующие когнитивной парадигме, с учётом контекста национального образования.*

*Ключевые слова: когнитивный подход, лингвистическая компетенция, начальное образование, языковое сознание, навык, умение.*

*Annotation. This article analyzes the specific features of applying a cognitive approach in the development of linguistic competence among primary school students. Special attention is given to the activation of students' thinking processes and the development of language awareness. Pedagogical methods aligned with the cognitive paradigm are examined within the context of national education.*

*Keywords: cognitive approach, linguistic competence, primary education, language awareness, skill, ability.*

Respublikamizdagi zamonaviy boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda ta‘limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishning poydevori sifatida til ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim o‘rin egallaydi. Umumiy ta‘lim mazmunini modernizatsiya qilish bo‘yicha Davlat dasturini amalga oshirish doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining funksional savodxonligini, jumladan, til va muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda grammatik qoidalarni mexanik tarzda yodlash va lug‘at boyligini oddiy

eslab qolishga asoslangan an'anaviy yondashuv asta-sekin kognitiv ta'lim modellariga o'z o'rnini bo'shatib bermoqda. Kognitiv yondashuv tilni nafaqat amaliyot orqali, balki, tushunish, tahlil qilish, bolaning shaxsiy tajribasi bilan bog'lash asosida o'zlashtiriladigan tizim sifatida idrok etish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim, chunki ularning tafakkuri aniq operatsiyalar bosqichida (J.Piaje nazariyasiga ko'ra) bo'lsa-da, allaqachon mavhumlashtirish, tasniflash va mantiqiy xulosalar chiqarish yo'nalishida faol rivojlanmoqda.

O'zbekiston ta'lim muassasalarida kognitiv jarayonlarni faollashtirish orqali til ongini rivojlantirishga qaratilgan usullar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Masalan, 1-4-sinflarda o'zbek tilini o'qitishda o'qituvchilar "assotsiativ doira" metodidan foydalanadilar: o'quvchilarga "daftar" so'zi taklif etiladi va u bilan bog'liq barcha narsalarni aytish so'raladi – "qalam", "maktab", "sinf", "o'quvchi". Bunday faoliyat nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki, turkumlash va tizimlashtirish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Yana bir misol, o'zbek va rus tillarini o'rganishda qiyosiy jadvallardan foydalanish bo'lib, bu ayniqsa, ikki tilli maktablarda dolzarbdir. Masalan, o'quvchilarga "Men maktabga boraman" va "Я иду в школу" kabi konstruksiyalarni taqqoslash taklif etiladi. Bu esa tuzilmalarni kognitiv jihatdan solishtirish va til qonuniyatlarini ongli ravishda tushunishni rag'batlantiradi.

V.V.Davidov ta'kidlaganidek, "tafakkurni rivojlantirish faqat bilimlarni faol o'zlashtirish sharoitida mumkin" [1, 14-bet]. Boshlang'ich ta'lim nuqtai nazaridan bu shunday sharoitlarni yaratish zarurligini anglatadiki, bunda bola qoidalarni shunchaki yodlovchi emas, balki tilni o'rganishning faol ishtirokchisiga aylanadi. Kognitiv ta'limda til nafaqat muloqot vositasi, balki fikrlash, tahlil qilish va qo'llash obyektiga ham aylanadi.

Shunday qilib, til o'qitishga kognitiv yondashuvlar O'zbekistonning ijodkor va intellektual faol avlodni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim siyosati sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

1. Kognitiv yondashuvning nazariy asoslari. Lingvodidaktikadagi kognitiv yondashuv tilni o'zlashtirishni grammatik qoidalar va so'zlarni mexanik tarzda yodlash emas, balki til ma'lumotlarini mazmunli idrok etish, qayta ishlash va ifodalashni ta'minlaydigan ichki kognitiv tuzilmalarning faol shakllanishi va rivojlanishi degan g'oyaga asoslanadi. An'anaviy usullardan farqli o'laroq, kognitiv paradigmada asosiy e'tibor o'zlashtirilgan materialning hajmiga emas, balki o'quvchining tushunish chuqurligi va yangi nutqiy vaziyatlarda bilimlarni mustaqil qo'llash qobiliyatiga qaratiladi.

Ye.S.Polat ta'kidlaganidek, kognitiv strategiyalar til materialini passiv takrorlash orqali emas, balki faol fikrlash orqali tushunish, tizimlashtirish va ongli ravishda foydalanishga yo'naltirilgan [2, 89-b.]. Bu shuni anglatadiki, o'quvchi ta'lim objekti emas, balki o'zining lisoniy dunyoqarashini shakllantiruvchi, bilish faoliyatining subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Kognitiv yondashuvning o'ziga xos xususiyati o'quvchilarda quyidagi asosiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirishdir:

Turkumlash – til hodisalarini ma'no, grammatik va funksional belgilariga ko'ra guruhlash qobiliyati. Masalan, so'z turkumlarini o'rganishda boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zlarni tasniflash bo'yicha topshiriqlarni bajarishlari mumkin: bola so'zini otlarga, u – olmoshlarga, kuldi – fe'llarga kiritish, shu bilan birga ular bu tanlovni qanday asosda qilganliklarini tushuntirishlari lozim.

Konseptualashtirish – mavhum tushunchalarni aniq til ifodasi bilan bog'laydigan ichki til modelini shakllantirish. Masalan, "Fe'l zamonlari" mavzusini o'rganishda bolalar fe'lning shakli aytilganlarning ma'nosini o'zgartirishini anglagan holda Men kitob o'qiyapman (hozirgi), Men kitob o'qidim (o'tgan), Men kitob o'qiyman (kelasi) zanjirlarini tuzadilar.

Analogiya – bilimlarni bir til vaziyatidan boshqasiga ko'chirish. Masalan, o'quvchi daftarlar so'zida ko'plik qanday hosil bo'lishini bilsa, o'xshatish yo'li bilan o'quvchilar, qalamlar, do'stlar shakllarini hosil qila oladi.

Modellashtirish – o'quvchining o'z til konstruktsiyalari, sxemalari va tuzilmalarini

yaratishi. Masalan, o'qituvchi bolalarga ma'lum elementlar (ega, kesim, to'ldiruvchi) yozilgan kartochkalardan foydalanib "gap modeli"ni tuzishni taklif qilishi mumkin: Oybek (kim?) kitob (nimani?) o'qiyapti.

Ushbu kognitiv harakatlar, ayniqsa, boshlang'ich maktabda dolzarbdir, chunki bu davrda neyron aloqalarining, ko'rish va eshitish xotirasining, obrazli fikrlashning faol rivojlanishi kuzatiladi. Kognitiv yondashuv o'quvchining izlanish, mantiqiy va ijodiy faoliyatga doimiy jalb etilishi orqali bu rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, bolalar ko'pincha ikki yoki uch tilli (o'zbek, rus, ingliz) muhitda o'sadigan O'zbekistonning madaniy-lisoniy kontekstini ham ta'kidlash lozim. Bunda kognitiv strategiyalar nafaqat har bir tilni alohida o'zlashtirish, balki ularni ongli ravishda farqlash, tillar o'rtasida aloqalarni o'rnatish imkonini beradi. Masalan, sonlarni o'rganishda o'quvchilar moslik jadvallari tuzishlari mumkin: bir – один – one, ikki – два – two, bu tillararo aloqalarni yaxshiroq eslab qolish va anglashga yordam beradi.

Shunday qilib, til o'qitishda kognitiv yondashuv nafaqat so'zlar va qoidalarni bilish, balki keyingi muvaffaqiyatli ta'lim va nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun asos bo'ladigan lisoniy fikrlash tizimini shakllantiradi.

2. Boshlang'ich ta'limda lingvistik kompetensiya. Lingvistik kompetensiya til ta'limining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning boshlang'ich bosqichida nutqiy, kommunikativ va ijtimoiy-madaniy kompetensiyani yanada rivojlantirish uchun asos sifatida shakllanadi. Chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalariga (CEFR) ko'ra, lingvistik kompetensiya grammatik tuzilmalar, imlo, fonetika, sintaksis, shuningdek, tilning leksik-semantik xususiyatlarini bilish va tushunishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'lim sharoitida lingvistik kompetensiyani shakllantirish nafaqat davlat (o'zbek) tilini o'qitishni, balki ta'lim muassasasi turi va o'quvchilarning til muhitiga qarab rus va ingliz tillarini o'qitishni ham qamrab oladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, ya'ni ko'rgazmalilik orqali idrok etish, obrazli tafakkurga tayanish, qayta-qayta takrorlash zarurati, bolaning shaxsiy tajribasini dolzarblashtirish kabilarga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy o'quv dasturida ta'kidlanganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilari "til birliklarini tahlil qilishning elementar ko'nikmalarini egallashlari, shuningdek, ularni nutq amaliyotida qo'llash qobiliyatini rivojlantirishlari kerak" [3]. Bu passiv yodlashdan til mexanizmlarini mazmunli o'zlashtirishga o'tishni anglatadi – bu kognitiv paradigmaga to'liq mos keladi.

Amaliyotda ushbu yonashuvlarni qo'llash bo'yicha quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

Grammatik tuzilmalar. O'zbek tilidagi kelishik shakllarini (masalan, nomiyot – nomiyotni – nomiyotga va h.k.) o'rganishda bolalarga savollar (kim? nimani? qayerga?) va ularga mos otlar yozilgan o'yin kartochkalaridan foydalanish taklif etiladi. Bu nutqiy vaziyatlarni modellashtirish orqali grammatik kategoriyalarni mazmunli o'zlashtirishga yordam beradi.

Fonetika va talaffuz. O'zbek tili darslarida o'qituvchi fonetik o'yinlardan foydalanishi mumkin: masalan, so'zlardagi qattiq va yumshoq undoshlarni aniqlash yoki berilgan tovushlardan so'z tuzish (b-a-r-a-k-a). Bu o'quvchilarga so'z tuzilishini eshitish va anglashga, fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Orfografiya va imlo. Rus tilida so'z o'zagidagi urg'usiz unlilarni to'g'ri yozishga o'rgatish muhim yo'nalish hisoblanadi. O'qituvchilar "so'z yasash narvoni" usulini qo'llaydilar: glaz – glazik – glaznoy, bu o'quvchilarga so'zlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va orfogrammani ongli ravishda eslab qolish imkonini beradi.

Sintaksis va gap tuzish. Ingliz tili darslarida o'quvchilar I have a pen / This is my bag / I like apples namunasi bo'yicha predmetlar, kishilik olmoshlari va fe'llar tasvirlangan kartochkalardan foydalanib, sodda gaplar tuzishni o'rganadilar. Bunday mashqlar fikrni tuzilmalash ko'nikmalarini

rivojlantiradi.

Til birliklari tahlili. Masalan, o'zbek tilidagi qisqa matnlar ustida ishlashda o'quvchilarga barcha fe'llarning tagiga chizish, so'zlarni bo'g'inlarga ajratish, so'z turkumlarini aniqlash taklif etiladi. Bu tahliliy tafakkurni faollashtiradi va lingvistik tahlilning dastlabki ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'limning dastlabki yillaridan boshlab lingvistik kompetensiyani tizimli rivojlantirish nafaqat savodli og'zaki va yozma nutqni shakllantirishni ta'minlaydi, balki boshqa fanlarni, ayniqsa, matnlar bilan ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va turli shakllarda javob berish talab qilinadigan fanlarni o'zlashtirish uchun poydevor yaratadi.

Shunday qilib, O'zbekiston ta'lim siyosatida lingvistik kompetensiyani shakllantirish strategik vazifa sifatida qaraladi va uni amalga oshirish faqat bolalarning yosh xususiyatlariga ham, zamonaviy ta'lim talablariga ham mos keladigan kognitiv yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali mumkin bo'ladi.

3. O'zbekiston sharoitida kognitiv metodlarni qo'llash. Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida nafaqat bilim berish, balki tafakkur, tasavvur, til sezgisi va tildan ongli ravishda foydalanish qobiliyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kognitiv usullarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda, ular ayniqsa boshlang'ich bo'g'inda samarali amalga oshiriladi, chunki bu davrda bola tushunish orqali tizimli ta'limga eng moyil bo'ladi.

Quyida Respublikamiz boshlang'ich maktablarida kognitiv metodlarni qo'llashning amaliy misollari keltirilgan:

1. Kognitiv xaritalash. Bu usul boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z va tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni tasavvur qilishga yordam beradi. Masalan, ingliz tili darsida "Mening oilam" mavzusini o'rganishda o'quvchilar markazida family so'zi, atrofida esa mother, father, sister, brother, grandmother, grandfather so'zlari yozilgan xarita tuzadilar. Har bir so'zga rasm va o'quvchi tomonidan tuzilgan qisqa jumla ilova qilinadi (This is my mother. Her name is Nilufar.).

Bunday mashq quyidagilarga yordam beradi:

ko'rish va mantiqiy xotirani faollashtirish;

leksik birliklar o'rtasida semantik aloqalarni shakllantirish;

- yangi leksikani ongli ravishda o'zlashtirishni ta'minlash.

2. Konseptual jadvallar. O'zbek yoki rus tillarida grammatikani o'qitishda «so'z turkumi – vazifa – misollar» jadvalidan foydalaniladi. Masalan, 3-sinfda fe'llarni o'rganishda quyidagi jadval tuziladi:

Fe'l	Savol	Zamon	Misol
bormoq	nima qilmoq?	hozirgi	Men maktabga boraman
o'qimoq	nima qilmoq?	o'tgan	U kitob o'qidi

Bu bolalarda til hodisalarini tasniflash va tizimlashtirish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi, metatil tafakkurini rivojlantiradi.

3. Vaziyatli-rolli o'yinlar. Masalan, 4-sinfda "Do'konda" mavzusini o'rganishda o'quvchilarga dialoglar o'ynash taklif etiladi: bir o'quvchi xaridor, ikkinchisi sotuvchi rolini bajaradi. Nutq tovar namunalari va kartochkalari asosida tuziladi ("Men ... sotib olmoqchiman", "Bu qancha turadi?", "Marhamat"). Bu o'yinlar:

- haqiqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi;

- nutq ravonligi va ohangdorligini rivojlantiradi;

- leksik-grammatik tuzilmalarni amalda mustahkamlashga yordam beradi.

4. Aqliy hujum va assotsiativ zanjirlar. 2-sinf o‘zbek tili darsida o‘qituvchi “daraxt” so‘zini taklif qiladi va bolalardan bu so‘z bilan bog‘liq barcha so‘zlarni aytishni so‘raydi: barg, meva, soyabon, yaproq, bahor, tabiat. Bu so‘zlardan hikoya yoki she‘r tuziladi.

Bu usul:

so‘z ijodkorligi va obrazli tafakkurni rivojlantiradi;

so‘z boyligini oshirishga yordam beradi;

ijod orqali til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Ta‘limga kognitiv strategiyalarni joriy etish bo‘yicha tajriba loyihasida ishtirok etgan buxorolik boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi suhbatda quyidagilarni ta‘kidladi: “Kognitiv topshiriqlarni qo‘llash so‘zlarni shunchaki yodlash emas, balki ularning ma‘nosini va ma‘lum bir vaziyatda o‘rinli ekanligini anglash imkonini beradi. Masalan, fe‘lning zamon shakllarini o‘rganishda bolalar rasmlar va tayanch so‘zlardan foydalanib, o‘zlari haqida hozirgi va o‘tgan zamonda hikoya tuzdilar. Bu nafaqat xotirani, balki tafakkurni ham faollashtiradi” [4].

Shunday qilib, kognitiv usullar O‘zbekistonning funksional savodxonlikni shakllantirish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim siyosatiga uzviy ravishda mos keladi. Ulardan tizimli foydalanish nafaqat lingvistik kompetensiyani shakllantirish, balki bolaning kognitiv sohasi – xotira, tafakkur, diqqat va tasavvurning yaxlit rivojlanishi uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

4. O‘qituvchi va ta‘lim muhitining roli. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishga kognitiv yondashuv o‘qituvchidan ta‘lim jarayonidagi o‘z rolini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. O‘qituvchi endi yagona axborot manbai emas, u o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va lisoniy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim maydonini tashkil etuvchi yordamchi, rag‘batlantiruvchi va yo‘l ko‘rsatuvchiga aylanadi.

T.A.Ladijenskaya ta‘kidlaganidek, “o‘qituvchi o‘quvchilarning ijodiy til faoliyati uchun sharoit yaratishi, tanlov erkinligini ta‘minlashi, yechimlarni mustaqil izlashni rag‘batlantirishi kerak” [5, 47-b.]. O‘zbekiston boshlang‘ich maktabida bu o‘qituvchi:

o‘quvchiga til qonuniyatlarini o‘zi aniqlash imkoniyatini beradi (masalan, misollarni tahlil qilish jarayonida);

ochiq tugallanishli topshiriqlarni taklif qiladi (masalan, tayanch so‘zlar bo‘yicha insho);

ijtimoiy va til o‘zaro ta‘sirini rag‘batlantiradigan juftlik va guruh ishlarini tashkil etadi;

metapredmet ko‘nikmalarini – til materiallari asosida fikrlash, tahlil qilish, tasniflash, umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, kognitiv yondashuv nafaqat uslubiy yangilik, balki O‘zbekistonning intellektual rivojlangan, ijodkor va til kompetensiyasiga ega shaxsni shakllantirish bo‘yicha strategik vazifalariga mos keladigan boshlang‘ich maktabda zamonaviy til ta‘limining poydevoridir. Uni amalga oshirish pedagoglar, metodistlar, davlat tuzilmalari va raqamli ta‘lim infratuzilmasining sa‘y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. — М.: Педагогика, 1986. — 240 с.

Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2007. — 272 с.

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Босқичма-босқич таълим дастури (1–4-синфлар). — Тошкент, 2022.

Ахмедова Н. (2023). Интервью с учителем начальных классов. // Газета “Таълим ва тараққиёт”, №7.

Ministry of Preschool and School Education of Uzbekistan. Digital Education Strategy 2030. — Tashkent, 2023.

## JAHON TILSHUNOSLIGIDA DARAJALANISHNING O'RGANILISHI

To'xtayeva Dilafruz Ashurovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi

*Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon tilshunosligida darajalanishning o'rganilishi haqida yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: Tilshunoslik, lingvistik, nutq, tadqiqot.*

Zamonaviy tilshunoslik til va nutqni funksional (kommunikativ) jihatdan o'rganishga asosiy e'tiborni qaratadi. Buni, birinchi navbatda, tilning eng muhim aloqa vositasi ekanligi bilan izohlash mumkin. Muloqot esa tildan foydalanish, uni amalda qo'llash natijasidagina mumkin bo'ladi. Til/nutq hodisalariga kommunikativ yondashuv bilan bog'liq holda zamonaviy tadqiqotchilarning e'tiborini uslubiyat, nutq madaniyati va unga oid asarlarda o'z aksini topgan turli xil uslubiy (vizual va ekspressiv) vositalar tobora ko'proq jalb qilmoqda. Ko'pgina uslubiy vositalar, birinchi navbatda, ko'chimlar va ushbu ko'chimlarni yuzaga keltiruvchi badiiy vositalar o'rta maktab va oliy o'quv yurti darsliklaridan o'rin oldi. Shu taxlit metafora, metonimiya, sinekdoxa, antiteza, turli xil takror va hokazolar bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari yaratildi, ularning bir-biridan farqi, har birining o'ziga xos xususiyatlari atroflicha tahlilga tortildi. Ammo hozirga qadar darajalanish fanda eng kam o'rganilgan uslubiy hodisalardan biri bo'lib qolmoqda.

Darajalanish kategoriyasini ilmiy muammo sifatida o'rganishda ustuvorlik amerikalik tilshunos E.Sapirga tegishli bo'lsa-da, bu hodisaning zaruriy shartlari hamda xususiyatlarini belgilash antik davrda paydo bo'lgan. Aristotelning "Kategoriyalar" asarida miqdor kategoriyasiga qo'shimcha ravishda korrelyatsiya deb ataladigan hodisa, ya'ni obyektlarni bir-biri bilan solishtirishga imkon beruvchi terminga ham e'tibor qaratildi. Shunday qilib, Aristotel gradatsiya mexanizmi masalasini ko'taribgina qolmay, balki uning qamroviga kiruvchi birliklarni ham aniqladi, ya'ni gradatsiyaning haqiqiy obyektini belgiladi. Bunday kategoriyaga, birinchi navbatda, sifat o'zgarishlariga olib keluvchi birliklar kiritildi. Aristotel o'zida o'sib yoki pasayib boruvchi sifat o'zgarishlarini ifodalovchi birliklar darajalanish obyekti bo'la olishi haqidagi asosli xulosaga keldi.

XIX asrga kelib, nafaqat daraja qiyosi, balki ularni nutqning turli ko'rinishlarida aniqlash mezonlarini tavsiflashda, taqqoslash standarti, ya'ni me'yor tushunchasini yaratishda ham sezilarli yutuqlarga erishildi. XX asrda esa qiyosiylik kategoriyasi ancha yaxshi o'rganildi, turli gap bo'laklari uchun taqqoslash darajalari parametrlari shakllantirildi, taqqoslash me'yor tushunchasi har tomonlama ko'rib chiqildi. Aytish mumkinki, ilm-fanni darajalanish hodisasini tushunishga yaqinlashtiradigan muhim qadam qo'yildi.

"Daraja" tushunchasini birinchi marta N.S.Trubetskoy fonologiyada qarama-qarshilik munosabatlarini o'rnatish uchun kiritgan. Bunda olim bir xil xususiyat namoyon bo'lishining turli darajalariga urg'u bergan.

Darajalanish universal antroposentrik kategoriya sifatida har doim tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. E.Sepir uni mantiqiy-semantik kategoriya sifatida; S.M.Kolesnikova, Y.I.Sheygal va boshqalar leksik-grammatik; V.S.Gorshkova, N.D.Arutyunova, Y.M.Volf, Y.L.Vorotnikov, Y.A.Potseluyevskiy, A.A.Xovalkinalar leksik-semantik kategoriya sifatida tahlilga tortishgan.

Jahon tilshunosligida darajalanish kategoriyasiga munosabatda ikki xil yo'nalish ko'zga tashlanadi: 1) darajalanish (lotincha gradation – asta-sekin ko'tarilish, kuchayish) – ketma-ketlik, asta-sekinlik bilan sifat yoki miqdor o'zgarishlari asosida bir predmet yoki tushunchadan keyingisiga o'tish. Bu yo'nalish tarafdorlari: E.Sepir, N.G. Komlev, Ch.Osgud, Y.M.Volf va boshqalar;

2) darajalanish – ketma-ketlik, asta-sekinlik bilan sifat o'zgarishlari asosida bir predmet yoki tushunchadan keyingisiga o'tish. Bu yo'nalish tarafdorlari: M.U.Zubayrayeva, N.V.Prekina, A.V.Sherbakov, S.Y.Radionova kabilari hisoblanadi.

Bu ikki yoʻnalish masala mohiyati qamrovini belgilash bilan bir-biridan farq qiladi. Birmchi yoʻnalish tarafdorlari darajalanishni keng maʼnoda tushunadi. Bunda intensivlik darajaning miqdor oʻzgarishi asosida yuzaga keluvchi dastlabki bosqichi sifatida qaraladi; hech qanday tashqi taʼsirsiz, ichki sema asosidagi qiyos darajalanishni yuzaga keltirishi qayd qilinadi. Ikkinchi yoʻnalish tarafdorlari masala mohiyatiga tor doirada yondashadi va faqatgina ichki sema asosidagi darajalanishni gradatsiya sifatida eʼtirof etadi.

M.V.Mezenina oʻzining “Nemis tili paradigmatic leksikasida darajalanish” nomli dissertatsiyasida darajalanishni semantik kategoriya sifatida tasniflab, shunday xulosaga keladi: intensivlik asosida shakllangan darajalanishning negizida intensifikatorlar turadi va ular turli birliklar bilan ifodalanadi. Muallif leksik birliklarda sifat va miqdor komponentlarini ajratadi. Olimning eʼtiroficha, sifat komponenti soʻzning lugʻaviy maʼnosi oʻzagi boʻlib, miqdor komponenti esa sifatni toʻldirib, uning namoyon boʻlish intensivligi va darajasini koʻrsatadigan birliklar hisoblanadi. Shuningdek, ishda gradatsiya predmeti va obyektiga qarab darajali shkala turlari koʻrsatilgan va daraja qatorlari belgining tashuvchisi hamda daraja predmetiga nisbatan farqlangan.

M.V.Bondarenkoning “Градуальность как свойство лексики и основание для построения лексической парадигмы (на материале французского языка)” (“Darajalanish leksikaning xususiyati va leksik paradigmani shakllantirish asosi sifatida”, 2001) nomli tadqiqotida darajalanish kategoriyasi keng qamrovli lingvistik birlik sifatida tavsiflanadi va uning zaruriy komponentlari sifatida qiyoslash va intensivlik kategoriyalari; qoʻshimcha komponentlar sifatida konnotatsiya, hissiy-baho va uslubiyini yuzaga keltiruvchi birliklar kiritiladi. Tadqiqotchi sifat belgili komponentlar asosida leksemalar paradigmalariga, shu jumladan, darajalanish qatoriga birikishini qayd etadi. Miqdoriy komponent yoki darajalanish semasining roli sifat komponenti bilan ifodalangan atributning namoyon boʻlish darajasidagi farqni aniqlashdan iborat boʻlib, bu har qanday tilda darajalanish kategoriyasi mohiyatini ifodalovchi sifat belgisining meʼyorga munosabatida namoyon boʻladi. Ishda olim daraja shkalasini uning strukturaviy qismlari nuqtayi nazaridan tahlil qilishga, asosiy tarkibiy qismlarni ajratib olish hamda ularning tavsifiga katta eʼtibor qaratadi.

Darajalanishni tadqiq va talqin qilishning batafsil hamda oʻziga xos yondashuvi filolog A.V.Sherbakov tomonidan “Градация как стилистическое явление современного русского литературного языка” (“Gradatsiya zamonaviy rus adabiy tilining stilistik hodisasi sifatida”, 2004) nomli monografiyasida keltirilgan, ishda darajalanish mantiqiy kategoriya sifatida taqdim etilgan, shuningdek, ushbu kategoriyaning uslubiy ifoda sifatidagi oʻziga xos jihatlari batafsil yoritilgan. Muallif tadqiqot ishida soʻzlashuvchi subyektning nutq obyektiga boʻlgan munosabati sifatidagi lingvistik darajalanishni turli vositalar (soʻz yasash, leksik, morfologik sintaktik, uslubiy) bilan ifodalanishi xususida batafsil maʼlumot beradi. Ishda darajalanishning sinonimiya va antonimiya hodisalari, shuningdek, ekspressivlik kategoriyasi va uning tarkibiy qismlari – emotsionallik, baholovchilik, intensivlik va obrazlilik bilan munosabatiga katta eʼtibor beriladi. Ishda baholash shkalasi ikki omilni hisobga olgan holda tuziladi: predmet-mantiqiy (denotativ) va emotsional-baholovchi (konnotativ). Bunda konnotativ va denotativ maʼnoga ega komponentlar sifat va miqdorning umumiy falsafiy kategoriyalari bilan aloqadorlikda tahlilga tortiladi.

Shaxs ongiga hosil boʻladigan maʼlumotni kognitiv qayta ishlash tushunish jarayonida ham, bayonot yaratish nutqida ham sodir boʻladi. Darhaqiqat, baholash operatsiyasi bayonotda mavjud boʻlgan maʼlumotlarni qayta ishlash mexanizmlaridan biridir. Shu jihatdan graduallik kategoriyasini yangicha nuqtayi nazardan qayta koʻrib chiqib, uni kognitiv jarayon sifatida yoritishga harakat qilgan va graduallikning mazmun jihatidan koʻp qirraliligini hamda modus (baholovchi yoki sharhlovchi) xususiyatini ochib bergan I.V.Nazarovanning ishini alohida taʼkidlash lozim. I.V.Nazarovanning qaydicha, darajalanish munosabatlari oʻz-oʻzidan paydo boʻlishi mumkin emas. Ular insonning baholash va izohlash faoliyati natijasidir. Shu bilan birga, nutq turli qismlarining semantikasi birliklar leksik maʼnosini bosqichma-bosqich oʻzgartirish

uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Bu, o'z navbatida, so'zlovchi tomonidan u yoki bu kontseptual mazmuni turlicha talqin qilish va shu asosda individual ma'nolarni shakllantirish imkoniyatini ta'minlaydi. Darajalanishning kognitiv konteksti turli kontseptual sohalarning o'zaro ta'siri orqali yaratiladi. Ko'rinadiki, darajalanish kategoriyasiga murojaat qilish fan uchun nihoyatda istiqbolli va samarali hisoblanadi, chunki bu bizga gradatsiya jarayonini bilimni tuzadigan va ma'lum kognitiv tamoyillar hamda mexanizmlarga asoslangan kognitiv operatsiya sifatida tasavvur qilish va ko'rib chiqishga imkon beradi.

Ukrainalik tadqiqotchi T.V.Podufalovning “Когнитивно-семантические и функциональные особенности градации в русском языке” (“*Rus tilida darajalanishning kognitiv-semantik va funksional xususiyatlari*”, 2007) nomli ishida darajalanish kognitiv-semantik kategoriya sifatida tasniflanadi, bunda nutqiy jarayon insonning kognitiv (aqliy) faoliyatini aks ettirishi va inson ongida sodir bo'ladigan kognitiv jarayonlar tufayli yuzaga kelishiga urg'u beriladi. Tadqiqotchi darajalanishda belgi xususiyatlari gradatsiyasini ko'radi, ya'ni lisoniy birlikda belgining o'zgarishi (u yoki bu darajada namoyon bo'lishi) o'zida ma'lum bir o'zgarish momentini qayd etish qobiliyati mavjudligi tufayli yuz beradi. Muallif tilning turli sathlarida gradatsiyani ifodalash vositalarini tizimlashtirish bo'yicha ish olib boradi va darajalanish ko'rsatkichlarining turlarini aniqlaydi. Tadqiqotda semantik darajalanish xususiyatlaridan tashqari ilgari lingvistik adabiyotlarda ko'rib chiqilmagan diskursiv gradatsion xususiyatlar ham aniqlanadi va tavsiflanadi.

S.E.Radionova “Интенсивность и её место в ряду других семантических категорий” (“*Intensivlik va uning boshqa semantik kategoriyalar orasidagi o'rni*”) nomli tadqiqotida intensivlikni sifatning miqdoriy o'zgarishi sifatida e'tirof etadi va uning ekspressivlik, emotsionallik, baholovchilik hamda obrazdan farqli jihatlarini ko'rsatib o'tadi. Men seni uzoq vaqtdan buyon ko'rganim yo'q – Men seni ming yildan beri ko'rmadim yoki U juda ko'p vino ichadi – U vinoni bochkada ichadi kabi jumlar orqali intensivlikning ekspressivlikka yaqinlashishini asoslaydi. Olimaning yozishicha, ushbu fon intensivlikni ekspressivlikka yaqinlashtiradi va ayrim hollarda intensivlik ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi vositaga aylanadi.

Y.M.Volf intensivlik va darajalanish o'rtasidagi munosabatni yoritarkan, ekspressivlik nafaqat har qanday lingvistik birlik vositasida so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalash qobiliyatini ta'minlaydi, balki matn muallifiga, suhbatdoshga hissiy ta'sirni kuchaytirishga, boshqacha qilib aytganda, nutqning perlokatsion ta'sirini oshirishga xizmat qiladi, deya qayd etadi.

S.E. Radionova darajalanishning sifat o'zgarishi ekanligini, intensivlikning esa belgining miqdor o'zgarishi bilan bog'liqligini haqli ta'kidlaydi.

N.D.Fedyeva darajalanish strukturasi qurilishi bilan bog'liq holatni quyidagicha ifodalaydi: darajalanish predmeti, darajalanish obyekti, darajalanish belgisi va daraja shkalasi. Olima darajalanishga “maydon” sifatida munosabatda bo'ladi. Darajalanish yadrosida qiyoslanuvchi darajalar va o'lchov daraja qo'shimchalari turishini ta'kidlaydi.

A.B.Ivanova esa darajalanishga makromaydon sifatida yondashadi va ushbu maydon ko'p bosqichli lingvistik vositalar tizimi shakllantirishini qayd etadi. Olima darajalanishning makromaydonini ikkiga ajratadi: 1. Absolyut maydon. 2. Nisbiy maydon. A.B.Ivanova zamonaviy ingliz tilidagi darajalanish funksional- semantik makromaydonini o'rganishning umumiy natijalarini sarhisob qilib, quyidagi xulosalarga keladi: 1) ingliz tilida o'sib boruvchi darajalanish qatorini ifodalovchi lisoniy vositalar soni va qo'llanilish chastotasi pasayib boruvchi darajalanishni ifodalovchi vositalarga nisbatan ustunlik qiladi; 2) absolyut darajalanishni ifodalovchi vositalar nisbiy darajalanishni ifodalovchi birliklarga nisbatan xilma-xil va yuqori qo'llanilish chastotasiga ega; 3) umuman olganda, darajalanishni ifodalashning leksik usuli qo'llanilish chastotasiga ko'ra morfologik va sintaktik usuldan ustun turadi.

Rus tili materiallari asosida darajalanishni mukammal tadqiq etgan olimasi S.M.Kolesnikovadir. Olimaning e'tiroficha, darajalanish so'zlovchining bildirilayotgan fikriga munosabati bilan bog'liq.

Tadqiqotda darajalanish tizimining xususiyatlari aniqlanadi, shuningdek, atributning u yoki bu darajasini ifodalovchi leksik ma'nolarga nisbatan izchil faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari ochib beriladi. Darajalanishni ifodalovchi leksik-grammatik kategoriyalar, sintaktik konstruksiyalar tahlili amalga oshiriladi. Olima darajalanishning tarkibiy jihatdan uch bosqichli tuzilishga ega ekanligini qayd etadi. Bular me'yor tushunchasini aks ettiruvchi markaziy a'zo va ushbu me'yordan kamlik yoki ortiqlikni ifodalovchi qarama-qarshi a'zolar. Darajalanishni ifodalovchi birliklar sifatida leksik, frazeologik, so'z yasalishi, morfologik va sintaktik vositalar sanab o'tiladi. Olima darajalanishning ikki xil ko'rinishini qayd etadi: 1. Implitsit darajalanish – bunday darajalanish qatorini sinonim yoki ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar shakllantiradi sinonim (yig'lamoq, ingramoq.....) ma'nosi bir-biriga yaqin (kulba, uy, koshona) 2. Eksplitsit darajalanish. Bunda darajalanishni yuzaga keltiruvchi maxsus so'zlar: graduatorlar, kvantifikatorlar, intensifikatorlar (градуаторы, квантификаторы, интенсификаторы) ishtirok etadi. S.M.Kolesnikova darajalanish leksikasini ikkiga bo'ladi: 1. Asosiy – ushbu darajalanish qatorlarini daraja ma'nosi leksemaning o'zida mavjud bo'lgan sifatlar, otlar, fe'llar tashkil qiladi. Antonimik darajalanish: oq – qora, xunuk – chiroyli. Darajalanishni shakllantiruvchi graduator qo'shimchalar – fe'llarda old qo'shimchalar (варить – недovarить, переvarить; бeгать – набeгаться избегаться и т.д.) 2. Yordamchi – asosiy darajalanish qatorini shakllantiruvchi birliklar bilan birgalikda kelib darajalanish ma'nosini ifodalashda ishtirok etuvchi yordamchi vositalar (sintaktik kvantifikatorlar).

N.V.Prekinaning “Градуальная семантика русских пословиц” (“Rus maqollarida semantik darajalanish”, 2006) deb nomlanuvchi tadqiqoti uch bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda rus maqollarining semantik jihatdan o'zida xos xususiyatlari, semantik va struktur tomondan maqol hamda matal o'rtasidagi munosabat, maqol va ibora o'rtasidagi o'ziga xosliklar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bobda darajalanish mazmuniga ega bo'lgan maqollarning semantik xususiyatlari tahlilga tortiladi. Olima belgining turli darajalari bo'lganidek, so'zlovchining lingvistik ongida ham nutq faoliyatida qo'llaniladigan belgining ortiq yoki kamligini namoyon qiluvchi ifoda vositalari mavjudligini ta'kidlaydi. Dissertant qiyoslashni taqqoslashning har xil tur va holatlarini belgilash uchun ishlatiladigan atama sifatida tushunadi va ushbu qiyos ikkita tub farqli natijaga olib kelishini qayd etadi: tenglik o'rnatish va tengsizlik o'rnatish. Qiyosiy so'zlar semantikasida xarakterli so'zlarning tutgan o'rniga ko'ra, asosan, ikki semantik guruh qarama-qarshi qo'yiladi. Bir tomondan, parametrik belgilarni bildiruvchi leksemalar (katta, kichik, uzun, qisqa, tor, keng, iliq, sovuq va boshqalar), ikkinchi tomondan esa boshqa baholovchi belgilarni bildiruvchi leksemalar, ularni olima umumiy baholovchilar deb ataydi (aqli, ahmoq, mehribon, yovuz, quvnoq, g'amgin, xursand, baxtsiz va boshqalar). Olima darajalanishning eksplitsit va implitsit turlarini farqlaydi. Darajalanishning eksplitsit turini daraja-miqdor ravishlari, implitsit turini esa sinonimik qatorlar tashkil etishini o'rinli ta'kidlaydi. Ishda darajalanishni hosil qiluvchi ot, sifat, fe'l so'z turkumiga kiruvchi lug'aviy birliklar tadqiq etiladi. Shuningdek, maqol tarkibidagi ot yasovchi, sifat yasovchi, fe'l yasovchi qo'shimchalarda ham darajalanish mavjudligini misollar asosida dalillaydi.

Xorij tadqiqotchilaridan N.D.Arutyunova, E.Sepirlar graduallikni mantiqiy-semantik kategoriya sifatida tavsifladi, S.M.Kolesnikova uni leksik-grammatik, B.S.Gorshkova esa leksik-semantik kategoriya deb izohlaydi; I.I.Turanskiy darajalanishni intensivlikning lingvistik kategoriyasiga, I.I.Sushchinskiy intensivlashuvning kommunikativ-pragmatik kategoriyasiga kiritadi.

Yuqoridagi qarashlarga asoslanib shuni ta'kidlash lozimki, nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki xorijiy lingvistikada ham darajalanish va unga yondosh hodisalar bo'yicha hozirga qadar tizimli nazariy tadqiqot yaratilmagan, ushbu muammo ayrim tilshunoslar ishida bir tomonlama tahlilga tortilgan. Jumladan, rus tilshunosligida N.N.Maksimchuk nomlar tizimidagi pasayish va o'sishning miqdoriy darajalari, Y.N.Sergeva intensivlik va uning ingliz tilidagi ifodasi, K.M.Suvorina zamonaviy ingliz tilida intensivlik, N.A.Lukyanova so'zlashuv nutqining

ekspressiv leksikasi, I.A.Kozlova har xil turdagi nominatsiyalarda sifatning darajalanishi (ingliz tili materiallari asosida), I.I.Turanskiy ingliz tilidagi intensivlikning semantik kategoriyasi, Y.I.Sheygal leksik semantikada darajalanish, M.U.Zubayrayeva darajalanish sifat belgisi ekanligi bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jahon, jumladan, rus tilshunosligida matnda ma'noni kuchaytiruvchi vositalar tahlili atroflicha amalga oshirilgan. I.I.Ubin, E.I.Sheygal, I.I.Turanskiy, E.V.Terentyeva kabi olimlar tadqiqotlarida bu masala maxsus tadqiq etilgan. Shunday bo'lsa-da, intensivlik mavzusi doirasida hal qilinmagan muammolar ham anchagina. Intensivlikning lingvistik kategoriya sifatidagi aniq va to'liq qabul qilinadigan ta'rifi hali ishlab chiqilmagan va shu bilan bog'liq holda parametrik miqdorlarni ifodalovchi birliklarning to'liq holati ham aniq emas, bu esa intensivlik funksional-semantik makromaydonining chegaralarini belgilashni qiyinlashtiradi.

Rezyume: Darajalanish kategoriyasiga bag'ishlangan qator ishlarda (masalan, M.V.Bondarenko, S.M.Kolesnikova, N.V.Xalina va boshqalar) turli so'z turkumlariga aloqador juda katta leksik boylikning yetarlicha katta qismi o'rganilgan va darajalanish predmeti, darajalanish obyekti, daraja belgisi, daraja shkalasi kabi tushunchalarga aniqlik kiritilgan. Darajalanishni kompleks tarzda o'rganish bo'yicha ancha yutuqlarga erishilgan va bu bizga darajalanish kategoriyasi hamda unga yondosh hodisalarning tadqiqi bo'yicha istiqbolli, shuningdek, samarali yo'lni ochadi. Chunki erishilgan natija va yutuqlar gradatsiya jarayonini yuzaga chiqaruvchi holatlarni atroflicha ko'rib chiqish imkonini beradi.

Resume: In a number of works devoted to the category of gradation (for example, M.V. Bondarenko, S.M. Kolesnikova, N.V. Khalina, etc.), a fairly large part of the huge lexical wealth related to various word groups has been studied and such concepts as the subject of gradation, the object of gradation, the sign of degree, the scale of degrees have been clarified. Considerable progress has been made in the comprehensive study of gradation, and this opens up a promising and effective path for us to study the category of gradation and its related phenomena. Because the results and achievements achieved allow us to comprehensively consider the circumstances that give rise to the gradation process.

Резюме: В ряде работ, посвященных категории степеней (например, М.В. Бондаренко, С.М. Колесникова, Н.В. Халина и др.), изучена довольно большая часть огромного словарного запаса различных категорий слов, изучены такие понятия, как субъект градации, объект градации, знак степени, шкала степеней. Значительный прогресс достигнут в комплексном изучении градации, и это открывает перед нами многообещающий и плодотворный путь изучения категории градации и связанных с ней явлений. Потому что достигнутые результаты и достижения позволяют всесторонне рассмотреть обстоятельства, обусловившие процесс градации.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati:

Темирханова С. З. Принцип градуальности в лексикографии: Автореф. дис. ... канд. филол. Наук -Казакистан, 2007. - С. 38

Мезенина М. В. Градуальность в парадигматике лексики немецкого языка: дис. ... канд. филол. наук. - М., 1991. - 260 с.

Бондаренко М.В. Градуальность как свойство лексики и основание для построения лексической парадигмы: на материале французского языка. Дисс. канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – 138 с.

Щербаков А.В. Градация как стилистическое явление современного русского литературного языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Красноярск, 2004. – 28 с.

Назарова И. В. Наречия как средства репрезентации категории градуальности в современном английском языке : дис. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2009. – 182 с.

Родионова С.Е. Интенсивность и её место в ряду других семантических категорий.

Славянский вестник. Вып. 2. М.: МАКС Пресс, 2004. - 608 с. Стр. 300.

Федяева Н.Д. Языковой образ среднего человека в аспекте когнитивных категорий градуальности, дуальности, оценки, нормы. Дисс. ... канд. филол. наук. – Омск, 2003. – 171 с.

Иванова А.Б. Функционально-семантическое макрополе градуирования качества в современном английском языке: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04 – Германские языки. Нижний Новгород. 2002. - 195 с.

Колесникова С. М. Категория градуальности в современном русском языке. Автореф. дис... докт. филол. наук. - М., 1999. - 39 с.

Прекина Н. В. Градуальная семантика русский пословиц [Электронный ресурс]: Дис. ... канд. филол. наук : 10.02.01 .-М.: РГБ, 2006, 33 с.

Максимчук Н.Н. Количественные градации уменьшения-увеличения в системе имени: Дис. ... канд. филол. наук. - Киев, 1966. -240 с.

Сергеева Е.Н. Степени интенсивности качества и их выражение в английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - М., 1967. -38 с.

Суворина К.М. Интенсивы в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - М., 1976. - 39 с.

Лукьянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления: Проблемы семантики. - Новосибирск: Наука, 1986. - 227 с.

Козлова И.А. Градуальность качества в разных типах номинации (на материале английских прилагательных): Автореф.дис. ... канд. филол. наук. -М., 1987. – 21 с.

Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. -М., 1990. - 172 с.

Шейгал Е.И. Градация в лексической семантике: Учебное пособие. - Куйбышев: КГПИ, 1990. - 95 с.

Зубайраева М.У. Градационность качественного признака: Дис. ... канд. филол. наук// - Грозный, -2008.- 119с.

## DIALEKTIK YONDASHUV ASOSIDAGI TAHLILLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZADAGI O'RNI

To'rayeva Dildora Anvarovna,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining  
3 - kurs doktoranti (DSc)

<https://orcid.org/0000-0002-2595-3516>

*Annotatsiya. Amaliy tilshunoslik yo'nalishi sifatida huquqshunoslik va tilshunoslik kesimi ostida lingvistik ekspertiza yo'nalishi shakllandi. Bu yo'nalishning qamrovi keng va bir qismi sud-huquq tizimiga aloqador. Ya'ni bu jarayon jamiyatda yuzaga kelayotgan "nutqiy jinoyatlar"ning lingvistik tahlil asosida sud ekspertizasi uchun ahamiyatli bo'lgan yechimlarga ega bo'lishdan iborat. Ushbu maqolada shaxsiy yozishmalarni lingvistik ekspertiza qilish uchun ahamiyatli bo'lgan qator metodlar va ularning tavsifi haqida mulohaza yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: metod, metodologiya, nominalistik yondashuv, dialektik yondashuv, areal lingvistika, diskurs nazariyasi, etnosotsiolingvistika, intent tahlil, kontent tahlil, matnni ekspert baholash tahlili, grafematik tahlil, morfologik tahlil.*

*Аннотация. Как направление прикладной лингвистики на стыке юриспруденции и лингвистики сформировалось направление лингвистической экспертизы. Сфера применения этого направления обширна, и часть его связана с судебно-правовой системой. То есть этот процесс заключается в получении значимых для судебной экспертизы решений на основе лингвистического анализа "речевых преступлений", происходящих в обществе. В этой статье рассматривается ряд методов, имеющих значение для лингвистической экспертизы личной переписки, и их описание.*

*Ключевые слова: метод, методология, номиналистическая ориентация, диалектная ориентация, ареальная Лингвистика, теория дискурса, этносоциолингвистика, намеренный анализ, контент-анализ, текстовый оценочный анализ, графический анализ, морфологический анализ.*

*Annotation . As a direction of Applied Linguistics, the direction of linguistic caspertiza was formed under the cross section of jurisprudence and Linguistics. The scope of this line is broad and part is involved in the judiciary. That is, this process consists in having solutions that are relevant for forensic examination based on a linguistic analysis of the "speech crimes" that occur in society. This article reflects on a number of methods and their description, which are relevant for the linguistic examination of personal correspondence.*

*Keywords: method, methodology, nominalist approach, dialectical approach, areal linguistics, discourse theory, ethnosociolinguistics, intent analysis, content analysis, text expert assessment analysis, graphematic analysis, morphological analysis.*

XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, ko'pgina xorijiy fan tarmoqlarida taraqqiyot cho'qqisiga yetgan lingvistik ekspertologiya sohasi bugungi kunda o'zbek amaliy tilshunosligida ham muayyan yo'nalishi sifatida o'z o'rniga ega bo'la boshladi. Fan-texnikaning rivoji bir qancha nutqiy jinoyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda turli mazmundagi shaxsiy yozishmalarning sotsial xavf sifatida yuzaga kelishi ham tilshunoslik: sotsiolingvistika, ham sud-huquq tizimi uchun dolzarb masalaga aylanmoqda. Yozishmalar tahlilining lingvistik va huquqiy jihatlari mushtaraklikda jamiyatdagi sud jarayoni bilan aloqador qator masalalar yechimiga sabab bo'lmoqda. Rivojlangan zamonda ijtimoiy-siyosiy talabdan kelib chiqqan holda shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasini amalga oshirish tadqiqot manbaiga aylanib bormoqda.

Shaxsiy yozishmalar mazmuniga ko'ra ijtimoiy tavsifiy xarakterga ega. Ma'lumki, shaxsiy yozishmalar tahlili psixolingvistik ahamiyatga ham ega. O.V.Mitina, A.S.Yevdokimenkolarning

fikricha, matn tahlilining psixolingvistik birliklari quyidagilar bo'lishi mumkin:

Subyektning til haqidagi qarashlari;

Lingvistik qobiliyatning onglilik, motiv va intensiyadagi aksi va.h.k.[9;173]

I.U.Minniqulovning aytishicha, matnni tahlil qilishda tahlil birliklari tadqiqot maqsadidan kelib chiqib o'rganiladi. Olim matn tahliliga aloqador bir qator strukturalizm tahlil metodlarining sanaydi: intent tahlil, kontent tahlil, fonosemantik tahlil, diskurs tahlil, narrativ tahlil, matnni ekspert baholash, grafematik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, semantik tahlil.[10;170] Matn tahlili amaliy jarayon sanalib, yuqoridagi metodlardan bir nechta lingvistik ekspertiza uchun ahamiyatlidir. Shevalarni aniqlash bo'yicha bir nechta dialektologik metodlar samaralidir:[11;10] tasviriy-tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, lingvistik geografiya. Lingvistik ekspertiza jarayonida shaxsiy yozishmalar quyidagi metodlar asosida tahlil qilinadi:

Intent tahlil. Matnda muallifning intensiyalari. Ya'ni subyektiv munosabatini o'rganish usulidir. Bu jarayon bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

muhokama etilgan mavzu va masalalarni tanlash; obyektlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash; tasvir vositalarini maxfiylashtirish; obyektlar guruhini baholash; qo'lga kirirtilgan qiymatlarni o'rta darajaga keltirish; har bir obyektning asosiy qiymatini ma'lum parametrlar yordamida aniqlash. Har bir bosqich o'z vazifasiga ega. Masalan, muhokama etilgan mavzu va masalalarni aniqlash bosqichida nutq birliklarining ma'no tashuvchanlik xususiyatiga e'tibor qaratiladi. Masalan, uchastka, post, bekat, keyingi yo'nalish kabi so'zlashuv uslubidagi birliklar temir yo'l yoki avtobus shahobchalariga aloqador. Demak, nutq mavzusi yo'l-transporti tashkilotlariga taalluqlidir. Lingvistik ekspertizada so'zlovchining nutqiy maqsadini belgilashda, shuningdek, suhbat mavzusini aniqlashda bu metod ancha qo'l keladi.

Kontent tahlil. Matn kontentini ham sifat, ham miqdor jihatdan tahlil qilish. So'zlarning distributsiya chastotasi, so'z birikmalar distributsiya chastotasi kabilar o'rganiladi. Kontent tahlilning protan usuli lingvistik ekspertiza uchun muhimdir. Protan tahlil ikki masalani hal qilish uchun qo'llanadi: matnning strukturasi aniqlash (semantik lug'atlar yordamida); matndagi asosiy mavzu va g'oyalarni aniqlash (matn tahlili birliklari o'rtasidagi munosabatlar haqidagi ma'lumotga asoslangan holda).[9;33]

Diskurs tahlil. Ushbu tahlil usuli matn yoki boshqa nutqiy tuzilmalarni ma'lum ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar va madaniy-tarixiy sharoitlarda sodir bo'lgan nutq faoliyati mahsuli sifatida o'rganadi. Ushbu metod jamiyat va madaniyat rivojlanishi davrida ma'lum tarixiy davr mobaynida ijtimoiy kommunikatsiya strukturasi haqidagi til tadqiqiga e'tibor qaratadi.[10;171] Ushbu tahlil lingvistik ekspertiza uchun dolzarb. Zotan, shaxsiy yozishmalar diskurs nazariyasiga tarkibiga kiruvchi nutqiy tuzilmalardir. Ushbu metod quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: o'rganilayotgan til materialini belgilash; uning formal xususiyatlarini aniqlash; kontekstni kommunikativ vaziyat sifatida belgilash; tahlil strategiyasi va yo'nalishini aniqlash; tadqiqot bosqichlarini nazariy tizimlashtirish; tahlil usullari va instrumentlarini aniqlash; tahlil birliklarini belgilash; nazariy va empirik materiallardagi kategoriyalar tizimini tekshirish; tadqiqotning asosiy bosqichlari (tavsiflash, qayta yaratish, interpretatsiya)ni tatbiq etish; tadqiqot natijalarini belgilash; umumlashtirish; tizimlashtirish; interpretatsiya qilish.

Matnni ekspert baholash. Ushbu tahlil quyidagi xususiyatlarga ega: matn muallifini baholash yoki matn muallifining kategorial xususiyatlar (jins, yosh, tug'ilgan joy, yashash joy, ta'lim darajasi)ini aniqlash; matn muallifining temporal (vaqtinchalik, dinamik) tuyg'ulari (emotsional holati)ini baholash; tadqiq qilinayotgan matnning yaratilish sharoitini aniqlashga qaratilgan baholash (intervyu davomida savollarning haqiqiyliigi); matnda ifodalangan axborotning maqsadli buzilishini yuzaga keltirishga qaratilgan baholash.[10;172]

Yuqoridagi tahlil bosqichlaridan tashqari olimlar quyidagi usullarni ham qo'shimcha qilib keltirishadi [9;35]: matn parchasi yoki to'liq matnni perefraza qilish usuli; semantik baholash usuli; erkin assotsiativ eksperiment usuli; prediktiv matn tahlili usuli.

Grafematik tahlil. Ushbu tahlil matndagi ishoralar: formulalar, shartli qisqartmalar, shartli belgilar, raqamli ifodalar asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodda matn soʻz va boshqa boʻlaklarga ajratib tahlil qilinadi. Masalan, soʻzlar guruhi, turgʻun birikmalar, ism, familiya, sharif, sana, elektron pochta manzili, fayl nomlari, pragraf matnidan olingan gaplar, sarlavha, eʼlonlar shular jumlasidandir.[9;35]

Morfologik tahlil. Ushbu metodning atlas.ti va textanz usullari lingvistik va fonoskopik ekspertizalar uchun ahamiyatlidir. Atlas.ti usuli matnning yirik qismlari, turli grafiklar, audio va video maʼlumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul maʼlumotni sifat jihatdan tahlil qilish, matn tadqiqi, matnni qiyoslash maqsadlariga moʻljallangan. Textanz usuli matnni soʻz, ibora va soʻz shakli darajalarida tahlil qilishga qaratilgan. Bu, asosan, yozma shakldagi matnlar uchun xosdir.

Yuqoridagi matnning lingvistik tahliliga aloqador metodlar lingvistik ekspertizada obyektini oʻrganish maqsadidan kelib chiqib tanlanadi va amalga oshiriladi. Har bir metod lingvistik ekspertizada muayyan vazifani bajaradi. Masalan, shaxsiy yozishmalarda inson manfaatlariga salbiy taʼsir etuvchi birliklar boʻyicha tahlil tashkillashtirilsa, obyektidagi asosiy gʻoyani tashuvchi nutqiy birliklarning har biri tilda mavjud vazifasiga koʻra ekspertizadan oʻtkaziladi. Maʼlumki, ekspertiza umumiy va xususiy tarzda tashkillashtiriladi. Nutqiy hosilalarning tahlili xususiy xarakterga ega. Lingvistik ekspertizada nutqiy hosilalar quyidagicha turlarga ajratilgan holda tahlil qilinadi: gap qurilishi, sintaktik aloqaning shakllanishi; soʻzlar, ularning semantik ifodasi, stilistik vazifasi; grammatik shakllar va ularning vazifasi; shartli belgilar va ularning vazifasi; tinish belgilari va ularning vazifasi.

Ushbu yoʻnalishlarga koʻra tahlilni amalga oshirish uchun intent, kontent, grafematik kabi yuqorida qayd etilgan metodlardan samarali foydalanish mumkin. Baʼzan bir yozishma turli metodlar asosida ham tahlil etiladi. Masalan, yozishmadagi shartli belgilar, qisqartmalar, raqamli ifodalar, formulalar orqali nutq birliklarining sheva yoki adabiy tilga mansubligi, inson yoshiga taalluqliligi, erkak yoki ayol jinsiga oidligi kabi belgilarini aniqlash uchun grafematik va matnni ekspert tahlil qilish metodlaridan foydalaniladi. Demak, tilshunos-ekspertning tahlil jarayonida muayyan metodlardan foydalanishi lingvistik ekspertiza maqsadidan kelib chiqib belgilanadi va xulosada aks ettiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

Неъматов Х. Ўзбек тилшунослигида формал, структурал ва субстанциал йўналишлар хусусида //Ж. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2009. – №4. – Б. 34.

Неъматов Н.Г., Mengliyev B.R., Hamroyeva Sh. Tilshunoslikning metodologik masalalari. Monografiya – Toshkent, 2020. – b. 63.

Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Кемерово, 2010. – С. 72.

Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M, Abuzalova M.Q., Yoʻldosheva D.N. Hozirgi oʻzbek tili. – Toshkent, 2019. – b. 60.

Toʻrayeva D.A. Shaxs xarakterining nutqda voqelanish mexanizmi//Soʻz sanʼati. Ilmiy jurnal. –Toshkent, 2020. № 1. – B. 42-48.

Toʻrayeva D.A. Shaxsiy yozishmalarda qoʻllangan noadabiy undosh tovushlarning hududiy xususiyatlari. // Oʻzbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2021. 20-oktabr. – B. 67-70.

Toʻrayeva D.A. Oʻzbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik unsurlarning lingvistik ekspertizasi //Til va adabiyot taʼlimi. – Toshkent, 2021. № 6. – B. 17-19

Toʻrayeva D.A. Oʻzbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi. – Qoʻqon, 2022. – b. 173.

Митина О.В., Евдокименко А.С. Методы анализа текста: методологические основания и программная реализация. Вестник ЮУрГУ, 2010. -с. 29-38.

Minniqulov I.U. Lingvistik tahlil metodlari. Oʻquv qoʻllanma. -toshkent, 2022. -b. 170-173. (215)

Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016. – B. 10. (136)

Dialect.uz

## BOLALAR ADABIYOTIDA FOLKLORIZMLARNING O'RNINI (SHE'RIY ASARLAR MISOLIDA)

N.O'. Xudoyberdiyeva,  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
<https://orcid.org/0000-0002-7016-8410>

*Annotatsiya: Folklorizm — bu xalq og'zaki ijodi (folklor) an'alarining professional badiiy adabiyot, san'at yoki madaniyatga ta'siri va ulardan foydalanish jarayoni. Folklorizm nafaqat folklor materiallarini oddiy takrorlash emas, balki ularni yangi badiiy shaklda qayta ishlash, zamonaviy talqin qilish va badiiy asarlarga singdirishdan iborat. Ushbu maqolada folklorizm hodisasi, uning kelib chiqish tarixi, folklorizmning yozma adabiyotga ta'siri haqida ilmiy fikrlar keltirilgan. Fikrlarning dalili sifatida folklorizm borasida olib borilgan ilmiy ishlar, olimlarning fikri bayon etilgan. Bolalar shoirlarining she'rlari misol sifatida keltirilib o'tilgan. Ushbu maqolada Anvar Obidjon, G'ayratiy va Tolib Yo'ldosh ijodidan parchalar keltirilgan. Mazkur parchalar orqali shoirlarning folklorizmdan foydalanish mahorati ochib berilgan. Folklorizm turlari va ular haqidagi mulohazalar keltirib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: folklorizm, folklor an'anasi, folklor ta'siri, yozma adabiyot, sintezlashgan folklorizm, analitik folklorizm.*

## МЕСТО ФОЛЬКЛОРИЗМА В ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ)

Н.О. Худойбердиева,  
Бухарский государственный педагогический институт учитель

*Аннотация: Фольклоризм — это процесс влияния и использования традиций устного фольклора в профессиональной художественной литературе, искусстве или культуре. Фольклоризм — это не простое воспроизведение фольклорных материалов, но и их переработка в новой художественной форме, современная интерпретация и включение в произведения искусства. В статье представлены научные взгляды на феномен фольклоризма, историю его возникновения, а также влияние фольклоризма на письменную литературу. В качестве доказательств этих идей приводятся научные исследования фольклоризма и мнения ученых. В качестве примеров приводятся стихи детских поэтов. В статье представлены отрывки из произведений Анвара Обиджона, Гайрати и Толиба Юлдаша. Эти отрывки раскрывают мастерство поэтов в использовании фольклора. Представлены виды фольклоризма и соображения о них.*

*Ключевые слова: фольклоризм, фольклорная традиция, фольклорное влияние, письменная литература, синтезированный фольклоризм, аналитический фольклоризм.*

## THE PLACE OF FOLKLORISMS IN CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF POETRY)

N.O. Khudoyberdiyeva,  
teacher of the Bukhara State Pedagogical Institute

*Abstract: Folklorism is the process of influencing and using the traditions of folkloric art (folklore) on professional fiction, art or culture. Folklorism is not only a simple reproduction of folklore materials, but also their processing in a new artistic form, modern interpretation and incorporation into works of art. This article presents scientific ideas about the phenomenon of folklorism, the history of its origin, the influence of folklorism on written literature. As evidence of the ideas, scientific works on folklorism and the opinions of scientists are presented. Poems*

of children's poets are cited as examples. This article presents excerpts from the works of Anvar Obidjon, Gayraty and Tolib Yuldosh. Through these excerpts, the poets' skill in using folklorism is revealed. Types of folklorism and considerations about them are given.

*Keywords:* folklorism, folklore tradition, influence of folklore, written literature, synthesized folklorism, analytical folklorism.

Dunyo adabiyotshunosligida “folklorizm”lar masalasi XX asrdan buyon o‘rganilib kelinadi. Yozma adabiyot paydo bo‘libdiki, unga xalq og‘zaki ijodining ta’siri, ijodiy an’anasi va har ikki adabiyot turining bir-biriga ijobiy va ijodiy ta’siri

shubhasizdir. O‘tgan asrning 50-60-yillaridan e’tiboran, yozma adabiyotning folklordan foydalanishi, ta’sirlanishi “folklorizm” degan nazariy termin bilan atala

boshlandi. Shu bilan birga, “folklorizm” termini muqim sur’atda qo‘llanilganiga qadar “xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot munosabati”, “yozma adabiyotda folklor an’analari”, “yozma adabiyotda xalq og‘zaki ijodi an’analari”, “yozma adabiyotda folklor traditsiyasi” terminlari ham baravar ravishda ishlatildi.

L.Sharipova shunday yozadi: “Folklorizm yozma adabiyot paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelgan. Biroq, uning estetik tabiati maxsus o‘rganilmagani bois, ilmda XX asrdan hozirgacha “folklordan foydalanish”, “folklor an’analari”, “folklor ta’siri” kabi turlicha istilohiy birikmalar orqali aralash-quralash holda ifodalanib kelinmoqda. Bu atamalar mohiyatan folklorizm tushunchasiga mos keladi. Chunki, folklorizmlar yozma adabiyotda folklor ta’sirida folklordan foydalanish tufayli yuzaga keladi. Ammo “folklordan foydalanish, “folklor ta’siri” atamaları o‘ziga xos alohida ma’nolarga egaki, ularni doimiy ravishda folklorizm tushunchasiga nisbatan qo‘llash qiyin”. Demak, folklorizm – bu ijodkorning xalq og‘zaki ijodida azaldan mavjud bo‘lgan syujet, obraz, motiv, xalqona uslubni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib qo‘yish emas, aksincha, folklorizm bu – ijodkorning folklor janrlariga qayta ishlov berib, o‘z ijodiy laboratoriyasida ziynatlab, boyitib, to‘ldirib, yangi asar yaratishi, yoki asar ichida xalq maqollari va matallari, obrazli, idiomalarni qayta stilizatsiya qilib, asarga singdirib yuborishidir.

Folklorizmlardan foydalanish nafaqat, kattalar uchun yaratilgan adabiyotlarda, balki, bolalar adabiyotida ham uchraydigan holat hisoblanadi. Bolalar adabiyotida folklor an’alaridan foydalanishdan maqsad – bolalar uchun berilgan pand-nasihatni obrazli qilib yetkazishdir. Bolalar shunchaki pand-nasihatni emas, obrazli fikrni yodda saqlashlari osonligi uchun ham asarda folklorizmlardan foydalanish ahamiyatlidir.

Bolalarning sevimli shoiri va yozuvchisi G‘ayraty (Abdurahim Abdullayev)ning “Quloqchin” she’rida shunday parcha keltirilgan:

Ko‘pchilikdan arslon ham  
Aslo qochib qutulmas.  
Kuch birlashsa chinakam,  
Dushman qarshi kelolmas.

Ushbu parchada hayvonlarning birlashib mushukka qarshi chiqishi, uning domidan sichqonchani qutqarib olishlari tasviri keltirilgan bo‘lib, bolalarni birlikka, yakdilikka chorlash uchun xalq maqollaridan unumli foydalanilgan. “Ko‘pchilikdan arslon qochib qutulmas”, “Ko‘pdan quyon qutulmas”, “G‘ayratlidan ilon qochib qutulmas” kabi maqollardan she’rda sintezlashgan folklorizm sifatida foydalanilgan. Ushbu maqoldan foydalanish orqali bolaning tasavvur olamini kengaytirish, birlashilsa hatto arslon ham yengilishini obrazli tasvirlash orqali she’rning badiiy g‘oyasi boyitilgan.

She’rning davomini o‘qish jarayonida biz yana shoirning fikrini dalillash uchun maqollardan foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz:

Qilmish — qidirmish ekan,  
Sichqon ketdi darbadar.  
O‘rmon sovuq, biror joy

Topmay bo'ldi dardisar.

Hayvonlar sichqonchaga izg'irin sovuqda o'zlarining quloqchinlaridan joy berib, mushukdan qutqarishadi. Ammo sichqoncha yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytarib, quloqchinni bir chetidan boshlab kemira boshlaydi. Olmaxon va boshqa hayvonlar sichqonchani bu ishidan juda xafa bo'lib, uni quloqchindan haydab yuborishadi. Sichqoncha qilgan ishidan afsuslanadi, ammo "qilmish – qidirmish", ya'ni kim yomonlik qilsa shunga yarasha javob oladi. Sichqonchani qilgan ishi xato ekanligi, yomonlik jazosiz qolmasligi shoir tomonidan ushbu maqol asosida isbotlab berilgan.

Yana bir ajoyib bolalar shoiri Tolib Yo'ldoshning "Gapning joni" nomli she'rida ham folklor janridan unumli foydalanganligini guvohi bo'lamiz:

Zar qadrini bil avvalam,  
O'ylab gapir so'ngra, bolam.  
Sayrayverma apil-tapil,  
Yon-veringga qarab gapir.

Shoir "Zar qadrini – zargar biladi" degan maqolga ijodiy sayqal berib, she'rning g'oyasini ochib berishda mohirona foydalangan. Ushbu maqol she'rning tarkibiga singib ketgan va uni olib tashlashning iloji yo'q. Zero, olib tashlansa, she'rning g'oyaviy badiiy uslubiga jiddiy putur yetadi.

Anvar Obidjon zamonaviy o'zbek shoiri bo'lib, uning she'riyatida o'zbek xalq og'zaki ijodi an'alarining chuqur izlari va zamonaviy talqinlari uchraydi. Uning asarlarida folklorizm quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Anvar Obidjon xalq og'zaki ijodi janrlaridan o'rinli foydalangan. She'rlarida "Laylak", "Chittigul", "Boychechak" kabi xalq qo'shiqlariga xos obrazlarni keltirib, she'rning badiiy g'oyasini ochishga xizmat qiladigan folklorizmlardan foydalandi. "Ayriliq", "Yor-yor" kabi an'anaviy marosim qo'shiqlarining poetikasi, "Alpomish", "Go'rog'li" kabi dostonlardagi qahramonlik ruhini she'rlariga singdirgan. Xalq og'zaki ijodidan foydalanish shoir she'rlarida oddiy va murakkab folklorizm namunalarini uchratish imkonini beradi.

Shoir she'rlarida xalq tiliga xos "dedi-da", "ekan-ku", "bo'pti-ku" kabi so'zlashuv unsurlaridan foydalanishi shoirida bolalarga xos samimiyat ruhi borligi yaqqol sezilib turadi.

Bundan tashqari "oqsoqol", "kampir", "yetti o'g'il" kabi xalq obrazlari mifologik va etnografik motivlarning mavjudligi: "Semurg", "Xumo" kabi mifologik qushlar, "Chol va dev", "Tilla boshli ajdarho" kabi ertak qahramonlari, "Suv pari", "Olov qiz" kabi xalq e'tiqodidagi mavjudotlar shoirning xalq og'zaki ijodining bilimdoni ekanligidan dalolat beradi.

Anvar Obidjon she'riyatidagi folklorizm nafaqat an'anaviy elementlarni takrorlash, balki ularni zamonaviy she'riyatchilik usullari bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Uning "Xalqim mening dostonim", "Ona yurt qo'shiqlari" kabi to'plamlarida bu jihatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Safarov, F., Xudoyberdiyeva, N., & Xolmurodova, N. (2022). O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. *Journal Pedagog*, 2(2), 275-277.

O'ktamovna, X. N. (2021). O'zbek Romanlarida Tarixiy Inversiyani Berish Usullari Va Vositalari. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 1(5), 430-433.

Khudoyberdiyeva, N. O., & Ergashova, M. H. (2023, April). Methodology of working on the class of nouns in primary classes. in international scientific conference «scientific advances and innovative approaches» (vol. 1, no. 1, pp. 84-89).

O'Xudoyberdiyeva, N., & Ibragimova, Z. (2023, February). Xalq maqollari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat intizomiga o'rgatish yo'llari. In *E Conference Zone* (pp. 10-14).

Khudoyberdiyeva, N. O. K. (2022). The issue of folklore chronotope in abdulla qadiri's works. the role of science and innovation in the modern world, 1(2), 135-138.

Xudoyberdiyeva, N. O. K., & O'roqova, G. (2022). Folklorida makon va zamonning o'ziga xos talqini. *Science and Education*, 3(2), 468-474.

Xudoyberdiyeva, N. (2021). Abdulla qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres.2021.33.43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU o'qituvchisi. In *Научно-практическая конференция*.

Khudoyberdiyeva, N. O. (2024). Methods of Explaining the Meaning of Abstract Words to Primary Class Students Through Images. *EUropean journal of innovation in nonformal education*, 4(4), 322-325.

Maftuna, U. (2023). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel «Signs of the End Times» by Chingiz Aitmatov.

## DEVONU LUG'OTIT TURKDA CHORVACHILIKKA OID OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

O'rinova Olima Tog'ayevna,  
Qarshi davlat universiteti, f.f.n., dotsent

*Annotatsiya: Chorvachilikning rivoji, tabiiyki, iqlimi, relyefi va boshqa sharoitlari O'zbekistonning turli hududlarida turlicha tarzda kechganligi aniq. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida oziq-ovqat mahsulotlari nomlari sezilarli qismni tashkil qiladi. Ma'lumki, asarda turkiy xalklar dala sharoitida sut va go'sht mahsulotlaridan turli tuman oziq-ovqatlari tayyorlab iste'mol qilganlar. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari haqida to'xtalar ekanmiz, Markaziy Osiyoda chorvachilik qadimdan rivoj topib kelganligiga guvoh bo'lamiz, mazkur sohaga oid leksika juda boy va rang-barang ekanligi diqqatga sazavordir. Shuningdek, ishimizda o'zbek adabiy tilida kam uchraydigan, hatto, o'zbek adabiy tilida haligacha aks ettirilmagan terminlarni tahlil qilishga intilamiz.*

*Milliy terminologiyani boyitish uchun ishlab chiqarishda keng qo'llaniladigan dialektal xarakterdagi so'zlarni to'plash, ularni tahlil qilish, tekshirish hamda ularning ba'zilaridan ishlab chiqarishning ma'lum sohasini aniq aks ettiruvchi termin sifatida foydalanish mumkin.*

*Kalit so'zlar: oziq-ovqat nomlari; chorvadorlar leksikasi; mahsulot turlari.*

## LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF LIVESTOCK FOOD PRODUCTS IN THE «DĪWĀN LUGHĀT AL-TURK»

Urinova Olima Togaevna  
PhD, Docent, Karshi State University

*Abstract: Livestock farming in Uzbekistan has evolved under a range of ecological conditions, influenced by regional differences in climate, landscape, and natural resources. Mahmud al-Kashgari's Dīwān Lughāt al-Turk offers valuable insights into this development, as it devotes considerable attention to the nomenclature of food items — reflecting the vital importance of dairy and meat products in the dietary practices of Turkic nomadic societies. A close examination of this lexicographical source reveals that the vocabulary related to animal husbandry has historically been both lexically abundant and semantically nuanced within the Turkic linguistic tradition.*

*This paper investigates specialized terms that, while uncommon or missing in standard Uzbek literary usage, are actively employed in practical and professional agricultural contexts. By documenting and analyzing dialect-based terminology widely used in rural production, this research seeks to enhance the national lexicon through the formal recognition of terms that accurately describe specific areas of the agrarian sector.*

*Keywords: names of food; lexicon of livestock farming; product types.*

## ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ ДЛЯ СКОТА В ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКЕ «ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТУРК» (СЛОВАРЬ ТЮРКСКИХ НАРЕЧИЙ)

Уринова Олима Тогаевна  
Каршинский государственный университет, кандидат филологических наук, доцент

*Аннотация: Развитие животноводства на территории Узбекистана исторически формировалось в неоднородных условиях, обусловленных различиями в климате, рельефе и природной среде. В энциклопедическом труде Махмуда Кашгари «Девону луготит турк» особое внимание уделяется наименованиям пищевых продуктов, что свидетельствует о значительной роли молочных и мясных изделий в питании тюркских народов в условиях*

полевой и кочевой жизни. Анализ данного памятника лексикографии позволяет утверждать, что животноводческая лексика в тюркском языковом пространстве издавна отличалась богатством и семантическим разнообразием.

Настоящее исследование направлено на выявление и лингвистический анализ терминологических единиц, редких или отсутствующих в современном узбекском литературном языке, но имеющих хождение в профессиональной среде. Систематизация и научное осмысление диалектных лексем, широко применяемых в аграрном производстве, может способствовать формированию новой терминологии, способной точно отражать реалии конкретных отраслей народного хозяйства.

*Ключевые слова:* терминология продуктов питания; лексика скотоводов; классификация пищевой продукции.

Kirish. Respublikamizda chorvachilik tarmog‘i kundan kunga tobora rivojlanib bormoqda. Shu bois uning terminologik tizimini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni belgilab beradi. Shunday ekan, o‘zbek tilshunosligida chorvachilik terminlarini o‘rganish, terminlarni tahlil qilish yuzasidan mulohazalarni bildirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Respublikamizda xalq xo‘jaligining barcha sohalari bo‘yicha tubdan o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan iqtisodiyotimizning yetakchi sohasalaridan biri sanalgan chorvachilik sohasi ham mustasno emas. Ayni paytda chorvachilik leksikasi o‘zbek tilida eng qadim davrlardan boshlab shakllangan, rivojlangan va boyib borgan. Bu soha anchayin keng tarqalgan hududlarda, masalan, Qashqadaryo vohasidagi shevalarda chorvachilik bilan bog‘liq so‘zlar katta miqdorni tashkil etadi. Tegishli tushunchani eng nozik detallarigacha ifoda etadigan bunday sheva so‘zlari chorvachilik leksikasini boyitishning o‘ziga xos zahirasidir. Shu bois, o‘zbek tilida, shuningdek, shevada chorvachilik terminlarining tahlilini o‘tkazish kechiktirib bo‘lmaydigan, dolzarb masalalardan biridir. Bugunga qadar tilshunoslikda tadqiq etilgan ba‘zi to‘xtalib o‘tamiz. Masalan, T.O‘rinovning «O‘zbek tilida qo‘ychilik terminlari»[7], T.Xo‘jamberdiyevning «O‘zbek tilida chorvachilik leksikasi (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida)»[9], M.Bo‘ronovning «Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida chorvachilik terminlari»[2], S.Usmonovning «Hozirgi o‘zbek tilining gippologik terminologiyasi»[8] singari olimlarning tadqiqot ishlari buning yaqqol dalili bo‘la oladi.

Mazkur ishimizda chorvachilik bilan bog‘liq terminlarning tarixiy-etimologik xususiyatlarini ochib berish uchun M.Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asariga, V.V.Radlov, N.A.Baskakov kabi olimlarning e‘tiborli asarlariga murojaat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qashqadaryo qipchoq shevalarining bir qismi hisoblangan chorvachiliklik nihoyatda o‘ziga xos lug‘at sostaviga ega: unda chorvachilikning bir qancha turiga oid xilma-xil tushunchalarni o‘zida aks ettiruvchi so‘z – terminlar mavjuddir. Chorvachilikka oid terminlarning ko‘pi o‘zbek milliy tili va dialektlarining asosiy lug‘ati fondi hisobida vujudga kelgan. Shunga ko‘ra ham prof. N.A.Baskakov shunday yozadi: “Tillarning yangi atamalar bilan boyitishning eng keng va boy manbasi milliy til va dialektlar lug‘atidir” [1].

Haqiqatan ham chorvachilik leksikasiga nazar tashlaganimizda, biz unda qadimdan beri yoki yaqindan buyonmi biror tushunchini aks ettirayotgan terminlarning yasalishida va qo‘llanishida o‘zbek tili hamda uning ma‘lum dialektiga xos bo‘lgan so‘zlar asosiy o‘rinni egallashining guvohi bo‘lamiz.

Demak, milliy til va asosiy dialektlarning leksikasi chorvalik terminologiyasining boyishida asosiy manba hisoblanadi. Shunday ekan, chorvachilik leksikasi bilan dialektal hamda milliy leksikasi chambarchas bog‘liqdir va o‘ziga hos spetsifik xususiyatga ham egadir.

Tahlil va natijalar. Ma‘lumki, chorvachilikda chorva mollaridan oziq –ovqat sifatida go‘sh, quyruq moy, sariq yog‘(qaymoqni qizdirib, undan ajratib olingan toza yog‘), qaymoq, charvi moy(molning ichidan olingan yog‘), sut, qatiq, chakki(suzma) kabilar olinadi. Bular umumxalq

leksikasida faol qo'llaniladi. Shuning uchun bular haqida uzoq to'xtalmay, ko'pchilik uchun tushunilishi birmuncha qiyin bo'lgan oziq-ovqat(chorvadorlarga xos tipik oziq-ovqat) nomlarini ko'rib o'tamiz. Ularni o'zbek adabiy tili meyorlariga moslashtirishga harakat qilamiz.

Ayron – kubida moyi ajratib olingan suyuq qatiq. “Ayron” termini “ajralmoq” fe’li asosida yasalgan. Odatda, ko'pchilik “y”lashuvchi shevalarda “ajralmoq” fe’li “ayrilmoq” tarzida talaffuz qilinadi. Bunda portlovchi “j” tovushi til o'rta sirg'aluvchi “y”ga o'tadi: j>y. Demak, keyingi holatda o'zak “ajra” emas “ayir” bo'lib qoladi. “Ayir” o'zagiga tojikcha –on qo'shimchasi qo'shib, “ayron” termini yasalgan.

Bu nom shu oziq-ovqatning tayyorlanish jarayoniga va xususiyatiga ko'ra berilgan.

Bu terminning izohi turkiy tili lug'atlarida turlicha berilgan: Айран – питье, приготавливаемое из кислого коровья молоко[6]; Айрон –qatiqqa suv qo'shib tayyorlangan suyuq ichimlik [11]; Айран - сыворотка, оставшаяся после ЧЕКИЗЕ[5].

Shunday qilib, “Ayron” termini o'zbek tilida “moyi ajratib olingan suyuq qatiq” degan ma'noni beradi.

“Barra” – teri uchun so'yilgan qo'zi go'shti(uni ko'pincha qovirib, qovirdoq qilib yeydilar).

“Barra so'zi aslida “yumshoq”, “yosh” ma'nolarini anglatadi. Shuning uchun ham u o'zbek tilida ba'zi bir o'simlik nomlari oldida qo'llanilib, uning aniqlovchisi bo'lib keladi: barra o't, barra piyoz kabilar.

Chorvachilik terminologiyasida esa uning ma'nosi qisman chegaralanadi va “yosh qo'zi go'shti” nomini anglatish uchun xizmat qiladi, chunki yosh qo'zi go'shti ham yumshoq, hatto uning suyaklari ham qotmagan bo'ladi. Shunga ko'ra bu ikki narsa bir-biriga qiyos qilinadi. Shu tufayli “Barra” so'zi “yosh qo'zi go'shti” nomini ham bildiradi.

Bu termin Qashqadaryo qo'ng'iroq urug'i chorvadorlari leksikasida ba'zan “jiriq” tarzida qo'llaniladi. U shilimshiq bo'lgani uchun shunday atalgan.

Gelagay - og'iz suti bilan sutni birga qaynatib tayyorlanadigan ovqat. “Gelagay” termini “kelmoq” fe’li asosida yuzaga kelgan. Bu fe’lning II shaxs, birlik buyruq shakli “kel, kelgin, kelaqol”dir. Chunki yangi tuqqan chorvaga iltimos, murojaat qo'shiqlari aytib sog'ilgan va natijada kelaqol+kelag'ay+gelagay termini yuzaga kelgan.

Gurvos - sut va qatiq aralashmasi. Bu taom XV asrda “ibruk” deb atalgan. M. Koshg'ariyning ko'rsatishicha, bunday taomni ko'p ichib, ichi qotgan kishiga surgu sifatida foydalangan. [4;I,-126 b.] Bu hol shuni ko'rsatadiki, o'zbek chorvadorlari qadimdan boshlab chorva mahsulotlaridan dori sifatida foydalanganlar.

Durda//do'lta - qaymoqni qizdirib suzgach, undan chiqadigan moddaning jizzasimon yeyishli qismi. Durda o'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'tgan.

Do'g'ov - sut-qatiq zardobi.

Jaqqi - kuvidan olingan maska moy ichida qotib qolgan qatiq...

Joqqilash - kuvidan olingan moyni uzoq saqlash maqsadida(qishda) uni mol qorniga solib, qorinning tashqi qismiga sho'r ayron surtishgan. Hatto sho'r ayron surtilgan qorin ham oshlangan teri bilan mahkam o'ralgan. Ana shu jarayon birgalikda “joqqilash” deb aytiladi.

Ko'mma – o'tda ko'mib pishiriladigan non; cho'pon uzoq yaylovga ketganda, unni qorib, unga quyruq moyi qo'shadi(hatto xamir ichiga quyruq soladi) va uni o'tdako'mib pishiradi. Bu juda totli non bo'ladi. “Ko'mma” deganda, it uchun elanmagan undan tayyorlanadigan ovqat ham tushuniladi. Uni o'tda ko'mib tayyorlaydilar. Bular tayyorlanish usuli va tarkibi bilan farq qiladi. “Ko'mma” termini “Ko'mmoq” fe’li asosida hosil qilingan: ko'm+ma.

Ko'nargi - qaynatilgan sutni qatiqqa aylantirish uchun solinadigan ma'lum miqdordagi qatiq.. Pishirilgan sutga (bir oz sovigach) ozgina miqdorda qatiq qo'shilsa, sut shu qatiqning “talabiga ko'nib” qotadi, ya'ni qatiqqa aylanadi. Shunga ko'ra “ko'n” –ga kelasi zamon sifatdoshi qo'shimchasi -ar qo'shib, ko'nar yasalgan, -gi ot ma'nosini beruvchi terminni hosil qilgan. Ko'nar+gi//ko'nargi.

Maska yog‘ - qatiqdan olingan yog‘. Qatiqqa suv qo‘shib, suyiltirilgach, qatiq tarkibidagi yog‘ yuqoriga chiqadi va yog‘ni suvdan ajratib olinadi.

Pishloq - sutni maxsus achitib tayyorlanadi. Sut ivishidan hosil bo‘lgan moddani suvini oqizib, qalin matoga mahkam bog‘lab, tosh bostirib qo‘yilishidan hosil bo‘ladi.

Obiti//hasip - molning yo‘g‘on ichagiga maydalangan go‘sht, charvi, yurak, taloq va turli dorivor giyohlar solib pishirilgan ovqat. Bunday ovqat Qashqadaryoda “hasip” deb yuritiladi.

M.Koshg‘ariyda esa “Suqtu”[4;I, 394] tarzda berilgan.

Og‘iz (suti) – sog‘iladigan barcha chorva molining yangi tuqqandan keyingi (1-3 kunlar) suti[11].

Bu termin og‘zaki nutqda “uvuz” shaklida ham qo‘llaniladi. Xuddi shuningdek, u qadimgi turkiy lug‘atlarda hamda hozirgi turkiy so‘zlar lug‘atlarida ba’zi bir fonetik farqlanishni hisobga olmaganda, bir xil qo‘llanadi: ajuz –og‘iz; og‘iz suti; ovuz – v dialekte pervoye moloko, molovivo[5]. Bular o‘rtasidagi fonetik jihatdan farqlanish shundaki, “G” tovushi “V”ga, “I” unlisi esa “U”ga o‘tgan.

Sarig‘ashqa - moyi olinmagan qatiqqa non to‘g‘ralib, ustiga qizdirilgan sariyog‘ qo‘yish yo‘li bilan tayyorlanadigan ovqat. Uning «sarig‘ashqa» deyilishiga sabab shundaki, suyuq qatiqqa qizdirilgan sariyog‘ qo‘yilsa, uning rangi-tusi, ko‘rinishi (oq va sariq) «qashqa» bo‘lib qoladi. Ana shunga ko‘ra, uni shunday deb nomlaganlar. Bunda sariq va qashqa so‘zlari birikib «sariq+qashqa» hosil bo‘lgan. Og‘zaki nutqda yonma-yon kelgan “q”ning biri tushib qolib, jaranglilashgan. Natijada sarig‘ashqa bo‘lib qolgan.

Tandir – maxsus tandirda dimlab pishirilgan qo‘y go‘shti. Odatda bayramlarda, ulug‘ mehmon kelganda, bir qo‘yning go‘shtini 4 micha(bo‘lak)ga bo‘lib, tandirda dimlab pishirib olingani uchun taomning nomi “tandir”deyilgan. Shuningdek, bu termin umumxalq leksikasidagi “Tandir” so‘zi bilan omonimlikni yuzaga keltirgan.

Qaqanag‘ - sigir (qo‘y, echki)ning og‘iz sutidan tayyorlanadigan ovqat. Ilgari cho‘ponlar og‘iz sutini chorvaning qaqanag‘iga sog‘ib, uni o‘tda ko‘mish yo‘li bilan pishirganlar va iste‘mol qilganlar. Og‘iz suti qaqanaqqa sog‘ib pishirilgani uchun bu ovqatni qaqanag‘ deb ataganlar. Hozir qaqanag‘ qozonda tayyorlanadi.

Quyirtmoq - xom sut bilan qatiq aralashmasi. Cho‘pon uni mol qornidan tayyorlangan idishda saqlab, ichib yuradi.

Qurut - yog‘li yoki yog‘siz suzmadan oftobda qotirib tayyorlangan mahsulot. Bu termin qurimoq fe‘li asosida yasalgan: quri+t >qurit>qurut.

Qurtoba - qurut, sariyog‘ va non aralashmasiga suv qo‘shib qaynatish natijasida tayyorlangan ovqat. Bu termin qurit va ob (tojikcha – suv) so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan, ya‘ni: qurut+ob+a>qurtoba.

Tuzqoq - tuz sepib quritilgan, qoqlangan go‘sht.

Shirava - sut yuzidagi yangi hosil bo‘lgan qaymoq..

Sherda - pishirilgan mol go‘shtini teng bo‘laklarga bo‘lib olish.

Micha - so‘yilgan mol go‘shtini katta-katta bo‘laklarga bo‘lish. Bundan “michalash” so‘zi hosil bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida bayon qilingan misollar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek chorvadorlari qadimdan hozirgacha chorva mahsulotidan turli-tuman, juda totli oziq-ovqatlar tayyorlab, iste‘mol qilganlar. Bu oziq-ovqat nomlari chorvadan yiroqda yashaydigan ko‘pgina xalqlarga haligacha to‘la va aniq yetib kelmagan. Shuning uchun ham xalq tilida azaldan yashab kelayotgan, ammo adabiy tilda mavjud bo‘lmagan chorvachilik terminlarini o‘zbek adabiy tiliga olib kirish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Xullas, chorvachilikka oid terminlar o‘zbek tilining to‘laqonli lug‘aviy birligi sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan o‘rin olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баскаков М.А. Состав лексики каракалпакского языка и струй турит слова; -«Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков», IV, Лексика, М., 1962
2. Буранов М. Термины животноводства в узбекских говорах Каракалпаки: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1972. – С. 31.
3. Девону луғотит турк. Индекс-луғат/ Ғ.Абдурахмонов ва С.Муталлибоев иштироки ва таҳрири остида. Тошкент: Фан, 1967. – Б.550.
4. Кошғарий М. Девону луғотит турк/Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. -Т.: Фан, 1960.  
Т. I. – 1960. - 499 б.  
Т. II. - 1961. - 222 б.  
Т. III. - 1963. - 466 б.
5. Мухаммедов З.Б. Материалы для изучения терминов животноводства туркменской лексики. Ашхабад, 1961.
6. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий в 4-х томах. Санкт-Петербург, 1893. С.494.
7. Уринов Т. Узбекская овцеводческая терминология (на материалах Кашкадариньской области): Автореф. дис... канд. филол. наук... –Т., 1964.
8. Усманов С. Гиппологическая терминология, современного узбекского языка: Автореф. дис.. канд. филол. наук. - Т., 1988.
9. Ходжамбердиев Т. Животноводческая лексика узбекского языка (преимущественно на материалах Ферганской долины): Автореф. дис... канд. филол. наук. –Т., 1975.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. 2-жилд. – Б.618.
11. Ўринова О. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фанлари номзод. ... дис. автореф. – Тошкент: 2007. – Б.26.

## ABDULRAZZOQ GURNAH ASARLARIDA INSON RUHIYATI TAHLILI

Saydamatova Dilafroʻz Xamidullo qizi  
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti  
<https://orcid.org/0009-0006-8691-7240>

*Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulrazzoq Gurnah asarlari va ularning tahlili amalga oshirilgan boʻlib, maqolada asosiy eʼtibor Gurnahning mashhur romanlari sirasiga kiruvchi “Paradise” (Jannat), “By the Sea” (Dengiz boʻyida) romanlari orqali inson qalbidagi iztirob, yoʻqotish, oʻzlikni izlash kabi psixologik holatlarning badiiy ifodasi va ularning tahliliga qaratilgan. Gurnah romanlari nafaqat adabiy, balki psixologik tahlil uchun ham muhim deb hisoblanadi. Gurnah asarlarining chuqur psixologik mazmuni zamonaviy adabiy jarayonlar bilan uygʻunlashibgina qolmay, yangi avlod oʻquvchilari uchun dolzarb ruhiy savollarni koʻtaradi va shaxsiy va ijtimoiy kontekstlarni chuqur tushunishga yordam beradi. Bu asarlar, nafaqat post-kolonial jamiyatlardagi shaxsiy izlanishlar, balki butun dunyo boʻylab ruhiy holatlarning umumiy tasviri ekanligi maqolada tahlil qilingan.*

*Key words: Abdulrazzoq Gurnah, migratsiya, oʻzlikni anglash, inson ruhiyati, post colonial, “Paradise”, “By the Sea”.*

## АНАЛИЗ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДУХА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТВОРЧЕСТВАХ АБДУЛРАЗЗАКА ГУРНАХА

Сайдаматова Дилафруз Хамидулло кизи  
Докторант Наманганского государственного университета

*Аннотация: В данной статье анализируются произведения Абдулраззак Гурнаха, особое внимание уделяется художественному выражению и анализу психологических состояний, таких как страдание, утрата и поиск идентичности в человеческой душе, через знаменитые романы Гурнаха «Рай» и «У моря». Романы Гурны считаются важными не только с точки зрения литературного, но и психологического анализа. Глубокое психологическое содержание произведений Гурны не только перекликается с современными литературными тенденциями, но и поднимает актуальные духовные вопросы перед новым поколением читателей и помогает им глубже понять личные и социальные контексты. В статье анализируется, что эти работы представляют собой не только личные исследования постколониальных обществ, но и общие описания психических состояний во всем мире.*

*Ключевые слова: Абдулраззак Гурнах, миграция, идентичность, человеческая психика, постколониальный, «Рай», «У моря».*

## ANALYSIS OF HUMAN SPIRIT IN THE ARTISTIC WORKS OF ABDULRAZZAK GURNAH

Saydamatova Dilafruz  
Doctoral student at Namangan State University

*Abstract: This article analyzes the works of Abdulrazzaq Gurnah, focusing on the artistic expression of psychological states such as suffering, loss, and search for identity in the human soul through Gurnah’s famous novels «Paradise» and «By the Sea». Gurnah’s novels are considered important not only for literary but also for psychological analysis. The deep psychological content of Gurnah’s works not only harmonizes with modern literary processes, but also raises urgent spiritual questions for the new generation of readers and helps to deeply understand personal and social contexts. The article analyzes that these works are not only personal searches in post-*

colonial societies, but also a general picture of spiritual states around the world.

*Key words:* Abdulrazaq Gurnah, migration, self-awareness, human psyche, post colonial, «Paradise», «By the Sea».

Kirish. Zamonaviy adabiyotda o'z o'rniga ega bo'lgan yozuvchilardan biri -Abdulrazzoq Gurnah, post-kolonial adabiyotning yetakchi yozuvchilaridan biri sifatida tanilgan. Gurnah qalamiga mansub asarlar, ayniqsa, Afrika va Osiyo o'rtasidagi madaniy va tarixiy bog'liqliklarni, migratsiya, kimlik va kolonializmning inson ruhiyatiga ta'sirini chuqur chizgilar bilan tasvirlaydi. Uning asarlarida insonlarning ichki iztirobi, yo'qotishlari va o'zlikni izlash jarayonlari badiiy talqin etilgan. Shuningdek, Gurnah yozgan hikoyalar zamonaviy dunyoda ko'plab insonlar duch kelayotgan murakkab ijtimoiy va ruhiy muammolarni o'rganishga yordam beradi. Shu sababdan ham uning ovozi nafaqat adabiyotda, balki madaniyat va tarixni tushunishda ham muhim ovoz hisoblanadi. 2021-yilda Gurnahga adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti berilishi uning adabiyotdagi o'rnini dunyo miqyosida yuqori ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Post-kolonial adabiyotda o'ziga xos yorituvchi ovozga ega bo'lgan yozuvchilarning yorqin namunasi sifatida Abdulrazzoq Gurnah asarlarida asosan migratsiya o'zlikni izlash, ijtimoiy tengsizlik kabi mavzularni ommaga havola etadi. Gurnahning badiiy asarlarida inson ruhiyati, shaxsiy tajribalar, travmalar va o'tmish xotiralari kabilar boshqa asarlardan ko'ra murakkab va chuqur tasvirlanadi. Gurnah, o'z asarlarida shaxsiy ruhiyatni nafaqat individual hissiyotlar, balki jamiyatdagi kuchli sotsiologik va tarixiy omillar orqali ham ko'rsatadi. Ushbu maqolada, Gurnahning ayrim badiiy asarlarida inson ruhiyatining talqini tahlil qilinibgina qolmay, uning asarlarida ruhiy holatlarning qanday ifodalanishi va bu tasvirlarning post-kolonial jamiyatlar kontekstida qanday ahamiyatga ega ekanligi o'rganiladi. Mazkur maqolada Gurnah asarlari ichida yuqorida keltirib o'tilgan holatlarni o'zida mujassam etgan «Paradise» va «By the Sea» kabi asarlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolada Gurnahning badiiy asarlaridan na'munalar keltirib, uning o'z asarlarida ruhiyatni tasvirlashdagi o'ziga xos uslubi va asarlaridagi diqqatni tortuvchi psixologik elementlar chuqur o'rganilib, matnli tahlil usuli qo'llanildi. Shu bilan birgalikda, psixologik va post-kolonial adabiyotshunoslik nazariyalariga asoslangan holda asarlarning kontekstual tahlili amalga oshiriladi. Qo'llanilgan metodologiyalar inson ruhiyatining psixologik, ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday tasvirlanishini tushunishga yordam berdi.

Biz tadqiqotimizda Gurnah matnning asosiy strukturasi, qahramonlarning ichki dunyosini tushunish, asarda foydalanilgan til va uslubning tahlili, simvol va motivlar tahliliga e'tibor qaratdik.

Ishimizda psixoanalitik yondoshuv asosida Sigmund Freud va Carl Jungning psixoanalitik nazariyalaridan foydalanilib, asarlardagi qahramonlarning ruhiy holatlari va o'zlik izlanishlari o'rganildi. Masalan, Freudning "id, ego, va superego kontseptsiyalari" yordamida ichki konfliktlar va shaxsiy muammolar tahlil qilindi. "Paradise" romanida Yusufning ichki konfliktini misol tariqasida oladigan bo'lsak:

Id (istak va instinktlar): Yusuf bolaligidan otasining unga bo'lgan sovuqligi va uni savdogar Azizga qarz evaziga "sotib yuborishi" natijasida chuqur ruhiy jarohat oladi. Yusufning ichki istaklari (id) ozodlik, sevgiga intilish, oilasiga sodiq qolishdir.

Ego (real hayotdagi moslashuv)ni Yusufning real hayotda Aziz bilan bo'lishga majburligi va savdogarlikni o'rganishi, yangi hayotga moslashishga urinishi sahnalarida uchramiz.

Superego (axloqiy qadriyatlar, ichki hukm) Yusuf ota-onasini tark etgani, o'z qarzini to'layotgani, mustamlakachilik davrida yangi normalarga moslashgani sababli o'zini aybdor his qiladi. Uning axloqiy qadriyatlari (superego) va hayotiy sharoit (ego) o'rtasida kuchli konflikt yuzaga keladi.

Yusuf o'zini doimo ikki olam orasida his qilishi – bir tarafdan o'z ildizlarini unutmaslikka harakat qilishi va yana ikkinchi tomondan, yangi hayot tarziga ko'nikishga majburligi sababli asardagi qahramonning egosi va superegosi o'rtasidagi to'qnashuvlarga duch kelamiz.

Gurnahning badiiy uslubi va dunyoqarashini yoritish uchun uning asarlarida ruhiyatni shakllantiruvchi asosiy omillar – tarixiy jarayonlar, migratsiya, kimlikni izlash va o‘zlikni anglash kabi unsurlarni ochib berish lozimligi aniqlandi.

Gurnah asarlarida inson ruhiyatining tasviri ko‘p hollarda ichki monologlar, yodgorliklar va o‘zlikni yo‘qotish yoki qayta tiklash orqali ifodalanadi. Gurnah o‘z asarlarida ichki kurashlar va kimlikni izlash, qochish va uyga qaytish, travma va o‘tgan hotiralar, kuchli realizm kabi usullardan inson ruhiyatini chuqurroq yoritish maqsadida mohirona foydalangan. «Paradise» va «By the Sea» kabi romanlarida, qahramonlarning ruhiy holatlari o‘zgaruvchan va dinamikdir. Masalan, «Paradise»da yozuvchi voqea yuz bergan malakatdagi iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, kolonialistik va ijtimoiy tizimlar o‘z ta’sirini o‘tkazgan qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlaydi. Asarda Yusufning Azizga «qarz evaziga» topshirilishi epizodi asnosida xususiy mulk tizimi va iqtisodiy nohaqlik sharoitida bolalar qanday qilib «bozor qiymatiga» aylantirilganini ko‘rsatsa, Yusufning – tushunarsiz qo‘rquv, xafa bo‘lish, ajralish ruhiy zarbasi kabi holatlari – mustamlakachilikning shaxsiy hayotga qay darajada salbiy ta’sir qilganini aks ettiradi.

Navbatdagi asardan keltirilgan parchada esa, romanning 2-bobida yuz beradigan epizodni tahlil qilamiz. Voqealar rivoji Yusuf Aziz bilan uzoq savdo safariga otlanishidan kelib chiqadi. Yusufning Aziz bilan safarga chiqishi uning bolalikdan kattalikka o‘tishini ifodalaydi. Ular safar davomida notanish insonlar, dushmanona qishloqlar va yangi odat va qoidalarga duch kelishadi. Bu esa Yusufning begona muhitda o‘z o‘rnini topishga urinishini, ichki xavotiri va yangi hayotga moslashishga bo‘lgan ruhiy zo‘riqishini aks ettiradi.

“...They left behind the coast and made for the inland, through lands where the language was foreign, and the people looked at them with suspicion. Yusuf followed, his eyes always searching, his feet unsure but determined (ular sohilni ortda qoldirib, ichki hududlarga yo‘l oldilar, bu yerlar tili notanish, odamlari esa ularga shubha bilan qarardi. Yusuf orqalaridan ergashdi, ko‘zlari har doim nimanidir izlardi, oyoqlari ishonchsiz, biroq qat’iy edi)...” ( 1, 2-bob “The Mountain Town”)

Bu ta’sirlar esa asarning badiiy qiymatini sezilarli darajada oshirib berdi. Asarda o‘zlik, kimlik, oilaviy aloqalar, sevgi, xiyonat va insonning o‘z ruhiy holatini anglashga asosiy e’tibor qaratilgan. Qahramonlar o‘zlarini va atrofdagi dunyoni anglashga intilishlari kabi jarayonlar esa ularning ruhiyatini shakllantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda “Paradise“ romani ustida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy xodimi Muborak Qosimova tomonidan ham izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lib Gurnahning romanida kolonializmning ta’siri, identitet va joylashuv mavzularini chuqur o‘rganadi. U roman orqali Gurnahning murakkab tarixiy va madaniy kontekstlarni qanday ifodalashini tahlil qiladi. Uning 2024-yilda chop etilgan maqolasi “Abdurrazzoq Gurnah asarlarida roman janrining o‘ziga xos xususiyatlari” nomi bilan e’lon qilingan va bu asarlarda Gurnahning murakkab badiiy tuzilmalari, tarixiy kontekstlari va postkolonial mavzularni qanday yoritgani tahlil qilingan.

«By the Sea» romaniga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu asar migratsiya va insonlarning yangi madaniyatlarga duch kelishi va tanishish jarayonidagi ichki iztiroblari va ruhiy kechinmalari ifodalangan .

“...I speak to maps. And sometimes they say something back to me. This is not as strange as it sounds, nor is it an unheard of thing. Before maps the world was limitless. It was maps that gave it shape and made it seem like territory, like something that could be possessed, not just laid waste and plundered...” [2 ] mazkur iqtibosda xaritalar orqali o‘zligini anglashga urinayotgan migrantlarning ichki kechinmalari, yangi muhitdagi adaptatsiya va kimlikni qayta shakllantirish jarayonlari tasvirlab berilgan. Umuman olganda , Gurnahning mazkur asari, insonlarning ichki izlanishlari, aloqalari va ruhiy izlanishlari haqida chuqur fikrlar beradi.

Muhokama. Gurnahning asarlarida migratsiya va yashash joylarining o‘zgarishi, odamlarning kimligini yo‘qotish yoki qayta tiklash haqidagi ichki izlanishlari asosiy mavzulardan biridir. Ruhiyat va identitetni izlash jarayonidagi qahramonlarning psixologik kechinmalari, jamiyat va

madaniyat ta'sirida o'zgaradi. Shu bilan birga, Gurnah ruhiyatni tasvirlashda tarixi, madaniyat va individual tajribalarning kesishgan nuqtalarini ochib beradi, bu esa o'quvchiga chuqur psixologik tafakkur imkonini yaratadi. Har ikkala bebaho asar ham o'z zamirida inson ruhiyatini, o'zlikni anglashni va o'tmishning ta'sirini chuqur yoritadi.

Tadqiqotimizning maqsadi Gurnahning asarlarida inson ruhiyatini tahlil qilish ekan avvalo, asarlarni ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstlarda ko'rib chiqish lozimdeb hisoblaymiz. Abdulrazzoq Gurnah asarlarida inson ruhiyatining talqini post-kolonial jamiyatlarda yashayotgan shaxslarning ichki iztiroblari va o'zlikni izlash jarayonlariga qaratilgan. Gurnah, badiiy asarlarida individual va kollektiv xotira, tarixiy travmalar, shaxsiy kimlik va madaniy o'zgarishlarni chuqur tahlil qiladi. Bu jarayonlar, nafaqat qahramonlarning shaxsiy hissiyotlariga, balki ularning yashash sharoitlari, ijtimoiy tizimlar va madaniyatlar bilan munosabatlariga ham ta'sir qiladi. Gurnah asarlarida ruhiyatning shakllanishi va o'zgarishi, xarakterlarning o'ziga xos psixologik portretlari orqali ifodalanadi.

Abdulrazzoq Gurnah asarlarida inson ruhiyatini tahlil qilish jarayoni, uning yaratgan badiiy dunyosida ko'plab murakkab va nozik jihatlar mavjud. Inson ruhiyatining shakllanishida ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstning ta'sirini o'rganish Gurnah asarlarini o'rganishda asosiy ro'l uning romanlari – postmustamlakachilik va muhojirlik kontekstida shakllangan shaxsiyatlar dramatik ichki kechinmalari orqali zamonaviy insonning ruhiy holatini o'rganish uchun muhim manbadir.

Gurnah asarlarida inson ruhiyatining shakllanishida kolonializmning ta'siri o'ta muhim ahamiyatga ega. Kolonializmni, Gurnah ko'pincha ijtimoiy tizimlarning, etnik guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning va yurtlardan majburiy ravishda ko'chirilgan odamlarning ruhiyatidagi izlar sifatida ko'rsatadi. Buning yorqin dalili sifatida yozuvchi «Paradise» va «By the Sea» kabi asarlarda, Gurnah o'zining qahramonlari – Yusuf va Salim orqali, kolonializmning insonlar va jamiyatlarga bo'lgan ta'sirini, bu jarayonning ruhiy darajada qanday izlar qoldirganini tasvirlaganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "...He would feel no remorse about his parents... They had abandoned him years ago to win their own freedom, and now he would abandon them..." [1]

Asardan keltirilgan bu parchada Yusufning hayotiga Kolonializmning ta'siri, ota onasi o'z erkinligi uchun uni yillar avval tashlab ketishgani va buning natijasida Yusufning ichki ziddiyati yuzaga kelishini tasvirlangan.

"The garden was divided into quarters, with a pool in the center and water channels running off it in the four direction. The quadrants were planted with trees and bushes, some of them in flower: lavender, henna, rosemary and aloe ... clovers and grass, and scattered clumps of lilies and irises..." [1]

Mazkur epizodda Azizning bog'i tasvirlangan sahna keltirilgan va bu bog' jannatga qiyoslangan. Bu esa u yerda tinchlik, barqarorlik va madaniyatni ifodalaydi. Bog'ning to'rt qismga bo'linishi esa asardagi qahramonlarning ichki dunyosi muvozanatini ifodalaydi. Bog' tasviri azizning ichki dunyosi, uning ideal holatini ifodalaydi. Ammo, Roman davomida Azizning shaxsiy hayoti va oilaviy munosabatlari bu jannat bog'i go'zalligiga zid keladi. Bog' tashqarisida esa siyosiy ziddiyat, iqtisodiy bosim, ichki konfliktlar mavjud. Shuning sababli bog' ramziy nuqtai nazardan jannat, real hayotda esa Aziz va uning atrofidagi insonlarning hayoti murakkab va ziddiyatli ekanini ko'rsatib beradi.

Gurnah asarlarida duch kelinadigan ko'zga ko'ringan mavzulardan biri — bu identitet inqirozidir. «By the Sea» romanida bosh qahramon Salim o'zining kim ekani, milliy va madaniy ildizlarini anglashda iztiroblar girdobida qoladi. Salim o'zini "begona" his qilgan muhitda yashashga majbur bo'ladi, lekin shu bilan birga o'zining kelib chiqishini butunlay inkor etolmaydi. Bu psixologik holat – Frants Fanonning "qora tanli insonning oq jamiyatdagi o'zligini yo'qotish" g'oyasini eslatadi. Gurnah shaxsiyatning buzilishi, ijtimoiy maskalash va ruhiy yakkalanish kabi jarayonlarni ochib berishda qahramon Salimning ichki kechinmalaridan foydalandi. Bu jarayonlar Loimeier, Romanning "Muslim Societies in Postcolonial Africa" asarida chuqur tahlil qilingan.

Frants Fanonning “Qora tanli insonning oq jamiyatdagi o‘zligini yo‘qotishi” masalasi, ya’ni irqchilik va kolonializm sharoitida qora tanlilarning o‘zligini yo‘qotishi mavzusi ko‘plab postkolonial adabiyotshunoslar va faylasuflar tomonidan tahlil qilingan. Bu borada ayniqsa Frants Fanonning o‘zi muhim nazariy manba hisoblanadi, uning «Qora terining pedagogikasi» va «Jismoniy va ruhiy qullik» kabi asarlari bunga misol.

Xulosa. Abdulrazzoq Gurnah - ijodi inson ruhiyatini o‘rganish nuqtai nazaridan boy manbalardan biri hisoblanadi. Asarlaridagi qahramonlar o‘zlikni izlanishida, madaniy to‘qnashuvlar va tarixiy travmalar ta’sirida ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi. Mazkur ruhiy holatlarning badiiy ifodasi Gurnah romanlarini nafaqat adabiy, balki psixologik tahlil uchun ham muhimlik zaruriyatini oshirib beradi deb hisoblaymiz. Gurnah asarlarining chuqur psixologik mazmuni zamonaviy adabiy jarayonlar bilan uyg‘unlashibgina qolmay, yangi avlod o‘quvchilari uchun dolzarb ruhiy savollarni ko‘taradi va shaxsiy-ijtimoiy kontekstlarni chuqur tushunishga yordam beradi. Bu asarlar, nafaqat post-kolonial jamiyatlardagi shaxsiy izlanishlar, balki butun dunyo bo‘ylab ruhiy holatlarning umumiy tasviridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gurnah, Abdulrazak. Paradise. Bloomsbury Publishing, 1994.
2. Gurnah, Abdulrazak. By the Sea. London: Bloomsbury Publishing, 2001.
3. Freud, Sigmund. The Ego and the Id. Translated by Joan Riviere. London: The Hogarth Press, 1923.
4. Erikson, Erik H. Identity: Youth and Crisis. Norton & Company, 1968.
5. Muborak Qosimova , UNIQUE FEATURES OF THE NOVEL GENRE IN THE WORK OF ABULRAZAK GURNAH.2024.
6. Loimeier, Roman. “Muslim Societies in Postcolonial Africa.” Indiana University Press, 2013
7. . Fanon, Frantz. Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum, 1970.
8. Fanon, Frantz. The Wretched of the Earth. New York: Grove Press, 1963.
9. Said, Edward. Culture and Imperialism. Vintage Books, 1993.
10. Loimeier, Roman. “Muslim Societies in Postcolonial Africa.” Indiana University Press, 2013.
11. Yo‘ldoshev, M. (2008). Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
12. Said, E. W. (1993). Culture and Imperialism. New York: Alfred A. Knopf.
13. López, M. (2001). Postcolonial Whiteness: A Critical Reader on Race and Empire. SUNY Press.

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

### 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING KOORDINATSION QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA AYLANMA MASHG'ULOTNI TASHKIL ETISH

Akbarov Sherzod Axrorovich  
Qarshi davlat universiteti,

*Annotatsiya. Maqolada jismoniy qobiliyat va sifatlarni aylanma mashg'ulot ekstensiv-oraliqli uslubining turli variantlari bo'yicha jadal sur'atlarda rivojlantirish xususiyatlari bayon qilingan.*

*Aylanma mashg'ulot uslubi harakat xususiyatlarini mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot turi hisoblanishi, vazifalar ma'lum miqdordagi «bekatlar»dan iborat bo'lgan aylanmada bajarilishi sababli u shunday nom olganligi, «bekatlar» o'qituvchi tomonidan belgilangan ketma-ketlikda bir-birining ortidan joylashtirilishi va har bir bekatda kerakli sport anjomlari joylashtirilishi, o'quvchilar «bekatlar»soniga mos keladigan guruhlar soniga bo'linishi, har bir bekatda talabalar soni teng bo'lishi kerakligi, shunda mashqlarni juftlikda bajarish ham mumkin bo'lishi, shug'ullanuvchilar oxirgi vazifani tugatgandan so'ng, yana birinchi «bekat» ga o'tishi va aylanma yopilishi, mashqlar oddiy va tushunarli bo'lishi kerakligi haqida so'z boradi.*

*Aylanma mashg'ulotning ekstensiv oraliqli ish uslubi bo'yicha variantlari maktabda jismoniy tarbiya darslari uchun juda mos kelishi, chunki standart mashg'ulotlar vaqti va «bekatlar» da mashq paytida va «bekatlar» ni o'zgartirganda tanaffuslarning standart davomiyligi tufayli qat'iy tartib ta'minlanishi kerakligi tarzda xulosalangan.*

*Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya darslari, aylanma mashg'ulot, ekstensiv oraliqli uslub, jismoniy qobiliyatlar, jismoniy yuklamalar.*

### ОРГАНИЗАЦИЯ КРУГОВОЙ ТРЕНИРОВКИ В РАЗВИТИИ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ 7-9 ЛЕТ

*Аннотация. В статье описаны особенности интенсивного развития физических способностей и качеств в различных вариантах экстенсивно-интервальной методики круговой тренировки.*

*Круговой метод считается видом обучения, направленным на закрепление и развитие двигательных способностей, он получил такое название из-за того, что задания выполняются по кругу, состоящем из определенного количества «станций», «станции» располагаются одна за другой в установленной педагогом последовательности, а на каждой остановке размещается необходимый спортивный инвентарь, учащиеся должны выполнять упражнения, соответствующие количеству «станций»; групп, количество студентов на каждой остановке должно быть равным, чтобы можно было выполнять упражнения и в парах, речь идет о том, что после того, как участники выполнили последнее задание, снова переходят на первую «станцию» и замыкают круг, упражнение должно быть простым и понятным.*

*Варианты круговой тренировки по методу работы с расширенными интервалами заключаются в том, что для уроков физкультуры в школе она идеально подходит, так как должна быть предусмотрена строгая дисциплина за счет стандартного времени занятий и стандартной продолжительности перерывов при выполнении упражнений на «станциях» и при смене «станций».*

*Ключевые слова: уроки физической культуры, круговая тренировка, экстенсивно-интервальный метод, физические способности, физические нагрузки.*

## ORGANIZATION OF CIRCULAR TRAINING DEVELOPING THE COORDINATION SKILLS OF 7-9-YEAR-OLD PUPILS

*Abstract. The article describes the features of the intensive development of physical abilities and qualities in various variants of the extensive-interval method of circuit training.*

*The circuit method is considered a type of learning aimed at consolidating and developing motor abilities, it got its name due to the fact that tasks are performed in a circle consisting of a certain number of «stations», «stations» are arranged one after another in the sequence established by the teacher, and at each stop the necessary sports equipment is placed, students They must perform exercises corresponding to the number of «stations».; The number of students at each stop should be equal so that the exercises can be performed in pairs. The point is that after the participants have completed the last task, they go back to the first «station» and complete the circle, the exercise should be simple and understandable.*

*The options for circuit training using the extended interval training method are that it is ideal for physical education classes at school, since strict discipline should be provided due to the standard class time and the standard duration of breaks when performing exercises at «stations» and when changing «stations».*

*Keywords: physical culture lessons, circuit training, extensive-interval method, physical abilities, loads.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishiga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimiga davlat ahamiyati darajasida berilayotgan yuqori e'tiborga qaramasdan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish ta'lim sohasining eng e'tiborli masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. An'anaviy jismoniy tarbiya tizimida joriy etilgan dars jarayoni yetarlicha mukammal emas, ya'ni o'suvchi organizmning harakat talablarini to'laligicha qoplamaydi. Ushbu bo'shliqning o'rnini to'ldirish uchun aylanma mashg'ulot uslubi singari ilg'or pedagogik uslublardan samarali tarzda foydalanish organizmning ko'p sonli imkoniyatlarini to'lig'icha amalga oshirish va aniq bir jismoniy sifatlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Aylanma mashg'ulot – bu harakat xususiyatlarini mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot turi hisoblanadi. Vazifalar ma'lum miqdordagi «bekatlar»dan iborat bo'lgan aylanmada bajarilganligi sababli u shunday nom olgan. «Bekatlari» o'qituvchi tomonidan belgilangan ketma-ketlikda bir-birining ortidan joylashtiriladi va har bir bekatda kerakli sport anjomlari joylashtiriladi. O'quvchilar «bekatlar»soniga mos keladigan guruhlar soniga bo'linadi. Har bir bekatda talabalar soni teng bo'lishi kerak, shunda mashqlarni juftlikda bajarish ham mumkin bo'ladi. Shug'ullanuvchilar oxirgi vazifani tugatgandan so'ng, ular yana birinchi «bekat» ga o'tadilar va aylanmani yopadilar. Mashqlar oddiy va tushunarli bo'lishi kerak, bu ularni qayta-qayta bajarishga imkon beradi.

Tadqiqot maqsadi. Koordinatsion qobiliyatlarni aylanma mashg'ulotning ekstensiv-oraliqli uslubini turli variantlari yordamida maqsadli va jadal sur'atlarda rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq qilish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik nazorat testlari, pedagogik tajriba.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Aylanma mashg'ulotning ekstensiv-oraliqli ish uslubida «bekat» dan «bekat» ga o'tishda mashq qisqa (to'liq bo'lmagan) to'xtamlar bilan bo'linadi. Ushbu to'xtamlar taxminan «amaliy foydali» ga to'g'ri keladi, chunki ular 45-30 s oralig'ida bo'ladi. Aylanma 1, 2 yoki 3 marta takrorlanadi. Har bir aylanmadan so'ng turli xil davomiylidagi tanaffus (3-5 daqiqa) ham qo'shiladi.

Variantlar:

1. Har bir «bekat» da mashq 15 s, so'ngra 45 s tanaffus bilan davom etadi.
  2. Har bir «bekat» da mashq 15 soniya davom etadi, so'ngra tanaffus 30 soniya davom etadi.
  3. Har bir «bekat» da mashq 30 soniya davom etadi, so'ngra tanaffus 30 soniya davom etadi.
- 1- va 2-variantlar:

Mashqlar o'rganilgandan va «30 s –mashq, 30 s – to'xtam» formulasi bo'yicha maksimal takrorlashlar soni aniqlangandan so'ng, mashg'ulot alohida variantlar bo'yicha yuklamaning individual miqdori bilan boshlanadi. 1-va 2-variantlarga ko'ra, bu har 15 soniyada 30 soniyali MTS/2 ( MTS – maksimal takrorlashlar soni) maksimal testga teng ish bajarilishini anglatadi. Vazifa shundan iboratki, MTS/2 jonli mashg'ulot sur'atida aynan 15 soniyada bajarilishi kerak. Dam olish oralig'i tanlangan mashqlar: qo'shimcha (o'z vazniga nisbatan) og'irlik, mashqdagi yuklama darajasi, shuningdek istalgan mashg'ulot samarasiga qarab 30 yoki 45 s davomiylikda o'rnatilishi mumkin. 15 soniyali ish davomida kuchning jadalliligi qanchalik yuqori va tanaffus ham qanchalik uzoq bo'lsa, tezlik kuchi va tezlik chidamliligi kabi majmuaviy sifatlar shunchalik muvaffaqiyatli rivojlanishi va yangi boshlovchilar ma'lum darajada maksimal kuchga ham ega bo'lishlari mumkin. Agar shtanga bilan bajariladigan mashqlar qo'llansa, ta'sir kuchi maksimal quvvatning 50-60% oralig'ida bo'lishi kerak. Bunday quvvat maksimal testni o'tkazishda 30 sekundda kamida 15-20 marta bajarishga imkon beradi. Ushbu takroriy sonning yarim miqdori (agar harakatlar maksimal tezlikda 15 soniya davomida amalga oshirilsa va bunday 15 soniyali yuklamalar orasidagi dam olish oralig'i taxminan 45 soniya bo'lsa) mashg'ulot samarasi sifatida tezlik kuchini beradi.

Dam olish paytida kislotali moddalarni mushaklardagi almashinuvining zararsizlantirilishi yuz beradi, ammo qisman. Shuning uchun, keyingi mashqning boshida ba'zi qoldiq charchoq yuz beradi. Ammo mashqlar aylanma mashg'ulotlarning rasmi chizmasiga (ramziga) muvofiq tanlangan va joylashtirilganligi sababli, ya'ni har bir yangi mashq boshqa mushak guruhini o'z ichiga olishi uchun, ilgari charchagan mushaklar parchalanish moddalaridan xalos bo'lishda davom etadi va faol dam oladi. Shunga qaramay, tanadagi qoldiq charchoq doimiy ravishda o'sib boradi va asta-sekin umumlashtiriladi; shu munosabat bilan qonning kislotaligi oshishi yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatining kuchli qo'zg'atuvchisi bo'lib xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, to'xtam paytida ortib borayotgan funksiyaga moslashish natijasida yurakning kattalashishiga olib keladi. To'xtamlar paytida yurakning qon-tomir hajmi oshadi va yurak urish tezligi pasayadi, bu 15 soniya davomida nisbatan yuqori qiymatlarga (180-200 zarba/min) yetadi. Kislotali moddalarni zararsizlantirish uchun asosan ishqoriy zaxiralar qo'llaniladi. Ushbu jarayonlarning barchasi moslashish natijasida yaxshilanadi va tezlik chidamliligi shaklida maxsus chidamlilikning rivojlanishini rag'batlantiradi, ya'ni anaerob sharoitda mushaklarning ishlashi paytida charchoqqa qarshi turish qobiliyatini oshiradi.

Belgilangan yuklamani individual ravishda miqdorlash bilan (15 s uchun) kichik va o'rta yoshli maktab o'quvchilaridan mashqlarning eng tez sur'atlarini talab qilish tavsiya etilmaydi. Ushbu individual mashg'ulot meyorini yaxshisi tinch, cheklangan mashg'ulot sur'atida amalga oshiriladi. Maktabdagi majburiy jismoniy tarbiya darslarida mashqlarning aniqligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu sur'atni jadallashtirishdan ko'ra muhimroqdir.

3-variant:

3-variant uchun yuklama rejimi – har bir «bekat» da 30s ish 30 s to'xtamli mashqlarni tegishli oqilona tanlashni talab qiladi. Har bir mashqning qiyinchilik darajasi yoki yuklama darajasi shunday bo'lishi kerakki, mashg'ulot vaqtdan boshlab barcha 30 s to'liq yoki deyarli to'liq tarzda, bu ishni individual miqdorlash hajmida bajarish uchun (MTS/2) ko'p shoshilmasdan va o'ta aniqlik bilan foydalanish mumkin. Shuning uchun mashg'ulot majmuasi uchun asosan shunday mashqlarni (qo'shimcha og'irliklarsiz va ular bilan) tanlash tavsiya etiladiki, ular maksimal testni o'tkazishda juda tez sur'atda, kamida 15-20 marta bajarilishi mumkin bo'lsin.

Mashqlarni tinch sur'atda MTS/2 bajarish uchun taxminan 30 s kerak bo'ladi, shu bilan birga, dastlabki yuklama ma'lum bir mashg'ulot vaqtida (30 s) takrorlash sonini ko'paytirish orqali

oshiriladi. Shunday qilib, individual mashg'ulot miqdorlari:  $(MTS+1)/2$ ,  $(MTS+2)/2$ ,  $(MTS+3)/2$  aylanmaning bir, ikki va uchta o'tilishi uchun hosil bo'ladi. O'qituvchi butun sinfga yoki alohida o'quvchilarga  $MTS/2$  individual ko'tarilish imkoniyatini berishi mumkin.

Aylanmani o'tish sonini birdan uchtagacha o'zgartirish butun sinf uchun mo'ljallanadi. Shu bilan birga, yuklama ortib boradi, bu asta-sekinlik, tizimlilik va pishiqlik tamoyillarini amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu sxema haftasiga 45 daqiqa davomida ikkita majburiy jismoniy tarbiya darsini taqdim etadi. Eslatib o'tamiz,  $MTS/2 \times 1$ ,  $MTS/2 \times 2$ ,  $MTS/2 \times 3$  shuni anglatadiki, har bir mashg'ulot turida ular maksimal takrorlash sonining yarmini bajaradilar va aylanma 1, 2 yoki 3 marta bosib o'tiladi. Yuklamaning ortishi asta-sekin amalga oshiriladi va 1:3 mashg'ulot davrasiga to'g'ri keladi (bitta maksimal test va 3 haftalik mashqlar).

Aylanma mashg'ulotlar har bir darsda qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, bu harakat ko'nikmalarini shakllantirishga to'sqinlik qilmaydi. O'qituvchiga aylanma mashg'ulotning ushbu shaklini dars boshida yoki oxirida qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish huquqi beriladi. Maksimal test odatda dars oxirida o'tkaziladi.  $MTS/2 \times 1$  miqdori bilan maktab amaliyotida aylanma mashg'ulotlardan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatdiki, agar bu miqdor dars boshida berilsa, maktab o'quvchilari bunga juda tez ko'nikishadi. Shu bilan birga badan qizdirishni (badantarbiyani) ham o'rnini bosadi.

Xulosalar. Aylanma mashg'ulotning ekstensiv oraliqli ish uslubi bo'yicha variantlari maktabda jismoniy tarbiya darslari uchun juda mos keladi, chunki standart mashg'ulotlar vaqti va «bekatlar» da mashq paytida va «bekatlar» ni o'zgartirganda tanaffuslarning standart davomiyligi tufayli qat'iy tartib ta'minlanishi mumkin. Bu o'qituvchiga sinfni yaxshiroq kuzatish imkoniyatini beradi. Tanaffuslar o'smirning tanasida umumiy yuklamani yaxshi tartibga solishni kafolatlaydi. Haddan tashqari yuklanish maksimal test paytida yoki  $MTS/2 \times 3$  miqdorda ham mustasno qilinadi. Qisqa tanaffuslar bilan mashq qilish harakat sifatlarini majmuaviy takomillashuviga yordam beradi. Nafaqat umumiy va maxsus chidamlilik, balki tezlik kuchi, maksimal kuch va ayniqsa kuch chidamliligi ham rivojlanadi. Shu bilan birga, belgilangan dam olish vaqtlarini qisqartirish orqali yuklamani oshirish mumkin emas. Bu ekstensiv oraliqli ish uslubi bo'yicha aylanma mashg'ulotning xususiyatini va u bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulot samarasini buzadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

. М. Шолих. Круговая тренировка. общ. ред. и предисловие Л. П. Матвеева; пер. с немецкого Л. М. Мирского. – 2-е изд., стереотип. – М.: Спорт, 2021. – 216 с.

Гуревич И. А. 1500 упражнений для круговой тренировки. Под редакцией А. Г. Гужаловского. Минск, «Вышэйш. школа», 1976. 304 с. с ил.

Xurramov J. K. Aylanma mashg'ulotning ekstensiv-oraliqli uslubidan samarali foydalanish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Buxoro. 222-225 betlar.

---

## **BO'LAJAK TARBIYACHILAR KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI**

*Ashurova To'lg'anoy Ergashevna*  
(OTU) Osiyo Texnologiyalar universiteti "Pedagogika kafedrası" dotsenti, (PhD)

---

*Z.Saidova*  
Osiyo Texnologiyalar universiteti magistranti

---

*Annotatsiya . Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayonida  
Maqolada kasbiy kompetentligining o'rni, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri, shuningdek  
pedagogik faoliyatda innovatsion uslublarni qo'llash imkoniyatlari yoritilgan, tarbiyachilarning  
kasbiy kompetentligi ta'lim-tarbiyada tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlash muammolarni hal  
qilish, kasbiy ijtimoiylashtirish, ekanligi asoslab berilgan.*

*Kalit so'zlar: kasbiy ijtimoiylashtirish, kompetentligini rivojlantirish, qobiliyatsizlik, ta'lim  
,tarbiyachi, ijodiy tafakkur, nuqtai-nazar, individual qobiliyat*

## **СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ**

*Ашурова Тулганой Эргашевна*  
(OTU) Азиатский университет технологий  
Доцент кафедры педагогики, кандидат философских наук (PhD)

---

*З. Саидова*  
Магистрант Азиатского университета технологий

---

*Абстрактный. В статье рассматривается процесс современного образования и  
воспитания.*

*Роль профессиональной компетентности и ее влияние на эффективность образования.  
Также освещаются возможности использования инновационных методов в  
педагогической деятельности и обосновывается, что профессиональная компетентность  
педагогов – это способность студентов самостоятельно мыслить, решать проблемы,  
профессионально социализироваться.*

*Ключевые слова: профессиональная социализация, развитие компетенций, инвалидность,  
образование, педагог, творческое мышление, перспектива, индивидуальные способности*

## **THE ESSENCE OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS**

*Ashurova Tolganoy Ergashevna*  
(OTU) Asia University of Technologies  
Associate Professor at the Department of Pedagogy, PhD

---

*Z. Saidova, Master's Student at the Asia University of Technologies*

---

*Abstract. This article discusses the role of professional competence in the modern educational  
process, its impact on educational effectiveness.*

*It also highlights the possibilities of using innovative methods in pedagogical activities, and  
substantiates the fact that the professional competence of educators is the ability of students to  
think independently, solve problems, and develop professional skills.*

*Keywords: professional socialization, competence development, disability, education,  
educator, creative thinking, perspective, individual ability*

**Kirish:** Ta'lim va tarbiya inson kamolotining tayanchi hisoblanadi Globallashuv jarayonida ta'limning nafaqat mazmuni balki, shakl va metodlari ham o'zgarib bormoqda. Shu nuqtai–nazardan qaralganda kompetentlikning ta'lim-tarbiya jarayonida ayniqsa ta'limning birinchi bo'g'ni bo'lgan maktabgacha ta'limdagi o'rni beqiyos. Agar tarbiyachi kompetent bo'lsa tarbiyalanuvchilarning individual qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni shakllantirish kabi dolzarb muammolarni hal etish etish imkoniga ega bo'lmoqdalar.

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar jarayoni pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuksalishi bilan bir qatorda sohaga yuksak malakali kadrlar yetkazib berishni taqozo etmoqda. Aynan ushbu vazifalarni ado etish va to'laqonli bajara olish uchun har bir tarbiyachi o'z sohasida yuksak bilimdonlik, pedagogik texnika va axloqiy fazilatli bo'lishi lozim.

Ta'lim sifatining takomillashib borilishi natijasida bugungi kun yoshlarining ma'naviy qiyofasi va maqsadlari ham o'zgacha ko'rinish kasb etmoqda. Har bir yosh kadrlar o'z faoliyatini o'ziga xos yo'nalishda tashkil etish yo'llarini aniqlashga intilib bormoqda. Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ushbu faoliyatga kirib kelayotgan bo'lajak tarbiyachilar ham o'zida kasbiy layoqatni oshirish uchun tinimsiz izlanishda davom etmoqdalar. "Farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlari bilan kamol topishi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyaga bog'liqdir"- deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

**Adabiyotlarning tahlili.** Ko'plab tadqiqotlarda tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari va shakllantirish usullari o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. A.K.Markova o'z tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligini tarkibiy qismlarga bo'lgan holda asoslab bergan.

Ko'pgina tadqiqotchilar L.S. pedagogning kasbiy kompetentligini tarkibiy qismlarga bo'lgan holda asoslab bergan Vigotskiy, V.V. Davidov, V.N. Vvedenskiy, N.L.Dmitrieva, N.Ya. Kantorovich, M.I. Lukyanova, B. Nazarova va boshqalar tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllanishida pedagog asosiy e'tiborini bola shaxsiga qaratishi va ta'lim-tarbiya jarayoni ham shu bilan mosuvo ekanligini tadqiqot ishlarida aytib o'tishadi. Kasb hunar ta'limida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining mazmun mohiyatini o'rganish va tahlil qilish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari respublikamiz olimlari Q.M.Abdullayev, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.B.O'razova, O.A.Qo'ysinov va boshqalar, xorijiy mamlakatlarda V.I. Baydenko, A.A.Verbitskiy, N.A.Grishina, N.V.Kuzmina, N.V.Skachkova, A.V.Xutorskiy, R.Boyasis, K.Kameron, R.Kuinn, R.Marr, J.Raven, S.Uiddet, S.Xolliford tomonidan tadqiq etilgan.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayonining umumiy tamoyillari va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashning samarali metod va vositalari A.A.Abduqodirov, N.N.Azizxo'jayeva, F.R.Yuzlikayev, va yana V.N.Bespalkonning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jamiyatning innovatsion rivojlanishi imkoniyatlarini kengaytiradi. U ta'limni rivojlantirishning yangi konseptual yondashuvlarini amalga oshirishga asoslanadi. Yangi Davlat ta'lim standartlari ma'lum kompetentsiyalarni va universal ta'lim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan eng yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga asoslangan talabalarni o'qitishda tizimli faol yondashuvini joriy etishga imkon beradi. Tarbiyachining kompetentligi tarbiyalanuvchilarning tarbiyasiga nafaqat axloqiy meyorlarni singdirish, balki shaxsiy yondashuv orqali tarbiyalanuvchi

Ningruhiy va ijtimoiy holatiga mos metodlari tanlashlashni ham o'zichiga oladi.

Tarbiyachi o'z ustida ishlar ekan quyidagilarga amal qilishi lozim:

Pedagogik kompetentlik modelini o'rganish;

Ustozlar diagnostikasi natijalarini tahlil qilish;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lib o'tadigan faoliyatga qatnashish;

Boshqa talabalarning samarali tajribalarini o'rganish;  
Tahlil va natijalar.

Zamon rivojlanib borar ekan, har bir faoliyat o'zida yangicha usullarni qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishning eng muhim bo'g'inida turganliklari tufayli, mazkur yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi pedagoglar zimmasiga chuqur mas'uliyatni yuklaydi. Bu mas'uliyatli vazifani samarali ado etishda tarbiyachi o'zida kasbiy kompetentlikni shakllantirgan bo'lishi g'oyatda muhimdir.

Bo'lajak tarbiyachilar yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va kompetensiyaviy o'sishiga yordam beradi.

Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun boshqalarning "...aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Demak, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachining kompetentligi ta'limning passiv shaklidan, faol shaklga o'tishini ta'minlaydi.

Davlat va jahon oliy ta'lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarning tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o'qitish, vebinar va mahorat darslari tashkil etilmoqda.

Bo'lajak tarbiyachilar ya'ni bugungi talabalar kelajakda o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonlarida o'zini talab va nazorat qila bilishi lozimdir va bu ishda tarbiyachiga kompetensiyaviy yondashuvlar yordam beradi.

Tarixiy jarayonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy rivojlanishda keng ko'lamdagi innovatsion tendentsiyalar, fan, madaniyat sohasidagi o'zgarishlar, axloq, estetika va san'atning boshqa turlaridagi nomutanosibliklar chuqur ta'sir ko'rsatdi va ta'sir ko'rsatish davom etmoqda.

Bunday ta'sirlardan ta'lim sohasi ham chetda qolmayapti. XXI asrning birinchi o'n yilligi va undan keyin ham moddiy boylikning bilim, tajriba, ko'nikma, sog'liq, jismoniy rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib qolishi bashorat qilinmoqda.

Binobarin, har bir jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ilm-fan va madaniyat muhim o'rin tutadi. Jahondagi ilg'or mamlakatlar tajribasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Zero, ta'lim-tarbiyaga ustuvor ahamiyat berish mamlakat va xalqning istiqbolini belgilab beradi.

O'tmishdan bizga ma'lumki, ustozlar o'z shogirdlarini o'zlaridanda ko'proq qobiliyatli, zehni, bilimli, aqlli bir so'z bilan aytganda, layoqatli etib o'qitish uchun harakat qilishgan.

Oradan ancha yillar o'tgan bo'lishiga qaramasdan, ta'lim-tarbiya berish usullari zamonaviy tarzda tus olgan bo'lsada, hozirda ham bu kabi qarashlardan talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirishda foydalanilmoqda. AQSH, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasi ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tiborning qaratilishi, uning jamiyat tomonidan moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi soha rivojlanishini ta'minlashda yetakchi omil ekanligini tasdiqlamoqda. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois O'zbekistonda ham ta'lim tizimini rivojlantirish, uni jahon standartlari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi va ana shu maqsadda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy maqsad etib belgilandi. O'zbekistonda "... ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada

bo‘lishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o‘tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko‘tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir...

Pedagogik kasbiy kompetentlikni shakllantirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

**Ongsiz ravishdagi qobiliyatsizlik.** Bu bosqichda tarbiyachi faoliyatini amalga oshiradi muammo uning harakatlari kutilgan talablarga javob bermaydi. Eng ahamiyatlisi shundaki, tarbiyachi buni o‘zi anglamaydi va barcha harakatlari natijasiz yakunlanaveradi. Shuning uchun bu bosqichdagi asosiy vazifa tarbiyachini ongli ravishda qobiliyatsiz holatiga o‘tkazishdir.

**Ongli ravishda qobiliyatsizlik.** Bu bosqichning maqsadi tarbiyachi o‘zining kasbiy saviyasini oshirishi zarurligini anglashidir.

**Ongli kompetentlik.** Ushbu bosqichda o‘rgatilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayangan holda tarbiyachi berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Tarbiyachi ongsiz ravishda emas balki faoliyatini ma’lum bir maqsadga qaratgan holda olib boradi. Shuning bilan birga u doimiy ravishda o‘z harakatlari haqida o‘ylaydi va reja tuzadi. Erishgan xato - kamchiliklari bilan birga yutuqlarini ham tahlil etib boradi.

**Ongsiz ravishdagi harakat.** Bu bosqichda tarbiyachi o‘zi uchun eng maqbul, eng ishonchli va eng samarali yo‘lni tanlab oladi. To‘g‘ri tanlangan harakatlar majmuasi ish faoliyati davomida avtomatik tarzda bajariladi. Ushbu o‘zgarish amaliy faoliyatni amalga oshirishga, sifatli tajribalarni takrorlashga, faoliyatning doimiy ravishdagi introspektsiyasiga erishishga yordam beradi. Bu orqali har bir tarbiyachida pedagogik kompetentlik amaliy faoliyat sifatida shakllanadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik kompetentlikni shakllantirish uchun eng maqbul bosqich, bu ongli ravishdagi kompetentlikdir. Ongli kompetentlikni shakllantirish uchun oliy ta’lim muassasida va undan tashqarida ya’ni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida talabalarni uzluksiz o‘qitish va o‘z – o‘zini tarbiyalash jarayonini tizimli ravishda tashkil etish zarur.

Kompetentlikning mavjudligi inson mehnatining natijasiga qarab aniqlanadi. Har bir mutaxassisning kompetentlik darajasi, uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning bu yondoshuvlarni tizimli asosda yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlari shuki, kompetentli mutaxassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo‘lib, ular doimo yangilanib turadi. Muammoning mazmunini tushunishning o‘zi yetarli bo‘lmay, turli jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, shu bilan birga, kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri yo‘llarni chiqarib tashlash, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi. Shunday ekan har bir pedagog kasbiy kompetentlikka erishishida, mas’uliyatni his etgan holda aniq maqsad asosida harakat qilishi lozim.

**Xulosa.** Tarbiyachining kompetentligi ta’lim-tarbiya jarayonini faollashtiradi, tarbiyalanuvchining bilimni eslab qolish emas, balki uni amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish va ijod qilish darajasiga olib chiqadi. Pedagoglar, psixologlar va ta’lim tashkilotchilarining asosiy vazifalaridan biri joriy etish, metodikani boyitish va natijalarni doimiy monitoring qilishdir. Mamlakatimizda tarbiyachi va malakali mutaxassisni shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratilayotgan bir sharoitda oliy ta’lim jarayonida ham bo‘lajak tarbiyachilar kasbiy kompetentligini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sanaladi.

Bu jarayonda ta’lim tizimidagi ilg‘or xalqaro tajribalarni hayotga tatbiq etish, xususan, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatni zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida yo‘lga qo‘yish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrda 2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi qarori bu kabi ishlar ko‘lamini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim omil bo‘layotir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Babayeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'qitish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish /Ilmiy to'plam. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. - 103-105-b.

Ashurova T.E. va Quysinova Sh.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida tarbiyachining kompetentligi/American journal.2024 44-47-b.

Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish: Monografiya-T., 2006.-357 b.

Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/Monografiya. – T.:“Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.-349b

“Ilk qadam” Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. mualliflar: Grosheva I.V. va boshqalar. –Toshkent, 2018. – 72 b

“Ilm yo'li”. 6 yoshdan 7 yoshgacha bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash variativ dasturi. Mualliflar: Grosheva I.V., Say YE.F., Mirjalilova S.S., Medvedeva N.I. – Toshkent, 2019. – 424 b.

Babayeva D.R Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Markazlar Faoliyati International Scientific Journal Volume 1 Issue 7 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 a

Babayeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'qitish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish /Ilmiy to'plam. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. - 103-105-b.

Qodirova. F. va boshqalar Maktabgacha pedagogika. Dasrluk. Toshkent: Tafakkur. 2019 y.

D.Babayeva. Nutq o'qitish nazariyasi metodikasi. Toshkent-2019y. Toshkent: Tafakkur. 2019 y.

**YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNING UMUMIY CHIDAMLILIGINI  
AN'ANAVIY TARZDA RIVOJLANTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**  
*Abdurahmonov Afzal Laziz o'g'li*

*Qarshi davlat universiteti, "Sport faoliyati" kafedrası magistranti  
Ilmiy rahbar: dots.Nuraliyeva O'.SH.*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligini rivojlantirishda qo'llanilayotgan an'anaviy mashg'ulot uslublari tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish yo'llari o'rganilgan. Amaliy tajribalar asosida bu metodikaning samaradorligi sinovdan o'tkazildi va ijobiy natijalar qayd etildi.*

*Kalit so'zlar: yengil atletika, yosh sportchilar, chidamlilik, mashg'ulot metodikasi, an'anaviy uslub, trening, samaradorlik.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ТРАДИЦИОННОГО РАЗВИТИЯ  
ОБЩЕЙ ВЫНОСЛИВОСТИ ЮНЫХ ЛЕГКОАТЛЕТОВ**

*Абдурахмонов Афзал Лазиз угли  
магистрант кафедры «Спорт фаолияти» Каршинский государственный университет*

*научный руководитель доц. Нуралиева У.Ш*

*Аннотация. В данной статье проведён анализ традиционных методов тренировки общей выносливости у юных легкоатлетов и предложены пути их совершенствования. Эффективность данной методики была проверена в ходе практических экспериментов, результаты которых подтвердили её положительное влияние на физическую подготовленность спортсменов.*

*Ключевые слова: лёгкая атлетика, юные спортсмены, выносливость, тренировочная методика, традиционный подход, эффективность.*

**PREVENTION OF POSTURE DISORDERS IN CHILDREN AGED 5-7 YEARS  
WITH THE HELP OF SWIMMING EXERCISES**

*Abduraxmonov Afzal  
magistr of the department of «Sports faoliyati» Karshi State University*

*scientific supervisor Nuraliyeva U.*

*Annotation. In this article analyzes traditional methods used to develop general endurance in young track and field athletes and explores ways to improve them. Practical experiments were conducted to test the effectiveness of the new approach, and the results showed a significant improvement in the athletes' endurance and physical readiness.*

*Keywords: track and field, young athletes, endurance, training methodology, traditional methods, effectiveness.*

*Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va hukumat tomonidan sportni, xususan, Olimpiya sport turlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda sport nafaqat inson salomatligini mustahkamlovchi omil, balki milliy g'urur, siyosiy nufuz va iqtisodiy imkoniyatlar ko'rsatkichi sifatida ham e'tirof etilmoqda.*

*Yosh sportchilarni erta yoshdan samarali tayyorlash va ularning jismoniy qobiliyat va sifatlarini samarali rivojlantirish sportdagi yuqori natijalarga erishishning asosiy omillaridan*

biridir. Ayniqsa, umumiy chidamlilik yosh sportchilarning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim jismoniy sifat hisoblanadi [1].

Yosh yengil atletikachilarda chidamlilikning shakllanishi ularning umumiy jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga kasalliklar va jarohatlar xavfini kamaytiradi hamda ularning mashg'ulotlarga chidamliligini oshiradi. Yoshligidan boshlangan muntazam, to'g'ri tashkil etilgan mashg'ulotlar organizmning adaptatsion mexanizmlarini mustahkamlab, chidamlilikni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, yosh yengil atletikachilarning chidamlilik darajasini erta rivojlantirish ularni raqobatbardosh bo'lishga tayyorlab, sport faoliyatini uzoq muddat davom ettirish imkonini yaratadi.

Yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligi ularning sportdagi natijalari va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunda yosh sportchilar chidamliligini rivojlantirish uchun an'anaviy usullar qo'llanilmoqda, ammo ularning samaradorligini oshirish, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va metodlarni joriy etish zarurati mavjud. Shu sababli yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligini an'anaviy tarzda rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish muammosi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqotning maqsadi. Yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligini rivojlantirishda an'anaviy uslubiyatlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish asosida samarali mashg'ulot metodini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari.

yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligini rivojlantirish metodlarini tahlil qilish;  
yosh yengil atletikachilar o'rtasida umumiy chidamlilikni oshirish uchun mavjud metodlarning samaradorligini baholash;

takomillashtirilgan uslubiyatni ishlab chiqish va amaliy tadqiqotlar orqali uning samaradorligini sinovdan o'tkazish;

taklif etilgan metodlarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti.

Yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamlilik darajasi va uni rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti.

Yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligini rivojlantirishda an'anaviy uslubiyatning takomillashtirilgan metodlari va ularning samaradorligi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).

O'zbekistonda yengil atletikani rivojlantirishga oid ilmiy ishlar soni ko'pchilikni tashkil qiladi [2, 5]. Ko'pchilik olimlar yosh sportchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodlarini o'rganib, an'anaviy yondashuvlarni mahalliy sharoitga moslashtirishga harakat qilmoqdalar [3, 4]. Lekin yosh yengil atletikachilar uchun chidamlilikni rivojlantirish uslubiyatini yanada takomillashtirish, ayniqsa, zamonaviy ilmiy natijalarni amaliyotga joriy qilish bo'yicha izlanishlar hali ham dolzarbdir.

Tadqiqotning tashkil qilinishi.

Yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligini rivojlantirish metodlarini tahlil qilish bosqichida avvalo umumiy chidamlilik tushunchasi, uning yosh yengil atletikachilar rivojiga ta'siri va ahamiyati nazariy jihatdan o'rganildi. Milliy va xalqaro adabiyotlar, sport fanlari bo'yicha ilmiy maqolalar, metodik qo'llanmalar tahlil qilindi. Shuningdek, an'anaviy usullar – yugurish, tsiklik mashqlar, interval mashqlar va boshqa chidamlilikni oshirish metodlari sport amaliyotidagi samaradorlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Ushbu tahlil asosida mavjud metodlarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, ularni takomillashtirish uchun imkoniyatlar belgilandi.

Tahlil qilingan metodlar yosh yengil atletikachilarga amaliy tarzda qo'llanilib, ularning umumiy chidamlilik ko'rsatkichlariga ta'siri kuzatildi. Eksperimental ishlar doirasida ikki guruh sportchilar tashkil qilindi: biri an'anaviy metodlar bo'yicha mashg'ulot olib bordi, ikkinchisi esa yangi taklif etilgan yondashuvlar asosida shug'ullandi. Mashg'ulotlar avvalida va yakunida

chidamlilik testlari ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida an'anaviy metodlarning samaradorligi ilmiy asosda baholandi.

Olingan tahlil va baholash natijalaridan kelib chiqib, yosh atletikachilarning umumiy chidamliligini oshirish uchun yangi, takomillashtirilgan uslubiyat ishlab chiqildi. Ushbu metodika tsiklik va interval mashqlarni optimal tarzda birlashtirish, mashg'ulot intensivligini shaxsiy xususiyatlarga moslashtirish, jismoniy tayyorgarlikni bosqichma-bosqich oshirishni o'z ichiga oldi. Amaliy tadqiqotlarda ushbu uslubiyat asosida tayyorlangan guruhning chidamlilik ko'rsatkichlari an'anaviy metodlar bilan shug'ullangan guruhga nisbatan yaxshiligi ilmiy va statistik jihatdan tasdiqlandi.

Yaratilgan takomillashtirilgan metodikani sport mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar mashg'ulotlar rejasini tuzishda, yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirishda, individual yondashuvni amalga oshirishda yordam beradi. Shuningdek, murabbiylar va trenerlar uchun metodik qo'llanma tayyorlandi, unda yangi metodikaning asosiy printsiplari, mashg'ulotlar namunalari va bajarilish texnikasi batafsil ko'rsatildi. Bu tavsiyalar yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosalar. Tadqiqot davomida yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamliligini rivojlantirish bo'yicha mavjud an'anaviy metodlar batafsil tahlil qilindi va ularning kuchli hamda zaif tomonlari aniqlab olindi. An'anaviy metodlar samarali bo'lsa-da, ularning ayrim jihatlari yosh sportchilarning individual xususiyatlari va zamonaviy talablar nuqtai nazaridan takomillashtirilishi zarurligi ko'rsatildi.

Eksperimental tadqiqotlarni natijasida an'anaviy metodlar bilan taqqoslaganda, takomillashtirilgan uslubiyat yosh yengil atletikachilarning umumiy chidamlilik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashga imkon bergani aniqlanildi. Bu metodika mashg'ulotlarning intensivligi va hajmini individual xususiyatlarga moslashtirish, turli shakldagi chidamlilik mashqlarini uyg'unlashtirishga asoslangan.

Taklif etilgan metodika yosh yengil atletikachilarni tayyorlash jarayonida chidamlilikni samarali rivojlantirishga yordam berishi, ularning sport natijalarini oshirish va jarohatlardan himoyalaniish imkonini yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkin bo'lib, murabbiylar va trenerlar uchun samarali metodik vosita sifatida xizmat qiladi.

Kelgusida takomillashtirilgan uslubiyatni yanada takomillashtirish va turli yosh hamda sport yo'nalishlarida qo'llash samaradorligini o'rganish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish: O'quv qo'llanma. Toshkent, 2005. - 176 b.

Abdullayev M.J., Olimov M.S., To'xtaboyev N.T. Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 628 bet.

Abduraxmonov X.X. Yosh yengil atletikachilarning chidamliligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Aprel, 2024. 615-622 b.

Axmedov J. O. Yengil atletikachilarning asosiy sifatlarini rivojlantirish va tarbiyalash. // Research Focus. 2023. №1. P. 298-302.

Qudratov R.. Yengil atletika. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi; O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti. - Toshkent: Noshir, 2012. 368 b.

---

## **BO'LAJAK TARBIYACHILARDA TARBIYALANUVCHILARNI BILISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH**

*Bakhromova Fayoza Oybek qizi  
Osiyo Texnologiyalari Universiteti magistranti.*

---

*Razzoqov Davron Niyozovich  
OTU "Pedagogika" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi – ilmiy rahbari.*

---

*Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada bo'lajak tarbiyachilar faoliyatida tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish masalasi pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Bilish faoliyati bolaning aqliy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi, atrof-muhitni anglashga qaratilgan qiziqishi va intellektual ehtiyojlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, bilish faoliyatini rivojlantirishda uchrayotgan amaliy va metodik muammolar tahlil qilinadi, ularni yuzaga keltiruvchi omillar – malakali mutaxassislar tanqisligi, ta'limda innovatsion texnologiyalarning yetarli qo'llanmasligi, metodik qo'llanmalar yetishmovchiligi singari holatlar ochib beriladi. Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi ilg'or ta'lim tizimlari tajribasi bilan O'zbekiston tajribasi taqqoslab tahlil qilinadi. Xulosa qismida tarbiyachilar tayyorlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

*Kalit so'zlar: bilish faoliyati, bo'lajak tarbiyachi, maktabgacha ta'lim, pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, taqqosloviy tahlil, kasbiy tayyorgarlik.*

## **ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОСПИТАННИКОВ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

*Бахромова Ф.О.  
магистрант Азиатского технологического университета.*

---

*Раззаков Даврон Ниёзович  
доцент кафедры «Педагогика» ОТУ, кандидат педагогических наук - научный  
руководитель.*

---

*Аннотация: в данной научной статье рассмотрена проблема формирования познавательной активности воспитанников в деятельности будущих воспитателей как педагогическая задача. Познавательная активность способствует интеллектуальному развитию детей, формированию навыков самостоятельного мышления и интереса к окружающему миру. В работе анализируются существующие проблемы и причины, мешающие эффективному формированию познавательной активности: недостаточная методическая база, нехватка квалифицированных специалистов, ограниченное применение инновационных технологий. Также проводится сравнительный анализ опыта таких стран, как Финляндия, Япония и Южная Корея, с практикой в Узбекистане. В заключении даются предложения по совершенствованию системы подготовки воспитателей: внедрение современных подходов в обучение, интеграция теории с практикой, организация стажировок и мастер-классов. Результаты исследования направлены на повышение качества дошкольного образования и усиление профессиональной подготовки педагогов.*

*Ключевые слова: познавательная активность, будущий воспитатель, дошкольное образование, педагогические технологии, инновации, сравнительный анализ, профессиональная подготовка.*

## THE PEDAGOGICAL PROBLEM OF FORMING COGNITIVE ACTIVITY IN CHILDREN BY FUTURE EDUCATORS

*Bakhromova F.O.*

*master's student at the Asian Technological University*

*Razzakov Davron Niyozovich*

*associate professor of the department «Pedagogy» OTU, candidate of pedagogical sciences  
- scientific supervisor*

*Annotation: this scientific article examines the formation of cognitive activity in preschool children as a pedagogical issue in the professional activities of future educators. Cognitive activity contributes to children's intellectual development, independent thinking, and interest in the surrounding environment. The article analyzes current challenges and factors hindering the development of cognitive processes, such as insufficient methodological support, shortage of qualified professionals, and limited use of innovative technologies. A comparative analysis is conducted between practices in Uzbekistan and advanced educational systems in countries such as Finland, Japan, and South Korea. In conclusion, the article provides recommendations for improving the training system of future educators, including the integration of theory with practice, the implementation of modern approaches, and the enhancement of practical training. The study results aim to improve the quality of preschool education and professional competence of future teachers.*

*Keywords: cognitive activity, future educator, preschool education, pedagogical innovation, methodology, comparative analysis, professional development.*

Kirish (Introduction). Bugungi globallashuv va innovatsion texnologiyalar davrida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bilish faoliyati kuchli, ijodkor, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishdir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi bu yo'nalishda asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Shuning uchun, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda ularning kasbiy shakllanishida bilish faoliyatini shakllantirish muhim pedagogik muammo sifatida qaralmoqda [25; 45]. Bo'lajak tarbiyachilarda tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish – ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Tarbiyachilar nafaqat bolalarning bilim olishida, balki ularning dunyoqarashini shakllantirishda ham katta rol o'ynaydi. Bu jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish, bolalar bilan samarali ishlash uchun pedagoglarga bilim, ko'nikma va malaka yetarli bo'lishi kerak.

Bilish faoliyati – bu shaxsning o'z tajribasini kengaytirish, yangi bilimlarni egallash hamda muammolarni hal qilish jarayonidir. Maktabgacha ta'limda tarbiyachilarning ushbu faoliyatni shakllantirishdagi o'rni nihoyatda katta, chunki aynan ushbu yoshda bolalar dunyoqarashini shakllantirish, ularni turli faoliyatlar orqali rivojlantirishning asosiy poydevori yaratiladi.

Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularni pedagogik masalalarda o'ylashga o'rgatish, mustaqil fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati katta. Shu bilan birga, hozirgi kunda ta'lim tizimida mavjud bo'lgan ayrim muammolarni hal etish uchun yangi yondashuvlar va metodikalarni joriy etish zarur.

Maqolaning maqsadi – bo'lajak tarbiyachilarda bilish faoliyatini shakllantirishning pedagogik ahamiyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash, O'zbekiston va xorijdagi ilg'or tajribalar bilan taqqoslash hamda tarbiyachilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faoliyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, pedagogik sharoitlar, va bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Metodologiya (Methods). Maqolada quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi: nazariy tahlil (pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili), taqqoslash, umumlashtirish, kuzatuv va tajriba-metodik ishlanmalarni o'rganish. Maqola tayyorlashda 25 ta ilmiy manba o'rganildi va tahlil qilindi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda olib borilgan kuzatuvlar asosida amaliy mulohazalar keltirildi.

Maqolada ko'rib chiqilgan muammo bo'lajak tarbiyachilarda bilish faoliyatini shakllantirish pedagogik masalasi bo'lib, uning tahlili uchun bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanilgan. Tadqiqotda tizimli, taqqoslovij va tahlilij yondashuvlar asosida bilimlar to'plandi va tahlil qilindi. Maqsadli izlanishlar orqali bo'lajak tarbiyachilarning faoliyatida bilish jarayonining ahamiyati, mavjud muammolar va ilg'or tajribalar o'rganildi. Quyidagi metodlar ishlatildi:

Tahlilij-metodologik yondashuv. Bu yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilar faoliyatida bilish jarayonining ahamiyatini tushunish va uni shakllantirishdagi muhim omillar tahlil qilindi. Tahlilij metod orqali tarbiyachilarning faoliyatidagi mavjud muammolar va ularning sabablarini aniqlashga harakat qilindi.

Taqqoslovij yondashuv. O'zbekistondagi va xorijdagi ilg'or tajribalar o'rganilib, ularning farqlari va umumij jihatlarini tahlil qilindi. Taqqoslash usulij orqali har ikki hududda tarbiyachilarni tayyorlashdagi metodlar va ularning samaradorligij ko'rib chiqildi.

Empirik metod. Bo'lajak tarbiyachilarning faoliyatiga oid amaliij kuzatishlar o'tkazildi. Bunda pedagogik amaliyotda tarbiyachilarning bilish faoliyatini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimij aniqlanib, tajribalar orqali olingan natijalar tahlil qilindi.

Sotsiologik tadqiqot usullari. Tarbiyachilarni tayyorlash tizimida o'qituvchilar, pedagoglar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar bilan intervjular o'tkazildi. Sotsiologik so'rovlar yordamida tarbiyachilarni tayyorlash tizimidagi muammolar va takliflar to'plandi.

Ushbu tadqiqotda bo'lajak tarbiyachilarning kasbij tayyorgarligida tarbiyalanuvchilarni bilish faoliyatini shakllantirishga oid pedagogik muammolarni aniqlash, ularning sabablari va yechimlarini ishlab chiqish maqsad qilindi. Shu boisdan, tadqiqotda taqqoslovij-tahlilij, diagnostik, empirik va nazariij metodlardan kompleks foydalanildi.

1. Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ekti — pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan bo'lajak tarbiyachilardir.

Tadqiqot predmeti — bo'lajak tarbiyachilar faoliyatida tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini shakllantirishning mazmuni, vositalari va samaradorligini oshirish texnologiyalaridir.

2. Tadqiqot usullari. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariij tahlil — mavjud ilmiij-nazariij manbalar, davlat dasturlari va xorijij tajribalarni o'rganish orqali mavzuga doir konsepsiyalar shakllantirildi;

So'rovnoma va suhbatlar — pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 4-bosqich talabalari va amaliyotdagi tarbiyachilar orasida o'tkazildi (N=60);

Kuzatuv — maktabgacha ta'lim muassasalarida dars jarayonlarini tahlil qilish va pedagogik yondashuvlar samaradorligini baholash uchun;

Eksperimental ishlar — 2 ta maktabgacha ta'lim muassasasida bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan interfaol usullar sinovdan o'tkazildi;

Taqqoslovij tahlil — O'zbekiston va xorijdagi ilg'or tajribalar (Finlandiya, Yaponiya, Janubij Koreya) o'rganilib, farqlar va umumij jihatlar aniqlashtirildi.

3. Tadqiqot bazasi. Tadqiqot ishlari Qashqadaryo viloyatidagi 2 ta maktabgacha ta'lim muassasasi (67- va 89-sonli MTTlar) hamda Osiyo texnologiyalar universitetining Pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabalari ishtirokida olib borildi.

4. Tadqiqotning nazariij-metodologik asoslari

Tadqiqot V.V.Davidov, L.S.Vigotskiy, Z.I.Kalmykova, O'zbekistonlik pedagog olimlar A.Azizxo'jayev, S.Sharipov va D.Razzokovning didaktik tamoyillari hamda konstruktivizm, faoliyatga asoslangan yondashuv nazariyalari asosida olib borildi [10; 12–20].

## 5. Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari.

Yig'ilgan ma'lumotlar sifat va miqdoriy (statistik) jihatdan SPSS dasturi asosida tahlil qilindi. So'rovnomalar natijalari diagramma va jadval shaklida ko'rsatildi. Eksperiment samaradorligi diagnostik baholash mezonlari asosida aniqlandi.

Adabiyotlarni tahlil qilish. Tadqiqotning asosiy manbalaridan biri sifatida O'zbekiston va xorijdagi ilmiy maqolalar, pedagogik kitoblar va jurnallar tahlil qilindi. Adabiyotlarni o'rganish jarayonida ilg'or tajribalar, nazariy tushunchalar va metodikalar o'rganildi.

Adabiyotlar tahlilidan iqtiboslar va tahlillar:

Bahromova D. "Bilish faoliyatini shakllantirishda interfaol metodlar", Samarqand: "Ilm ziyo", 2021. – 156 b. "Bilish faoliyatining faollashuvi o'z-o'zini anglash va mustaqil fikrlashga undaydi. Interfaol metodlar orqali bolaning faolligi ortadi, u savol beradi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi" [4; 38].

Tahlil: Muallif ta'kidlaganidek, interfaol metodlar — ayniqsa "aqliy hujum", "fikrlar kartasi", "muvaffaqiyat daraxti" kabi uslublar bilish jarayonlarini faollashtirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu texnologiyalarni bo'lajak tarbiyachilar o'zlashtirsa, ular bolalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali harakat qilishi mumkin.

G'ulomov X., Xasanboyeva S. "Tarbiyaviy texnologiyalar", Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 180 b. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish qobiliyati tasavvur va sezgilar orqali shakllanadi. Tarbiyachining har bir harakati, ifodasi va tanlagan vositasi bu jarayonga ta'sir ko'rsatadi" [5; 64].

Tahlil: Ushbu g'oyaga ko'ra, har bir pedagogik texnologiya nafaqat o'quv materialini yetkazish vositasi, balki bola tafakkurini yo'naltiruvchi omildir. Shu jihatdan, pedagogni tayyorlashda faqat bilim emas, balki metodik intuitsiya ham zarur.

Yusupova M. "Tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligi: zamonaviy talqin", Farg'ona: FDU, 2023. – 166 b. "Kasbiy tayyorgarlikning markazida — shaxsiy motivatsiya, muomala madaniyati va didaktik qurollanish turadi" [18; 79].

Tahlil: Yusupova o'z tadqiqotida tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi nafaqat nazariy bilim, balki kommunikativ va psixologik tayyorgarlikni ham talab qilishini ta'kidlaydi. Bu esa bog'chadagi har bir bilish faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Zakirova S. "Ilg'or tajribalar asosida bilish faoliyatini rivojlantirish", Andijon: "Ilm makoni", 2021. – 190 b. "Finlandiya, Janubiy Koreya tajribasida tarbiyachilarni qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali bolalar psixologiyasi chuqur o'rganiladi va har bir bola uchun individual yondashuv ishlab chiqiladi [19; 38].

Tahlil: Ushbu fikrdan kelib chiqib, O'zbekistonda ham individual yondashuvga asoslangan metodik dasturlarni yaratish zarur. Bu esa bilish faoliyatini har bir tarbiyalanuvchi ehtiyojiga mos ravishda shakllantirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida bo'lajak tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilar bilish faoliyatini shakllantirishga oid tayyorgarlik darajasi, mavjud muammolar va ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Quyida olib borilgan tahlillar va natijalar yoritiladi:

1. So'rovnoma natijalari tahlili. Osiyo texnologiyalar universiteti Pedagogika fakulteti 3-bosqichining 60 nafar talabasi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada quyidagi savollar berildi:

«Bilish faoliyatini shakllantirish qanday metodlar orqali amalga oshiriladi deb hisoblaysiz?»

«O'z amaliyotingizda bu faoliyatni rivojlantirish uchun qanday vositalardan foydalandingiz?»

«Sizga ushbu yo'nalishda metodik yordam yetarli deb hisoblaysizmi?»

Natijalar:

70% talaba bilish faoliyatini o'yin metodlari orqali rivojlantirish mumkinligini tan oldi.

55% talaba darslarda passiv kuzatuvchilikka asoslangan yondashuv ustunligini bildirdi.

Faqat 25% ishtirokchi innovatsion metodik vositalardan (interfaol metodlar, vizual materiallar) foydalanganini aytdi.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalarda nazariy bilimlar bo'lishiga qaramay, ularning

amaliy qo'llash ko'nikmalari past darajada.

2. Kuzatuv tahlili. Qashqadaryo viloyatidagi 2 ta maktabgacha ta'lim muassasasida (67- va 89-MTT) olib borilgan kuzatuvlarda quyidagilar aniqlandi:

Tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyati darslar davomida faqat eshitish va takrorlashga yo'naltirilgan.

Tarbiyachilar, asosan, frontal usullardan foydalanib, individual yondashuvga kam ahamiyat berishmoqda.

Faoliyatni tashkil etishda savol-javob, test, guruhli ishlarga yetarlicha e'tibor berilmagan.

3. Eksperiment natijalari. Eksperiment ikki bosqichda olib borildi:

Boshlang'ich holat diagnostikasi: tarbiyalanuvchilarning bilish faolligi darajasi, qiziqish ko'rsatkichlari va faol ishtiroki kuzatildi.

Innovatsion metodlar joriy etilgandan so'ng: 1 oy davomida interfaol o'yinlar, rolli mashg'ulotlar va muammoli topshiriqlar asosida mashg'ulotlar tashkil etildi.

Natijalar (80 nafar tarbiyalanuvchi asosida): Bilish faolligi 48% dan 77% gacha oshdi.

Savollarga javob berish ko'rsatkichlari 36% dan 68% gacha yaxshilandi.

Mustaqil fikrlash va fikr bildirish ko'nikmalari 2 baravarga oshdi.

Bu eksperiment shuni ko'rsatadiki, interfaol yondashuvlar tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini kuchaytiradi va tarbiyachilarning pedagogik samaradorligini oshiradi.

4. Adabiyotlar tahlili bilan taqqoslash. Ilmiy manbalarda ham ushbu muammo keng yoritilgan. Masalan, D.Rasulov o'z asarlarida bilish faoliyati o'quvchi faolligini oshirishda asosiy mezon ekanligini ta'kidlaydi [14; 92–110]. V. Davidov esa bu faoliyatni bolaning rivojlanish manbai deb baholaydi. Xorijiy tadqiqotchilar (Maslenkova, 2019; Mayer, 2021) esa konstruktivistik yondashuvlar orqali bilish jarayonini o'yin orqali faollashtirish tarafdoridir.

5. Umumiy natijalar:

Bo'lajak tarbiyachilar bilish faoliyatining nazariy asoslarini bilishadi, ammo amaliyotda qo'llashda qiynaladilar.

Bilish faoliyatini shakllantirishda asosiy muammolar — metodik savodsizlik, yetarli amaliy vositalarning yo'qligi, shuningdek, o'qituvchilarning passiv pozitsiyasidir.

Eksperimentlar orqali aniqlanganki, interfaol va muammoli yondashuvlar samaradorlikni ancha oshiradi.

Natijalar (Results). Bo'lajak tarbiyachilarda tarbiyalanuvchilarni bilish faoliyatini shakllantirishdagi muammolar va mavjud tendentsiyalarni tahlil qilish jarayonida bir nechta muhim natijalarga erishildi.

Bo'lajak tarbiyachilarning bilim faoliyatining shakllantirilishidagi muammolar

Bo'lajak tarbiyachilarning bilim faoliyatini shakllantirishda bir qator muammolar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Pedagogik metodlarning yetishmasligi: O'zbekistonda ko'plab ta'lim muassasalarida pedagogik metodlar va usullar zamon talablariga javob bermaydi. Bu, o'z navbatida, tarbiyachilarning bilim olish va ta'lim berish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatish va bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yetarli emas.

Ta'lim tizimidagi asosiy yondashuvlarning zamonaviylashtirilmaganligi: Bugungi kunda pedagogik tizimda bilimlarni mustahkamlash, bilish faoliyatini shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar yetarlicha joriy qilinmagan. O'zbekistonda ko'plab o'quv dasturlari va metodikalar an'anaviy yondashuvlarga asoslangan, bu esa tarbiyachilarning zamonaviy pedagogik texnikalar va metodlarni egallashda qiyinchiliklarga olib keladi.

Malaka oshirish tizimining yetishmasligi: O'zbekistonning ayrim hududlarida tarbiyachilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi samarali ishlamaydi. Bu holat, ayniqsa, o'qituvchilarning pedagogik malakalarini yangilashda o'zgarishlarning sekinlashishiga sabab bo'ladi.

O'zbekistondagi va xorijdagi ilg'or tajribalar. Ilg'or tajribalar va tajriba almashish orqali ba'zi muammolarni hal etish mumkin. O'zbekiston va xorijdagi pedagogik tizimlarni taqqoslashda

quyidagi ijobiy tajribalar o'rganildi:

Xorij tajribasi (Yaponiya, Finlyandiya): Yaponiyada va Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimi innovatsion yondashuvlarga asoslanadi. Bu mamlakatlarda tarbiyachilarning bilim faoliyatini shakllantirish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, o'yin va amaliy mashg'ulotlar qo'llaniladi. Ularning pedagogik tizimida tarbiyachilarga bilimlarni mustahkamlash uchun zamonaviy metodikalar, interfaol yondashuvlar va ko'p tarmoqli o'quv usullari joriy qilingan. Ushbu tajriba O'zbekistonda ham qo'llanilishi mumkin.

Innovatsion metodika: Ba'zi xorijiy mamlakatlarda pedagogik jarayonni interfaol va innovatsion metodlar yordamida o'rganish amaliyoti keng tarqalgan. Masalan, bolalar uchun ko'plab tajriba mashg'ulotlari, multimedia vositalari, onlayn o'qish tizimlari va integratsiyalashgan yondashuvlar qo'llaniladi. Ushbu yondashuvlar bolalar bilimni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Tarbiyachilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar.

Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir bir qator takliflar berildi:

Pedagogik metodlarni yangilash: O'zbekistonda pedagogik metodlarni zamon talablariga moslashtirish zarur. Bu uchun zamonaviy, amaliyotga asoslangan metodlarni ishlab chiqish va ta'lim jarayonida qo'llash kerak. O'qituvchilarni innovatsion metodlar, o'yin texnologiyalari va multimedia vositalari orqali bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish lozim.

Tarbiyachilarni malaka oshirish tizimini takomillashtirish: Tarbiyachilarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari bilan ta'minlash zarur. Bu, ayniqsa, o'qituvchilarning pedagogik bilimlarini zamon bilan yangilab borish, yangi bilimlar va ko'nikmalarni egallashga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash: Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish, onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish, interfaol darslarni o'tkazish o'qituvchilarning pedagogik malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, shuningdek, bolalarning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi.

Tartib va takliflar (Discussion and Suggestions). Bo'lajak tarbiyachilarda bilish faoliyatini shakllantirish masalasi pedagogik tizimda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari asosida o'qituvchilarning ta'lim jarayonida faoliyatini shakllantirishda yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularni hal etish bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqildi. Quyidagi takliflar va tavsiyalar bo'lajak tarbiyachilarning bilim faoliyatini shakllantirish jarayonini samarali amalga oshirishga yordam beradi:

1. Pedagogik metodlarni yangilash va diversifikatsiya qilish. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik metodlarning yangilanishi va diversifikatsiya qilinishi zarur. An'anaviy o'qitish usullari orasida interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, va yaratish faoliyati asosidagi o'qitishning samarali natijalar keltirishi mumkin. Bu o'qitish usullari bolalar bilimni yanada mustahkamlash, ularning bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Masalan:

Interfaol metodlar: O'quv jarayonida interfaol metodlarni joriy etish orqali bolalar bilimni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Bu metodlar yordamida o'quvchilar o'zaro muloqotda bo'lib, muammolarni yechishda faol ishtirok etadilar.

O'yin texnologiyalarini qo'llash: O'yin texnologiyalari bolalar uchun samarali o'qitish vositasi hisoblanadi. Turli o'yinlar orqali bolalar yangi bilimlarni o'rganish, va ularni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Ta'limni individual yondashuv orqali o'tkazish, har bir bolaga uning o'ziga xos xususiyatlariga qarab ta'lim berishni tashkil etish kerak. Bu esa o'z navbatida har bir tarbiyalanuvchining bilim faoliyatini faollashtiradi.

2. Tarbiyachilarni malaka oshirish tizimini takomillashtirish. Tarbiyachilarni malaka oshirish tizimi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda malaka oshirish tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun quyidagi takliflar kiritildi:

Davomiy malaka oshirish kurslari: Tarbiyachilarni muntazam ravishda malaka oshirish

kurslaridan o'tkazish zarur. Ushbu kurslar orqali yangi pedagogik metodlar va yondashuvlar o'rgatilib, o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini yangilashga yordam beradi.

Xalqaro tajriba almashinuvi: Xorijiy pedagoglar va o'qituvchilar bilan tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish, turli xalqaro konferensiyalar va seminarlar o'tkazish samarali bo'ladi. Bu esa pedagogik yondashuvlarni yangilash va takomillashtirishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarni o'rganish: Malaka oshirish kurslarida innovatsion texnologiyalar, onlayn ta'lim platformalari, va multimedia vositalaridan foydalanish usullari o'rgatilishi zarur. Bu tarbiyachilarga pedagogik faoliyatini zamonaviy talablarga mos ravishda olib borishga yordam beradi.

3. O'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash. Bo'lajak tarbiyachilarning ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'lim jarayonida quyidagi texnologiyalarni joriy etish zarur:

Onlayn ta'lim platformalari: O'zbekistondagi o'qituvchilar va tarbiyachilarni onlayn ta'lim platformalariga jalb qilish, internet orqali ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish. Bu esa pedagoglar va tarbiyachilarga ko'proq resurslarga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Multimedia vositalari: Darslarni multimedia vositalari yordamida o'tkazish, ya'ni videolar, interfaol dasturlar, va kompyuter simulyatsiyalari orqali bilimlarni mustahkamlash. Bu usul bolalarning qiziqishini oshiradi va ularning bilim faoliyatini faol qilishga yordam beradi.

4. Tarbiyachilarni tayyorlash tizimiga integratsiya va kooperatsiya. Tarbiyachilarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus ta'lim muassasalari va amaliyotchi pedagoglar o'rtasida integratsiya va kooperatsiya muhim ahamiyatga ega. Bu quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Amaliyot o'tkazish tizimini yaxshilash: Tarbiyachilarning amaliyotini samarali tashkil etish, ularni real pedagogik sharoitlarda bilim va ko'nikmalarini sinashga imkon berish. Bu jarayonning samarali tashkil etilishi, o'quvchilarga real hayotga tayyorlashda yordam beradi.

Pedagogik tajriba almashinuvi: Turli o'quv muassasalaridagi pedagoglar va tarbiyachilar o'rtasida tajriba almashish va bilimlar bilan bo'lishish jarayonlarini tizimli ravishda tashkil qilish. Bu orqali umumiy yondashuvlar va tajribalar yordamida o'qitish sifatini oshirish mumkin.

Natijalar (Results).

1. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shakllanishida bilish faoliyatining pedagogik asoslari

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shakllanishida bilish faoliyati tarbiyalanuvchilarning fikrlash jarayonini to'g'ri boshqarishda asosiy omil hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarning kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, o'z fikrini bayon etish kabi faoliyat turlarini rivojlantirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak [20; 31].

Ushbu jarayonda konstruktiv pedagogika, faoliyatga asoslangan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy pedagogik qarashlardan foydalanish zarur [6; 27]. Tarbiyachi nafaqat ta'lim beruvchi, balki bolaga bilim olishda yo'l ko'rsatuvchi subyektga aylanishi lozim.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faoliyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari

Bilish faoliyatining shakllanishi bolalarning yoshiga mos o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar, eksperimentlar orqali amalga oshiriladi. Bilish jarayonlari – idrok, xotira, tafakkur, diqqat, tasavvur – har bir bolada har xil darajada shakllanadi va bu tarbiyachining metodik yondashuviga bog'liq [7;40].

Psixologik-pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

rivojlantiruvchi muhit (didaktik vositalar, o'yinchoqlar, vizual materiallar);

tarbiyachining emotsional yondashuvi;

bolalar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish [21; 51].

Tajribalar ko'rsatadiki, vizual o'yinli mashg'ulotlar orqali bolaning qiziqishi va faol ishtiroki kuchayadi, bu esa bilish faoliyatining jadallashuviga olib keladi [22; 37].

3. Tarbiyachilar tayyorlov jarayonida bilish faoliyatini shakllantirish texnologiyalari.

Tarbiyachilarni tayyorlashda ularni nazariy bilimlar bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar orqali bilish faoliyatini tashkil etish texnologiyalariga o‘rgatish muhimdir. Bu texnologiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Muammo asosida o‘qitish (problem-based learning);

Ko‘rgazmali va interfaol metodlar;

O‘yinli texnologiyalar (didaktik o‘yinlar);

Portfolio asosida baholash [23; 28].

Innovatsion texnologiyalar, masalan, STEAM, Montessori yondashuvlari, bolalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish orqali bilish faoliyatini rivojlantiradi [24; 33].

Muhokama (Discussion). Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachi kasbiga tayyorlanayotgan talabalar uchun bilish faoliyatini samarali shakllantirish bu faqat nazariy bilimlar emas, balki pedagogik metodikani amalda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonining har bir bosqichida mustaqil o‘ylovchi, faol, kuzatuvchan, izlanishga qodir shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladigan metodik yondashuvlar ustuvorlikka ega bo‘lishi [8; 29].

Ushbu muammo nafaqat tarbiyachilarni tayyorlovchi OTMLarda, balki maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyatida ham izchil hal qilinishi kerak.

Xulosa (Conclusion). Tarbiyachilarda bilish faoliyatini shakllantirish ularning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishi esa tarbiyachining pedagogik tayyorgarligi va yondashuviga bevosita bog‘liq. Shuning uchun, tarbiyachilar tayyorlov tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur egallash, amaliyotda qo‘llay olish, har bir bola shaxsiga moslashtirilgan metodikani ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Maqolada ko‘rib chiqilgan muammo bo‘lajak tarbiyachilarda bilish faoliyatini shakllantirish pedagogik muammosi sifatida, ta’lim tizimidagi mavjud muammolar va ilg‘or tajribalar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha bo‘lajak tarbiyachilarda bilim faoliyatini shakllantirishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun zamonaviy pedagogik metodlar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, tarbiyachilarni malaka oshirish tizimini takomillashtirish, hamda xorijiy tajribalarni o‘rganish va qo‘llash zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, kelajakda o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi doimiy ravishda yangilanib, zamonaviy pedagogik talablar va metodlar asosida takomillashgan ta’lim dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Bu orqali ta’lim tizimi sifatini oshirish va bo‘lajak tarbiyachilarning bilim faoliyatini muvaffaqiyatli shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qaroriga 1-ilova.

Abdullayeva M. “Pedagogik texnologiyalar va ta’limda innovatsiyalar”, Toshkent: “Fan”, 2020. – 210 b.

Axmedov A. “Pedagogika asoslari”, Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019. – 198 b.

Bahromova D. “Bilish faoliyatini shakllantirishda interfaol metodlar”, Samarqand: “Ilm ziyo”, 2021. – 156 b.

G‘ulomov X., Xasanboyeva S. “Tarbiyaviy texnologiyalar”, Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 180 b.

Karimova N. «Maktabgacha ta’lim metodikasi». Toshkent: Fan nashriyoti, 2019. – 132 b.

Vahobova T. «Maktabgacha ta’lim psixologiyasi». Qarshi, 2022. – 105 b.

Matmurodova G. «Pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish». Samarqand: Registon, 2021. – 128 b.

Xasanov T. “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi”, Buxoro: “BuxDU”, 2019. – 142 b.

J. Dewey. “Demokratiya va ta’lim”, Nyu-York: Macmillan, 1916. – 434 p.

1. Intervalli yugurishlar. Intervalli yugurishlar – bu yuqori intensivlikdagi yugurish va qisqa dam olish oralig'idagi mashqlar ketma-ketligi bo'lib, sportchilarning tezlik va bardoshlik sifatlarini birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu usul yurak urish tezligini oshiradi, mushaklarning kislorodga bo'lgan talabini oshiradi va anaerob imkoniyatlarni kuchaytiradi. Ayniqsa, 12–15 yoshli sportchilar uchun bu usul organizmning chidamlilik zaxiralarini kengaytiradi.

2. Skakalka bilan ishlash. Arqon (skakalka) bilan sakrash mashqlari yurak-qon tomir tizimini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bu usul umumiy jismoniy holatni yaxshilaydi, mushaklarni faollashtiradi, koordinatsiyani rivojlantiradi va ritmni his qilishni mustahkamlaydi. Ayniqsa, yosh sportchilar uchun oddiy, ammo samarali aerob mashq sifatida qo'llaniladi.

3. Nafas olish mashqlari. Nafas olishga qaratilgan mashqlar sportchilar organizmini bardoshlikni oshirish va faol tiklanishni tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu mashqlar nafas olish mushaklarini kuchaytiradi, kislorod almashinuvini yaxshilaydi va mashg'ulotlardan keyingi tiklanish davrini tezlashtiradi. Nafasni boshqarish sportchilarni psixologik jihatdan xotirjam qilishga ham yordam beradi.

4. Texnik to'g'rilash mashqlari. Harakatlarni aniq va to'g'ri bajarishga o'rgatish uchun vizual (ko'rsatma berish, namuna ko'rsatish) va taktil (tanaga teginish orqali tuzatish) usullar keng qo'llaniladi. Bu mashqlar sportchilarga harakat koordinatsiyasini oshirish, noto'g'ri shakllangan texnikani tuzatish va tananing to'g'ri holatini saqlashga o'rgatadi. Ayniqsa, yangi boshlayotgan sportchilar uchun bu juda muhim.

Xulosa. Yosh sportchilarni yengil atletikaga tayyorlashda individual yondashuv va differensiallashtirilgan mashg'ulot metodlarini joriy etish yuqori samara beradi. Ushbu tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki: jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish natijalarni yaxshilaydi; mashg'ulotlarning muntazamligi va maqsadga yo'naltirilganligi muhim; nazorat va tahlil jarayoni mashg'ulot samaradorligini oshiradi.

Бир қатор тавсиялар ишлаб чиқишга ҳаракат қилинди: Individual mashg'ulot rejalarini maktab va sport maktablarining real shart-sharoitidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish;

mashg'ulot jarayonida diagnostika va monitoring usullarini muntazam ravishda joriy etish, jumladan, dastlabki va yakunlovchi testlar o'tkazish; interaktiv, o'yinli va qiziqarli mashg'ulotlar orqali bolalarda sportga nisbatan ijobiy munosabat va motivatsiyani shakllantirish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

Axmedov, A., & Xolboyev, M. (2021). Sport mashg'ulotlarini tashkil etish va rejalashtirish metodikasi. Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" nashriyoti.

Rasulov, B. A. (2020). Yosh sportchilarni tayyorlashda yondashuvlar. Buxoro: "Ilm ziyo" nashriyoti.

Norqulov, A. T., & Tursunov, S. R. (2022). Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi. Pedagogik mahorat jurnali, 1(4), 58–64.

Platonov, V. N. (2019). Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Moskva: Fizkultura i sport.

Matyushin, G. I. (2018). Dvigatel'nye sposobnosti: teoriya i metodika razvitiya. Sankt-Peterburg: Piter.

Usmonxo'jayev, I. I., & Axmedova, D. R. (2023). Bolalarda motor qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari. Jismoniy tarbiya va sport (ilmiy-uslubiy jurnal), 2(1), 12–20.

Bompa, T. O., & Carrera, M. (2021). Periodization: Theory and Methodology of Training (6th ed.). Champaign, IL: Human Kinetics.

Qurbonov, J. M. (2020). Yosh sportchilarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar. Sport ilmi, 5(3), 43–49.

Khodjaev, O. B. (2022). Sport mashg'ulotlarini nazorat qilish va baholash tizimi. Samarqand: SamDU nashriyoti.

World Athletics (2023). Coaching Guidelines for Youth Athletics. Retrieved from <https://www.worldathletics.org>

## **ELEKTROTEXNIKA FANIDAN TALABALARNING EKSPERIMENTAL KO'NIKMALARINI FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

*Eshniyozov Umid Axrolovich  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada elektrotexnika fanidan talabalarning eksperimental ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil etiladi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida talabalarning nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan mustahkamlash orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini chuqurlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Metodikada amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish, zamonaviy laboratoriya jihozlari va ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, real ishlab chiqarish muhitida o'quv jarayonini tashkil etish yo'llari yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida taklif etilgan metodika, talabalarda mustaqil tajriba o'tkazish, tahlil qilish va texnik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqola oliy ta'lim tizimida elektrotexnika fanining amaliy ahamiyatini oshirish hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy asos yaratishga qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: fan, ta'lim, ishlab chiqarish, integratsiya, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri, elektrotexnika, Multisim, pedagogika.*

## **МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ- ЭЛЕКТРОТЕХНИКОВ В УСЛОВИЯХ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА**

*Эшнӣёзов Умид Ахролович  
Чирчикский государственный педагогический университет*

*Аннотация: В данной статье рассматриваются методические подходы к формированию и развитию экспериментальных навыков студентов по дисциплине «Электротехника». Особое внимание уделено интеграции науки, образования и производства, что позволяет углубить профессиональные компетенции студентов путем укрепления теоретических знаний с практическим опытом. В методике освещаются пути повышения эффективности практических занятий, использования современных лабораторных установок и производственных технологий, а также организации учебного процесса в условиях реального производства. Предлагаемая методика способствует развитию у студентов навыков самостоятельного проведения экспериментов, анализа и решения технических задач. Статья направлена на создание научно-методической основы для повышения прикладного значения дисциплины «Электротехника» и интеграции образования с производством в системе высшего образования.*

*Ключевые слова: наука, образование, производство, интеграция, инновационный кластер педагогического образования, электротехника, Multisim, педагогика.*

## **METHODOLOGY FOR DEVELOPING EXPERIMENTAL SKILLS OF ELECTRICAL ENGINEERING STUDENTS IN THE CONDITIONS OF INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION**

*Eshniyozov Umid Axrolovich  
Chirchik State Pedagogical University*

*Abstract: This article explores methodological approaches to developing and enhancing students' experimental skills in the field of Electrical Engineering. Emphasis is placed on the*

*integration of science, education, and industry, which enables students to deepen their professional competencies by reinforcing theoretical knowledge through hands-on practice. The methodology outlines ways to improve the effectiveness of practical lessons, incorporate modern laboratory equipment and industrial technologies, and organize the learning process within real production environments. The proposed approach supports the development of students' abilities to conduct independent experiments, analyze results, and solve technical problems. The article aims to establish a scientific and methodological foundation for increasing the practical relevance of Electrical Engineering education and aligning academic training with industrial demands in higher education.*

*Keywords: science, education, production, integration, innovative cluster of pedagogical education, electrical engineering, Multisim, pedagogy.*

Mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi, ularga bo'lgan jamiyat talabi ta'limning texnik vositalari hamda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalari imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida foydalanish asosida doimiy rivojlanib bormoqda. Jumladan, STEAM (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) integratsiyasiga asoslangan o'qitish tizimiga talabalarni maqsadli tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyat barqaror rivojlanishidagi zamonaviy pedagogikaning talabalari, tizimdagi muammolar va ularni xal qilinishida fan, ta'lim va ishlab chiqarish orasidagi tarqoqlik, uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik ta'lim klasteri modeliga o'tish zarurligini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 29–apreldagi PF–5987–son farmonida [1] ta'lim klasterini yaratish soha samaradorlikni taminlavchi omil sifatida belgilangan. Ta'lim klasteri sharoitida mehnat bozori hamda ish beruvchilar talablariga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlash, kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini modernizatsiyalash, hamkorlikdagi ta'lim jarayonlarini tashkil etish bo'yicha milliy va hududiy modellarni yaratish hamda amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan tadqiq qilinishini taqozo etadi.

Har bir fanning o'ziga xosligi va hududlarning tabiiy sharoitidan kelib chiqib ta'lim klaster faoliyatining maqsadi, vazifasi, yo'nalishlari, tamoillari va subyektlari belgilanadi. Elektrotexnika fanidan ta'lim klasteri faoliyatining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat; ta'limni ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy–tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish; bo'lajak ta'lim mutaxassislarini elektrotexnik eksperimentlarni o'tkazish imkoniga ega bo'lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish hamda boshqa subyektlar bilan o'zaro tezkor qayta aloqani bog'lanish imkoniyatini keltirib o'tish mumkin.

Pedagogika oliy ta'lim muassalarida elektrotexnika fanidan eksperiment ishlarini samarali tashkil qilish va o'tkazish metodikasiga qo'yiladigan didaktik talablar quyidagilardan iborat: o'quv laboratoriyasi (ustaxonasi) ning moddiy–texnik ta'minlanganligi; mutaxassis (texnologik ta'lim va fizika astronomiya) tayyorlash yo'nalishi hisobga olinishi; eksperiment ishlarini mavzusi bo'yicha mashg'ulotga tayyorlash bilan bog'liq muhim tashkiliy–metodik ishlarni amalga oshirish lozim; eksperiment loyihasini ishlab chiqish; eksperiment ishlarini umumiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, mashg'ulotlarni o'tkazish shaklini tanlash. Zamonaviy elektrotexnika fani asbob uskunalari moddiy texnik bazasini yaratish ancha katta mablag' va maydonlarni talab etadi. Bu kabi muammolarning yechimi sifatida “Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri” pedagogikamizda innovatsion yondashuv bo'lib, o'zida nafaqat ta'lim turlari o'rtasidagi hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonini, shuningdek, ta'limni boshqarish, ta'lim sohalari va shakllari bilan bog'liq sohalarni ham jamlaydi.


Ta'lim klasteri yondashuvi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlarni ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metodologik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish, tashkillashtirish, ta'lim turlari, yo'nalishlari, uzviylik, integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalari kabi yo'nalishlarda xususiy

metadologik xarakter kasb etadi. Bu esa yuqoridagi muammoning yechimi ekanligini ko'rsatadi. Ilmiy–pedagogik o'quv adabiyotlarini tahlil qilish davomida ayon bo'ldiki, "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" yondashuvini alohida sohalar kesimida o'qitishning o'quv–metodik ta'minoti, pedagogik metodlari, o'qitish shakllari, sharoitlari, vositalarini ishlab chiqishni ta'qozo etadi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yo'nalishlari ta'lim, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo'lsa, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri tamoyillari tabiiy aloqadorlik, yo'naltirilganlik, manfaatlarning xususiyligi kabi komponentlardan tashkil topgan. Bizning tadqiqotimizdagi ta'lim klasteri subyektlari sifatida OTM, ilmiy–tadqiqot institutlari, o'quv ustaxonalari va ishlab chiqarish korxonalari belgilab olingan. Ular yagona obyekt sifatida talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirish yo'lida birlashadilar [14,15,17].

Ta'lim klasteri sharoitida elektrotexnika fanidan talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy–pedagogik aspektlari subyektlararo o'zaro ta'sirning diagnostik (elektrotexnika ta'limidagi kamchiliklar, o'quv jarayonini loyihalashtirish, talabalarni rag'batlantirish, o'quv sharoitlarini yaxshilash) funksiyalarini tajriba resurslari transformatsiyasi fan ta'lim va ishlab chiqarish jarayoniga barqaror dinamikada optimallashtirish asosida aniqlashtirildi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri muhitini amalga oshirish esa ta'lim subyektlar orasida hamkorlikni tashkil qilishga xizmat qiladi (1–rasm).



**1–rasm. Elektrotexnika fanini o'qitishda ta'lim klasterini tashkil etish mexanizmi**

Eksperimental ko'nikmalar – bu o'ziga xos tizimdan iborat bo'lib, uni aqliy va amaliy faoliyat ko'rinishlari (turlari) bo'yicha tasniflanadi. Har bir eksperimental ko'nikmani ma'lum hatti–harakatlar va jarayonlar tizimi yordamida ifodalash mumkin. Masalan, eksperimentni rejalashtirish (loyihalash) ko'nikmasi, eksperiment natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish asosan intellektual (aqliy) amallardan iborat bo'lsa, o'rganilayotgan ob'ektni tanlash, asbob uskunalarini, jihozlarni tayyorlash, tajriba o'tkazish asosan amaliy harakatlar (amallar) dan tashkil topgan. Har bir eksperimental ko'nikma amallardan, amallar esa jarayonlardan iboratdir[2-6].


Amaliyotga yo'naltirilgan har qanday eksperiment talabani mustaqil ishlashga da'vat etib, uni tajribadan olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga, fikrlashga va mushohada yuritishga o'rgatadi. Shu bois eksperimentning qo'yilishi va uni bajarish, talaba uchun nafaol kuzatish jarayoni bo'lmay, balki uni faol faoliyatga undashda samarali vosita hisoblanadi. Fan eksperimentlar (tajribalar) asosida o'qitilganda talabalarda nafaqat fanga oid bilimlari rivojlantiriladi, balki eksperimentni qo'yishdagi tashkiliy vazifalar hamda uni o'tkazish muammosi hal qilinadi. Professor–o'qituvchlar

talabalarni aniq ishlashga, boshlagan ishlarini yakuniga yetkazishga, o'lchov asboblari va o'quv jihozlari bilan to'g'ri munosabatda bo'lishga, eksperiment ishlarini bajarishga maslahatchi bo'lib, ularni eksperimentni mustaqil o'tkazishga va olingan natijalarni solishtirish, tahlil qilish hamda umumlashtirishga tayyorlaydi.

Demak, ta'limdagi innovatsion o'zgarishlar, jumladan, "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" yondashuvi asosida talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi hamda tadqiqotimizning ilmiy–nazariy asoslari sifatida belgilandi.

Ta'lim klasteri muhitida elektrotexnika fanidan ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'limni eksperimentlar asosida tashkil etishning axborot blokini tashkil etuvchi (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar, elektron o'quv qo'llanmalar) o'quv materiallari jozibadorligi, vizualligi, qulayligiga asoslangan interfaol o'quv topshiriqlarini talabalarning amaliy–akademik faoliyatida konsentrik munosabatda qo'llash asosida o'quv metodik ta'minoti takomillashtirildi (2–rasm).

**2–rasm. Talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirishni o'quv–metodik ta'minoti**



Talabalarni nazariy bilimlarni egallashi va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish orqali ularni tarbiyalash va tasavvurlarini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmini fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalarini bog'lash hamda axborotlashtirish muhitida kognitiv, konstruktivistik, sudberi, kashfiyotchi modellari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq [7-11].

Fan va texnikaning jadal rivojlanayotganligi sababli, talabalarning zamonaviy eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quv jarayonlarining mazmuni va shaklini muntazam yangilab borish, ta'lim sohasiga innovatsion jarayonlarni tadbiq etish, ta'lim sifatini baholash mezonlari va usullarini takomillashtirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini taminlashda innovatsion yechimlarni joriy etish bilan bog'liq. Bu muammolarning yechimi sifatida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri (PTIK) sharoitida, sohalar mutaxassisligidan kelib chiqqan hoda fizika astronomiya va texnologik ta'lim yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarning uchun mo'ljallangan "Ta'lim klasteri muhitida talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirish" modeli ishlab chiqildi (3–rasm).

"Ta'lim klasteri muhitida talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirish" modeli quyidagi komponentlardan tashkil topgan: Eksperiment o'tkazish faoliyatining tamoyillari (ilmiylik, tizimlilik va izchillik, didaktik), yondashuvlari (axborotli, loyihalash, konstruktiv), jarayoni (shakllari, vositalari, texnologiyalari, metodlari) o'z ichiga oladi. Eksperimental ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichlari sifatida: nazariy ko'nikmalari

(talabalarning mavzu doirasidagi nazariy bilimlari), loyihalash ko‘nikmalari (eksperimentni multisim dasturida tayyorlangan loyihasi), konstruktiv ko‘nikmalari (sxema asosida zanjirni tuzish), kreativ fikrlash ko‘nikmalari (berilgan topshiriqqa noodatiy yondashish), innovatorlik ko‘nikmalari (eksperimentga nisbatan yangicha yondashuv) belgilab olindi.


Elektrotexnika fanini o‘qitishda ta’lim klasteri muhitini fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida tashkil etishni taqozo etadi; elektrotexnika fanini o‘qitishda ta’lim (shaxsga yo‘naltirigan, rivojlantiruvchi, hamkorik faoliyati, tadqiqot) texnologiyalaridan foydalanish metodlari va vositalarini o‘z ichiga oladi; shaxsni rivojlantiruvchi komponentalaridan (eksperimentni loyihalash, konstruktiv, eksperimentatorlik) tashkil topgan; talabalarning eksperimental ko‘nikmalarini rivojlanganlik darajasini baholashda amaliy (konstruktiv) topshiriqlar, ilmiy–amaliy loyihalar, hamda kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlariga oid topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq; elektrotexnika fanidan “Multisim” dasturi yordamida ilmiy–amaliy eksperimentlarning loyihalasi yordamida zanjir elementlarining xossalari hamda fundamental qonunlarini amalda tekshirish va ko‘z bilan kuzatish imkoniga ega bo‘ladilar. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning eksperimental ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari tajribani modellashtirishning xavfsizlik, produktivlik, qiyosiylik kabi tamoyillarni fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi muhitiga differensial munosabatda singdirish asosida takomillashtirish elektrotexnika fanninig o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Biz ishlab chiqqan “Ta’lim klasteri muhitida talabalarning eksperimental ko‘nikmalarini rivojlantirish” modelda (3–rasm) ta’lim klasteri muhitini tashkil etish orqali fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi ta’minlash mumkin. Natijada, ishlab chiqarish korxonalarida talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llanilishini kuzatadi [11-14]. O‘quv ustaxonalarida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda talabalar eksperimentlarini o‘zlari bajaradilar, elektrotexnika qonuniyatlarini amalda tekshirish imkoni paydo bo‘ladi. Ilmiy tadqiqot markazlarida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar orqali, talabalarni fan sohasiga qiziqtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Elektrotexnika fanidan eksperimental ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi o‘quv materiallari jozibadorligi, vizualligi, qulayligiga asoslangan interfaol o‘quv topshiriqlarini talabalarning amaliy–akademik faoliyatida konsentrik munosabatda qo‘llash maqsadida “Yarimo‘tkazgichli to‘g‘rilagichlar” amaliy mashg‘ulot ishini ishlab chiqdik.

Elektrotexnika fanini o‘qitishda “SWOT” metodini qo‘llash orqali talabalarni mustaqil o‘rganish, fikrlash ko‘nikmalarini va kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradi. Quyida “Elektrotexnika” fanidan “Yarimo‘tkazgichli to‘g‘rilagichlar” (eksperiment loyihasini tuzish) mavzusida amaliy mashg‘ulotlarda “SWOT” metodini qo‘llash bo‘yicha namuna keltirilgan [12-14,17-19].

Bu bosqichda talabalar kichik guruhlariga bo‘linib elektrotexnik sxemani yig‘ish talab qilinadi (4–5–rasm): talabalar elektrotexnik sxemalardan kerakli natijalar va grafiklarni daftarlariga qayd qiladilar.



**3-rasm. Ta'lim klasteri muhitida talabalarining eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirish modeli**

Har bir guruh "SWOT" metodining topshirig'ini bajaradi (1–2–jadval).

1–jadval

1–guruh: SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring

To'g'ri va teskari p–n o'tishlar haqida malumot bering?	
To'g'rilagichlarning turlari? Bir fazali yarim davrli to'g'rilagichlarning vazifasi?	
Bir fazali yarim davrli to'g'rilagichlarning afzalliklari?	
Bir fazali yarim davrli to'g'rilagichlarning sxemasidagi elementlarni tavsiflab bering?	
Bir fazali yarim davrli to'g'rilagichlarning qo'llanishi nega chegaralangan?	
To'g'rilagichlarning turlari?	
Bir fazali yarim davrli to'g'rilagichlarning qo'llanilishi?	
Bu to'g'rilagichlarning boshqasidan farqi nimada?	
VAX qaysi qonuniyatga ko'ra yuz beradi?	
VAX grafigini chizing va tahlil qilib bering?	
Bir fazali yarim davrli to'g'rilagichlarning kamchiliklari?	

## 2–guruh: SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring

<p>To'g'ri va teskari p–n o'tishlar haqida ma'lumot bering?</p> <p>To'g'rilagichlarning turlari?</p> <p>To'liq davrli to'g'rilagich afzalliklari?</p> <p>To'liq davrli to'g'rilagich sxemasi vazifasi?</p> <p>To'liq davrli to'g'rilagich sxemasi elementlarni tavsiflab bering?</p>	
<p>Bir fazali to'g'rilagichning (ko'prik to'g'rilagichlarning) qo'llanishi nega chegaralangan?</p>	
<p>To'g'rilagichlarning turlari?</p> <p>To'liq davrli to'g'rilagichlarning qo'llanilishi?</p> <p>Bu to'g'rilagichlarning boshqasidan farqi nimada?</p> <p>VAX qaysi qonuniyatga ko'ra yuz beradi?</p> <p>VAX grafigini chizing va tahlil qilib bering?</p>	
<p>To'liq davrli to'g'rilagich sxemasi kamchiliklari?</p>	Активаци:

Ta'lim klasteri sharoitida elektrotexnika fanidan talabalarda eksperimental ko'nikmalarining rivojlanganligini baholashda tajriba mohiyatini anglash, olingan natijalarni zaruriy formulalarga qo'yish, jadvallarga joylash hamda uni o'tkazishdagi talabalarni motivatsiyalovchi ko'p variantli yo'naltirilgan, instruksiyalardan foydalanishni talab etadi. Shuningdek, mustaqil ish topshiriqlari va savollarga tegishli ma'lumotlar topish bo'yicha adabiyotlarning berilishi, ko'p variantli topshiriqlarning berilishi talabalar bilan qayta aloqali o'quv jarayonida o'z-o'zini baholash, refleksiv ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonini bunday tarzda moslash, uyg'unlashtirish, adaptivlashtirish PTIK ning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

“Elektrotexnika” fanidan “Yarimo'tkazgichli to'g'rilagichlar” mavzusidagi amaliy mashg'ulot “SWOT” metodi asosida olib borilganda talabalarning mustaqil fikrlashi rivojlanadi. Ma'ruza mashg'ulotida olingan nazariy bilimlari mustahkamlanadi. Amaliy mashg'ulotlarda eksperiment (loyihasi) bajarilgan ishlar orqali olingan natijalarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa talabalarning fanga va ilmiy tadqiqot ishlariga qiziqishlarini oshiradi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini, o'quv materiallari jozibadorligi, vizualligi, qulayligiga asoslangan interfaol o'quv topshiriqlarini, baholash mezonlarining takomillashishi talabalarning fanni o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik tajriba–sinov ishlari va ularni tashkil qilishning asosiy shartlari sifatida quyidagilar belgilangan: eksperimentlar yordamida ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'limni tashkil qilishni zamonaviy ta'lim metodlari va vositalaridan foydalanishning metodik tizimini joriy etish; talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik, metodik va pedagogik talablarini aniqlash; elektrotexnika fanini o'qitishda talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulotlarni o'quv jarayonida tajriba–sinovdan o'tkazish; talabalarga hamkorlikda o'qitish yondashuvi asosida ularning kreativ fikrlash, ijodiy faollik va ilmiy bilimlar egallash maqsadida ularni kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha metodik

ishlanmalarni ishlab chiqish; mazkur tadqiqot ishi jarayonida tayyorlangan o'quv va metodik qo'llanmalarni tajriba–sinovdan o'tkazish; talabalarning eksperimental ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini baholash.

Olib borilgan pedagogik tajriba–sinov ishlarini statistik tahlil qilishda  $\chi^2$  va  $F$  gipotezalar  $\chi^2$  statistika mezoniformulasi asosida tekshirildi. Bunda  $n_1$ –tajriba va  $n_2$ –nazorat guruhlaridagi talabalar soni.  $O_{1i}$  va  $O_{2i}$  lar mos ravishda nazorat va tajriba guruhlarida baholash toifalari bo'yicha olingan darajalar soni. Tadqiqot ishida erkinlik darajasi  $v = 2$  va  $i = 1, 2, 3$ , toifa raqamlari ( $s = 3$ ). Ishonchli farqlanish darajasi  $0,05$  bo'lganligi uchun Pirson mezoni koeffitsientining qiymati jadvaldan olingan  $T_{mez} = 5,991$  ga teng qiymat olindi. "Xi–kvadrat" metodida hisoblanilgan  $T_{kuz}$  qiymati barcha hollarda  $T_{kr} < T_{kuz}$ . ekanligi aniqlandi, ya'ni "Texnologik ta'lim" yo'nalishida, Chirchiq davlat pedagogika universitetida  $5,991 = T_{kr} < T_{kuz} = 9,85$ , Qo'qon davlat pedagogika institutida  $5,991 = T_{kr} < T_{kuz} = 9,64$  va Navoiy davlat pedagogika institutida  $5,991 = T_{kr} < T_{kuz} = 9,84$ .


### 3–jadval

#### Tajriba–sinov yakunidagi natijalar statistik tahlili

Chirchiq davlat pedagogika universiteti (texnologik ta'lim yo'nalishi)										
	Yuqori	O'rta	Quyi	jami	o'rtacha	dispersiya	variatsiya koeffs.	ishonchli oraliq	Xi–kvadrat statistik qiymati Kritik qiymat	Samara–dorlik
Tajriba guruhi	28	32	15	75	4,17	0,55	17,78	4,11–4,23	9,85	1,102
Nazorat guruhi	16	27	32	75	3,78	0,60	20,62	3,72–3,78	5,99	
Xulosa	H <sub>1</sub> gipoteza qabul qilinadi									
Qo'qon davlat pedagogika instituti (texnologik ta'lim yo'nalishi)										
	Yuqori	O'rta	Quyi	jami	o'rtacha	dispersiya	variatsiya koeffs.	ishonchli oraliq	Xi–kvadrat statistik qiymati Kritik qiymat	Samara–dorlik
Tajriba guruhi	32	37	24	93	4,09	0,60	18,97	4,02–4,14	9,64	1,096
Nazorat guruhi	19	35	48	92	3,73	0,59	20,70	3,67–3,79	5,99	
Xulosa	H <sub>1</sub> gipoteza qabul qilinadi									
Navoiy davlat pedagogika instituti (texnologik ta'lim yo'nalishi)										
	Yuqori	O'rta	Quyi	jami	o'rtacha	dispersiya	variatsiya koeffs.	ishonchli oraliq	Xi–kvadrat statistik qiymati Kritik qiymat	Samara–dorlik
Tajriba guruhi	34	43	25	102	4,09	0,58	18,57	4,03–4,14	9,84	1,089
Nazorat guruhi	20	34	44	98	3,76	0,60	20,61	3,70–3,81	5,99	
Xulosa	H <sub>1</sub> gipoteza qabul qilinadi									

XulosaH1 gipoteza qabul qilinadi

2–bosqich talabalaridan olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, “Texnologik ta’lim” yo‘nalishida, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat pedagogika instituti talabalarining o‘rtacha samaradorligi 9,6 % ga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagi variatsion qatorning gistogrammasi 6–rasmda keltirilgan.



**6–rasm. Talabalarning tajriba–sinov yakunida o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi diagrammasi**

Tajriba–sinov natijasida biz tomondan tavsiya etilgan o‘qitish metodikasi an’anaviy olib borilgan o‘qitish metodikasiga nisbatan samarali ekanligi isbotlandi. O‘tkazilgan tadqiqotlar ilgari surilgan ilmiy farazning to‘g‘ri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tizimni pedagogik tajriba– sinovga joriy qilish natijasida tajriba guruhi talabalarining nazorat guruhi talabalariga nisbatan eksperimental ko‘nikmalarining rivojlanganlik ko‘rsatkichlari 9,6%ga oshishiga erishildi.

#### XULOSA

Ta’lim klasteri sharoitida talabalarining eksperimental ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari tajribani modellashtirishning xavfsizlik, produktivlik, qiyosiylik kabi tamoyillarni ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi muhitiga differensial qo‘lash ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ektrotexnika fanidan eksperimental ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi o‘quv materiallari jozibadorligi, vizualligi, qulayligiga asoslangan interfaol o‘quv topshiriqlarini talabalarining amaliy–akademik faoliyatida konsentrik munosabatda qo‘llash, ta’lim klasteri jarayoni mazmuniga izchillik, uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Talabalarda eksperimental ko‘nikmalarining rivojlanganligini baholash mezonlari tajribani nazariy anglash, qo‘yish, o‘tkazishga motivasiyalovchi ko‘p variantli instruksiyalarni qayta aloqali o‘quv jarayonida refleksiv tarzda adaptivlashtirish asosida takomillashtirildi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarining eksperimental ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ma’ruza, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini eksperimentlar asosida tashkil etishning dasturiy vositalardan foydalanishning usul va imkoniyatlari takomillashtirildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2020 yildagi PF-5987-son (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021-y., 07/21/61/1195-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

Eshniyozov U.A. Didactic analysis of experimental skills development conditions of students in institutions of pedagogical higher education // Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) // ISSN (E): 2347–6915, (Impact Factor: 8,057). – India, 2023. Volume 11, Issue 03. P. 432–438.

Eshniyozov U.A. Ta’lim klasteri muhitida talabalarining eksperimental ko‘nikmalarini bosqichma bosqich rivojlantirish

jarayoni // Ta'lim, fan va innovatsiya // –Toshkent, 2023.–№ 4.–B.203–207 (13.00.00, №18).

Eshniyozov U.A. Talabalarning eksperimental ko'nikmalarni zamonaviy interaktiv dasturiy vositalar asosida rivojlantirish metodikasi //Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирий журналы //–Nukus, 2023.–№ 3.–B.225–232 (13.00.00, №20).

Eshniyozov U.A. Talabalarning elektrotexnik eksperimentlarni loyihalashtirish ko'nikmalarni shakllantirish // Journal of Advanced Research and Stability // ISSN: 2181–2608 (Impact Factor: 6,639).–Uzbekiston, 2023. Volume 3, Issue 3.–B. 81–88.(OAK baza, Scientific Journal Impact Factor, №23).

Eshniyozov U.A. Pedagogical problems and solutions of conducting electrical experiments in pedagogical institutions of higher education // “Актуальные вопросы современной науки и образования” // Сборник материалов международной научно–практической конференции.– Казань, 2022. pp. 235–240.

Eshniyozov U.A. Didactic requirements for organizing practical lessons in electrical engineering and the methodology of its conduct //“Мировая наука. проблемы и перспективы развития”//материалы V международной научно–практической конференции.– Волгоград 2023, pp. 354–358.

Eshniyozov U.A. Talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirishni zamonaviy vositalari va metodlari //“Zamonaviy fizika va astronomiyaning muammolari, yechimlari, o'qitish uslublari”// Respublika ilmiy–uslubiy anjumani.–Toshkent, 2022.–B. 356–358.

Klaster muhitida elektrotexnika fanini o'qitishda talabalarni eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirish modeli //“Zamonaviy fizika va astronomiyaning muammolari, yechimlari, o'qitish uslublari”// Respublika ilmiy–uslubiy anjumani.–Toshkent, 2022.–B. 358–360.

Tursunov I.G., Eshniyozov U.A. Possibilities of application of modern digital innovative multisim program technologies in teaching electrical engineering // Galaxy international interdisciplinary research journal // 2022. Volume 10, Issue 12, pp. 1051–1061.

Tursunov I.G., Eshniyozov U.A., Ruzibayeva M.X. Elektrotexnika fanini o'qitishda talabalarni eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirish vositalari // Экономика и социум //, 2022. №5 (96).–B.903–906.

Tursunov I.G., Eshniyozov U.A., Durdiyeva Sh. X. Turli muhitlarda elektr toki mavzusini o'qitishdagi innovatsiyalar // Academic Research in Educational Sciences // 2021. Volume 2, Issue 2. –B. 513–523 b.

Tursunov I.G., Eshniyozov U.A. Elektrotexnika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash // Academic Research in Educational Sciences// 2021. Volume 2, Issue 4. –B. 1030–1040.

Eshniyozov U.A. Elektrotexnika fanini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetentlik ko'nikmalarini rivojlantirish // Academic Research in Educational Sciences // 2021. Volume 2, Issue 4.–B. 1030–1040.

Eshniyozov U.A. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri muhitida elektrotexnika fanini o'qitishda talabalarni eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirish modeli // Muallim// 2022. Volume 3, Issue 12. –B. 25–33.

Tursunov I.G., Eshniyozov U.A. Elektrotexnika fanini o'qitishdagi muammolar va ularning zamonaviy yechimlari //“Тенденции развития физики конденсированных сред”// Международной научной конференции.–Farg'ona, 2021. –B. 384–387.

Tursunov I.G., Eshniyozov U.A., Ruzibayeva M. X. Elektrotexnika fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish // “Yangi O'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari”// Xalqaro ilmiy–amaliy anjuman.–Chirchiq, 2022. –B. 306–307.

Eshniyozov U.A., Oqbo'tayeva D.Q. Ta'lim klasteri muhitida elektrotexnika fanini o'qitishda talabalarni eksperimental ko'nikmalarini shakllantirish modeli va uning tarkibiy qismlari. // “Yangi O'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari”// Xalqaro ilmiy–amaliy anjuman.–Chirchiq, 2022. –B. 685–687.

Tursunov I.G., Eshniyozov U.A. Elektrotexnika fanidan “Yarimo'tkazgichli to'g'rilagichlar” mavzusini “multisim” dasturi yordamida o'qitish uslublari //“Zamonaviy mikroelektronikaning ivojlanishida fan, ta'lim va innovatsiya integratsiyasi”// Respublika ilmiy–uslubiy anjumani.– Andijon, 2020. –B. 435–438.

## KIBERBULLINGNI BARTARAF ETISHDA O‘QUVCHILARNI PEDAGOGIK HIMOYALASH STRATEGIYALARI

*Fataeva Farodiba Rustamovna,*

*Raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'limi bo'limiga Kontent - menedjer*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada kiberbulling tushunchasi, uning o'quvchilar shaxsiyatiga ko'rsatadigan psixologik va ijtimoiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Kiberbullingni bartaraf etishda ta'lim muassasalaridagi pedagogik himoya mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarb jihatlari ko'rib chiqiladi. Xususan, o'qituvchi, ota-ona va psixologning o'zaro hamkorligida profilaktika ishlarini olib borish, o'quvchilarda raqamli yetuklik, tanqidiy fikrlash va kibergigiena madaniyatini shakllantirish mexanizmlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada xorijiy va milliy tajriba misolida samarali pedagogik strategiyalar tahlili orqali kiberbullingga qarshi profilaktik choralar taklif etiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dasturli yondashuvlar va ularning amaliy natijalari ko'rsatib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: kiberbulling, pedagogik himoya, raqamli xavfsizlik, profilaktika, ta'lim strategiyalari, axborot madaniyati, o'quvchi shaxsiyati, kibergigiena, raqamli yetuklik.*

Kirish. Jahon miqyosida raqamli texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, axborot makonining yoshlar hayotida tobora katta ahamiyat kasb etishi nafaqat imkoniyatlar, balki jiddiy tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida keng tarqalgan internet platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir bo'layotgan kiberbulling holatlari o'quvchilarning psixologik holati, ta'lim sifati va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. YuNISEF, YuNESKO va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan “Safe to Learn”, “End Violence Against Children” kabi loyihalarda kiberbullingga qarshi tizimli profilaktika va tarbiyaviy mexanizmlarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ushbu masalaning dolzarbligi yuksak darajada tan olingan. Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi», shuningdek, “Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash to'g'risida”gi qonun, \*\*“Yoshlar va bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash”\*\*ga qaratilgan davlat dasturlari doirasida ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat va bolalarni internet tahdidlaridan himoya qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Aynan shu muammolardan kelib chiqib, kiberbullingni bartaraf etishda o'quvchilarni pedagogik himoyalash strategiyalarini takomillashtirish, maktabda samarali profilaktik muhitni shakllantirish, ta'lim ishtirokchilari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish muammolari va uni yechimi borasida tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Kiberbulling — raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarga nisbatan turli shakldagi tahdid, ta'qib va salbiy ta'sirlarni yuzaga keltiradigan ijtimoiy-pedagogik muammodir. Bu muammoning keskin dolzarb tus olishi sababli, so'nggi yillarda xalqaro va milliy tadqiqotchilar tomonidan kiberbullingga qarshi profilaktika, axborot xavfsizligi va bolalarni himoyalash borasida keng qamrovli ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, R. Kowalski, S. Limber, P. Agatston (2012) o'zining “Cyberbullying: Bullying in the Digital Age” nomli ishida kiberbullingning turlari, psixo-emotsional oqibatlar va maktabdagi profilaktika strategiyalarini tavsiya etadi. Ular ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlik va empatiyani rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi. Patchin & Hinduja (2018) kiberbullingni oldini olishda maktab siyosati, ota-ona va o'qituvchi hamkorligini kuchaytirish orqali samarali himoya mexanizmlarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydilar. Livingstone, S. (2020) Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan “EU Kids Online” tadqiqotida bolalarni kiberoxavflardan himoya qilishda interaktiv ta'lim usullari, faol

monitoring va bolalarning ishtirokini ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqilgan.

MDH olimlaridan Yu.B. Rubin, N.I. Martynova (Rossiya, 2019) o'z tadqiqotlarida pedagogik himoya mexanizmlarini quyidagi yo'nalishlar orqali shakllantirishni taklif etadilar: raqamli profilaktik treninglar, psixologik dasturlar va maktabdagi mentorlik tizimi.

Respublikamizda ushbu yo'nalishda M. Xayrullaev (O'zbekiston, 2021) ta'limda axborot madaniyatini shakllantirishda milliy urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarni raqamli muhitda tarbiya jarayoniga moslashtirishni nazarda tutadi. Qurbonova Sh.X. (2023) kiberbulling holatlarini aniqlash va tahlil qilishda pedagog-psixologlarning rolini kuchaytirish, shuningdek, o'quvchilar o'rtasida raqamli etika va kibergigiena bo'yicha muntazam profilaktika mashg'ulotlarini tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi.

Tahlil qilingan adabiyotlarda kiberbullingga qarshi kurashishda pedagogik himoya strategiyalari sifatida quyidagilar alohida e'tirof etilgan:

profilaktik ta'lim tizimini yo'lga qo'yish;

o'quvchilarda raqamli madaniyat va axloqiy immunitetni rivojlantirish;

pedagoglarning kibexavflar bo'yicha kasbiy salohiyatini oshirish;

ota-ona va ta'lim muassasasi o'rtasidagi samarali kommunikatsiyani shakllantirish.

Mulohaza. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kiberbulling nafaqat psixologik, balki ijtimoiy-axloqiy inqirozlarga ham sabab bo'luvchi murakkab ijtimoiy holatdir. Uning oqibatlarini o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, ta'lim jarayoniga munosabati va sog'lom muhitda faol ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, kiberbullingni bartaraf etishdagi choralar alohida tizimli yondashuvni talab etadi.

Keltirilgan tadqiqotlar va amaliyotlar tahlili asosida kiberbullingga qarshi samarali pedagogik himoya strategiyasini amalga oshirishda quyidagi metodik tavsiyalar taklif etiladi:

1. Profilaktikaga qaratilgan pedagogik tadbirlar tizimini shakllantirish

Ta'lim muassasalarida kiberbulling mavzusida interaktiv darslar, treninglar va muloqot mashg'ulotlarini joriy etish.

O'quvchilarda kibernetika, kibergigiena va raqamli madaniyat haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

Kiberbulling holatlarini aniqlash bo'yicha anonim so'rovnomalar va monitoring dasturlarini doimiy ravishda o'tkazish.

2. Ota-ona va o'qituvchilarni jalb qilgan holda himoyaviy muhit yaratish

Ota-onalarni axborot xavfsizligi, internetdagi tahdidlar va kiberbulling belgilari bo'yicha ma'rifiy seminarlar orqali xabardor qilish.

O'qituvchilar uchun amaliy yo'riqnomalar, keys-tahlillar va kiberbullingga qarshi pedagogik strategiyalar to'plamini ishlab chiqish.

3. Psixologik-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish

Maktab psixologlari ishtirokida kiberbulling qurbonlari va ularning sinfdoshlari bilan reabilitatsiya ishlarini tashkil etish.

Kiberbullingning oldini olishga qaratilgan gruppaviy treninglar, psixodiagnostik testlarni o'tkazish.

Shaxsiy individual ishlar orqali o'quvchilarning muomala madaniyati, hissiy barqarorlik va mustahkam hayotiy pozitsiyasini rivojlantirish.

4. Ta'lim platformalarida xavfsizlikni ta'minlash

Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan raqamli platformalar, chatlar va guruhlarining nazoratini kuchaytirish.

Internet faoliyatida o'quvchilarga axborot filtrlari, xavfsiz kontentni tanlash borasida tavsiyalar berish.

5. Davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik

Kiberbullingga qarshi huquqiy-ma'rifiy dasturlarda ishtirok etish.

Bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan media loyihalar va fleshmoblarni tashkil etish.

Kiberbullingni bartaraf etishda faqatgina ta'lim muassasasi emas, balki butun jamiyatning hamkorlikdagi harakati muhim. Ushbu metodik tavsiyalar kibertahdidlarga nisbatan barqaror immunitetga ega, axborot makonida ongli harakat qiladigan yetuk shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda kiberbullingga qarshi pedagogik himoya mexanizmlarini yaratish va ularning samaradorligini baholash maqsadida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Metodika quyidagi bosqichlarda tashkil etildi:

1. Diagnostik bosqich:

7–9-sinf o'quvchilari orasida kiberbulling holatlarini aniqlash maqsadida anonim so'rovnoma va "Cyberbullying Scale for Adolescents" testlaridan foydalanildi.

O'qituvchilar va ota-onalarning kiberbulling haqidagi bilimi va munosabati ham maxsus so'rovlar orqali o'rganildi.

Diagnostika natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 42%i kiberbullingga duch kelganini bildirgan, 18%i esa kiberbullingda qatnashganini tan olgan.

2. Tashkiliy-ta'limiy bosqich:

Kiberbullingni oldini olishga qaratilgan profilaktik dastur yaratildi. Unda quyidagi modullar bo'ldi:

Kibergigiena darslari

Axborot xavfsizligi seminarlari

Muqobil muomala (empatik muloqot) mashg'ulotlari

Keys-tahlil va ro'yxatdan o'tmagan xatlar bilan ishlash

Pedagogik ta'sir jarayonida psixologlar, sinf rahbarlari va axborot fan o'qituvchilari hamkorlikda faoliyat olib bordi.

3. Nazorat va baholash bosqichi:

Tajriba oldi va so'nggi so'rov natijalari solishtirildi.

Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha kiberbullingga duch kelish holatlari 42%dan 19%ga tushgani aniqlandi.

Kiberbullingga qarshi kurashish ko'nikmasiga ega o'quvchilar ulushi 27%dan 64%ga oshgan.

Metodik tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng quyidagi natijalar qayd etildi:

№	Ko'rsatkichlar	Tajriba boshida	Tajriba so'ngida
1	Kiberbullingga duch kelgan o'quvchilar	42%	19%
2	Kiberbullingda ishtirok etganlar	18%	9%
3	Axborot xavfsizligi to'g'risida xabardorlik	34%	79%
4	Kibergigiena ko'nikmasiga ega o'quvchilar	27%	64%
5	Ota-ona ishtirok darajasi	Past (begona)	O'rta (faol)

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, tizimli ravishda tashkil etilgan pedagogik himoya strategiyalari orqali kiberbullingning oldini olishda muvaffaqiyatli natijalarga erishish mumkin. Bu metodika umumta'lim muassasalari uchun tavsiya etiladigan ishlab chiqilgan model sifatida amaliyotga joriy etilishi mumkin.

Xulosa. Kiberbulling – bu zamonaviy raqamli muhitdagi jiddiy ijtimoiy-pedagogik muammodir. Uning o'quvchi shaxsiyati, ta'limga munosabati va emotsional holatiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri, ushbu masalaga tizimli, kompleks yondashuvni talab etayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan metodik tadbirlar va sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarni kiberbullingdan himoya qilishda profilaktikaga yo'naltirilgan ta'lim, raqamli madaniyatni shakllantirish, ota-ona va o'qituvchi hamkorligini mustahkamlash, shuningdek, maktabdagi axborot xavfsizligi muhitini ta'minlash samarali himoya mexanizmlari sirasiga kiradi.

Tajriba natijalari asosida aniqlandiki:

kiberbullingga duch kelgan o'quvchilar soni sezilarli kamaydi;

raqamli yetuklik va axborot xavfsizligi to'g'risidagi bilimlar oshdi;

o'qituvchi va ota-onalarning profilaktikadagi ishtiroki kuchaydi.

Shuningdek, mazkur metodik yondashuv umumta'lim muassasalarida faoliyati samaradorligini oshirishga, o'quv muhitini psixologik xavfsiz va barqaror tarzda tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2022 yil 28 yanvar). 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
2. "Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020 yil.
3. Kowalski, R. M., Limber, S. P., & Agatston, P. W. (2012). *Cyberbullying: Bullying in the Digital Age*. Wiley-Blackwell.
4. Hinduja, S., & Patchin, J. W. (2018). *Bullying beyond the Schoolyard: Preventing and Responding to Cyberbullying*. Sage Publications.
5. Livingstone, S., & Haddon, L. (2020). *EU Kids Online 2020: Survey Results from 19 Countries*. LSE.
6. Rubin Yu.B., Martynova N.I. (2019). Profilaktika kiberbullinga v obrazovatelnoy srede. // *Voprosy psixologii*, №5.
7. Qurbonova Sh.X. (2023). Maktab o'quvchilarini kiberbullingdan himoya qilishda psixologik yondashuvlar. // *Pedagogika va psixologiya muammolari*, №2.
8. Xayrullaev M. (2021). Axborot madaniyati va internet xavfsizligiga oid yondashuvlar. // *O'zMU Ilmiy axborotnomasi*, №3.
9. UNICEF & UNESCO. (2022). *Safe to Learn: Global Initiative to End Violence in and through Schools*.

## VEKTORLAR BO‘YICHA BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION VA INTERFAOL YONDASHUVLAR

Faxridinova Mehribon Faxridin qizi,  
 Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi  
<https://orcid.org/0009-0003-1423-7172>

*Annotatsiya. Hozirgi kunda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, jumladan interfaol usullar asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar xilma-xil bo‘lib, ularning tanlanishi dars mavzusining mazmuni hamda qo‘yilgan maqsadlarga bevosita bog‘liqdir. Mazkur yondashuv ayniqsa matematika fanini o‘qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi hisobga olinib, ularga tegishli metodik talablar qo‘yiladi. Pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifasi — o‘quvchini ta‘lim jarayonining markaziga olib chiqib, uni passiv bilim oluvchidan faol va ijodiy ishtirokchiga aylantirish, ta‘limni avtomatik takrorlashdan xoli holatda, mustaqil fikrlash va amaliy faoliyatga yo‘naltirishdan iboratdir.*

*Maktab geometriya kursida «vektor» tushunchasi odatda cheklangan va mustaqil bo‘lim sifatida beriladi. Mavjud ta‘riflar va yondashuvlar ko‘pincha vektorlarning boshqa geometriya elementlari bilan uzviy bog‘liqligini to‘liq ochib bera olmaydi, bu esa ularning ta‘limiy qiymatini pasaytiradi. Aslida esa, vektorlar planimetriyada mazmunli va amaliy qiymatga ega bo‘lgan kuchli vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu sababli, maqolada maktab kursida vektorlarni samaraliroq o‘rgatish uchun ularning mohiyatini chuqurroq ochib beradigan ta‘rif hamda to‘laqonli vektor arifmetikasi qo‘llanilishi taklif qilinadi. Bu esa geometriyada muhim bo‘lgan, ammo ko‘pincha e‘tibordan chetda qolgan munosabat va xususiyatlarni ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, bunday yondashuv yordamida an‘anaviy metodlar bilan erishib bo‘lmaydigan natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Natijada maktab geometriyasiga klassik yondashuv analitik yondashuv bilan uyg‘unlashadi. Maqolada bir qator misollar orqali teoremlarni isbotlash va masalalarni yechishda vektorlardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan.*

*Kalit so‘zlar: maktabda geometriya, vektor arifmetika, dastur vektorlar, fazodagi o‘lcham, yo‘nalish, to‘g‘ri chiziq, vektor moduli, parallel vektorlar, siniq chiziq, skalyar ko‘paytma.*

## ИННОВАЦИОННЫЕ И ИНТЕРАКТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ЗНАНИЙ О ВЕКТОРАХ

Фахридинова Мехрибон Фахридина қизи,  
 Студент 2 курса Бухарского государственного педагогического института

*Аннотация: В настоящее время занятия, организованные на основе передовых педагогических технологий, в том числе интерактивных методов, разнообразны, а их подбор напрямую зависит от содержания темы урока и поставленных целей. Такой подход особенно важен при преподавании математики. При этом учитывается уровень подготовки студентов и к ним предъявляются соответствующие методические требования.*

*Основная задача педагогических технологий — поставить ученика в центр образовательного процесса, превратив его из пассивного обучающегося в активного и творческого участника, направить обучение на самостоятельное мышление и практическую деятельность, свободную от автоматического повторения. В школьных курсах геометрии понятие «vektor» обычно излагается как ограниченный и самостоятельный раздел. Существующие определения и подходы зачастую не в состоянии в полной мере объяснить внутреннюю связь векторов с другими геометрическими элементами, что снижает их образовательную ценность. На самом деле векторы могут служить мощным инструментом, имеющим значимую и практическую ценность в планиметрии. Поэтому в статье предлагается использовать определение, более глубоко объясняющее их сущность,*

и полноценную векторную арифметику для более эффективного преподавания векторов в школьных курсах. Это позволяет нам выражать отношения и свойства, которые важны в геометрии, но часто упускаются из виду. Также, используя этот подход, можно добиться результатов, которых невозможно достичь традиционными методами. В результате классический подход к школьной геометрии сочетается с аналитическим подходом. В статье на ряде примеров иллюстрируется эффективность использования векторов при доказательстве теорем и решении задач.

Ключевые слова: геометрия в школе, векторная арифметика, программные векторы, размерность в пространстве, направление, прямая, векторный модуль, параллельные векторы, ломаная, скалярное умножение.

## INNOVATIVE AND INTERACTIVE APPROACHES TO DEVELOPING KNOWLEDGE ABOUT VECTORS

*Fakhrudinova Mehriban Faxridin qizi,*  
2nd year student of Bukhara State Pedagogical Institute

*Annotation: Currently, classes organized on the basis of advanced pedagogical technologies, including interactive methods, are diverse, and their choice directly depends on the content of the educational topic and the goals set. This approach is especially important in teaching mathematics. In this process, the level of preparation of students is taken into account, and appropriate methodological requirements are imposed on them.*

*The main task of pedagogical technologies is to bring the student to the center of the educational process, transform him from a passive recipient of knowledge into an active and creative participant, direct training toward the development of independent thinking and practical activity, eliminating mechanical repetition of material.*

*In school geometry courses, the concept of «vector» is usually presented as a limited and independent topic. Existing definitions and approaches often do not fully reveal the relationship of vectors with other elements of geometry, which reduces their educational value. Meanwhile, vectors can serve as a powerful tool with substantive and practical significance in plane geometry.*

*In this regard, the article proposes the use of definitions and full vector arithmetic, which more deeply reveal the essence of vectors for their more effective teaching in the school course. This allows expressing important, but often overlooked relationships and properties in geometry. This approach also opens up opportunities for obtaining results unattainable by traditional methods.*

*As a result, the classical approach in school geometry is harmoniously combined with the analytical one. The article shows, using a number of examples, the effectiveness of using vectors in proving theorems and solving problems.*

*Key words: geometry at school, vector arithmetic, program vectors, dimension in space, direction, straight line, vector module, parallel vectors, broken line, scalar multiplication.*

**Kirish.** Matematika barcha aniq fanlarning poytaxti hisoblanadi. Bu fan bilan yaxshi tanishgan bola zukkolik va keng dunyoqarashga ega bo'ladi hamda har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini qo'lga kiritadi, - dedi Prezidentimiz. Shunday ekan, o'qituvchilarimizning mas'uliyati yanada oshadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida o'quvchini darsning markaziy qahramoni sifatida ko'rsatishga xizmat qiladi. Ular o'quvchilarni faqatgina ma'lumotni yodlash yoki mexanik takrorlashdan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy fikrlashga undaydi. Natijada, o'quvchilar darsda faol ishtirok etib, hayotiy muammolarni yechish va mavzularni amaliyotda qo'llash borasida o'z fikrlarini erkin ifoda eta oladilar.

Vektor geometriyaning eng muhim tushunchalaridan biri bo'lib, u uzunlik va yo'nalish orqali ifodalanadi. Vektor – bu yo'naltirilgan chiziq bo'lib, bir-biriga parallel va teng uzunlikdagi

segmentlarning to'plami sifatida qaraladi. Tabiatda esa vektor shaklidagi fizik kattaliklar - tezlik, tezlanish, kuch kabi hodisalarda uchraydi. Vektorlar tushunchasi 19-asr nemis matematigining asarlarida paydo bo'lgan. G. Grassmann va irlandiyalik matematik V. Gamilton; keyin u ko'plab matematiklar va fiziklar tomonidan osonlik bilan qabul qilindi. Zamonaviy matematikada va uning qo'llanilishida bu tushuncha muhim rol o'ynaydi. Vektorlar klassik Galiley-Nyuton mexanikasida (uning zamonaviy taqdimotida), nisbiylik nazariyasida, kvant fizikasida, matematik iqtisodda va tabiatshunoslikning boshqa ko'plab sohalarida qo'llaniladi, matematikaning turli sohalarida vektorlardan foydalanish haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Zamonaviy matematikada, hozir ham vektorlarga katta e'tibor berilmoqda. Murakkab masalalar vektor usuli yordamida yechiladi. Biz fizika, astronomiya, biologiya va boshqa zamonaviy fanlarda vektorlardan foydalanishni ko'rishimiz mumkin. Nima uchun vektorlar matematiklar, muhandislar yoki fiziklardan boshqa har kim uchun muhim bo'lishi mumkinligiga hayron bo'lishingiz mumkin. Bizning haqiqiy dunyomizda vektorlar barchamiz uchun juda muhim bo'lgan vaziyatlar mavjud.

Tasavvur qiling, siz mashinada borayotgan bo'lsangiz va manzilingizga yetib borish uchun yo'l ko'rsatkichlari yoki ko'cha nomlari yo'q. Faqat xaritagiz bor, unda boshlanish va tugash joylari ko'rsatilgan, lekin aynan qanday yo'l bilan borishni bilmayapsiz. Ana shu paytda vektorlar yordamga keladi. Siz boshlang'ich nuqtadan oxirgi manzilgacha vektor chizib, shu yo'nalishni davom ettira olasiz. Haydash jarayonida yo'l ta'mirlash yoki aylanma yo'llarga duch kelishingiz mumkin, shunda xaritaga qaytib, yangi vektor yordamida kerakli yo'lni aniqlaysiz. Xuddi shunday, kemaning kapitanlari dengizda yo'nalish va tezlikni belgilash uchun vektorlardan foydalanishadi.

Maktabda fizika va matematika o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik an'anaviy hisoblanadi. Bu ikki fan o'qitilishini qayta tashkil etish jarayonida ular yanada yaqinlashdi, ammo ba'zi tushunmovchiliklar hali ham mavjud. Umuman olganda, ularning har biri o'z sohasida chuqur bilimga ega bo'lishi, boshqasining fanini ham samarali o'qitishda muhimdir. Aynan shu ishda biz matematikadagi vektor tushunchasi va fizika fanidagi vektor miqdori orasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratamiz.

Geometriya darslarida vektor ko'pincha yo'naltirilgan chiziq segmenti sifatida tushuntiriladi. Fizika esa bu yondashuvni to'liq qamrab olmasa-da, yanada amaliyroq deb hisoblaydi. Chunki, "vektor" va "vektor miqdori" tushunchalari yaqin, ammo to'liq bir xil emas. Fizika fazodagi o'lcham va yo'nalishni ko'rsatadigan fizik kattaliklar bilan ishlaydi, shuning uchun vektor – bu ularning qulay vizual ifodasidir. Vektorli kattalik tananing yoki hodisaning haqiqiy xususiyatlarini tavsiflaydi va o'lchash mumkin, biroq "vektor o'lchovi" degan tushuncha yo'q.

Maktab fizikasi kursida vektor miqdori tushunchasi kuchni o'rganishda 7-sinfda paydo bo'ladi, bu matematikadagi vektor tushunchasidan oldinroqdir. "Kuch - bu o'lchovli jismoniy kattalik" deb ta'kidlanadi. Shu bilan birga, geometriyada erkin vektorlar tushunchasi qo'llaniladi - ularni fazodagi istalgan nuqtaga olib borish mumkin, biroq jismoniy vektorlar bunday erkinlikka ega emas. Masalan, bir xil kuch, ammo tana yuzasidagi turli nuqtalarda ta'sir qilishi natijasida turlicha mexanik effektlar yuzaga keladi. Agar tana qattiq bo'lsa, kuch faqat harakat chizig'i bo'ylab o'tkaziladi. Shu sababli, barcha kuchlarning geometrik yig'indisi va ularning mexanik natijasi farq qilishi mumkin.

Matematika darslarida vektorlarni qo'shish, ayirish, skalyar ko'paytirish, skalyar ko'paytma kabi algebraik operatsiyalar batafsil o'rgatiladi. Ammo vektorning o'qga proyeksiyasi kabi fizikaga zarur tushunchalar maktabda kamroq ko'riladi. Ko'plab fizik muammolarni hal qilish uchun vektor tenglamalari skalyar ko'rsatkichlarga proyeksiya qilinadi, ya'ni vektorlarni koordinatalar o'qlariga ajratish talab etiladi. Shuning uchun, vektor proyeksiyalari tushunchasi va ularni hisoblash ko'nikmalarini o'zlashtirish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili.

[3] maqolada matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

[4] maqolada o'quv fanlarini o'rganishda tarixiy yondashuv ma'lum darajada o'quv jarayonini ilmiy bilimga yaqinlashtirishi hamda o'qituvchining matematika tushunchalari bilan tanishar ekan, dars jarayonida ularning tarixi va rivojlanishi (asosan, buyuk ajdodlarimiz xizmatlari) haqida so'z yuritishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ona Vatanga muhabbatini tarbiyalashi haqida fikr yuritilgan.

[5] maqolada matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanilinish masalasi tahlil qilingan. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqligi qayd qilingan. O'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlashi, ularni hayotga tadbiiq eta olishga tayyorlanashi haqida so'z yuritilgan.

[6] maqolada bugungi fan va texnika rivojlangan davrda talabalar bilimini mustahkamlashda mustaqil ta'limning o'rni alohida ahamiyat kasb etishi qayd qilingan. Shu nuqtai nazardan mustaqil ta'limni bajarishda talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, mustaqil bilim olish, mustaqil ishlanish va mustaqil o'z ustida ishlashga o'rgatish bugungi kunda juda muhimligi ta'kidlangan. Hamda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, talabalarga berilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

[7] maqolada ishga doir mantli masalalar va ular qanday turlarga bo'linishi, ularni yechish bosqichlari, bu kabi masalalarda uchraydigan asosiy qonuniyatlar haqida qisqacha tushunchalar keltirilgan. Ishga doir matnli arifmetik masalalarni yechishda qanday tasdiqlarga e'tibor berishimiz kerakligi haqida mulohazalarni umumlashtirib, mavzu bo'yicha masalalar yechimlari namuna sifatida keltirilgan. Keltirilgan tasdiqlar va mulohazalar bilan yechilgan masalalar o'quvchilar hamda fanni mustaqil o'rganuvchilarga matnli masalalarni qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishga yordam berishi ta'kidlangan.

[8] maqolada talabalarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun bir qator nazariy va mantiqiy asoslar taqdim etilgan, ularsiz ko'rsatkichli tenglamalar va tengsizliklarni to'g'ri yechish imkonsizligi ta'kidlangan. Ko'rsatkichli tenglamalarning tipik variantlari va tengsizliklar, shuningdek, bunday muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

[9] maqolada ta'lim sohasini rivojlantirishda ilg'or tajribalardan foydalanib tengsizliklarni yechishda asosiy bilimlarga ega bo'lish va yechimlarni umumlashtirishda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Algoritmik usul yordamida kasr-ratsional, irratsional, logarifmik va trigonometrik funksiyalarga doir tengsizliklarga oid misollarning yechimi keltirilgan.

[10-14] maqola o'quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida interfaol texnologiyalar samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish keng joriy etilayotgani, bu esa o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirishni talab qilishi qayd qilingan. Interfaol usullar katta vaqt va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga qaratilganligi, o'quvchiga nazariy bilimlarni o'rgatish, muayyan faoliyat turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish va baholash katta mahorat va epcillikni talab qilishi haqida so'z yuritilgan.

Asosiy qism.

Geometriyada algebraik yondashuv, xususan, vektor yondashuvi ularsiz e'tibordan chetda qolishi mumkin bo'lgan xususiyatlar, munosabatlar va xususiyatlarni sifat va miqdoriy jihatdan aniqlash va baholashga yordam beradi. Bunga misol qilib, qandaydir sonli natijaning turini uni aniqlovchi ifodadan aniqlash mumkin - butun, ratsional, haqiqiy, belgili yoki belgisiz. Shunday qilib, egri mahsulot orqali uchburchakning maydoni uchun formula to'g'ridan-to'g'ri aytadiki, agar har qanday ko'pburchakning uchlari butun son koordinatalarida berilgan bo'lsa, uning maydoni (uchburchaklarga bo'linish orqali) butunning yoki yarmi bo'ladi. , va agar koordinatalar oqilona bo'lsa, u holda bu maydon bo'ladi. Geometriyaning algebraik apparati sifatida "koordinatalar geometriyasi" asosan iboralar va tenglamalar to'g'ridan-to'g'ri geometrik ma'noga ega bo'lgan hisob-kitoblar va fikr yuritishning haqiqiy geometrik vositasi bilan almashtirilishi mumkin.

Vektorlarda ifodalar va tenglamalarni tuzish jarayoni ham, ularning o'zlari ham koordinatalarga nisbatan geometrik bog'liqliklarning mohiyatini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi. Vektorlar bilan operatsiyalar ko'pincha burchaklarning yashirin manipulyatsiyasini o'z ichiga olganligi sababli, trigonometriyadan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj (baribir geometriya bilan bilvosita bog'liq) kamayadi. Vektor apparatidan foydalangan holda natijalarni olish yanada tizimli vazifaga aylanadi. Isbot va konstruksiyalarda ixtiro va tushunchalar (qo'shimcha konstruksiyalar, maqsad sari bilvosita yo'llar) o'rniga hisob-kitoblar keladi. Hisoblash orqali asoslash va qurish: qat'iy - norasmiy fikrlashdan farqli o'laroq, bir necha, aniq belgilangan elementlardan iborat, mexanik bajarishga yaroqli, tekshirilishi mumkin - agar hisob-kitob shunday bo'lsa, mulohaza to'g'ri. Kompyuter dasturlari sifatida oson amalga oshiriladi. Ularning oxirgisi geometriya va informatika o'rtasidagi tabiiy aloqani ta'minlaydi. Kengroq ma'noda vektorlardan to'liq foydalanish algoritmik xarakterdagi masalalarni shakllantirish va yechish imkoniyatini ochib beradi. Biroq, planimetriyada vektorlarning mavjudligi omadsizdir.

Yo'nalishli kattaliklarga asoslangan geometrik hisoblarning paydo bo'lgan modellaridan biri faqat fizikadagi ilovalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va shuning uchun asosan fazoviy bo'lib chiqdi: bu bugungi kunda vektor algebrasi va tahlili sifatida tanish. Ularda planimetriyaga kam e'tibor beriladi va shuning uchun ham qiyshiq mahsulot, ham perp yo'q. Geometrik hisobning boshqa umumiy modellari asosan algebraik bo'lib qoldi yoki keng tarqalgan qo'llab-quvvatlanmadi. Shunday qilib, planimetriyada vektorlardan foydalanish rivojlanmagan holda qoldi. Bundan tashqari, keng tarqalgan bo'lib chiqqan vektorlarning cheklangan tushunchasi ham maktab geometriyasiga og'riqli kirib borishi kerak edi. Shunday qilib, bir tomondan, ushbu maqolada ko'rib chiqilgan qiyshiq mahsulot va to'g'ri burchak ostida aylanish operatsiyalari yangi emas, lekin boshqa tomondan, ularning amaliy ilova kam rivojlangan. Biroq, bizning fikrimizcha, geometrik algebra vektorlarga qaraganda umumiyroq va kuchliroq vosita bo'lsa-da, ular bilan solishtirganda noqulay va kamroq intuitivdir - uni maktab uchun mos deb hisoblash qiyin.

Vektor — to'g'ri chiziqning yo'nalishga ega bo'lgan kesmasi. Bu kesma uchlaridan biri vektorning boshi, ikkinchisi esa oxiri bo'ladi. Boshi bilan oxiri ustma-ust tushgan vektor nol vektor deyiladi. vektor, odatda, qora harflar yoki ustiga strelka qo'yilgan oddiy harflar bilan ko'rsatiladi. Mexanikaning faqat son bilan emas, balki yo'nalish bilan ham ifodalanadigan miqdorlarni tekshiruvchi masalalari vektor tushunchasiga olib keladi. Masalan: kuch, tezlik vektor miqdorlardir. Uzunligi teng bo'lib, yo'nalishi bir xil bo'lgan ikki vektor bir-biriga teng bo'ladi. Aytib o'tilgan vektor miqdorlar-dan siljish, tezlik, tezlanish kabilarni fazoning istalgan nuqtasidan chiqqan vektor bilan tasvirlash mumkin. Bunday vektor miqdorlar erkin vektorlar deyiladi. Kuch, burchak tezlik singari vektor miqdorlarni to'la aniqlash uchun ularning son qiymatlari, yo'nalishlaridan tashqari yana ta'sir chiziqlarini ham bilish zarur (masalan, kuchni faqat shu kuch yo'nalishi bo'yicha ko'chirish mumkin). Bunday vektor miqdorlar sirpanuvchi vektorlar deyiladi. Fazoda biror O nuqtaga ma'lum bo'lsa, shu nuqtaga nisbatan fazodagi boshqa istalgan nuqta, masalan, M nuqta vaziyatni  $OM = g$  bilan aniqlash mumkin.  $g$  vektor M nuqtaning radius vektori deyiladi. Tekislik yoki fazodagi har qanday vektorni koordinatalar boshidan chiqqan deb hisoblash mumkin.

1-Ta'rif: Yo'naltirilgan kesma  $(AB)^{\rightarrow}$  vektor deyiladi. Bunda A nuqta vektorning boshi, B nuqta vektor oxiri deyiladi. Vektorlar odatda  $(AB)^{\rightarrow}$  yoki  $a^{\rightarrow}$  kabi yoziladi. Vektorning moduli (uzunligi)  $|(AB)^{\rightarrow}|$  yoki  $|a^{\rightarrow}|$  ko'rinishda yoziladi.

2-Ta'rif: Bir to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan vektorlar kollinear vektorlar deyiladi.

3-Ta'rif: Bir tekislikka parallel bo'lgan vektorlar komplanar vektorlar deyiladi.


4-Ta'rif: Agar  $(|a|)^{\rightarrow}$  va  $(|b|)^{\rightarrow}$  vektorlar a) teng modulga ega, b) o'zaro kollinear, c) bir tomonga yo'nalgan bo'lsa, ular o'zaro teng vektorlar deyiladi.

Vektorlar matematikda, aylanadigan o'qning uzunligi va yo'nalishini ifodalaydigan ob'ektlardir. Bu yo'nalish va uzunlikni aks ettiradigan chiziqli o'qlar yordamida ko'rsatiladi.

Vektorlar umumiy o'rtaga, qo'shishga va ko'paytirishga moslashadi. Umumiy o'rtaga, qo'shish va ko'paytirishning o'zgaruvchanligi yordamida vektorlar amalga oshiriladi. Vektorlarni chiziq, strelka yoki algebraik formulalar orqali ifodalayish mumkin. Vektorlar, uchta asosiy xususiyatga ega: uzunlik, yo'nalish va boshlang'ich nuqta. Uzunlik, vektorni uzunligini ifodalaydi, va yo'nalish uning yo'nalishini aks ettiradi. Boshlang'ich nuqta, vektorni boshlanishi yoki o'rni bo'lib, koordinat sistemada ko'rsatilgan xususiyatdir. Biroq, boshqa, sof geometrik usullar haqida unutmashimiz kerak. Keling, buni bir qator statik muammolarga olib keladigan klassik vaziyat misolida ko'rsatamiz. Bu uchta kuch ta'sirida muvozanat nuqtasi. Masalan,  $F$  kuchning kattaligini va  $\alpha$  burchakni hisobga olsak,  $S$  ni topish kerak bo'lsin  $S_1$  va  $S_2$  (bu tayanchlarning reaksiya kuchlari, novdalar, iplarning kuchlanishi va boshqalar bo'lishi mumkin). Keling, avval an'anaviy tarzda qilaylik. Vektor muvozanat shartini yozamiz.

$$\vec{F} + \vec{S}_1 + \vec{S}_2 = 0.$$


O'qlarni noma'lum kuchlar bo'ylab yo'naltiruvchi koordinatalar tizimini tanlaymiz va koordinata o'qlariga vektor tenglamasini proyeksionalaymiz (1-rasm).



1-rasm

Hosil bo'lgan tenglamalar tizimini yechish orqali noma'lum miqdorlarni topamiz. Endi geometrik mulohazalardan foydalanamiz. Agar vektorlar yig'indisi nolga teng bo'lsa, u holda bu vektorlarda tuzilgan sinuq chiziqni yopish kerak. Bu holda shunday to'g'ri burchakli uchburchak bo'ladi, undan noma'lum miqdorlar darhol topiladi (2-rasm).

$$S_1 = F \cos \alpha, S_2 = F \sin \alpha$$



2-rasm

Keling, yana bir muhim jihatga to'xtalib o'tamiz. Fizika kurslarida aslida geometrik ma'noga ega bo'lgan skalyar iboralar mavjud. Bunga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Masalan, mexanik

ish quyidagi formula yordamida kiritiladi


$$A = FS \cos \varphi$$

Darhaqiqat, ishkuch va joy almashish vektorlarining skalyar mahsulotidir, bu formula yordamida hisoblanadi. Ko'rib chiqilgan misollardan fizika va matematika o'rtasidagi fanlararo aloqalar qanchalik ko'p qirrali va chuqur bo'lishi aniq. Zamonaviy o'qituvchi ularni bilishi, tushunishi va o'z fanini o'qitish jarayonida foydalanishi kerak. Amaliyotimizda ularni faollashtirish va fizika va matematika bo'yicha maktab o'quv dasturlaridagi ayrim nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun biz ko'pincha integratsiyalashgan darslardan foydalanamiz, shuningdek, universitet elektron ta'lim resurslariga murojaat qilamiz. Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, fizika va matematika o'rtasidagi bog'liqlikning bir qator xususiyatlari va ko'rinishlari to'plamlar, funktsional bog'liqliklar, funktsiyalar grafiklari, differentsial va integral hisoblar sohasida yotadi.

Vektorlar ustida amallar:

Qo'shish. 1-usul. Uchburchak usuli (yohud uch nuqta qoidasi). Birinchi vektorning tugash nuqtasiga ikkinchi vektorning boshlang'ich nuqtasi ko'chiramiz va birinchi vektorning boshi bilan ikkinchi vektorning tugash nuqtalarini to'g'ri chiziq bilan tutashtiramiz. Hosil bo'lgan vektor  $\vec{a} + \vec{b}$  ga teng bo'ladi.

2-usul. Parallelogramm usuli. Ikkala vektorning boshlarini bir nuqtadan o'tkazib ularni parallel chiziqlar yordamida parallelogrammgacha to'ldirsak, shu parallelogramning diagonalini  $\vec{a} + \vec{b}$  vektorlarning yig'indisi deyiladi. (3-rasm)



3-rasm

Ayirish:  $\vec{a}$  va  $\vec{b}$  vektorlarning ayirmasi deb, shunda  $\vec{c}$  vektorga aytiladiki, uning  $\vec{b}$  vektor bilan yig'indisi  $\vec{a}$  vektorni beradi:  $\vec{a} - \vec{b}$ .

Songa ko'paytirish:  $\vec{b}(x; y; z)$  vektorning  $\lambda$  songa ko'paytmasi deb  $\vec{b}(\lambda x; \lambda y; \lambda z)$  ga aytiladi

Skalyar ko'paytma: Nol bo'lmagan ikkita  $\vec{a}$  va  $\vec{b}$  vektorning skalar ko'paytmasi deb, bu vektorlar uzunliklarining ular orasidagi burchak kosinusiga ko'paytmasiga aytiladi:

$$(\vec{a} \cdot \vec{b}) = |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cdot \cos \alpha$$

bunda  $\alpha$  burchak va  $\vec{a}$  va  $\vec{b}$  vektorlar orasidagi burchak.

“Mohir hisobchi metodi”

Ushbu metod berilgan mavzuni mustahkamlash uchun qo'llaniladi. O'quvchilar ikki jamoaga ajratiladi. Har bir jamoaga oq qog'oz beriladi. Vektorlar mavzusi bo'yicha ma'lumotlar yozilishi talab etiladi. Qaysi jamoada ko'proq ma'lumot bo'lsa o'sha jamoa g'olib bo'ladi.

Masalan: 1- jamoa “Alfa”, 2- jamoa “Beta”. Oq qog'ozga yozilgan ma'lumotlar jamoada eng

oxirida o'tirgan ikki o'quvchi ma'lumotlarni o'qib berishlari talab etiladi. Chunki orqada o'tirgan o'quvchilarning hamma vaqt ham e'tibori o'qituvchida bo'lmasligi mumkin. Ularning e'tiborini o'qituvchi o'ziga qaratish maqsadida o'qitadi. Bu metoddah baholash tizimi ham noodatiy tarzda bo'lishi kerak. Jamoalarni baholash quyidagicha bo'ladi: har bir berilgan ma'lumot uchun 1 ball dan beriladi. Yuqori ball ogan jamoaga rag'bat kartochkalari beriladi(5-rasm).



4-rasm

#### “Jonli kitob metodi”

Ayni davrda bolalarga kitobga, kitob o'qishga bo'lgan muhabbatni uyg'otish muhim masalaga aylandi. Kitobsevarlikni targ'ib qiluvchi “Jonli kitob” metodini taqdim qilmoqchiman.

Bu metod uchun bola yoshiga mos kichik hajmli kitob yoki darslikning ma'lim mavzularini tanlashingiz mumkin. 6 ta o'quvchi uchun jami 6 ta betni bo'lib berasiz. (O'quvchilar soni va kitob betini o'zgartirishingiz mumkin. Mana shu 6 o'quvchi jonli kitob vazifasini bajaradi. Masalan: 1-o'quvchiga 25-26-betlar, 2-o'quvchiga 27-28-betlar va hokazo tarzida kitob sahifalarini bo'lib berasiz. Quyidagi rasmlari varoqni chiqarib olasiz (6-rasm).



5-rasm

Ko'rinib turgan raqamlar tartiblash uchun berilgan. Ularning orqasida esa kitob sahifasini sonlari yozilgan bo'ladi. 6 o'quvchiga ular bugungi darsda JONLI KITOB vazifasini bajarishini aytasiz.


Ularga kitob sahifalari 1 dars oldin berilgan bo'lishi kerak. Ular darsga tayyorlanib kelishadi. O'tirgan o'quvchilar qog'ozdan birorta raqam tanlaydilar. Masalan bir o'quvchi 2 raqamini tanladi. 2 raqamini ostida esa 35 soni yashirilgan. Kitob sahifasining 35-sahifasi kimga tushgan bo'lsa o'sha o'quvchi shu sahifadagi ma'lumotni qisqa va lo'nda qilib aytib berishi kerak. O'quvchilar o'sha betdan jonli kitob vazifasini bajarayotgan o'quvchiga 3 ta savol beradilar. Chiroyli, mazmunli va savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchilar stikerlar bilan (yoki boshqa usulda) taqdirlanadi.

Bu metodni har dars qo'llashimiz mumkin.

“Qorbo‘ron” metodi. Bu metodni ham darsni mustahkamlash uchun qo‘llaymiz. Metodni qo‘llash uchun sinfdagi o‘quvchilarni ikki guruhga ajratamiz. 1- guruh “Alfa”, 2- guruh “Beta”. Guruhlarni har bir o‘quvchisiga A4 formatdagi oq qog‘ozlar tarqatiladi. Ular mavzu bo‘yicha misollar va savollarni oq qog‘ozlarga yozadilar. Qog‘ozlar xuddi qorbo‘ron o‘ynash uchun mo‘ljallanganday g‘ijimlanadi. Qarama – qarshi guruhlar bir – birlariga otishadi. 5 soniya vaqt beriladi. 5 soniyadan so‘ng o‘yin to‘xtatiladi. Guruhlar o‘zlari tomonga tushgan qog‘ozlarni ochadilar va savollarga javob berib, misollarni ishlaydilar. Guruhlar javob bergan har bir to‘g‘ri javob uchun 1 balldan beriladi. Guruhlar shu tariqa baholanadi. Eng ko‘p ball to‘plagan jamoa g‘olib bo‘ladi.

Ballash tizimi qiziqarli bo‘lishi uchun har bir tog‘ri javob uchun ko‘k rangdagi qorparcha, har bir noto‘g‘ri javob uchun qora rangli qorparcha beriladi (6- rasm).

Bu metod o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini va bilimlarini orttiradi.



6- rasm

Xulosa:Maqolada taqdim etilgan texnologiyalar yordamida dars jarayonini samarali tashkil etish mumkin. O‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida turli zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash tavsiya etiladi. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning fanga bo‘lgan e‘tiborini kuchaytiradi, balki ularning chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishlariga yordam beradi.

Ushbu maqolada vektor tushunchalari, ularning ta‘riflari, mos chizmalar hamda vektorlarni bir-biriga qo‘shish, skalyar ko‘paytirish va songa ko‘paytirish kabi asosiy amallar haqida ma‘lumotlar berilgan. Mavzuni mustahkamlash uchun “Mohir hisobchi”, “Jonli kitob” va “Qorbo‘ron” kabi o‘quv metodlari qo‘llanilgan.

Matematika - kichik yoshdan tanishish boshlangan keng ilmiy soha. Shu sababli, uning birinchi sinfdan boshlab dars sifatida o‘qitilishi bejiz emas. Axir, umumiy matematik bilimlarsiz zamonaviy hayotda juda ko‘plab sohalarda, jumladan kimyo, fizika, tibbiyot va boshqa fanlarda muvaffaqiyatga erishish qiyin bo‘lardi. Shu sababli, matematika fanini puxta o‘rganish har birimiz uchun zarurdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Educating teachers of science, mathematics, and technology : new practices for the new millennium / Committee on Science and Mathematics. Copyright 2001 by the National Academy of Sciences. Constitution Avenue, N.W. Washington

2. Djurayev R.X va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. –T.: “Fan nashriyoti”, 2008 yil. – 94-bet
- 3.A. Sh. Rashidov Matematika darslarida ta'limning shaxsga yo 'naltirilgan texnologiyasi. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet
- 4.A.Sh. Rashidov Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Science and Education №9. С 283-291
- 5.О.О.Халлоқова. А.Рашидов Пороговое собственное значение модели Фридрихса. Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3
- 6.A. Sh. Rashidov Interaktivnyye metody pri izuchenii temy «Opredelennyy integrali yego prilozheniya». Nauchnyye issledovaniya. № 34:3. С 21-24
- 7.A. Sh. Rashidov Yoshlar intellektual kamolotida ijodiy tafakkur va kreativlikning o'rni. Pedagogik mahorat 2021 yil №7. 114-116 bet.
- 8.A.Sh. Rashidov. Matematika fanlaridan talaba yoshlar ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Fan va jamiyat №3. С 45-46
- 9.A.Sh. Rashidov замонавий таълим ва инновацион технологиялар соҳасидаги илғор тажрибалар. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet 8-14
10. A.Sh.Rashidov. M.F.Faxridinova. O'quvchilarning bilimni baholashda xalqaro baholash dasturlari. “Fizika, matematika va informatsion texnologiyalarning innovatsion rivojlanishdagi o'rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman. Buxoro. 222-227 bet.
11. A.Sh.Rashidov. S.A.Mehmonova. Matematik analiz fanini o'qitishda interfaol metodlar: “KEYS-STADI” metodi “Fizika, matematika va informatsion texnologiyalarning innovatsion rivojlanishdagi o'rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman. Buxoro. 165-169 bet.
- 12.X.P.Расулов, А.Ш.Рашидов. Организация практического занятия на основе инновационных технологий на уроках математики. Наука, техника и образование 2020. № 8 (72). с.29-32
13. А.Ш.Рашидов. Масофавий таълим моделлари ва уларни такомиллаштириш истиқболларини эксперт баҳолаш усули орқали аниқлаш // Педагогик маҳорат– Бухоро, 2020. - №2. – 163-171 б.
14. А.Ш.Рашидов. Замонавий таълим ва инновацион технологиялар соҳасидаги илғор тажрибалар // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2020 - №10. – 83-86 б.

## **JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI**

*Ismoilov Husniddin,  
Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish va ularning sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Xususan, interaktiv o'qitish usullari, innovatsion yondashuvlar, loyihalashtirish asosida darsni tashkil qilish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan, kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning jismoniy faolligini rivojlantirish borasidagi imkoniyatlar ko'rib chiqilgan. Maqolada, shuningdek, jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning afzalliklari, bu texnologiyalar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, jamoaviy ishlash, sog'lom turmush tarziga bo'lgan intilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan tavsiyalar ham berilgan.*

*Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, dars, pedagogik texnologiyalar, ta'lim, metodlar, loyihalashtirish, kompyuter texnologiyalari.*

## **ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ**

*Исмаилов Хусниддин,  
Азиатский Международный Университет  
Преподаватель кафедры физической культуры*

*Абстрактный. В данной статье освещаются вопросы использования современных педагогических технологий в эффективной организации уроков физической культуры в общеобразовательных школах и повышения их качества. В частности, рассмотрены возможности повышения интереса учащихся к уроку, развития их физической активности посредством интерактивных методов обучения, инновационных подходов, организации урока на основе проектирования и использования информационно-коммуникационных технологий, в том числе компьютерных программ. В статье также приведены преимущества внедрения педагогических технологий в практику на уроках физической культуры, рекомендации, направленные на формирование у учащихся посредством этих технологий таких навыков, как самостоятельное мышление, командная работа, стремление к здоровому образу жизни.*

*Ключевые слова: физкультура, урок, педагогические технологии, воспитание, методы, проектирование, компьютерные технологии.*

## **OPPORTUNITIES FOR THE USE OF NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES**

*Ismailov Husniddin,  
Asia International University Lecturer, Department of Physical Culture*

*Abstract. This article covers the issues of the effective organization of physical education classes in general secondary schools and the use of modern pedagogical technologies in improving their quality. In particular, the opportunities for increasing students' interest in the lesson, the development of their physical activity were considered through interactive teaching methods, innovative approaches, design-based lesson organization and the use of information*

and communication technologies, including computer programs. The article also provides recommendations on the benefits of introducing pedagogical technologies into practice in physical education classes, the formation of such skills in students through these technologies as independent thinking, teamwork, striving for a healthy lifestyle.

*Keywords:* physical education, lesson, pedagogical technologies, education, methods, design, computer technology.

Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining dunyo taraqqiyoti darajasidagi istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'daniy sohalarida katta o'zgarishlar bo'lishi bilan bog'liq. Bunday o'zgarishlarda ishtirok etish insonlardan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, yuksak madaniyat, ma'naviyat va keng dunyoqarashni talab etadi. Ta'lim tizimini shu talablar asosida qayta qurish – jamiyatning kelajak avlod tarbiyasi sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligini, bir butunligini va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimining insonparvarlashuvi, demokratlashuvi va yangi texnologiyalarning kiritilishi fanlar oldiga ta'limning mazmuni, tuzilishi, rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va texnologiyasini aniqlashdek murakkab vazifalarni qo'ydi.

Hozirgi davrda o'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga, mafkura borasida chuqur bilimlarga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullardan samarali foydalanishi davr talabi hisoblanadi. [1;165–171.b.].

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo'g'ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash bo'yicha yuksak mahoratga ega bo'lishlarini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi. Hozirda har bir maktabda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa bo'lib turibdi. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borishi orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma'lum. Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. [2; 645-649.b.].

Abu Ali ibn Sinoning jahon fani oldidagi xizmati shundan iboratki o'tgan davrdagi ilmiy fikr yutuqlarini dastavval tibbiyot sohasidagi yutuqlarni umumlashtirib qolmay, o'rta asrlar fanini yanada rivojlantiradi. "Kitob ul Qonun fit tibb" ya'ni "Tib ilmlari qonuni" degan klassik asari uning shuxratini butun dunyoga taratdi. Dunyo olimlari orasida birinchi marta jismoniy mashqlarni ta'riflab bergan va o'ziga xos tarzda klassifikatsiya qilgan (sistemaga solgan) mashhur olim Abu Ali ibn Sinoning xizmatlari ayniqsa katta. Maktab yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini ilmiy asoslab bergan rus olimi anatom, biolog, pedagog, jamoat arbobi Pyotr Fransevich Lesgaft (1837-1909) hisoblanadi. YE.N. Medinskiy so'zi bilan aytganda P.F. Lesgaft o'zining jismoniy ma'lumot nazariyasini yaratish bilan birga oila tarbiyasining nazariyasi bilan o'z ishini yakunladi. ingliz olimi, filosofi Jan Lokni (1632-1704) o'z davrida ma'lum bo'lgan fransuz olimi Jan Jak Russo (1712-1778) shvedsariyalik olim pedagog demokrat Iogan Genrix Pestolotsiy (1746-1827) asarlari kata rol o'ynadi. J.J. Russo va I.G. Pestolotsiy larni pedagogik ta'siri asosida XVIII asrda Germaniyada yangi tipdagi maktab ochiladi. Bu maktablar filontroplar burjuaziya odamsevarlari maktabi nomini oladi. Bu maktablarda ko'proq o'rin jismoniy tarbiyaga berilgan edi. Jismoniy tarbiya bo'yicha ma'lum bo'lgan mutaxassislar G.Fit (1763-1836), G.I.Guts-Muts (1759-1839) filontropida seki nasta keng ma'lum bo'lgan nemis gimnastikasi Fridrix Lyudovik Yan asos solgan (1778-1852) va uning tarafdorlari gimnastikani maktabdagi boshqa umumta'lim fanlarining eng zaruriy fanlaridir deb, darsning tashkil etishning xilma-xil metodlari V.V. Belinovich, K.X. Grantin,

N.A. Lupandina, Z.I. Kuznetsova, V.G. Yakovleva, K.D. Novikov, L.P. Matveyev va boshqa olimlar tomonidan ochib berilgan. Keyingi 35 yillarda jahon pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'lim texnologiyasiga qiziqish yaqqol ko'zga tashlanadi. Pedagogik texnologiya, uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, yo'l va usullari haqida rus pedagoglari A.A.Andreyev, V.P.Bespalko, M.T.Gromkova, M.V.Klarin, Mila Noviklar, amerikalik pedagog Bob Kizlik, o'zbekistonlik olimlar B.R.Adizov, B.L.Farberman, N.Saidahmedov, M.Ochilov, M.H.Mahmudov, S.Ziyamuxamedova, B. Ziyamuxamedov, O.Tolipovlarning ishlarida bayon etilgan. Tadqiqot maqsadi: Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning yo'l va usullarini ishlab chiqish. [3; 235-243.b.].

Tadqiqot obyekti: Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayoni. Tadqiqotning o'tkazilishi. Tadqiqotda jismoniy tarbiya darslari o'rganilib tahlil qilindi. 2024-2025 o'quv yilida Buxoro shahar maktablarida 30-dan ortiq jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlari tekshirib ko'rildi va o'rganildi. Jismoniy tarbiya dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi aniqlandi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan dars samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha suhbatlar o'tkazildi.

Pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari qatorida quyidagilarni ko'rsatishga imkon beradi: ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish; tizimli yondashuv asosida talabning o'quv-biluv faoliyatini tavsiflaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish; ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv baholash; ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o'zaro bog'liq va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsata olishi; ta'lim shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish); ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish; o'quvchilarning kuzatiladigan, aniqlanadigan harakatlari sifatida ta'lim maqsadlarini ko'zlagan etalon asosida oydinlashtirish; talabning faolligiga tayanib o'qitish; bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish; shakllantiruvchi va jamlovchi baholar; belgilangan mezonlarga binoan test topshiriqlarini bajarish; ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishish kafolatlanganligi; [4; 315-320.b.].

Yuqorida aytganimizdek, ta'lim oldiga qo'yiladigan talablar nihoyatda ulkan. Ta'lim jarayoniga ilg'or zamonaviy texnologiyalarni qo'llamasdan turib bu talablarni bajarish amri mahol. Biz jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasini o'rganish uchun bir guruh jismoniy tarbiya o'qituvchilariga (jami 20 nafar o'qituvchi qatnashdi) quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

Ta'limning zamonaviy texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?

1. Siz o'z darslaringizda ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanasizmi?  
2. An'anaviy ta'lim bilan pedagogik texnologiyalar asosida o'tadigan darslar o'rtasidagi farqini ayting.

3. Interaktiv metodlarni qanday tushunasiz? - Misollar keltiring.

4. Zamonaviy ta'lim metodlarini bilasizmi va uni amalda joriy qilasizmi? Javoblarni quyidagi mezonlar asosida baholadik:

1. Zamonaviy texnologiyalarni yaxshi tushungan, o'z darslarida qo'llayotgan, uning an'anaviy ta'limdan yaxshi farqlay biladigan va interaktiv metodlarni bilgan bo'lsa "juda yaxshi";

2. Zamonaviy texnologiyalar haqida tushunchaga ega, undan o'z tajribasida foydalanayotgan va uning an'anaviy ta'limdan farqini bilgan va interaktiv metodlardan ba'zilarini biladigan bo'lsa "yaxshi";

3. Zamonaviy texnologiyalarni tushunadi, lekin undan ba'zan foydalanadi interaktiv metodlarni yaxshi bilmaydigan bo'lsa "o'rta".

4. Zamonaviy texnologiyalarni bilmaydi va undan foydalanmadi, ba'zan interaktiv metodlardan foydalanadi "yomon".

Javoblar tahlili quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

1-jadval.

**Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ta'limning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish darajasi: (So'ralganlarga nisbatan % hisobida)**

№	Juda yaxshi	Yaxshi	O'rta	Yomon	Juda yomon
1	3	2	8	4	3
2	3	1	4	7	5
3	2	3	6	7	2
4	1	4	5	5	5

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki biz tadqiqot olib borgan maktablarning ko'pchiligida zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish sust kechmoqda. Zamonaviy texnologiyalar deganda ko'pchilik maktabda kompyuterlarning yo'qligidan shikoyat qiladilar. Shu bilan ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmayotganlari oqlamoqchi bo'ladilar. Vaholanki, ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning 2 xil usuli bor.

Birinchisi kompyuter texnologiyalarisiz, darslarni loyihalashtirib kafolatlangan natijaga erishish bo'lsa, ikkinchisi, kompyuterlar yordamida darslarni tashkil etish. [5; 248-255.b.].

Demak kompyuterlarsiz ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish mumkin. Darsning xarakterli tomonlari, uning jismoniy tarbiyaning boshqa shakllaridan farqlanishi quyidagilardan iborat. Aniq ifodalangan, didaktik yo'lantirilganligi, ta'lim vazifasining hal etilishi bilan shartlanganligi. Predmetni o'rgatish va o'quvchilarni tarbiyalashga yo'naltirilgan o'qituvchining rahbarlik roli. O'quvchilar faoliyatini va yuk me'yorlarini qat'iy o'rganish va belgilash. Shug'ullanuvchilarning doimiyligi va ularning yoshining bir xilligi. Bunday o'rgatish jarayoni tashkil etish zamonaviy jismoniy tarbiya darsiga ma'lum talablarni qo'yadi. [6; 426-433.b.].

1. O'qituvchi har bir darsni yuqori darajadagi g'oya bilan ta'minlanishi shart. Shuning uchun zamonaviy darsni kompleks vazifalar bilan rejalashtirish zarur. Vazifalar aniqlashtirilgan va differensiallashgan bo'lishi kerak. Bular alohida psixik va o'quvchilar rivojlanishining jismoniy xususiyatlari bilimlari asosida olib borilmog'i zarur.

2. Har bir dars avvalgi va keyin o'tiladigan darslar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, dars tizimini tashkil etishi kerak. O'qituvchilar yangi materialni o'rganishda oldin o'tilgan materialni qaytalash va mustaxkamlash hamda keyingi materialni o'zlashtirib olishga tayyorlash kerak. Bunday sistemalar o'quv vazifalarni hal etilishini ketma-ketligini ta'minlaydi.

3. Zamonaviy dars o'quvchilar faoliyatini yaxshi mustaqil tashkil etilganligi bilan farqlanadi. O'qituvchi ularni o'quv ishlarini bilim malakalar bilan ketma-ket qurollantiradi, mustaqil bilish va o'z-o'zini nazorat qilish, xarakter madaniyatini shakllanishga erishish, shular bilan birga muntazam jismoniy mashqlar mashg'ulotiga talabni tarbiyalab beradi.

4. Bular hammasi rangli ish intizomi asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi foydalanadigan, shug'ullanuvchilar faoliyatini tashkil etilishini har xilligi, manbalar, metodlar va usullar zamonaviy dars ko'rsatmaliligi hisoblanadi. Mashg'ulotlarni hech qachon bir xil shablonda tashkil etmaslik kerak.

5. Har bir dars davomida hamma o'quvchilarni xarakter faoliyatiga eng qulay ravishda erishishlik samaradorlik sharti hisoblanadi.

6. O'qituvchi har bir darsda, bilimlarni nazorat qilish tizimi, o'quvchilar bilim va malakalarini, darsni har bir qismida belgilashi, o'rgatish jarayoni yakunida baholash va jismoniy sifatini rivojlantirishini mavjudligi ta'minlash zarur.

7. Darsni o'tish shartiga ko'p talablar qo'yiladi: o'quv-material, gigiyenik, estetik, iroda-psixologik va boshqalar. Nomi keltirilgan talabalar jismoniy tarbiyani umumiy va metodik prinsiplaridan kelib chiqadi va hamma sinflarda dars o'tilganda majburiy hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mustaqil davlatimizning taraqqiyoti ta'limning barcha sohalaridagi kabi jismoniy tarbiya sohasida ham katta islohotlarni talab qiladi. Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jamiyatning muhim ehtiyojini qondirishning eng zarur shartidir. Jamiyatning yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun boshlang'ich sinfdan boshlab tinimsiz izlanish, ta'limning yangi samarali usullarini qidirish zarur. Bizning tadqiqotlarimiz asosida turgan konsepsiya ham boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo'llagan holda o'quvchilarning o'qish motivini o'stirish va ularning fanni o'zlashtirishga qiziqish va ehtiyojini tarbiyalashdir. Motivning mavjudligi shaxsning o'quv faoliyatga erkin kirishuvi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida erkin muloqotning shakllanishi va tez til topa bilishini ta'minlashga yordam beradi. Biz tadqiqotimiz davomida quyidagilarni o'rgandik:

1. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyani qo'llashga oid o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini;

2. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo'llashga oid tajribalar juda kam ekanligiga ishonch hosil qildik.

Olib borgan tadqiqotlarimiz ishimizning to'g'riligini isbotladi. Ya'ni jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalar joriy etilishi, o'qish motivlarini har tomonlama rivojlantirilishi, pedagogik texnologiyaning mohiyatini anglatishga erishilishi, unga doir bilim, ko'nikma va malakalar chuqur egallanilishi va ular ta'lim amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanilishi jismoniy tarbiya darslari jarayonida yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Tadqiqotimiz davomida jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirishning yangi shakl va usullaridan foydalandik. Tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosaga keldik: Hozirgi davrda ta'limning eng muhim vazifalaridan biri pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilishdir.

1. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'qish motivlarini har tomonlama o'stirishga e'tibor qaratilsa o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayonlari samarali bo'ladi.

2. Jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish zarur. Bu tizim o'quvchi o'qituvchi hamkorligi asosida o'quvchilarning erkin fikrlashiga yo'l ochib berishga qaratilmog'i lozim.

3. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida modulli o'qish usulidan foydalanilsa o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrlashiga keng yo'l ochiladi.

4. Jismoniy tarbiya darslarida biz yuqorida tavsiya etgan ish tizimidan foydalansa kutilgan samaraga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

#### Foydalangan adabiyotlar

1. Ismoilov, H. (2024). Analysis of the criteria for selecting young athletes specializing in sprint distances. *Journal of Universal Science Research*, 2(10), 174–182. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/59008>

Husniddin, I. (2024). Yengil atletika bo'yicha musobaqalarni tashkil etish va otkazish. *Международный журнал научных исследователей*, 9(1), 170-173.

Исмаилов, X. (2025). Планирование структуры и содержания легкоатлетических тренировок. *pedagogik tadqiqotlar jurnali*, 2(2), 135-143.

4. Azamat Orunbayev. (2023). Using technology in a sports environment. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 39–49. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-07>

5. Azamat Orunbayev. (2023). Fitnes va sog'lomlashtirish bo'yicha murabbiylik yo'nalishiga kontseptual yondashuv. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(8), 23–28. Retrieved from <https://refocus.uz/index.php/1/article/view/431>

6. Azamat Orunbayev. (2023). Pandemiya davrida mobil sog'liqni saqlash va fitnes dasturlari (program). *Research Focus International Scientific Journal*, 2(7), 37–42. Retrieved from <https://refocus.uz/index.php/1/article/view/414>

## **BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI O'QUV-TARBIYA JARAYONINI SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA LOYIHALASHGA TAYYORLASH STRATEGIYASI**

*Ikramova Billura Muxamadovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini o'quv-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida loyihalashga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari tahlil etiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhiti, talabaning individual ehtiyoj va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularning mustaqil fikrlashini, kreativ yondashuvini va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada ingliz tili o'qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida loyihaviy faoliyatga tayyorlashning strategik yo'nalishlari, bosqichlari va samarali metodlari yoritiladi. Bundan tashqari, ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari, kompetensiyalar modeli va didaktik shart-sharoitlari asosida samarali tayyorlov mexanizmi ishlab chiqiladi. Ilmiy izlanish natijalariga asoslanib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini chuqurlashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

*Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ingliz tili o'qituvchisi, o'quv-tarbiya jarayoni, loyihalash strategiyasi, pedagogik kompetensiya, metodik tayyorlov, individual ta'lim muhiti, zamonaviy pedagogik texnologiyalar*

Kirish (mavzuning dolzarbligi). Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu — shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amaliyotga tatbiq etishdir. Bu yondashuv har bir talabaning individual o'ziga xosligini, ehtiyojlari, didaktik talablari va rivojlanish sur'atlarini inobatga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Ayniqsa, ingliz tili kabi kommunikativ va faoliyatga yo'naltirilgan fanlarda bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashga tayyorligi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni to'g'ri qo'llashi, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirishi, individual yondashuv asosida ta'lim metodlarini tanlashi va ularni samarali qo'llay olishi raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, ushbu yo'nalishda samarali strategiyani ishlab chiqish va uni pedagogik jarayonga integratsiyalash dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar asosida nazariy tahlil. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ilmiy-metodik asoslari V.S. Lazarev, I.S. Yakimanskaya, A.A. Verbitskiy, T.V. Kudryavtsev, shuningdek, respublikamiz olimlaridan Sh.S. Xolmurodov, G. Qodirova, M. Jo'rayevlarning izlanishlarida chuqur yoritilgan. Bu tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv — bu faqatgina o'quvchi yoki talabaning ehtiyojlarini inobatga olish emas, balki ularning faolligini, o'zini o'zi anglashini, reflektiv tafakkurini, ijodiy yondashuvini rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik harakatdir.

Ingliz tili o'qituvchisini tayyorlashda, N.F. Yakovleva, E.S. Polat va B.A. Barxanovlar tomonidan ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar kommunikativ, faoliyatga asoslangan va shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan metodlarni birgalikda qo'llashni taklif qiladi. Xususan, ingliz tilini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash strategiyalarining qo'llanilishi (N.V. Borytko, A.V. Khutorskoy) o'qituvchining individual yondashuvga asoslangan dars dizaynini mustaqil ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-noyabrdagi PQ-4527-son qarori bilan tasdiqlangan 2020–2030-yillarda Ta'lim sifatini oshirish konsepsiyasida

ham shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitini yaratish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatilgan. Bu esa ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash strategiyalarini zamon talablariga mos holda qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Asosiy natijalar va tahlil. O‘tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida aniqlanishicha, ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning aksariyati o‘quv-tarbiya jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillar asosida mustaqil loyihalash ko‘nikmalariga ega emas. Darslarni rejalashtirishda odatiy an‘anaviy yondashuv ustuvor bo‘lib qolmoqda, bu esa o‘quvchilarning individualligini hisobga olmagan holda dars o‘tkazilishiga olib keladi.

Chet tilini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimi — bu o‘quvchilarning o‘z shaxsiy maqsadlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini chet tilini o‘rganish orqali ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qodir bo‘lgan tizimdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limda o‘qitish jarayoni bilimlarni yetkazish, ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘zlashtirishni tashkil etishdan iborat deb emas, balki, avvalo, o‘quvchining til ta‘limiga oid shaxsiy ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratish deb tushuniladi.

Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonining asosiy maqsadi — o‘quv jarayonining shaxsni rivojlantirishga qaratilgan funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

O‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishi samarali kechadi, agar quyidagi shartlar ta‘minlansa:

O‘quvchining o‘quv maqsadlariga erishishiga bo‘lgan ishonch hissi yuqori darajada shakllantirilsa va doimiy qo‘llab-quvvatlansa;

O‘quvchining salohiyatini namoyon qilishiga imkon beradigan ijobiy emotsional-psixologik muhit yaratilsa, ya‘ni:

O‘quvchi unga maktabni tugatgach shaxsiy qulaylikni ta‘minlaydigan sifatli til ta‘limi olish huquqi hurmat qilinishini his etsa;

O‘quvchiga uning o‘quv natijalaridan qat‘i nazar, samimiyluk va e‘tibor bilan munosabatda bo‘linayotganini his etsa.

Chet tillarini o‘qitishda tarbiyaviy imkoniyatlar juda keng, agar chet tili boshqa xalqlarning ma‘naviy madaniyatiga yaqinlashtiruvchi vosita sifatida qo‘llansa, o‘quvchining o‘zini anglash va ifodalash vositasi sifatida ishlatilsa.

Bugungi kunda chet tilini o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida olib boriladi, bu esa yangi pedagogik paradigmaga mos keladi. U faoliyatga asoslangan, kommunikativ va kognitiv yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi, bu esa o‘quv jarayonini bilish va muloqot jarayoni sifatida tashkil etishga imkon beradi. Bunda o‘quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari, shaxsiy rivojlanish sur‘ati hisobga olinadi, axborotlar qadriyatlar asosida tarbiyalanadi va shaxs shakllanishida pedagogik qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladi.

Chet tilini o‘rganishda kognitivlik faqatgina til tuzilmasining qonuniyatlarini o‘zlashtirish emas, balki o‘quvchining dunyoqarashini shakllantirishni anglatadi. Til madaniyatsiz mavjud emas, ya‘ni til — bu ijtimoiy meros sifatida qabul qilingan hayot tarzini, amaliy ko‘nikmalar va g‘oyalarning majmuasini ifodalaydi. Shuning uchun chet tilini o‘rganuvchi nafaqat turli lingvistik birliklarni o‘rganadi, balki boshqa xalqning madaniyati, mentaliteti, turmush tarzi bilan ham tanishadi.

Shu orqali o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot haqida fikr shakllanadi, bu esa hayot falsafasining ongli tanlangan shakli bo‘lib, boshqa madaniyatlarga hurmat, til, etnik va irqiy bag‘rikenglik, nutqiy madaniyat, jahon madaniy merosini o‘rganishga tayyorlik, boshqa

madaniyatlar yutuqlaridan ma'naviy boyish, qarama-qarshilik va nizolarni zo'ravonliksiz hal etish yo'llarini izlash kabi qadriyatlarni talab qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlariga (har bir fanga oid o'quv va tarbiyaviy maqsadlar, o'quv mazmuni, usullar va texnologiyalar) hamda butun o'quv-tarbiya jarayoniga (o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalar, o'quvchi va o'quv vositalari o'rtasidagi munosabatlar va boshqalar) ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilar uchun qulay va tarbiyaviy ta'sirga ega muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari orqali joriy etilgan yangi strategiyalar natijasida talabalar: darsni shaxsiylashtirish, differensial yondashuvni ishlab chiqish, ta'limiy materiallarni o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirish, interaktiv va ijodiy metodlardan foydalangan holda dars loyihasini yaratish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish imkoniga ega bo'lishdi.

Pedagogik tajribani o'rganish ingliz tili darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy prinsiplarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchining aniqlangan individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni har bir o'quvchiga uning qobiliyatlari, moyilliklari va qiziqishlariga asoslanib, o'quv faoliyati, xulq-atvori va boshqa sohalarda o'zini namoyon etish imkonini beradi.

Ta'lim mazmuni, vositalari va metodlari shunday tanlanadi va tashkil etiladiki, o'quvchi o'qitilayotgan materialga, uning turiga va shakliga nisbatan ijodkorlik va yangilik kiritish qobiliyatini namoyon qila oladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda baholash faqat o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini emas, balki ma'lum bir intellektning shakllanganligini (uning xususiyatlari, sifati va namoyon bo'lish xarakteri) ham hisobga oladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shaxsning intellektual va axloqiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi vosita bo'lib, umumta'lim maktabining asosiy maqsadiga muvofiq keladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini loyihalashga tayyorlash strategiyalari taklif etamiz:

Motivatsion-strategik yondashuv. Talabaning o'z kasbiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirish, o'zini o'qituvchi sifatida ko'ra olish, darsni rejalashtirishga qiziqish uyg'otish.

Metodik-kompetensiyaviy strategiya. Loyihalashda foydalaniladigan metodlar, texnologiyalar va vositalarni o'zlashtirish, kommunikativ metodikani amalda qo'llashni o'rgatish.

Refleksiv va tahliliy strategiya. Har bir loyihalangan darsdan so'ng o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantirish.

Individualizatsiyalashgan ta'lim strategiyasi. Talabalarni o'z darslarida o'quvchilarning individual farqlarini, qiziqishlarini va ehtiyojlarini hisobga olishga o'rgatish.

Axborot-kommunikatsion strategiya. Raqamli vositalardan (prezentatsiyalar, elektron platformalar, onlayn dars dizaynlari) foydalanib, dars loyihalarini zamonaviy shakllarda amalga oshirishni o'rgatish.

Xulosa va tavsiyalar. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashga tayyorlash — zamonaviy ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu yo'nalishda yondashuvlar faqatgina nazariy emas, balki amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Olib borilgan izlanishlar va yuqoridagi fikrlar asosida bir qator tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qildik:

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan dars loyihalash bo'yicha

alohida modul kurslarini tashkil etish;

Talabalarga metodik portfoliolar yuritish va individual dars dizaynlari ishlab chiqish topshiriqlarini berish;

O'qituvchilik amaliyotida har bir darsdan so'ng reflektiv tahlilni majburiy qilish;

Dars loyihasi tuzishda o'quvchilarning ehtiyoj, daraja va qiziqishlarini hisobga olish bo'yicha diagnostik vositalardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Verbitskiy, A. A. (2010). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi. Moskva: Logoss.
2. Khutorskoy, A. V. (2005). Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asoslari. Moskva: VLADOS.
3. Yakimanskaya, I. S. (2003). Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning psixologik-pedagogik asoslari. Moskva: Sfera.
4. Borytko, N. M. (2006). Pedagogik kompetensiyalar va ularni shakllantirish metodlari. Volgograd: Peduniversitet.
5. Polat, E. S., Bukharkina, M. Yu., Moiseeva, M. V. (2012). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. Moskva: Akademiya.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4527-son qarori. (2019). 2020–2030 yillarda ta'lim sifatini oshirish konsepsiyasi. Lex.uz.
7. Qodirova, G. (2022). Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ingliz tili o'qituvchisini tayyorlashning nazariy asoslari. Ta'lim va Innovatsiyalar, 3(1), 45–51.
8. Jo'rayev, M. (2021). Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishda loyiha faoliyatining o'rni. O'zbekiston pedagogik jurnali, 4(2), 64–69.
9. Lazarev, V. S. (2004). Innovatsion pedagogik faoliyatning metodik asoslari. Moskva: Pedagogika.
10. Xolmurodov, Sh. S. (2023). Zamonaviy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning o'rni. Pedagogik mahorat, 2(5), 22–28.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI KATTA GURUH TARBIYALANUVCHILARINING KREATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION-KOGNITIV USULLARNI QO'LLASH METODIKASI

*Isomova Farog'at Tojiddin qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgachata'lim tashkiloti katta guruhi tarbiyalanuvchilarining kreativ ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida motivatsion-kognitiv usullarning o'rni va ularni qo'llash metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda bolalarning ijodiy tafakkurini faollashtirish, mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, emotsional-motivatsion muhit orqali kognitiv jarayonlarni faollashtirishga doir samarali usullar ko'rib chiqilgan. Metodik yondashuvlar orqali tarbiyalanuvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashg'ulotlar mazmuni, ularning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va pedagogik shart-sharoitlar asoslab berilgan. Maqolada ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar ham tahlil qilinib, maktabgacha ta'lim muassasalarida amaliyotga tadbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

*Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kreativ ko'nikmalar, motivatsion yondashuv, kognitiv jarayonlar, metodika, katta guruh, ijodiy faoliyat, pedagogik muhit, o'yinli metodlar, ijodiy fikrlash.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ (ijodiy) ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ijodiylik shaxsning yangi g'oyalarni taklif qilish, muammolarga noan'anaviy yechim topish, mustaqil fikrlash kabilar orqali ifodalanadi. Ilmiy adabiyotlarda bu xislatning erta yoshda shakllanishiga alohida urg'u berilgan (V.S. Muxina, L.A. Venger, D.B. Bogoyavlenskaya, I.L. Lerner).

Kreativlikni shakllantirishda motivatsion-kognitiv yondashuv alohida o'rin tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, bolaning ichki qiziqqa olishi, yangilikka intilishi (motivatsiya) va bilish faolligi (kognitiv jarayonlar) bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlantiriladi. Mazkur qarashlar J. Piage va L.S. Vygotskiyning kognitiv rivojlanish nazariyasida asoslab berilgan. L.S. Vygotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» nazariyasida bola kattalar bilan hamkorlikdagi ijodiy faoliyat orqali yangi bilim va ko'nikmalarni egallashi ta'kidlangan.

Respublikamiz pedagog-olimlarining izlanishlarida ushbu muammoga oid qator tadqiqotlar olib borilgan. A.Xodjaeva bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda emotsional muhit va pedagogik qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutishini qayd etadi. Uning fikricha, faoliyatga motivatsiyani shakllantirish – bu ijodkorlik poydevori hisoblanadi. S.Sultonov o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayonida bola mustaqilligi, izlanuvchanligi, savol berish faolligi kreativlik mezonlari sifatida e'tirof etadi. M.Mirsaidov bolalarning faol kognitiv rivojlanishi va kreativ faoliyatini yo'naltiruvchi o'yinli mashg'ulotlar, muammoli vazifalar va tadqiqot elementlarini samarali metodlar sifatida ta'kidlaydi. Shuningdek, N.Abdullaeva, A.Fayzieva, N.Kambarova kabi olimlar ham kichik yoshdagi bolalarda ijodkorlik va mustaqil tafakkurni rivojlantirishda tarbiyachi shaxsning ijobiy munosabati, muloqot madaniyati va ijodiy muhit yaratishni ustuvor omil sifatida ko'rsatadilar.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, motivatsion-kognitiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish, intellektual va shaxsiy rivojlanishga qulay muhit yaratadi.

Motivatsion-kognitiv metodika – bu bolaning shaxsiy qiziqishini uyg'otgan holda, uni bilim olishga, muammoni hal qilishga va yangilik yaratishga yo'naltiruvchi metodlar majmuasidir.

Asosiy maqsad esa katta guruh tarbiyalanuvchilarining: kreativ tafakkurini, noan'anaviy yondashuv qobiliyatini, mustaqil fikrlashini, kognitiv (bilish) faoliyatini, motivatsiyasini rivojlantirish.

<b>Komponentlar</b>	<b>Tavsif</b>
<b>Motivatsion</b>	Bolada faoliyatga nisbatan ichki qiziqish va ishtiyoq uygʻotish: oʻyin, ertak, ijobiy kayfiyat.
<b>Kognitiv</b>	Bilish faoliyatlarini – tafakkur, xotira, eʼtibor, tasavvur, muammoli fikrlashni faollashtirish.
<b>Kreativ</b>	Yangilik yaratish, noodatiy fikrlash, tasavvur qilish va uni ifodalash.

Motivatsion-kognitiv metodika quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Motivatsion tamoyil – bolalarda faoliyatga qiziqish uygʻotish, ichki ehtiyojni shakllantirish;

Kognitiv tamoyil – bilish jarayonlarini ragʻbatlantirish (savol berish, tahlil, solishtirish);

Ijtimoiy-tashkiliy tamoyil – ijodiy muhit yaratish, hamkorlikda ishlashni tashkil etish;

Individuallashtirish – har bir bolaning rivojlanish surʼatiga mos mashgʻulotlar tuzish.

Muayyan oʻqitish metodlarini tanlash jarayonida katta maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari va rivojlanish imkoniyatlariga mos keladigan, turli kognitiv faoliyat turlarini oʻz ichiga oluvchi taʼlimiy vaziyatlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunda bilishning nafaqat anʼanaviy, balki majoziy va obrazli shakllari bilan boyitilgan yondashuvlar ustuvor ahamiyatga ega. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, katta maktabgacha yoshdagi bolalar koʻproq kognitiv motivatsiya orqali faollashadilar, yaʼni ular faoliyatni tushunish, anglash va his qilish jarayonlarida mustaqil va izlanishga tayyor boʻlishadi.

Ushbu yoshdagi bolalarning eksperiment orqali bilim olishga boʻlgan tabiiy intilishi ularda oʻz tajribasi asosida chuqurroq anglash va eslab qolish imkonini beradi. Bu holat qadimiy tajriba asosida ifoda etilgan «Menga ayting – unutaman, menga koʻrsating – eslayman, oʻzim bajaray – tushunaman» degan fikrni eslatadi.

Bolaning intellektual salohiyati va bilishga boʻlgan ehtiyoji nafaqat oʻquv jarayoni qanday tashkil etilganiga, balki ushbu jarayonda bolaning oʻzi qanday ishtirok etayotganiga ham bevosita bogʻliqdir. Taʼlim jarayonida fikr almashinuvi va bolaning faol ishtiroki, mustaqil qarorlar qabul qilishi – bilim samaradorligining muhim omilidir.

Biroq kognitiv faollik oʻz-oʻzidan yoshga bogʻliq holda yuzaga chiqmaydi – barcha bolalarda bu jihatlarda bir xil darajada rivojlanmagan boʻlishi mumkin. Shu boisdan, zamonaviy maktabgacha taʼlim metodikasi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri – bu bolada kognitiv faoliyatni, mustaqillikni, tashabbuskorlikni va aqliy salohiyatni shakllantirishga yoʻnaltirilgan metodlarni ishlab chiqish zaruratidir. Chunki aynan mana shu omillar ijodiy fikrlash va kreativ koʻnikmalarning asosi hisoblanadi.

Maktabgacha aʼlim tashkiloti mashgʻulotlarida bolalarda kognitiv texnologiyalarni qoʻllashda asosiy metodik yoʻnalishlar va usullarni taqdim etishga harakat qilamiz.

Muammoli vaziyatlar yaratish metodi. Bu metod bolalarda fikrlash faolligini ragʻbatlantirish, kreativ yondashuvga undashda ijoiy natija beradi. Mashgʻulot jarayonida pedagog “nima boʻlardi agar...” uslubi: “agar osmonda faqat bir rang boʻlsa, nima boʻlardi?”, “teskari savollar”: “Nima uchun qogʻozni suvda chizmaymiz?” kabi usullardan foydalanish orqali bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantiriladi.

Rolli-oʻyinli faoliyat orqali motivatsiya bolalarda qiziqarli syujet orqali bolani oʻz fikrini ifodalashga undaydi. Bunga “ixtirochilar shaharchasi” – bolalar yangi buyumlar yoki transport

turlarini o'ylab topadi; "erta tongdagi tabiat" – bolalar quyosh, shamol, daraxtlar nomidan gapiradi kabi misollarni keltirish mumkin.

Assotsiativ fikrlashni rag'batlantirish usullari. Masalan, "narsalarga yangi nom berish" (bolaga oddiy buyum ko'rsatiladi, lekin uni yangi nom bilan atalishini so'rash orqali), "so'z zanjiri" o'yini (har bola bir-biridan farqli tasavvur asosida so'zlar zanjirini davom ettiradi) kabilardan foydalanish samarali.

Vizual-tasviriy faoliyat orqali kognitiv rivojlanish. Metodik yondashuv - erkin rasm chizish (mavzusiz) ("nimani xohlasang, shuni chiz"), rasmga asoslangan hikoya tuzish (bolalar tayyor rasmga asoslangan holda hikoya tuzadi).

Savol-javob va tafakkurni faollashtiruvchi suhbatni tashkil qilish. Bunda kreativ savollardan foydalaniladi. "Nima uchun qushlar uxlamaydi?", "sen ixtiro qilsang, qanday robot yaratarding?" kabilari.

Mashg'ulot jarayonida motivatsion-kognitiv metodika asosida faoliyat bosqichlari:

<b>Bosqich</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	<b>Qo'llaniladigan metod</b>
Tayyorgarlik	Diqqatni jamlash, muhitga moslash	Qiziqarli savol, qisqa ertak
Asosiy	Mustaqil fikrlashga undash, yaratuvchanlik	Roliy o'yin, muammoli vaziyat, tasviriy topshiriq
Yakuniy	Natijani baholash va erkin fikr ifodasi	Refleksiya savollari, "Nima bilib olding?"

Ko'pgina psixologlar kreativ qobiliyatini birinchi navbatda fikrlash xususiyatlari bilan bog'laydi.

D. Guilford ijodiy qobiliyatlarning divergent fikrlash bilan bog'liqligini ta'kidlaydi, ya'ni, muammodan uning mazmunidan boshlab turli yo'nalishlarga boradigan fikrlash turi, biz uchun xos bo'lgan konvergent fikrlash esa turli yechimlardan yagona to'g'ri yechim topishga qaratilgan.

Divergent fikrlash ijodiy fikrlashning asosi bo'lib, u quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Tezlik - bu g'oyalarning maksimal sonini ifodalash qobiliyati (bu holda ularning sifati emas, balki miqdori muhim).

Moslashuvchanlik - bu turli xil fikrlarni ifodalash qobiliyati.

O'ziga xoslik - bu yangi, nostandart g'oyalarni yaratish qobiliyati (bu umumiy qabul qilinganlar bilan mos kelmaydigan javoblar va echimlarda o'zini namoyon qilishi mumkin).

To'liqlik - bu sizning «mahsulotingizni» yaxshilash yoki unga tayyor ko'rinish berish qobiliyatidir.

Olim va o'qituvchilar ijodiy ta'lim dasturi va metodlarini ishlab chiqmoqda. Shunday usullardan biri TRIZ (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi).

Maktabgacha yoshga moslashtirilgan TRIZ texnologiyasi bolani «Hamma narsada ijodkorlik» shiori ostida tarbiyalash va o'qitish imkonini beradi.

TRIZ pedagogikasining asosiy e'tibori boy, moslashuvchan, tizimli tasavvurga ega bo'lgan ijodiy va ixtirochi shaxsga qaratilgan.

Bolalar bog'chasida TRIZ texnologiyasidan foydalanishning maqsadi, bir tomondan, moslashuvchanlik, harakatchanlik, tizimlilik, dialektizm kabi fikrlash fazilatlarini rivojlantirish,

ikkinchi tomondan, qidiruv faolligi, yangilikka intilish, nutq va ijodiy tasavvurni rivojlantirish. Shunday qilib, bir tomondan, tasavvur shaxsning maxsus ijodiy qobiliyatlaridan biri bo'lsa, ikkinchi tomondan, umumiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng muhim belgilovchisi hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari uning quyidagi majburiy komponentlarini - ijodiy tasavvur va ijodiy fikrlashni aniqlash imkonini berdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning vizual faoliyat bilan bog'liq qobiliyatlarini, bundan keyin badiiy va ijodiy qobiliyatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy va ijodiy qobiliyatlar - bu shaxsning badiiy va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xos, o'ziga xos muvaffaqiyatlari bo'lib, unda maxsus moyillik turlari va ularning rivojlanishi zarur bo'lib, ular faoliyatning yangi usullari va usullarini o'rganishning qulayligi va tezligini belgilaydi.

Tasvirlash qobiliyati quyidagilardan iborat:

idrok va bog'liq g'oyalar. Tasvirlashni o'rganish uchun idrok etishning maxsus usulini o'zlashtirish kerak: ob'ektni bir butun sifatida ko'rish kerak (mazmun va shaklni birlikda idrok etish), shaklni esa - bir vaqtning o'zida qismlarga ajratilgan (tuzilishi, rangi, fazodagi holati, nisbiy hajmi);

tasvirni grafik tasvirlash vositalarini o'zlashtirish;

chizmachilik texnikasini egallash.

Badiiy ifoda qobiliyatlari:

real dunyo hodisalarini estetik idrok etish, ya'ni tasvir uchun zarur bo'lgan nafaqat hissiy idrok, balki idrok etilayotgan hodisaga estetik baho berish, unga hissiy munosabat, ob'ektning ekspressivligini ko'rish va his qilish qobiliyati.

intellektual faoliyat. Bu sifat taassurotlarni qayta ishlashda, ong va his-tuyg'ularga ta'sir qilgan narsalarni tanlashda, bolaning yangi, o'ziga xos badiiy ifodali tasvirni yaratishga qaratilganligida namoyon bo'ladi.

Katta maktabgacha yosh ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulaydir, chunki aynan shu davrda ijodiy faoliyat uchun psixologik poydevor qo'yiladi. Bu yoshdagi bola o'ziga xosligi, o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligi va harakatchanligi bilan ajralib turadigan yangi rasm, dizayn, tasvir, fantaziya yaratishga qodir. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bola faol, harakatga yo'naltirilgan pozitsiyasi bilan ajralib turadi. Tashabbus qiziquvchanlik, qobiliyat, aqlning izlanuvchanligi, zukkolik, xatti-harakatni ixtiyoriy tartibga solish, qiyinchiliklarni yengish qobiliyati bilan bog'liq.

Tasviriy san'at va birinchi navbatda, rasm chizish ijodkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bolani hayotdagi va san'atdagi go'zallikni to'g'ri va chinakam qadrlashga, uni yaratishga o'rgatish uning ichki dunyosini shunday muhim fazilatlar bilan boyitish demakdir, ularsiz barkamol shaxs bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Insonning go'zallik olamiga, ijod olamiga yo'li oiladan, bog'chalardan boshlanadi. Bolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim bosqichlaridan biri tasviriy san'atdir.

Har xil faoliyat turlari bo'yicha katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyati tarkibi uning tarkibiy qismlarining kombinatsiyasi hisoblanadi: motivatsion, mazmunli, operativ, hissiy-irodali.

1. Maktabgacha tarbiyachining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim sharti bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishdir. Temperament, xarakter va ma'lum psixik funksiyalarning xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Ijodkorlik muhiti bo'lishi kerak - kattalar tomonidan bolalarning his-tuyg'ulari va tasavvurlari «uyg'onganida», bola qilayotgan ishiga berilib ketganda, bunday holatni rag'batlantirish. Ishonchli muloqot, hamkorlik, hamdardlik, bolaga ishonish va uning muvaffaqiyatsizliklarini qo'llab-quvvatlash muhiti mavjud bo'lganda.

[5]

2. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning navbatdagi muhim sharti - o'qituvchining ta'lim

jarayonida tutgan o'rni. Ta'lim tizimimizda malakali pedagog kadrlar, ijodiy faoliyat uchun moddiy-texnik bazasi mavjud bo'lgan holda tasviriy san'at faoliyati muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi o'qituvchi tomonidan bolaning ijodiy salohiyatini ochib berish, zarur psixologik qulaylik muhitini yaratish, bolani o'zi kabi qabul qilish zarurligiga ishonch hosil qilish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonish va o'zini namoyon qilish uchun sharoit yaratishga asoslangan.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning dastlabki bosqichida (bolalar bog'chasida) tasviriy san'at vositalari hissiy va xayoliy fikrlashni rivojlantirishdir. Bolalarni jahon madaniyati bilan tanishtirish, bolaning «buyuk san'at» ga mustaqil kirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bu yo'lni belgilash.

Tasviriy san'at tilini bosqichma-bosqich idrok etish maqsadida bu yo'lning oddiydan murakkabga, xususiydan umumiyga bosqichlarini belgilab, shart-sharoit yaratish zarur. O'qituvchi tasviriy san'at tushunchalari va atamalarini hatto kichik bolalar bilan ham darslarda qo'llashdan qo'rqmaydi, chunki ularni quloq bilan idrok etgan holda, bolalar tezda ularga ko'nikib qoladilar va keyinchalik ulardan ongli ravishda foydalanadilar.

O'qituvchi uchun asosiy narsa tushunchalar va atamalarning ma'nosini tushunishdir, bu ularni bolalar xotirasiga mustahkam singdirishga imkon beradi.

O'qituvchi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni vizual faoliyatning «ABC» larini o'rgatish, ifodali vizual vositalar arsenalini bosqichma-bosqich kengaytirish orqali boshlaydi. Ushbu birinchi elementar qadamlar bolalarga texnologik, oqilona tasvirlash usullarini o'zlashtirishga yordam beradi, ularsiz bolalarning fikrlari va tasavvurlarining parvozi mumkin emas.

3. Bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda atrof-muhit juda katta rol o'ynaydi. Hal qiluvchi rol bola shakllanadigan maxsus mikro muhitga va birinchi navbatda, oila-ota-ona munosabatlarining ta'siriga beriladi.

Bolaning qobiliyatiga e'tiborni kuchaytirish ijodkorlikni rivojlantirish uchun foydalidir, bu uning iste'dodi oilada tashkiliy tamoyilga aylanadi.

Bir tomondan, bolaga e'tibor qaratiladigan, ikkinchi tomondan, unga turli xil, muvofiqlashtirilmagan talablar qo'yiladigan, xulq-atvori ustidan tashqi nazorat kam bo'lgan, ijodiy oila a'zolari mavjud bo'lgan va stereotipik bo'lmagan xatti-harakatlar rag'batlantiriladigan oila muhiti bolada ijodkorlikning rivojlanishiga olib keladi.

Shunday qilib, ijodkorlikni rivojlantirish uchun demokratik munosabatlarga ega tartibga solinmagan muhit va bolani ijodiy shaxsga taqlid qilish kerak.

Ota-onalar va o'qituvchilar bolalarni tanqid qilish va ularning takliflarini qabul qilib bo'lmaydigan yoki ahmoqona deb his qilish ularning ijodini bostirishning eng ishonchli usuli ekanligini unutmasliklari kerak. O'qituvchi bolalarning fikrlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi bolalarni qiyin vazifalarni bajarishga urinishlarida rag'batlantirishi, shu bilan ularning motivatsiyasi va qat'iyatligini rivojlantirishi kerak.

4. Katta maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va rag'batlantirishning eng muhim sharti maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada ijodiy mavzuni rivojlantiruvchi muhitni yaratishdir: uni yorqin taassurotlar bilan boyitish, hissiy va intellektual tajribani ta'minlash, bu g'oyalarning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ish uchun zarur bo'lgan material bo'ladi.

Ko'pincha ijodiy jarayonning o'zi bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta bosqich sifatida qaraladi.

Bola vazifa qo'yadi va kerakli ma'lumotlarni to'playdi.

Bola muammoga turli tomonlardan qaraydi.

Bola boshlangan ishni oxirigacha olib keladi.

Badiiy darslarda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

bola tashabbus ko'rsatish uchun maksimal erkinlikka va buning uchun zarur jismoniy va ruhiy

maydonga ega bo'lishi kerak;

bolada rangli qalamlar, markerlar va qog'ozlar etishmasligi kerak;

chizmaning syujetini tanqid qilmaslik kerak, aksincha, vaqti-vaqti bilan bolaning rasm chizish faoliyatini rag'batlantirish kerak;

bolaning o'zi tanlagan rasmlarni guruhning qulay joyiga osib qo'yish va boladan ularni tushuntirishni so'rash kerak;

Siz bolaga gapirishni yoqtiradigan hamma narsani chizishni taklif qilishingiz kerak va u bilan u chizishni yoqtiradigan hamma narsa haqida gaplashishingiz kerak.

Bolalarning vizual faoliyat bilan tanishishning dastlabki bosqichlaridan boshlab olgan ko'nikmalari ular o'sib ulg'aygan sari mustahkamlanadi va asta-sekin dunyo, hayot, o'zlari haqida - tasvirlanishi mumkin bo'lgan barcha narsalar to'g'risida tasavvurlarini kengaytiradi va unga o'z munosabatini bildiradi.

Adabiyotlar:

1. Muxina V.S. (1985). Psixologiya doshkolnika. Moskva: Prosveshcheniye.
2. Vygotsky L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Guilford, J.P. (1967). The Nature of Human Intelligence. McGraw-Hill.
4. Xodjaeva A. (2019). Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Ilm-fan va Taraqqiyot, 4(2), 43–47.
5. Sulonov S. (2020). Pedagogik jarayonda bolalarda kreativlikni rivojlantirish. Ta'lim va amaliyot, 1(1), 21–25.
6. Komarova T.S. (2021). Tasviriy san'at vositasida bolalarning hissiy-estetik tarbiyasi. Ta'lim psixologiyasi, 3(4), 33–40.

## **BO'LAJAK PEDAGOGLARDA O'QUV JARAYONINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI 7K MODEL ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI**

*Joldasbaeva Ayjamal Rustembay qizi,  
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda o'quv jarayonini loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda 7K modeli asosidagi yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. 7K modeli — ya'ni kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya, kritiklik (tanqidiy fikrlash), kompetensiya, ko'p tildalik va kognitivlik elementlariga tayangan holda o'qituvchilarni tayyorlashda loyihalash ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada 7K modeli doirasida o'quv rejalarini loyihalashga doir metodik tavsiyalar, samarali texnologiyalar va xorijiy tajribalarga tayanilgan holda innovatsion mexanizmlar bayon etiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish va pedagogik faoliyatga tayyor kadrlarni shakllantirishda 7K modelining samaradorligini tasdiqlaydi.*

*Kalit so'zlar: 7K modeli, pedagogik loyihalash, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kooperatsiya, zamonaviy ta'lim, metodik yondashuv.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bo'lajak o'qituvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o'quv jarayonini samarali loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu jihatni hisobga olgan holda, xalqaro miqyosda Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi ilg'or ta'lim tizimlarida o'qituvchi tayyorlash jarayonida 7K modeli – kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya, kritiklik (tanqidiy fikrlash), kompetensiya, ko'p tildalik va kognitivlik asosida loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish keng qo'llanilmoqda. AQShdagi Project-Based Learning (PBL) dasturlari ham 7K modelining asosiy komponentlarini o'quv rejalarini loyihalashga singdirishga qaratilgan.

Jahon tajribasida o'qituvchilarning loyihalash salohiyatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarda (Fullan, 2013; Trilling & Fadel, 2009) 7K modeli asosida ta'lim dizayniga urg'u berilishi ta'lim jarayonining interaktiv, reflektiv va funksional bo'lishini ta'minlaydi. Xususan, Germaniya va Niderlandiyada pedagogik institutlar 7K kompetensiyalari asosida o'quv dasturlarini yangilash orqali o'qituvchilik kasbining kreativ va innovatsion mohiyatini kuchaytirishga erishmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ushbu yo'nalishda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Yangi O'zbekiston – maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim" konsepsiyasida (2022) o'qituvchi shaxsini yetuk mutaxassis sifatida shakllantirish, ularni zamonaviy metodikalar asosida tayyorlash va pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga tadbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-fevraldagi PQ–53-son qarorida pedagoglarni tayyorlashga oid o'quv dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan.

Yuqoridagi asoslar bo'lajak o'qituvchilarda 7K modeli asosida o'quv jarayonini loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Адабиётлар таҳлили. Бо'lajak o'qituvchilarda o'quv jarayonini loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishda 7K modeli ilmiy-nazariy yondashuv sifatida so'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biriga aylangan. Mazkur model komponentlari – kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya, kritik fikrlash, kompetensiyalar, ko'p tildalik va kognitivlik – zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida

qaraladi.

Amerikalik tadqiqotchilar Trilling va Fadel (2009) o‘zlarining “21st Century Skills: Learning for Life in Our Times” asarida ushbu yetti kompetensiya majmuasining zamonaviy ta’lim uchun asosiy poydevor ekanini ta’kidlab, ularni o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadilar. M.Fullan (2013) esa o‘qituvchilik kasbining “muvaffaqiyatli transformatsiyasi” uchun aynan loyihalash, ijtimoiy faollik va refleksiya mexanizmlarining muhimligini asoslab beradi.

Shuningdek, Evropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan ET2020 strategiyasi doirasida “pedagoglarning raqamli va innovatsion kompetensiyalarini oshirish” asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanib, 7K modeliga mos yondashuvlar orqali o‘qituvchilarni tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

MDH davlatlari, jumladan, Rossiya Federatsiyasida ham (A.B. Хуторской, 2019; Н.Ф. Радионова, 2021) kompetensiyaviy yondashuv va o‘quv jarayonini loyihalash masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilib, o‘qituvchi shaxsida innovatsion fikrlash va kreativ pedagogik madaniyatni shakllantirish zarurligi ko‘rsatilgan.

O‘zbekistonlik olimlartomonidan ham ushbu yo‘nalishda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, B.Qodirov (2020) o‘quv jarayonini loyihalashda integratsiyalashgan yondashuvlarning samaradorligini asoslagan. D.Musurmonova (2021) pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rnini ochib bergan. Z.Mamatqulova (2022) esa bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv metodlarning ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-fevraldagi PQ–53-son qarori va “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Yangi O‘zbekiston strategiyasi”da o‘qituvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish, ularni innovatsion metodlar bilan ta’minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

7K modeli asosida o‘qituvchilarning loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish hozirgi ta’lim islohotlari, xalqaro tajriba va ilmiy izlanishlar bilan mustahkam bog‘liq bo‘lib, u o‘qituvchilik kasbining transformatsiyasi va ta’lim sifatining oshishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Мулоҳазава методик ёндашувлар, технологиялар. Таълим мазмунини замонавийлаштириш ва унинг сифатини оширишда ўқитувчи шахсининг педагогик лойиҳалаш кўникмалари муҳим ўрин тутди. Айниқса, 7К модели асосида шаклланадиган кўникмалар мажмуаси – инновацион, креатив ва танқидий фикрлайдиган, ҳамкорликда ишлай оладиган ва кўп тилли, компетентли педагогни етиштиришга қаратилган. Бундай мақсадга эришиш учун қуйидаги методик ёндашувлар ва технологиялардан фойдаланиш самарали ҳисобланади:

1. Loyihaviy ta’lim yondashuvi (Project-Based Learning – PBL). Bu yondashuv talabalarda o‘z-o‘zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va o‘rganishni rejalashtirish qobiliyatini shakllantiradi. PBL orqali talabalar 7K modelidagi barcha kompetensiyalarni real loyihalar orqali amaliyotga tatbiq etadilar.

2. Reflektiv yondashuv. Pedagogik loyihalash jarayonida talabalar o‘z tajribalarini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga o‘rganadilar. Refleksiya asosida amalga oshiriladigan tahliliy fikrlash ko‘nikmalari kritik va kognitiv elementlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Konstruktiv yondashuv. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi faol sub’ekt bo‘lib, bilimni o‘zi kashf etadi, strukturaviy holatda qayta ishlab chiqadi. Dars jarayonida o‘qituvchilar bo‘lajak pedagoglarda loyihaviy fikrlash, dizayn va modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. STEAM integratsiyasi. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi orqali 7K modelining kreativlik va mulokot, hamkorlik elementlari mustahkamlanadi.

Бунда рақамли воситалардан самарали фойдаланиш ҳам катта аҳамият касб этади.

5. Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Google Classroom, Miro, Padlet, Canva, Trello каби платформалар педагогик лойиҳалаш жараёнида таҳлил, режалаш ва презентация қилиш ишларини осонлаштиради. ChatGPT, Kahoot!, Quizziz каби AI ва gamifikatsiya платформалари орқали танқидий ва креатив фикрлаш муҳити яратилади.

6. Kooperativ o'qitish metodlari. "Jigsaw", "Think-Pair-Share", "Gallery Walk" каби усуллар орқали талабалар гуруҳда ишлашни, мулоқот ва ҳамкорликни, умумий мақсад сари ҳаракат қилишни ўрганадилар. Бу эса 7К моделининг асосий компетенцияларини мустаҳкамлайди.

7. Portfolio asosida baholash. Pedagogik loyihalashdagi yutuqlar va bilimlar portfoliolar orqali kuzatib boriladi. Bu esa talabalarning rivojlanishini tizimli baholash imkonini beradi.

7К моделига асосланган методик ёндашувлар таълим сифатини оширишга, педагогларнинг инноватор сифатида шаклланишига, шунингдек, уларнинг жамиятда мураккаб муаммоларни ҳал этишдаги шахсий ва касбий тайёргарлигини таъминлашга хизмат қилади.

Natijalar. Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarda 7К modeli asosida o'quv jarayonini loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar va texnologiyalar sinovdan o'tkazildi hamda quyidagi muayyan natijalarga erishildi:

Pedagogik loyihalash ko'nikmalari aniq strukturada rivojlandi – talabalar o'quv rejalarini mustaqil ishlab chiqish, loyihalashtirish va natijalarni baholashda faol ishtirok etishga tayyor bo'lishdi.

7К modeli komponentlarining integratsiyasi ta'minlandi:

Kreativlik – yangi didaktik g'oyalarni yaratish, ta'limiy loyihalarni dizayn qilish;

Kommunikatsiya va kooperatsiya – guruhiy ish, taqdimot va fikr almashish jarayonlarida faol namoyon bo'ldi;

Kritik fikrlash – o'z faoliyatini tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yondashuvda ko'zga tashlandi;

Ko'p tildalik – loyihalarda xorijiy adabiyotlar va materiallar bilan ishlash ko'nikmasi shakllandi;

Kognitivlik – bilimni tizimli o'zlashtirish va fikrlash amaliyotida yangi darajaga erishildi.

Didaktik vositalar va raqamli texnologiyalar samarali qo'llanildi – Google Jamboard, Miro, Canva va Padlet platformalaridan foydalangan holda talabalar vizual taqdimotlar tayyorlash, dars rejalarini tuzish va pedagogik loyihalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etdilar.

Metodik refleksiya va portfoliolar orqali o'z-o'zini baholash shakllandi – bu esa o'qituvchi sifatida o'z ustida ishlash, o'z faoliyatini kuzatish va takomillashtirish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qildi.

Eksperimental guruh natijalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi – bunda PBL, reflektiv yondashuv, STEAM integratsiyasi kabi metodlarning amaliy samaradorligi isbotlandi.

7К modeli asosida o'quv jarayonini loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat kasbiy tayyorgarlikni kuchaytiradi, balki kelajak o'qituvchisining zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetent shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Bu esa butun ta'lim tizimi uchun muhim bosqichdir.

7К модели – бу замонавий таълимда ўқитувчилар ва ўқувчиларда ривожлантирилиши лозим бўлган «еттита асосий компетенция (қобилиятлар тўплами)»ни ўз ичига олган модел ҳисобланади. У таълим жараёнида шахсий, ижтимоий, когнитив ва маданий компетенциялар уйғунлигини таъминлайди.

7К модели қандай элементларни ўз ичига олади?

№	Kompetensiya nomi	Ta’rifi va mazmuni
1	<b>Kreativlik</b>	Yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noan’anaviy yechim topish qobiliyati
2	<b>Kommunikatsiya</b>	Ochiq muloqot, tinglash, fikrni aniq ifoda qilish va muloqot etikasiga rioya qilish
3	<b>Kooperatsiya</b>	Guruhda samarali ishlash, hamkorlikda qaror qabul qilish va jamoaviy vazifalarni bajarish
4	<b>Kritik fikrlash</b>	Ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash, asoslangan xulosalar chiqarish
5	<b>Kompetensiya</b>	Teoriyani amaliyotda qo‘llash, vazifalarni hal qilish uchun kerakli bilim va ko‘nikmalar
6	<b>Ko‘p tildalik</b>	Bir nechta tilda muloqot qilish, turli madaniyatlarni tushunish va hurmat qilish
7	<b>Kognitivlik</b>	Intellektual faollik, bilimlarni o‘zlashtirish, e’tibor, xotira, tafakkur jarayonlari

### 1. Pedagoglarni tayyorlash tizimida

7K modeli oliy pedagogik ta’lim muassasalarida foydalanilganda:

- Ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish imkoniyatini beradi;
- Bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini uyg‘unlashtirib rivojlantiradi;
- Tanqidiy fikrlash va ijodkorlikka asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi;

- Guruhda ishlash, muloqot qilish, kooperativ o‘qitish orqali hamkorlik muhitini yaratadi.

### 2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida

Mazkur modelni o‘quvchilarga moslashtirilgan holda qo‘llash:

- XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish (texnikaviy va ijtimoiy qobiliyatlar);
- O‘quv jarayonida STEAM, CLIL, PBL kabi integratsiyalashgan metodlar bilan uyg‘unlashtirish;
- O‘quvchilarning muammolarni hal qilish, innovatsion fikrlash, guruhda ishlash kabi kompetensiyalarini oshirish;

- Multimadaniyatli va ko‘p tilli muhitda ishlashga tayyorgarlik.

### 3. Pedagogik malaka oshirish kurslari va qayta tayyorlash dasturlarida

- Aniq fanlar bo‘yicha o‘qituvchilarga zamonaviy uslubiy yondashuvlarni o‘rgatish;
- Metodik salohiyatni refleksiya, tahlil va o‘zgarishga ochiqlik asosida rivojlantirish;
- Raqamli pedagogika, ta’limda dizayn fikrlash asoslarini kiritish orqali pedagoglarning kasbiy qayta tayyorlanishiga xizmat qiladi.

### 4. Ta’limning raqamlashtirilgan muhitida

7K modeli zamonaviy AKT bilan uyg‘unlashadi:

- Onlayn ta'lim platformalarida samarali ta'lim loyihalarini ishlab chiqish;
  - Virtual sinflarda muloqot, hamkorlik va tahlil qobiliyatini rivojlantirish;
  - Gamifikatsiya, AI assistant, vizual dasturlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish.
5. Ilmiy tadqiqot va ta'limda innovatsiyalar sohasida
- Pedagogika, psixologiya, ta'lim texnologiyalari yo'nalishidagi tadqiqotlar uchun nazariy asos sifatida xizmat qiladi;
  - Yangicha ta'lim modellarini yaratish va eksperimental sinovdan o'tkazishda metodologik poydevor bo'ladi;
  - Ta'lim islohotlariga bunyodkor yondashuv va maqsadli rivojlanish yo'lini belgilaydi.
6. Ta'lim boshqaruvi va strategik rejalashtirishda
- Ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda ta'lim sifatini oshirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish yo'li sifatida;
  - Pedagoglarni attestatsiyalash va baholash mezonlarini belgilashda 7K asosida kompetensiyaviy yondashuv taklif qilinadi.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarda 7K modeli asosida o'quv jarayonini loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 7K modeli — kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya, kritik fikrlash, kompetensiyalar, ko'p tildalik va kognitivlik kabi muhim komponentlar asosida ta'limni loyihalash pedagog shaxsining har tomonlama shakllanishini ta'minlaydi.

Innovatsion metodlar — loyiha asosida o'qitish (PBL), reflektiv yondashuv, kooperativ ta'lim metodlari, STEAM integratsiyasi va raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan ta'lim vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy va moslashuvchan loyihalash ko'nikmalariga ega bo'lishdi. Eksperimental natijalar esa 7K modelining ta'lim sifatiga ta'siri yuqori ekanligini tasdiqladi.

Tahlil va kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, 7K modeli asosida shakllangan pedagogik yondashuvlar:

- o'quvchining shaxsiy faolligini oshiradi,
- mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi,
- guruhiy hamkorlik va kommunikativ salohiyatni kuchaytiradi,
- o'zini rivojlantirish va baholash imkonini beradi.

Ushbu mexanizm bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini zamon talablari darajasida tashkil etishda samarali vosita sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston – maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim" konsepsiyasi (2022). [www.president.uz](http://www.president.uz)

Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. Jossey-Bass.

Fullan, M. (2013). *Stratosphere: Integrating Technology, Pedagogy, and Change Knowledge*. Pearson.

Хуторской А.В. (2019). Педагогическая инноватика и проектирование образовательных систем. Москва: ВЛАДОС.

Радионова Н.Ф. (2021). Педагогическое проектирование в условиях цифровой трансформации образования. СПб.: РГПУ им. А.И. Герцена.

Musurmonova D. (2021). Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda AKT vositalarining o'rni. Toshkent: TDPU ilmiy jurnali.

Qodirov B. (2020). Pedagogik jarayonda integratsiyalashgan yondashuvlarning metodik asoslari. Andijon davlat universiteti ilmiy to'plami.

Mamatqulova Z. (2022). Bo'lajak o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish. NamDU ilmiy jurnali.

PQ-53-son qaror. (2023). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining pedagogik ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

ET2020 Framework – European Strategic Framework for Education and Training. European Commission. [www.ec.europa.eu](http://www.ec.europa.eu)

## SO‘LAK DIMLANISHINING SABABI, BELGILARI, ASORATLARI VA OLDINI OLISH

*Jovliyev Baxtiyor Xolbayevich*  
*Osiyo texnologiyalar universiteti katta oqituvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada so‘lak bezlari, ularning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati, shuningdek, lab jarohatlari tufayli so‘lak bezi kanalining bekilib qolish ehtimoli borligi, bu esa so‘lak bezi kapsulasining cho‘zilishiga va o‘lchamining kattalashishiga, ya‘ni kista hosil bo‘lishi mumkinligi bayon qilinadi. Shuningdek, maqolada kistaning gistologik tuzilishi, ularning haqiqiy va soxta turlari, yuzaga kelish sabablari, to‘g‘ri tashxis qo‘yish va kista shakllanishining oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

*Kalit so‘zlar. So‘lak bezlari, so‘lak yo‘llari, kista, haqiqiy kista, soxta kista, tashxis qo‘yish.*

## ПРИЧИНЫ, СИМПТОМЫ, ОСЛОЖНЕНИЯ И ПРОФИЛАКТИКА ЗАСТОЯ СЛЮННЫХ ПРОТОКОВ

*Аннотация. В статье рассматриваются слюнные железы, их значение в пищеварении, а также возможность закупорки протока слюнной железы вследствие травм губы, что может привести к растяжению и увеличению размеров капсулы слюнной железы, т. е. образованию кисты. В статье также приведены сведения о гистологическом строении кист, их истинных и ложных видах, причинах возникновения, рекомендации по правильной диагностике и профилактике образования кист.*

*Ключевые слова: Слюнные железы, слюнные протоки, киста, истинная киста, псевдокиста, диагностика.*

## CAUSES, SYMPTOMS, COMPLICATIONS AND PREVENTION OF SALIVARY DUCTS STAGNATION

*Annotation. The article discusses the salivary glands, their importance in digestion, and the possibility of blockage of the salivary gland duct due to lip injuries, which can lead to stretching and an increase in the size of the salivary gland capsule, i.e. the formation of a cyst. The article also provides information on the histological structure of cysts, their true and false types, causes of occurrence, recommendations for correct diagnosis and prevention of cyst formation.*

*Keywords: Salivary glands, salivary ducts, cyst, true cyst, pseudocyst, diagnostics.*

**Kirish (Introduction).** Og‘iz bo‘shlig‘iga uch juft: til osti, jag‘ osti, quloq oldi so‘lak bezlarining kanalchalari ochiladi. Bulardan tashqari juda ko‘p mayda so‘lak bezlari ham bo‘ladi. Katta yoshli odamlarda kuniga 2 litrgacha so‘lak ajralib, og‘iz bo‘shlig‘iga quyiladi va oziq moddalarini namlaydi, uning yutilishini qulaylashtiradi. So‘lak tarkibida uglevodlarni parchalovchi ptialin fermenti bo‘ladi. Shuning uchun non og‘izda ko‘proq chaynalsa, kraxmal parchalanib, shirin maza bera boshlaydi. So‘lak tarkibida lizotsim degan modda bo‘lib, u og‘iz bo‘shlig‘iga tushgan mikroblarni eritib yuborish xususiyatiga ega [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). So‘lak - ovqat hazm qilish,

minerallashtirish, himoya, antibakterial, tozalash, ajtatuvchi, tiklovchi, og'riq qoldiruvchi xususiyatlarga, shuningdek, nutqning ravon talaffuzida muhim ahamiyatga ega.

So'lak - tish emalini mikroelementlar va minerallar bilan ta'minlaydi, emalning kimyoviy tarkibini barqarorlashtiradi, uni qalinlashtiradi bu esa qattiq tish to'qimalarining g'ovak va mo'rt bo'lishiga olib keladigan jarayon, ya'ni, demineralizatsiyasining oldini oladi [2].

So'lak - tishlarning sirtini Ca, fosfor va peptidlardan iborat yopishqoq qatlam bilan qoplab uni himoya qiladi, emalning eruvchanligini pasaytiradi, gidroksid va kislotalar ta'sirini pasaytiradi va tishlarda tosh hosil bo'lishining oldini oladi.

So'lak tarkibidagi yupqa oqsilli musin qatlami tishlarni va og'iz bo'shlig'idagi barcha shilliq pardalarni qoplaydi, ularni yog'laydi, suvsizlanishdan, kimyoviy va mexanik shikastlanishdan va bakterial ta'sirlanishdan himoya qiladi.

So'lak - patogen mikroorganizmlarning haddan tashqari ko'payishiga va mikroblar va viruslarning tanaga tashqaridan kirishiga to'sqinlik qiladi.

So'lak - og'iz bo'shlig'i va tishlarning o'z-o'zini tozalash jarayonini amalga oshiradi, ya'ni ularni yuvib oziq-ovqat zarralari va to'plangan mikroorganizmlardan tozalaydi [3].

So'lakni tupurganimizda barcha keraksiz narsalarni, ya'ni siydik kislotasi, dorilarning toksinlari, karbamid, gormonlar va boshqa chiqindilarni chiqarib tashlaydi.

So'lakdagi bakteritsid va qayta tiklovchi moddalar mavjudligi tufayli og'iz bo'shlig'idagi har qanday yaralarning tez bitishiga yordam beradi.

So'lakdagi opiorfin oqsili ancha samarali og'riq qoldiruvchi vositadir.

So'lak va uning tarkibidagi shilimshiq bilan og'iz bo'shlig'ining namlanishi bizga aniq gapirish qobiliyatini beradi [4].

Yuqorida berilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'lak tomonidan bajariladigan vazifalar turli xil va organizmning me'yorida ishlashi uchun juda muhimdir. Bu funksiyalarning bajarilishini uning kimyoviy tarkibi ta'minlaydi. So'lakning tarkibi doimiy emas va ko'plab omillarga - kunning vaqti, iste'mol qilinadigan mahsulotlar, oziq-ovqat stimulyatorlari, ekologiya, sog'liq holati, yosh kabilarga bog'liq.

So'lak bezlarida so'lak ajralishining buzilishi natijasida kista (yunoncha: kistis - pufak) - qalin devor bilan o'ralgan va ichida suyuq yoki bo'tqasimon massasi bo'lgan patologik bo'shliq vujudga kelishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Kista ko'pincha quyidagialarda uchrashi mumkin:

-bezli a'zolar sekret chiqaruv yo'llarining berkilib qolishi natijasida kelib chiqadigan dimlanish kistasi (retension kista);

-to'qimalar shakllanishining buzilishi oqibatida paydo bo'ladigan tug'ma kista (o'pka, jigar, buyrak va boshqalarda);

-tomir yoki bez o'smasidan iborat bo'lib, ichiga suv to'planishi tufayli kistaga aylanadigan o'smasimon kista (kavernoz angioma);

-shikastlanish natijasida epiteliy siljishi va tagidagi to'qimaga kirishidan hosil bo'ladigan travmatik kista (masalan, ko'z rangdor pardasi kistasi),

-gijjal (exionokokk) ning to'qima va a'zolariga joylashib olishidan vujudga keladigan parazitlar kista va boshqa xillari bor.



Retention kista – soʻlak bezlarida soʻlak ajralishining buzilishi natijasida hosil boʻlgan haqiqiy kista turi boʻlib, yopishqoq suyuqlik bilan toʻlgan va ogʻriqsiz kechadigan hosiladir. Retention kistalar paydo boʻlishining odatiy joylari til yuzasining pastki qismi, til osti sohasi, lablarning mayda soʻlak bezlari va lunjlardir. Koʻpincha kichik, shaffof, suyuqlik bilan toʻlgan shish sifatida namoyon boʻladi. Ushbu kistalar odatda ogʻriqsiz kechsada, lekin ovqatlanayotganda, gaplashganda yoki yuvganda noqulaylik tugʻdirishi mumkin [5].

Retention kistalar odatda oʻz-oʻzidan yoʻq boʻlib, tuzalib ketadi, ammo baʼzi hollarda tibbiy aralashuv talab qilinishi mumkin. Koʻp hollarda kistani olib tashlash jarayoni oddiy va xavfsiz boʻlib, kista qayta hosil boʻlmasligi uchun amalga oshiriladi. Pastki labda shunga oʻxshash holat aniqlansa, davolash maqsadida shifokor yoki tish shifokoriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Mayda soʻlak bezlarining yoʻllari bekilib qolishi tufayli yuzaga kelgan kista

Retention kista koʻpincha lablarning shilliq qavatida (asosan pastki qismida) yuzaga kelib, jarohat olish (labni tishlash) bilan bogʻliq, buning natijasida soʻlak bezining kanali bekilib qoladi, bezda esa soʻlak ishlab chiqarilishi davom etib, soʻlak bezining kapsulasi choʻzilishi va uning hajmining oshishiga olib keladi [6].

Koʻpgina hollarda bunday kistalar katta muammolarni keltirib chiqarmaydi, ular ogʻriqsizdir, ularning ustidagi shilliq qavat rangi oʻzgarmaydi va faqat diametri 2 sm gacha hajmga yetganda, estetik noqulaylik paydo boʻlishi yoki chaynash paytida takroriy tishlash tufayli jarohatlar paydo boʻlishi mumkin,

Bemor bunday muammo bilan mutaxassisga qanchalik tez murojaat qilsa, uni jarrohlik amaliyoti bilan davolash osonroq va tezroq boʻladi. Muammoni uzoq vaqt eʼtiborsiz qoldirish kista sohasidagi shilliq qavatda chandiqli oʻzgarishlarga olib kelishi mumkin va natijada uni olib tashlash qiyinroq boʻladi [7].

Labdagi kistalar va uning uning turlari.

Gistologik tuzilishiga koʻra, mayda soʻlak bezlari kistasining pufak pardasi yoʻq, uning oʻrniga mayda soʻlak bezining kapsulasi bor boʻlgan haqiqiy kista, hamda jarohatdan soʻng hosil boʻlib, soʻlak bezining kapsulasi shikastlanganda va uning tarkibi yumshoq toʻqimalarga oʻtganda paydo boʻladigan soxta kista turlari bor [8].

Retention kistalar joylashuvi va belgilariga qarab quyidagi turlarda boʻladi:

Til osti so'lak bezi kistasi - shu sohadagi muskulda hosil bo'ladi. Bunday kistaning o'ziga xos xususiyati shundaki, undan suyuqlik o'z-o'zidan chiqib turadi va yana qayta to'planadi. Astasekin kista kattalashib boradi va yuz qismining assimetriyasi yuzaga keladi, shuningdek, muloqot va ovqatlanish paytida noqulaylik paydo bo'lishi mumkin [9].

Jag' osti so'lak bezi kistasi - paypaslab ko'rilganda silliq dumaloq, sharsimon bezni aniqlash mumkin. Kasallikning asosiy belgisi - so'lak ajralishining buzilishidir.

Quloq oldi so'lak bezi kistasi - kamdan-kam uchrab asosan jarohat tufayli yuzaga keladi. Dastlab, kista borligi sezilmaydi, ammo, keyinchalik og'izni ochganda og'riq paydo bo'la boshlaydi [10].

Ko'pincha odamlar pastki mayda so'lak bezlarining yo'llari bekilib qolishi natijasida labning ichki sohasida hosil bo'lgan kistadan aziyat chekishadi, yuqori labda kamroq uchraydi, u lunj, til, tanglayda ham paydo bo'lishi mumkin [11].

Kelib chiqishi bo'yicha kistalar quyidagicha bo'lishi mumkin:



1. So'lak bezining yallig'lanishi natijasida, chandiqlik hosil bo'lganda, so'lak yo'llari bekilib qolishi hollarida paydo bo'ladi;

2. Tug'ma kistalar - uning sababi embrional davrda homila rivojlanishidagi buzilishlar bilan bog'liq.

Bu kistalar yuzaga kelishida bakteriyalar va viruslarning aloqasi yo'q, shuning uchun u yuqumli emas [12].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mayda so'lak bezlarining yo'llari bekilib qolishi natijasida labning ichki sohasida hosil bo'lgan kista paydo bo'lishining asosiy sabablari:

1. Immunitetning buzilishi bilan bog'liq surunkali yallig'lanish jarayonlarining kechishi;
2. Tishning jarohatlanishini o'z vaqtida davolatmaslik;
3. Aql tishlarining chiqishi, ularning noto'g'ri o'sishi, joylashishi bilan bog'liq buzilishlar;
4. Og'iz bo'shlig'i a'zolaridagi jarohatga infeksiya tushishi;
5. Mayda so'lak bezlaridagi kistalar.

Mayda so'lak bezlarining yo'llari bekilib qolishi natijasida labning ichki sohasida hosil bo'lgan kista diagnostikasi.

Mayda so'lak bezlarining yo'llari bekilib qolishi natijasida labning ichki sohasida hosil bo'lgan kista biriktiruvchi to'qimadan hosil bo'lgan kapsula bo'lib, uning ichida yopishqoq suyuqlik bo'ladi, agar tashqaridan qaralganda, u kichkina sharga o'xshaydi. Bu kista deyarli sezilmaydi, og'rimaydi, faqat ba'zi hollarda - ovqatlanish yoki suhbat paytida noqulaylik tug'diradi.

Labning ichki sohasida hosil bo'lgan bu kistalar tez o'sishi va diametri 2 sm gacha kattalashishi mumkin, ammo, uning atrofidagi shilliq qavat o'zgarmaydi, ayrim hollarda uning ichidagi yopishqoq suyuqlik tufayli u ko'kimtir rangda bo'ladi, paypaslaganda yumshoq bo'ladi. Ovqatlanish jarayonida kista shikastlanishi mumkin, natijada uning suyuqligi chiqib ketadi, ammo bir muncha vaqt o'tgach, u yana to'ladi. Bosib ko'rilganda u yo'qoladi, lekin biroz vaqt o'tgach, yana paydo bo'ladi. Mutaxassis stomatolog tekshirib ko'rgach, uning qanday turdagi

kista ekanligini aniqlashi mumkin.

To'g'ri tashxis qo'yish uchun kistaning tuzilishini, hajmini va uning ichidagi suyuqlik tarkibini to'liq o'rganish lozim. Zondlash orqali so'lak bezi yo'llarining kengligini aniqlash mumkin. To'liq tekshiruvdan so'ng, stomatolog labdagi kistani qanday qilib olib tashlashni tavsiya qiladi.

Labdagi kistaning belgilari

Labda kista shakllanishining dastlabki bosqichlarda uning paydo bo'layotganidan darak beruvchi o'ziga xos belgilar bo'lmaydi. Biroq, bir muncha vaqt o'tgach, noxush belgilar, yiringlash va uning yorilishi kuzatiladi. Labdagi kista hech qanday noqulaylik tug'dirmasdan, asta-sekin o'sib boradi, shuning uchun odam unga e'tibor ham bermasligi mumkin. O'lchami kattalashavergani sari uning yonidagi tishlarga, nerv uchlari - retseptorlarga va bo'shliqlarga ta'sir qiladi.

Pastki yoki yuqori lablarda kista paydo bo'lganda, jag' shishib, tana harorati ko'tarilshi, organizmning umumiy intoksikatsiyasi yuzaga kelishi mumkin. Kasallikning birinchi belgilarini sezgan zahoti darhol stomatolog shifokorga murojaat qilish kerak.

Labda kista shakllanishining xavfi nimada?

Labdagi kista tishlarga tegib ishqalanadi, bu holat takrorlanaversa, ma'lum vaqt o'tgach, shikastlanishi, yallig'lanishi, yiringlashi va uning yorilishi natijasida qon ketishi mumkin. Kistaning o'zi boshqa kasalliklarni qo'zg'atishi ham mumkin. Misol uchun, agar odam tamaki mahsulotlarini chekadigan bo'lsa, kista yaxshi sifatli turidan yomon sifatli turiga aylanib ketish xavfi ortadi. Bu esa kistaning paydo bo'lish xususiyati, biopsiya qilish kabi maxsus tibbiy tekshiruvlar o'tkazishni taqozo etadi. Tekshirish natijalariga qarab, keyingi qarorlar qabul qilinadi.

Labdagi kistani davolash

Pastki yoki yuqori labda kista bo'lsa, ko'pincha darhol jarrohlik amaliyotini o'tkazishni taqozo etadi.

Lablardagi kistasini olib tashlash quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:

novokain, lidokain, ubistesin, ultrakain, articaïn, ropivabin, naropin va procain kabi preparatlar qo'llanilib infiltratsion anesteziya amalga oshirish;

anestetik bilan birga adrenalinni ham qo'llash mumkin;

infiltratsion behushlik ostida retension kistani olib tashlash;

olib tashlangandan so'ng, tikuvlar qo'llanilishi;

tikuvlar ko'pincha 5-10 kun ichida o'z-o'zidan erib ketadi.

Yuqori labdagi kistani jarrohlik aralashuviz konservativ tarzda ya'ni kistaning shakllanishidagi to'qimalarni chiqarib tashlanadi, so'ngra yara tikiladi.

Labdagi kistani olib tashlash jarrohlik amaliyotidan keyingi tiklanish jarayoni

- kista olib tashlangandan so'ng, sezilar-sezilmas og'riq va shish paydo bo'lishi mumkin;

- bu og'riq 2-3 kun ichida yo'qoladi;

- jarrohlik amaliyotidan so'ng tiklanish davrida og'riq qoldiruvchi vositalarni qabul qilish;

- 4-7 kun davomida antiseptik moddalar bilan yuvish amalga oshiriladi;

- keyingi xavf-xatarlarning oldini olish uchun mutaxassis tomonidan nazorat ostida bo'lish va muntazam ravishda tekshiruvlardan o'tib turish kerak.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Labdagi kistalarning oldini olish:

- og'iz bo'shlig'i gigiyenasi (tishlarni muntazam ravishda tozalash) ga qat'iy rioya qilish;

- tish kasalliklari va tomoq, quloq va burun kasalliklarini o'z vaqtida davolash;

- sog'lom ovqatlanish.

- har qanday vaqtda va kutilmaganda lab shikastlanishi mumkin, buning oldini olish uchun esa ehtiyotkorlik bilan va asta-sekin ovqatlanish, tishlarni yaxshilab, shoshmasdan va bemalol yuvish kabi ehtiyot choralarini ko'rish kerak bo'ladi.

Labda kista hosil bo'lishining dastlabki belgilari, ya'ni noqulaylik, labda, lunjda, til ostida zichlashgan sharsimon tuzilmalar paydo bo'lganda, kista o'sishining oldini olish uchun darhol

stomatolog shifokorga murojaat qilib, diagnostikadan o'tish, kistaning qaysi turi ekanligini aniqlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jovliyev B. X., Tibbiy bilim asoslari fanidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. 258 bet. 16,12 b/t. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 6- sentabrdagi 333-sonli buyrug'iga asosan 333-314 raqam bilan ro'yxatga olingan guvohnoma.

2. Jovliyev B. X., Tibbiy bilim asoslari. O'quv qo'llanma. 264 bet. 16,50 b/t. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 6- sentabrdagi 333-sonli buyrug'iga asosan 333-372 raqam bilan ro'yxatga olingan guvohnoma

3. Jovliyev B. X., Bo'ranova G. Jismoniy tarbiya gigiyenasi va sportning tibbiy fiziologik asoslari. O'quv qo'llanma. 166 bet. 10,36 b/t. Qarshi davlat universiteti rektorining 2022 yil 27-dekabrda 275 I- sonli buyrug'iga asosan 275 I- 19 raqam

4. Jovliyev B. X., Rajobov O'. Imkoniyati cheklangan bolalarga mahalliy tendensiyalar asosida umumiy ta'lim berish xususiyatlari. Qarshi DU Boshlang'ich ta'lim kafedrasida "Ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: dolzarbligi, muammolari va istiqbollari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami, 214–220-bet. (2024 yil 26-27 aprel)

5. Jovliyev B. X., Jovliyev Sh. B. Biotexnologiyaning tarixi va uning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishdagi o'rni. QITU "Yangi O'zbekiston sharoitida tarix va ijtimoiy fanlarning dolzarb masalalari, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami, 177-180 bet. 17-18-may 2024-yil.

6. Jovliyev B. X. Cho'liyev I.N., L Jamolova. Me'yoridan ko'p ovqatlanishning organizm antropometrik ko'rsatkichlariga ta'siri. Yangi O'zbekiston sharoitida tarix va ijtimoiy fanlarning dolzarb masalalari, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plami, 123-126 bet. 2024 yil 16-18 may.

7. Jovliyev B. X. Mavlyanov M. Imkoniyati cheklangan bolalarga mashg'ulot o'tish xususiyatlari. "Ilm sarchashmalari" jurnali, 76–79-bet. (2024-yil may, 5/soni)

8. Jovliyev B. X. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishda biotexnologiyaning ahamiyati. "Ilm sarchashmalari" ilmiy-nazariy, metodik jurnali 130–133-bet. 2024 yil 30-oktabr.

9. Jovliyev B. X. Rajobov O'. Xudbinlik – ibtidoiy qusur "Globallashuv davrida filologiya fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami, 550-553 bet. 2024 yil 15-16 noyabr.

10. Jovliyev B. X. Jovliyev Sh. B. Oziq-ovqat biosanoatining tarixi, buguni va kelajagi "Globallashuv davrida filologiya fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 580-583 bet. 2024 yil 15-16 noyabr.

11. Jovliyev B. X. I. Rajobov O'. Bolalarda xudbinlikning rivojlanishi. Ilm sarchashmalari" ilmiy-nazariy, metodik jurnali 91- 93-bet. 2025 yil 31-yanvar.

12. Jovliyev B. X. Jovliyev Sh. Mustaqiluk yillarida biotexnologiya fanining rivojlanishi OTU "Qashqadaryo vohasining markaziy osiyo sivilizatsiyasi ravnaqiga qo'shgan hissasi" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 1056- 1060-bet. 2025 yil 11-12 aprel.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA USLUBIY ISHLAR O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA**

*Karimova Umida Sharipovna,  
Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazining Maktabgacha, boshlang'ich va  
maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xususan, turli xil loyihalar ustida ishlash bolani ong ostiga mahkam o'rnashgan bilimlarni egallashiga olib kelishida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning metodik kompetentligini takomillashtirish haqida ma'lumot berilgan.*

*Shuningdek, hozirda maktabgacha ta'limni ilmiy va texnologik ta'limning gumanitar modeliga yo'naltirish munosabati bilan maktabgacha ta'lim muassasasida uslubiy ishlarga yondashuvlar ham o'zgarayotganligi ta'kidlangan.*

*Tayanch so'zlar: Kompetent, reproduktivlik, izchillik, boshqaruv qobiliyati, konseptuallik va boshqalar.*

## **МЕТОДИЧЕСКАЯ РАБОТА В ДООУ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА ПЕДАГОГОВ**

*Каримова Умида Шариповна,  
Преподаватель кафедры "Дошкольное, начальное и специальное образование" центра  
педагогического мастерства Кашкадарьинской области*

*Аннотация: В статье представлена информация об использовании инновационных технологий в дошкольных образовательных организациях, в частности, о совершенствовании методической компетентности воспитателей в ДООУ в том, что работа над различными проектами приводит ребенка к приобретению знаний, прочно закрепленных в его подсознании. Также отмечается, что в настоящее время в связи с ориентацией дошкольного образования на гуманитарную модель научно-технологического образования меняются и подходы к методической работе в ДООУ.*

*Базовые слова. Компетентность, репродуктивность, последовательность, управленческие способности, концептуальность и т. д.*

## **METHODOLOGICAL WORK IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION AS A MEANS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL SKILLS OF TEACHERS**

*Karimova Umida Sharipovna,  
Teacher of the Department "Preschool, primary and special education" of the pedagogical  
skill center of the Kashkadarya region*

*Annotation: the article provides information on the use of innovative technologies in preschool educational organizations, in particular, improving the methodological competence of caregivers in preschool educational organizations, when working on various projects leads the child to acquire knowledge firmly entrenched in the subconscious. It is also noted that approaches to methodological work in a preschool institution are now also changing in connection with the orientation of preschool education towards the humanitarian model of scientific and technological education.*

*Base words. Competency, reproducibility, consistency, management ability, conceptuality, etc.*

*Kirish. Yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy, islohlashgan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi talab etiladi. Nag bir*

ota-ona o'z farzandini eng bilimdon, yuksak ma'rifatli, mahoratli, ijodkor tarbiyachi tarbiyasiga berishni istaydi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bo'lajak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'limning asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyatini ekanligini, bola tarbiyasining maqsadini, bola ruhiyatini rivojlantirish qoidalariga amal qilishni o'rgatadi. O'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun tarbiyachi o'z fanini chuqur egallashi lozim.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'limni ilmiy va texnologik (an'anaviy) dan ta'limning gumanitar (shaxsga yo'naltirilgan) modeliga yo'naltirish davom etmoqda. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim muassasasida uslubiy ishlarga yondashuvlar ham o'zgarib bormoqda. Gumanitar paradigmaning maqsadi o'qituvchining shaxsini o'zini o'zi anglash uchun sharoit yaratish va uslubiy ishning vazifasi o'qituvchining ijodiy prinsipini ochib berishdir. O'qituvchi nafaqat tinglashga, balki muammoni hal qilishda boshqacha yondashuvni bildirgan odamni qo'llab-quvvatlashga ham tayyor bo'lishi kerak [1,68].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Uslubiy ishlarni tashkil etishda yondashuvlarning o'zgarishi stereotiplarni yo'q qilish, qarama-qarshiliklar va kamchiliklarni bartaraf etish, yangiliklarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan uzoq jarayondir. Tabiiy sharoitda maktabgacha ta'lim muassasasining pedagogik tizimi yangiliklarining rivojlanish va ta'lim imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradigan eksperimental ishlarni tashkil etish sharti bilan innovatsion jarayonlar yanada samarali amalga oshiriladi.

Eksperimental ish rejimida ishlash o'quv jarayonining ilmiy va amaliy yo'nalishini belgilaydi, bu erda uslubiy ishning birinchi vazifasi o'qituvchilarning tadqiqot madaniyatini oshirish, pedagogik jarayonni tashkil etish texnologiyasini o'zgartirish zarurligini shakllantirishdir.

O'qituvchilarning adabiyot va pedagogik hujjatlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish, o'qituvchilarning o'z-o'zini hurmat qilish, tahliliy, aks ettiruvchi madaniyati darajasini oshirish.

Uslubiy ish tizimi zamonaviy ta'limning ijobiy va salbiy tendensiyalarini hisobga olishi va o'qituvchining shaxsiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Uslubiy ishning rivojlanish ta'siri o'qituvchilarning pozitsiyasiga va ularning faoliyat va muloqotga qo'shilishiga bog'liq. O'qituvchi o'z ta'limoti jarayonining subyekti bo'lishi juda muhim va uslubiy ish tizimi turtki, o'z-o'zini rivojlantirish stimulyatori bo'lishi, har bir o'qituvchiga o'z-o'zini rivojlantirishning maqbul usullarini topishga va tushunishga yordam berishi kerak. "Rivojlanish va ta'lim hech kimga berilishi yoki etkazilishi mumkin emas. Ularga qo'shilishni istagan har bir kishi bunga o'z faoliyati, o'z kuchlari, o'z zo'riqligi bilan erishishi kerak" (Adolf Disterveg) [2,171].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Abdulla Avloniy tarbiyachiga alohida e'tibor berib: "Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", degan edi. Bola tug'ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunigacha bo'lgan davrda har tomortlama yetuk barkamol qilib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim pedagogikasining mavzuyidir. U maktabgacha ta'lim muassasalari va oilaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi birligini, maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi aloqadorlikni, bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ta'minlab, maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta'lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining uslubiy ish tizimi, agar imkoniyatlar mavjud bo'lsa, samarali bo'ladi: kadrlar, moddiy, moliyaviy, mazmunli.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi samarali zamonaviy ta'lim texnologiyalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- salomatlikni tejaydigan texnologiyalar;
- loyiha faoliyati texnologiyasi ("Loyihalar usuli");
- tadqiqot texnologiyasi;
- o'yin texnologiyasi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;

shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar;  
portfel texnologiyasi;  
TRIZ texnologiyasi;  
ijtimoiy-o'yin o'yin texnologiyalari va boshqalar[3,218].  
Tahlil va natijalar ( Analysis and reults).

Maktabgacha ta'limni tashkil etish va unga rahbarlik qilish sohasining metodologik asosini: O'zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi, Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Kontsepsiya va Nizomda ko'rsatib berilgan maqsad va vazifalarni tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik prinsiplarga monelik qilmasa, har qanday qaror qabul qilishga xaqlidir. Maktabgacha tarbiya muassasasi ta'lim - tarbiyaviy ishlar sifati, bolalar va ota-onalar huquqiga, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya qilish uchun ma'suldir. Maktabgacha tarbiya muassasasi mehnat jamoasi xalqchilik asosida o'z-o'zini boshqarish prinpiga muvofiq uning faoliyati bilan bogliq barcha masalalarni hal qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyati boshqa muassasalar, korxonalar, tashkilotlarning qulay ish sharoitlarini buzmasligi, fuqarolar hayotini qiyinlashtirmasligi va yomonlashtirmasligi zarur. Uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq belgilanadi. Ta'limning meyoriy-huquq bazasi rivojlantiriladi. Moliya-xo'jalik faoliyati olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi.

Nazariy darajada shartlar zarur: ijtimoiy, tashkiliy, kadrlar, mazmunli, psixologik, pedagogik, moddiy.

Ijtimoiy sharoitlar:

davlat, ota-onalar, maktab tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun ijtimoiy buyurtmaning mavjudligi;

maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim organlari, maktab bilan biznes, kasbiy va sheriklik munosabatlari.

Tashkiliy:

uslubiy ishlarni rejalashtirish: «rivojlanish dasturi», yillik va oylik rejalarning mavjudligi;

boshqaruvni tashkil etish (o'qituvchilar faoliyatini professional nazorat qilish, ota-onalarni boshqarishda ishtirok etish, boshqa ta'lim va madaniy muassasalar va jamoat tashkilotlari bilan shartnomalar).

Kadrlar:

maktabgacha ta'lim muassasalarini yuqori malakali o'qituvchilar va xodimlar bilan to'ldirish: yosh, ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarni izlash va jamoaga kiritish; muammoli, tematik kurslarda malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini yaratish; maktabgacha ta'lim muassasasida malaka oshirish tizimini yaratish; o'qituvchilarning o'zini o'zi o'qitish.

Mazmunli:

umumiy ta'lim va tarbiya maqsadlarining ustuvor yo'nalishlarini o'zgartirish;

pedagogik jarayon ichida o'qituvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati sub'ektlariga aylantirish uchun sharoit yaratish;

ijodkorlik va ijodkorlik pedagogikasi va psixologiyasi sohasidagi bilimlarni yangilash va takomillashtirish;

Dow an'analari va marosimlarini yaratish va boshqalar.

Psixologik va pedagogik:

maktabgacha ta'lim muassasasida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish (diagnostika,

pedagogik jamoa bilan o'quv ishlari natijalarini kuzatish), maktabgacha ta'lim muassasasida psixologik iqlimni optimallashtirish;

ma'muriyat tomonidan jamoa a'zolarining mustaqilligi va ijodini doimiy ravishda rag'batlantirish.

Moddiy:

maktabgacha ta'lim muassasasi maqomiga muvofiq byudjet mablag'larini ta'minlash; zamonaviy talablarga javob beradigan moddiy bazaning mavjudligi[5,97].

Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik jarayonning samaradorligi uchun doimiy ravishda yangi, yanada samarali ta'lim va o'qitish usullarini izlash kerak. Shu bilan birga, uslubiy ishlar eng samarali usullarni yaratish va amaliyotga tatbiq etishda etakchi rol o'ynaydi. Va bu maktabgacha ta'lim muassasasidagi uslubiy ishlar ilm-fan yutuqlari, ilg'or tajribalarga asoslangan yaxlit tizim bo'lib, oxir-oqibat ta'limning maqbul natijalariga erishishga qaratilgan, ya'ni ta'lim sifatini oshirish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Nazariy va eksperimental tadqiqotlarni sarhisob qilib, biz quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin:

maktabgacha ta'lim muassasasidagi uslubiy ishlar o'qituvchilarning uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qismlaridan biridir.

Uning samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlar zarur:

- ijtimoiy;
- tashkiliy;
- kadrlar;
- mazmunli;
- psixologik va pedagogik;
- moddiy.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tizim sifatida uslubiy ish quyidagi doirada ishlab chiqilishi mumkin: bashorat qilish dasturlash rejalashtirish tashkilot tartibga solish nazorat rag'batlantirish tuzatish va tahlil qilish.

O'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish to'g'ridan-to'g'ri uslubiy ish shakllariga va unda o'qituvchilarning ishtirok etish darajasiga bog'liq.

O'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishning ajralmas sharti maktabgacha ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatda ishtirok etishdir.

Amalga oshirilgan ishlar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va maktabgacha ta'lim sifatini oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasida uslubiy ishlarining asosiy usullarini aniqlashga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Almardanovna, S. D., & Shokirovna, A. M. (2025). The Effectiveness of Increasing Students' Cognitive Activity in Primary Education. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 39, 66-70.

2. Islamovna, K. G. (2025). Preparing Elementary Students for Emergencies—As a Pedagogical Problem. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 40, 169-172.

3. Islamovna, K. G., & Normamatovna, H. N. (2025). Enhancing Students' Creative Thinking through International Studies Assignments. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 38, 217-221.

4. Yuldashev, S., Akramov, M., Tursunova, F., Abdullaeva, K., Shakhmurodova, D., & Ubaydullayev, A. (2024, May). A Development of AI Connected System with Adaptive Assessments Method for Evaluation Methods in Education Field. In *2024 4th International Conference on Advance Computing and Innovative Technologies in Engineering (ICACITE)* (pp. 826-830). IEEE.

5. Qosimova G.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish metodikasini takomillashtirish /dissertatsiya / pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktorligi/ 2022 y. 144 bet.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING BADIY MATNLARNI O‘QIB TUSHUNISH JARAYONIDA KOGNITIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Maxmudova Nigora Hikmatovna,

Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi, Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy matnlarni o‘qib tushunish jarayonida kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning texnologik asoslari tahlil qilingan. “O‘qish” fani misolida o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtirish, matn mazmunini anglash, asosiy g‘oyani ajratish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, xulosa chiqarish kabi kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha samarali usullar yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilar individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuv, vizual va interaktiv metodlardan foydalanishning amaliy jihatlari ochib berilgan. Maqola yakunida zamonaviy o‘quv muhitida mazkur texnologiyaning dolzarbligi va uning ta‘lim sifatini oshirishdagi o‘rni asoslab berilgan.*

*Kalit so‘zlar: badiiy matn, o‘qib tushunish, kognitiv ko‘nikmalar, boshlang‘ich sinf, “O‘qish” fani, ta‘lim texnologiyasi, tafakkur faoliyati, differensial yondashuv.*

Kirish. Zamonaviy ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, matnni tahlil qilish, mazmunni chuqur anglash, xulosalar chiqarish kabi kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida badiiy matnlarni o‘qib tushunish orqali o‘quvchilarda tafakkur faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tajribasida ham bu borada samarali loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, AQShda “Reading Rockets”, Buyuk Britaniyada esa “Powerful Readers” kabi dasturlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish malakalarini rivojlantirish bo‘yicha interaktiv va kognitiv metodlarga asoslangan texnologiyalar joriy etilgan. Singapur ta‘lim tizimida esa “Reading to Learn” loyihasi orqali badiiy matnlar asosida tanqidiy va mantiqiy fikrlash malakalari shakllantirilmoqda. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning chuqur anglash va ijtimoiy-madaniy kontekstda fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida esa so‘nggi yillarda ta‘lim tizimini zamonaviy talablar asosida yangilashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek, 2023-yil 13-apreldagi PQ-110-sonli “Boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirish va metodikasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlarni kengaytirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur qarorlar doirasida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qib tushunish salohiyatini oshirish, o‘qish fanining zamonaviy mazmunini shakllantirish, metodik qo‘llanmalarni takomillashtirish, hamda differensial yondashuv asosida ta‘lim texnologiyalarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bois, badiiy matnlarni o‘qib tushunish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va ta‘lim amaliyotiga joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sanaladi.

Ilmiy-adabiy manbalar tahlili. Boshlang‘ich ta‘limda o‘qish fani orqali o‘quvchilarda kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy poydevori psixologik va pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Kognitiv ko‘nikmalar – bu bilimni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va amalda qo‘llash jarayonlaridan iborat bo‘lgan murakkab aqliy faoliyat majmuasidir. Bunday ko‘nikmalarni rivojlantirishda o‘qish jarayoni, xususan, badiiy matnni o‘qib tushunish asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Psixolog L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bolalar bilimni katta yoshdagilar va tengdoshlari yordamida o‘zlashtiradi. O‘qituvchi esa bu jarayonda vositachi sifatida ishtirok etib, o‘quvchining aqliy faoliyatini faollashtiruvchi topshiriqlarni taqdim etadi. Bunday yondashuv “o‘quvchi markazli ta’lim” tamoyilining nazariy asosini tashkil etadi. A.N. Leontyev va P.Ya. Galperin tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasi esa bilim va ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga urg‘u beradi. Ayniqsa, matnni tahlil qilish, g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini anglash, obrazlar orqali xulosa chiqarish kabi fikrlash bosqichlari o‘quvchining kognitiv salohiyatini chuqurlashtiradi.

Mazkur mavzuga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos metodik jihatlarini ochib beradi. Gagné, R.M. (1985): “Conditions of Learning” asarida muallif kognitiv jarayonlarni rivojlantirishda materialni tizimli tarzda berish va individual yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Duke, N.K. & Pearson, P.D. (2002): O‘qib tushunish strategiyalari, ayniqsa boshlang‘ich bosqichda, vizual, kontekstual va savol-javob yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirilganda samarali natijalar berishi qayd etiladi.

Respublikamiz olimlaridan N. To‘raxo‘jayev, D. Jo‘rayev, N. Rustamovalarning tadqiqotlarida boshlang‘ich sinfda o‘qish mashg‘ulotlarini kognitiv faollikni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida tashkil etish muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, D. Jo‘rayev o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda badiiy matnlarda berilgan voqealarning sababi va oqibatini aniqlash topshiriqlari orqali rivojlantirish mumkinligini asoslab bergan. Ravshanov A. (2021) “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar” nomli maqolasida differensial yondashuv va o‘quvchilarning individualligini hisobga olgan metodikalar samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qiladi.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qib tushunish jarayonida o‘quvchilar tafakkurini faollashtirish, savol-javob, taxminiy fikrlash, tahliliy qaror chiqarish kabi kognitiv komponentlarni rivojlantiruvchi texnologiyalarni joriy etish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Mulohaza. Bugungi tezkor axborot asrida ta’limda nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning tafakkurini faollashtirish, fikrlash darajasini chuqurlashtirish va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayon asosiy kognitiv ko‘nikmalarning shakllanishi bilan bevosita bog‘liq. Badiiy matnlarni o‘qib tushunish bu borada qulay imkoniyatlar yaratadi: u obrazlar orqali tafakkurga ta’sir etadi, voqelikni idrok qilishga, o‘z fikrini ifodalashga undaydi.

O‘quvchilarning o‘qib tushunish jarayonida asosiy g‘oyani aniqlash, obrazli tafakkur, tahlil va sintez qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali nafaqat o‘qish fani bo‘yicha, balki umumiy fikrlash darajasini oshirishga erishiladi. Shunday ekan, pedagoglar uchun badiiy matnni tanlash, uni talqin qilish, mantiqiy savollarni ishlab chiqish, tahliliy topshiriqlar tuzish – o‘qituvchilik mahoratining muhim ko‘rinishidir.

Boshlang‘ich sinfda badiiy matnlar asosida kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishda quyidagi yondashuvlar samarador hisoblanadi:

Faol o‘quvchi yondashuvi (Student-centered learning): o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga, o‘z fikrini ifodalashga, savollar asosida mustaqil tahlil qilishga undaydi.

Muammoli yondashuv (Problem-based learning): matndagi voqealarni sabab-oqibat munosabatida tahlil qilish, muammoli holatlarni yechish orqali tanqidiy fikrlashga yo‘naltiradi.

Metakognitiv yondashuv: o‘quvchiga o‘z fikrlash jarayonini kuzatish, tahlil qilish va o‘zini baholashni o‘rgatadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi qanday fikrlayotganini anglaydi va samarali strategiyalarni tanlaydi.

Differensial yondashuv: har bir o‘quvchining bilish imkoniyati, o‘quv sur‘ati, matnni anglash darajasini hisobga olgan holda individual topshiriqlarni taklif etish.

Kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishda quyidagi metodik usullar va texnologiyalar tavsiya etiladi:

№	Metodika nomi	Mazmuni	Maqsadi
1	"Savol-javobli tahlil"	Matn asosida kim? nima? qayerda? nima uchun? qanday? kabi savollar tuzish	Matnni tushunish va tahlil qilish
2	"Grafik tashkilotchilar" (cluster, fishbone, Venn diagrammasi)	Matn tarkibini grafik usulda ko'rsatish	Tizimlashtirish va mantiqiy bog'liqlikni anglash
3	"Matnni davom ettir"	Matnning davomiy qismini o'quvchi mustaqil yozadi	Kreativ va tafakkur faoliyatini rivojlantirish
4	"Fikrlar kartasi" (Mind-map)	Matn asosida asosiy g'oyalarni tarmoqli tarzda tuzish	G'oyaviy tahlil va xotira faollashtirish
5	"Rollar taqsimoti asosida talqin qilish"	Matn obrazlarini jonlantirib, rollarda ifodalash	Obrazli tafakkur va kommunikativ ko'nikma
6	"O'xshatish va baholash"	Matndagi hodisalarni hayotiy tajriba bilan solishtirish	Tahliliy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish

**Natijalar.** Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnlarni o'qib tushunish malakasini rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishildi:

Kognitiv ko'nikmalar sifatli shakllandi: o'quvchilarning matnni tushunish, asosiy fikrni ajratish, sabab-oqibatni aniqlash, xulosa chiqarish, obrazli tasavvur qilish, savollarga mantiqiy javob berish kabi intellektual faoliyati sezilarli darajada oshdi.

Faol o'quvchi pozitsiyasi shakllandi: dars jarayonlarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, savollar berishi, muhokamada ishtirok etishi faollashdi.

Metodika samaradorligi isbotlandi: savol-javobli tahlil, grafik tashkilotchilar, rolga kirish, matnni davom ettirish kabi metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarda matnni chuqurroq anglash va eslab qolish samaradorligini oshirdi.

Differensial yondashuv ijobiy natija berdi: turli tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilarga mos topshiriqlar berilganda, har bir o'quvchining shaxsiy salohiyati to'liq namoyon bo'lishi ta'minlandi.

O'qituvchining metodik mahorati muhim omil bo'ldi: dars mazmunini tahliliy va interaktiv shaklda tashkil etgan pedagoglar sinfda yuqori darajadagi tafakkur faolligiga erishganliklari aniqlandi.

Xulosa. Yuqorida ta'kidlangan fikr va natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishda badiiy matnlarni o'qib tushunish muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchining fikrlash, tushunish, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlarini faol harakatga keltiradi.

Mazkur maqsadga erishish uchun metodik yondashuvlar tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

Faol o'qituvchi-rahbarlik, interaktiv metodlar va metakognitiv strategiyalarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda chuqur anglash, mantiqiy fikrlash va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalari shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalash, o'qish darslarining mazmunini boyitish va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati ushbu sohada keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Shunday qilib, badiiy matn asosida o'qib tushunish texnologiyasini qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash faoliyatini rivojlantirish samarali va dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (APA uslubida)

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
2. Leontiev, A. N. (1981). *Problems of the development of the mind*. Moscow: Progress Publishers.
3. Gagné, R. M. (1985). *The conditions of learning and theory of instruction* (4th ed.). New York: Holt, Rinehart and Winston.
4. Duke, N. K., & Pearson, P. D. (2002). Effective practices for developing reading comprehension. In A. E. Farstrup & S. J. Samuels (Eds.), *What research has to say about reading instruction* (pp. 205–242). Newark, DE: International Reading Association.
5. Ravshanov, A. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar. *Ta'lim va taraqqiyot*, 4(2), 45–52.
6. Jo'rayev, D. (2020). Boshlang'ich ta'limda o'qish fanining o'quvchilarning fikrlash jarayoniga ta'siri. *Pedagogik izlanishlar*, 2(3), 33–37.
7. Rustamova, N. (2019). Kognitiv kompetensiyalar va ularni boshlang'ich ta'limda shakllantirish masalalari. *Boshlang'ich ta'lim*, 1(1), 21–27.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi PQ-110-sonli Qarori. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish va metodikasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
10. To'raxo'jayev, N. (2018). *Boshlang'ich ta'lim psixologiyasi va metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.

## **ISHQALANISH VA UNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAGIO‘RNI MAVZUSINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI**

*Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Tabiiy fanlar” kafedrasi v.b.dotsenti(PhD), n*

*Ne‘matullayeva Go‘zal Xayrulla qizi,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Tabiiy fanlar” kafedrasi  
talabasi*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada ishqalanish hodisasi va uning zamonaviy texnologiyalardagi ilg‘or yondashuvlar chuqur tahlil qilinadi. Ishqalanishning klassik mexanizmlaridan tortib, uning nano-tribologiya, aqlli materiallar bilan bog‘liq eng yangi tadqiqotlariga qadar bo‘lgan evolyutsiyasi o‘rganilgan. Zamonaviy ishqalanishni boshqarish orqali energiya samaradorligini oshirish, tibbiyot sohasida bionik protezlar nano-yog‘lovchi suyuqliklar yordamida qanday optimallashtirilayotgani tahlil qilingan. Ishqalanishning zamonaviy texnologiyalardagi o‘rni nafaqat yangicha fikrlarni balki innovatsion g‘oyalarni ham qamrab olgan.*

*Kalit so‘zlar: Ishqalanish, zamonaviy texnologiyalar, energetik samaradorlik, robototexnika, triboelektrik generatorlar, kosmik materiallar, sun‘iy bo‘g‘imlar, innovatsion materiallar, nano-tribologiya.*

## **РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ ТРЕНИЕ И ЕГО РОЛЬ В СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЯХ**

*Номозова Дилноза Мамараджаб кизи,  
Шахрисабзский государственный педагогический институт, кафедра «Естественные  
науки» и.о. доцента (PhD)*

*Нематуллаева Гўзал Хайрулла кизи,  
Студент кафедры «Естественные науки» педагогического факультета  
Шахрисабзского государственного педагогического института*

*Аннотация: В данной статье глубоко анализируется явление трения и передовые подходы к нему в современных технологиях. Изучена эволюция трения – от классических механизмов до новейших исследований в области механо-трибологии и умных материалов. Рассматриваются способы повышения энергоэффективности за счёт трения в современных технологиях, а также оптимизация бионических протезов в медицине с помощью nano-смазывающих жидкостей. Роль трения в современных технологиях охватывает не только новые идеи, но и инновационные концепции.*

*Ключевые слова: трение, современные технологии, энергетическая эффективность, робототехника, трибоэлектрические генераторы, космические материалы, искусственные суставы, инновационные материалы, nano-трибология.*

## THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE TOPIC OF FRICTION AND ITS ROLE IN MODERN TECHNOLOGIES

Nomozova Dilnoza Mamarajab kizi,  
Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Department of Natural Sciences, Acting Associate Professor (PhD)

Ne'matullayeva Go'zal Khairulla qizi,  
Student of the Department of "Natural Sciences" of the Faculty of Pedagogy of the Shahrisabz state pedagogical institute

*Annotations: This article provides an in-depth analysis of the phenomenon of friction and advanced approaches to it in modern technologies. The evolution of friction is studied, ranging from classical mechanisms to the latest research in mechano-tribology and smart materials. The article examines how friction is used to improve energy efficiency in modern technologies and how bionic prostheses in medicine are optimized with nano-lubricating fluids. The role of friction in modern technologies encompasses not only new ideas but also innovative concepts.*

*Keywords: friction, modern technologies, energy efficiency, robotics, triboelectric generators, space materials, artificial joints, innovative materials, nano-tribology.*

Kirish. Ishqalanishning ilmiy tushunchasi qadimdan insoniyat hayotida muhim o'rin tutgan. Dastlab u amaliy tajribalar orqali anglagan bo'lsa, keyinchalik ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Qadimgi davrda insonlar ishqalanish kuchidan foydalanib, olov yoqish usulini o'rgangan. Misr piramidalarini qurishda ulkan toshlarni siljitishda ishqalanishni kamaytirish uchun nam qum ishlatilgan.

Ishqalanish-fizikaning eng muhim hodisalaridan biri bo'lib, u harakat va energetika jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy fizika ishqalanishni ko'pincha muammo sifatida ko'rib chiqsada, zamonaviy texnologiyalar uni boshqarish orqali innovatsion yechimlar yaratmoqda.

Bugungi kunda nano-tribologiya, aqlli materiallar biomimetika va tribolelektrik texnologiyalar ishqalanish bilan bog'liq fundamental tushunchalarni qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lmoqda. Ishqalanish harakat va kuchlar o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladigan qarshilik bo'lib, u qattiq jismlar, suyuqliklar va gazlarda turlicha namoyon bo'ladi. Nano-tribologiya nanozarralar yordamida ishqalanishni mikroskopik darajada boshqarish imkonini beradi[2,132].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ishqalanish – harakatlanuvchi jismlar orasidagi kuchlanish natijasida yuzaga keladigan fizik hodisa bo'lib, u harakatni to'xtatish yoki sekinlashtirishga moyil. Ammo zamonaviy ilm-fan ishqalanishni yo'qotish emas, balki nazorat qilish va undan foydalanish yo'llarini izlamoqda.

Ishqalanish. Klassik mexanizmlardan nano-tribologiyacha. Ishqalanish – harakatlanayotgan jismlar orasidagi qarshilik kuchi bo'lib, u mexanika, tribologiya, materialshunoslik va nanotexnologiya kabi ko'plab fanlarning rivojlanishiga turtki bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Ishqalanish fizikasi ilgari faqat klassik mexanizmlar orqali o'rganilgan bo'lsa, hozirgi tadqiqotlar nano-tribologiya va aqlli materiallar orqali uni nazorat qilish va undan samarali foydalanish yo'llarini taklif qilmoqda. Ishqalanishning klassik nazariyasi Guillaume Amontons (1699) va Charles-Augustin de Coulomb (1785) tomonidan ishlab chiqilgan. Ular silliq va qattiq jism sirtlari o'rtasida ishqalanish kuchi sirt maydoniga emas, balki normal bosimga bog'liqligini aniqlangan.

Nano-tribologiya – nano-o'lchamli tizimlarda ishqalanish, yeyilish va moylash hodisalarini o'rganadigan fan. Bu fanning asosiy yo'nalishlari mavjud bo'lib bular atom kuch mikroskopiyasi (AFM) orqali nano-darajadagi ishqalanishni o'z-o'zini moylaydigan nano-materiallar yordamida ishqalanishni kamaytirish. Supermoslashuvchan materiallar orqali ishqalanishsiz harakatni

ta'minlash. Magnit maydon yordamida boshqariladigan nano-zarralar ishqalanish darajasini moslashtirish imkonini beradi.

Zamonaviy ishqalanishni boshqarish orqali energiya samaradorligini oshirish. Ishqalanish – harakatlanuvchi jismlar orasidagi asosiy fizik hodisa bo'lib, u ko'p hollarda energiya yo'qotishining sababchisi hisoblanadi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar ishqalanishni nazorat qilish, kamaytirish yoki undan energiya manbai sifatida foydalanish yo'llarini topishga qaratilgan. Ishqalanishni samarali boshqarish texnologiyalari sanoat, transport va energetika sohalarida yoqilg'i tejamkorligi, ekologik barqarorlik va mexanizmlar umrini uzaytirishda katta ahamiyat kasb etmoqda[3,13].

Tahlil va natijalar ( Analysis and reults).

Ishqalanishni kamaytirish orqali samaradorlikni oshirish masalan, grafen va molibden - disulfid asosidagi qoplamalar ishqalanishni 50-70% gacha kamaytiradi va dvigatellar samaradorligini oshiradi. Havo yostig'i texnologiyalari turbinalar va dvigatellar uchun ishlatilmoqda, bu esa ishqalanish natijasida yuzaga keladigan energiya yo'qotishlarini kamaytiradi. Bular hali hammasi emas ishqalanishdan foydalanib energiya olishimiz ham mumkin. Masalan, ishqalanish natijasida hosil bo'ladigan statik elektr triboelektrik generatorlar yordamida elektr energiyasiga ega bo'lishimiz mumkin. Undan tashqari yanada zamonaviy bo'lgan London metrosi va Yaponiyadagi piyodalar yo'laklarida bu texnologiya sinovdan o'tkazilib, piyodalar harakati natijasida elektr energiyasi hosil qilinmoqda.

Ishqalanish endilikda yo'qotish manbai emas, balki yangi energiya ishlab chiqarish texnologiyalarining kaliti bo'lib xizmat qilmoqda.

Ishqalanish va Tibbiyot: Protezlardan jarrohlik robotlarigacha. Biomimetik sirtlar, tabiatdan ilhomlangan qoplamalar masalan, ilon terisi va o'rgimchak ipakiga o'xshash yuzalar orqali ishqalanishni kamaytirish yoki oshirish kabi yondashuvlar yaratildi. Triboelektrik generatorlar: Ishqalanish natijasida energiya ishlab chiqarishning yangi usuli. Tibbiyotda ishqalanishning nazorat qilish hozirda eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, yangi texnologiyalar jarrohlik, ortopediya va protez yaratish sohalarida inqilob qilmoqda. 2022-yilda MIT(Massachusetts Texnologiya Instituti)olimlari supermoylovchi gidrogel ishlab chiqishdi.

Bu sun'iy bo'g'imlarda ishqalanishni 90%gacha kamaytirishi va protezlarning uzoq umr ko'rishini ta'minlashi isbotlandi. San gidrogel asosidagi protezlar –bu texnologiya tizzalar va kestirib bo'g'imlar uchun yangi avlod protezlarini yaratishga yordam beradi. Oldingi protezlar 10-15-yil xizmat qilsa, yangi gidrogel qoplamali protezlar kamida 30 yilgacha chidamliligini saqlab qolishi mumkin.

Bu hali hammasi emas 2023-yilda Stanford universiteti olimlari triboelektrik yurak stimulyator ishlab chiqishdi. Bu implant organizm ichidagi harakat va ishqalanishdan elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Batareyasiz yurak stimulyatorlari oddiy yurak stimulyatorlari batareyasini almashtirish uchun har 7-10-yilda operatsiya talab etadi, lekin triboelektrik generator asosidagi stimulyator esa yurak harakatidan energiya olib umrboqiy bo'lishi mumkin. Da Vina Xi hozirda dunyodagi eng ilg'or jarrohlik roboti bo'lib, u ishqalanishni minimallashtirish uchun nano-mexanik tizimlardan foydalanadi[4,33].

Yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ishqalanish nazorati orqali tibbiy asboblarning samaradorligi oshmoqda implantlar umrboqiy bo'lib bormoqda va jarrohlik amaliyotlari xavfsizroq bo'lmoqda.

Ishqalanish va Sanoat: Mexanizmlar samaradorligini oshirish. Sanoatda ishqalanish tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir qilishda muhim rol o'ynaydi. U dvigatellar, transport tizimlari va robotexnika sohalarida yangi maretiallar yaratishga ilhom bermoqda. Ultra-moylash tizimlari grafen qoplama va uglerod nanonaychalari yordamida metall yuzalar ishqalanishini sezilarli darajada kamaytirish. Yangi avlod tormoz tizimlari qattiq holatdagi triboelektrik qoplamalar orqali avtomobil va aviatsiya tormoz tizimlarining samaradorligini oshirish. Ishqalanish orqali energiya ishlab chiqarish yo'llardagi harakat natijasida energiya olish uchun tranzit energiya generatorlari

yaratish. Yangi tadqiqotlar ishqalanish energiya ishlab chiqarishda foydalanish mumkin bo'lgan samarali manbaga aylanishi mumkin.

Triboelektrik generatorlar (TEG) so'nggi yillarda energiya ishlab chiqarishning ekologik toza va oyoq osti generatorlari odamlar yurishi natijasida ishqalanish orqali energiya hosil qilish. Tribologik sensorlar-avtomobil shinalari va temir yo'l relslarida harakatni kuzatish uchun foydalanadigan tizimlar. Ishqalanishning aqlli materiallar va nano-texnologiyalardagi roli.

Yangi nano-qoplamalar, biomimetik materiallar va aqlli polimerlar yordamida ishqalanish darajasini o'zgaruvchan sharoitga mos ravishda boshqarish imkoniyati yaratilmoqda. O'z-o'zini tiklaydigan materiallar ishqalanish natijasida yemirilgan joylarini avtomatik ravishda tiklay oladigan polimerlar. Optimizatsiyalangan triboelektrik sirtlar zamonaviy aerokosmik sanoatda ishqalanishni maksimal darajada kamaytirish orqali yonilg'i samaradorligini oshirish haroratga moslasha oladigan moylash materiallari o'zgaruvchan ish harorati sharoitida ishqalanish darajasida avtomatik moslay oladigan suyuqliklar[5,51].

Avtomobil dvigatellari yanada samarali ishlaydi, yoqilg'i tejamkorligi oshadi. Aerokosmik sanoatda sun'iy yo'l doshlar va fazoviy kemalar materiallari uzoq muddat xizmat qiladi.

Ishqalanishning inson uchun asosiy xususiyatlari. Ishqalanish inson hayotida muhim rol o'ynaydi va uning ijobiy hamda salbiy xususiyatlari mavjud.

Ijobiy xususiyatlari harakatni boshqarish – yurish, yugurish, mashina haydash uchun zarur. Agar ishqalanish bo'lmasa, odamlar sirpanib yiqiladi. Ushlab turish va ishlash imkoniyati – qo'llarimizdagi ishqalanish tufayli buyumlarni mahkam ushlay olamiz. Issiqlik hosil qilish – qo'llarni ishqalash orqali issiqlik hosil qilishimiz mumkin. Mexanik qurilmalarning ishlashi – tormoz tizimlari, kamarlar va bog'lamlar ishqalanish tufayli ishlaydi.

Salbiy xususiyatlari energiyani yo'qolishi – mashinalar va mexanizmlarda ortiqcha ishqalanish energiya isrofini keltirib chiqaradi. Yeyilish va shikastlanish – dvigatellar, mexanik qismlar va bo'g'imlar vaqt o'tishi bilan ishqalanish tufayli eskiradi. Tanadagi jarohatlar – teri va mushaklar haddan tashqari ishqalanish natijasida shikastlanishi mumkin (masalan, qadoqlar paydo bo'lishi. Harakatga qarshilik – ba'zi hollarda ortiqcha ishqalanish harakatni qiyinlashtiradi (masalan, dvigatellarning qizishi va isrofiy yoqilg'i sarfi).

Ishqalanish inson hayotida zaruriy va boshqarilishi kerak bo'lgan hodisa. Uni ijobiy jihatdan samarali qo'llash va salbiy ta'sirlarini kamaytirish inson uchun katta ahamiyatga ega[6,175].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Ko'p asrlar davomida ishqalanishni yo'qotish va qarshilik manbai sifatida qaralgan bo'lsa-da, zamonaviy ilm-fan uni nazorat qilinadigan va boshqariladigan resurs sifatida qabul qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ishqalanishning to'liq yo'q qilish emas, balki uni optimallashtirish kelajak texnologiyalarining yangi davrini ochadi. Bugungi kunda ishqalanish o'zgaruvchan o'z-o'zini moshlashtiruvchi va energiya ishlab chiqaruvchi hodisa sifatida o'rganilmoqda.

Sun'iy intellekt yordamida ishqalanishni real vaqt yechimida nazorat qilish o'z-o'zini tiklovchi qoplamalar yaratish, nano-triboelektrik tizimlardan energiya olish kabi yondashuvlar sanoat, tibbiyot transport sohalarida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Eng e'tiborli yangiliklardan biri ishqalanish orqali energiya ishlab chiqarish va undan yo'qotishlarni kamaytirish emas, balki foyda olish g'oyalari ishlab chiqilgan. Masalan, yangi texnologiyalar yordamida yo'laklardan, avtomobil shinalaridan va hatto odamning yurishi natijasida hosil bo'ladigan ishqalanishdan elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyati yaratilmoqda. Ushbu texnologiyalar kelajakda ko'plab sohalarda o'z samarasini beradi.

Adabiyotlar:

1. Nomozova D.M. "Oliy ta'lim muassasalarining fizika ta'lim yo'nalishlari uchun "Nanooptika" kursini mazmuni va o'qitish metodikasini ishlab chiqish" Avtoref. PhD, Guvohnoma №14-061, Qarshi, 2024

2. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U., Pedagogik texnologiyalar

va pedagogik mahorat, Toshkent, 2009. – 242 b.

3. Ximmataliev D.O. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi. Zamonaviy ta’lim, 2020, 7(92)-18-b.

4. Nomozova D.M. “Oliy ta’lim muassasalarining fizika ta’lim yo‘nalishlari uchun “Nanooptika” kursini mazmuni va o‘qitish metodikasini ishlab chiqish” dissert. PhD, Qarshi, 2024, 31-34 betlar.

5. A.G.G‘aniyev, A.K. Avliyoqulov, G.A.Almardonova “ Fizika 2-qism” Toshkent 2019 : 49-51 bet

6. S.Bozorov, N.Kamolov “ Fizika ( optika, atom va yadro fizikasi): Toshkent 2017: 172-175 bet

7. A.S.No‘monxo‘jayev, M.A.Fattohov, B.Normatov “Fizika 3-qism” Toshkent 2018: 77-81 bet

8. F.Korolev “Fizika kursi: optika, atom va yadro fizikasi” 446-449 bet

9. L.S.Jdanov, G.L.Jdanov “ Fizika”

10. M.H.O‘lmasova “Fizika: optika, atom va yadro fizikasi” Toshkent 2020 : 170-172 bet.

## BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN FOYDALANISH USHLUBLARI

Nuriddinova Maysara Ikramovna,

UZFPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakul'teti Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

Muhammadqodirova Nozimaxon Botirjon qizi,  
UZFPI magistranti

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlarining samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati va usullari tahlil qilinadi. Muammoli ta'lim yordamida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati, tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllanadi. Maqolada amaliy misollar orqali ushbu yondashuvning o'qitish samaradorligiga ijobiy ta'siri ko'rsatiladi.

*Kalit so'zlar:* Muammoli ta'lim, boshlang'ich sinf, tabiiy fanlar, samaradorlik, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati.

*Аннотация:* В данной статье рассматриваются методы использования проблемного обучения для повышения эффективности преподавания естественных наук в начальных классах. Проблемное обучение способствует развитию у учащихся навыков самостоятельного мышления, анализа и выводов. На основе практических примеров показано положительное влияние данного подхода на качество обучения.

*Ключевые слова:* Проблемное обучение, начальные классы, естественные науки, эффективность, педагогические технологии, качество образования.

*Annotation:* This article explores methods of applying problem-based learning to enhance the effectiveness of natural science education in primary school. Problem-based learning fosters independent thinking, analytical skills, and reasoning among students. Through practical examples, the article demonstrates the positive impact of this approach on educational outcomes.

*Keywords:* Problem-based learning, primary education, natural sciences, effectiveness, pedagogical technologies, education quality.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning turli xil bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni o'quvchilar ongiga yetkazish, esga olish, esda saqlash, qayta yodga tushirish, so'zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajada bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O'zlashtirilishning keyingi darajalarida esa o'quvchilar olgan bilimlarini amalda tadbiq etish, ma'lum natijalarni qo'lga kiritish, to'ldirish, boyitish, o'zgartirish, o'zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lish talab etiladi. Bu o'zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv muhimdir.

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, muammoli ta'limni hozirgi sharoitda dolzarb pedagogik masalaga aylantirdi.

Tadqiqiy izlanish faoliyatida o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish muammoli o'qitishning asosidir. Bu tabiatshunoslik darslariga ham taalluqlidir, chunki unda tayyor ilmiy bilimlarni bayon qilish va ularni tushuntirish bilan bir qatorda materialni muammoli bayon qilish tobora ko'proq qo'llanila boshlandi.

Muammoli o'qitishni o'z ichiga olgan darslarda o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'zida saqlagan masalalarni hal qilish taklif qilinadi, toki ular bilimlarni o'zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo'llanish usullarini egallab olsinlar. Bunday masalalardan bilimlarni tekshirishda,

o'quvchilarning olgan bilimlarining chuqurligi va ongliligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Muammoli o'qitish keyingi yillarda psixologik olimlar, didaktlar, metodistlar, ijodiy ishlayotgan barcha o'qituvchilarning tobora ko'proq e'tiborini jalb qilmoqda.

Olimlar muammoli darsni quyidagi bosqichlarga bo'lishni taklif qiladilar:

Muammoli vaziyat yaratish va uning tahlili;

Muammoni ifodalash (quyish);

Muammo yechimini izlash (eski bilimlarni muhimlashtirish, farazlarni ilgari surish, eng to'g'riroq farazni tanlash va isbotlash);

Muammoni hal qilish;

Yechimning to'g'riligini tekshirish.

Darsda muammoli vaziyat yaratish murakkab didaktik masaladir. Har bir tabiatchunoslik darsi muammoli bo'lishi mumkin va kerak.

Muammoli o'qitishning samaradorligi faqat material chinakam idrok muammoga ega bo'lgandagina bilinadi.

Muammoli xarakterdagi darsni o'tish uchun o'qituvchi undagi muammoli vaziyatlarni oldindan ajratishi, qo'yilgan muammoni yechishda o'quvchilar faoliyatining borishini belgilovchi metodik vositalarni aniqlashi, darsning barcha tafsilotlarini puxta o'ylab chiqishi kerak.

Dars shunday tarzda tuzilishi kerakki, unda qo'yilgan muammoga bolalarda qiziqish uyg'onsin, uning bilim olish sistemasidagi ahamiyati ko'rsatilsin, yangi bilimlar olishga ehtiyoj tug'ilsin.

Muammoli darsning birinchi bosqichida o'quvchilar qaysi tayanch bilimlarga asoslanib oldilariga qo'yilgan masalalarni hal qilishlari mumkinligini aniqlash zarur.

Bu bosqichda o'qituvchining ishi o'quvchilarga yordam berish, ularning faolligini o'quv materiali bilan ishlash va aqliy faoliyat uslublarini to'g'ri tanlashga qaratishdan iborat bo'lishi lozim.

O'qituvchi tomonidan yo'naltirilgan o'quvchilar vujudga kelgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, idrok qilish vazifasini aniqlaydilar, uni hal qilishga o'zlarining bilim hamda turmush tajribalarini safarbar qiladilar.

Muammoli darsning kelgusi bosqichlari o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil faoliyatidir.

Izlanish ishlari jarayonida umumiy muammo narsa yoki hodisalarning biror muhim belgilarini kuzatish yoki o'rganilayotgan obyektning muhim va muhim bo'lmagan belgilarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan qator vazifalarga ajratilishi mumkin. Izlanish ishi jarayonida taqqoslash, tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish kabi fikrlash ishlari keng qo'llaniladi.

O'quvchilarning o'quv vazifalarini mustaqil hal qila olishlariga erishish muammoli o'qitishning eng muhim belgilaridan biridir va u o'qituvchi uchun ancha qiyin masaladir. Bunda o'qituvchi faqat o'quvchilar ishiga rahbarlik qilishi, eng zarur holatlardagina ularga yordamga kelishi, biroq hech qachon ularning o'rnini olmasligi, ular uchun murakkab muammolarni hal qilmasligi kerak.

Biz 2-sinfda «Erta bahorda o'simliklar» mavzusidagi muammoli darsni misol qilib keltiramiz. Dars tabiatga o'tkazilgan bahorgi ekskursiyadan keyin o'tkaziladi, unda o'quvchilar kunduzi quyoshning balandligi qanday o'zgarganligini, kun uzunligini ko'payganligini va isishning o'simlik va hayvonot dunyosiga qanday ta'sir ko'rsatayotganligini kuzatganlar.

Kirish suhbatida o'quvchilarga erta bahorda jonli va jonsiz tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar to'g'risida hikoya qilish taklif qilinadi. Bunda ular parkda daraxtlarning yalang'och turganligini, yer chiriyotgan barglarning qalin qatlam bilan qoplanganligini, biroq ba'zi o'simliklar (boychechak, binafsha, chuchmomo, lola va h.k.) gullayotganini albatta aniqlaydilar. Bunda «Erta gullovchi o'simliklar» tushunchasi kiritiladi, uning ma'nosi ochib beriladi, keyin nima uchun sanab o'tilgan o'simliklarni erta gullovchilar deb aytilishi aniqlanadi.

Endi bu o'simliklar bolalarga ekskursiyadan tanish, shunga ko'ra o'qituvchi o'quvchilarning

ularning farqiga bora olishlarini tekshirish uchun savollar beradi. Buning uchun doskaga o'simliklarning nomlari: binafsha, chuchmomo, boychechak, lola, Navro'z yozib qo'yiladi. O'quvchilar bu nomlarni o'qib, o'simlikni gerbariy yoki ko'rgazmali quroldan ko'rsatadilar va uning nomini aytadilar.

Keyin sanab o'tilgan o'simliklarning har birini qarab chiqish va ta'riflash taklif qilinadi. O'simliklarning organlarini taqqoslaganda o'qituvchi muammoli o'qitish metodidan foydalanadi, nima uchun lola, boychechak, binafsha, Navro'z, chuchmomo erta gullaganligi aniqlanadi.

O'quvchilar o'simliklar tashqi tuzilishining o'xshashligi va xilma-xilligi to'g'risida xulosalar chiqarishlari kerak. Bu bilimlar darsda yangi materialni o'rganish va qo'yilgan muammoni butunlay hal qilish uchun tayanch bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv vazifalarini mustaqil hal qila olishlariga erishish muammoli o'qitishning eng muhim belgilaridan biridir va u o'qituvchi uchun ancha qiyin masaladir. Bunda o'qituvchi faqat o'quvchilar ishiga rahbarlik qilishi, eng zarur holatlardagina ularga yordamga kelishi, biroq hech qachon ularning o'rnini olmasligi, ular uchun murakkab muammolarni hal qilmasligi kerak.

Biz 2-sinfda «Erta bahorda o'simliklar» mavzusidagi muammoli darsni misol qilib keltiramiz. Dars tabiatga o'tkazilgan bahorgi ekskursiyadan keyin o'tkaziladi, unda o'quvchilar kunduzi quyoshning balandligi qanday o'zgarganligini, kun uzunligini ko'payganligini va isishning o'simlik va hayvonot dunyosiga qanday ta'sir ko'rsatayotganligini kuzatganlar.

Kirish suhbatida o'quvchilarga erta bahorda jonli va jonsiz tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar to'g'risida hikoya qilish taklif qilinadi. Bunda ular parkda daraxtlarning yalang'och turganligini, yer chiriyotgan barglarning qalin qatlam bilan qoplanganligini, biroq ba'zi o'simliklar (boychechak, binafsha, chuchmomo, lola va h.k.) gullayotganini albatta aniqlaydilar. Bunda «Erta gullovchi o'simliklar» tushunchasi kiritiladi, uning ma'nosi ochib beriladi, keyin nima uchun sanab o'tilgan o'simliklarni erta gullovchilar deb aytilishi aniqlanadi.

Endi bu o'simliklar bolalarga ekskursiyadan tanish, shunga ko'ra o'qituvchi o'quvchilarning ularning farqiga bora olishlarini tekshirish uchun savollar beradi. Buning uchun doskaga o'simliklarning nomlari: binafsha, chuchmomo, boychechak, lola, Navro'z yozib qo'yiladi. O'quvchilar bu nomlarni o'qib, o'simlikni gerbariy yoki ko'rgazmali quroldan ko'rsatadilar va uning nomini aytadilar.

Keyin sanab o'tilgan o'simliklarning har birini qarab chiqish va ta'riflash taklif qilinadi. O'simliklarning organlarini taqqoslaganda o'qituvchi muammoli o'qitish metodidan foydalanadi, nima uchun lola, boychechak, binafsha, Navro'z, chuchmomo erta gullaganligi aniqlanadi.

O'quvchilar o'simliklar tashqi tuzilishining o'xshashligi va xilma-xilligi to'g'risida xulosalar chiqarishlari kerak. Bu bilimlar darsda yangi materialni o'rganish va qo'yilgan muammoni butunlay hal qilish uchun tayanch bo'ladi.

Kirish hikoyasi oldidan topshiriqlar bajartirib, o'qituvchi o'simliklardagi o'xshashlik faqat yer usti organlaridagina emas, balki yer osti organlarida ham bo'lishini belgilaydi va o'z hikoyasini binafsha, chuchmomo, boychechak, lola ildizlarini ko'rsatish bilan namoyish qiladi.

Ikkinchi sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini, ularda zarur botanik bilimlar zaxirasining yo'qligini va qo'yilgan muammoning murakkabligini hisobga olib, o'qituvchi o'quvchilarga ko'rsatilgan erta gullovchi o'simliklar to'g'risida har xil mulohazalar aytishlarini taklif qiladi, e'tiborini barcha erta gullovchi o'simliklarda yer osti qismlari yo'g'onlashgan bo'lishiga qaratadi. Yer osti organlarini qarab chiqib va taqqoslab, bolalar boychechak va binafshada ular har xil ekanligini ko'radilar. Buni ta'kidlab, o'qituvchi binafshaning yer ostki qismini ildizpoya, boychechak va lolada – piyozbosh deb atalishini aytadi. Piyozbosh va ildizpoyada kuzdan oziq moddalar to'planadi, ular o'simliklarga erta rivojlanish va gullashga yordam beradi. Keyin o'qituvchi piyozbosh va ildizpoyani kesadi va ularning ichki tuzilishini ko'rishni taklif qiladi.

Javoblarni umumlashtirib, o'qituvchi o'quvchilarni shunday xulosaga olib keladi: erta gullovchi o'simliklarda yil davomida yer osti organlarida oziq moddalar to'planadi, ulardan o'simliklar bahorda foydalanadi. Bahorgi o'sish jarayonini kuchayishiga bu xilda to'plangan oziq

moddalar yordam beradi. O‘simliklarning erta gullashini o‘quvchilar oziq moddalar zaxirasining bo‘lishi va bahorgi issiq bilan tushuntirishlari kerak.

Shunday qilib, o‘quv materialini muammoli bayon qilish uning isbotlanishini va zarur miqdordagi bilimlarning ongli o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi, ularga bo‘ladigan qiziqishni oshiradi va bolalar tafakkurini faollashtiradi, bu olingan bilimlarni faqat ongli qilibgina qolmasdan, balki ularning ishonchga aylanishiga ham yordam beradi.

Keyin sanab o‘tilgan o‘simliklarning har birini qarab chiqish va ta‘riflash taklif qilinadi. O‘simliklarning organlarini taqqoslaganda o‘qituvchi muammoli o‘qitish metodidan foydalanadi, nima uchun lola, boychechak, binafsha, Navro‘z, chuchmomo erta gullaganligi aniqlanadi.

O‘quvchilar o‘simliklar tashqi tuzilishining o‘xshashligi va xilma-xilligi to‘g‘risida xulosalar chiqarishlari kerak. Bu bilimlar darsda yangi materialni o‘rganish va qo‘yilgan muammoni butunlay hal qilish uchun tayanch bo‘ladi.

Kirish hikoyasi oldidan topshiriqlar bajartirib, o‘qituvchi o‘simliklardagi o‘xshashlik faqat yer usti organlaridagina emas, balki yer osti organlarida ham bo‘lishini belgilaydi va o‘z hikoyasini binafsha, chuchmomo, boychechak, lola ildizlarini ko‘rsatish bilan namoyish qiladi.

Ikkinchi sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini, ularda zarur botanik bilimlar zaxirasining yo‘qligini va qo‘yilgan muammoning murakkabligini hisobga olib, o‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘rsatilgan erta gullovchi o‘simliklar to‘g‘risida har xil mulohazalar aytishlarini taklif qiladi, e‘tiborini barcha erta gullovchi o‘simliklarda yer osti qismlari yo‘g‘onlashgan bo‘lishiga qaratadi.

Yer osti organlarini qarab chiqib va taqqoslab, bolalar boychechak va binafshada ular har xil ekanligini ko‘radilar. Buni ta‘kidlab, o‘qituvchi binafshaning yer ostki qismini ildizpoya, boychechak va lolada – piyozbosh deb atalishini aytadi.

Piyozbosh va ildizpoyada kuzdan oziq moddalar to‘planadi, ular o‘simliklarga erta rivojlanish va gullashga yordam beradi. Keyin o‘qituvchi piyozbosh va ildizpoyani kesadi va ularning ichki tuzilishini ko‘rishni taklif qiladi.

Javoblarni umumlashtirib, o‘qituvchi o‘quvchilarni shunday xulosaga olib keladi:

Erta gullovchi o‘simliklarda yil davomida yer osti organlarida oziq moddalar to‘planadi, ulardan o‘simliklar bahorda foydalanadi. Bahorgi o‘sish jarayonini kuchayishiga bu xilda to‘plangan oziq moddalar yordam beradi.

O‘simliklarning erta gullashini o‘quvchilar oziq moddalar zaxirasining bo‘lishi va bahorgi issiq bilan tushuntirishlari kerak.

Shunday qilib, o‘quv materialini muammoli bayon qilish uning isbotlanishini va zarur miqdordagi bilimlarning ongli o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi, ularga bo‘ladigan qiziqishni oshiradi va bolalar tafakkurini faollashtiradi, bu olingan bilimlarni faqat ongli qilibgina qolmasdan, balki ularning ishonchga aylanishiga ham yordam beradi.

Bundan tashqari muammoli bayon qilish o‘quvchilarga o‘zlarining xususiy farazlarini aytib, ulardan faqat haqiqatga muvofiq keladiganlarini tanlab olishga imkon beradi, ya‘ni mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Yana shu narsa muhimki, muammoli bayon qilish ancha hissiyotli bo‘ladi, shuning uchun ham o‘rganishga qiziqishni oshiradi.

Muammo qo‘yilishi va uni mustaqil hal qilinishi bolalarning bilishga qiziqishini, ya‘ni ularning bilimlarni egallashga va masalalar yechishni o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini rivojlantirish uchun rag‘batlantirish bo‘lib xizmat qiladi. Muammoni hal qilishda asosiy vaqtni amaliy ish egallaydi.

Chunonchi, «Kuz», «qish», «bahor» (2-sinf) mavzularini o‘rganishda bolalar oldiga quyidagi muammoli savollarni qo‘yish mumkin: Nima uchun kuzda qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadilar? Nima uchun ba‘zi hayvonlar qishda uxlaydi? Nima uchun kuzda sovuq tushadi?

O‘quvchilar oldiga u yoki bu muammoni qo‘yishda ularning har biri qanchalik dars mazmunidan kelib chiqayotganini, didaktik va tarbiya maqsadlariga xizmat qilishini puxta hisoblab chiqish kerak. Bu talablarga javob bermaydigan muammolarni qo‘yish faqat darsda qarab chiqilayotgan masalalarning mohiyatini aniqlashga halaqit beradi. Shuningdek, o‘quvchilar oldiga ular zarur

bilimlarga ega bo'lmalar, ongli hal qilinishi uchun muammo qo'yish mumkin emas.

O'qituvchi darsning har xil bosqichlarida: materialni tushuntirish vaqtida, amaliy ish, tajribalarni namoyish qilish jarayonida va h.k.larda uning mazmuniga qarab, muammoli vaziyatlar hosil qilish va muammoli savollar qo'yish mumkin. Faqat shuni esda tutish kerakki, tabiatchunoslikni o'qitishga muammoli yondashishda yetakchi rolni o'qituvchi o'ynaydi, o'quvchilarning fikrlash mustaqilligi, amaliy va aqliy ishlari ularning bilish faoliyatiga o'qituvchi doimo izchillik bilan va mohirona rahbarlik qilganda muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abdullaeva N.: Muammoli ta'lim texnologiyasi va uning ta'lim samaradorligiga ta'siri. Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2020.

Bahodirova U.R.: Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2019.

Vahabova Z.X.: Ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

Jonova G.A.: Muammoli ta'lim usullari: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan. 2018.

5.Davlatova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish. Тошкент: “Илм ва тараққиёт”,2022

## TALABALARDA RAQAMLI KOMPETENSIYALAR ASOSIDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

*Nabiyeva Farogʻat Mahmudovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya. Maqolada zamonaviy taʼlim jarayonida talabalarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar taʼlimga chuqur kirib kelgan hozirgi davrda, talabaning mustaqil axborotni tanlash, tahlil qilish, baholash va asosli xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muallif tomonidan tanqidiy fikrlash va raqamli kompetensiyaning oʻzaro integratsiyasi, ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi taʼlimiy muhit va pedagogik shart-sharoitlar yoritiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan interaktiv oʻquv faoliyatining tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga taʼsiri nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi.*

*Kalit soʻzlar: raqamli kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, didaktik asoslar, talaba shaxsi, raqamli taʼlim, interaktiv metodlar, axborot tahlili, yuqori darajadagi tafakkur.*

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatning axborotga toʻyinganligi, raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga chuqur kirib borishi taʼlim tizimida ham tub islohotlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, oliy taʼlimda talabalarning nafaqat raqamli vositalardan foydalanish koʻnikmalarini, balki ularni mazmunli va tanqidiy tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish, muammoga nisbatan asosli va dalillangan yondashuv bildira olish kompetensiyalarini shakllantirish zamon talabi sifatida maydonga chiqmoqda.

Raqamli kompetensiyalar nafaqat texnik bilim va malakalarni, balki axborotni saralash, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, axborot xavfsizligini taʼminlash kabi murakkab kognitiv faoliyat turlarini ham oʻz ichiga oladi. Shu sababli, talabalarda tanqidiy fikrlashni raqamli kompetensiyalar bilan uzviy bogʻliq holda rivojlantirish taʼlimning dolzarb masalalaridan biri boʻlib qolmoqda.

Ayniqsa, zamonaviy taʼlimda mustaqil axborot manbalarini izlab topish, ularni baholash, turli qarashlar oʻrtasida mantiqiy mushohada yuritish, dalillangan xulosa chiqarish koʻnikmalari global raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotda raqamli kompetensiyalar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslarini aniqlash va samarali usullarni taklif etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va yoshlarning fikrlash madaniyatini rivojlantirish boʻyicha qator muhim davlat siyosati hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, talabalar orasida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish bugungi global raqobat muhitida ustuvor yoʻnalish sifatida belgilab berilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ–4851-sonli qarori – \**“Taʼlim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”*\*gi qarorida taʼlim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron resurslardan foydalangan holda innovatsion oʻquv muhitini yaratish belgilab oʻtilgan. Bu esa talabalarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish orqali chuqur fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish zaruratini paydo qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-oktabrdagi PF–6319-son Farmoni – \**“Taʼlim va tarbiya tizimini yanada rivojlantirishga oid strategik yoʻnalishlar toʻgʻrisida”*\*gi farmonida raqamli savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil fikrlovchi, tahliliy salohiyatga ega boʻlgan kadrlarni tayyorlash davlat taʼlim siyosatining ustuvor vazifalari sifatida belgilangan.

Shuningdek, *“Raqamli Oʻzbekiston – 2030”* strategiyasida taʼlim tizimini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali innovatsion va kreativ fikrlashga ega kadrlarni tayyorlash masalasi alohida eʼtiborga olingan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 10-iyundagi 189-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Raqamli pedagogika asoslari" fani o'quv dasturiga kiritilgan bo'lib, bu orqali talabalarning nafaqat texnik ko'nikmalari, balki analitik, tanqidiy fikrlash, axborotni baholash qobiliyatlari ham rivojlantirilishi ko'zda tutilgan.

Adabiyotlar tahlili. Tanqidiy fikrlash — bu shaxsning axborotni tahlil qilish, muammolarni hal qilish, dalillangan fikr bildirish, xulosalar chiqarish va har xil fikrlarni solishtirish kabi yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini o'z ichiga oluvchi murakkab kognitiv faoliyat turi hisoblanadi. Bunday fikrlash turi talabaniq mustaqil, lo'nda, asosli qarorlar qabul qilishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash nazariyasi ko'plab pedagog va psixologlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning orasida B. Bloomning taksonomiyasi, R. Ennisning tanqidiy fikrlash komponentlari, J. Deweyning reflektiv fikrlash haqidagi qarashlari muhim o'rin tutadi. Dewey ta'limni amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirish orqali tanqidiy fikrni rivojlantirish kerakligini ta'kidlaydi. B. Bloom esa bilish darajalarining yuqori bosqichlarida tahlil, sintez va baholash kabi fikrlash shakllari mavjudligini ko'rsatgan.

Raqamli kompetensiyalar esa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini anglash, ulardan ongli va samarali foydalanish, shuningdek, axborotni tanlab olish, tahlil qilish va uni to'g'ri talqin etish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bu borada Yevropa Ittifoqining DigComp 2.1 modeli asosiy nazariy platforma bo'lib xizmat qiladi.

Didaktik nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi yondashuvlar muhim rol o'ynaydi:

Faol va interaktiv o'qitish metodlari – talabalarning o'rganilayotgan materialga faol ishtirokini ta'minlaydi, mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Bunga loyihaviy metod, muammoli ta'lim, aks ettiruvchi (reflektiv) yondashuvlar kiradi.

Raqamli muhitda o'qitish – onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom, Quizlet), multimediali darsliklar va raqamli simulyatorlardan foydalanish orqali talabalarni analitik fikrlashga jalb etish mumkin.

Kognitiv yuklamani muvofiqlashtirish – tanqidiy fikrni shakllantirish uchun topshiriqlarning murakkabligi talabaniq bilim saviyasi bilan muvozanatli bo'lishi zarur. Shunda o'quvchi ortiqcha zo'riqmay, mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Baholash mezonlarini aniq belgilash – talabalarning fikr yuritish jarayonini baholashda aniq mezonlar: dalillilik, mustaqillik, muammo yechimining yangiligi, fikrning mantiqiyliqi hisobga olinadi.

Raqamli kompetensiyalar asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish didaktik jihatdan nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va interaktiv metodlardan kompleks foydalanishi lozim.

Mulohazalar. Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish raqamli kompetensiyalar bilan chambarchas bog'liq holda qaralishi zarur. O'rganilgan nazariy manbalar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli kompetensiyalar faqat texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi emas, balki axborotni tahlil qilish, manbalarni tanlash, baholash, qayta ishlash va asosli xulosa chiqarishga doir chuqur kognitiv faoliyatni ham o'z ichiga oladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

Talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun faqatgina bilim berish yetarli emas, balki ularni raqamli muhitda axborot bilan ishlashga, asosli fikr bildirishga, qaror qabul qilishga o'rgatish lozim;

Tanqidiy fikrlash o'z navbatida ijodkorlik, muloqot, hamkorlik va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish kabi XXI asr kompetensiyalarining shakllanishi uchun zamin yaratadi;

Didaktik jihatdan qaralganda, raqamli texnologiyalar orqali o'quv jarayonini tashkil etish, interaktiv metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlar yaratish va reflektiv faoliyatni yo'lga qo'yish tanqidiy tafakkurni kuchaytiruvchi muhim vositalardandir.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida raqamli vositalar va pedagogik texnologiyalarning uyg'unligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv orqali talabalarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, dalillangan qarorlar chiqarish va ijtimoiy-hayotiy muammolarga moslashish qobiliyatlari rivojlanadi.

Shuningdek, o'quv dasturlarida raqamli kompetensiyalarni tanqidiy fikrlash bilan integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratilishi, bu boradagi didaktik yondashuvlar tizimlashtirilgan holda joriy etilishi lozim. Bu esa zamonaviy, raqobatbardosh va fikrlovchi shaxsni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot doirasida talabalarda raqamli kompetensiyalar asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining 2-bosqich talabalaridan tashkil topgan ikkita guruhda – nazorat guruhi va tajriba guruhi – asosida amalga oshirildi. Har bir guruhda 30 nafardan talaba qatnashdi.

Tajriba-sinov ishlari bosqichlari:

Diagnostik bosqich (kirish monitoringi): Talabalarning dastlabki tanqidiy fikrlash darajasi va raqamli kompetensiyalari maxsus testlar va kuzatuv asosida baholandi.

– Tanqidiy fikrlash: Bloom taksonomiyasiga asoslangan topshiriqlar

– Raqamli kompetensiya: DigComp 2.1 modeliga asoslangan baholash mezonlari

Tajriba-ta'limiy bosqich (asosiy bosqich): Tajriba guruhida 12 haftalik o'quv moduli ishlab chiqildi. Unda quyidagilar joriy etildi:

Raqamli platformalar: Google Classroom, Padlet, Canva, Mentimeter;

Muammoli topshiriqlar, loyiha asosida o'qitish, fikr almashish forumlari;

Tanqidiy savollarga asoslangan topshiriqlar, tahlil va munozara mashg'ulotlari.

Nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim metodlari qo'llanildi.

Nazorat bosqichi (yakuniy monitoring): Eksperiment so'ngida har ikkala guruhda tanqidiy fikrlash va raqamli kompetensiya darajalari qayta baholandi.

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (o'rtacha %)	Tajriba guruhi (o'rtacha %)	O'sish (%)
Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari	53%	81%	+28%
Raqamli kompetensiyalar (umumiy baho)	57%	85%	+28%
Axborotni tahlil qilish qobiliyati	51%	78%	+27%
Fikrni asoslash va dalillash	48%	82%	+34%
Refleksiya va xulosa chiqarish	50%	80%	+30%

Tajriba guruhi ishtirokchilarida tanqidiy fikrlash darajasi, axborotni tahlil qilish, dalillangan fikr bildirish va reflektiv fikrlash ko'nikmalarida sezilarli o'sish kuzatildi. Bu esa raqamli vositalardan foydalanilgan holda tashkil etilgan didaktik yondashuvlar tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Talabalarda raqamli kompetensiyalar asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning nazariy, didaktik va amaliy asoslari yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli kompetensiyalar – bu faqat texnologiyalardan foydalanish emas, balki axborotni ongli ravishda saralash, tahlil qilish va unga asoslangan holda fikr yuritish jarayoni hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish esa talabalarning individual o'sishi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, fikr bildirishda dalillarga tayanish, hamda raqamli muhitda xavfsiz harakatlanish qobiliyatlarini oshiradi.

Raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish, interaktiv o'qitish metodlari, muammoli topshiriqlar va reflektiv yondashuvlar ushbu maqsadga erishishda samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, raqamli kompetensiyalar va tanqidiy tafakkurni uyg'unlashtirish didaktik tizimning asosiy elementi sifatida ko'rilishi kerak.

#### Amaliy tavsiyalar

Oliy ta'lim muassasalarida "Tanqidiy fikrlash asoslari" fani va raqamli kompetensiyalarni integratsiyalangan holda o'rgatuvchi maxsus modullar joriy etilishi lozim.

O'quv jarayonida interaktiv raqamli platformalardan (Padlet, Mentimeter, Kahoot, Moodle) keng foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

O'qituvchilar malakasini oshirish kurslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi raqamli vositalarni qo'llashga doir maxsus metodik ko'nikmalar shakllantirilsin.

Baholash tizimida faqat bilimga emas, balki analitik fikrlash, dalillilik, muammoni hal qilish ko'nikmalariga ham e'tibor qaratilsin.

Ilmiy-metodik qo'llanmalar va darsliklar tayyorlanayotganda, raqamli kompetensiyalar orqali tanqidiy tafakkurni shakllantirishga doir topshiriqlar kiritilishi maqsadga muvofiq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey, J. (1933). *How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process*. Boston: D.C. Heath.
2. Bloom, B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. New York: Longmans.
3. Ennis, R. H. (2011). *The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities*. University of Illinois.
4. European Commission. (2017). *DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens with eight proficiency levels and examples of use*. Publications Office of the EU.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). PQ-4851-son qaror, 6-oktabr – Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). PF-6319-son Farmon, 5-oktabr – Ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirishga oid strategik yo'nalishlar to'g'risida.
7. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. (2022). 189-son buyrug'i, "Raqamli pedagogika asoslari" fani o'quv dasturi.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ART-TERAPIYA VOSITASIDA HISSIY-KOGNITIV QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Nazarova Marjona Xodjiyevna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini art-terapiya vositasida hissiy va kognitiv jihatdan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashning metodik asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida bolaning hissiy barqarorligi hamda aqliy faolligini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada art-terapiya usullarining ta'limiy jarayonga integratsiya qilinishi orqali o'quvchilarda stressni kamaytirish, his-tuyg'ularni boshqarish, ijodiy tafakkurni rag'batlantirish va bilimni faol o'zlashtirish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, metodikaning ilmiy-nazariy asoslari, amaliy tadqiqot etish bosqichlari hamda pedagogik samaradorlik ko'rsatkichlari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari art-terapevtik yondashuvni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etishda metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratadi.*

*Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, art-terapiya, hissiy qo'llab-quvvatlash, kognitiv rivojlanish, metodik asoslar, ta'limiy intervensiya, ijodiy faoliyat, psixo-pedagogik yondashuv*

**Kirish.** Bugungi kunda global ta'lim jarayonida bolalarning shaxsiy rivojlanishi, emotsional barqarorligi va kognitiv salohiyatini muvozanatli tarzda ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilmoqda. Jahon tajribasida, xususan, Finlyandiya, Yaponiya, Kanada, Fransiya va AQSh ta'lim tizimlarida art-terapevtik usullar maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida faol tatbiq etilib, o'quvchilarning ijodkorligini, hissiy intellekt va aqliy faolligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. YuNISEF va UNESCOning ta'limda inklyuzivlik va psixo-emotsional rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan qator loyihalarida ham art-terapiyadan keng foydalanilmoqda.

O'zbekistonda ham ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, bolalarning psixologik holatini mustahkamlash va ijodiy faolligini rag'batlantirish yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni va unga muvofiq "Maktab ta'limi sifatini oshirish" konsepsiyasida ta'limda innovatsion, ijodiy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, 2023–2025 yillarda bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan "Barkamol avlod" dasturi doirasida art-terapiyaning maktab ta'limidagi o'rni alohida e'tiborga olinmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini art-terapiya vositasida hissiy-kognitiv qo'llab-quvvatlash masalasi ta'lim tizimini insonparvarlashtirish va bola shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi zamonaviy pedagogika va psixologiyada bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda integrativ yondashuvlar, xususan, art-terapiya usullaridan foydalanish tobora dolzarb tus olmoqda. Ushbu yo'nalish bolalarda hissiy barqarorlikni, kognitiv salohiyatni va ijodkorlikni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Xorijda A. Louven, K. Rodjers, E. Fromm kabi psixoterapevtlar bolaning ichki dunyosi va his-tuyg'ularini ifodalashda ijodiy faoliyat, xususan, art-terapiyaning samaradorligini ilmiy asosda ko'rsatganlar. E. Kramer va J. Rubin kabi amerikalik tadqiqotchilar art-terapiyaning klinik va pedagogik modellarini bolalar uchun moslashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. YuNESKO va YuNISEF tashkilotlari tomonidan dastlabki va boshlang'ich ta'lim bosqichida hissiy va aqliy rivojlanishni ta'minlashda san'at vositalarining o'rni keng tadqiq etilgan va turli mamlakatlarda

(Kanada, Finlyandiya, Koreya) art-pedagogik dasturlar amaliyotga joriy etilgan.

MDH davlatlari olimlaridan L.S. Vygotskiy va A.N. Leontevning "faoliyat nazariyasi" va «zona blijayshego razvitiya» haqidagi ta'limotlari bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi jarayonida tashqi muloqot va ijodiy faoliyatning muhim rolini asoslab bergan. Ye.T. Arkin, N.P. Sakulina, T.V. Akulova kabi rus pedagoglari va psixologlari boshlang'ich ta'limda izoterapiya va drama-terapiya kabi art-terapiya turlarining foydasi haqida ilmiy ishlar olib borgan. S.L. Novosyolova va L.D. Stolyarenkolar art-terapiya vositasida bolaning empatik qobiliyatlari, stressga chidamlilik va ijtimoiylashuvini oshirish yo'llarini taklif etgan.

Respublikamiz olimlaridan R.Abdurahmonov, A.Xaitov, M.Yuldashev kabi pedagog-olimlar ta'limda emotsional rivojlanish va insonparvar yondashuvlar masalasini tadqiq etib, shaxsning ma'naviy-psixologik kamolotiga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqqan. M.Qurbonov, Sh.Norqobilova, S.Ochilovalar maktabgacha va boshlang'ich ta'limda psixo-pedagogik intervensiya, ijodiy mashg'ulotlar va terapevtik mashg'ulotlarning bolalar rivojiga ta'siri yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan. 2023–2024 yillarda Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim agentligi tashabbusi bilan joriy etilgan «Ijodiy yondashuv orqali shaxsiy salohiyatni rivojlantirish» loyihasida art-terapevtik komponentlar metodik to'plam sifatida tavsiya etilgan.

Keltirilgan nazariy manbalar va tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, art-terapiya usullari boshlang'ich ta'limda bolalarning hissiy barqarorligi, kognitiv qobiliyatlari va ijodiy faolligini rivojlantirishda o'ta samarali ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shu sababli, mazkur usullarning metodik asoslarini takomillashtirish milliy ta'lim tizimidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mulohaza. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, art-terapiya vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy barqarorlikni ta'minlash, ichki kayfiyatni ifodalash va stress holatlarini yengishda samarali metodik yo'l sifatida xizmat qiladi. Bunday usullar orqali bolalar nafaqat o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar, balki ularning ta'limga nisbatan ijobiy munosabati, didaktik materiallarni o'zlashtirish qobiliyati va ijodiy faolligi ham ortadi.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatdiki, art-terapevtik mashg'ulotlar dars jarayonida va darsdan tashqari faoliyatlarda qo'llanilganda bolalarda hamkorlik, empatiya, muloqotchanlik, emotsiyalarni idora qilish, muammoni hal etish kabi hayotiy ko'nikmalar shakllanadi. Bu esa ta'limning nafaqat bilim berish, balki shaxs rivojiga qaratilgan insonparvar maqsadlarini ham amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, pedagoglarning art-terapevtik bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularga metodik ko'mak berish, ilmiy-amaliy yo'riqnomalarni yaratish muhim vazifalardan biri sifatida qayd etiladi. Art-terapiyani targ'ibot qilish va uni ta'lim tizimiga to'liq integratsiya qilish maqsadida tegishli normativ-metodik asoslarni takomillashtirish zarur.

Metodika ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich tatbiq etiladigan, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va emotsional-kognitiv holatini inobatga olgan holda shakllantiriladi. U quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Diagnostika bosqichi. O'quvchilarning hissiy holati va kognitiv qobiliyatlarini aniqlash. Quyidagi usullar qo'llaniladi: emotsional holat testlari (rangli testlar, "Mening kayfiyatim" diagnostikasi); e'tibor, xotira, tafakkurni aniqlash testlari (Myunsterberg, Shulte, "10 so'z" metodi); psixolog va pedagog tomonidan dastlabki baholash.

Ta'limga integratsiya bosqichi. Art-terapiya elementlarini o'quv mashg'ulotlariga to'g'ri tatbiq etish. Bunda bir qator metodik yondashuvlar mavjud:

Izoterapiya. Mavzuli rasm chizish, his-tuyg'ularni ranglar orqali ifoda qilish (masalan, «Xursandchilik qanday rangda bo'ladi?»).

Muzykoterapiya. Dars boshlanishidan oldin musiqa orqali bolalarda hissiy fon yaratish.

Qum terapiyasi. Sensor materiallar bilan ishlash (qum, plastilin), so'zlashuv va erkin ifoda.

Dramaterapiya. Bolalar o'rtasida rolli o'yinlar, mini-inssenirovka, muloqotli mashqlar.

Ko'pqatlamli rasm yaratish. Jamoaviy ijodiy mashg'ulotlar hissiy va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Refleksiya va baholash bosqichi esa o'quvchining emotsional va kognitiv rivojlanish dinamikasini baholash jarayoni bo'lib, bunda bir qator usullar samarali natija beradi. Bular: mavsumiy psixologik testlar (3 oyda bir marta); pedagogik kuzatuv varaqlari; ota-ona fikrlari va mulohazalari orqali tashqi baholash; bolalarning o'z-o'zini baholashi («Men o'zimni shunday his qilyapman» go'shaklari).

Metodik tavsiyalar va individual yondashuvlarni ham taklif etmoqchimiz. Har bir o'quvchi uchun alohida «hissiy kartoteka» yuritiladi. Pedagog va psixologlar uchun metodik qo'llanma: art-terapiya mashg'ulotlarini fan darslariga moslashtirish (ona tilida — obrazli ifoda; matematikada — rangli misollar; atrof-muhitda — tabiat rasmlari). Guruhda va individual tarzda faoliyat tashkil etish.

Ushbu metodikaning afzalligi shundaki, bolalarda hissiy munosabatlarni ifoda etish va boshqarish qobiliyati shakllanadi. Tafakkur va ijodiy yechim topish salohiyati rivojlanadi. Darslarga faol qatnashish va o'quvga qiziqish ortib boradi. Mehribon, ishonchli va inklyuziv o'quv muhiti shakllanadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotning amaliy qismi sifatida Buxoro viloyatining 4 ta umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Ushbu jarayonda 2 ta sinf tajriba guruhi sifatida, yana 2 ta sinf esa nazorat guruhi sifatida tanlab olindi. Jami 100 nafar 2–3-sinf o'quvchilari qamrab olindi.

Art-terapiyaning quyidagi turlari ta'lim jarayoniga integratsiya qilindi:

Izoterapiya (rasm chizish, ranglar orqali his-tuyg'ularni ifodalash);

Muzykoterapiya (inson hissiy holatini muzyka orqali barqarorlashtirish);

Badiiy dramaterapiya (rolli o'yinlar, mini-senariylar orqali ichki kechinmalarni ochish);

Qum terapiyasi (sensor faoliyat asosida psixologik holatni barqarorlashtirish).

Amaliy mashg'ulotlar haftasiga 2 marta, 30 daqiqalik mashg'ulotlar shaklida 3 oy davomida tashkil etildi.

Asosiy baholash mezonlari ishlab chiqildi:

Hissiy barqarorlik (o'qituvchi va psixolog nazorati orqali);

Differensial kognitiv testlar (e'tibor, xotira, fikrlash faolligi);

Psixologik anketa (o'quvchilar va ota-onalar uchun);

Pedagogik kuzatuv (o'quv jarayonidagi faollik, ijodkorlik).

Natijalar tahlili 1-jadvalda o'z aksini topgan.

1-jadval.

Ko'rsatkichlar	Sinvgacha (%)	Sinovdan so'ng (%)	O'zgarish (%)
Emotsional barqarorlik	48%	82%	+34%
Ijodiy faollik	52%	85%	+33%
Diqqat va xotira	59%	79%	+20%
Darsda qatnashuv faolligi	61%	87%	+26%

Tajriba-sinov ishlari shundan dalolat berdiki, art-terapevtik yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining hissiy holati, aqliy faolligi va ijodiy qobiliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu usullar darslik mazmuniga muvofiq moslashtirilganda, ta'lim samaradorligi oshadi, o'quvchilarda ta'limga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, art-terapiya vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining hissiy va kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu usullar orqali

bolalarning ichki kechinmalarini ifoda etish, stress holatlarini yengish, ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish va ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Art-terapevtik metodlarni ta'limga integratsiya qilish o'quv jarayonining insonparvar, shaxsga yo'naltirilgan, emotsional va aqliy barqarorlikni ta'minlovchi samarali yo'nalish sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur metodikadan samarali foydalanish uchun o'qituvchi va psixologlarning kasbiy tayyorgarligi, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi va ta'lim muhitining psixologik jihatdan xavfsiz va ijobiy bo'lishi muhim hisoblanadi. Art-terapiya vositasida hissiy-kognitiv qo'llab-quvvatlash boshlang'ich ta'lim jarayonini shaxs rivojiga qaratilgan holda boyitish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni – "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"
2. Выготский Л.С. (1984). Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Педагогика.
3. Леонтьев А.Н. (1975). Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Политиздат.
4. Крамер Э. (1971). Art as Therapy with Children. New York: Schocken Books.
5. Рубин Дж. (1999). Approaches to Art Therapy: Theory and Technique. New York: Routledge.
6. Абдурахмонов Р. (2019). Психология ва таълимда инсонпарвар ёндашувлар. Тошкент: ЎзРФА нашриёти.
7. Юлдашев М. (2022). Ижодий таълим: назария ва амалиёт. Тошкент: "Фан ва технологиялар".
8. Норқобилова Ш. (2021). Болалар психологиясида терапевтик ёндашувлар. Тошкент: "Педагогика".
9. Столяренко Л.Д. (2004). Основы психологии. Ростов-на-Дону: Феникс.
10. ЮНЕСКО (2020). Arts Education and Emotional Development in Primary School: International Guidelines.
11. UNICEF (2021). Therapeutic Support Strategies for Children in Educational Settings. Geneva: UNICEF Publications.

## RAISING THE GENERAL PHYSICAL FITNESS OF WRESTLER STUDENTS WITH A CIRCULAR TRAINING METHOD

*Nuralieva Ugiloy Shomuratovna,  
Karshi state university, Karshi, Uzbekistan*

Идея Г. Марчеллино, по оцениванию творческие работы учащихся на уроках изобразительного искусства заключается в следующих ключевых моментах:

Структурированные рубрики - предложение использовать четко определенные критерии оценки, такие как технические навыки, креативность, понимание художественных элементов и аккуратность исполнения;

Уровни достижения - введение различных уровней оценки (например, «отлично», «хорошо», «удовлетворительно», «нужно улучшение») с подробными описаниями для каждого уровня;

Поддержка развития учащихся - использование рубрикаторов не только для оценки, но и как инструмента для обратной связи, помогающего учащимся понимать свои сильные стороны и области для роста;

Формирование навыков самооценки - поощрение учащихся к самостоятельному анализу своих работ с использованием рубрикаторов, что способствует развитию критического мышления и осознанности в творческом процессе.

В работе Очилова Ф. Э. и Дустмуродова Н.Р. вопросы оценивания творческих работ затрагиваются в следующем контексте: оценивание может рассматриваться через призму эмоционального состояния, то есть, как оценка влияет на мотивацию и эмоциональный настрой ученика в процессе и после выполнения пейзажа. Также отмечены, что излишне критическая или формальная оценка может угнетать учащегося, тогда как поддерживающая и индивидуализированная оценка способствует росту уверенности и раскрытию творческого потенциала. Исходя из этого предложены подходы к гибкому и развивающему оцениванию, где оценивается не только результат, но и процесс работы, старание, эмоциональное включение и оригинальность [7].

Однако большинство методик недостаточно учитывают индивидуальные особенности учеников, их стиль, мотивацию и прогресс в обучении, что требует переосмысления существующих подходов при обучении, особенно, при оценивании творческих работ, выполненные ими.

На основании анализа литературных источников и педагогической практики можно выделить следующие проблемы в существующей системы оценивания:

Субъективность оценивания, имеется в виду, что уровень художественного восприятия у педагогов различается, что приводит к разным оценкам за одну и ту же работу;

Отсутствие универсальных критериев, при этом учителя часто разрабатывают индивидуальные системы оценивания, что затрудняет сравнение и мониторинг результатов;

Недостаток учета процесса, текущие системы в большей степени оценивают финальный продукт, игнорируя степень усилий, проявление оригинальности, самостоятельности;

Слабая связь с цифровыми технологиями, т.е. современные средства анализа изображений и цифровые портфолио редко используются в оценивании [4].

Предлагаемая методика оценивания творческих работ учащихся. Исходя из выше проделанную работу нами предлагается методические рекомендации по усовершенствованию оценивания, основываемая на сочетании качественных и количественных подходов, ориентированных на следующие принципы:

Введение комплексной системы критериев: разработка критериев, охватывающих, техническое выполнение (точность, композиция, колорит), творческую составляющую (оригинальность, самостоятельность), процессуальные характеристики (стремление к саморазвитию, соблюдение инструкций, участие в обсуждении) и рефлексивные компоненты (самооценка, анализ своей работы и работ сверстников);

Использование рубрикаторов включающие, создание универсального рубрикатора позволяющий формализовать субъективные впечатления и сделать оценку прозрачной. Рубрикатор может включать шкалу от 1 до 5 по каждой из категорий с подробным описанием каждого уровня [6].

Применение цифровых инструментов, при этом рекомендуется интеграция цифровых портфолио (например, Google Classroom, Padlet, Artsonia), где учащиеся могут выкладывать свои работы, получать отзывы и отслеживать собственный прогресс. Это создает условия для формирования метапредметных навыков и визуального самоанализа [6].

Вовлечение учеников в процесс оценивания, это является методика взаимного оценивания, самооценки и коллективной рефлексии позволяют развивать критическое мышление и ответственность за собственную работу [5].

Выводы. Практическая реализация и внедрение предлагаемой нами методики оценивания творческих работ учащихся на уроках изобразительного искусства в общеобразовательной школе обеспечивают ряд существенных преимуществ по сравнению с традиционными подходами, к основным результатам которого относятся:

значительное повышение учебной мотивации учащихся за счёт вовлечённости в процесс оценивания и осознания критериев успеха;

рост самостоятельности в выполнении творческих заданий, что свидетельствует о формировании личностно значимых умений и навыков саморегуляции;

улучшение качества рефлексии, развитие способности учащихся анализировать собственную деятельность и аргументированно обосновывать творческие решения;

повышение объективности и прозрачности процедуры оценивания, что способствует формированию доверительных отношений между учителем и учащимися, а также повышает общий уровень удовлетворённости образовательным процессом.

Таким образом, предложенная методика обладает высоким педагогическим потенциалом и может быть рекомендована к широкому внедрению в практику преподавания

Таким образом, эффективное оценивание в школьном курсе изобразительного искусства должно основываться на комплексной системе критериев, включающей как продукт, так и процесс творчества. Важным компонентом также становится цифровая поддержка и вовлечение учеников в самооценивание. Предлагаемая методика способствует формированию устойчивой мотивации, развитию творческих и метапредметных навыков, а также делает образовательный процесс более прозрачным и демократичным.

Список использованной литературы

Кравец Т.Н. Формирующее оценивание на уроках изобразительного искусства. 3 класс // Интерактивное образование, 2023.

Данилов М. А., Есипов Б. П. Дидактика: Пособие для учителей. — М.: Просвещение, 1980. — 352 с.

A. Avotina, V. Froloviceva. Rubrics as a Tool for Objective Assessment in Art Education // TO BE OR NOT TO BE A GREAT EDUCATOR, 2022. P. 526-537

Мальцева Л.В. Цифровое портфолио в преподавании изобразительного искусства в школе. // Педагогика искусства. — 2020. — №2. — С. 34–38.

Eisner E. The Arts and the Creation of Mind. — New Haven: Yale University Press, 2002.

Marcellino G. Assessing Art: Elementary Assessment Rubrics. — Art Education Journal, 2011. — Vol. 64, No. 4. — P. 12–19.

Очиллов Ф.Э. Дустмуродова Н. Р. Работа над эмоциональным состоянием учащихся в процессе выполнения пейзажа в дхш //Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў, Илимий-методикалық журнал №2. 2025. - 426-430 стр.

## ZAMONAVIY O‘QUV MUHITIDA O‘QUVCHILARDA TABIATGA NISBATAN QADRIYATLI MUNOSABATNI TA’LIMIY VAZIYATLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMI

*Primova Nilufar Bahriyevna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘quv muhitida o‘quvchilarda tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, ta’limiy vaziyatlar vositasida ekologik ong, estetik sezgirlik, mas’uliyat, tabiatga g‘amxo‘rlik kabi qadriyatlar asosida yondashuvlar ishlab chiqiladi. Ta’limiy vaziyatlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, hayotiy muammolarni hal qilish, shaxsiy pozitsiyasini ifodalashga yo‘naltirilgan vosita sifatida qaraladi. Maqolada ta’limiy vaziyatlar asosida darslarni loyihalash, ularning metodik jihatlar va amaliyotda qo‘llanish mexanizmlari bayon etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ekologik qadriyatlarni samarali shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

*Kalit so‘zlar: ta’limiy vaziyat, ekologik tarbiya, qadriyatli munosabat, zamonaviy o‘quv muhiti, ekologik ong, o‘quvchi shaxsiyati, pedagogik mexanizm, ekologik qadriyatlar.*

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda ekologik muammolarning kuchayib borayotgani o‘quvchilarda tabiatga bo‘lgan munosabatni ijobiy va qadriyatli yo‘nalishda shakllantirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. O‘quvchilarni ekologik madaniyatli, mas’uliyatli, ongli shaxs sifatida tarbiyalash uchun faqat nazariy bilim emas, balki hissiy-ta’sirchan, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’limiy yondashuv zarur. Shu nuqtai nazardan, ta’limiy vaziyatlardan foydalanish orqali tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni rivojlantirish muhim pedagogik mexanizm sifatida qaralmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Qadriyatlar — bu insonning shaxsiy yoki ijtimoiy hayotida muhim deb topilgan, ongli yo‘sinda e’tirof etiladigan va u orqali yo‘nalish beriladigan ruhiy-ma’naviy mezonlardir. Ta’lim tizimi orqali uzatiladigan qadriyatlar shaxs kamolotining asosi hisoblanadi (Abdurahmonova, 2018). Ayniqsa, ekologik qadriyatlar — tabiatga hurmat, uni saqlash, unga zarar yetkazmaslik kabi munosabatlar shakllanishiga xizmat qiladi. Ekologik tarbiya deganda shaxsda tabiatga nisbatan ongli, hissiy, amaliy munosabatni shakllantirishga qaratilgan tizimli pedagogik jarayon tushuniladi (Xolmatova, 2020). U shaxsning ekologik madaniyatini, ekologik ongini va qadriyatga asoslangan pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantirish, avvalo, ularning ongli qarorlari va ijtimoiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ta’limiy vaziyat (didaktik holat) — bu o‘quvchilarni o‘rganilgan mavzuga emotsional, shaxsiy, amaliy jihatdan bog‘lovchi, real yoki modellashtirilgan pedagogik holat bo‘lib, o‘quvchi faoliyatini rag‘batlantiradi va uni fikrlashga undaydi (Sharipova, 2022). Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga asoslanib, o‘quvchi shaxsiy rivojlanishida yaqin rivojlanish zonasi orqali mustaqil va ijtimoiy bilim olishga intiladi.

Ta’limiy vaziyat — bu o‘quvchi shaxsiyati rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, o‘z fikrini ifodalash, muammoni hal qilish, hayotiy tajriba orttirish imkonini beruvchi maxsus pedagogik holatdir. Ular orqali o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki muayyan qadriyatlarni anglaydi va hayotida qo‘llashga harakat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik qadriyatlarni shakllantirish uchun quyidagi turdagi ta’limiy vaziyatlardan foydalanish samaralidir:

- Muammoli vaziyatlar: tabiatga tahdid soluvchi holatlarni tahlil qilish va yechim topish;
  - Rol o‘yinlari: o‘zini ekolog, tabiat himoyachisi, bog‘bon rovida tasavvur qilish;
  - Kuzatuv vaziyatlari: fasllar almashinuvi, hayvonot va o‘simliklar hayotini real kuzatish;
  - Bahsli vaziyatlar: ekologik mavzularda turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish.
- Ta’limiy vaziyatlar quyidagi pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

Integratsiyalashgan darslar orqali. Bunda biologiya, geografiya, ona tili fanlari bilan bog‘lab o‘quvchilarda tabiatni anglashga oid kompleks bilimlar beriladi;

Ijodiy topshiriqlarni boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llash orqali tabiatni tasvirlash, tabiatni muhofaza qilishga doir loyiha va plakatlarni tayyorlash o‘quvchilarda tabiatga qadriyatli munosabatni shakllantiradi;

ekologik ekskursiyalarni tashkil etish, bunda bevosita tabiatga chiqib, u bilan hissiy aloqa o‘rnatish boshlang‘ich sinf o‘quvchisida tabiatga qadriyatli munosabatni rivojlantirishda samarali metodikalardan biridir;

refleksiya orqali o‘quvchilarning shaxsiy his-tuyg‘ulari, mulohazalarini yozma yoki og‘zaki ifoda etishni tashkil qilish, bu darsning oxirgi etaplarida amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’limiy vaziyatlar ko‘proq o‘yin va tasviriy faoliyat bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lishi lozim. Katta yoshdagi o‘quvchilar uchun esa murakkab muammoli holatlar, bahs-munozarali vaziyatlar mos keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’limiy vaziyatlar ko‘proq o‘yin va tasviriy faoliyat bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lishi lozim. Katta yoshdagi o‘quvchilar uchun esa murakkab muammoli holatlar, bahs-munozarali vaziyatlar mos keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ta’limiy vaziyatlar orqali tabiatga qadriyatli munosabatni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqishda bir qator komponentlarni o‘z ichiga oladi. (1-jadval)

1-jadval.

### Mexanizm komponentlari

Komponent	Mazmuni
1. Maqsadli blok	Tabiatga hurmat, g‘amxo‘rlik, estetik qadriyatlarni shakllantirish
2. Mazmuniy blok	Ekologik bilimlar, tabiat hodisalari, qadriyatlar, hissiy-estetik tushunchalar
3. Faoliyat blok	Ta’limiy vaziyatlar: muammoli, rolli, kuzatuvli, bahsli, tasviriy
4. Metodik blok	Didaktik o‘yinlar, interfaol usullar, ekoyahat, loyiha ishlari, refleksiya
5. Motivatsion blok	Tabiatni sevishtga rag‘bat, individual yondashuv, tanqidiy fikrlash
6. Diagnostik blok	Qadriyatli munosabat ko‘rsatkichlarini aniqlash, baholash mezonlari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga qadriyatli munosabatni rivojlantirish jarayoni bir qator bosqichlarda olib boriladi:

Tayyorlov bosqichi:

O'quvchilar ekologik saviyasini boshlang'ich diagnostika qilish

Tabiatga oid qadriyatlar bo'yicha so'rovnomalar, suhbatlar

Ta'sir etish bosqichi:

Ta'limiy vaziyatlarni darsga integratsiya qilish (muammoli topshiriqlar, drama, bahs)

Estetik va emotsional taassurotlarni kuchaytiruvchi usullar (rasm, qo'shiq, hikoya)

Faollashtirish bosqichi:

O'quvchilarning mustaqil ekologik loyihalari (poster, chiqindilarni ajratish, daraxt ekish)

Tashabbusga yo'naltirish: "Tabiat do'stlari" klubi, "Yashil yurak" harakati

Refleksiv baholash bosqichi:

O'zgarishlarni tahlil qilish: hissiy-munosabatli holat, qadriyatga asoslangan fikrlar

O'quvchilarning o'zini-o'zi baholash varaqalari

Kutilayotgan natijalar:

Tabiatga nisbatan hurmat, g'amxo'rlik, javobgarlik kabi qadriyatlarning mustahkamlanishi

O'quvchilarda ekologik fikrlash va axloqiy ongning shakllanishi

Ta'limiy vaziyatlar asosida amaliy ekologik faoliyatga tayyorlik

Xulosa. O'quvchilarda tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishda ta'limiy vaziyatlardan foydalanish ekologik madaniyat va shaxsiy mas'uliyatni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mexanizm o'quvchilarning faolligini oshirish, ongli tanlov qilish va atrof-muhitga hurmat bilan yondashishga undaydi. Ta'limiy vaziyatlar orqali tashkil etilgan darslar nafaqat bilim beradi, balki o'quvchini amaliy faoliyat va qadriyatli hayotga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, D. (2020). Ekologik tarbiyaning didaktik imkoniyatlari. Toshkent: TDPU ilmiy to'plami.
2. Abdurahmonova, M. K. (2018). Qadriyatlar va tarbiya. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
3. Dewey, J. (1938). Experience and education. New York: Macmillan.
4. Holmatova, N. J. (2020). Ekologik tarbiyaning pedagogik asoslari. Toshkent: Fan.
5. Nazarjonova, G. (2019). Ekologik ong va ekologik madaniyat: Nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Andijon: Ma'rifat.
6. Sharipova, D. K. (2022). Zamonaviy darsda ta'limiy vaziyatlardan foydalanish usullari. Pedagogika va psixologiya, (3).
7. Tilavova, N. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga e'tiborli munosabatni shakllantirish metodikasi. Ilmiy-uslubiy to'plam.
8. Tojimatov, B. (2021). Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish. Toshkent: Iste'dod.
9. UNESCO. (2017). Education for sustainable development goals: Learning objectives. Paris: UNESCO Publishing.
10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING EGILUVCHANLIK JISMONIY SIFATINI AYLANMA MASH'G'ULOT USLUBIDA RIVOJLANTIRISH**

*Qo'lyiyev Bunyod Jasur o'g'li,  
Xalqaro innovatsion universiteti magistranti, Qarshi sh.*

*Annotatsiya. Ushbu maqola jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik jismoniy sifatini aylanma mash'g'ulot uslubi bo'yicha rivojlantirishni tadqiq etishga bag'ishlangan.*

*Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining anatomo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olib aylanma mash'g'ulot uslubidagi maxsus mashqlar kompleksi tuzilib, pedagogik tajriba asosida sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan metodikaning boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiy jismoniy tayyorgarligiga, hususan egiluvchanlik sifatini samarali tarzda rivojlantirishga va salomatligini yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi.*

*Maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirish, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda individual yondashuvni shakllantirish va ularning jismoniy rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

*Kalit so'zlar: jismoniy sifatlar, egiluvchanlik sifati, aylanma mash'g'ulot uslubi, sensitiv (sezuvchan) davrlar, kichik maktab yoshi, jismoniy tarbiya darslari.*

## **РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ГИБКОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ МЕТОДОМ КРУГОВОЙ ТРЕНИРОВКИ**

*Куйлиев Бунёд Жасур угли,  
Магистрант Международного инновационного университета, г.Карши.*

*Аннотация. Данная статья посвящена исследованию развития гибкости у младших школьников на уроках физической культуры по методу круговой тренировки.*

*В ходе исследования с учетом анатомо-физиологических особенностей младших школьников был составлен и апробирован на основе педагогического опыта комплекс специальных упражнений по методу круговой тренировки. Результаты исследования доказали положительное влияние разработанной методики на общую физическую подготовленность младших школьников, в частности на эффективное развитие качества гибкости и улучшение здоровья детей.*

*Статья имеет важное научно-практическое значение для повышения эффективности уроков физической культуры общеобразовательных школ, формирования индивидуального подхода к работе с учащимися начальных классов и обеспечения у них физического развития.*

*Ключевые слова: физические качества, качество гибкости, метод круговой тренировки, чувствительные (чувствительные) периоды, младший школьный возраст, уроки физкультуры.*

## **DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF FLEXIBILITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY THE METHOD OF CIRCULAR TRAINING**

*Kuyliyev Bunyod Jasur ogli,  
Master of International University of innovation, Karshi state.*

*Abstract. This article is devoted to the study of the development of physical qualities of flexibility in younger schoolchildren in physical education classes according to of the method of circular training.*

*In the course of the study, taking into account the anatomical and physiological characteristics of younger schoolchildren, a set of special exercises using the circular training method was compiled and tested based on pedagogical experience. The results of the study proved the positive impact of the developed methodology on the general physical fitness of younger schoolchildren, in*

*particular on the effective development of flexibility quality and improvement of children's health.*

*The article has important scientific and practical significance for improving the effectiveness of physical education lessons in secondary schools, forming an individual approach to working with primary school students and ensuring their physical development.*

*Keywords: physical qualities, flexibility quality, circular training method, sensitive periods, primary school age, physical education lessons.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim bosqichidagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi mamlakatimizning milliy ta'lim siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Jismoniy tarbiya fani o'quvchilarning harakat qobiliyatlarini, xususan egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni kompleks tarzda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon bolalar salomatligini mustahkamlash va ularning harakat qobiliyatlarini yaxshilashda muhim o'rin tutadi.

Egiluvchanlik – jismoniy tayyorgarlikning asosi bo'lib, bo'g'imlarning harakat doirasini kengaytirish, mushaklar elastikligini oshirish va shikastlanish xavfini kamaytirish kabi funksiyalarni bajaradi. Shu sababli, egiluvchanlikni erta yoshdan samarali rivojlantirish jismoniy madaniyat va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ko'plab ta'lim muassasalarida an'anaviy, ko'p hollarda monoton va passiv usullarda tashkil etilmoqda. Bu esa egiluvchanlik sifatining yetarlicha rivojlanmasligiga, o'quvchilarda jismoniy faollikning pasayishiga va mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyaning susayishiga olib kelmoqda. Natijada, pedagogik jarayonda zamonaviy, faol ishtirokni rag'batlantiruvchi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Aylanma mashg'ulot uslubi – bu pedagogik jarayonni ko'p qirralikda tashkil qilish, o'quvchilarning faolligini maksimal darajada rag'batlantirish va jismoniy sifatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan samarali metodologik yondashuvdir. Ushbu uslub mashg'ulotlar davomida turli xil mashqlarni navbatma-navbat bajarishni ta'minlab, mushaklar va bo'g'imlarga doimiy va muvozanatli yuklama berish orqali egiluvchanlikni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Aylanma mashg'ulot uslubining o'ziga xosligi shundaki, u o'quvchilarning charchash darajasini kamaytirib, mashg'ulotlarga qiziqish va motivatsiyani oshirishga imkon yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik jismoniy sifatini aylanma mashg'ulot uslubida rivojlantirish masalasi bugungi pedagogika va jismoniy tarbiya fanlari sohasida ilmiy va amaliy jihatdan yuqori darajada dolzarbdir. Mahalliy va xorijiy adabiyotlarda ushbu metodning samaradorligi to'g'risida mavjud ilmiy tadqiqotlar cheklanganligi, shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos metodlarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish zarurati ayniqsa dolzarbdir.

Tadqiqotning maqsadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik jismoniy sifatini aylanma mashg'ulot uslubida samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik asoslarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning vazifalari:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik jismoniy sifatining hozirgi holatini o'rganish;

Aylanma mashg'ulot uslubining nazariy asoslarini tahlil qilish;

7-8 yoshli bolalarda egiluvchanlikni aylanma mashg'ulot uslubida rivojlantirish bo'yicha samarali mashg'ulot dasturini ishlab chiqish;

7-8 yoshli bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirishda aylanma mashg'ulot uslubining samaradorligini eksperimental ravishda tadqiq etish.

Tadqiqotning ob'ekti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik jismoniy sifati.

Tadqiqotning predmeti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik jismoniy sifatini aylanma mashg'ulot uslubida rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun egiluvchanlikni rivojlantirishda aylanma mashg'ulot uslubining nazariy va metodologik asoslari birinchi marta tizimli tarzda ishlab chiqildi;

Aylanma mashg'ulot uslubining boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik sifatini rivojlantirishdagi ta'siri eksperimental yo'l bilan tasdiqlandi;

Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun aylanma mashg'ulotlarga asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilganimizda shu narsa ayon bo'ldiki, egiluvchanlik sifatini kichik maktab yoshida, aynan 7-8 yoshda rivojlantirish zarurligi haqida O.A. Lomova va A.A. Varina, E.V. Volkova va D. R. Volkova, D.S. Luneva va Y.V.Kiperman va boshqa tadqiqotchilar asosli fikrlar bildirishgan.

Jismoniy sifatlarni aylanma mashg'ulot uslubida rivojlantirish samaradorligi haqida J.Q.Xurramov, Sh.A.Akbarov, M.YE.Snigur, M.A.Torbeyev, V.M.Debeliy M.I.Belyakov, A.M.Daurov va boshqa mutaxassislar salmoqli dalillar keltirishgan.

Biroq 7-8 yoshdagi bolalarning egiluvchanligini jismoniy tarbiya darslarida aylanma mashg'ulot uslubida rivojlantirish muammosi yetarli darajada o'rganilmagan va pedagogik tajribalar yordamida asoslab berilmagan. Shu sababli ushbu muammoning yechilish jihati dolzarb hisoblanadi.

Pedagogik tajribaning tashkil qilinishi. Ishlab chiqilgan uslubiyat to'rt seriyali mashqlarni aylanma mashg'ulot uslubi bo'yicha bajarishni (har biri 30 sekund davomida) o'z ichiga oladi, ular orasidagi tanaffus 15 sekundni, mashqlar seriyasi orasidagi tanaffus esa 1 minutni tashkil qildi. Ushbu uslubiyat haftasiga 2 ta dars soatidan 8 hafta davomida qo'llanildi.

Tajriba boshlanguniga qadar o'quvchilar testdan o'tkazildi va egiluvchanlikning rivojlanish darajasini aniqlab, baholash uchun quyidagi testlar qo'llanildi:

1. Yelka bo'g'imlarida egiluvchanlikni gimnastika tayog'ini qo'llarda burab tutqich kengligini santimetri bilan aniqlash;

2. Umurtqa pog'onasining egiluvchanligini aniqlash uchun, o'tirib oyoqlar yozilgan holatda old tomonga egilish;

3. Orqaga egiluvchanlikni baholash uchun orqa bilan yotgan holatdan ko'prik hosil qilish;

4. Chanoq-tos bo'g'imlarda harakatchanlikni shpagatlar bajarish bilan tekshirish. Bolalar uchta shpagatni bajaradilar: tekis, chap oldinga, o'ng oldinga. Uchta shpagat uchun o'rtacha baho beriladi;

5. Tizza bo'g'imlarda harakatchanlikni qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib-turish orqali tekshirish;

Testlarni o'tkazish oldidan o'quvchilarga tajriba sinovlarini o'tkazishning maqsadlari haqida ma'lumot berildi, ularga testlarni to'g'ri bajarilishi batafsil tushuntirildi va ko'rsatib berildi.

Ishlab chiqilgan uslubiyatning samaradorligini aniqlash maqsadida kichik maktab yoshidagi bolalar bilan (7-8 yoshli sinaluvchi bolalar 60 kishidan iborat – birinchi sinf o'quvchilari) pedagogik tajriba Qarshi shahridagi 29-o'rta umumiy ta'lim maktabining o'quv jarayoni sharoitida o'tkazildi. Nazorat guruhidagi mashg'ulotlar jismoniy madaniyat o'qituvchisi bilan birga an'anaviy jismoniy tarbiya dasturi asosida o'tkazildi. Tajriba guruhidagi o'quvchilar, darsning asosiy qismida 6 minut davomida ma'lum yuklamali maxsus mashqlarni bajardilar.

Aylanma mashg'ulot majmuasi quyidagi mashqlarni o'z ichiga oldi:

1-bekat. "Qulf";

2-bekat. "Mushuk devor ostida";

3-bekat. "Tuya";

4-bekat. "Qalamtarosh";

5-bekat. "Nilufar guli";

6-bekat. "To'pponcha".

Tadqiqot natijalari. Olingan natijalar statistik qayta ishlangandan so'ng, 7-8 yoshdagi bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan uslubiyatning samaradorligi haqida guvohlik berdi.

Aniqlandiki, tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlaridagi o'quvchilar jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining farqi kuzatilmadi ( $p>0,05$ ). 7-8 yoshdagi bolalar jismoniy tayyorgarligining nazorati, butun pedagogik tajriba jarayonida o'tkazilgan, egiluvchanlikni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan aylanma mashg'ulot uslubidagi mashqlardan foydalanib mashg'ulotlarni o'tkazish, an'anaviy mashg'ulotlar o'tkazish usullariga taqqoslaganda o'z ustunligini ko'rsatdi.

Xulosalar. Sinalgan guruhlarda pedagogik tajribaga qatnashuvchilar natijalarini testlash taklif qilingan uslubiyatning maktab amaliyotida qo'llanilgan dasturga nisbatan o'z samaradorligini ko'rsatdi va 7-8 yoshdagi bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun uning qo'llanilish samaradorligini to'la tasdiqladi.

Tajriba maboynda barcha ko'rsatkichlarning o'sishi, oddiy maktab dasturi bo'yicha shug'ullangan guruhga nisbatan tajriba uslubiyati bo'yicha shug'ullangan guruhda ishonarli yuqori bo'ldi. Bular 7-8 yoshda egiluvchanlikni rivojlantirishga imkon berish uchun taklif qilingan uslubiyatning foydasiga asosli dalil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2005. – 172 b.

Xurramov J.K. Jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda aylanma mashg'ulot uslubidan foydalanish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023 y. №3, 278-282 b.

Akbarov Sh.A. 1-2-sinf o'quvchilarining koordinatsion qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish. Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi. Ilmiy-uslubiy jurnal. Nukus. 2024 y. №2, 263-270 b.

Снигур М. Е., Торбеев М. А. Комплексирование круговой тренировки на уроках физической культуры с детьми младшего школьного возраста. // Вестник Шадринского государственного педагогического университета. 2020. №4 (48). С. 104-107

## YURIDIK TERMINOLOGIYA TADQIQIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

*Qurbonova E'zoza Shuhrat qizi*  
*Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti v.b.*  
*Guliston davlat universiteti doktoranti, PhD*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek yuridik terminologiyasini o'rganishda qo'llaniladigan metodlar tavsiflangan. Qaysi metodning qaysi o'rinda, qanday terminologik birlikni yoki terminning qaysi jihatini o'rganishda qo'llanishi yoritib berilgan. Fikrlar tadqiqotlarda qo'llanilgan metodlar orqali tahlilga tortilgan. Qo'llanishi umkin bo'lgan metodlar tavsiflangan, yuridik terminologiyani tahlil va tavsif qilishdagi ahamiyati ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar: yuridik terminologiya, metod, metodologiya, huquqiy termin, huquqshunoslik, lingvistik metodlar.*

## METHODS USED IN THE STUDY OF LEGAL TERMINOLOGY

*Kurbanova Ezoza Shuhrat kizi*  
*Associate Professor, Tashkent University of Applied Sciences*  
*PhD candidate, Gulistan State University*

*Abstract. This article describes the methods used in the study of Uzbek legal terminology. It is explained which method is used in which place, which terminological unit or which aspect of the term is studied. The ideas are analyzed through the methods used in the research. The methods that can be used are described, and their importance in the analysis and description of legal terminology is revealed.*

*Keywords: legal terminology, method, methodology, legal term, jurisprudence, linguistic methods.*

## МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЮРИДИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

*Курбанова Эзоза Шухрат кизи*  
*Доцент Ташкентского университета прикладных наук*  
*Докторант Гулистанского государственного университета, (PhD)*

*Аннотация. В статье описываются методы, используемые при изучении узбекской юридической терминологии. Объясняется, какой метод применяется в каком месте, при изучении какой терминологической единицы или какого аспекта термина. Идеи были проанализированы с использованием методов, используемых в исследованиях. Описаны методы, которые можно использовать, и раскрыта их значимость при анализе и описании юридической терминологии.*

*Ключевые слова: юридическая терминология, метод, методология, юридический термин, юриспруденция, лингвистические методы.*

**Kirish (Introduction).** Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy ishning pirovard maqsadini ochib berishda tanlangan metodlar muhim o'rin tutadi. Metodlarni to'g'ri tanlash, ularni asoslash va tadqiqot davomida izchil qo'llash natijaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardandir. Ilmiy izlanishning ko'zlangan maqsadga erishishida qo'llanadigan yo'l yoki vosita metod hisoblanadi. Umuman olganda, metod tadqiqotchi tomonidan ilmiy vazifani yechishda aniq, tizimli va ongli tarzda tanlanadigan usul yoki yondashuvlar majmuyidir. U izlanuvchining faoliyatini tartibga soladi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishda amalga oshiradigan faoliyatini belgilab beradi. Anglashiladiki, tadqiqotlarda qo'llanadigan metodlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi

lozim:

- ilmiy maqsadga yo‘naltirilganlik;
- izchillik va mantiqiylik;
- d) amaliy qo‘llanish imkoniyatiga egalik;
- e) takrorlanuvchanlik.

Darhaqiqat, tadqiqotda qo‘llanadigan har qanday metod maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi shart. Aks holda undan tadqiqotda foydalanish mantiqsiz va samarasiz bo‘lib qoladi. Tadqiqotda qo‘llanadigan metodlar muayyan tadrijiylikka ega bo‘lishi, ilmiy maqsadga bosqichma-bosqich olib borishi lozim. Shuningdek, metodni faqat nazariy tushuncha deb tushunish maqsadga muvofiq emas. Chunki metod amaliy faoliyatda muayyan natijaga erishish imkonini beruvchi aniq usuldur. Metodning takrorlanuvchanligi uni turli vaziyatlarda qo‘llash mumkinligini anglatadi. Ma‘lum bo‘ladiki, metod har qanday tadqiqotning tayanch nuqtasidir. Qayd etish lozimki, tadqiqot mavzusi, maqsadi va vazifalari o‘rganish jarayonida qanday metodlarni qo‘llashni belgilaydi. Ilmiy izlanishda metodning ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni keltirish o‘rinlidir. “Metodologiya va tadqiqot metodidan xoli birorta ilmiy asar mavjud bo‘lmaydi. Shunday ekan, fanda ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodi markaziy o‘rinni egallaydi” [3: 16]. Tadqiqotchi muayyan tadqiq manbaini o‘rganar ekan, bunda ko‘plab metodlardan foydalanishi mumkin. Chunki “tadqiq manbaining ma‘lum bir qirrasini (tomonini) o‘rganishga (“o‘lchashga”) xoslangan usullar tadqiq metodlari deb ataladi” [2: 8]. Tadqiq manbai va predmetini to‘g‘ri tanlash, chegaralash va uni asoslash ilmiy maqsadga erishishdagi dastlabki muhim qadam bo‘lsa, tadqiq metodlarini to‘g‘ri tanlash keyingi muhim qadamlardandir.

Manbalar tahlili (Literature review). Shu vaqtgacha yuridik terminologiyani tadqiq qilgan olimlarimiz tadqiq manbaini o‘rganishda turli usullarni qo‘llaganlar. Masalan, L.M.Boyko o‘z tadqiqotida (1984) quyidagi metodlarni qo‘llaydi: 1) sistem yondashuv; 2) tarixiy-sotsiologik metod; 3) qiyosiy metod; 4) analiz va sintez kabi. Sanalgan metodlar tadqiqotchiga qonunchilik texnikasining o‘ziga xos jihatlarni ochib berishda qo‘l kelgan. Sistem yondashuv metodi ilmiy bilishning o‘rganish obyektini o‘zaro munosabatga kirishuvchi elementlardan iborat tizim sifatida qarashga asoslanadi. Sistem yondashuv quyidagi tamoyillarga tayanadi:

“1) butunlik. Bunda sistema o‘zidan yuqorida turuvchi sistema tarkibiga kiruvchi yaxlit butunlik sifatida qaraladi;

2) iyerarxik qurilishga egalik. Sistema o‘zaro munosabatda bo‘lgan kamida ikkita elementdan iborat bo‘ladi;

3) muayyan tuzilishga egalik. Sistemani hosil qiluvchi elementlar o‘ziga xos strukturani hosil qiladi. Qayd etish lozimki, sistemaning xususiyatlari uni hosil qiluvchi elementlarning xususiyatlari va struktura xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi;

4) farqlilik. Sistema xususiyatlari uni hosil qiluvchi ayrim elementlar xususiyatlaridan farqlanadi” [4: 112].

L.M.Boyko tadqiqotida qonunchilik texnikasini yaxlit tizim sifatida qaralgan o‘rinlarda aynan shu metoddan foydalanilgan. Shuningdek, qonunlarni tartibga solish, qonun matni qismlarini chegaralashda ham bu metod amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan.

Mazkur tadqiqotchining tahlil qilinayotgan dissertatsiyasida qo‘llangan tarixiy-sotsiologik metod o‘z davrida ishning o‘ziga xos senzurdan o‘tib olishida muhim sanalgan. O‘sha davrda mamlakatimiz sovet davlati tarkibida bo‘lganligi qabul qilinayotgan qonunlarning sotsialistik nuqtayi nazardan baholanishiga sabab bo‘ldi. 1977-yilda konstitutsiya qabul qilinganligi va uning ittifoq tarkibidagi davlatlar qonunchiligiga ta’siri masalalari tarixiy-sotsialistik metod asosida ochib berilgan. Qayd etish lozimki, qiyosiy-tarixiy metod yuridik terminologiya uchun muayyan davrda qo‘llangan metodning bir turi sifatida L.M.Boyko tadqiqotida namoyon bo‘ladi.

L.A.Karimovanning 1991-yilgi tadqiqotida til haqidagi qonunlarning ma’naviy va huquqiy aspektlarini ochib berishda yuqorida keltirilgan metodlarga yaqin usullardan foydalanilgan,

deyishimiz mumkin. Jumladan, huquqiy faoliyatga doir holatlar qiyosiy-huquqiy, shakliy-mantiqiy, tarixiy metodlardan foydalanilgan. Qiyosiy-huquqiy metod til haqidagi qonunlar, ularda qo'llangan yuridik terminlar qiyoslanishida samarali bo'lgan. Shakliy-mantiqiy metod esa qonun matnlarining ulardan ko'zlangan mohiyatga qay darajada mosligini tekshirishda qo'l kelgan. Tarixiy metod esa til haqidagi qonunlarning xalq ijtimoiy hayoti va ma'naviy qiyofasiga ta'siri nuqtayi nazaridan tekshirish usuli bo'lib xizmat qilgan.

Sh.Ko'chimov huquqiy normalarni o'zbek tilida ifoda etishning ilmiy-nazariy muammolarini ochib berishda prezident asarlarida qayd qilinayotgan huquqiy davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, milliy istiqloq g'oyalariga doir fikrlari metodologik asos bo'lganligini qayd etadi [6: 8]. Shuningdek, ilmiy bilishning muammoli-analitik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, aniq sotsiologik tizimi kabi usullar tadqiqot metodi sifatida keltiriladi. Muammoli analitik metod yordamida olim huquqiy normaning nima ekanligiga aniqlik kiritadi va uning ifodalanishida o'ziga xosliklarni umumlashtiradi. Sh.Ko'chimov huquqiy normalarning shakllanish jarayoni, yuridik va lingvistik fikrlarning bu borada bir-birini to'ldiruvchi maqomida bo'lishini aynan muammoli-analitik metod asosida ochib beradi. Umuman, olim tadqiqotning turli o'rinlarida aynan shu muammolar uchun mutanosib bo'lgan bir nechta metodlarga murojaat qiladi. Bu esa tadqiqot muammosining muvaffaqiyat bilan yechilishini ta'minlagan.

Yuridik terminologiyani istiqloq davri taraqqiyoti ko'zgasida tahlil qilgan G.Y.G'ulomova ilmiy maqsadga erishishda diaxron plan va qiyoslash metodlaridan foydalangan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tilshunos va huquqshunoslarning ishlaridan foydalaniladi. Jumladan, yuridik terminlarning mavzuiy guruhlari va ularning o'zaro munosabatlarini yoritishda qiyoslash metoddan samarali foydalanilgan [5: 6].

N.A.Jumaniyozova o'zbek va ingliz tillarida yuridik diskursning pragmalingsvistik xususiyatlarini ochib berishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, diskursiv, kognitiv-konseptual, struktural, pragmatik, chog'ishtirma va statistik tahlil metodlaridan foydalangan [1: 8]. Ko'rinib turibdiki, ilmiy maqsadga erishish uchun tadqiqotchi ko'plab usullarga murojaat qilgan. Masalan, tilshunoslikda yuridik diskursning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlashda qiyosiy-tarixiy metod qo'llangan bo'lsa, yuridik diskurs o'rganilishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar qiyosi vositasida o'rganish usullari tahlilga tortilgan. Ingliz va o'zbek tillarida yuridik diskursning lingvistik xususiyatlarini belgilashda chog'ishtirma va struktural tahlil metodlari qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbek va ingliz yuridik diskursida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi morfologik va sintaktik vositalarni ajratishda statistik tahlil metodidan foydalanilgan. Ingliz va o'zbek tillarida yuridik nutq aktlari pragmalingsvistik tahlilida, tabiiyki, pragmatik tahlil metodiga ehtiyoj tug'ilgan.

Tahlil va natijalar. Yuridik terminlarni tadqiq qilishda izlanuvchi ko'plab metodlarga murojaat qilishi mumkin. Bu metodlarning katta qismi ilmiy bilish usullari sifatida qadimgi davrlardan buyon qo'llanib kelinmoqda. Masalan, o'rganish obyektini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan aloqadorlikda tahlil qiladigan qiyosiy-tarixiy metod haqidagi ilk nazariy fikrlar Aristotel yashab ijod qilgan davrlarga borib taqaladi. Sharq filologiyasida qiyosiy-tarixiy metodning dastlabki belgilari M.Koshg'ariy, M.Zamaxshariy, A.Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida uchraydi [7]. Yuridik terminlar tadqiqida bu usul turli davrlarda qo'llangan leksik birliklarni taqqoslash, ularning tadrijiy o'zgarib borishini tahlil qilish kabilarda muhim o'rin tutadi.

Tahlil va natijalar. Yuridik terminlarni tadqiq qilishda nazariy va empirik metodlardan analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstraksiyalash va konkretlashtirish, eksperiment, tasniflash va tizimlashtirish, mantiqiy va grammatik tahlil kabi metodlardan birini mavzuning qaysi tomondan o'rganilishga qarab tanlash mumkin. Masalan, yunonchadan "ajratish", "parchalash", "bo'laklarga ajratish" ma'nolarini beradigan analizda terminologik birlik qismlarga ajratiladi va har bir qism (asos va qo'shimchalar; birikmani hosil qiluvchi birliklar) alohida o'rganiladi. Masalan, absolyut monarxiya terminologik birikmasidagi har bir leksema alohida tahlil qilinadi. "Birlashtirish", "butunga yig'ish" ma'nolarini bildiruvchi sintezda [8] terminologik birliklar yaxlitlikda tahlilga tortiladi. Yuridik terminlarning har birini alohida o'rganish jarayoni analiz, ularni yaxlit tizim

sifatida tahlilga tortish sintez orqali tahlil qilish jarayonidir. Anglashiladiki, analiz metodida hodisa yoki obyekt qismlarga bo‘linib, alohida o‘rganiladi, sintez metodida, aksincha, qismlar birlashtirilib, yaxlit manzara shakllantiriladi. Analiz va sintez metodlari birlashtirilgan holda yuridik terminlarni tadqiq qilishda samarali qo‘llanishi mumkin.

Empirik metodlardan biri kuzatuv metodi sanaladi va u yuridik terminologiya tadqiqida samarali qo‘llanishi mumkin. Kuzatuv metodi o‘rganish obyektini bevosita kuzatish orqali o‘rganishda qo‘llanadi. Tadqiq obyektining tabiiy sharoitdagi holatini, xususiyatlarini va unda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni kuzatish orqali to‘planadigan ma’lumot kuzatuv metodi natijasidir. Qayd etish lozimki, bu empirik metodda tadqiqotchi obyektga ta’sir o‘tkazmaydi, balki uni kuzatadi xolos. Yuridik terminlarni kuzatuv metodi asosida tadqiq qilish bevosita ochiq sud majlislari, hujjatli filmlar va boshqa jarayonlarni kuzatish orqali tadqiq qilish mumkin. Kuzatuv metodi terminlarning jonli nutqdagi ahamiyatini ochib berishda juda muhim hisoblanadi.

Xalqaro munosabatlarning globallashtirish natijasida jadallashishi qiyosiy-tipologik metodning tadqiqotdagi ahamiyatini oshiradi. Qiyosiy-tipologik metod kelib chiqishi turli oilalarga mansub yoki qarindosh tillar va ularning grammatik, fonetik va leksik qurilishidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashga qaratilgan metoddir. Qiyosiy-tipologik metod natijasida mavjud yuridik terminologiya tizimi tartibga solinishi, leksik birliklarning mohiyati aniqlashtirilishi mumkin. Masalan, o‘lim jazosining mamlakat qonunlarida mavjudligi insonning eng muhim bo‘lgan shaxsiy huquqlaridan biri – yashash huquqiga tahdid ekanligi mamlakatimizda dunyo tajribasi asosida aniqlandi [9]. Natijada, o‘zbek yuridik terminologik tizimida o‘zgarish kuzatiladi – o‘lim jazosi termini tizimdan chiqib ketdi. Ayon bo‘ladiki, yuridik terminologiyani qiyosiy-tipologik tadqiq qilish dunyo tajribasidagi ilg‘or amaliyotlarni mamlakatimiz yuridik terminlariga olib kirish imkonini beradi.

Xulosa (Conclusion). Hozirgacha o‘zbek tilshunosligida yuridik soha, uning nutqi, terminologik tizimi tadqiq qilina boshlaganiga u qadar ko‘p bo‘lgan emas. Bunga sabab sifatida huquqiy tizimimiz zamonaviy ko‘rinishda shakllangan vaqt ham katta davrni qamrab olmaydi. Shu sababli yuridik soha va unda qo‘llanadigan nutq, terminologik birliklar tadqiqi ham o‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlanganligi mantiqiy holdir. Yuridik soha dastlabki davrlarda huquqshunoslar tomonidan yuridik nuqtayi nazardan tadqiq qilindi (Boyko L.M., Karimova L., A.). Keyinchalik sohaga doir nutq va leksik birliklar tilshunos olimlar hamkorligi asosida tadqiq qilina boshlandi (Qosimova M.X., Ko‘chimov Sh.N.). So‘nggi yillarda o‘zbek yuridik terminlari turli tillarda chog‘ishtirish asosida o‘rganishga e’tibor qararilmoqda (Jumaniyozova N.). Keltirilgan tadqiqotlarda mualliflar tomonidan ilmiy maqsadlarga erishishda turli metodlardan foydalanilgan. Yuridik terminologiyani o‘rganishda yondashuvlarning ko‘pligi o‘rganish obyektining nihoyatda serqirra ekanligi bilan dalillanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Jumaniyozova N. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning pragmatik xususiyatlari: Filol. fanl. b. fals. dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – 71 b.

Ne‘matov H., Mengliyev B., Hamroyeva Sh. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – GlobeEdit, 2020. – 178 b.

Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 108 b.

Блауберг И.В., Юдин Э.Г. Становление и сущность системного подхода. – Москва: Наука, 1973. – 271 с.

Гуломов Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент: 2004. – 27 б.

Кўчимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил): Филол. фанл. д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 2004. – 46 б.

Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдли, 11-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – 271 б.

<https://ru.wikipedia.org/wiki/Синтез> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 12.02.2025.

<https://lex.uz/docs/-1264447> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 12.02.2025.

## TUB VA MURAKKAB SONLAR

Rizayeva Mashhura Ergashevna,

Buxoro davlat pedagogika instituti, "Matematika va informatika" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

*Annotatsiya: Mazkur ishda ta'lim tizimidagi "Zinama-zina", "Diqqatni jamla", "Ha-Yo'q" metodlaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. O'quv mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni bilimlarini baholashda o'quvchilarda shakllantiradigan tayanch kompetensiyalar bo'yicha baholash uslubini joriy qilish, shu jumladan axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarni ijodiy fikrlashini rivojlantirish metodikalaridan keng qo'llagan holda tashkil etilgan.*

*Kalitso'zlar: Sonlarning bo'linish belgilari, tub son, murakkab son, o'zaro tub son tushunchalari*

## ТУБЫ И СЛОЖНЫЕ ЧИСЛА

Ризаева Махшуро Эргашевна,

Бухарский государственный педагогический институт Направление «Математика и информатика» Студентка 4 курса

*Аннотация: В данной работе представлены сведения о повышении эффективности учебных занятий с использованием методов «Зинама-зина», «Диакатни джамла», «Ха-Ёк» в системе образования. В процессе учебных занятий при оценке знаний учащихся внедрена система оценки по ключевым компетенциям, которые необходимо развивать у учащихся, включая развитие творческого мышления учащихся в условиях информационных технологий с широким применением методик.*

*Ключевые слова: Признаки делимости чисел, простые числа, составные числа, взаимнопростые числа.*

## PRIME AND COMPOSITE NUMBERS

Rizayeva Mashhura Ergashevna,

Bukhara State Pedagogical Institute «Mathematics and Informatics» Department 4th-year student

*Abstract: This paper provides information on enhancing the effectiveness of educational activities through the use of methods such as «Step by Step», «Focus Attention», and «Yes-No» in the education system. In the process of evaluating students' knowledge during lessons, an evaluation method based on the core competencies to be developed in students is implemented. This includes the use of methodologies aimed at fostering creative thinking in students in an information technology-driven environment.*

*Keywords: Divisibility rules, prime numbers, composite numbers, co-prime numbers.*

**Kirish.** Bugungi kunga kelib ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'quvchilardan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Nimaga aynan qisqa vaqt? Chunki o'quvchi diqqatini juda uzoq vaqt davomida darsga qarata olmaydi, tez chalg'ib qoladi. Shu sababli o'qituvchi dastlab o'quvchi diqqatini o'ziga jab qilib olib, qisqa vaqtda mavzuni o'quvchiga tushuntira olishi kerak. "Matematika fanining tamal toshini Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' bobolarimiz qo'ygan. Bu bizning

qonimizda bor.

Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi, —dedi Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev.[ Mirziyoyev, Sh. M. (2020, January 31).]

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ta‘lim sohasiga juda katta e‘tibor berilmoqda. “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” Prezident qarori qabul qilindi. Bu qaror yurtimizda ilm- fan sohasi rivoji uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, ta‘limni yangi bosqich, yangi pog‘onaga ko‘taradi. Dunyo tanigan olimlarimiz matematika fani va uning shaxs kamoloti , jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida ajoyib fikrlarni bildirgan edilar.

S.V.Kovalevskiy: “Qalban shoir bo‘lmagan kishi hech qachon matematik bo‘lolmaydi”.

M.I.Lobachevskiy:”Hamma gapiradigan aniq til- matematikadir”.

R.Dekart:”Kim matematikani bilmasa, haqiqatni bilmaydi. Kim matematikani tushunmasa, zulmatda yashaydi”.


D. I. Mendeleev: “Geometrik bilimlar hamma aniq fanlarning asosini tashkil qiladi”.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o‘zaro ikki kishi faolligi, ya‘ni o‘quv – bilim jarayoni o‘zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o‘zaro faollik, harakat, ta‘sirchanlik, u o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlarida sodir bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir.

Ushbu maqolada umumta‘lim maktablarining Matematika kursidan ma‘lum bo‘lgan “Tub va murakkab sonlar “ mavzusini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar keltiriladi va uslubiy ko‘rsatmalar beriladi.

Asosiy qism. Maktab matematika kursidan bizga ma‘lumki , “Tub va murakkab sonlar mavzusi Sonlarning bo‘linish belgilari mavzusidan keyin kelib , o‘quvchi har bir son qaysi sonlarga bo‘linishini bilsagina yangi mavzuni o‘zlashtirishda va tushunishda qiynalmaydi. Buning uchun yangi mavzuga o‘tishdan oldin o‘tilgan darsni o‘quvchilar bilan takrorlab olgan ma‘qul. O‘tilgan mavzuni takrorlashda “Zinama-zina” metodidan foydalanamiz.

Bu metod va dars davomida olib boriladigan qiziqarli metodlar uchun sinf o‘quvchilari ikki guruhga ajratiladi: 1-guruh Al-Xorazmiy , 2-guruh Al-Beruniy . “ZINAMA-ZINA” metodi uchun uyga vazifaga berilgan va kitobdagi ba‘zi misollardan foydalaniladi. Har bir guruhga 3 tadan son beriladi, zinaning joylashgan o‘rniga qarab sonlarning qiymati oshib boradi.



1-guruh javoblari:

1) 1;2;4;8 ga bo'linadi 2) 1;2;3;4;6;12 ga bo'linadi 3) 1;3;9;27 ga bo'linadi (jami 3 ball)

2-guruh javoblari:

1) 1;3;9 ga bo'linadi 2) 1;2;3;4;6;8;12;24 ga bo'linadi 3) 1;2;4;7;8;14;28;56 ga bo'linadi (jami 3 ball)

Takrorlashga 5 daqiqa vaqt ajratiladi, zinama-zina metodini o'tkazib olgandan so'ng o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorligiga ishonch hosil qilgach, yangi mavzu bayoniga o'tish mumkin.

Yangi mavzu bayoni:

1 dan boshqahar bir natural sonning kamida ikki ta bo'luvchisi bo'ladi. 2,3,5,7,11,13,17-sonlarining har biri 2 ta bo'luvchilarga ega: 1 va shu sonning o'zi. Xuddi shuningdek 4,6,8,12,25,28 sonlarining har birining ikkitadan ko'p bo'luvchisi bor.

Agar natural son faqat ikkita bo'luvchiga (sonning o'zi va 1) ega bo'lsa u tub son deyiladi.

Shu ta'rifga asosan 2,3,5,7,11,13,17 sonlari tub bo'ladi.

Agar natural son ikkitadan ortiq bo'luvchiga ega bo'lsa, bunday son murakkab son deyiladi.

Shu ta'rifga asosan 4,6,8,12,25,28 sonlari murakkab bo'ladi.

1 – tub son ham murakkab son ham emas.

Birinchi va eng kichik tub son 2 bo'lib, u yagona juft tub son. Qolgan barcha tub sonlar toq sonlardir. Tub sonlar cheksiz ko'p.

Berilgan N sonini tub son ekanligini aniqlash uchun unisonigacha bo'lgan tub sonlarga bo'lib ko'rish yetarli.

Tub sonlar jadvalini tuzish usullaridan eng soddasi va shu bilan birga eng qadimiysi yunon matematigi Eratosfen taklif qilgan. Bunday usul bilan tuzilgan tub sonlar jadvali "Eratosfen g'alviri" nomi bilan ma'lumdir. Eratosfen tub sonlar jadvalini faqat 1000 gacha natural sonlar uchun keltirgan. Ushbu sonlarni 1-rasmda ko'rishingiz mumkin:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
41	42	43	44	45	46	47	48	49	50
51	52	53	54	55	56	57	58	59	60

1-rasm.1 dan 1000 gacha bo'lgan tub sonlar jadvali.

Yangi mavzu qisqacha bayoni berilgach, bu vaqt davomida zerikib qolgan o'quvchilarni (bilar asosan orqa partalarda o'tirganlar bo'ladi) darsga yana jalb qilish maqsadida "DIQQATNI JAMLA" o'yinini o'tkazamiz. Bunda doskada 5x5 jadvalda 25 ta son aralash holda yozilib joylashtiriladi. O'quvchilardan 3 yoki 4 o'quvchini navbat bilan chiqarib, 5

soniya doskadagi sonlarni va sonlarning o'rnini ko'rib olishi uchun vaqt beramiz va sonlar orasidan tub sonlarning joylashgan o'rnini ko'rsatishi kerakligini aytamiz, bunda o'qituvchi vaqtga qarab o'tirishi kerak bo'ladi va oxirida o'quvchiga necha soniya vaqt sarflaganini aytishi kerak bo'ladi.

3	59	217	5	31
16	57	7	78	657
98	53	27	486	101
11	118	79	49	14
44	41	444	21	233

O'quvchilar bilan qiziqarli metodni o'tqazib oldik, endi yangi mavzuni keyingi qismini davom ettirsak ham bo'ladi. Mavzumizni ikkinchi qismi "O'zaro tub sonlar juftligi".

Birdan boshqa umumiy bo'luvchisi bo'lmagan sonlar juftligi, o'zaro tub sonlar juftligi deyiladi.

Misol: O'zaro tub sonlar juftligini toping:

(44;121); (125;108); (18;25); (18;105).

Yechilishi: (44;121) → o'zaro tub emas, chunki bu sonlar 11ga 44ga va 121ga bo'linadi;

(125;108) → o'zaro tub ;

(18;25) → o'zaro tub;

(18;105) → o'zaro tub emas, chunki bu sonlar 3ga bo'linadi.

Ketma-ket kelgan ikki natural son o'zaro tub bo'ladi.

Agar p tub son bo'lsa, u bilan o'zaro tub bo'lgan sonlar p-1 ta bo'ladi.

Dars oxirida kelganda mavzuni og'zaki takrorlab olish uchun "HA-YO'Q" metodidan foydalanamiz. Bunda har bir guruhning dars davomida qatnashishga ulgurmagan o'quvchilariga ularning soniga qarab savollar beriladi, bunda baholash individual tarzda olib boriladi. O'quvchilarga tasdiq shaklidagi ma'lumotlar beriladi, agar bu ma'lumot to'g'ri bolsa o'quvchi ha deb, agar xato bo'lsa yo'q deb javob berishi kerak. O'quvchi xato yoki to'g'ri javoblariga ko'ra rangli kartochkalar orqali baholanadi. O'quvchilar yomon baho olgan taqdirlarida bahoni ko'tarish uchun qo'shimcha savol ham beriladi.

(Jami 7 ball)

1-guruh

<u>Sonlar</u>	2	18	27	53	364	48	101
Tub son	<u>Yo'q</u>	ha	ha	<u>Yo'q</u>	ha	ha	<u>Yo'q</u>

<u>Sonlar</u>	3	9	39	23	29	41	15
Tub son	ha	<u>Yo'q</u>	<u>Yo'q</u>	ha	ha	ha	<u>Yo'q</u>

(Jami 7ball)

2-guruh

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilariga matematika kursining "Tub va murakkab sonlar, O'zaro tub son" mavzusini o'qitish jarayonida maqolada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish orqali darsning otilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish, mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash qismlarini samarali tashkil etish mumkin. Umuman darsni yanada samarali, natijador va qiziqarli qilib tashkil qilishda ta'limning turli interfaol usullaridan foydalanish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirzaahmedov, M.A., Rahimqoriyev, A.A., Ismailov, Sh.N., & To'xtaxodjayeva, M.A. (2017). 6-sinf Matematika darsligi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
2. Usmanov, M. Matematika ma'lumotnoma, 1-qism.
3. Yo'ldoshev, X. (2002). Sonlar nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

## “TEXNOLOGIYA” DARSIDA O‘QUVCHILARNING RAQAMLI VOSITALAR ORQALI KOGNITIV VA O‘QUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Raxmatova Nazokat Ibrohimovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya. Mazkur maqolada “Texnologiya” fani doirasida katta yoshdagi maktab o‘quvchilarining raqamli vositalar yordamida kognitiv va o‘quv faoliyatini faollashtirish mexanizmlari yoritilgan. Unda raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanishning samaradorligi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishdagi roli ilmiy asosda tahlil etiladi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi, “Texnologiya” fani orqali kognitiv faoliyatni faollashtirishning didaktik shart-sharoitlari va metodik yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Tajriba-sinov ishlari asosida olingan natijalar esa o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda raqamli vositalarning muhim o‘rnini tasdiqlaydi.*

*Kalit so‘zlar: raqamli ta‘lim, texnologiya fani, kognitiv faoliyat, o‘quv jarayoni, raqamli vositalar, tanqidiy fikrlash, didaktik shart-sharoitlar, amaliy mashg‘ulotlar.*

Kirish. So‘nggi yillarda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xususan, ta‘limni raqamlashtirishga qaratilgan davlat siyosati, o‘quv jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish, o‘quvchilarda kognitiv, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilamoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ–4851-sonli qarori (“Raqamli ta‘lim texnologiyalarini joriy etish orqali ta‘lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”) va 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni (“2022–2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”)da raqamli ta‘lim vositalari va platformalarining joriy etilishi muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

Bu islohotlar “Texnologiya” fanining mazmun va metodikasiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mazkur fan nafaqat o‘quvchilarning texnik-amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning kognitiv (bilish) faoliyatini, analitik fikrlashini, muammoni hal qilishdagi mustaqil yondashuvlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli vositalar yordamida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarning faol ishtirokini, ijodiy yondashuvini va tanqidiy fikrlashini kuchaytirish imkonini beradi.

Xalqaro tajribalar ham bu yo‘nalishning dolzarbligini tasdiqlaydi. Jumladan, Finlyandiya, Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya ta‘lim tizimlarida “technology-enhanced learning” (TEL) konsepsiyasi asosida fanlararo integratsiya, muammoli vazifalar asosida ta‘lim va virtual muhitda o‘qitish metodi keng qo‘llanmoqda. “STEM” va “STEAM” yondashuvlari asosida o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va kognitiv salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha samarali natijalarga erishilmoqda.

Shu bois, ushbu maqolada “Texnologiya” darslarida raqamli vositalardan foydalanish orqali katta yoshdagi maktab o‘quvchilarining o‘quv va kognitiv faoliyatini faollashtirish mexanizmlari, metodik yondashuvlar hamda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar yoritiladi.

Ilmiy-nazariy asoslar va adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalarning integratsiyasi nafaqat o‘quvchilarning informatsion kompetensiyasini oshiradi, balki ularning kognitiv jarayonlarini – ya‘ni diqqat, xotira, tafakkur va muammo yechish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Respublikamiz olimlaridan R.A. Abdullayeva (2021) raqamli muhitda dars samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘z ishlarida raqamli vositalarning tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda

qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi. A.X. Yusupov (2020) texnologiya fanida raqamli simulyatsiya, 3D-model, virtual tajriba vositalari orqali o'quvchilarning amaliy bilimlarini mustahkamlash mexanizmlarini o'rgangan. B.S. Toshpo'latov (2022) maktab ta'limida raqamli interaktiv platformalardan foydalanish natijasida o'quvchilar faoliyatining faollashuvini eksperimental jihatdan tahlil qilgan.

Xorijiy olimlardan Jonassen D. (1999) "Constructivist Learning Environments" asarida raqamli texnologiyalar o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etish va u orqali kognitiv taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini izohlaydi. Mishra & Koehler (2006) TPACK modeli orqali pedagoglar uchun texnologiya, pedagogika va mazmun bilimlarining uyg'unligini, shu asosda o'quvchilarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatlarini yoritgan. OECD (2020) ta'lim tahlilotida raqamli savodxonlik va kognitiv ko'nikmalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligi isbotlangan, ayniqsa STEM fanlari doirasida raqamli vositalar yordamida o'rgatish metodikasi kuchli natijalar bergan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalarning "Texnologiya" faniga integratsiyasi faqat informatsion kompetensiyani emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammo yechish malakalari, diqqat va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar ushbu jarayonning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, zamonaviy dars modellari orqali kognitiv faollikni kuchaytirish muhimligini asoslab bermoqda.

Mulohozalar. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash — bu shunchaki kompyuter yoki planshetlardan foydalanish emas, balki o'quvchilarning tafakkur jarayonlarini faollashtiruvchi, ularni bilimni mustaqil o'zlashtirishga undovchi vositalar majmuasidir. Ayniqsa, "Texnologiya" fanida bu vositalar o'quvchilarning amaliy tajribasini kengaytirish, interaktiv tajriba qilish, loyiha asosida ishlash kabi faoliyatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, bu vositalar orqali o'quvchilarda quyidagi kognitiv faoliyat turlari kuchayadi:

Tahliliy fikrlash: loyihalash jarayonida bir nechta variantni solishtirish.

Tanqidiy fikrlash: mustaqil qarorlar qabul qilish.

Ijodiy yondashuv: grafik dizayn, 3D-modellashtirishda yangi g'oyalar ishlab chiqish.

Muammo yechish: muhandislik fikrlashiga asoslangan vazifalarni bajarish.

Ammo, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o'qituvchining o'zi raqamli vositalarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash va qo'llay olish kompetensiyasiga ega bo'lishi zarur.

"Texnologiya" fanida raqamli vositalar orqali o'quvchilarning kognitiv va o'quv faoliyatini faollashtirishda samarali hisoblanadi:

1. Loyihaviy yondashuv (Project-based learning)

Raqamli muhitda loyiha tayyorlash (masalan: Tinkercad orqali 3D-model yaratish).

O'quvchilar guruhlarda ishlash orqali hamkorlik, muammoli vaziyatni hal qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

2. Interaktiv platformalardan foydalanish

Quizizz, Kahoot, Google Classroom orqali bilimlarni mustahkamlash.

Onlayn testlar orqali tahlil qilish, darajali topshiriqlar berish.

3. Simulyatsiya va vizualizatsiya

PhET simulators, Algodoo, Scratch kabi dasturlar yordamida mexanik va texnik jarayonlarni modellashtirish.

Kognitiv jarayonlarni (diqqat, eslab qolish, tahlil) rag'batlantirish.

4. Flipped Classroom (Aylantirilgan sinf)

Darsga tayyorgarlik uyda video ko'rsatmalar bilan, sinfda esa amaliy mashg'ulotlar.

Mustaqil fikrlash va tayyorlov darajasini oshirishga xizmat qiladi.

5. Raqamli dizayn va prototiplash

Canva, Figma, Autodesk orqali chizmalar, dizaynlar yaratish.

O'quvchilarda ijodkorlik va funksional fikrlash rivojlanadi.

“Texnologiya” darsida raqamli vositalar asosida o‘quvchilarning kognitiv va o‘quv faoliyatini faollashtirish uchun qo‘llanishi mumkin bo‘lgan zamonaviy texnologiyalarni quyidagicha guruhlab tavsiya etaman:

1. O‘qitishni faollashtiruvchi raqamli texnologiyalar:

<b>Texnologiya nomi</b>	<b>Tavsifi</b>
<b>Flipped Classroom</b>	Darsga tayyorgarlik uyda videolar orqali, sinfda esa amaliy va interaktiv mashg‘ulotlar amalga oshiriladi.
<b>Blended Learning</b>	An’anaviy va onlayn o‘qitishning integratsiyalashgan shakli; kognitiv salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.
<b>Gamification</b>	O‘quv jarayonini o‘yin elementlari asosida tashkil etish (masalan: badge, leaderboard, missiyalar).

2. Interaktiv raqamli platformalar:

<b>Platforma</b>	<b>Maqsad / Foyda</b>
<b>Kahoot / Quizizz</b>	O‘quvchilarning bilim darajasini baholash, savol-javob orqali faol fikrlashni rag‘batlantirish.
<b>Google Classroom</b>	Taqdimot, topshiriq va baholashning yagona raqamli muhiti.
<b>Padlet / Mentimeter</b>	Interaktiv fikr almashish, taqdimotlar va guruh muhokamalarini vizuallashtirish.

3. Dizayn va modellashtirish texnologiyalari:

<b>Dastur / Ilova</b>	<b>Qo‘llanish sohasi</b>
<b>Tinkercad</b>	3D dizayn va prototiplash, muhandislik fikrlashini rivojlantirish.
<b>Figma / Canva</b>	Grafik dizayn, axborotni ko‘rgazmali tasvirlash orqali vizual tafakkurni rivojlantirish.
<b>Scratch / Code.org</b>	Algoritmik fikrlash va dasturlash asoslarini o‘rgatish.

4. Simulyatsiya va tajriba vositalari:

<b>Dastur nomi</b>	<b>Imkoniyatlari</b>
<b>PhET Simulations</b>	Fizik, texnologik va matematik jarayonlarni raqamli muhitda modellashtirish.
<b>Algodoo</b>	Texnologik jarayonlar uchun fizik simulyatsiyalar yaratish.
<b>AutoCAD / Fusion 360</b>	Texnik chizmalar va loyihalarni ishlab chiqish.

5. Raqamli o‘quv resurslari:

<b>Platforma / Manba</b>	<b>Foyda</b>
<b>Khan Academy</b>	Texnologiyaga oid vizual darslar, muammoli vazifalar va tahliliy savollar.
<b>Coursera / EdX</b>	“Technology Integration in Education” kurslari o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun.

Xulosa. “Texnologiya” fanini zamonaviy raqamli vositalar bilan boyitish, ta’limni

faollashtiruvchi texnologiyalarni qo'llash orqali katta yoshdagi maktab o'quvchilarining kognitiv va o'quv faoliyatini samarali rivojlantirish mumkinligi isbotlandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi, ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi hamda mustaqil o'rganish faoliyatini faollashtiradi.

Xususan, interaktiv platformalar, simulyatsiya dasturlari, 3D-modellashtirish vositalari va loyihaviy yondashuvlar "Texnologiya" fanining amaliy yo'nalishiga mos ravishda kognitiv salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilish esa o'qituvchining texnologik, metodik va innovatsion kompetensiyasiga bevosita bog'liq.

Maqolada ilgari surilgan metodik tavsiyalar va texnologik vositalar asosida o'qituvchilar o'z darslarini interaktiv, maqsadli va natijador tashkil etishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (APA uslubida)

1. Jonassen, D. H. (1999). *Designing Constructivist Learning Environments*. Educational Technology Publications.
2. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
3. OECD. (2020). *Teaching in the Digital Age: How Technology Can Support Learning*. Paris: OECD Publishing.
4. Abdullayeva, R. A. (2021). Raqamli ta'lim muhitida o'quv darslarini samarali tashkil etishning uslubiy asoslari. *O'zbekiston pedagogik axborotnomasi*, (2), 34–40.
5. Yusupov, A. X. (2020). Texnologiya fanida raqamli vositalardan foydalanish samaradorligi. *Innovatsion ta'lim*, (4), 22–27.
6. Toshpo'latov, B. S. (2022). O'quvchilarning raqamli savodxonligini shakllantirishda interaktiv platformalarning roli. *Ta'lim va innovatsiya jurnali*, 3(1), 45–51.
7. Singapur Ministry of Education. (2019). *Future-Ready Learners: Education Technology Masterplan 4*.
8. Finnish National Agency for Education. (2020). *Digitalisation in Finnish Schools: Towards 21st Century Skills*.

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

*Sapayeva Umida Rustamovna,*

*Ranch texnologiya universiteti, Pedagogika va aniq fanlar kafedrasi tyutori, Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning dolzarbligi, zamonaviy yondashuvlar asosida bu jarayonni samarali tashkil etish mexanizmlari yoritilgan. Unda liderlik kompetensiyalarining mazmuni, ularni rivojlantiruvchi shart-sharoitlar, pedagogik metod va vositalarning o‘rni, hamda ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalar tahlili asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyati, kasbiy yetuklik va liderlik fazilatlarini o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka e‘tibor qaratiladi. Tajriba-sinov ishlari asosida liderlik sifatlarini rivojlantirishning samarali texnologiyalari va metodikasi taklif etilgan.*

*Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, liderlik sifatleri, pedagogik ta’lim, liderlik kompetensiyasi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mexanizm, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, metodika.*

Kirish. Jahon ta’lim makonida kechayotgan islohotlar, raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va yetakchilik qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilmoqda. Xususan, ta’lim sohasida faoliyat olib boradigan kadrlar — bo‘lajak o‘qituvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirish masalasi global va milliy darajada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy maktab faoliyati samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining tashabbuskorligi, uyushmachilik qobiliyati, jamoani boshqara olishi, muammolarni yechishda yetakchilik qila olishiga bog‘liq.

YuNESKO, OECD, ERASMUS+ kabi xalqaro tashkilotlar ham ta’limda yetakchilik (educational leadership) qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Masalan, “Teacher Leadership for Learning” (OECD) dasturi o‘qituvchilarning shaxsiy va ijtimoiy salohiyatini faollashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PQ–5847-son “O‘qituvchi va murabbiylar mavqeiini oshirish to‘g‘risida”gi qarorida ham ta’lim sohasi xodimlarining yetakchilik qobiliyatlarini mustahkamlash muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarda liderlik sifatlarini shakllantirish – nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki kelgusida ular tarbiyalaydigan avlodda ham faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Nazariy ma’lumotlar va adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda ta’lim jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompetentlikka asoslangan yondashuv doirasida liderlik sifatleri o‘qituvchi shaxsiy-pedagogik portretining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Liderlik bu — insonni maqsadga yo‘naltirish, boshqalarga ilhom bag‘ishlash, jamoani birlashtirish, tashabbus ko‘rsatish va muammolarni yechishda yetakchilikni amalga oshirish qobiliyatidir (Bass & Avolio, 1994).

Pedagogik psixologiyada (V.A. Slastenin, N.V. Kuzmina, Yu.N. Kulyuyutkin) ta’lim yetakchisi sifatidagi o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida liderlikning quyidagi turlarini namoyon etadi. Tashkiliy liderlik – o‘quvchi va jamoani rejalashtirish, tashkil etish. Intellektual liderlik – bilimlar asosida qaror qabul qilish. Shaxsiy (xarizmatik) liderlik – shaxsiy namuna, ishonch va ta’sir. B. Gardner (1990) esa, ta’limdagi liderlikni o‘qituvchining boshqaruv qobiliyati bilan emas, balki talabalarga ta’sir ko‘rsata olish salohiyati bilan bog‘laydi. Shuningdek, J.M. Burns (1978) tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion liderlik nazariyasida oliy ta’limdagi liderlikning asosiy mazmuni

shaxslararo ishonch, ilhomlantiruvchi maqsadlar va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishdan iboratligi ta'kidlangan.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda pedagoglarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, U.A. Hoshimov va B.Yu. Qurbonov o'z tadqiqotlarida liderlikni pedagogik jarayonda ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik orqali shakllantirish usullarini yoritgan bo'lsa, M.U. Rahimov ta'limda interaktiv texnologiyalar orqali yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratgan.

Qozog'iston, Rossiya va Bolgariya olimlarining ishlarida (Yu.L. Xotines, I.S. Kon, G.N. Kudinova) oliy ta'limda yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish modellari ilmiy asoslangan.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tavsiyalarida (YuNESKO, UNICEF, ERASMUS+) ta'limda yetakchilikni rivojlantirish uchun quyidagi mexanizmlar taklif etilgan: shaxsiy va kasbiy rivojlanish portfoliosini yuritish; interaktiv treninglar va fasilitator mashg'ulotlar; loyiha asosida o'qitish (Project-based learning); ta'limda mentorlik va kouching amaliyotini joriy qilish.

Bo'lajak o'qituvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirish, nafaqat bilim berish, balki mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va ijtimoiy mas'uliyatga ega shaxsni voyaga yetkazishning muhim shartidir. Bu esa, pedagogik ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish, innovatsion texnologiya va ta'lim strategiyalarini joriy etishni taqozo etadi.

Mulohaza va metodik tavsiyalar. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirish jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun o'quv-tarbiya jarayonida innovatsion, shaxsga yo'naltirilgan va faol ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish zarur. Bugungi kunda liderlik fazilatlarini bilim yoki malaka bilan cheklanmay, balki o'qituvchining mustaqil qaror qabul qilish, jamoani boshqarish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish va konstruktiv muloqotga kirisha olish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, quyidagi metodik tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Liderlikni shakllantirishga qaratilgan modulli o'quv kurslarini joriy etish

“Pedagogik liderlik asoslari”, “Ijtimoiy yetakchilik va ta'lim” kabi fanlar modul tarzida bakalavriat ta'lim dasturlariga kiritilishi kerak.

Mazkur kurslar nazariy bilimlar bilan birga, amaliyotga yo'naltirilgan, simulyatsiya, keystahlil va jamoaviy loyihalarni o'z ichiga olishi lozim.

2. Ta'limda fasilitatorlik va mentorlik usullarini tatbiq etish

Talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida har bir guruhda mentor-o'qituvchi belgilanishi, rahbarlik qobiliyatini namoyon etish uchun talabalarning o'ziga mas'uliyat yuklatilishi lozim.

Mentorlik — liderlik salohiyatini anglash, muloqot qilish va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasidir.

3. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) texnologiyasini joriy etish

Bo'lajak o'qituvchilar jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va tashabbus ko'rsatish orqali liderlik fazilatlarini amalda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar.

Ijtimoiy loyihalar yaratish, pedagogik amaliyot davomida ularni hayotga tatbiq etish nazarda tutiladi.

4. Liderlik qobiliyatlarini baholash tizimini shakllantirish

Ta'lim jarayonida talabalarning tashabbuskorligi, mas'uliyatni olishi, jamoaviy faolligi kabi ko'rsatkichlar asosida maxsus yetakchilik indeksi tuzilishi mumkin.

Fikr almashish, bahs-munozaralarda qatnashish, yangi g'oyalar ilgari surish kabi faoliyatlar baholash mezonlari sifatida belgilanadi.

5. Ta'limda raqamli platformalar va simulyatsiya dasturlaridan foydalanish

Virtual simulyatsiya platformalari orqali ta'lim jarayonida yetakchilik holatlarini modellashtirish orqali qaror qabul qilish, jamoani boshqarish kabi ko'nikmalarni amalda sinab ko'rish mumkin.

Masalan: “Leader’s Lab”, “TeachLive” kabi xalqaro dasturlar shu maqsadda xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirish mexanizmi tuzilmasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

1. Maqsadli komponent

Bosh maqsad: yetakchilik salohiyatiga ega, tashabbuskor va jamoaviy faol o‘qituvchini tayyorlash.

Vazirlik va oliy ta’lim siyosati bilan uyg‘unlashtirilgan ta’lim dasturlari.

2. Mazmunli komponent

Pedagogik psixologiya va yetakchilik nazariyalariga asoslangan fanlar (masalan: «Pedagogik yetakchilik», «Psixologiyada yetakchilik nazariyalari»).

Liderlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv modullari:

Kommunikativlik

Emotsional intellekt

Tashabbuskorlik va qaror qabul qilish

Jamoa bilan ishlash

3. Tashkiliy-texnologik komponent

Interaktiv va ijodiy metodlar:

Fasilitatorlik mashg‘ulotlari

Rolli o‘yinlar (case studies)

Loyiha asosida o‘qitish (PBL)

Mentorlik va kouching

Ta’limni tashkil etish formalari:

Treninglar, seminarlar, master-klasslar

Ta’lim amaliyotida yetakchilik rolini baholash

4. Motivatsion-axloqiy komponent

Ta’lim ishtirokchilarida ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish

Ta’lim jarayonida shaxsiy namunani ko‘rsatish

Shaxsiy faollik va ishonch muhitini yaratish

5. Baholash va tahlil komponentlari

Liderlik ko‘nikmalarini baholash mezonlari:

Kommunikativ faollik

Ijtimoiy loyihalarda ishtirok

Muloqot va muzokara olib borish qobiliyati

Ta’lim muhitini boshqarish qobiliyati

Portfolio, refleksiya daftari va mulohazalar orqali o‘z-o‘zini baholash usullari

6. Samaraviy natijalar

Liderlik kompetensiyalariga ega bo‘lgan, tashabbuskor, jamoani boshqara oladigan, ta’sir o‘tkaza oladigan pedagog kadr shakllanadi.

Natijalar

Olib borilgan nazariy tahlil, metodik tavsiyalar va pedagogik mexanizmlar asosida quyidagi natijalarga erishish mumkinligi aniqlandi:

Liderlik sifatlarining aniq belgilangan tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi. Unga tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, kommunikativlik, qaror qabul qilish qobiliyati, jamoani boshqarish salohiyati va mas’uliyatlilik kabi asosiy ko‘nikmalar kiradi.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida liderlikni shakllantirishning amaliy mexanizmlari ishlab chiqildi. Ushbu mexanizmlar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faol o‘qitish metodlari, fasilitatorlik va kouching, hamda loyiha asosida o‘qitish texnologiyalari asosida qurildi.

Pedagogik amaliyotda yetakchilik qobiliyatini namoyon etish uchun sharoitlar yaratildi. Talabalarga jamoa rahbari, loyiha muallifi, yoki tajriba mashg‘ulotlari davomida yetakchi sifatida

ishtirok etish imkoniyatlari yaratilib, ularning shaxsiy salohiyati faollashtirildi.

Talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar (motivatsiya, muloqot madaniyati, ijtimoiy faollik) aniqlanib, ularni rivojlantiruvchi psixologo-pedagogik muhit shakllantirildi.

Liderlik qobiliyatlarini baholash mezonlari va diagnostika usullari ishlab chiqildi. Bunda portfolio, o'z-o'zini baholash, jamoaviy loyihalarda ishtirok darajasi, tajriba-sinov ishlari natijalari kabi omillar inobatga olindi.

Talabalarda shaxsiy namuna orqali ijobiy ta'sir o'tkazish qobiliyati shakllana boshladi. Bu ularning kelgusida mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorligini oshirdi va yetakchi sifatida rivojlanishga zamin yaratdi.

Xulosa. Zamonaviy pedagogik tahdidlar va imkoniyatlar sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirish – bu ta'lim tizimidagi strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida yetakchilik fazilatlarini shakllantirish uchun maqsadli, mazmunli, tashkilotchi va baholovchi komponentlardan iborat tizimli mexanizmlarni joriy etish zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, liderlik ko'nikmalari tabiiy ravishda shakllanmaydi, balki maxsus pedagogik ta'sir, to'g'ri metodik yondashuv va faol ta'lim muhitini talab etadi. Bunda shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, loyiha va muammoli o'qitish texnologiyalari, mentorlik va kouching kabi innovatsion uslublar katta samara beradi.

Shu bois, pedagogik ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish, talabalarni ijtimoiy faollikka yo'naltirish, jamoaviy faoliyatlarda yetakchilik rollarini bera olish, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish – yetakchilik salohiyatini shakllantirishda asosiy omillar hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirish — bu uzluksiz, tizimli, amaliyotga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyat bo'lib, u nafaqat kasbiy kompetensiyalar, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2019 yil 8 oktyabr). PQ–5847-son. O'qituvchi va murabbiylar mavqeini oshirish to'g'risida.

Bass, B. M., & Avolio, B. J. (1994). *Improving organizational effectiveness through transformational leadership*. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.

Burns, J. M. (1978). *Leadership*. New York: Harper & Row.

Gardner, H. (1990). *Multiple Intelligences: The Theory in Practice*. New York: Basic Books.

Slastyonin, V. A., & Kalashnikova, A. I. (2004). *Pedagogika: uchebnik dlya studentov pedagogicheskix vuzov*. Moskva: Akademiya.

Qurbonov, B. Yu. (2019). Pedagog kadrlarda ijtimoiy yetakchilik qobiliyatini shakllantirishda ta'limiy loyihalardan foydalanish. *O'qituvchi jurnali*, (4), 25–29.

Hoshimov, U.A. (2020). Ta'lim jarayonida shaxslararo yetakchilikni shakllantirish usullari. *Pedagogik mahorat*, (2), 17–22.

YuNESKO (2021). *Teacher leadership and innovation in education: Global policy framework*. Paris: UNESCO Publishing.

OECD (2019). *Teacher leadership for learning: Framework and toolkit*. OECD Education Working Papers, No. 205.

Xotines, Yu.L. (2015). *Liderstvo v obrazovanii: teoriya i praktika*. Sankt-Peterburg: Rech.

Kudinova, G.N. (2017). Formirovanie lidetskix kachestv u budущix pedagogov. *Vestnik pedagogicheskix nauk*, (3), 45–49.

Rahimov, M.U. (2021). Boshlang'ich ta'limda yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda interaktiv usullar. *O'zbekistonda pedagogik innovatsiyalar*, (1), 33–37.

## **BO‘LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O‘QITUVCHILARINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI**

*Sohibov Dilshod Beknazarovich  
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Kompetensiyaviy, innovatsion va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Tayyorlov jarayonidagi ayrim muammolar, jumladan, o‘quv dasturlari va metodik ta‘minotdagi kamchiliklar ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Informatika ta‘limini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

*Kalit so‘zlar: kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, informatika o‘qituvchisi, axborot texnologiyalari, zamonaviy yondashuvlar, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, raqamli savodxonlik.*

## **СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*Сохибов Дилшод Бекназарович  
Докторант (PhD) Бухарского государственного педагогического института*

*Аннотация: В статье теоретически проанализированы современные подходы к подготовке будущих учителей информатики и информационных технологий к профессионально-педагогической деятельности. Обоснована важность компетентностно-ориентированных, инновационных и личностно-ориентированных подходов. Некоторые проблемы в процессе подготовки, в том числе недостатки учебных программ и методического обеспечения, были рассмотрены на научной основе. Даны практические рекомендации по совершенствованию образования в области информатики.*

*Ключевые слова: профессионально-педагогическая подготовка, учитель информатики, информационные технологии, современные подходы, компетентностный подход, педагогические технологии, цифровая грамотность.*

## **MODERN APPROACHES AND PROBLEMS OF PREPARING FUTURE TEACHERS OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES FOR PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITIES**

*Sokhibov Dilshod Beknazarovich  
Bukhara State Pedagogical Institute Doctoral student (PhD)*

*Abstract: The article theoretically analyzes modern approaches to training future teachers of informatics and information technologies for professional and pedagogical activity. The importance of competency-based, innovative and person-oriented approaches is substantiated. Some problems in the training process, including shortcomings in curricula and methodological support, are considered on a scientific basis. Practical recommendations are given for improving informatics education.*

*Key words: professional and pedagogical training, computer science teacher, information technologies, modern approaches, competency-based approach, pedagogical technologies, digital literacy.*

Kirish. XXI asrda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, ayniqsa raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, pedagogik jarayonlarga yangicha yondashuvlarni shakllantirishni taqozo etmoqda. Jumladan, informatika va axborot texnologiyalari fanining ta'lim tizimidagi roli sezilarli darajada oshib borayotgan bir davrda, ushbu fan bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash masalasi dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy muammolardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi nafaqat o'quv predmetining mazmuniga chuqur ega bo'lishi, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga samarali integratsiya eta oladigan, kreativ va innovatsion fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega pedagog bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishda ilg'or xorijiy va milliy tajribalarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodlarni amaliyotga tatbiq etish zarurati tug'iladi.

Mavzuga doir manbalar tahlili. Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi masalasi hozirgi kunda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib, ushbu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xususan, yurtimiz olimlaridan M.H. Lutfillaev o'zining tadqiqotlarida (2004, 2006) axborot texnologiyalarini oliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish asosida ta'lim samaradorligini oshirish masalalarini chuqur o'rgangan. Tadqiqotchining yondashuvi informatika o'qituvchilarini tayyorlashda integrativ va tizimli yondashuvlarni asoslashga qaratilgan bo'lib, u kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Shuningdek, A.I. Bochkin, A.A. Malaeva, V.V. Malaev, M.P. Lapchik, I.G. Semakin, E.K. Khenner kabi rus olimlarining informatikani o'qitish metodikasiga oid ishlari bo'lajak o'qituvchilarning didaktik, metodik, psixologik tayyorgarligini shakllantirishda nazariy asos vazifasini o'taydi. Bu asarlarda metodik yondashuvlar, fanlararo integratsiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kabi tamoyillar asosida informatika o'qituvchilari uchun zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan.

Yuqoridagi tahliliy natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ilmiy yondashuvlar xilma-xil bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi zamonaviy pedagogik va texnologik talablarga javob beradigan, raqamli muhitda samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.

Nazaris asoslar. Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni pedagogik ta'limning ajralmas va strategik muhim tarkibiy qismidir. Ushbu jarayon nafaqat fan asoslarini o'rgatish, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan, didaktik va metodik ko'nikmalarga ega, innovatsion fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassislarni shakllantirishga qaratilgan.

Nazariy jihatdan bu tayyorgarlik bir necha asosiy yondashuvlar asosida tashkil etilishi lozim:

Kompetensiyaviy yondashuv – bu yondashuv bo'lajak informatika va axborot etxnologiyalari fani o'qituvchisining bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy qadriyatlar majmuasiga asoslanadi. Bu yondashuv asosida bo'lajak mutaxassisda axborot madaniyati, kommunikatsion savodxonlik, dasturlash, algoritmik tafakkur va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Informatika fanining tezkor rivojlanishini hisobga olgan holda, ta'lim beruvchidan moslashuvchanlik, uzluksiz o'zini rivojlantirishga tayyorlik talab etiladi.

Integrativ yondashuv – informatika va axborot texnologiyalari (AT) fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligini hisobga olib, o'quv dasturlarining fanlararo integratsiyasi orqali kompleks bilim berishni nazarda tutadi. Bu yondashuv informatika fanini tabiiy fanlar (matematika, fizika, texnologiya) bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilar tafakkurini tizimlashtirish va real muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – pedagogik jarayonning markazida ta'lim oluvchi turadi.

Bu yondashuv har bir ta'lim oluvchiga individual yondashishni, uning bilim olish sur'ati, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etishni taqozo etadi. Shu bilan birga, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarda ham ta'lim oluvchilar bilan shaxsiy muloqot yuritish, psixologik muhitni boshqarish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish malakalari shakllanadi.

Innovatsion yondashuv – bu yondashuv ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni, yangi pedagogik metodlar va vositalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirishni nazarda tutadi. Xususan, sun'iy intellekt vositalari, raqamli platformalar (Google Classroom, Moodle, MS Teams), masofaviy ta'lim tizimlari, virtual laboratoriyalar va o'yinlashtirish (gamification) elementlaridan foydalanish bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini zamonaviy muhitga moslashgan kadrlar sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu nazariy asoslar bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini chuqurlashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, bozor talablariga javob beraoladigan kompetentli mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar o'zaro uyg'unlikda qo'llanilgandagina pedagogik ta'limning zamonaviy talablariga mos yechim topilishi mumkin.

Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda bir qator omillar bu jarayonning samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha mavjud intilishlarga qaramay, mazkur yo'nalishda ayrim holatlarda izchil yondashuvlar yetarli emasligi kuzatilmoqda.

Avvalo, o'quv rejaları va dasturlarining mazmun jihatdan doimiy yangilanishi, ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojiga moslashtirib borish dolzarb vazifalardan biridir. Ba'zi ta'lim muassasalarida bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, o'quv dasturlarining amaliy komponenti ustuvor ahamiyat kasb etmayotgan hollari ham mavjud.

Shuningdek, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda texnik infratuzilmaning darajasi, zamonaviy raqamli vositalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatlari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qilishi tabiiy. Aksariyat hollarda mavjud resurslardan to'liq va samarali foydalanish bo'yicha metodik yondashuvlar yetarlicha shakllanmagan bo'lib, ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, algoritmik muammolarni tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar va amaliy mashg'ulotlar ko'lamini kengaytirish zarurati ham mavjud. Bunda o'quv-metodik ta'minotni boyitish, ayniqsa, interaktiv va vizual materiallar bilan to'ldirish muhim omillardan biri sanaladi.

Yana bir muhim jihat, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarida, informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi kasbining ijtimoiy va texnologik ahamiyatini anglash, o'z kasbiy o'zligini shakllantirish, bu yo'nalishga nisbatan ijobiy motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy yondashuvlarga ehtiyoj mavjudligidir.

Umuman olganda bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini yanada takomillashtirish uchun ta'lim mazmunini yangilash, texnik va metodik infratuzilmani boyitish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda kasbiy motivatsiyani mustahkamlovchi kompleks chora-tadbirlar zarur hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan nazariy-amaliy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, u pedagogik bilimlar, texnologik ko'nikmalar, kasbiy qadriyatlar va raqamli madaniyatning uyg'unlashgan shaklini talab etadi. Ushbu tayyorgarlikda zamonaviy yondashuvlarning (kompetensiyaviy, innovatsion, shaxsga yo'naltirilgan va integrativ) qo'llanishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq ushbu yondashuvlarni amaliyotga

to'liq va tizimli tatbiq etish jarayonida ayrim cheklovlar va mavjud imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayotgan holatlar aniqlanmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'quv rejaları va metodikalarning amaliy qismiga yetarli darajada e'tibor qaratilmasligi, AKT vositalaridan samarali foydalanish madaniyatining hamma joyda barqaror shakllanmaganligi, ta'lim oluvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar va metodikalar yetarli emasligi asosiy muammolar sirasiga kiradi. Shuningdek, malaka oshirish tizimi va metodik materiallarning sifati, talabalarning kasbga bo'lgan motivatsiyasi ham ushbu jarayonning samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardandir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashda faqatgina texnik bilimlarni emas, balki kasbiy, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar qo'llanilishi zarur. Buning uchun:

o'quv dasturlarini zamonaviy texnologiyalar asosida muntazam yangilab borish;

raqamli infratuzilmani takomillashtirish;

o'qituvchilar va talabalarning raqamli savodxonligini oshirish;

metodik ta'minotni boyitish;

hamda kasbiy motivatsiyani kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish lozim.

Aynan mana shu omillar mazkur yo'nalishda yetuk, zamonaviy texnologik talablarga javob bera oladigan informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Sh.U.Usmonqulov, "Integrativ yondashuv asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Chirchiq, 2023-yil, 52 b.
2. F.Sh. Shirinov, "Bo'lajak informatika o'qituvchilarining elektron metodik ta'minot yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasi ("Kompyuter grafikasi" fani misolida)". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023-yil, 52 b.
3. Lutfillaev M.H. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari iintegratsiyasi (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Dis. dokt. ped. nauk. -Toshkent: O'zDPITI, 2006. -212 b.
4. Shirinov F. Sh. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining elektron metodik ta'minot yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasi ("Kompyuter grafikasi" fani misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent, 2023-yil. 58 b.
5. Lutfillaev M.H. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari iintegratsiyasi (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Dis. dokt. ped. nauk. -Toshkent: O'zDPITI, 2006. -212 b.
6. A.R.Jo'rayev, "Pedagogik akmeologiya," Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini elektron ta'lim resurslardan foydalanib tashkil etish imkoniyatlari, pp. 240-246, 2022.
7. A.R.Jo'rayev, "Pedagogik mahorat", Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish, pp. 58-61, yanvar 2019.
8. Бочкин А.И. Методика преподавания информатики // Учеб. Пособие. – Мн.: Выш. Шк., 1998. – 431 с.
9. Малаева А.А., Малаев В.В. Практикум по методике преподавания информатики // Воронеж: ВГПУ, 2006. – 148 с.
10. Лапчик М.П., Семакин И.Г., Хеннер Е.К. // - М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 624 с.
11. D.B.Sohibov, "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal", Informatika va axborot texnologiyalari fanini axborotlashgan jamiyatdagi o'rni, 2024.
12. D.B. Sohibov, "Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedgogik faoliyatga tayyorlashdagi muammolar va yechimlar" Ilm sarchashmalari ilmiy-nazariy, metodik jurnal, ISSN 2010-6246, Urganch, 2024.12/1.
13. D.B. Sohibov, "American Journal Of Applied Science And Technology, (ISSN – 2771-2745)", The role of digital technologies in preparing students for pedagogical activity, pp. 22-27, 11 aprel 2024.

## **RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA PYTHON TILI OPERATORLARINING QO'LLANILISHINI O'RGANISHDA BLUM TAKSONOMIYASINING AHAMIYATI**

*Tursunov Mirolim Ahmadovich*

*Qarshi davlat texnika universiteti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent*

*Аннотация: Hozirgi kunda dasturlashga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Shuning uchun ushbu fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodlar, usul va vositalar foydalanishni talab etmoqda. Ushbu maqolada dasturlash fanini o'qitishda raqamli darsliklarni imkoniyatlari hamda python dasturlash tilida takrorlanish operatorlari mavzusini o'qitishda Blum taksonomiyasining qo'llanilishi tahlil qilindi.*

*Tayanch so'zlar: raqamli darslik, taksonomiya, bilish, tushunish, amaliyotga, qo'llash, tahlil, sintez, baholash*

## **ЗНАЧЕНИЕ ТАКСОНОМИИ БЛУМА В ИЗУЧЕНИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОПЕРАТОРОВ ЯЗЫКА PYTHON В СРЕДЕ ЦИФРОВОГО ОБУЧЕНИЯ**

*Турсунов Миролим Ахмадович*

*Каршинский государственный технический университет Доктор педагогических наук, доцент*

*Аннотация: В настоящее время спрос на программирование растет с каждым днем. Поэтому преподавание данного предмета требует использования современных педагогических технологий, методов, приемов и средств. В статье анализируется потенциал цифровых учебников в обучении программированию и использование таксономии Блума при преподавании темы операторов повторения в языке программирования Python.*

*Ключевые слова: цифровой учебник, таксономия, знание, понимание, практика, применение, анализ, синтез, оценка*

## **THE IMPORTANCE OF BLOOM'S TAXONOMY IN LEARNING THE USE OF PYTHON LANGUAGE OPERATORS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT**

*Tursunov Mirolim Ahmadovich*

*Karshi State Technical University Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical sciences, associate professor*

*Abstract: Currently, the demand for programming is growing every day. Therefore, teaching this subject requires the use of modern pedagogical technologies, methods, techniques and tools. The article analyzes the potential of digital textbooks in teaching programming and the use of Bloom's taxonomy in teaching the topic of repetition operators in the Python programming language.*

*Keywords: digital textbook, taxonomy, knowledge, understanding, practice, application, analysis, synthesis, evaluation*

*Kirish. Raqamli texnologiyalarning kundan kunga rivojlanib, ko'plab sohalarga keng qo'llanilishi natijasida, har bir shaxs hoyoti va faoliyatining deyarli barcha jabhalarida yangicha yondashuvlarni, qarashlarni shakllantirib, ish jarayonlari unumdorligi, samaradorligi va sifatini oshirishga olib kelmoqda. Shu jumladan ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilinishi va undan samarali foydalanish orqali ta'lim berish sifat va samaradorligini ta'minlash mazkur tizimda faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglardan ham raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetentligini shakllanganligini talab etadi. Hozirgi kunda pedagoglar tomonidan darslarni samarali tashkil etishga qaratilgan raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion bilimlarni*

egallash va ularni kasbiy faoliyatlarida foydalanishlari zamon talabiga aylanib bormoqda [1, 17].

Adabiyotlar tahlili. Yangi avlod raqamli darsliklarni yaratish muammolari ustida ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlarda olib borilgan jumladan: O'quv materiallarini loyihalash masalalari bo'yicha V.P. Bepalko, A.A. Verbitskogo, N.A. Galatenko, Y.I. Dika, V.K. Dyachenko, I.I. Ilyasova, I.Y. Lerner, Y.S. Tyunnikova, L.S. Xijnyakovoy kabi olimlarning ilmiy izlanishlari ko'rib chiqilgan. Zamonaviy raqamli darsliklarda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash g'oyalari psixologik ta'lim faoliyati nazariyasi asosida shakllangan bo'lib, bu yo'nalishdagi yetakchi olimlarning: L.S. Vigotskogo, P.YA Galperina, A.N. Leontyeva, N.A. Menchinskoy, S.L. Rubinshteyna, N.F. Talizinoy, D.B. Elkonina. kabi olimlarning ilmiy izlanishlari ko'rib chiqilgan.


Raqamli ta'lim muhitida turli xil metod va vositalardan foydalanish uning samaradorligini yanada oshiradi. Ushbu maqolada Blum taksonomiyasi qo'llanish usuli fikr va mulohazalar keltirilgan.

Asosiy qism. "Taksonomiya" - bu biror narsani ierarxik tartib (pastdan yuqoriga qarab) da joylashtirish prinsipi degan ma'noni bildiradi. Amerikalik psixolog Benjamin Blum boshchiligidagi Chikago universiteti olimlari ushbu oliy maqsadlar tizimini ishlab chiqishgan. Bu g'oya birinchi marta 1956-yilda "Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi" kitobida nashr etilgan.

Benjamin Blum ta'lim maqsadlarini kognitiv, affektiv va psixomotor deb nomlanuvchi uchta sohaga ajratdi. Kognitiv (bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq) soha bu bilim, tushunish va tanqidiy fikrlashga xizmat qiladi. Bilim sohasi ma'lumotlar bilan tanishish, ularni yodlashdan tortib, olingan ma'lumotlar yordamida muammolarni hal qilishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Affektiv soha his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, affektiv sohaning asosiy maqsadi atrofda dunyo hodisalariga hissiy munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Bunga odamning turli hayotiy vaziyatlarga, boshqa insonlarning qadriyatlarini, qiziqishlari va moyilliklariga qanday munosabatda bo'lishi kuzatiladi hamda munosabat bildiriladi. Psixomotor (qo'zg'aluvchi, yaratuvchi) soha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq va turli xil vositalardan foydalanish qobiliyatini maqsadlarga yo'naltirish bilan shug'ullanadi [4, 688].

Yuqorida keltirilgan sohalar orasida kognitiv sohaga ko'proq e'tibor qaratiladi. Chunki ketma-ket sodir bo'layotgan barcha jarayonlarning asosida mustahkam o'zlashtirilgan bilim yotadi. Benjamin Blum ierarxik tartibda joylashtirilgan oltita darajadagi o'quv maqsadlarini belgilagan. Bunda har bir daraja ma'lum fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Blum taksonomiyasi ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilashga yordam beradi. Maqsadlarga asoslanib, o'qituvchi talabalar uchun vazifalarni shakllantiradi va baholash vositalarini tanlaydi. Taksonomiya yordamida o'qituvchi ta'limni tashkil etadi va talabalar nafaqat yangi bilimlarni oladi, balki ularni tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rganadi.

Blumning maqsadlar tizimi oddiydan murakkabgacha quratilgan. Eslab qolish va tushunish fikrlash va rivojlanishning eng past darajasiga, qo'llash va baholash – o'rtacha, tahlil qilish va yaratish - fikrlashning yuqori darajasiga tegishli. Blumning fikriga ko'ra, o'qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri talabalar fikrlashning yuqori darajasiga erishishdir.



Blum taksonomiyasidan foydalanib “Dasturlash” fanidan “Python dasturlash tilida takrorlanish operatorlari” mavzusini o‘qitish texnologiyasi.

**Bilish (Knowledge).** Talabalar bu bosqichda auditoriya mashg‘ulotlari davomida o‘rgangan ma’lumotlarini raqamli (darslik) ta’lim muhitidan foydalangan holda eslaydilar va takrorlaydilar. Bu bosqida talabalar takrorlanuvchi algoritmlarni, ularning qo‘llanish sohalarini, hamda Paython dasturlash tilida for va while sikl operatorlari qanday ishlashi to‘g‘risida umumiy tassavurlarga ega bo‘ladilar.

Bu bosqichda talabalar mavzuga oid termin va ta’riflarni yodlash, sikl operatorlarning sintaksisni eslab qolish, mavzuga oid misollar dasturlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar (1-rasmga qarang).

Algoritmning qandaydir qismidagi buyruqlar ikki va undan ortiq bajarilishig a takrorlanuvchi jarayonlar deyiladi.


Vaqt: 60s | Xato: 0 | Tezlik: 0 | To'g'ri: 0 [Qaytadan](#)

1-rasm: <https://selfedu.uz> raqamli ta’lim muhitida termin va ta’riflarni takrorlash texnologiyasi.

Yuqorida keltirilgan pedagogik o'yin texnologiyasidan foydalanish natijasida talabalar kompyuterda tez va bexato yozishni o'rganish bilan bir qatorda mavzuda keltirilgan termin va ta'riflarni eslab qolish va yodlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bilish bosqichining talaba tomonidan qanday o'zlashtirilganligini ko'p variant ega bo'lgan javobli savollar yoki oddiy savollar orqali tekshirish mumkin

Tushunish (Understand). Talabalar takrorlanuvchi jarayonlarni va ularda ishlatiladigan for va while sikl operatorlarining qanday ishlashini tushunish, qadad hollarda qaysi sikl operatorlarning qo'llanilishini to'g'risida tushunchalarga ega bo'ladi (2-rasmga qarang).



2-rasm: <https://selfedu.uz>

berilgan ta'rifga mos javobni topish texnologiyasi.

Yuqorida keltirilgan pedagogik o'yin texnologiyasidan foydalanish natijasida talabalar Python tilda ishlatiladiga sikl operatorlarni bexato yozishni hamda ularning mohiyati tushunib qo'llash usullarini o'zlashtirib oladilar. Ushbu bosqichni o'zlashtirishning asosiy ko'rsatkichi taqdim etilayotgan masalalar yechimlarini o'z so'zlari, fikr va mulohazalari bilan taqdim etish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Tushunish bosqichini samarasini tekshirish uchun mavzuga oid oddiy misol (masala)larni qadam-baqadam tushuntirish, dastur kodining ishlash jarayonini izohlab berishi mumkin.

Amaliyotga qo'llash (Apply). Talabalar olgan bilimlarni amalda qo'llashi, shu kabi va boshqa turdagi vazifalarni hal qilish uchun bilimlardan foydalanishi lozim. Bunda oddiy sikl algoritmlarini tuzish, mavzuga oid masalalar shartiga qarab dastur kodini tuzish. Olgan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay olishi kerak.

Masalan quyidagi topshiriqlar orqali o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash mumkin: qo'yilgan masalalarni yechish, dastur kodini yozish, olingan natijalarni tahlil qilish. Misol

```
n = int(input(«n = «))
```

```
for i in range(n):
```

```
    print(f» {i} -qadam»)
```

Amaliyotga qo'llash bosqichini samarasini tekshirish uchun dastur kodini yozish, ekranga chiqishini hamda olingan natijalarni tahlil qilishi mumkin.

Tahlil (Analysis). Talaba o'rgangan bilimlariga asosan dastur kodining qanday ishlashini tahlil qilish, sikl operatorlarning samaradorligini taqqoslash, dasturdagi xatoliklarni topa olishi lozim.

Tahlil bosqichini samarasini tekshirish uchun dastur kodini qadamma-qadam tahlil qilish, sintaksis va algoritmik xatolarni topish va tuzatish, bir algoritmnning turli variantlarini solishtirish.

**Masalanig shartiga qarab ketma ketlikni to'g'ri toping**

Ikkita a va b butun sonlar berilgan ushbu sonlarning yig'indisini hisoblovchi dastur tuzing. Paython dasturlash tilidan foydalanib

**Tartibsiz joylashgan**

```

y = a + b
b = int(input("b = "))
a = int(input("a = "))
print(y)

```

**Tartib bilan joylashtiring**

```

b = int(input("b = "))
a = int(input("a = "))
y = a + b
print(y)

```

[Tekshirish](#)

1-rasm: <https://selfedu.uz>

raqamli ta'lim muhitida berilgan kodlarni tahlil qilish texnologiyasi.

Yuqorida keltirilgan oynada berilgan masalaning dastur kodi tartibsiz joylashgan bo'lib yuqorida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalriga asosan talabalar kodlar ketma ketligini tahlil qilib to'g'ri topishlari talab etiladi.

Sintez (Evaluate). Ushbu bosqichga yetib talaba o'z bilimini umumlashtira va birlashtira oladi. Taksonomiyaning oldingi bosqichlaridan to'liq foydalangan holda yangi, murakkab sikl algoritmi yaratish, masalaning qo'yilishiga qarab chiqib mos sikl operatorini tanlay oladi.

Sintez bosqichini samarasini tekshirish uchun bir nechta sikl operatorlarni birlashtirib dastur yozish, ichma-ich siklar ishtirok etadigan murakkab jarayonlarning masalalarning algoritmlarini yaratish

Baholash bu eng yuqori bosqichi bo'lib talaba mustaqil ravishda yoki o'qituvchining yordami bilan shakllantirilgan mezonlar yordamida yaratilgan algoritm samaradorligini baholash, xatoliklarni aniqlash va tuzatish, masalani yechishning optimal variantni tanlay olishi lozim.

Ushbu bosqich natijasida talabalar dastur kodning samaradorligi jihatidan tahlil qilish, berilgan masala uchun muqobil algoritm variantlarini taklif qilish, tanlangan eng yaxshi variantni asoslab berish.

Xulosa. "Dasturlash" fani o'qitishda raqamli ta'lim muhitlaridan foydalanish har bir mavzuning mohiyatidan kelib chiqib yondoshib, pedagogik texnologiyalardan hamda multmediya texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifati va samaradorligini oshirilishiga erishildi. Demak "Dasturlash" fan dasturlaridagi mavzularga alohida yondashgan holda raqamli ta'lim muhiti yaratilib talabalarning mustaqil ishlashlari qulay muhit yaratildi. <https://selfedu.uz> raqamli ta'lim muhitida

Blum taksonomiyasidan foydalanish ta'lim sifat va samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli darslik platformasi ta'limning uzviyligini ta'minlaydi, ayrim sabablarga ko'ra dars mashg'ulotlariga qatnasha olmagan talabalarga qoldirilgan darslarni mustaqil o'zlashtirish, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarning bilim olishga bo'lgan talablarni qondirish asosida biron kasbni egalashda foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov M.A. Uzluksiz ta'limda mustaqil ta'lining o'rni va ahamiyati ("Axborot texnologiyalari" fanidan elektron ta'lim resurslarini yaratish misolida). Zamonaviy ta'lim № 2(99)-2021. 16-23-b.

2. Tursunov M.A. The importance of using electronic resources in education *Academicia: an international multidisciplinary research journal* V. 11 2021-y. 642-646 p.

3. Abduqodirov A.A. va boshq. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya. - T.: O'zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi "FAN" nashriyoti, 2009. - 145 s

4. Iroda Ishonxanova "Blum taksonomiyasining O'zbek adabiyotini o'rganishdagi ahamiyati (Alisher Navoiy hayoti va ijodi misolida)" "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy oflayn-onlayn anjumani 688-695.

5. Shodiyev Rizamat Davronovich, and Ergashev Nuriddin Gayratovich. "Analysis of existing risks and methods of combating them in cloud technologies". American Journal of Pedagogical and Educational Research, vol. 18, Nov. 2023, pp. 190-8, <https://www.americanjournal.org/index.php/ajper/article/view/1522>

## O'QUVCHILARGA YO'L HARAKATI QOIDALARINI O'RGATISHDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV

*Ulug'bekov Bekzod Ulug'bekovich,*

*Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i  
podpolkovnik, Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarga yo'l harakati qoidalarini o'rgatishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq, faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliyotda foydalana oladigan tafakkur, mas'uliyat va madaniyatni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Maqolada o'quvchilarda hayot uchun muhim bo'lgan transport madaniyati, xavfsizlikni ta'minlash qobiliyati, moslashuvchan fikrlash va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning o'rnini asoslab beriladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv doirasida ta'lim jarayonini tashkil etish, multimedia vositalaridan foydalanish, modellashtirish va rolli o'yinlar kabi samarali uslublar tavsiya qilinadi.*

*Kalit so'zlar: yo'l harakati qoidalari, o'quvchilarda xavfsizlik madaniyati, kompetensiyaviy yondashuv, amaliy bilim va ko'nikmalar, faol fuqarolik, ta'lim texnologiyalari, o'rgatish strategiyalari*

Hozirgi zamon jamiyati rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri — bu hayotning barcha sohalarida chuqur va tezkor o'zgarishlarning yuz berayotganidir. Mazkur jarayon texnologik yutuqlar, transport vositalari sonining ko'payishi va infratuzilmadagi murakkabliklar bilan birgalikda inson xavfsizligi muammolarini yangi darajaga olib chiqmoqda. Ayniqsa, yo'l-transport vositalarini boshqarish va ular bilan bog'liq xavfsizlik choralarini nazorat qilishdagi inson omilining ahamiyati ortib bormoqda.

Yo'l-transport hodisalari nafaqat moddiy zarar keltiradi, balki ishtirokchilarning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, mehnatga layoqat yo'qotilishi kabi fojiali oqibatlariga olib keladi. Afsuski, statistika shuni ko'rsatadiki, yo'l-transport hodisalarining 80 foizdan ortig'i inson omiliga bog'liq holda yuzaga kelmoqda — bu esa yo'l harakati qoidalariga amal qilinmasligi, e'tiborsizlik va madaniyatsizlik bilan bevosita bog'liqdir.

Bolalar psixofiziologik rivojlanish jihatidan yo'ldagi xavflarga nisbatan zaif qatlam hisoblanadi. Shu sababli ularning yo'l harakati qoidalarini chuqur o'zlashtirishi, harakatlanish madaniyatini egallashi va xavfsizlikka mas'uliyatli munosabatni shakllantirishi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Shaxsni fuqarolik madaniyati ruhida tarbiyalash va uning xavfsiz muhitda harakatlana olish ko'nikmasini shakllantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur. Ushbu yondashuv nafaqat bilim berish, balki amaliy ko'nikma va hayotiy faoliyatda qo'llash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida:

- o'quvchilar real yo'l holatlarini simulyatsiya qilishadi;
- amaliy mashg'ulotlar orqali xavfsiz harakatlanish qoidalarini egallashadi;
- mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

Mazkur yondashuv O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga oid quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Bular, "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-348, 2013-yil 10-aprel) — fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini muhofaza qilish, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli Qarorida avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash, o'lim holatlarini keskin kamaytirish maqsadida huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktik choralar ko'rishni nazarda

tutadi. Unda inson omili markaziy masala sifatida belgilangan. Shuningdek, 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-sonli Qarorda yo'l harakati xavfsizligi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qarorda inson va korrupsiya omillarini istisno qiluvchi avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy etish ko'zda tutilgan. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 212-sonli Qarorda esa maktablarda yo'l harakati madaniyatini shakllantirish, bolalarda xavfsizlik ongini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati (YHXX) tomonidan yo'l harakati qoidalarini targ'ib qilish, avariya holatlarning oldini olish, bolalar va o'quvchilar o'rtasida ma'rifiy ishlarni kengaytirish doimiy ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

O'quvchilarga yo'l harakati qoidalarini o'rgatishda kompetensiyaviy yondashuv — ularning xavfsizligi, mas'uliyat hissi, ijtimoiy faolligi va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy va samarali mexanizm hisoblanadi. Bu nafaqat shaxs xavfsizligini ta'minlaydi, balki umumiy fuqarolik madaniyatini ham yuksaltiradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, insonning jamiyatga moslashuvi va undagi faol ishtiroki ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, bu ta'limni nafaqat bilish, balki shaxsiy va ijtimoiy jihatdan integratsiyalashgan natijalarga yo'naltirishni talab etadi. Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, "kompetensiya" tushunchasi shaxsning ijtimoiy va xulqiy faoliyatini ifodalovchi murakkab, ko'p komponentli hodisa sifatida qaraladi.

Pedagogik adabiyotlarda kompetensiya quyidagicha izohlanadi: bu — muayyan faoliyat sohasidagi kasbiy yoki ijtimoiy vazifalarni samarali hal etishga qaratilgan, bilim, ko'nikma, munosabat va tajribani o'z ichiga oluvchi sifatlar to'plamidir. Kompetensiya nafaqat nazariy tayyorgarlik, balki shaxsning motivatsiyasi, mustaqilligi, qat'iyligi, fikrlash moslashuvchanligi, stereotiplardan chiqib ketish qobiliyati kabi psixologik-irodaviy xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Shu ma'noda, kompetensiya ta'lim jarayonida muayyan sohada faoliyat ko'rsatish uchun tayyorlik darajasini ifodalovchi me'yor, kompetentlik esa bu tayyorlikning amalda namoyon bo'lishi sifatida talqin etiladi. Yo'l harakati qoidalarini o'rgatishda esa bu yondashuv o'z aksini fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish orqali topadi.

Fuqarolik kompetensiyasi – bu demokratik jamiyatda fuqaroning o'z huquq va erkinliklarini anglab yetgan, ularni amalda qo'llay oladigan, jamiyatdagi jarayonlarga ongli va mas'uliyatli tarzda aralasha oladigan tayyorgarligi va qobiliyatlar majmuasidir. Mazkur kompetensiyani shakllantirishda o'qituvchilarning pedagogik faoliyati yo'l harakati qoidalarini o'rgatish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bola dastlab piyoda, keyinchalik velosipedchi, transport yo'lovchisi sifatida yo'l harakati ishtirokchisiga aylanadi. Shuning uchun u real hayotiy vaziyatlarda xavfsiz qaror qabul qilish, mas'uliyatli xulq-atvor namoyon etish, o'zini va boshqalarni xavf ostiga qo'ymaslik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu kompetensiyalarni shakllantirish bosqichi esa boshlang'ich sinflardan boshlab amalga oshirilishi va o'rta maktabda yakunlanishi zarur.

Ta'lim jarayonida shakllangan bunday ijtimoiy va fuqarolik ko'nikmalar voyaga yetgan shaxsning kundalik hayotida namoyon bo'ladi. Maktab o'quvchisi o'zini qonunlarga bo'ysunuvchi, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega jamiyat a'zosi sifatida anglay boshlaydi. Bu esa uni ijobiy, qonuniy va mas'uliyatli xatti-harakatlarga ega bo'lgan ijtimoiy muhitning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Fuqarolik-huquqiy ta'lim tizimi doirasida yo'l harakati qoidalarini o'rgatish va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish ta'limning uchta asosiy modeli orqali amalga oshiriladi:

Qadriyatga yo'naltirilgan model – xavfsizlik, hayotga ehtiyotkorlik, qonuniylik kabi tushunchalarni anglatadi;

Axborot-o'quv modeli – nazariy bilimlar asosida harakat qilishga tayyorlaydi;

Instrumental model – amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu yondashuvlar uyg'unligida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarda hayotiy muammolarni tahlil qilish, ularni anglab yetish va to'g'ri qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantiradi, bu esa nafaqat yo'l harakati xavfsizligi, balki umumiy fuqarolik madaniyati rivojiga xizmat qiladi.

O'quvchilarning yo'l harakati qoidalarini amaliy qo'llash kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlari

O'quvchilarda yo'l harakati qoidalariga oid amaliy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ularning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu jarayon orqali o'quvchilar 1-sinf dan 11-sinf gacha bo'lgan davrda yo'l harakati ishtirokchisi sifatida xavfsiz xatti-harakatlarning uch darajasini egallashlari lozim:

Birinchi daraja (1–4-sinflar): O'quvchi xavfsizligini ta'minlash;

Ikkinchi daraja (5–9-sinflar): Shaxsiy xavfsizlikni anglash va unga amal qilish;

Uchinchi daraja (10–11-sinflar): Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga mas'uliyatli yondashuv.

Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali biz o'quvchining fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi sharoitlarni yaratamiz.

1. Bosqich – Boshlang'ich ta'lim (1–4-sinflar): Shaxsiy xavfsizlik asoslari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim jarayoni quyidagi ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratiladi:

Yo'l va transport muhitida axloqiy qadriyatlar hamda xavfsiz xulq-atvor normalarini bilish;

O'zini yo'l harakati ishtirokchisi, jamiyatning bir qismi va Vatanning fuqarosi sifatida anglash;

Xavfli holatlarni oldindan sezish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish;

Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish uchun bilimning zarurligini tushunish;

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, nizoli holatlarda muhokama va kelishuv asosida yechim topish qobiliyatini shakllantirish.

2. Bosqich – O'rta ta'lim (5–9-sinflar): Kengaytirilgan shaxsiy xavfsizlik

O'quvchilar o'rta ta'lim bosqichida quyidagi bilim, ko'nikma va munosabatlarni egallashlari zarur:

Kognitiv va amaliy muammolarni hal qilish, hayotiy tajribani qo'llay olish;

Yo'l harakati ishtirokchisi sifatida turli rollarda (piyoda, yo'lovchi, velosipedchi) xavfsiz xulq-atvorni namoyon qilish;

O'z-o'zini o'qitish, bilim sifati uchun mas'uliyatni his qilish;

Sabab–natija munosabatlarini tahlil qilish, murakkab yo'l vaziyatlarini baholay olish;

Hayot xavfsizligi sohasidagi qonunlar va fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish;

Axborotni izlash, baholash va undan foydalana olish;

O'z xatti-harakatini jamoat transportida boshqa ishtirokchilar bilan muvofiqlashtirish;

Velosipedni boshqarish bo'yicha texnik ko'nikmalarni egallash;

Bo'sh vaqtni oqilona rejalashtirish va faoliyat natijasi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;

Transport vositalarini boshqarishda uzluksiz o'rganishga tayyorlik, o'z-o'zini rivojlantirishga e'tibor.

3. Bosqich – Yuqori ta'lim (10–11-sinflar): Fuqarolik va ijtimoiy xavfsizlik

Ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar:

Yo'l harakati xavfsizligiga tanqidiy nuqtai nazardan yondashish;

O'tmish va bugungi kun o'rtasidagi bog'liqlikni anglash;

Fuqarolik burch va huquqlarni hurmat qilish, qonunlarga bo'ysunish;

Jamiyat va atrof-muhit bilan bog'liq xavfsizlik tamoyillarini baholay olish;

Ijtimoiy xavfsizlikka oid masalalarda fikr bildirish va munozaralarda qatnashish;

Murakkab va noaniq vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qilish.

Tashkiliy kompetensiyalar:

Sog'liq va tabiatga zarar yetkazmasdan faoliyat yuritish;

Jamiyat va davlat xavfsizligi uchun mas'uliyatni his qilish;  
Loyihaviy faoliyatda ishtirok etish.  
Shaxsiy moslashuv kompetensiyalari:  
Texnogen, tabiiy va ijtimoiy xavfli vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish;  
Fikr yuritish, asosli va tezkor qarorlar qabul qilish;  
O'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvchan bo'lish;  
Qiyinchiliklarga chidamli va qat'iyatli bo'lish;  
O'zini anglash va tarbiyalashga tayyorlik.  
Kommunikativ kompetensiyalar:  
Boshqa yo'l harakati ishtirokchilarining fikrini tinglash va inobatga olish;  
Qarorlar qabul qilishda ishtirok etish;  
O'z nuqtai nazarini bildirish va himoya qilish;  
O'z va boshqalarning huquqlarini himoya qilishga tayyorlik;  
Aloqalar o'rnatish, nizolarni hal etish va jamoada ishlash ko'nikmalari.

Yo'l harakati xavfsizligi kompetensiyalarini shakllantirishda murakkab vaziyatlar asosidagi yondashuv

O'quvchilarda yo'l harakati xavfsizligiga oid kompetensiyalarni shakllantirish — ularni real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga tayyorlashning eng muhim pedagogik shartlaridan biridir. Biroq, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilmasdan turib, bunday ko'nikmalarning samarali shakllanishi haqida gapirish mushkul. An'anaviy ta'lim tizimida yo'l harakati qoidalari parchalangan, izchilligi buzilgan holatda o'rgatiladi. Bu esa o'quvchilarda yo'l harakati ishtirokchisining xavfsiz xatti-harakatlariga oid yaxlit, kompleks tushunchalarning shakllanmasligiga olib keladi. Bu holat amaliyotda ham, statistik ma'lumotlarda ham o'z tasdig'ini topmoqda.

Mazkur muammoning yechimi sifatida yo'l harakati qoidalarini o'rgatish jarayonida mantiqiy va bosqichma-bosqich rivojlanuvchi murakkab vaziyatlar tizimi asosida yondashuv taklif qilinadi. Bu yondashuv o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, bilim, ko'nikma va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Quyidagi yetti mavzu yo'l harakati qoidalarini murakkab, ammo pedagogik jihatdan izchil ketma-ketlikda o'rgatishga xizmat qiluvchi asosiy vaziyatlar sifatida ajratilgan:

“Biz shahar bo'ylab yuramiz” – yo'l qismlari, belgilar, ko'zga ko'rinmaydigan xavf manbalari (“tuzoqlar”) haqida;

“Chorrahalarining turlari” – ularning tuzilishi va harakatlanish qoidalari;

“Biz jamoat va xususiy transportda sayohat qilamiz” – yo'lovchi sifatidagi xatti-harakatlar;

“Bizning do'stimiz – velosiped” – velosiped haydashda xavfsizlik qoidalari;

“Biz shahar tashqarisidamiz” – qishloq yo'llarida va ochiq hududlarda harakatlanish xususiyatlari;

“Men yo'l qonunlarini buzmayman” – qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlarini;

“Agar muammo yuzaga kelsa” – YTH ishtirokchilarining to'g'ri harakatlari bo'yicha yo'riqnomalar.

Bu murakkab vaziyatlar har bir o'quv yilida yangilanishi va boyitilishi mumkin bo'lib, ular orqali o'quvchining o'zlashtirgan bilim va kompetensiyalarini bosqichma-bosqich mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Ularning tizimli qo'llanilishi o'qituvchiga “nima o'rgatiladi” va “qanday o'rgatiladi” degan savollarga aniq javob beradi.

Bunday model shuningdek yo'l harakati xavfsizligi mavzularini boshqa ijtimoiy fanlar (masalan, “Tarbiya”, “Huquqshunoslik”, “Texnologiya”, “Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari”) bilan integratsiyalashgan holda o'rgatishga ham keng imkoniyat yaratadi.

Mazkur darslar mazmuni o'quvchilarning yil davomida nafaqat yo'llarda xatti-harakat kompetensiyalarini shakllantirishini, balki fuqarolik ongini va mas'uliyatini oshirishini ta'minlaydi. Darslarda qo'llaniladigan vaziyatli daqiqalar (scenariylar) orqali o'quvchilar yo'l

harakati madaniyati, huquqiy me'yorlar va fuqarolik burchi kabi asosiy tushunchalarni real muammolar misolida o'rganadilar.

Masalan, "Biz shahar bo'ylab sayr qilmoqdamiz" nomli murakkab vaziyat quyidagi savollar atrofida muhokama qilinadi:

Ko'chada nimalarni ko'ramiz?

Qaerda va qanday o'ynash mumkin?

Yo'lakda qanday yurish kerak?

"Yo'lakda qanday yurish kerak?" kabi tarkibiy mavzularni o'rganish orqali o'quvchilar quyidagi atamalar va tushunchalarni o'zlashtiradilar: "piyoda", "yo'l cheti", "yo'lak", "yo'l qismi", va hokazo. Bu atamalarni bosqichma-bosqich savollar orqali tahlil qilish, muammoli vaziyatni muloqot orqali hal qilish metodikasi yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini chuqurlashtiradilar. Masalan, "piyodaning o'ng tomonidan harakatlaning, yo'lakka chiqmang" kabi ko'rsatmalar real vaziyat asosida chuqur tushuntiriladi.

Bunday yondashuv o'quvchilarning faqat eslab qolish emas, balki real vaziyatda ongli harakat qilish kompetensiyasini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda yo'l harakati qoidalarini amalda qo'llash bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirish – bu nafaqat ta'lim jarayonining, balki jamiyat xavfsizligini ta'minlashning ham muhim qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, an'anaviy, parchalangan yondashuv o'rniga bosqichma-bosqich, mantqiy va vaziyatli o'qitish orqali o'quvchilarda shaxsiy, fuqarolik va ijtimoiy xavfsizlikka oid bilim, ko'nikma va munosabatlarni shakllantirish mumkin.

Yoshga mos 3 bosqichli model (1–4, 5–9, 10–11 sinflar) asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda transport muhitida mas'uliyatli, huquqiy ongli va xavfsiz harakatlana oladigan fuqaro sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi. Muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim mazmuni orqali bolalar real hayotga mos bilimlarni egallaydilar va ularni amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradilar.

Yo'l harakati mavzularini ijtimoiy fanlar bilan integratsiyalash, sinfdan tashqari tadbirlar, ota-onalar va jamoat bilan hamkorlikdagi ishlar orqali o'quvchilarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga keng imkoniyat yaratiladi.

Shu bois, yo'l harakati qoidalarini o'rgatishda kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan metodik tizimni joriy etish va pedagog kadrlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash — bugungi kun ta'limi oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni. // lex.uz — 2013 yil 10 aprel, O'RQ-348.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi PQ-190-son qarori "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". // lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 apreldagi 212-sonli qarori "Ta'lim muassasalarida yo'l harakati qoidalarini targ'ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". // lex.uz
4. Xalilova I.A., Minnixanova R.N., Smirnova A.T. i dr. Metodika formirovaniya bezopasnogo povedeniya na dorogax u shkolnikov. — Kazan: Izd-vo KFU, 2019.
5. Forstat M.L., Sosunova Ye.M. "Psixologo-pedagogicheskie aspekty formirovaniya grajdanskix kompetensiy uchashixsya v usloviyax realizatsii FGOS". — M.: Prosvechenie, 2018.
6. Alekseeva L.E. Kompetentnostnyy podxod v sisteme obshchego obrazovaniya. // Pedagogika, 2017. №4. — S. 18–22.
7. Qurbonov H., Yunusova S. Ta'limda shaxsning huquqiy ongini shakllantirishda fuqarolik ta'limining o'rni. // Pedagogika va psixologiya muammolari, 2022. №1.
8. Nazarova Sh. T. Bolalarda yo'l harakati madaniyatini shakllantirishda ota-onalar va maktab hamkorligi. // Ta'lim va innovatsiya jurnali, 2023. №2.
9. UNESCO (2015). Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: UNESCO Publishing.
10. OECD (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030 – Conceptual learning framework. Paris: OECD Publishing.

## TARIXIY-MADANIY MUZEYLAR VOSITASIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK MADANIYATINI QAROR TOPTIRISH

*Usanova Xurshida Ishdavlatovna,  
Navoiy shahar kasb-hunar maktabi o'qituvchisi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy-madaniy muzeylar vositasida talabalarda vatanparvarlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Unda muzeyga tashrif jarayoni orqali yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat, o'z yurtiga bo'lgan sadoqat va faxr tuyg'ularini uyg'otish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirishda muzey ekskursiyalarining interfaol metodlar asosidagi tashkil etilishi, ta'limiy vaziyatlar orqali emotsional-hissiy ta'sirni kuchaytirish usullari asoslab beriladi. Maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, xorijiy tajribalar va ilg'or pedagogik qarashlar asosida takomillashgan model taklif etiladi.*

*Kalit so'zlar: vatanparvarlik madaniyati, tarixiy-madaniy muzey, talaba, ta'limiy vaziyat, ekskursiya, tarbiyaviy jarayon, milliy qadriyat, pedagogik mexanizm, interfaol metod, tarixiy xotira.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur'atlarda rivojlanayotgan davrda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash ta'lim-tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarda tarixiy xotirani asrash, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni anglash va uni qadrlash hissini uyg'otishda tarixiy-madaniy muzeylar imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqyosida ko'plab mamlakatlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun muzeylar, tarixiy obidalar va madaniy markazlardan faol foydalanmoqda. Masalan, Germaniyada «Erinnerungskultur» (xotira madaniyati) dasturi asosida talabalar uchun maxsus muzey ekskursiyalari va tarixiy joylarga tashriflar tashkil qilinadi. AQShda esa «National History Day» loyihasi orqali yoshlar o'z yurtlari tarixini chuqur o'rganishga rag'batlantiriladi. Rossiyada esa «Moy Istoriya» interfaol muzeylar tarmog'i yoshlar orasida tarixiy ong va vatanparvarlikni shakllantirishning samarali vositasi sifatida faol qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda yoshlar tarbiyasiga, xususan, ularning vatanparvarlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2021-yil 13-avgustdagi «Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida»gi PQ-5221-sonli qarori asosida tarixiy-madaniy meros obyektlariga tashriflar tizimli yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, «Yangi O'zbekiston – yangi qarashlar» g'oyasi doirasida muzeylar faoliyatini zamonaviylashtirish, ularni ta'lim bilan integratsiyalash bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada tarixiy-madaniy muzeylar orqali talabalarda vatanparvarlik madaniyatini qaror toptirishning nazariy asoslari, xorijiy va milliy tajriba, pedagogik metodlar hamda takomillashgan mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda vatanparvarlik madaniyatini shakllantirishda tarixiy-madaniy muzeylarning o'rni pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va tarix fanlari nuqtai nazaridan chuqur tadqiq etilgan bo'lib, bu yo'nalishda qator nazariy qarashlar shakllangan. Mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi quyidagi ilmiy asoslarga tayanadi:

Pedagogik yondashuvlar. Vatanparvarlik tarbiyasi pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u yosh avlodda milliy qadriyatlar, fuqarolik ong va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga yo'naltiriladi. A. Avloniy, A. Qodiriy kabi jadid pedagoglar yoshlar tarbiyasida tarixiy ong, madaniy merosga hurmat asosiy mezon bo'lishi lozimligini ta'kidlagan. Zamonaviy pedagogika esa bu jarayonda interfaol metodlar, ta'limiy muhit va emotsional-ta'sirchan yondashuvlarni asos

qilib oladi (V.A. Slastenin, N.E. Shchurkova).

Tarixiy xotira va madaniy meros nazariyasi. Tarixiy xotira – bu jamiyatning o‘z o‘tmishiga bo‘lgan ongli munosabati bo‘lib, u madaniy identitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yu.N. Afanasyev, P. Nora, J. Assmanlarning izlanishlarida tarixiy joylar va muzeylar tarixiy ongni shakllantirishda “xotira makonlari” sifatida talqin qilinadi. Talabalarning tarixiy-madaniy meros bilan bevosita tanishuvi, ularni emotsional va kognitiv jihatdan tarbiyalash imkonini beradi.

Sotsiologik va axloqiy asoslar. Sotsiologik nazariyalarda vatanparvarlik ijtimoiylashuvning muhim omili sifatida ko‘riladi (E. Dyurkgeym, T. Parsons). Talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik burchini shakllantirishda tarixiy voqealarning axloqiy-ma’naviy talqini muhim ahamiyatga ega. Muzey ekskursiyalari orqali yoshlar ajdodlari jasorati, tarixiy kurashlar, qahramonlik namunalari bilan tanishib, ularda yurtga sadoqat hissi paydo bo‘ladi.

Psixologik asoslar. Psixologik nuqtai nazardan, vatanparvarlik tuyg‘usi yoshlarning emotsional-hissiy dunyosiga kuchli ta’sir ko‘rsatish orqali shakllanadi. L.S. Vygotskiy, D.B. Elkoninlar yoshlar shaxsiyatida ijtimoiy idealni shakllantirishda obrazli tasavvurlar va emotsional tajribaning o‘rnini asoslab bergan. Muzeyda ko‘rgazmalar, eksponatlar bilan bevosita tanishish psixologik identifikatsiya, ya’ni o‘zini milliy tarix bilan bog‘lash jarayonini faollashtiradi.

Xorijiy va milliy tajriba asoslari. Xorijiy davlatlarda muzeylar orqali vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga doir ko‘plab pedagogik konsepsiyalar mavjud. Xususan, Fransiyada «tarixiy ongni uyg‘otish» dasturlari, Yaponiya va Koreyada milliy qadriyatlarga asoslangan ekskursiyalar tizimi faol qo‘llaniladi. O‘zbekistonda esa “Yoshlar daftari”, “Vatanparvarlik oyligi” kabi loyihalar doirasida muzeylarga tashriflar vatanparvarlik tarbiyasining amaliy shakliga aylangan.

Tarixiy-madaniy muzeylar vositasida vatanparvarlik madaniyatini shakllantirish nazariy jihatdan ko‘p fanli yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun ilmiy asoslangan pedagogik, psixologik, sotsiologik va tarixiy konsepsiyalar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mulohaza. Tarixiy-madaniy muzeylarga tashriflar orqali talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini ta’minlash uchun bu jarayon faqat ekskursiya shaklida emas, balki didaktik asoslangan ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat sifatida tashkil etilishi lozim. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, agar muzey ekskursiyasi oldidan va so‘ngida mazmunli tayyorlov va tahlil ishlari olib borilsa, talabalarda ko‘proq ijobiy psixologik va tarbiyaviy o‘zgarishlar kuzatiladi.

Bundan tashqari, emotsional-hissiy, kognitiv va reflektiv faoliyatlarni uyg‘unlashtirish orqali talabalar muzeyda ko‘rganlari va eshitganlarini o‘z shaxsiy hayoti va fuqarolik pozitsiyasi bilan bog‘lay boshlaydi. Bu esa, vatanparvarlik madaniyatining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Bir qator metodik yondashuvlarni keltirib o‘tamiz.

Muзей ekskursiyalarini dars jarayoni bilan integratsiyalash zarur. Tegishli fanlar (tarix, ma’naviyat asoslari, madaniyatshunoslik) bilan bog‘langan holda rejalashtirilishi kerak. Talabalar uchun “Oldin–Muзейda–Keyin” tamoyiliga asoslangan metodik yondashuv taklif etiladi:

Oldin – tarixiy mavzuni o‘rganish, savollar tayyorlash;

Muзейda – ekskursiya davomida faol ishtirok, eksponatlar bo‘yicha bahslar;

Keyin – esse yozish, bahs-munozara o‘tkazish, kreativ loyiha tayyorlash.

Reflektiv savol-javob metodikasi. Ekskursiya so‘ngida “Nimani bildim?”, “Nima meni hayratlantirdi?”, “Qanday qadriyatlarni tushundim?” kabi savollar orqali talabalarni o‘z fikrini ifodalashga o‘rgatish.

Rol o‘ynash va drammatizatsiya usullari. Muзейda ko‘rilgan tarixiy shaxslar yoki voqealarga oid sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali vatanparvarlikni his etish va namoyon etish imkoniyati yaratiladi.

Tarixiy voqealarni vizual-tahliliy tahlil qilish. Eksponatlar asosida infografiklar tuzish, tushunchalar xaritasini yaratish orqali talabalarning analitik fikrlashi rivojlantiriladi.

Interfaol topshiriqlar. “Tarixiy eksponat haqida hikoya tuzish”, “O‘z sulolam qahramoni” kabi ijodiy topshiriqlar orqali talabalarning shaxsiy munosabati shakllantiriladi.

Shuningdek, samarali texnologiyalarni ham ajratib chiqishga harakat qildik.

<b>Texnologiya nomi</b>	<b>Qisqacha tavsifi</b>
<b>“Portfel loyihasi” texnologiyasi</b>	Talabalar muzeyda ko‘rgan eksponatlar asosida o‘z shaxsiy vatanparvarlik portfelini yaratadilar (rasmlar, hisobotlar, esse, intervyular).
<b>Kase texnologiyasi (CASE method)</b>	Tarixiy voqea yoki shaxsga oid muammoni muhokama qilish orqali vatanparvarlik va axloqiy qadriyatlarni tahlil qilish imkonini beradi.
<b>“Fishbone” (sabab-oqibat) texnologiyasi</b>	Biror tarixiy voqeaning vatanparvarlikka ta’sirini sabab-oqibat zanjiri orqali tahlil qilish.
<b>Multimedia texnologiyalari</b>	Virtual muzeylarga tashriflar, 3D eksponat tahlillari, video sharhlar orqali mushohada yuritish.
<b>STEM bilan integratsiyalash</b>	Tarixiy muhandislik yutuqlari, harbiy texnikalar yoki tarixiy arxitektura orqali texnik va ijtimoiy ongni uyg‘unlashtirish.

Talabalar bilan olib boriladigan muzey ekskursiyalari chuqur rejalashtirilgan, metodik jihatdan asoslangan va interfaol texnologiyalar bilan boyitilgan holda tashkil etilsa, ularning vatanparvarlik madaniyatini shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Tarixiy-madaniy muzeylarga tashriflar asosida talabalarda vatanparvarlik madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonida muhim pedagogik vazifa bo‘lib, u milliy qadriyatlar, tarixiy ong va fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun muzey ekskursiyalarini oldindan rejalashtirilgan, maqsadli, interfaol va reflektiv faoliyatlar bilan boyitilgan metodik tizim asosida olib borish zarur.

Xususan:

Talabalarda tarixiy xotira va milliy o‘zlikni shakllantirishda tarixiy eksponatlar bilan bevosita tanishish muhim rol o‘ynaydi;

Emotsional-ta’sirchan muhit, savol-javob va muhokama asosidagi metodlar orqali talabalar ongida milliy g‘urur, sadoqat va yurtparvarlik tuyg‘usi shakllanadi;

Tajriba-sinov ishlari orqali ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar amalda ijobiy natija berganligi isbotlandi.

Shunday qilib, tarixiy-madaniy muzeylar vatanparvarlik tarbiyasida kuchli pedagogik vosita sifatida talabalarning shaxsiy va fuqarolik kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuvni pedagogik faoliyatga keng joriy etish zamonaviy ta'lim tizimi oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1992.
2. Slastenin V.A. Pedagogika: o'quv qo'llanma. – Moskva: Akademiya, 2005.
3. Afanasyev Yu.N. Pamyat' i istoriya. – Moskva: Progress, 2000.
4. Assman J. Kul'turnaya pamyat': pis'mo, pamyat' o' proshlom i politicheskaya identichnost' v vysokikh kul'turakh drevnosti. – Moskva: Yazyki slavyanskoy kul'tury, 2004.
5. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 1983.
6. Elkonin D.B. Psixologiya razvitiya. – Moskva: Akademiya, 2001.
7. Nora P. Les lieux de mémoire. – Paris: Gallimard, 1984.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 avgustdagi “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish to'g'risida”gi PQ-5221-son qarori.
9. Murodov N. Muzeylar faoliyatida ta'limiy va tarbiyaviy jihatlar. – Toshkent: TDPU, 2020.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Yoshlar tarbiyasi bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2022.

## AKMEOLOGIYA ASOSIDA JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

*Utepberganov Amangeldi Kutlimuradovich,  
Nukus davlat universiteti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchisining professional kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda akmeologik yondashuvning nazariy-amaliy asoslari tahlil qilinadi. Akmeologiya fanining tamoyillari asosida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'sish jarayonini rag'batlantiruvchi omillar, ularning ta'lim jarayonidagi ifodasi hamda yuqori kasbiy yetuklikka erishish imkoniyatlari o'rganiladi. Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining faoliyatini tahlil qilish orqali akmeologik kompetensiyalar majmuasi taklif etiladi va ularni pedagogik tayyorgarlik tizimiga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi. Shu bilan birga, kasbiy o'sishda motivatsiya, refleksiya, o'zini boshqarish kabi komponentlarni rivojlantirishning metodik mexanizmlari yoritiladi.*

*Kalitso'zlar: akmeologiya, akmeologik yondashuv, jismoniy tarbiya, professional kompetensiya, kasbiy rivojlanish, o'qituvchi tayyorgarligi, shaxsiy o'sish, pedagogik innovatsiyalar*

Kirish: Jahon ta'lim makonlarida jismoniy tarbiya sohasi mutaxassislarini tayyorlashda akmeologik yondashuvga asoslangan bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturida "Personal and Professional Development in Physical Education" kabi yo'nalishlar orqali pedagoglarning shaxsiy rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan o'quv platformalari va treninglar tashkil etiladi. AQSh va Yaponiya OTMLarida ham jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun soft skills, yetakchilik va motivatsiya kabi ko'nikmalarni shakllantiruvchi kurslar ta'lim tizimiga integratsiya qilingan.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026 yillar) hamda "Ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda pedagoglarning kasbiy mahorati va shaxsiy yetukligini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan joriy etilgan "Ta'lim sifatini oshirish milliy dasturi" doirasida pedagoglarni akmeologik tamoyillar asosida tayyorlashga qaratilgan modullar ishlab chiqilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya o'qituvchisining roli nafaqat tana tarbiyasi va sport mashg'ulotlari bilan cheklanmaydi, balki u o'quvchining jismoniy rivojlanishi, irodaviy sifatleri, sog'lom turmush tarziga munosabatini shakllantirishda muhim shaxs sifatida maydonga chiqadi. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarishda o'qituvchidan yuqori darajadagi professional kompetensiyalar, faol fuqarolik pozitsiyasi, yetakchilik, kommunikativ madaniyat, hamda motivatsiyali pedagogik faoliyat talab etiladi. Ana shunday kasbiy yetuklikka erishishda akmeologiya fanining nazariy-metodologik asoslari muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili: Jahon ta'lim makonida akmeologiya fanining ta'lim sohasiga tatbiq etilishi va pedagogik kadrlarni tayyorlashda qo'llanilishi bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, A.A. Derkach (Rossiya) va N.V. Kuzmina o'z tadqiqotlarida akmeologiyaning pedagog shaxsning yetuklik bosqichiga chiqishiga yordam beradigan nazariy va amaliy asoslarini aniqlab berganlar. Ular ta'kidlaganidek, muvaffaqiyatli o'qituvchi shaxsining shakllanishida akme nuqtasiga intiluvchi xususiyatlar, ya'ni refleksiv tafakkur, yetakchilik, o'zini boshqarish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturida ham jismoniy tarbiya o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun soft skills, yetakchilik kompetensiyalari va faol muloqot kabi yo'nalishlar alohida modul sifatida kiritilgan. AQShdagi Pedagogik akmeologiya institutlari (masalan, NASE - National Association for Sport and Education) o'z tadqiqotlarida jismoniy tarbiya o'qituvchisining shaxsiy o'sish traektoriyasini baholash metodlarini ishlab chiqqan.

O‘zbekistonda esa akmeologik yondashuvni o‘qituvchi tayyorlash tizimiga to‘la integratsiya qilish bo‘yicha tadqiqotlar cheklangan holda olib borilmoqda. Mirzaeva N. va Yunusova S.A. kabi mahalliy tadqiqotchilar ta’limda akmeologik kompetensiyalar, shaxsiy o‘shish, pedagogik refleksiya mavzularida maqolalar chop etgan bo‘lsalar-da, ular jismoniy tarbiya sohasini qamrab olgan keng qamrovli tadqiqot emas.

Buning natijasida, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniq belgilab beruvchi akmeologik kompetensiyalar tizimi, baholash indikatorlari hamda ularni shakllantirish strategiyalari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli, ilmiy-tadqiqot bo‘shliqlarini to‘ldirishga, amaliyotda qo‘llaniladigan model va tavsiyalarni ishlab chiqishga harakat qilinmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining akmeologik rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan model va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Akmeologik rivojlanishning bosqichma-bosqich modeli: Model 4 ta bosqichdan iborat:

Diagnostik bosqich: o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy potensialini baholash (so‘rovnoma, test, portfolio);

Maqsad qo‘yish bosqichi: shaxsiy akme nuqtasiga erishish uchun individual rivojlanish rejasini tuzish;

Amaliyot va refleksiya bosqichi: ta’lim jarayonida ko‘nikmalarni shakllantirish, faol mulohaza va baholash;

Baholash va mustahkamlash bosqichi: salohiyatdagi o‘shishni baholash, natijalarni aniqlash va kelgusi faoliyatga moslashtirish.

2. Metodik tavsiyalar:

OTMLlarda «Jismoniy tarbiyada akmeologiya asoslari» fanini joriy etish;

Ta’lim jarayonida treninglar, mentorlik dasturlari va refleksiya kundaliklarini joriy qilish;

O‘qituvchilar uchun “soft skills + pedagogical leadership” orqali integratsiyalashgan kurslar tashkil etish;

Jismoniy tarbiya fakultetlari uchun akmeologik kompetensiyalarni baholovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish (masalan: yetakchilik darajasi, o‘zini baholash qobiliyati, psixologik barqarorlik va hokazo);

Ilmiy-amaliy seminarlar va tajriba almashinuv loyihalarini yo‘lga qo‘yish.

Bu model va tavsiyalar orqali jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanish traektoriyasiga mos ravishda tayyorlash imkoni yaratiladi. Bu esa umumiy ta’lim tizimida sifatni oshirishga xizmat qiladi.

1. “Shaxsiy rivojlanish rejasini”ni tuzish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining shaxsiy-kasbiy o‘shish maqsadlarini belgilash va unga yetish uchun reja tuzish. Bunda quyidagilar nazarga tutiladi:

Kirish: shaxsiy rivojlanish zarurati va mohiyati

1-bo‘lim: SWOT tahlil (o‘z kuchli va zaif tomonlarini baholash)

2-bo‘lim: SMART maqsadlar belgilash

3-bo‘lim: Qisqa va uzoq muddatli vazifalar

4-bo‘lim: Rivojlanishni baholash indikatorlari

2. “Jismoniy tarbiyada akmeologik yondashuv” mavzusida seminar-treninglar. O‘qituvchilarda akmeologik tafakkurni shakllantirish va shaxsiy o‘shishga motivlash.

Trening mazmuni:

Teoriya (akmeologiya nazariyasi, yetakchilik va motivatsiya)

Mozg shturmi: “Mukammal o‘qituvchi kim?”

Keys-tahlil: pedagogik muammoli vaziyat yechimi

Rolli o‘yin: “Talabani motivatsiyalash”

## Refleksiya sessiyasi

Ta'lim usullari: debat, vizualizatsiya, infografika, fokus-gruppa

3. Amaliy mashg'ulotlarda roli o'yinlar, keyslar, muammoli vaziyatlar. Yetakchilik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

Mavzular:

“Muammoli o'quvchi bilan ish”

“Jamo'a muvaffaqiyatini boshqarish”

“Sog'lom raqobat muhitini yaratish”

“O'quvchilarning shaxsiy motivatsiyasini topish”

Baholash: ishtirok darajasi, yechimning ijodiyligi, mulohazaning mantiqiyligi

4. Akmeologik kompetensiyalarni baholovchi test va savolnomalar majmuasi. Shaxsiy rivojlanish, refleksiya va yetakchilik darajasini aniqlash.

Mazmun tuzilishi:

Blok 1: Shaxsiy motivatsiya (Likert shkalasida)

Blok 2: Emotsional zo'riqish va stress darajasi

Blok 3: Yetakchilik qobiliyati (ssenariylarga javob berish)

Blok 4: Ta'limda innovatsion yondashuvlarga tayyorlik

5. Mentorlik faoliyatini baholash uchun mezonlar va shkala. Mentorning yosh mutaxassisni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash.

Baholash mezonlari:

Mentorlik sessiyalari soni va mazmuni

Yosh mutaxassisda kuzatilgan kompetensiya o'sishi

Fikr almashish va refleksiya darajasi

Ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash darajasi

Izoh. har bir mezon 1–5 ballik shkalada baholanadi, umumiy reyting chiqariladi.

Ushbu tadqiqot davomida jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun akmeologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik model va uslubiy qo'llanmalar amaliyotda sinab ko'rildi. Ular asosida talabalarning:

professional maqsadlarini aniq belgilash qobiliyati;

shaxsiy o'sish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari;

muloqot, yetakchilik, pedagogik tashabbuskorlik salohiyati sezilarli darajada oshdi. Treninglar va shaxsiy rivojlanish rejalari orqali shaxsga yo'naltirilgan tayyorgarlikning samaradorligi ko'rsatildi.

Umumiy xulosa: Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy rivojlanishini ta'minlashda akmeologiya fani asosida shakllangan yondashuv tizimli, individuallashtirilgan va refleksiv yechimlarni taklif etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsiy rivojlanish rejasi, mentorlik, keys-tahlillar, akmeologik testlar hamda metodik seminarlar orqali kasbiy o'sishni strategik boshqarish imkonini yaratish mumkin.

Umumta'lim muassasasining ta'lim muhiti o'quvchilarda subyektiv tajribani shakllantirish manbai bo'lib xizmat qilishi, shuningdek, ularning individual qobiliyatlaridan foydalanish, mustaqillikni namoyon etish, o'zini faol shaxs sifatida ko'rsatish imkoniyatini yaratishi, ijodiy salohiyatning rivojlanishiga xizmat qilishi zarur. Bunday yondashuv bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan, yangi tahrirda), "2030-yilgacha maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish strategiyasi", "Yangi O'zbekiston maktabi" konsepsiyasi, shuningdek, Davlat ta'lim standartlari va Prezidentning sohaga oid qator farmon va qarorlarida ushbu tamoyillar mustahkamlab qo'yilgan.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ o'zini rivojlantirish salohiyatini shakllantirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Zamonaviy maktab shaxsning ijodiy salohiyatini, uning subyektiv sifatlarini rivojlantirishni texnologik jihatdan yetarlicha qo'llab-quvvatlay olmayapti. Bu, avvalo, rivojlantiruvchi, muammoli ta'lim tamoyillarining yetarlicha qo'llanilmasligi, o'quvchining individualligini hisobga oluvchi faoliyatga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan va individual-differensial yondashuvlarning kamligi bilan izohlanadi. Ko'pincha, o'quvchilarning reproduktiv faoliyati ustunlik qiladi, ya'ni ular faqat o'quv dasturini bajara olishadi, lekin o'z ijodiy imkoniyatlarini ochib bera olishmaydi.

Boshlang'ich maktab bosqichida bu muammolarni hal qilish alohida e'tiborni talab qiladi. Boshlang'ich ta'lim kontsepsiyasida mashhur rus olimi V.V. Davydov tomonidan bu bosqich uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil va hal qiluvchi bo'g'ini sifatida asoslab berilgan. Uning fikricha, boshlang'ich maktab nafaqat ta'lim tizimidagi boshqa bo'g'inlar bilan uzviy bog'liq, balki bolaning shaxsiy rivojlanishi, dunyoqarashi va ijodiy salohiyatining shakllanishi uchun asosiy poydevordir.

Amerikalik psixolog Jozef Renzullining nazariyasiga ko'ra, ijodkorlik uchta komponent — yuqori intellektual salohiyat, divergent tafakkur (kreativlik) va maqsadga yo'naltirilgan motivatsiya — birligida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv asosida "ijodiy potentsial" tushunchasi shakllanadi. Bu esa shaxsning faoliyatga oid motivatsion-maqsadli yo'nalishi, kognitiv salohiyati, faoliyat uslublari, refleksiv baholash mexanizmlari kabi komponentlarning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi.

Ijodiy rivojlanish bo'yicha yetakchi tadqiqotchilar — A.M. Matyushkin, N.S. Leytes, V.N. Drujinin, G.M. Romantsev, E.V. Tkachenko, A.I. Savenkov kabi olimlar, shuningdek, o'zbek

tadqiqotchilari — A.A. Jo'raev, D.N. Qodirova, M.M. Rajabova, N.A. Norqulova, G'.N. Toshpo'latovalar boshlang'ich ta'lim bosqichini bolalarda ijodiy tajribaning shakllanishi va chuqurlashuvi uchun sezgir davr deb hisoblaydilar. Bu yosh davri L.S. Vygotskiy, P.Ya. Galperin, V.T. Kudryavtsev, D.B. Elkonin kabi psixologlarning tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. Bola tanasining biologik o'sishi bilan bir qatorda, uning psixik qiyofasi, emotsional tajribalari, kognitiv faoliyati, axloqiy qarashlari va ijtimoiy faolligi ham izchil rivojlanadi.

Transformativ ta'lim tamoyillari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ o'zini rivojlantirish salohiyatini shakllantirish — bu ta'lim mazmunini yangilash, individual yondashuvni kuchaytirish va ijodiy tafakkurni pedagogik faoliyat markaziga qo'yish orqali amalga oshiriladigan kompleks, zamonaviy va innovatsion yo'nalishdir.

Boshlang'ich maktab yoshi shaxs shakllanishining eng sezgir bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda ta'lim yo'nalishlarining psixologik, aqliy va axloqiy asoslari shakllanadi. Mazkur bosqichda bolada axloqiy qadriyatlar majmui, mustaqillik, ijodiy tafakkur, tasavvur va fantaziya, shuningdek, voqelikka nisbatan estetik va ijodiy munosabat kabi muhim shaxsiy sifatlar rivoj topa boshlaydi. Shu sababli, boshlang'ich maktab davri shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun eng maqbul va muhim imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020), "Ilg'or xalqaro tajribalarga asoslangan maktabgacha va maktab ta'limi tizimini takomillashtirish" konsepsiyasi (2022), "2030-yilgacha maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish strategiyasi", shuningdek, Davlat o'quv dasturlari va milliy kompetensiyalar modeli boshlang'ich ta'limning ijodiy, kognitiv, emotsional, va shaxsga yo'naltirilgan xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijtimoiy faoliyatga intilish kabi sifatlar ularda kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va o'z faoliyatiga tanqidiy baho berish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu yosh davr o'quvchining o'z "Men"ini anglay boshlashi, subyektiv tajribani ongli ravishda idrok etishi va jamiyatdagi o'rnini topishga intilishi bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va subyektiv qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutuvchi maxsus psixologik-pedagogik dastur ishlab chiqildi. Dastur tajriba-sinov tariqasida umumiy o'rta ta'lim muassasasida (Nijniy Tagil shahridagi 44-sonli maktab) 4-sinf o'quvchilari ishtirokida 24 soatlik modul asosida (haftasiga 2 marotaba) amalga oshirildi. Ushbu dastur o'qituvchi-psixolog tomonidan olib borilib, darslar quyidagi uch bosqichli tuzilishga ega bo'ldi:

#### 1. Kirish (tayyorgarlik) bosqichi:

Maqsad: Guruhda psixologik xavfsiz, samimiy va ijobiy muhit yaratish, bolalar o'rtasida do'stona va hamkorlikka asoslangan munosabatni shakllantirish.

Vositalar: Salomlashuv rituali, isinish mashqlari, aloqa o'rnatish uchun interaktiv o'yinlar.

#### 2. Asosiy bosqich:

Maqsad: O'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar va mashqlarni bajarish.

Yondashuv: Divergent fikrlashni rag'batlantiruvchi muammoli topshiriqlar, drammatizatsiya, rasm, hikoya tuzish, simvolik obrazlar orqali o'zini ifodalash.

#### 3. Yakuniy bosqich:

Maqsad: Darsdagi faoliyat bo'yicha mulohaza yuritish, muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni aniqlash, reflektiv savollar orqali o'z his-tuyg'ularini tushunish va ifoda etish.

Yondashuv: "Doira ichida suhbat", "Men nimalarni angladim?" kabi reflektiv texnikalar.

Dasturda quyidagi zamonaviy pedagogik tamoyillar asosiy metodologik negiz bo'lib xizmat qildi:

Muammoli yondashuv – bolani o'z qarorini mustaqil izlashga undash.

Dialogik yondashuv – subyektlararo muloqot va fikr almashish orqali o‘rganish.

Individuallashtirish tamoyili – har bir bolaning qiziqishi, emotsional holati va kognitiv rivojlanish darajasini inobatga olish.

Ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilar o‘z salohiyatlarini namoyon eta boshlashdi, o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy ong, refleksiya va fikr erkinligi rivojlandi. Sinfda xavfsiz va qiziqarli o‘quv muhiti yaratildi, bu esa dastur samaradorligining asosiy omillaridan biri bo‘ldi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy salohiyatini samarali rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan mazkur pedagogik-psixologik dastur ularning shaxsiy faolligini, subyektiv tajribasini, mustaqil fikrlash va ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Dastur quyidagi zamonaviy ijodiy metodlardan foydalanishni nazarda tutadi:

Aqliy hujum (brainstorming) — o‘quvchilarda erkin fikrlash va ijodiy izlanishni rag‘batlantiruvchi muammo yechimlarini ishlab chiqish usuli.

Fokal obyekt usuli — tasodifiy obyektlar orqali mavjud holatlarni transformatsiya qilish va yangicha yondashuvlar yaratish.

Ijodiy transformatsiyalar usuli — hodisalarni muqobil o‘zgarishlar orqali tasavvur qilish va modellashtirish.

Suhbat metodi — o‘quvchilarning shaxsiy fikrini bildirish, eshitish, savol-javob orqali tafakkurni kengaytirish.

Vizual va o‘yin faoliyati — tasvir, drama, rol o‘yinlari orqali hissiy va estetik tajribalarni shakllantirish.

Ertak terapiyasi elementlari — bolalarda tasavvur va simvolik tafakkurni rivojlantirish.

Muzeyga ekskursiya — estetik qabul, madaniy qadriyatlar va shaxsiy mulohaza jarayonlarini faollashtirish.

Individual ijodiy loyihalar — mustaqil rejalashtirish, amalga oshirish va taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dastur mazmuni va tuzilmasi. Dastur 24 soatdan iborat bo‘lib, haftasiga ikki marta mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Har bir mashg‘ulot quyidagi tuzilmaga ega:

Kirish bosqichi – emotsional tayyorgarlik va ijodiy guruh muhitini shakllantirish.

Asosiy bosqich – ijodiy mashqlar, suhbatlar, o‘yinlar va psixologik topshiriqlar asosida o‘quvchilarning salohiyatini ochish.

Yakuniy bosqich – refleksiya, mulohaza yuritish, shaxsiy his-tuyg‘ularni ifoda etish.

Dastur asosida foydalaniladigan tamoyillar:

Muammoli yondashuv – bolalarda mustaqil yechim topish malakasini shakllantirish.

Dialogik tamoyil – o‘zaro fikr almashinuvi orqali hamkorlikda rivojlanish.

Individuallashtirish – har bir bolaning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish.

Baholash va natijalarni aniqlash:

Dastur samaradorligi ikki bosqichli diagnostika (dastlabki va yakuniy), o‘quvchilarning ijodiy ishlari ko‘rgazmasi, shuningdek, reflektiv kuzatuvlar orqali umumlashtirildi. Baholash vositalari sifatida so‘rovnomalar, kuzatuv kartalari, ijodiy vazifalar va shaxsiy portfoliolar qo‘llanildi.

Kutilayotgan natijalar:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy salohiyat va shaxsiy faollikning yuksalishi.

O‘quvchilarning o‘zini faol subyekt sifatida anglash, o‘z imkoniyatlarini tahlil qila olish, kuchli va zaif tomonlarini tushunish ko‘nikmalarining shakllanishi.

Subyekt-subyektli munosabatlarga kirish qobiliyatining rivojlanishi va jamoa bilan ishlash madaniyatining ortishi.

Xulosa

Zamonaviy pedagogik muhitda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining shaxs sifatida shakllanishida uning kreativ o‘z-o‘zini rivojlantirish salohiyatini ro‘yobga chiqarish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur yosh davr bolada mustaqillik, ichki motivatsiya, o‘zini anglash, o‘z kuchi va salohiyatiga ishonch kabi shaxsiy sifatlar shakllanishi

uchun qulay psixologik va ijtimoiy poydevordir.

Ijodiy tafakkurni qo'zg'atuvchi, emotsional ifodani rag'batlantiruvchi, o'yin va ertak elementlariga boy mashg'ulotlar, shuningdek, muzeyga ekskursiya, individual ijodiy loyihalar orqali o'quvchi o'zining subyektiv tajribasini anglay boshlaydi. Bunday faoliyatlar orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga, o'z faoliyatini tahlil qilishga, ijtimoiy muloqotga kirishishga o'rganadilar. Bu esa kreativ o'z-o'zini rivojlantirish salohiyatining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, transformativ va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'limiy faoliyat:

o'quvchilarda kreativ fikrlashni faollashtiradi;

o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni uyg'otadi;

shaxsiy o'sish yo'lida mustaqil qaror qabul qilish, o'z resurslarini anglash va boshqarish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Mazkur yondashuvlar boshlang'ich ta'lim bosqichida kreativ o'z-o'zini rivojlantirish salohiyatini tizimli va maqsadli shakllantirishda samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – 2020 yil, 23 sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – PQ-5537-son, 2022 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston maktabi" konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. – PF-6108-son, 2020 yil.
4. Давлат таълим стандартлари (Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS). – Toshkent: Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.
5. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. — М.: Педагогика, 1996.
6. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. — М.: Просвещение, 1991.
7. Рензулли Дж. Трехкольцевая модель одаренности. // В кн.: Проблемы одаренности. — М.: 2005.
8. Elkonin D.V. Psikhologiya razvitiya shkolnika. — Moskva: Nauka, 1989.
9. Matyushkin A.M. Kreativnoye myshleniye i intellektualnoye razvitie. — M.: Akademiya, 2003.
10. Саъдиева Н.Р. Бошланғич синф ўқувчиларининг иждодий фаоллигини ривожлантириш методикаси. – Тошкент: ЎзРФА, 2020.
11. Қодирова Д.Н. Бола шахсини шакллантиришда иждодий фаолиятнинг аҳамияти. // Педагогик маҳорат журнали. – 2021. – №3. – Б. 17–21.
12. Rajabova M.M. Boshlang'ich ta'limda ijodiy tafakkurni rivojlantirish usullari. // O'zDJTU ilmiy axborotlari. – 2022. – №1. – B. 42–46.
13. Toshpo'latova G.N. Psixologik xizmatda ertak terapiyasi texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
14. Leites N.S. Psikhologiya tvorcheskikh sposobnostey. – M.: Znaniye, 1998.
15. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. – New York: Longman, 2001.

---

## TA'LIMDA BOSHQARUV STRATEGIYASI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ADABIY TALQIN

*Shoyimova Shoira Sanakulovna,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

---

*Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim tizimini samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari, badiiy asarlarda boshqaruv strategiyasining mohiyati, strategik rejalashtirish, kadrlar boshqaruvi, innovatsion yondashuvlar; monitoring tizimi hamda ta'lim sifatiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar kontekstida boshqaruv strategiyasining o'rni tahlil qilinadi.*

*Kalit so'zlar: boshqaruv, strategik fikrlash, yetakchilik, badiiy obraz, menejment, monitoring.*

## СТРАТЕГИЯ УПРАВЛЕНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ЛИТЕРАТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

*Шойимова Шоира Санакуловна,  
Доктор философии по педагогический наук (PhD). Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения*

---

*Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты эффективного управления системой образования, сущность стратегии управления в художественных произведениях, стратегическое планирование, управление персоналом, инновационные подходы, система мониторинга и ее влияние на качество образования. Также будет проанализирована роль стратегии управления в условиях реформ в современной системе образования Узбекистана.*

*Ключевые слова: менеджмент, стратегическое мышление, лидерство, художественный образ, менеджмент, мониторинг.*

## MANAGEMENT STRATEGY IN EDUCATION: MODERN APPROACHES AND LITERARY INTERPRETATION

*Shoyimova Shoira Sanakulovna,  
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD). Fergana Public Health Medical Institute Annotation*

---

*Annotation. This article will talk about the theoretical and practical aspects of effective management of the educational system, the essence of management strategy in works of art, strategic planning, Personnel Management, innovative approaches, monitoring system and its impact on the quality of Education. Also, the role of management strategy in the context of reforms in the educational system of modern Uzbekistan is analyzed.*

*Keywords: management, strategic thinking, leadership, artistic image, management, monitoring.*

**KIRISH.** Globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan hozirgi davrda har bir davlatning taraqqiyot darajasi, avvalo, uning ta'lim tizimiga bog'liq. Sifatli ta'limni yo'lga qo'yish esa, puxta o'ylangan boshqaruv strategiyasini talab qiladi. Boshqaruv strategiyasi ta'lim muassasalarining uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiluvchi, zamonaviy talablarga moslashtirilgan reja va harakatlar tizimidir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi, Milliy ta'lim dasturlari, raqamlashtirish jarayonlari — bularning barchasi samarali boshqaruv strategiyasini talab etadi.

**NATIJA.** Boshqaruv strategiyasi — bu o'zgaruvchan sharoitda ta'lim tizimini muvaffaqiyatli

rivojlantirishga xizmat qiladigan tizimli, uzluksiz va puxta rejalashtirilgan faoliyat yo‘nalishidir. U orqali ta‘lim muassasasi o‘z vizyoniga erishadi, ichki va tashqi resurslardan oqilona foydalanadi hamda o‘quv jarayonining sifatini izchil oshirib boradi. Boshqaruv strategiyasi — bu ta‘lim muassasasining rivojlanishini belgilovchi, resurslardan oqilona foydalanish, sifatli ta‘limni tashkil etish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan rejalashtirilgan faoliyatlar majmuasidir. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ta‘lim muassasasining vizyon (kelajakdagi maqsad) va missiyasini (asosiy vazifasini) belgilash;
- strategik maqsad va vazifalarni ishlab chiqish;
- resurslar (moliyaviy, insoniy, texnologik)ni boshqarish;
- o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish;
- innovatsion yondashuvlarni joriy qilish;
- tizimli monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Strategiya — bu bir martalik harakat emas, balki uzluksiz, barqaror va tizimli boshqaruv faoliyatidir. Ta‘limda boshqaruv strategiyasi deganda, maqsadli yo‘naltirilgan, uzluksiz rivojlanishga xizmat qiluvchi menejment yondashuvlari majmuasi tushuniladi. U quyidagi asosiy elementlarga tayangan holda shakllanadi.

Tizimli tahlil — muassasaning hozirgi holati, imkoniyatlari va muammolari aniqlanadi.

Strategik maqsadlar — uzoq muddatli va qisqa muddatli yutuqlar aniqlanadi.

Resurslar boshqaruvi — insoniy, moddiy va texnologik imkoniyatlardan optimal foydalaniladi.

Monitoring va adaptatsiya — strategiya natijalari muntazam baholanadi va kerakli o‘zgarishlar kiritiladi. Bu yondashuvlar ta‘lim tizimining har bir darajasiga tatbiq etilishi mumkin.

Zamonaviy boshqaruv strategiyasining asosiy yo‘nalishlari:

1. Raqamli transformatsiya va innovatsion boshqaruv. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta‘lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Raqamli boshqaruv strategiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- elektron hujjat almashinuvi;
- masofaviy ta‘lim tizimlarini boshqarish;
- o‘quvchilarning raqamli portfellarini yuritish;
- raqamli baholash tizimlari.

Bu strategiya ta‘lim jarayonining shaffofligi va aniqligini oshirib, muassasaning boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

2. Kadrlar menejmenti va yetakchilik siyosati. Kadrlar har qanday ta‘lim muassasasining asosiy boyligidir. Zamonaviy strategiyada quyidagi yondashuvlar ustuvor sanaladi:

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv;
- o‘qituvchilarning doimiy o‘qitilishi va rivojlanishi;
- psixologik farovonlikni ta‘minlash;
- yetakchi rahbarlar uchun transformatsion liderlik modeli.

Kuchli yetakchilik nafaqat tashkiliy barqarorlikni, balki jamoaning motivatsiyasi va ichki hamjihatligini ta‘minlaydi.

3. Strategik rejalashtirish va natijadorlik. Boshqaruvda natijalarga yo‘naltirilgan strategik rejalashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- vizyon va missiya asosida harakat qilish;
- o‘lchab bo‘ladigan indikatorlar bilan ishlash;
- xatarlarni oldindan baholash;
- strategik sherikliklar — xalqaro hamkorlik, grantlar, ijtimoiy loyihalar.

Bu yondashuv muassasaning aniq natijalar sari harakatlanishini ta‘minlaydi.

4. Monitoring, tahlil va strategik moslashuvchanlik. Har qanday strategiyaning muvaffaqiyati — uning bajarilishini baholash va kerakli o‘zgarishlarga tayyorlik bilan bog‘liq. Ta‘lim boshqaruvida monitoring tizimi quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

ichki tahlil (o'quvchilarning o'zlashtirishi, o'qituvchilarning faolligi, ichki audit);  
tashqi monitoring (nazorat inspeksiyalari, akkreditatsiya, reytinglar);  
ota-onalar, bitiruvchilar va jamoatchilik fikrini o'rganish.

Monitoring natijalari strategik rejalarni takomillashtirishga xizmat qiladi, bu esa dinamik o'zgaruvchan sharoitda moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Boshqaruv – bu resurslarni samarali tashkil etish, jamoani boshqarish va belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlovchi jarayondir. Boshqaruv jarayonida yetakchining shaxsiy xususiyatlari, tashkilot madaniyati, jamoa tarkibi hamda tashqi omillar boshqaruv uslubini belgilaydi. Har bir rahbar o'ziga xos boshqaruv uslubini shakllantiradi va bu tanlov tashkilot faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Boshqaruv uslubini — bu rahbarning qarorlar qabul qilishda, jamoa bilan o'zaro munosabat o'rnatishda va faoliyatni muvofiqlashtirishda qo'llaydigan usullar, vositalar va yondashuvlar majmuidir. Boshqaruv uslubini rahbarning psixologik portreti, tashkilot madaniyati va tashqi muhit bilan chambarchas bog'liq.

Boshqaruv uslublarining asosiy turlari:

**Avtoritar uslub.** Bu uslubda rahbar barcha qarorlarni mustaqil qabul qiladi, buyruq va nazorat asosida ish yuritadi. Intizomga katta e'tibor beriladi, tashabbus esa rag'batlantirilmaydi. Ushbu uslubning afzalliklari favqulodda holatlarda tezkor qarorlar va intizom hamda tartib saqlanishi e'tiborga molik. Kamchiliklari esa xodimlar noroziligi ortadi, insoniy omillar yetarlicha inobatga olinmaydi.

**Demokratik uslub.** Rahbar qarorlarni jamoa bilan maslahatlashgan holda qabul qiladi, ochiq muloqot va ishtirokni qo'llab-quvvatlaydi. Tashabbus va mas'uliyat xodimlar o'rtasida taqsimlanadi. Demokratik uslubning afzallik tomoni jamoada ijodkorlik va motivatsiyaning oshishi, jamoada sog'lom muhit shakllanishiga erishilishidir. Ba'zan vaqt yo'qotilishi mumkin, qarorlar kechiktirilishi ehtimoli borligi uning kamchiliklari hisoblanadi.

**Liberal (loyiha beruvchi) uslub.** Bu yondashuvda rahbar nazoratni minimallashtiradi, xodimlarga erkinlik beriladi. Xodimlar o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi. Shu sababli ijodkor xodimlar uchun ideal muhit hamda erkin fikrlash rivojlanadi. Liberal uslubda mas'uliyatsizlik va tartibsizlik xavfi, nazoratning sustligi natijasida samaradorlik pasayishi mumkin.

Boshqaruv uslubini — bu rahbarlik san'atining markaziy elementlaridan biridir. Har bir uslubning o'ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud. Eng muhim jihat – rahbarning muayyan holatga mos, moslashuvchan va strategik yondashuvni qo'llay bilishidir. Bugungi tez o'zgaruvchan muhitda samarali boshqaruv uslubini bu — turli uslublarni uyg'unlashtira oladigan, insoniy omillarni qadrlaydigan va natijaga yo'naltirilgan yondashuvdir.

Zamonaviy boshqaruv nazariyasi strategik fikrlash, uzoq muddatli rejalashtirish va yetakchilik sifatlarini asosiy elementlar sifatida ko'rsatadi. Boshqaruv strategiyasi odatda iqtisod, ta'lim va menejment sohalariga xos tushuncha sifatida qaraladi. Biroq, bu atama badiiy asarlarda ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Adabiy qahramonlarning qaror qabul qilishi, muammolarga strategik yondashuvi, resurslardan foydalanishi va jamoani boshqarishi orqali boshqaruvning badiiy modellarini kuzatish mumkin. Bu maqolada turli badiiy asarlar orqali boshqaruv strategiyasining qanday ifoda topgani tahlil qilinadi.

Boshqaruv strategiyasi badiiy kontekstda. Badiiy adabiyot — bu inson tabiatining, ijtimoiy munosabatlarning chuqur tahlilidir. Unda bosh qahramonlar ko'pincha murakkab sharoitda to'g'ri qaror qabul qilishga, vaziyatni tahlil qilishga va atrofida qilarni boshqarishga majbur bo'ladilar. Bu jihatlar menejmentda ko'p uchraydigan strategik qaror qabul qilish jarayonlariga o'xshash hisoblanadi. Boshqaruv strategiyasining badiiy talqini quyidagilarda aks etadi:

resurslarni taqsimlash va oqilona ishlatish;  
ijodiy yondashuv va kelajakni ko'ra olish;  
jamoalar yoki jamiyat ichidagi ijtimoiy liderlik  
qarama-qarshi manfaatlarini muvozanatlash

Boshqaruv strategiyasi badiiy asarlarda ko'pincha qahramonlarning harakatlari, qabul qilgan

qarorlari va ularning oqibatlarini orqali aks etadi. Badiiy asarlar orqali boshqaruv strategiyalarini o'rganish, ularning insoniy jihatlari, axloqiy dilemmalari va amaliyotdagi natijalari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi. Maqolada badiiy asarlarda aks etgan boshqaruv strategiyalariga misollar keltirilgan. A.Navoiy, A.Qodiriy, M.Osim, Ch.Aytmatov, L.Tolstoy asarlari qahramonlari orqali boshqaruvning o'ziga xos yondashuvlarini keltirib o'tilgan.

Navoiy asarlarida davlat boshqaruvi, adolatli rahbarlik va uzoqni ko'zlaydigan strategik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Masalan, "Hayrat ul-abror" asarida keltirilgan hikoyatlardagi shoh obrazlari orqali adolatli boshqaruvning naqadar muhimligi, dono rahbarning o'z xalqiga qanday strategiyalar bilan xizmat qilishi ko'rsatiladi. Bu orqali boshqaruv faqatgina kuch emas, balki aql, sabr va mas'uliyat bilan amalga oshirilishi kerakligi ta'kidlanadi. Quyidagi misol orqali Navoiy ta'riflagan boshqaruv strategiyasini ko'rish mumkin: "Shoh adl ila mulkni mustahkam qilur, zulm ila esa uni yemirur". Navoiy bunday shoh obrazini ideal tarzda tasvirlaydi, chunki u boshqaruvni kuch bilan emas, balki aql, odil hukm va rahm-shafqat bilan olib boradi. Bu esa bugungi zamonaviy boshqaruv strategiyalaridagi «inson markaziyli», «axloqiy yetakchilik» va «xizmatkor liderlik» g'oyalari bilan hamohangdir.

L.Tolstoyning "Urush va tinchlik" roman epopeyasida boshqaruv strategiyasi nafaqat harbiy maydonlarda, balki ijtimoiy va oilaviy munosabatlarda ham aks etadi. Asarda Napoleon va Kutuzovning harbiy strategiyalari orqali turli boshqaruv uslublari taqqoslanadi. Napoleon avtoritar uslubda, Kutuzov esa xalqning ruhini hisobga olgan holda, vaziyatga moslashuvchan boshqaruvni amalga oshiradi. General Kutuzov obrazida sabr-toqat, uzoqni ko'ra olish, noan'anaviy qarorlar qabul qilish orqali strategik boshqaruvning klassik namunasi yaratilgan. Kutuzovning "vaziyatga moslashuvchan boshqaruv" strategiyasi, xalqning birdamligi va g'alabaga erishishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanida Edegey obrazi orqali ko'plab ijtimoiy, axloqiy va boshqaruvga oid fikrlar ifodalanadi. Edegey oddiy temiryo'lchi bo'lishiga qaramay, uning shaxsiy fazilatlarini, qaror qabul qilishdagi yondashuvi va o'z majburiyatiga sadoqati orqali u boshqaruv strategiyasining muhim elementlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu jarayonda u atrofdagilarni boshqarish, qadriyatlarini saqlab qolish va zamonaviy muammolarga moslashish uchun ichki strategiyalar ishlab chiqadi. Bu boshqaruvning madaniy-ruhiy jihatlari ochib beradi. Edegey obrazi orqali Aytmatov shuni ko'rsatadiki, haqiqiy boshqaruv strategiyasi unvon yoki mansabga emas, balki insoniy qadriyatlar, sadoqat va vijdoniy yondashuvga tayanadi. Bunday boshqaruv strategiyasi uzoq muddatli ishonch va ijtimoiy barqarorlikning negizidir.

"O'tgan kunlar" asarida Otabek obrazi orqali zamonaviy boshqaruv yondashuvlariga mos keladigan fazilatlar mujassam. U o'z savdo-sotiq faoliyatida ham, oilaviy munosabatlarda ham uzoqni o'ylab harakat qiladi, kelajakni rejalashtiradi. Bu esa o'ziga xos boshqaruv strategiyasi hisoblanadi.

Asar nomi	Qahramon	Strategik yondashuvi
“Hayrat ul-abror” dostoni (A.Navoiy)	Shoh obrazlari	Adolatli va aql bilan yuritilgan davlat boshqaruvi
“O‘tkan kunlar” romani (A.Qodiriy)	Otabek	Savdo-siyosat muvozanati, uzoqni ko‘ra bilish
“Amir Temur” romani (Mirkarim Osim)	Amir Temur	Markazlashgan davlat yaratish, qonun-qoidalarga qat‘iy rioya qilish, ilmni rivojlantirish va savdo-sotiqni qo‘llab-quvvatlash kabi strategiyalari
“Asrga tatigulik kun” romani (Ch.Aytmatov)	Edigey	Qadriyatlar asosida qarorlar qabul qilish
“Urush va tinchlik” roman (L.Tolstoy)	Kutuzov	Harbiy strategiya, kutish va zarba berish tajribasi

Bu obrazlar orqali boshqaruvning turli sohalari — siyosat, iqtisod, qadriyat, harbiy ishlar va madaniyatdagi strategik fikrlash ko‘rinadi. Adabiyotda boshqaruv strategiyasi tahlilining ilmiy qiymati muhim hisoblanadi. Adabiy qahramonlar orqali boshqaruv strategiyasini o‘rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki menejment va psixologiya uchun ham dolzarb. Bu yondashuv quyidagilarga xizmat qiladi:

- strategik fikrlashni estetik va ma’naviy kontekstda o‘rganish;
- tarixiy va madaniy yondashuvlar orqali liderlikning xilma-xilligini anglash;
- boshqaruv xatolari va muvaffaqiyatlarining badiiy talqinini o‘rganish.

Boshqaruv strategiyasi nafaqat korxonalar yoki ta’lim muassasasiga tegishli tushuncha, balki badiiy asarlarda ham o‘z aksini topgan ijtimoiy-falsafiy hodisadir. Adabiyot inson ruhiyatini, jamiyat taraqqiyotini va boshqaruv madaniyatini chuqur ochib bera olgan yagona maydondir. Shunday ekan, strategik fikrlashni rivojlantirish uchun badiiy asarlar tahlilini boshqaruv fanlari bilan bog‘lab o‘rganish katta ahamiyatga ega. Bu esa zamonaviy rahbarlar uchun muhim saboqlar bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston ta’lim tizimi misolida boshqaruv strategiyasi tajribalari.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida so‘nggi yillarda olib borilayotgan tub islohotlar boshqaruv strategiyalarining zamonaviy modelini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Jumladan:

- “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim sifatini oshirishga doir maqsadlar;
- Milliy o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish;
- “Raqqamli ta’lim” tashabbusi asosida maktab va oliy ta’lim muassasalarining raqqamlashtirilishi;
- O‘qituvchilarni attestatsiyalash va reyting asosida baholash tizimining joriy etilishi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida boshqaruv strategiyasiga oid tajribalar so‘nggi yillarda sezilarli darajada yangilanib, zamonaviy boshqaruv yondashuvlariga asoslanmoqda. Xususan, davlat siyosatida ta’lim sifatini oshirish, raqqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion va inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishga qaratilgan strategiyalar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim bosqichlarida samarali boshqaruv tizimini joriy etish

orqali ta'limda natijadorlik va samaradorlik ko'rsatkichlari ortib bormoqda. Xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga qadriyatlar asosida moslashtirish, ta'lim muassasalarining avtonomiyasini oshirish hamda yetakchi kadrlar tayyorlash boshqaruv strategiyasining ustuvor yo'nalishlari sifatida qaralmoqda. Bu tajribalar O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston ta'lim tizimining global raqobatga tayyorlashi, shubhasiz.

XULOSA. Ta'limda boshqaruv strategiyasi — bu vaqtinchalik reja emas, balki tizimli, uzoq muddatli va natijaga yo'naltirilgan yondashuvlar to'plamidir. U orqali ta'lim muassasasi o'z ichki imkoniyatlarini to'liq safarbar etib, tashqi muhit talablariga moslashadi. Zamonaviy boshqaruv strategiyasi texnologik yondashuvlarga tayangan, inson kapitaliga ustuvorlik bergan, shaffof, samarali va adaptiv bo'lgan bo'lishi zarur. Kelajakda ta'limda muvaffaqiyat — strategik fikrlovchi yetakchilar, zamonaviy menejment yondashuvlari va doimiy rivojlanishga tayyor jamoa orqali shakllanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va soha tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. (2020).

Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020.

Aytmatov, Ch. Asrga tatigulik kun. — Bishkek: Raritet, 2005.

Mahkamova, D., "Ta'lim tizimida strategik menejment", Toshkent, 2021.

Porter, M. "Competitive Strategy", Harvard Business Review Press, 2004.

Qodiriy, A. O'tkan kunlar. — Toshkent: Yozuvchi, 2017.

Robbins, S.P., Coulter, M. Management. Pearson Education, 2021.

Shoyimova Sh.S., Umarov B.M., Ro'ziyeva D.I. Pedagogika.Psixologiya. // Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –T.: «IJOD PRINT» 2019. -332 bet.

Ta'lim boshqaruvi bo'yicha xalqaro tajriba sharhlari – [www.unesco.org](http://www.unesco.org)

Tolstoy, L. Urush va tinchlik. — Moskva: Nauka, 1986.

UNESCO. "Education Strategy 2022–2029".

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) – O'zR talimi rasmiy sayti

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – ta'limiy portal

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz) – O'zR pedagogika ta'lim muassasalari portali

## TA'LIMDA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA INTEGRATSIYALASHUVINING TURLARI VA ULARNING MAQSADLARI

*Shokirova Dilnoza Olimjon qizi,  
Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda texnologiyalarning qo'llanilishi, ularning paydo bo'lish tarixi, ulardan foydalanishda talim samaradorligining oshishi tadqiqotlar asosida keltirib o'tilgan va texnologiyalaridan foydalanishda integratsiyalashuvining turlari va ularning maqsadlari haqida atroflicha so'z boradi.*

*Shuningdek, texnologik vositalar ta'lim talablari va ehtiyojlariga mos ravishda to'g'ri va samarali ishlatilishi uchun dunyodagi texnologik rivojlanishlari, yangiliklar, texnologik kompetensiya tushunchasi, raqamli kompetensiya talabalar tomonidan ta'limda raqamli texnologiyadan samarali foydalanish handa qo'llash orqali erishilishi asoslangan.*

*Kalit so'zlar: texnologiya, kompyuterlar, planshet, aqlli doskalar, internet, integratsiyalashuv, vositalar, tadqiqot.*

## ТИПЫ ИНТЕГРАЦИИ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ И ИХ ЦЕЛИ

*Шокирова Дилноза Олимжон қизи,  
Независимый исследователь Каршинского государственного технического  
университета*

*Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются виды применения технологий в образовании, история их возникновения, повышение эффективности обучения при их использовании на основе исследований и виды их интеграции в использование технологий и их цели. Кроме того, чтобы технологические инструменты использовались правильно и эффективно в соответствии с требованиями и потребностями образования, технологические достижения в мире, инновации, концепция технологической компетенции, цифровая компетенция основаны на том, что эффективное использование цифровых технологий в образовании учащимися достигается за счет применения handa.*

*Ключевые слова: технологии, компьютеры, планшеты, умные доски, интернет, интеграция, инструменты, исследования.*

## TYPES OF INTEGRATION IN THE USE OF THEIR TECHNOLOGIES IN EDUCATION AND THEIR GOALS

*Shokirova Dilnoza Olimjon qizi,  
Qarshi is an independent researcher at the State Technical University*

*Annotation: this article will talk in detail about the application of technologies in education, the history of their emergence, the increase in the effectiveness of training in their use, cited on the basis of research, and the types of integration in the use of their technologies and their goals. It is also based on technological developments around the world, innovations, the concept of technological competence, digital competence achieved through the use of handa, the effective use of digital technology in education by students, so that technological tools can be used correctly and efficiently in accordance with educational requirements and needs.*

*Keywords: technology, computers, tablet, smart whiteboards, internet, integration, tools, research.*

**Kirish.** Hozirgi vaqtda texnologiya insoniyatning ish unimdorlik jihatlarini ochib beruvchi va

ishchi kuchi samaradorligini oshiradigan eng muhim vosita sifatida qaraladi Shu nuqtai nazardan, erishish mumkin bo'lgan imkoniyatlarga erishish texnologiya bilan har bir sohada o'z ta'sirini ko'rsatib, inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Texnologiyalar paydo bo'lishidan oldingi davrlardan ajratib turadigan eng muhim xususiyat hozirda texnologiyalarda tez o'zgarishlar ro'y berayotganligi va texnologiyadagi tez o'zgarishlar bu raqamli vositalardan ta'limda foydalanishdir. Texnologiyaning jadal rivojlanishi uchun ta'lim jarayoni doimo eng yangi texnologiyalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Dorskadan boshlangan ta'lim jarayonlari vaqt o'tishi bilan zamonaviy va innovatsion ko'rinishdagi kompyuterlar, planshet, aqlli doskalar va mobil qurilmalarga o'zgardi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).


Mamlakatimiz olimlari N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raevlar innovatsion ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashda innovatsion, modul, hamkorlik, interfaol, muammoli, modul, masofaviy, kompyuter, loyiha, rivoj- lantiruvchi, tabaqalashtirilgan, individual, dasturiy va mustaqil ta'lim texnologiyalarining mohiyati haqida tadqiqotlar olib borgan. Umumman olganda Dunyo ta'limning rivojlanishida texnologiyalarni qo'llanilishi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1920-yillardan boshlab ta'lim jarayonida ko'proq samaradorlikka erishish uchun ko'plab turli xil texnologik vositalar ishlatilganligini ko'ramiz. Kodoskoplar 1930-yillarda, 1950-yillarda esa naushniklar, videotasvirlar va fotokopiyalar ishlatilgan.

Ta'limda texnologiyadan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar 1970-yillarda radio va televideniedan ta'lim maqsadlarida keng foydalanishni rejalashtirish bilan boshlangan. Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab ta'lim sohasida internet, kompyuterlar, smartfonlar, elektron kitob o'quvchilari, elektron kitoblar va planshetlar kabi ko'plab turli texnologik va raqamli vositalar qo'llanilmoqda. O'zgarishlar bilan nafaqat texnologik vositalar o'zgardi balki ta'limda texnologiyadan foydalanishning maqsadi ham o'zgardi. Garchi ta'limda texnologiyadan foydalanish dastlab kursni o'qitishda texnologiyadan foydalanish deb qaralsada, keyinchalik, u zamon ehtiyojlarini qondira oladigan kadrlar etishtirishni maqsad qila boshlandi[6,4].

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ta'limda texnologiyadan foydalanish va texnologiyaning ta'limga integratsiyalashuvining to'rtta quyidagi asosiy sababini keltirib o'tishimiz mumkin(1-rasm):

- motivatsiya;
- o'qitish;
- ishlab chiqarish;
- ko'nikmalar.



1-rasm. Texnologiyalarning ta'limga integratsiyalashuvining sabablari

Ta'limda texnologiyadan foydalanishning bu to'rtta turini atroflicha tushuntirub o'tsak:

-motivatsiya nuqtai nazaridan o'quvchi e'tiborini o'ziga tortadi va yuqori darajadagi o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

-o'qitish nuqtai nazaridan, u murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi va o'quv muhitida real hayotiy vaziyatlarni aks ettiradi;

-ishlab chiqarish nuqtai nazaridan, axborotga kirish va yangi bilimlarni ishlab chiqarishni osonlashtiradi;

-ko'nikmalar nuqtai nazaridan, axborot asrida muhim deb hisoblangan texnologik bilimlar, axborot olishdagi bilimlari va vizual bilimlar kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Shu ma'noda, biz yashayotgan hozirgi vaqtda axborot olish va undan foydalanishni biladigan texnologik jihatdan rivojlangan kadrlarni etishtirishni muhim hisoblanadi va buni ta'limda texnologik vositalardan to'g'ri foydalanish orqali amalga oshirish mumkin deb hisoblaymiz.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Texnologik vositalar ta'lim talablari va ehtiyojlariga mos ravishda to'g'ri va samarali ishlatilishi uchun dunyodagi texnologik rivojlanishlarni muntazam kuzatib borishlari va texnologiyalargada yangiliklar kiritishlari kerak bo'ladi. Shu o'rinda texnologik kompetensiya tushunchasi e'tiborni tortadi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, raqamli kompetensiya talabalar tomonidan ta'limda raqamli texnologiyadan samarali foydalanish va qo'llash orqali erishilishi mumkin[2,64].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) imtihonlari mamlakatlar ta'lim tizimini baholashda muhim mezon sifatida ko'riladi. Bundan tashqari, Ta'lim yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro agentlik tomonidan o'tkazilgan Xalqaro matematika va fanlarni o'rganish tendentsiyalari (TIMSS) va Xalqaro o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish loyihasi (PIRLS) baholashlari ham muhim ahamiyatga ega. PISA, TIMSS va PIRLS tadqiqotlariga asoslangan baholashlar orqali dunyo mamlakatlarning ta'limda texnologiyadan foydalanishini baholaydi[9,415].

Bizning ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qo'llashga doir tadqiqotimiz hozirgi o'quv rejalariga mos ravishda 15 haftaga mo'ljallangan ya'ni 15 haftada quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-birinchidan tadqiqot muammosi bo'yicha ma'lumotlar bo'lajak o'qituvchilarga ochiq savollarni o'z ichiga olgan anketa shaklida to'plangan bo'ladi (ta'limda texnologiyadan foydalanish mavzusi batafsil tushuntirilishidan oldin). So'rovnoma shaklidagi savollar "Ta'limda texnologiyadan foydalanish nimani anglatadi, ta'limda texnologiyadan qanday foydalanish kerak, ta'limda texnologiyadan foydalanishning foydasi yoki zarari bormi? Agar shunday bo'lsa, ular nima uchun kerak ekanligini tushuntirib bering? Kabi bo'lajak o'qituvchilarning ta'limda texnologiyadan foydalanish haqidagi fikrlarini ochib berishga qaratilgan savollardan iborat.

Eng avvalo, bo'lajak o'qituvchilardan ta'limda texnologiyadan foydalanish bo'yicha o'z fikrlarini aniq yozishlari so'raladi. Ushbu jarayon davomida tadqiqot ishtirokchlariga hech qanday baho berilmasligi haqida ma'lumot berildi. Bundan maqsad aniq ma'lumot berish emas, balki faqat o'z fikrlarini aks ettirish ekanligi ta'kidlanadi. Bo'lajak pedagoglarga o'z fikrlarini xohlaganicha ifoda etishlari mumkinligi bir necha bor eslatildi. Tadqiqotning birinchi tadqiqot muammosi bo'yicha topilmalar ushbu so'rov shaklidan to'plangan ma'lumotlar bilan yig'ib olinadi va to'plangan ma'lumotlar tahlil qilib chiqiladi[8,43];

-ikkinchidan haftasidan boshlab tadqiqot ishtirokchlaridan semestr oxirida taqdim etiladigan kelajakda ta'limda qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnologiyalarga oid loyihalarni ishlab chiqish va buni rejali tarzda amalga oshirish orqali har hafta hisobot tayyorlash taklif qilindi. Ushbu loyihalarni ishlab chiqishda instruktor ishtirokchilarga 1 dan 6 kishigacha bo'lgan loyiha guruhlarini tuzish kerakligini va har bir guruh semestr oxirigacha loyiha taklifini taqdim etishini tushuntirdi. Ushbu loyiha taklifida har bir guruhga hamkorlikda tadqiqot o'tkazish va ta'limda texnologiyadan foydalanishning kelajagi haqidagi fikrlarini aks ettiruvchi loyiha taklifini tayyorlash topshirildi[5,70];

-uchinchidan haftadan boshlab loyiha mavzulari bo'yicha qaror qabul qilish uchun o'ylash, izlanish va o'zaro jamoaviy ishlashni boshladilar. Shuningdek, ulardan har hafta o'z ishlarini o'qituvchilari bilan o'rgangan metodlarining loyihalari samaradorligini tahlil qilib borishadi;

-to'rtinchidan yakunida har bir guruh o'z amaliyotda qo'llagan loyahasini fan o'qituvchisi bilan o'rtoqlashdi. Dars so'ngida o'qituvchi tomonidan talabalarga fikr-mulohazalar bildirildi va

ulardan kerakli tadbirlarni amalga oshirish taklif qilindi;

-beshinchidan boshlab guruhlar o'zlarining yozma loyiha takliflarini auditoriyada og'zaki va taqdimot ko'rinishida taqdim etdilar. Ushbu taqdimotlardan so'ng talabalar ham, o'qituvchi orqali o'z loyihalarini yaxshilashi mumkin bo'lgan turli takliflarni olishadidi[3,33];

-oltinchidan yuqoridagilardan bo'lajak o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan loyiha va takliflari paydo bo'ldi. Bo'lajak o'qituvchilar o'z loyihalarini yozma shaklda o'qituvchisiga topshirdilar. Tadqiqotning muammosi bo'yicha xulosalar ushbu loyiha hisobotlarini o'rganish orqali taqdim etildi.

Ma'lumotlarni tahlil qilishda kontentni tahlil qilish usuli qo'llanildi. Umuman olganda tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kontent tahlili sifat ma'lumotlarini tahlil qilishning eng to'g'ri usuli hisoblanadi. Ma'lumotlarni tahlil qilishning eng yaxshi usuli - yozib olish paytida yoki keyinroq tahlil qilishda ma'lum sarlavhalar ostidagi asosiy mavzularni aniqlashdir. Kontent tahlilini o'tkazishda o'xshash ma'lumotlar muayyan tushunchalar va mavzular doirasida birlashtirilishi va talaba tushunadigan tarzda tartibga solinishi kerak.

Ushbu tadqiqot doirasida ma'lumotlarni tahlil qilishni boshlaganda, birinchi navbatda talabalardan to'plangan so'rov shakllari raqamlangan. Shunday qilib, har bir talabaga raqamlar bilan kodlangan. Keyingi bosqichda talabalarining javoblari matnni qayta ishlash dasturi yordamida kodlash tartibida kompyuter muhitiga o'tkazildi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda talabalar tomonidan ochiq savollarga berilgan javoblar har bir savol bo'yicha jadvalga o'tkazildi. Keyingi bosqichda savollarga javoblar birlashtirilib, tahlil amalga oshirildi. Tahlildan so'ng umumiy mavzularni o'tishga doir pedagogik texnologiya yaratiladi. Yakuniy bosqichda paydo bo'lgan mavzularni o'tish texnologiyalari o'zaro solishtirildi va farqlari tekshirildi. Yaratilgan texnologiyalar bir-birining takrorlagan qismlari birlashtiriladi va takrorlamaydigan qismlari umumiyashtirilib mavzu mohiyatiga moslashtiriladi.

Yuqoridagi tahlillarda talabalarining javoblari ta'limda texnologiyadan foydalanishda quyidagi fikrlarni ko'rish mumkin:

- ta'limda texnologiyadan foydalanish bolalarning tushunishini osonlashtiradi;
- texnologiya ta'limning muhim omili bo'lib, ta'limning har bir sohani qamrab olishi kerak, shuning uchun u o'rganishni osonlashtiradi. Masalan, aqlli doskalardan foydalaniladi va ko'rgazmali tasvirlar o'qituvchilarning bilim olishini osonlashtiradi;
- ta'lim texnologiyalari vizual yordamni ta'minlaydi.
- bu o'qituvchilar uchun foydali bo'lib, talabalarga vizualizatsiya qilishda yordam beradi.
- ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kerak. Chunki vizual xotirani jalb qiluvchi vositalar qo'llaniladi va yangi o'rganiladigan ma'lumotlar osonroq o'zlashtiriladi.
- ta'limda texnologiyadan foydalanish bilan ma'lumotlar doimiyroq bo'ladi. Bu vizual va eshitish uchun foydalidir. Ularning ta'kidlashicha, ta'lim texnologiyalari audio-vizual elementlar bilan o'quv faoliyatiga hissa qo'shadi va o'qituvchilar ishini osonlashtiradi[7,59].



2-rasm. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadlarining tasnifi.

Ushbu tadqiqot o'rganilganda, talabalarning eng ko'p e'tiborini tortgan masala o'qitishdagi uzluksizlikning doimiy ekanligi aniqlandi. Ushbu masala bo'yicha talabalarning fikrlari o'rganilganda. Ta'limda texnologiyadan foydalanish foydali bo'lib, darsni ko'rgazmali, slyadlar va hujjatli filmlar yordamida o'tkazish o'quvchilarda turlicha fikrlash tarzini rivojlantiradi. O'rgatish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar saqlanishining evaziga doimiy bu ma'lumotlardan foydalanish mumkin bo'lib qoladi. Shunday ekan ta'limda texnologiyadan foydalanish o'rganishda o'qitishning qulayligi, o'rganishda doimiylik, ko'rgazmali-vizual qo'llab-quvvatlash, yoshning zarurati, vaqtni tejash, darsni jozibador qilish va boshqalar kabi sabablarga ko'ra foydalanish zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, ushbu ta'lim texnologiyalaridan foydalanishdan maqsad quyidagilarni amalga oshirish bilan tavsiflanadi (2-rasm):

- o'rganishda uzluksizlikni ta'minlash;
- tajriba orttirish orqali o'rganishni amalga oshirish;
- darsni qiziqarli qilish;
- teng imkoniyatlarni shakllantirish;
- motivatsiyani kuchaytirish;
- o'qituvchi va o'quvchining oson o'zaro aloqasini yo'lga quyish;

- o'qitish va o'rganishning qulayligi;
- bilimlarni mustahkamlash;
- vaqtni tejash;
- shaxsiy farqlarni bartaraf etish;
- diqqatni oshirish;
- intizomni saqlash;
- xotirani mustahkamlash;
- talabalarda texnologiyadan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ta'lim sifati va darajasini oshirish va boshqalar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari/ Darslik – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
2. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
3. Турдиев, Ш. Р. (2019). Таълим жараёнини тизимли ёндашув асосида педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда ташкил этиш. *современное образование (узбекистан)*, (12 (85)), 31-36.
4. Shadiev R. D., Turdiyev S. H. Basic didactic principles of building an integrated system of training to innovation engineering // *Знание*. – 2016. – №. 4-4. – С. 87-89.
5. Турдиев Ш. Р., Келдиёрова М. Г. Личные и профессиональные особенности учителя // *Проблемы современной науки и образования*. – 2020. – №. 6-1 (151). – С. 67-72.
6. O'Muxamedov, M.H.Usmanboev, S.S.Rustamov., Ta'limni tashkil etishda interfaol metodlar: O'quv-uslubiy tavsiyalar -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.- 4 bet.
7. Ш.Р.Турдиев. Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference 2021/11/11 P.181-183 Издатель BERLIN 8.U.Inoyatova va boshqalar: Pedagogikadan 1000 savolga 1000 javob T.TDPU 2013 yil 127 b.
9. Shaxmurodova D.A. PIRLS va PISA tadqiqotlarida o'qish savodxonligini baholashning konseptual yondashuvlari. // *Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni jadallashtirish. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi, 2021.* – B. 413-416.

## HTML TILIDA RO'YXAT VA JADVAL TEGLARINING IMKONIYATLARI

Rajabova Gulchexra Salomovna  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

*Annotatsiya. Ushbu maqolada HTML tilidagi ro'yxat (unordered va ordered) hamda jadval teglari (table, tr, td, th) bilan ishlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ro'yxatlar ma'lumotlarni soddalashtirilgan ko'rinishda ifodalashda, jadvallar esa ustun va qatorlar bo'yicha tuzilmali tartib keltirishda qo'llanilishi va har ikki vositaning CSS bilan birgalikda qanday oson responsive (moslashuvchan) dizayn yaratishi mumkinligi qisqacha yoritiladi. Maqola semantik tuzilma, texnik atributlar va amaliy misollar asosida veb-sahifa kontentini samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beradi.*

*Kalit so'zlar: HTML, ro'yxat, jadval, <ul>, <ol>, <li>, <table>, <tr>, <td>, veb-sahifa, semantik markup, web dizayn, responsiv layout*

**Kirish.** Web-dizaynning asosiy tushunchalaridan biri, ma'lumotni sahifada semantik jihatdan to'g'ri va tartibli joylashtirishdir. HTML tilida bu maqsadda ro'yxatlar (lists) va jadvallar (tables) keng qo'llaniladi. Ro'yxatlar (unordered <ul> va ordered <ol>) – punktma-punkt ma'lumotni ifodalashda, jadvallar esa satr va ustunlarga bo'lingan turli xildagi ma'lumotlar to'plamini ko'rsatishda juda qulay.

Xulosa. Boladaxulq-atvordaog'ishlarningnamoyonbo'lishiningengkengtarqalgansabablaridan biri bu oiladagi rivojlanish sharoitlarining buzilishi va oilaviy tarbiyadagi nuqsonlardir. Aynan oilada bolaning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, xarakteri va aql-idrokining poydevori qo'yiladi va individual ruhiy xususiyatlar shakllanadi, ular asosida shaxs va tashqi dunyo o'rtasidagi o'zaro ta'sir modeli shakllanadi. Bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun oilaning hal qiluvchi ahamiyati odatda e'tirof etiladi. E.P.Belinskaya va O.A.Tixomandritskayaning ta'kidlashicha, "oila, makro muhitning elementi sifatida, bolaning madaniyatga yo'l ko'rsatuvchisidir: bolalar diniy urf-odatlar, etnik stereotiplar va axloqiy qadriyatlarni asosan oila orqali o'rganadilar" [14]. Madaniy ta'sirlarni yetkazishda oilaning roli qanchalik katta bo'lsa, uni o'rab turgan ijtimoiy hamjamiyatning bir xilligi shunchalik yuqori bo'ladi, ammo jamiyatning yetarli darajada madaniy xilma-xilligi bo'lsa ham, ota-onalar qadriyatlar va xatti-harakatlar modellarini tanlashda asosiy manbaga aylanadi.

An'anaga ko'ra, oilaviy ta'limning asosiy muammolari ota-onalardan biri yoki ikkalasini yo'qotish holatlarida, to'liq bo'lmagan oilalarda, ota-onalarning alkogolizmi va boshqalarda paydo bo'ladi, deb ishonilgan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda oilaning tuzilishi va rolini o'zgartiruvchi va ota-onalarning chuqur shaxsiy o'zgarishlariga olib keladigan sivilizatsiya xarakteridagi omillar birinchi o'ringa chiqdi, bu esa ta'lim jarayonining sezilarli darajada buzilishiga olib keladi. "Infantilizm" tushunchasining talqini va ota-ona xulq-atvorida namoyon bo'lishini o'rganish mualliflarga o'sishning zamonaviy tendensiyalaridan birini tavsiflovchi dolzarb masala bo'lib tuyuladi. Kundalik amaliyotda bu atama ko'pincha ma'lum bir hodisa yoki xulq-atvorni baholash sifatida ishlatiladi va salbiy ma'noga ega. Bunday salbiy baholash ota-onalar dunyosi uchun mos keladi. Har bir bola "voyaga yetmagan" va to'laqonli kattalar bo'lishga intiladi. Kattalar hayotining mumkin bo'lgan muammolari va qiyinchiliklariga qaramay, kattalarning pozitsiyasi bola uchun jozibali tuyuladi. Darhaqiqat, kamolotga erishish va yuksalish insoniyat taraqqiyotining istiqbolli maqsadlaridan biridir.

Ijtimoiy infantil ota-ona keyingi avlodni tarbiyalashda o'ziga yuklangan funksiyani to'liq amalga oshirishga qodir emas. O'z muammolariga haddan tashqari diqqatni jamlash va liberal tarbiya uslubi juda salbiy oqibatlariga olib keladi. Birinchidan, bunday oilalarda xulq-atvorning ma'lum bir modeli avlodlar darajasida uzatiladi, boshqacha aytganda, bolalar ota-onalari kabi ijtimoiy infantil bo'lib o'sadi. Ikkinchidan, ijtimoiy infantil ota-onalar tomonidan bolalarga etarlicha e'tibor bermaslik tajovuzkorlik, giyohvandlik xatti-harakatlari va boshqalarning namoyon bo'lishi uchun qo'zg'atuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda oila institutiga hurmatni tiklash, an'anaviy qadriyatlarni mustahkamlash jarayoni ancha samarali amalga oshirilmoqda. Shu fonda tug'ilish ko'payib, ko'p bolali oilalar soni ko'payib, yoshlar uchun nikoh qadri oshib bormoqda. Shu bilan birga, ta'lim tashkilotlari darajasida ota-onalar bilan ishlashni ham kuchaytirish zarur.

Ota-onalarda infantilizmni o'rganishning nazariy asoslari quyidagi jabhalarni o'z ichiga oladi:

1. Infantilizm ta'rifi. Bu kattalar ruhiyatida va xulq-atvorida bolalikka xos xususiyatlarni saqlab qolishdir. Infantil shaxsning asosiy xususiyati hissiy-irodaviy sohaning yetuk emasligidir;
2. Infantilizmning sabablari va belgilari. Bularga mehnat motivatsiyasining yetishmasligi, ijtimoiy va axloqiy kamolotning kechikishi, shaxsning gedonizmga yo'naltirilganligi, qaramlik pozitsiyasi, boshqa odamlarga va tashqi omillarga qaramlik, hayotdagi qiyinchiliklarni yengish

uchun motivatsiya va fikrlash qobiliyatining pastligi kiradi;

3. Ota-onalar infantilizmining bolalar xulq-atvoriga ta'siri. Ijtimoiy infantil ota-onalar tomonidan bolalarga yetarlicha e'tibor bermaslik tajovuzkorlik va deviant xatti-harakatlarning boshqa shakllarini qo'zg'atuvchi omil bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati:

1. Костюшина Е.В. Проблема конфликтов в подростковом возрасте / Е.В. Костюшина, Н.Н. Парусова // Наука и Образование. – 2018. - Т.1. – № 3- 4. – С. 24.
2. Костюшина Е.В. Роль семьи в формировании мотивации учения младшего школьника / Е.В. Костюшина, Л.Ю. Суворинова // Наука и Образование. - 2020. - Т. 3. - № 4. - С. 207.
3. Кулакова Н.А. Особенности развития общения дошкольников со сверстниками / Н.А. Кулакова, В.Н. Обносов // Наука и Образование. - 2020. - Т. 3. - № 2. - С. 227.
4. Обносов В.Н. Традиции воспитания молодежи в русской истории / В.Н. Обносов // Сб.: Молодежь и ответственность: материалы IV Владимирских духовно-образовательных чтений / сост. Р.С. Леонов. - Мичуринск: Изд-во Мичуринского ГАУ, 2019. – С. 111 – 115.
5. Обносов В.Н. Преодоление эгоцентризма как условие духовно-нравственного развития / В.Н. Обносов // Сб.: Молодежь и ответственность: материалы IV Владимирских духовно-образовательных чтений / сост. Р.С. Леонов. - Мичуринск: Изд-во Мичуринского ГАУ, 2019. – С. 56 – 60.
6. Бенедикт Р. Психологические типы в культурах Юго-Запада США / Антология исследований культуры. Интерпретация культуры / сост. Л.А. Мостова. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2006. С. 271–284.
7. Мид М. Мужское и женское. Исследование полового вопроса в меняющемся мире. М.: РОССПЭН, 2004. 412 с.
8. Kiley D. (1983). The Peter Pan syndrome: Men who have never grown up. New York: Dodd, Mead.
9. Saito T. Hikikomori: adolescence without end. Minneapolis: University of Minnesota Press, 2013. 192 p.
10. Войскунский А.Е., Солдатова Г.У. Эпидемия одиночества в цифровом обществе: хики комори как культурно-психологический феномен // Консультативная психология и психотерапия. 2019. Т. 27. № 3 (105). С. 22–43.
11. Бакулина А.С. Феномен кидалт, или «новых взрослых», в современном мире // Актуальные вопросы социально-психологических исследований: сб. науч. и учеб.-метод. ст. / ред. сост. А.М. Тютченко, О.С. Фисенко. М.: Перо, 2015. С. 28–36.
12. Серегина А.А. Социально-психологические условия преодоления инфантилизма у безработной молодежи : автореферат дис. ... кандидата психологических наук : 19.00.05 / Рос. гос. соц. ун-т. – Москва, 2006. – 25 с.
13. Сабельникова Е. В. Инфантилизм: теоретический конструкт и операционализация // Образование и наука. – 2016. – № 3. – С. 89-105.
14. Mikhailova O.B., Gutvajn N. Growing infantilism in modern adolescents and young people: symptoms and causes // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Психология и педагогика. 2022. Т. 19. № 1. С. 39–53. <http://doi.org/10.22363/2313-1683-2022-19-1-39-53>.
15. Mikhailova O.B., Kudinov S.I., Marin Jerez K.G. Value-motivational characteristics of innovativeness as prospects for successful self-fulfillment // Mediterranean Journal of Social Sciences. 2015. Vol. 6. No. 3S2. Pp. 105–112.
16. Апраксина Н.Д. Преодоление учебно-профессионального инфантилизма студентов в процессе социокультурного развития в вузе : автореферат дис. ... кандидата педагогических наук : 13.00.08 / Апраксина Нина Дмитриевна; [Место защиты: Моск. гос. ун-т культуры и искусств]. – Москва, 2008. – 23 с.
17. Птичкина Е.Л. Внутрличностные детерминанты девиантного поведения старших подростков: Автореф. дис....канд. психол. наук. - М.: Психол. ин-т РАО, 2001. - 25 с.

## **AYOLLAR TIZIMI XODIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PERFORMATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI**

*Tojibayeva Nazokatxon Kobiljonovna,  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti DSc doktoranti, PhD dotsent.*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada performativ yondashuv tushunchasi, performativ yondashuv asosida samaradorlikni oshirish, ilmiy nutqda performativ yondashuvning ahamiyati, xotin-qizlar bilan muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda til va tafakkurning o'zaro bog'likligi muhim omil ekanligi aniq bayon etildi.*

*Kalit so'zlar: oila va xotin-qizlar tizimi, performativ, kolloborativ jihatlar, jamiyat, oila va xotin-qizlar tizimi masalalari, fikr-mulohaza.*

## **ВАЖНОСТЬ ПЕРФОРМАТИВНОГО ПОДХОДА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТЫ СОТРУДНИКОВ ЖЕНСКОЙ СИСТЕМЫ**

*Тожибаева Назокатхон Кобилжоновна,  
докторант DSc, PhD, доцент Научно-исследовательского института «Семья и гендер»*

*Аннотация. В данной статье внимание уделено задачам сотрудников перформативные понятия, понятия исполнения и понимания, значение перформативного развития в научной речи.*

*Ключевые слова: перформативные понятия, семья и женская система, аспекты сотрудничества, проблемы общества, семья и женская система, обратная связь.*

## **THE IMPORTANCE OF THE PERFORMATIVE APPROACH TO INCREASING THE EFFICIENCY OF EMPLOYEES IN THE WOMEN'S SYSTEM**

*Tojibayeva Nazokatxon Kobiljonovna,  
DSc doctoral student, PhD, associate professor at the “Family and Gender” Research Institute*

*Annotation: In this article, attention is paid to the tasks of performative concepts, concepts of performance and understanding, the importance of performative development in scientific speech.*

*Key words: concepts of performance, family and women's system, collaborative*

*The performative approach in the women's system is important. The term «Performative» was proposed by an English philosopher, logic had submitted the instructions. Performative approach, performing, execution, execution, action, and words «Performative approach or statements», clear action, this is not just to talk about the fact that J. Austin executed and talks.*

At the same time, activists of the women's system also pay accuracy and prosecution in the task, and the talked, and the current situation became unexpected.

The concepts of performance and implementation in the scientific talk is the concept of «linguistic performance» with the term «Performative» actively used in theories of language and semiotic theories of language and semiotic. The concept of «Tiles» and «Linguist Scientist), as the concept between the concepts of the linguist and» speech «is presented as the relationship between the structure and communications, and the concept of» competency «is also the same way in this place. GRI is required to be used. Khomsky brings the main difference in the work of «Language and Thinking»:

1. Compectivity (knowledge of one's own language), 2. The speaker is a listener and the user in specific use of language.

Performative approach can only be considered as a description of the legislature not only as

a description of the content, can also be studied as symptoms, symbols, images, but as clearly material movement.

The performative approach will allow cultural events not only as a description of cultural events, but also characters, characters, symbols, but as clear material movement. Components determined for similar actions are force and success (depicted and concept in the theory of speech).

The effect and success of the influence according to Austin are depicted and concepted in the theory of the actor of speech. Performative approach based on text or iconographic study and important to the researcher's communications, dialogue, unequal and participation, is not only in the women's system in all areas in the operating, it is also important.

In recent years, the perception of performative for cultural and social sciences is becoming increasingly important. Only, according to the scholars, the performative approach is to have the opportunity to connect various disciplinary approaches to the problems of social reality. The issue of the implementation of the implementation of social movements, as well as the issue of the implementation of social developed emblems and knowledge, is not only of great importance for cultural studies, but also a practical feature as a guide to the actions of various individuals. This position comes out when it comes to the study of modern communication. For example, the Sociological Concept of De bord is based on the definition of modern society «Vice society». In his opinion, the peculiarity of society is that there is no truth, reality, but no, show policies, reigns reigned. (De Bord 1967).

The analysis approves the general trend of the executive of the executor in the Constitution of modern cultural processes and reflects the evolution in the field of executive, which no longer limits itself to certain types of speech actions. The text is included in the speech, speech and mental gaps. At the same time, it is important to create a relationship, target and gunshame in each field, on each field that connect the activities of women, on each field.

It is known that all society's families are always made of men and women. Their right and work on top of each other also serves as serving their relationship as they are enriching.

The place in the woman in the family and women's society is not limited to doing daily household chores. Often women make thinking, resolving disputes, assessment of conflicts, and developing family interaction methods. This is usually a quality better life, reflecting the women of his family, are virtues of peace and enrichment.

omen are very important for women to receive open help necessary at the same time in all spheres of life. In the past, parents have prepared girls for family life: for them it is said that it is important for them to have traditions, family holidays and family hierarchies. Today, the prospects for education and professional training of girls and young women are very good. Failure to see the meaning of life, not to be afraid to break down, wonderful family life and only take into account equity is a great achievement for family life. It is evidenced by the fact that the role, cooperation and importance of employees of the Family and Women's Employees in women's lives in women's lives is invaluable. B. D. Turniyozova write very important information: modern linguistics, the field that studies such constructions as the performative verb, performative speech and performative linguistic status of performativity, which studies the formation of linguistic elements in communication.

However, we believe that performativity, based only on this formula, limits its object of study.

While the field of linguistics is progressing along the world sciences, performative linguistics is also establishing a research center like its other types of prospects such as descriptive, generative and cognitive linguistics. Performative linguistics enriches the process of describing the language

Employees of the Family and Women's System have the role of family and women's systems in the maintenance and development of family relations. They help the family to find solutions and ways to solve conflicts and overcome challenges, and provides favorable conditions for each member's life and interaction. As part of the family-women system, staff works with various categories of people: children, teenagers, adults, couples. They provide psychological

and social assistance, help develop communication skills, manage emotions, and solve problems. Today, employees of the Family and Women's System also work to prevent domestic violence, alcoholism and drug prevention, family problems.

Today, the staff of the Family and Women's System defines a number of complicated tasks. These tasks are the tasks that they need to pay deep attention in their activities. It is as a result of the formation of the list of tasks to expand the ability to achieve the goal of the family and women's system:

1. Collection and analysis of the family and women's system, including information on its activities, problems and needs;
2. Carrying out methods of sociological research, polls, trick groups and other data in order to obtain information on the state and needs of the family and women's system;
3. Analysis of the socio-economic situation in families in women in various social groups and identify the most vulnerable categories;
4. Development and implementation of programs and projects to promote and improve the family and women's system;
5. Organization and conduct of measures (seminars, trainings, and others) to improve the skills and professional skills of employees of the family and women's system;
6. Interaction with other organizations and institutions engaged in the problems of family and women;
7. Coordination and support of regional and international projects aimed at improving the system of family and women;
8. Monitoring and evaluation of implemented projects and efficiency;
9. Preparation and distribution of information materials on problems and achievements in the field of women and women;
10. Participation in the development of legislation and women's rights, including in the legal protection of family values;
11. Tips and psychological assistance to families and women who are in a difficult life;
12. Supporting materials and programs for families and women, ensuring its organization's organization;
13. Prevention and combat violence in relations between family and women;
14. Participate in mass promotions and activities aimed at improving the public on issues of families and women's system;
15. Provision of statistical data and analytical information at the request of the state authorities and administration and conduct research.

The staff of the family and women's system, performs these tasks, as their cooperation also shows its importance in this process. That is, the cooperation between the family and women's system is the process of cooperation of specialists working in the field of family and women's systems. They can work with families and women individually, groups or organizations.

These two categories of employees is the necessary condition for the effective operation of specialists of the Family and Women's System. This includes the exchange of knowledge, experience and work styles, as well as solving problems together and achieving common goals.

As a result, the main aspects of the staff of the family and women's system can be determined. And they are:

1. Mutual understanding and respect. Successful cooperation requires a respected attitude between different professions and understanding the importance of each team member.
2. Exchange of knowledge and experiences. Employees of the family and women's system should be ready to share their knowledge and experience in cooperation with colleagues.
3. The diversity of approaches. Employees of the family and women's system can have different approaches to problem-solving, and it will serve to benefit in working with different customers.

Collaboration allows you to unite the best methods and approaches to achieve the best results.

4. Carrying together. An important aspect of cooperation is to plan and perform tasks together so that employees know which part of the work and what time is responsible for which time is responsible for.

5. Teamwork. Employees of the family and women's system should be able to work in the team to achieve common goal and solve conflicts.

6. Feedback. In the future, it is important to discuss the work and receive feedback from colleagues.

The necessary tasks set for employees of the family and women's system, and their partnership is an important factor in successful operation in the practice of the family and women's system. It allows us to unite various knowledge and experience to achieve good results and improve customer quality.

Summarizing the results our work performative approach important to increasing the efficiency of employees of the women's system. At the same time, it is important to create a relationship, target and communication in each field.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turniyozova Dildora Bekhzod kizi Samarkand state institute of foreign languages Faculty of Foreign Language and Literature behzodsamdchti@gmail.com Studies of performativity in linguistics. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10157587>. International journal word art Volume 6 . Issue 4. 193-page.

2. Suhendri Suhendri. Improving Students' Collaboration Thinking Skill Under the Implementation of the Quantum Teaching Model. July 2022 International Journal of Instruction 15(3):451-464. DOI:10.29333/iji.2022.15325a. [https://www.researchgate.net/publication/360346261\\_Improving\\_Students'\\_Collab](https://www.researchgate.net/publication/360346261_Improving_Students'_Collab)

3. Michael McGuire. Collaborative Public Management: Assessing What We Know and How We Know It. Public Administration Review Vol. 66, Special Issue: Collaborative Public Management (Dec., 2006), pp. 33-43 (11 pages). <https://www.jstor.org/stable/40965682>

4. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (2014). Cooperative learning: Improving university instruction by basing practice on validated theory. Journal on Excellence in College Teaching, 25(3-4), 85-118 Vuyanovich A. Performance and performativity. URL: <http://ziernie-performa.net/2013/10/lekciya-any-vuyanovich-performans-i-performativnost/>

5. Shumilina, D.V. (2017). Gendernoye ravenstvo v kontekste politicheskogo razvitiya Rossiyskoy Federatsii: problemy, initsiativy, potentsial [Gender Equality in the Context of the Political Development of the Russian Federation: Problems, Initiatives, Potential]. Polit- book, no 3, pp. 78-92.

6. Collaborative competencies/capabilities. Australian Research Alliance for Children and Youth. 2013.

7. Tojibayeva N.K. Kolloborativ kompetensiya va uning oila va xotin-qizlar tizimida faoliyat yurutuvchilar uchun ahamiyati. International scientific and practical conference: Improving Uzbekistan's position in international ratings and indexes: theory, practice and strategy. 17.11.2023. 379-382-betlar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10138471>

## KIMYO DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM VA XALQARO BAHOLASH SISTEMADAN FOYDALANISH

*Yakubova Madina Faxriddin qizi,*

*Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya Maqolada kimyo fan o'qituvchisining fanlar integratsiyasida qaysi fanlarni o'zaro jamlashni misollar tarzida chiroyli misollar tarzida keltirilgan. Bunda kasbiy kompetentlikni didaktik modeli strukturaviy tarzda keltirilgan. Muammoli metodlar, xalqaro baholash sistemasidan kimyo fanida qay tarzda foydalanish mumkin ekanligi, bu metodning nima sababdan kerak ekanligi, tayyor misollar tartibida berilgan.*

*Kalit so'zlar: PISA, TIMSS, muammoli ta'lim, xalqaro baholash sistemasi, virtual laboratoriya, innovatsion, loyihaviy ta'lim, kompetentlik, keys-stadi, animatsiyalar, interfaol.*

Talaba tomonidan bilimning eng kichik qismini mustaqil ravishda kashf etish unga katta zavq bag'ishlaydi, o'z imkoniyatlarini his qilishga imkon beradi va uni o'z ko'zlarida ko'taradi. Talaba o'zini shaxs sifatida tasdiqlaydi. Talaba ushbu ijobiy his-tuyg'ularni xotirada saqlaydi, yana bir bor omon qolishga intiladi. Shunday qilib, qiziqish nafaqat mavzuga, balki bilish jarayonining o'ziga – kognitiv qiziqishga ham ko'proq ahamiyatga ega. Talabalarning bilim va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirishga turli xil texnologiyalar yordam beradi: kompyuter texnologiyalari, muammoli va tadqiqot o'qitish texnologiyasi, o'yinni o'rganish texnologiyasi, testlardan foydalanish.

**Muammoli ta'lim texnologiyasi**

Muammoli ta'lim texnologiyasi kimyoni o'qitishda talabalarning faol bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlaydigan samarali usul hisoblanadi. U talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga, yechimlar topishga va o'z bilimlarini amalda qo'llashga undaydi. Quyida kimyoni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning asosiy jihatlari keltirilgan:

**Muammoli vaziyatlarni yaratish:**

Muammoli ta'limning asosiy elementi – bu talabalarni muayyan muammoli vaziyatga qo'yishdir. Bu vaziyat talabalarni o'z bilimlarini qo'llashga, yangi bilimlarni izlashga va yechimlarni topishga majbur qiladi. Muammoli vaziyatlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

Dolzarbligi. muammo real hayotdagi vaziyatlar bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Tushunarligi: muammo talabalar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak.

Hal etiluvchanligi: muammo talabalar tomonidan hal etilishi mumkin bo'lishi kerak.

Ko'p qirrali bo'lishi: muammo bir nechta yechimga ega bo'lishi mumkin.

Kimyoda muammoli vaziyatlar quyidagi tarzda yaratilishi mumkin:

Tajriba natijalarini tahlil qilish: talabalarga tajriba natijalarini tahlil qilish va ularga tushuntirish topshirilishi mumkin.

Kimyoviy reaksiyalarni tushuntirish: talabalarga kimyoviy reaksiyalarni tushuntirish va ularning mexanizmlarini aniqlash topshirilishi mumkin.

Muammolarni modellashtirish: talabalarga kimyoviy jarayonlarni modellashtirish va ularni simulyatsiya qilish topshirilishi mumkin.

Hayotiy vaziyatlar: kundalik hayotdagi kimyoviy hodisalarni tushuntirish uchun muammoli vaziyatlar yaratish mumkin.

**Muammolarni hal qilish strategiyasi:**

Talabalar muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun quyidagi strategiyadan foydalanishlari mumkin:

Muammoning mohiyatini aniqlash: talabalar muammoning asosiy qismlarini va maqsadlarini aniqlashlari kerak.

Ma'lumotlarni to'plash: talabalar muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashlari kerak.

Gipotezalarni ilgari surish: talabalar muammoni hal qilish uchun bir nechta gipotezalarni ilgari surishlari kerak.

Gipotezalarni tekshirish: talabalar ilgari surilgan gipotezalarni tajribalar yoki boshqa usullar yordamida tekshirishlari kerak.

Xulosa chiqarish: talabalar tekshiruv natijalari asosida xulosa chiqarishi va muammoni hal qilishi kerak.

O'qituvchining roli: o'qituvchi muammoli ta'lim jarayonida quyidagi rollarni bajaradi:

Muammoli vaziyatlarni yaratish: o'qituvchi talabalarni muayyan muammoli vaziyatga qo'yadi.

Yo'naltirish: o'qituvchi talabalarga muammoni hal qilishda yo'naltirish beradi, lekin ularga tayyor javoblarni bermaydi.

Muhokama qilish: o'qituvchi talabalar bilan muhokama qiladi, ularning fikrlarini tinglaydi va ularga qo'shimcha ma'lumotlar beradi.

Baholash: o'qituvchi talabalarning ishlarini baholash va ularga feedback beradi.

Muammoli ta'limning afzalliklari:

Talabalarning faol bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlaydi. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. O'ziga ishonchni oshiradi. Bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Kimyo darslarida testlardan foydalanish.

Kimyo darslarida testlardan foydalanish talabalarning bilim darajasini baholash, o'zlashtirishdagi kamchiliklarni aniqlash va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Testlar turli xil shakllarda bo'lishi mumkin va har bir shaklning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Quyida kimyo darslarida testlardan foydalanishning asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi:

Kimyo darslarida testlardan foydalanishning maqsadlari:


Bilimlarni baholash: testlar talabalarning kimyo faniga oid bilimlarini, tushunchalarini, qonuniyatlarini va nazariyalarini aniqlashga yordam beradi.

O'zlashtirish darajasini aniqlash: testlar talabalarning ma'lum bir mavzuni, bo'limni yoki kursni qanchalik yaxshi o'zlashtirganliklarini ko'rsatadi.

Kamchiliklarni aniqlash: testlar talabalarning bilimdagi kamchiliklarini, tushunmovchiliklarini aniqlashga yordam beradi va talabaga o'quv jarayonini takomillashtirish uchun yo'nalish beradi.

O'quv jarayonini motivatsiya qilish: testlar talabalarni bilim olishga, yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishga va o'z natijalarini yaxshilashga undaydi.

O'qituvchi faoliyatini baholash: test natijalari talabaning o'qitish uslubini, o'quv materiallarini tanlashni va o'quv jarayonini tashkil etishni baholashga yordam beradi.



## 2.2-rasm. Testlarning turlari

Test topshiriqlarining shakllari.

Tanlash testlari (ko'p variantli javoblar):

Afzalliklari: oson tekshirilishi, ko'p materialni qamrab olishi va ob'ektivlik.

Kamchiliklari: taxminiy javob berish imkoniyati va savollarni tuzishda qiyinchiliklar.

Qisqa javoblar testlari:

Afzalliklari: bilimlarni tekshirishning aniqligi va oson tekshirilishi.

Kamchiliklari: savollarni tuzishda cheklanganlik va ijodiy fikrlashni baholay olmaslik.

To'ldirish testlari:

Afzalliklari: ma'lumotlarni eslab qolish qobiliyatini tekshirishi va oson tekshirilishi.

Kamchiliklari: savollarni tuzishda cheklanganlik va ijodiy fikrlashni baholay olmaslik.

Essen testlar (batafsil javoblar):

Afzalliklari: ta'lim oluvchilarning fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'z fikrini bayon etish qobiliyatlarini baholaydi.

Kamchiliklari: sub'ektivlik va tekshirish uchun ko'p vaqt talab etilishi.

Testlarga qo'yiladigan talablar:

Validlik (muvofiqlik): test o'lchash uchun mo'ljallangan narsani o'lchashi kerak.

Ishonchlilik (barqarorlik): test bir xil o'quvchilar uchun takroriy o'tkazilganda bir xil natijalarni berishi kerak.

Ob'ektivlik: test natijalari tekshiruvchining shaxsiy fikriga bog'liq bo'lmasligi kerak.

Tushunarliklik: test savollari aniq, tushunarli va o'quvchilarning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Qiyinlik darajasi: Test savollari turli qiyinlik darajasiga ega bo'lishi kerak.

Vaqt: testni bajarish uchun ajratilgan vaqt yetarli bo'lishi kerak.

Testlarni o'tkazish bosqichlari:

Testni rejalashtirish: testning maqsadi, turi, savollari, baholash mezonlari va o'tkazish vaqtini aniqlash.

Test savollarini tuzish: savollarni tuzishda yuqoridagi talablarga rioya qilish.

Testni o'tkazish: o'quvchilarga test qoidalarini tushuntirish va ularga testni bajarish uchun yetarli vaqt berish.

Test natijalarini tekshirish: tekshirish mezonlariga rioya qilish va ob'ektivlikni ta'minlash.


Natijalarni tahlil qilish: test natijalarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va o'quv jarayonini takomillashtirish uchun xulosalar chiqarish.

Feedback berish: ta'lim oluvchilarga test natijalari bo'yicha feedback berish, ularning yutuqlarini ta'kidlash va kamchiliklarini bartaraf etish uchun maslahatlar berish.

Testlardan foydalanishda e'tiborga olish zarur bo'lgan jihatlar:

Testlar o'quv jarayonining bir qismi bo'lishi kerak, lekin yagona baholash vositasi bo'lmasligi kerak. Test natijalari ta'lim oluvchilarni ta'qib qilish yoki kamsitish uchun ishlatilmasligi kerak. Testlardan foydalanish ta'lim oluvchilarning o'ziga ishonchini pasaytirmasligi, balki ularni bilim olishga undashi kerak. Test savollari o'quv dasturiga mos kelishi va talablarga javob berishi kerak.

Testlar bilimni to'liq aks ettirmaydi, shuning uchun og'zaki va amaliy baholardan ham foydalanish zarur. Agarda test savollarini murakkablashtirib ularni saviyasi oshirilsa, B.Blum taksanomiyasidagi bilish→tushinish→qo'llash→tahlil qilish→sintez→baholash bosqichlarga asoslangan savollar tayyorlanib talabalarga taqdim etilsa ularning kimyo fanini o'qitishda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanish kompetensiyasi rivojlanadi. Taksonomiya kognitiv ko'nikmalarning olti darajasini o'z ichiga oladi:



2.3- rasm. B.Blum taksonomiyasi

Ushbu model ta'lim muassasalarida o'quv rejalarini ishlab chiqish va talabalarning bilimlarini baholash uchun keng qo'llaniladi.

Kimyo darslarida testlardan to'g'ri foydalanish ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ularning kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun muhim omil hisoblanadi.

Kimyo darslarida xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlaridan foydalanish: kimyo darslarida xalqaro baholash tadqiqotlari (masalan, PISA, TIMSS) topshiriqlaridan foydalanish ta'lim oluvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini, amaliy ko'nikmalarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini va real hayot muammolarini hal etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu topshiriqlar ta'lim oluvchilarni xalqaro standartlarga mos keladigan bilimlarni o'zlashtirishga, o'z bilimlarini amalda qo'llashga va raqobatbardosh bo'lishga tayyorlaydi.

Xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlarining xususiyatlari:

**Amaliylik:** topshiriqlar real hayot vaziyatlariga asoslangan va o'quvchilarning kundalik hayotida duch keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan.

**Integrativlik:** topshiriqlar kimyo, fizika, biologiya va boshqa fanlarni birlashtirgan holda, o'quvchilarning fanlararo bilimlarini qo'llashni talab etadi.

**Tanqidiy fikrlash:** topshiriqlar o'quvchilardan ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishni talab etadi.

**Muammolarni hal etish:** topshiriqlar o'quvchilardan muammolarni aniqlash, yechimlar topish va ularning samaradorligini baholashni talab etadi.

**Kommunikativlik:** topshiriqlar o'quvchilardan o'z fikrlarini aniq, ravon va ilmiy asoslangan tarzda bayon etishni talab etadi.

Kimyo darslarida xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlaridan foydalanish usullari:

**Darsning asosiy qismi sifatida:** xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlaridan darsning asosiy qismi sifatida foydalanish, o'quvchilarni yangi mavzularni o'rganishga, bilimlarini chuqurlashtirishga va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Mustahkamlash va takrorlash mashqlari sifatida:** xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlaridan o'tilgan mavzularni mustahkamlash va takrorlash mashqlari sifatida foydalanish, o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga va ularni test sinovlariga tayyorlashga yordam beradi.

**Baholash vositasi sifatida:** xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlaridan o'quvchilarning bilim darajasini baholash vositasi sifatida foydalanish, o'qituvchiga o'quv jarayonini takomillashtirish uchun yo'nalish beradi.

Loyihalar ustida ishlash: xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlaridan loyihalar ustida ishlash uchun asos sifatida foydalanish, o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

Xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlaridan foydalanish:

Talabalarga kimyo fanini o'qitishda xalqaro baholash tadqiqotlari (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar) materiallaridan foydalanish, ta'lim sifatini oshirish, talabalarning kompetentligini rivojlantirish va ularni global miqyosda raqobatbardosh qilishda muhim rol o'ynaydi. Quyida xalqaro baholash tadqiqotlaridan foydalanishning asosiy ahamiyati ko'rsatilgan:

Ta'lim sifatini baholash va takomillashtirish:

Xalqaro standartlarga moslik: xalqaro baholash tadqiqotlari orqali talabalarning bilim darajasini xalqaro standartlar bilan solishtirish, ta'lim tizimida mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkonini beradi.

O'quv dasturlarini takomillashtirish: tadqiqot natijalari asosida kimyo fanining o'quv dasturlarini yangilash, ularni zamonaviy talablarga moslashtirish, amaliyotga yo'naltirilganlik darajasini oshirish va talabalarda zarur kompetentliklarni shakllantirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish mumkin.

O'qitish metodlarini takomillashtirish: xalqaro baholash tadqiqotlari talabalarning bilim olishdagi qiyinchiliklarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o'qituvchilarga o'qitish metodlarini, interfaol usullarni, yangi texnologiyalarni qo'llashni, talabalarga individual yondashuvni ta'minlashni va ularning faolligini oshirishni rag'batlantiradi.

Baholash tizimini takomillashtirish: xalqaro baholash tadqiqotlari talabalarni baholash tizimida ob'ektivlikni ta'minlashga, baholash mezonlarini aniqlashtirishga, baholash shakllarini xilma-xillashtirishga va talabalarga feedback berishni yo'lga qo'yishga yordam beradi.

Talabalarga kimyo fanini o'qitishda xalqaro baholash tadqiqotlaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning kompetentligini rivojlantirish, ularni global miqyosda raqobatbardosh qilish va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarning materiallaridan faol foydalanish, kimyo ta'limini zamonaviy talablarga moslashtirish va kelajak avlodni yetuk mutaxassislar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yakubova.M. F. (2019). Kimyo darsida yangi pedtexnologiyadan foydalanishning ahamiyati. "Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и смежных отраслях" 24-27.

2. Yakubova.M. F. (2024). Bo'lajak kimyo o'qituvchilarda tabiiy ilmiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda ijodiy va bilish qobiliyatlardan foydalanish. Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchi -yoshlarning tabiiy – ilmiy savodxonligini rivojlantirish: muammo va yechimlari. 112-116.

3. Yakubova.M. F.(2025). Kimyoni o'qitishda fanlar integratsiyasidan foydalanishning ahamiyati. Kasb-hunar ta'limi №2, 2025

4. Yakubova.M. F.(2025). Kimyoni o'qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanish metodikasi. O'zMU xabarleri Вестник НУУз АСТА NUUZ Social SCIENCES 1/3/1 2025

5. Yakubova.M. F.(2025). Pedagogical and Psychological Aspects of Using the Integration of Chemistry with Exact and Natural Sciences in Education. International Journal of Pedagogics (ISSN: 2771-2281) VOLUME Vol.05 Issue03 2025

6. Yakubova.M. F.(2025). The Importance of Using the Integration of Chemistry with Natural Sciences in Improving Students' Professional Competence. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research (ISSN: 2771-2141) VOLUME Vol.05 Issue03 2025

## BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA TRANSFORMATSION YONDASHUV

*Yuldashev Bahodir,  
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida transformatsion yondashuvni qo'llashning pedagogik asoslari, samaradorlik omillari va o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirishdagi roli yoritiladi. Transformatsion yondashuv — bu o'quvchini faqat tayyor bilimlar bilan cheklab qo'ymasdan, balki ularning fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik tamoyildir. Maqolada xorijiy va milliy tajribalar tahlil qilinib, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan transformatsion topshiriqlar, vizual didaktik vositalar, aqliy hujum va muammoli savollar asosidagi dars modellariga urg'u beriladi. Shuningdek, transformatsion yondashuv orqali o'quvchilarning matematik savodxonligi, raqamli tafakkuri va individual yondashuv asosida rivojlanishi kabi holatlar ilmiy asosda tahlil etiladi.*

*Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika darsi, transformatsion yondashuv, metodik model, muammoli o'qitish, ijodiy fikrlash, raqamli tafakkur, faol o'quvchi pozitsiyasi*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal sur'atlarda o'zgarib, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy talablar asosida qayta shakllanmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'limda matematik savodxonlikni shakllantirish nafaqat hisoblash ko'nikmalarini emas, balki o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini, ijodiy yondashuv va transformatsion fikrlashini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-noyabrdagi PQ-4527-sonli qarori («PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida») hamda 2022-yil 11-maydagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini rivojlantirish konsepsiyasi» boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni, jumladan, transformatsion o'qitish usullarini keng joriy etishni taqozo etmoqda. Bu hujjatlar o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirish, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish va global baholash tizimlariga tayyorlashni maqsad qilgan.

Xorijiy tajribaga murojaat qilganda, transformatsion yondashuv AQSh, Finlyandiya, Singapur kabi ilg'or ta'lim tizimlarida keng qo'llanilib, o'quvchilarning o'z bilimini qayta ishlashi, yangi sharoitlarga moslashtirishi va ijodkorlik bilan faoliyat yuritishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, AQShda John Dewey, Braziliyada Paulo Freire, Singapurda «Thinking Schools, Learning Nation» modeli orqali ta'limda chuqur o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Shu jihatdan, O'zbekiston ta'lim tizimi ham transformatsion yondashuvga asoslangan metodikalarni boshlang'ich ta'limga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning kognitiv rivojini yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qilmoqda. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida transformatsion yondashuvning metodik asoslari, mazmuni va qo'llash mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Asosiy qism. Transformatsion yondashuv — bu o'quv jarayonida o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantirishga yo'naltirilgan metodik prinsiplar majmuasidir. Ushbu yondashuv ta'lim psixologiyasida Lev Vygotskiy, Jerome Bruner va Howard Gardner kabi olimlarning konstruktivistik va rivojlantiruvchi ta'lim nazariyalariga asoslanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu yondashuv individual o'zlashtirish, tajriba asosida tushunish, muammoni hal qilish orqali o'rganish kabi asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Matematikaga oid masalalarni turli kontekstlarda qayta ishlash, modellashtirish, strategiyalarni solishtirish va ijodiy hal qilish transformatsion fikrlashning muhim belgilaridir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-fevraldagi 66-

son qarori bilan tasdiqlangan «Boshlang‘ich ta‘lim davlat o‘quv standarti»da o‘quvchilarda funksional bilim, mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish zarurligi ta‘kidlanadi.

Metodik tavsiyalar (kengaytirilgan)

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida transformatsion yondashuvni tatbiq etish o‘qituvchidan faqatgina mavzuni tushuntirish emas, balki o‘quvchilarda bilimni mustaqil tarzda egallash, qayta ishlash va yangi vaziyatlarga tatbiq eta olish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Quyidagi metodik tavsiyalar shunday yondashuvni samarali joriy etish uchun mo‘ljallangan:

Muammoli vaziyatlar orqali o‘rganish

Muammoli o‘qitish transformatsion yondashuvning asosiy elementi bo‘lib, unda o‘quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki mustaqil izlanish orqali egallaydi.

Misollar:

• “Agar sen 5 ta o‘yinchoqni ikki do‘sting bilan bo‘lishmoqchi bo‘lsang, qanday teng taqsimlaysan?”

• “Do‘kon narxlari ko‘rsatilgan jadvalga qarab, 5000 so‘mga qancha olma va banan sotib olishing mumkin?”

Natijasi:

Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilar tahlil qilish, qaror qabul qilish va strategik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Vizual modellar va manipulyativ vositalar

Kichik yoshdagi bolalar konkret-dastlabki fikrlash bosqichida bo‘lgani sababli ular uchun mavhum matematik tushunchalarni modellashtirish zarur. Bunda ko‘rish, ushlab va harakat orqali anglash imkoniyati yaratiladi.

Amaliy vositalar:

- Geometrik figuralar (aylana, kvadrat, uchburchaklar)
- Rangli kubiklar, tangramlar, raqam kartochkalari
- Interaktiv doskada diagramma, grafiklar

Foydasi:

- O‘quvchilarda tasavvur va abstrakt fikrlash rivojlanadi.
- Matematik modellashtirish ko‘nikmasi shakllanadi.
- O‘rganilayotgan tushuncha ongda mustahkamlanadi.

Aqliy hujum (brainstorming) va suhbat metodlari

Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini ochiq aytishga, ularni asoslashga va boshqalarning fikrini hurmat qilishga o‘rganadilar.

Tatbiqi:

• “Bu masalani qanday hal qilish mumkin?” degan savol asosida bir nechta variantlarni jamlash.

- O‘quvchilarning takliflarini doskaga yozib, ulardan eng samaralilarini tanlash.

Natijasi:

• O‘quvchilar o‘z fikrini bildirishga intiladi, fikrni asoslash va muloqot qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

- Yechimga turli nuqtai nazardan yondashish imkoniyati paydo bo‘ladi.

2.4. Transformatsion topshiriqlar

Bu topshiriqlar o‘quvchini bir xil bilimni turli kontekstlarda qo‘llashga, yangi shaklda ko‘rishga va moslashtirishga undaydi.

Namuna topshiriqlar:

• 12 sonini qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish orqali hosil qiluvchi turli masalalar tuzish.

- Berilgan masalani ikki xil usulda yechish va natijalarni solishtirish.

- Masala shartidagi sonlarni o‘zgartirib, yangi topshiriq tuzish va uni yechish.

#### Foydasi:

- O'quvchi bilimlarni moslashtirish, algoritmlarni o'zgartirish va strategiyalarni tanlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Biror tushunchani chuqur anglash va unga mos ravishda harakat qilishga o'rgatadi.

Tajriba-sinov ishlari va natijalari. Tajriba-sinov ishlari 2024–2025 o'quv yilida Buxoro viloyati, Kogon shahri 3-son umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-»B» sinfida o'tkazildi. Tajribada 25 nafar o'quvchi ishtirok etdi. 3 oy davomida transformatsion yondashuv asosida ishlab chiqilgan matematik topshiriqlar, dars ssenariylari va baholash mezonlari asosida darslar o'tkazildi.

#### Natijalar:

- Mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari 62% dan 84% ga oshdi.

- Ijodiy yondashuv darajasi 55% dan 80% ga ko'tarildi.

- O'z-o'zini baholash va qaror qabul qilish ko'nikmalari sezilarli darajada mustahkamlandi.

- O'quvchilarning matematika faniga nisbatan qiziqishi va motivatsiyasi oshgani qayd etildi.

Xulosa. Transformatsion yondashuv boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchining shaxsiy faoliyatini faollashtirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, darsni hayotga yaqinlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, bu yondashuv o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini va bilim sifatini sezilarli oshiradi. Shu bois, transformatsion metodlarni amaliyotga tatbiq etish, dars mazmunini yangilash va o'qituvchilarni shu borada malakali tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

#### 5. Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4527-sonli qarori, 2019-yil 6-noyabr.

2. "2030-yilgacha bo'lgan ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi", 2022-yil 11-may.

3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-fevraldagi 66-son qarori.

4. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.

5. Bruner, J. (1966). Toward a Theory of Instruction. Cambridge: Harvard University Press.

6. Gardner, H. (1993). Multiple Intelligences: The Theory in Practice. Basic Books.

7. OECD (2021). PISA 2021 Mathematics Framework.

8. Yuldasheva, D.M. (2021). Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya masalalari. –

Toshkent: Fan.

## BOSHLANG‘ICH SINIF “TEXNOLOGIYA” FANINI O‘QITISHDA INDIVIDUAL TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xaydarova Malika,

*Buxoro davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi*

*Anotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining “Texnologiya” fani doirasida amaliy mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda individual topshiriqlardan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. O‘quvchilarning yosh xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari hamda o‘zlashtirish darajalari inobatga olingan holda, individual yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlarning dars samaradorligiga, ularning mustaqil fikrlashi, texnologik tafakkuri, ijodiy salohiyati va mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli ilmiy asosda yoritiladi.*

*Shuningdek, maqolada individual topshiriqlarning differensial, tanlovli va loyihaviy shakllaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish hamda shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olgan holda texnologik faoliyatga jalb etish yo‘llari ochib beriladi.*

*Maqola “Yangi O‘zbekiston maktabi” konsepsiyasi va zamonaviy pedagogik talablarga muvofiq ravishda boshlang‘ich ta’limda samarali didaktik yondashuvlarni qo‘llash zaruratini asoslaydi, metodik tavsiyalarni taklif qiladi hamda amaliyotda sinovdan o‘tgan usullarni taqdim etadi. Tadqiqot natijalari, kuzatuv va tajribalar asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

*Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, texnologiya fani, individual topshiriqlar, didaktik yondashuv, amaliy mashg‘ulot, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ijodiy tafakkur, mustaqil faoliyat*

**Kirish.** Zamonaviy pedagogika taraqqiyotida boshlang‘ich ta’lim bosqichini takomillashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni, “Yangi O‘zbekiston maktabi” konsepsiyasi va davlat dasturlarida ta’lim sifatini oshirish, har bir o‘quvchining individual salohiyatini ro‘yobga chiqarish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan “Texnologiya” fani bolalarda mehnat madaniyati, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, estetik did va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Mazkur fanning mazmuni va metodik yondashuvlari ayni o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi ta’lim jarayoni shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy dars uslublari bilan bir qatorda individual topshiriqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, “Texnologiya” fanida individual topshiriqlarning o‘rni va imkoniyatlarini chuqur ilmiy-metodik asosda tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada aynan shu masalaga e’tibor qaratilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual xususiyatlariga mos topshiriqlarni ishlab chiqish, ularni dars jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish va natijadorligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshlang‘ich ta’limda “Texnologiya” fanining mazmuni, uni o‘qitish metodikasi va dars jarayonida o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, faoliyatga asoslangan o‘qitish, amaliy topshiriqlar asosida o‘qitishning samaradorligi kabi konsepsiyalarga tayanadi.

Bundan tashqari, oila imijining o'zgarishi shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy qadriyatlar nuqtai nazaridan muhim oqibatlariga olib keladi. Oila rollarining tobora moslashuvchan va inklyuziv shakllanib borishi, shaxslarning o'z shaxsiy munosabatlari va oila hayotini o'z qadriyatlari va sharoitlariga muvofiq ravishda aniqlashda yanada katta erkinlikka ega bo'lishini ta'minlaydi. Biroq, ushbu moslashuvchanlik ijtimoiy tizimda bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki bu, o'z navbatida, jamiyatni oilaning va gender rollarning uzoq yillik, an'anaviy tushunchalarini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

#### Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot zamonaviy jamiyatda oila imijining sezilarli o'zgarishlarga uchrayotganini ko'rsatadi. An'anaviy oilaviy tuzilmalar hali ham hukmron bo'lsa-da, noan'anaviy oilaviy modellarga, masalan, yolg'iz ota-ona oilalari, bir jinsli oilalar va aralash

oilalariga nisbatan tan olish va qabul qilish ortib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari, xususan, televizion dasturlar, ijtimoiy media va kino, oila hayoti haqidagi jamoatchilik qarashlarini shakllantirishda va ularga ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi, ko'pincha an'anaviy me'yorlarga qarshi chiqqan holda, ular bilan birga ularni mustahkamlashga ham yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxslarning oila rollariga bo'lgan qarashlari turli ijtimoiy, madaniy va shaxsiy omillar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining tasvirlari tomonidan shakllanadi. Oila tuzilmalarining xilma-xillanishiga qaramay, ko'plab respondentlar oilaviy birliklarda an'anaviy gender rollarga sodiq qolishda davom etmoqdalar. Shunga qaramay, yosh avlodlar, ayniqsa xilma-xil media tasvirlariga duch kelganlar, oilaviy dinamikani qayta belgilashga yanada ochiqroq bo'lib bormoqda. Bu esa oilalarning jamiyat tomonidan qanday qabul qilinishiga yanada inklyuziv va moslashuvchan yondashuvni keltirib chiqaradi.

Ushbu tadqiqot oila imiji evolyutsiyasining davomiyligini va uning ijtimoiy me'yorlar, gender rollar hamda ijtimoiy siyosatlar bilan bog'liq keng qamrovli oqibatlarini tahlil qiladi. Oila tuzilmalarining xilma-xilligi ortib borayotgan sharoitda, zamonaviy jamiyatda mavjud oilaviy shakllarning turli xil variantlarini tan olishni talab qiluvchi inklyuziv siyosat va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash zarurati ortmoqda. Bunday o'zgarishlarni chuqur va tizimli tushunish jamiyatda tenglik va inklyuzivlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva S.M. (2015). Oila imiji va ta'lim tizimi: Psixologik va pedagogik yondashuvlar. "O'qituvchi".
2. Akramov Z.R. (2015). Oila va uning psixologik asoslari. "O'zbekiston".
3. Barker, M., & Knight, P. (2016). Family, Gender and Media: The Politics of Representation. Palgrave Macmillan.
4. Coontz, S. (2005). Marriage, a History: How Love Conquered Marriage. Viking.
5. Sutherland, L. (2018). Families in Society: A Global Perspective. Routledge.
6. Dunne, G., & Phillips, M. (2016). "Changing family structures and the impact on society." Journal of Social Sciences, 42(3), 45-62.
7. Finch, J., & Mason, J. (2000). Negotiating Family Responsibilities. Routledge.
8. Giddens, A. (2013). Sociology (7th ed.). Polity Press.
9. G'ulomov D.R. (2012). Oila va o'zbek milliy mentaliteti. "Ozbekiston".
10. Kirgizov M.S. (2010). Oila va undagi rollar. "Tafakkur".
11. Maslov A.V. (1990). Oila imiji va uning psixologik xususiyatlari. "Pedagogika".
12. Morgan, D. (2011). Rethinking Family Practices. Palgrave Macmillan.
13. Smith L.L. (2005). Gender and Family: Changes in the society. Gendervision.
14. Sodikova D.S. (2016). O'zbekistonning zamonaviy oilasi: Ijtimoiy tahlil. "O'zbekiston".
15. Tursunov I.S. (2015). Oila va uning rolini tushunish: Psixologik nuqtai-nazar. "Fan".
16. Yusupova F.A. (2015). Oila va uning o'zgarishi: Ijtimoiy psixologiya. "Ijtimoiy fanlar".
17. Yusupov P.R. (2000). Oila va uning psixologik asoslari. "O'zbekiston".
18. Wood, E., & Pape, M. (2015). "Family dynamics in the age of digital media." Journal of Media and Culture, 12(2), 118-134.

## ВЗАИМОСВЯЗЬ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ С САМОУПРАВЛЕНИЕМ СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ

Нурымбетова Эльмира Жумамуратовна,  
доктор психологических наук (DSc)

Нукусский государственный педагогический институт

*Аннотация:* В статье рассматриваются результаты эмпирического исследования, в котором главной задачей является выявление профессионально-важных особенностей и их взаимосвязь, в частности, ценностных ориентаций с самоуправлением студентов-психологов.

*Ключевые слова:* ценностные ориентации, обучение, доброта, планирование, неудача, универсализм, эмпатия, понимание, поддержка.

## PSIXOLOG TALABALARNING QADRIYATLAR YO'NALGANLIGI BILAN O'ZINI O'ZI BOSHQARISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Nurimbetova Elmira Jumamuratovna

*Annotatsiya:* Maqolada empirik tadqiqot natijalari ko'rib chiqiladi, unda asosiy vazifa kasbiy-muhim xususiyatlarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligi, xususan, psixolog-talabalarining qadriyat yo'nalganligi bilan o'zini o'zi boshqarish bog'liqligi hisoblanadi.

*Kalit so'zlar:* qadriyat yo'nalishlari, o'qitish, mehr-oqibat, rejalashtirish, muvaffaqiyatsizlik, universalizm, empatiya, tushunish, qo'llab-quvvatlash.

## THE RELATIONSHIP BETWEEN VALUE ORIENTATIONS AND SELF- GOVERNANCE OF PSYCHOLOGY STUDENTS

Nurimbetova Elmira Jumamuratovna

*Abstract:* The article deals with the results of the empirical study in which the main task is to identify professional-important features and their relationship, in particular, value orientations with self-management of psychology students.

*Keywords:* value orientations, learning, kindness, planning, failure, universalism, empathy, understanding, support.

**Введение.** В условиях динамично меняющихся требований рынка труда молодежь должна быстро адаптироваться к новым условиям для успешного освоения профессии. Развитие способностей, навыков и профессиональное образование становятся ключевыми критериями успешности на рынке труда и улучшения социально-экономических ресурсов молодежи.

В Республике Узбекистан одно из приоритетных направлений системного реформирования высшего образования заключается в повышении подготовки высококвалифицированных кадров с современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами. Эти преобразования отвечают социальному запросу к психологической науке и обуславливают необходимость совершенствования процесса подготовки студентов-психологов.

Профессионально важные качества (ПВК) – это такие качества личности, которые необходимы и важны для успешного освоения определенной трудовой деятельности, а также ее эффективного выполнения. Это понятие включает в себя динамические черты личности, отдельные психические и психомоторные свойства, физические качества, соответствующие требованиям к человеку какой-либо определенной профессии.

Вопросы профессии интересовали общество еще с древности. Так еще с древних времён человечество занимали такие проблемы как выживать в обществе, для создания удобства в жизни, а также отвечать своим физиологическим и материальным потребностям. Поэтому можно сказать, что психология профессии древняя наука, которая отвечала на вопросы как выбор профессии, профессиональное мастерство и взаимоотношения в профессиональной деятельности.

Актуальные вопросы профессиональной подготовки в высшем образовательном учреждении, обеспечения нужных условий для специалистов-психологов, профессионально-важных качеств личности психолога в целом изучены учёными Содружества Независимых Государств, как: Э. Ф Зеер, Е.А.Климов, А.К. Маркова, И.А.Вишняков, А.Г.Волкович, М.А.Егорова А.А.Жигулин, Г.У.Матушанский, С.П. Попова и др.

К профессионально-важным качествам психолога относятся комплекс индивидуально-психологических особенностей, способствующих выполнению профессиональных задач и личностно-профессиональному росту.

Самоорганизация является ключевым качеством для успешного профессионала в области психологии. Работа с клиентами, исследовательская деятельность, участие в тренингах и супервизиях требуют четкого планирования, умения управлять своим временем и ресурсами. Хорошо организованный специалист эффективно распределяет рабочие нагрузки, поддерживает высокий уровень продуктивности и минимизирует вероятность профессионального выгорания.

Планомерность – это способность действовать в соответствии с заранее определенной структурой и логикой. В работе психолога важно уметь четко следовать плану диагностики, консультирования или психотерапии, не сбиваясь с курса. Специалист, обладающий планомерностью, строит долгосрочные стратегии взаимодействия с клиентом, обеспечивает систематичность и последовательность в работе, что повышает эффективность оказанной помощи.

Методы эмпирического исследования. Рассмотрение ценностей как социального фундамента в формировании субъектно-профессиональной структуры личности позволяет подчеркнуть их роль в профессиональном самоопределении и социальной адаптации в будущей профессиональной деятельности.

Следующим задачей в ходе эмпирического исследования было выявление и взаимосвязь особенностей ПВК студентов-психологов при профессиональном обучении. Мы выдвигаем гипотезу о том, что личностные черты влияют на когнитивные и поведенческие аспекты ценностных ориентаций, включая профессиональные установки.

В процессе исследования использованы следующие психодиагностические методы «Ценностные ориентации» Шварца и «Контроль за действием» Ю.Куля.

По тесту Колмогорова Смирнова для проверки на нормальность распределения в программе SSPS 26. При проверке надёжности у части шкал были обнаружены достаточно высокие показатели коэффициента альфа Кронбаха, в тех случаях если коэффициент альфа Кронбаха был низким и неприемлемыми, из шкалы удалялись пункты, значимо понижающие надёжность.

Таблица-1

**Корреляция между шкалами ценностных ориентаций с контролем за действием  
(n=254)**

	Планирование	Реализация	Неудача
Конформность	-0.047	0.106	0.184
Традиции	-0.071	0.097	0.220
Доброта	-0.087	-0.041	0.324
Универсализм	-0.017	-0.009	0.316
Самостоятельность	0.024	0.107	0.212
Стимуляция	-0.016	0.116	0.177
Гедонизм	0.050	-0.094	0.204
Достижения	-0.032	0.022	0.198
Власть	0.054	0.035	-0.014
Безопасность	-0.033	0.001	0.286

Результаты. Между шкалами методик Куля и Шварца были обнаружены статистически значимые прямые взаимосвязи между следующими переменными:

Неудача и Доброта ( $r = 0.324$ ,  $p < 0.05$ )

Неудача (в самоуправлении) может быть связана с низким уровнем саморегуляции, трудностями в управлении своими эмоциями, стрессом и неспособностью эффективно контролировать свои поступки и реакции. Люди, у которых выражены проблемы в области самоуправления, могут испытывать трудности с соблюдением планов, контролем над собственными действиями и эмоциями, что может приводить к частым неудачам и разочарованиям.

С другой стороны, доброта как личностное качество предполагает умение проявлять заботу, внимание и понимание к другим людям, готовность помогать и поддерживать окружающих. Люди с высоким уровнем доброты обычно более эмпатичны, чувствительны к потребностям других и готовы выходить на помощь в трудных ситуациях.

В контексте работы психолога в психологической науке, где требуется не только профессиональные навыки и знания, но и эмпатия, понимание и поддержка клиентов и коллег, сочетание неудачи в самоуправлении с высоким уровнем доброты может иметь важное значение. Возможно, что люди, испытывающие трудности в самоуправлении, более чутки к чужим проблемам и более склонны оказывать поддержку и помощь другим людям как способ компенсации своих личных слабостей.

Такая динамика может привести к тому, что психологи с трудностями в самоуправлении могут активнее проявлять доброту в своей работе, быть более отзывчивыми к нуждам клиентов и коллег, а также более готовыми к сотрудничеству и поддержке. Это может

способствовать развитию более гармоничных и доверительных отношений в коллективе и с клиентами, а также повышению эффективности профессиональной деятельности.

Неудача и Универсализм ( $r = 0.316$ ,  $p < 0.05$ )

Положительная связь между неудачей в самоуправлении и ценностями универсализма может быть объяснена следующим образом:

1. Эмпатия и понимание: Люди с проблемами в самоуправлении могут быть более чуткими к чужим проблемам из-за собственного опыта борьбы с эмоциональными и поведенческими сложностями. Это может способствовать развитию эмпатии и понимания к нуждам других людей, что соответствует ценностям универсализма.

2. Потребность в поддержке: Люди, испытывающие трудности в самоуправлении, могут осознавать важность поддержки и помощи со стороны окружающих. Такая потребность может быть связана с ценностями универсализма, где важным является благополучие и поддержка всех членов общества.

3. Компенсация личных слабостей: Возможно, что люди с неудачами в самоуправлении стремятся компенсировать свои личные слабости через активное проявление заботы и помощи другим. Это может быть способом компенсации своих собственных сложностей путем оказания поддержки и помощи другим людям.

Выводы. Полученные результаты имеют практическую значимость, они расширяют представления о том, как личностные черты, ценностные ориентации и эмпатия взаимодействуют при формировании профессионально важных качеств.

Следовательно, нужно применять психодиагностический комплекс в учебном процессе для изучения динамики развития профессионально-важных качеств студентов-психологов и выявления изменений в их личностных и социальных характеристиках, что, в свою очередь, способствует улучшению учебного процесса и адаптации студентов к реальной профессиональной практике.

Необходимо внедрить мониторинг развития профессионально-важных качеств студентов в учебный процесс высшего учебного заведения с систематическим отслеживанием изменений в социальных и психологических аспектах личностного роста студентов, и своевременной корректировке образовательных программ и методов, отвечающей требованиям профессии.

#### Литература:

1. Вишняков И.А. Условия подготовки профессионального психолога в вузе. // Вопросы профессионализма: психология, методология, практика: Сборник научных статей. - Омск: изд-во Ом ГПУ. - 2003. - 292 с.
2. Волкович А.Г. Подходы к определению модели профессионально важных качеств практического психолога. // Психологические аспекты профессионального становления: Сборник материалов Всероссийской межвузовской научной конференции. - М.: РИПО ИГУМО и ИТ, 2009. - С. 35-40.
3. Егорова М.А. Модель профессиональной подготовки специалиста-психолога для системы образования. // Психологическая наука и образование. 2003. - № 4. - С. 89-96.
4. Зеер Э. Ф. Транспрофессионализм субъектов социально-профессиональной деятельности [Электронный ресурс] / под ред. Э. Ф. Зеера, В. С. Третьяковой. Екатеринбург, 2019
5. Жигулин А.А. Профессионально-значимые качества психолога. // Территория науки. 2014. - №2. - С. 30-34.
6. Климов Е.А. Психология профессионала. М., 2005. – 400 с.
7. Маркова А. К. Психология профессионализма. М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996 г.
8. Матушанский Г.У. Соотношение процессов подготовки психолога и особенностей профессиональной деятельности. // Психологическая наука и образование. - 2003. - №2. - С. 67-70.
9. Попова С.П. Особенности процесса профессиональной подготовки психологов в вузе. // Проблемы национальной безопасности России. Саратов: Научная книга, 2004. - С. 150-155.

## O'QUV MUHITINING STRESS OMILLARINING TALABALARNING KOGNITIV SOHASIGA TA'SIRINI PSIXOFIZIOLOGIK O'RGANISH

Sayfutdinova Nasiba Nurmamatovna,  
ISFT instituti katta o'qituvchisi

*Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muhitidagi stress omillarining talabalar kognitiv funksiyalariga (diqqat, xotira, fikrlash) psixofiziologik ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda Spielberger (STAI) va Xolms-Rey (LCU) shkalalari asosida talabalar o'rtasida shartli so'rovlar o'tkazilgan. Natijalar stress va tashvish darajasi bilan kognitiv samaradorlik o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.*

*Kalit so'zlar: Stress, kognitiv funksiyalar, tashvish, talabalar, psixofiziologiya, STAI, LCU.*

## PSYCHOPHYSIOLOGICAL STUDY OF THE IMPACT OF ACADEMIC STRESSORS ON STUDENTS' COGNITIVE FUNCTION

*Abstract. This article analyzes the psychophysiological impact of stress factors within the educational environment on students' cognitive functions (attention, memory, thinking). A conditional survey was conducted among students using the Spielberger State-Trait Anxiety Inventory (STAI) and the Holmes and Rahe Life Change Units (LCU) scales. The results indicate a negative correlation between levels of stress and anxiety and students' cognitive performance.*

*Keywords: Stress, cognitive functions, anxiety, students, psychophysiology, STAI, LCU.*

## ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СТРЕССОВЫХ ФАКТОРОВ УЧЕБНОЙ СРЕДЫ НА КОГНИТИВНЫЕ ФУНКЦИИ СТУДЕНТОВ

*Аннотация. В данной статье рассматривается психофизиологическое влияние стрессовых факторов учебной среды на когнитивные функции студентов (внимание, память, мышление). Исследование проводилось с использованием шкал Spielberger (STAI) и Холмса-Рея (LCU) на основе условного опроса студентов. Результаты показывают наличие отрицательной корреляции между уровнем стресса и тревожности и когнитивной эффективностью студентов.*

*Ключевые слова: стресс, когнитивные функции, тревожность, студенты, психофизиология, STAI, LCU*

**Kirish (Introduction).** Zamonaviy ta'lim tizimi global raqobat, raqamli texnologiyalar va yuqori samaradorlik talablarining kesishgan nuqtasida rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayonda talabalar o'zlashtirish darajasi, baholash tizimi, vaqt taqsimoti, ijtimoiy kutishlar va kelajakdagi karyera istiqbollari kabi omillar bilan bog'liq bo'lgan turli tashqi va ichki stress manbalariga duch kelmoqdalar (Adubale, 2020). Ushbu omillar natijasida yuzaga keluvchi akademik stress talabalarining nafaqat emotsional holati, balki kognitiv funksiyalari — ya'ni idrok, diqqat, fikrlash va xotira tizimlariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Akademik stressning fiziologik asoslari kortizol kabi glukokortikoid gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi bilan bog'liq. Ushbu gormonlar prefrontal korteks va hipokampus faoliyatini susaytirishi natijasida diqqatni jamlash, axborotni kodlash va eslab qolish jarayonlarida pasayish kuzatiladi (Almarzouki, 2024). Bu esa talabalarining o'quv jarayonidagi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, akademik stress bilan kognitiv faoliyat o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, stress darajasi kamaygan sayin, talabalar bilimni o'zlashtirishda yaxshiroq natijalarga erishadilar (Priya et al., 2021).

Bundan tashqari, akademik stress talabalarining emotsional barqarorligiga ham bevosita ta'sir qiladi. Emotsional nomutanosiblik, xavotir, tushkunlik va ijtimoiy ajralish kabi holatlar stress

bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu holatlarning ko‘payishi psixologik farovonlikni pasaytiradi hamda ijtimoiy moslashuvga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi (Pradana & Tentama, 2020). Akademik stressning bu ko‘p qirrali ta‘siri uni chuqur o‘rganishni zarur qiladi.

Mazkur tadqiqotda ta‘lim muhitida yuzaga keluvchi stress omillarining talabalarning kognitiv salohiyatiga ta‘siri psixofiziologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida ta‘lim jarayonida stressni kamaytirish va talabalar samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilishi rejalashtirilgan. Ushbu tadqiqot ta‘lim psixologiyasi va sog‘lom ta‘lim muhitini yaratish yo‘lida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda talabalar orasida kuzatiladigan akademik stress va uning kognitiv funksiyalarga ta‘siri psixofiziologik yondashuv orqali tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologiyasi ishtirokchilar tanlovi, o‘lchov vositalari va statistik tahlil bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

### 2.1. Ishtirokchilar

Tadqiqotda O‘zbekistonning turli oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan 25 nafar (erkak va ayol) bakalavriat bosqichi talabalar qatnashdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida jalb qilindi va tadqiqotdan oldin ulardan rozilik olindi. So‘rovlar anonim tarzda o‘tkazildi hamda axloqiy me‘yorlar, jumladan, shaxsiy ma‘lumotlarning maxfiyligi va ishtirokchilarning ixtiyoriy roziligi qat‘iy ravishda ta‘minlandi.

### 2.2. O‘lchov vositalari

Tadqiqotda quyidagi psixometrik vositalar va subyektiv baholash shkalalari qo‘llanildi:

Spilbergerning Tashvish O‘lchovi (STAI) – Reaktiv (holatga bog‘liq) va shaxsiy (doimiy) tashvish darajasini aniqlash uchun qo‘llanildi. Har bir bo‘lim 20 ta itemdan iborat bo‘lib, umumiy ballar diapazoni 20 dan 80 gacha bo‘ladi. Yuqori ball – yuqori tashvish darajasini anglatadi.

Xolms-Rey Hayotiy Hodisalar Shkalasi (LCU) – Ishtirokchilarning so‘nggi 12 oy ichida boshdan kechirgan hayotiy stress omillari baholandi. Ushbu o‘lchov stress yuklamasini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi.

Subyektiv baholash shkalalari – Diqqat va xotira darajasi ishtirokchilar tomonidan 1 dan 10 gacha bo‘lgan ballik Likert shkalasida mustaqil baholandi. 1 ball – past, 10 ball – yuqori kognitiv faoliyatni bildiradi.

### 2.3. Ma‘lumotlar tahlili

Tadqiqotda yig‘ilgan ma‘lumotlar SPSS statistik dasturi yordamida tahlil qilindi. Deskriptiv statistik ko‘rsatkichlar (o‘rtacha qiymat, standart og‘ish) yordamida ishtirokchilarning umumiy psixologik profili ishlab chiqildi. Shuningdek, Pearson korrelyatsiyasi orqali tashvish va hayotiy stress omillari bilan subyektiv diqqat hamda xotira baholari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi. Natijalarni yanada ravshan ifodalash uchun grafik vizualizatsiya usullari (gistogrammalar va nuqtali diagrammalar)dan foydalanildi.

Mazkur tadqiqotda talabalar orasida kuzatilgan akademik stress, tashvish darajasi va kognitiv funksiyalarni subyektiv baholash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi. Umumiy hisobda 25 nafar talabaning STAI (reaktiv va shaxsiy tashvish), LCU (hayotiy stress omillari) va kognitiv ko‘rsatkichlar (diqqat va xotira) bo‘yicha ma‘lumotlari tahlilga jalb etildi.

### 3.1. Korrelyatsiya natijalari

Pearson korrelyatsiyasi yordamida olib borilgan tahlillar quyidagi muhim statistik bog‘liqliklarni aniqladi:

STAI-RT (reaktiv tashvish) va diqqat o‘rtasida juda kuchli salbiy korrelyatsiya aniqlandi ( $r = -0.97$ ;  $p < 0.001$ ). Bu talabalar reaktiv tashvish darajasi ortishi bilan diqqatning subyektiv bahosi sezilarli darajada kamayishini ko‘rsatadi.

STAI-RT va qisqa muddatli xotira o‘rtasida ham shunga o‘xshash salbiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib,  $r = -0.95$ ;  $p < 0.001$ . Bu esa yuqori tashvish holati xotirani saqlash va chaqirish qobiliyatining pasayishiga olib kelishini anglatadi.

LCU (Xolms-Rey stress shkalasi) va diqqat o'rtasidagi korrelyatsiya ham sezilarli darajada salbiy bo'lib,  $r = -0.97$ ;  $p < 0.001$ . Bu hayotdagi stress omillari ortgani sari e'tibor jamlanishining susayishini ko'rsatadi.

LCU va qisqa muddatli xotira o'rtasidagi korrelyatsiya esa  $r = -0.97$ ;  $p < 0.001$  bo'lib, stress holatlari xotira faoliyatini pasaytirishini tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar gipotezalarni ( $H_1$  va  $H_2$ ) to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Reaktiv tashvish va hayotiy stress darajalari oshgan sayin, talabalar diqqat va xotirani pastroq baholaydilar, bu esa kognitiv salohiyatda sezilarli pasayishni anglatadi.

### 3.2. Vizualizatsiya

Tahlil natijalari grafik tarzda ham tasvirlandi. 1-rasmda STAI-RT va LCU ko'rsatkichlarining diqqat hamda xotira baholari bilan bog'liqligini ifodalovchi tarqalish diagrammalari keltirilgan. Har bir grafikda pastga qarab yo'naltirilgan regressiya chiziqlari mavjud bo'lib, bu korrelyatsiyalardagi pasayish tendensiyalarini yaqqol aks ettiradi. Ushbu diagrammalar statistik tahlil natijalarini vizual tarzda tasdiqlaydi.

### 3.3. Nazariy asoslar bilan muvofiqlik

Olingan empirik natijalar kognitiv tanqislikning stressga oid nazariyalarini (masalan, «cheklangan kognitiv resurslar» va «kognitiv aralashuv» modellari) tasdiqlaydi. Reaktiv tashvish va stress holatlari diqqatning barqarorligini buzadi, chalg'ituvchi stimullarga sezuvchanlikni oshiradi va qisqa muddatli xotira funksiyalarining zaiflashishiga olib keladi. Ushbu jarayonlar o'quv faoliyatida samaradorlikning pasayishiga sabab bo'ladi.

### 3.4. Gipotezalar bo'yicha xulosa

$H_1$  gipotezasi – «Akademik stress va kognitiv ko'rsatkichlar o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud» – statistik jihatdan ishonchli tarzda tasdiqlandi.

$H_2$  gipotezasi – «Reaktiv tashvish yuqori bo'lsa, kognitiv faoliyat subyektiv baholarda past bo'ladi» – to'liq qo'llab-quvvatlandi.

$H_3$  gipotezasi – «Stressga chidamliligi yuqori talabalar barqaror kognitiv ko'rsatkichlarga ega bo'ladi» – ushbu gipotezani to'liq baholash uchun chuqurroq regressiya tahlili talab qilinadi, biroq LCU past bo'lgan ishtirokchilarda ko'proq diqqat va xotira ballari qayd etilgan, bu  $H_3$  ni qo'llab-quvvatlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot natijalari talabalar orasida yuqori darajadagi akademik stress va reaktiv tashvish holatlari bilan kognitiv funksiyalar — xususan diqqat va qisqa muddatli xotira — o'rtasida kuchli salbiy bog'liqlik mavjudligini aniq ko'rsatdi. Ushbu topilmalar mavjud psixologik nazariyalar, ayniqsa kognitiv tanqislik modeli (cognitive load theory) va cheklangan resurslar nazariyasi (limited capacity model) bilan to'liq mos keladi. Ularning ikkalasi ham stress va tashvish sharoitida insonning kognitiv resurslari cheklanishi natijasida muhim vazifalarni bajarish qobiliyati pasayishini ta'kidlaydi.

Kognitiv tanqislik nazariyasiga binoan, emotsional stress holatlarida inson ongli fikrlash, muammo yechish va eslab qolish uchun zarur bo'lgan ishlovchi xotira (working memory) resurslari kamayadi. Ayniqsa reaktiv tashvish holatlarida (masalan, imtihon paytida), kognitiv resurslarning katta qismi tashvishli fikrlar va salbiy ssenariylar ustida “band” bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida asosiy o'quv vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga olib keladi (Almarzouki, 2024).

Korrelyatsion tahlillar ushbu nazariyani dalillaydi: STAI-RT (reaktiv tashvish) va LCU (stressga oid hayotiy hodisalar) bilan diqqat va xotira baholari o'rtasidagi bog'liqlik juda kuchli salbiy koeffitsiyentlar bilan ifodalangan ( $r = -0.95$  dan  $-0.97$  gacha,  $p < 0.001$ ). Bu esa akademik stress ortgan sari talabaning idrokiy imkoniyatlari zaiflashishini bildiradi — ayniqsa diqqatni uzoq vaqt jamlay olmaslik, tez chalg'ish, va o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolishda qiyinchiliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi (Priya et al., 2021).

Boshqa tadqiqotlar ham bu xulosalarni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Alzyoud va hammualliflarining tadqiqotida akademik stress o'quvchilarning uch asosiy kognitiv bosqichlari — kodlash (encoding), konsolidatsiya (consolidation) va eslab chaqirish (retrieval) — ga salbiy

ta'sir ko'rsatishi aniqlangan (Alzyoud et al., 2021). Bundan tashqari, stress gormonlari (masalan, kortizol) hipokampus va prefrontal korteks faoliyatini susaytirishi, kognitiv ishlov berishning sifatini pasaytirishi mumkin (Almarzouki, 2024).

Tadqiqot gipotezalari ham to'liq tasdiqlandi:

H<sub>1</sub>: Subyektiv stress darajasi va kognitiv ko'rsatkichlar (diqqat, xotira) o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligi aniqlangan.

H<sub>2</sub>: Yuqori reaktiv tashvish darajalari past kognitiv samaradorlik bilan bog'liq.

H<sub>3</sub>: Stressga nisbatan nisbatan pastroq javob qaytargan talabalar barqarorroq kognitiv natijalar ko'rsatdi.

Bu holatlar talabalarning o'quv jarayonidagi umumiy samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular yangi bilimlarni qabul qilish, ularni eslab qolish va amalda qo'llash jarayonlarini murakkablashtiradi. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalari tomonidan stressni kamaytirish, emotsional salomatlikni qo'llab-quvvatlash, o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar ishlab chiqilishi muhimdir.

Tadqiqot natijalari o'qituvchilar, psixologlar va ta'lim siyosatshunoslari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim muhitida stress profilaktikasi, psixologik yordam xizmatlari va kognitiv salohiyatni oshiruvchi treninglar zaruratini ko'rsatadi. Shuningdek, individual psixologik farqlar (masalan, tashvishga moyillik yoki stressga chidamlilik darajasi) ham hisobga olinishi kerak. Bu holat keyingi tadqiqotlarda ko'proq e'tibor berilishi lozim bo'lgan yo'nalishlardan biridir.

Mazkur tadqiqot zamonaviy ta'lim tizimida talabalar duch kelayotgan akademik stress holatlarining kognitiv funksiyalarga — ayniqsa diqqat va qisqa muddatli xotira kabi asosiy psixik jarayonlarga — ta'sirini empirik asosda tahlil qilishga qaratildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori darajadagi reaktiv tashvish (STAI-RT) va hayotiy stress omillari (LCU) mavjud bo'lgan sharoitda talabalar o'z kognitiv salohiyatini past baholaydilar. Bu holat o'quv faoliyatida diqqatni jamlay olmaslik, ma'lumotni eslab qolishdagi qiyinchiliklar, fikrlash sur'atining pasayishi va umumiy bilim o'zlashtirish ko'rsatkichlarining susayishiga olib kelmoqda.

Ushbu topilmalar stressga oid psixologik nazariyalar, jumladan kognitiv tanqislik modeli va cheklangan resurslar nazariyasi bilan bevosita mos keladi. Bu nazariyalarga ko'ra, kuchli emotsional stress holatlarida insonning psixik resurslari — ayniqsa ishlovchi xotira va diqqat tizimi — haddan tashqari zo'riqadi. Bunday sharoitda shaxs o'z resurslarini o'quv faoliyatiga emas, balki tashvishli fikrlarni qayta ishlashga yo'naltiradi. Natijada nafaqat kognitiv samaradorlik, balki emotsional holat ham izdan chiqadi, bu esa akademik muvaffaqiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari ta'lim tizimi ishtirokchilari — xususan o'qituvchilar, psixologlar va ta'lim muassasasi rahbarlari — uchun muhim amaliy xulosalarni beradi. Quyida stressni boshqarish va talabalarning kognitiv farovonligini ta'minlashga qaratilgan asosiy tavsiyalar keltirilgan:

1. Stress yukini kamaytirishga qaratilgan tizimli yondashuvlar.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv yuklamasi va baholash tizimining me'yorlashtirilishi, imtihonlar va topshiriqlar oraliq'ida dam olish imkoniyatlarining yaratilishi hamda dars jadvali va baholash siyosatining talabalar salomatligi bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi muhimdir.

2. Psixologik yordam tizimini mustahkamlash

Universitetlarda psixologik xizmat ko'rsatish infratuzilmasini kengaytirish, malakali mutaxassislarni jalb qilish va stressni kamaytirish bo'yicha doimiy treninglar — masalan, mindfulness mashg'ulotlari, stress management seminarlar, nafas nazorati va meditatsiya asoslari — yo'lga qo'yilishi lozim.

3. Stressga chidamlilik va emotsional barqarorlikni rivojlantirish

Talabalarda ijobiy psixologik kompetensiyalarni — masalan, muammoli vaziyatlarga ijobiy yondashuv, moslashuvchan fikrlash, self-efficacy (o'ziga ishonch) va emotsional o'zini boshqarish — rivojlantirish uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

#### 4. O'qituvchilarning psixopedagogik tayyorgarligini kuchaytirish

Pedagoglarning stressga nisbatan sezgir talabalarni aniqlash, ularga individual yondashuv asosida yordam ko'rsatish, stress yukini kamaytiruvchi o'qitish uslublarini qo'llash bo'yicha malakasini oshirish muhimdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ruhiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim vositachi sifatida ham faoliyat yuritishi kerak.

#### 5. Institut darajasida strategik qarorlar qabul qilish

Ta'lim siyosatini belgilovchi mutasaddilar tomonidan stressni kamaytirishga qaratilgan davlat darajasidagi konsepsiyalar ishlab chiqilishi lozim. Bu konsepsiyalar o'z ichiga akademik yuklama, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash va talabalar salomatligini kompleks tarzda boshqarish strategiyalarini olishi zarur.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, talabalarning akademik stressga bo'lgan sezuvchanligi ularning kognitiv imkoniyatlari — ayniqsa, diqqat va xotira faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, bu esa o'quv samaradorligining pasayishiga, motivatsiyaning kamayishiga va umumiy psixologik farovonlikning izdan chiqishiga olib keladi. Ushbu holatni yumshatish uchun ta'lim tizimida faqat akademik emas, balki psixologik va emotsional omillarni ham inobatga oluvchi kompleks yondashuv zarur. Stressni boshqarish, emotsional barqarorlikni ta'minlash va salomatlikni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish orqali nafaqat individual, balki tizimli ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Spielberger C.D. (2002). STAI qo'llanmasi. SPb.: Rech
2. Holmes T.H., Rahe R.A. (1967). Journal of Psychosomatic Research
3. Lazar R.S. (2001). Stress va hissiyotlar.
4. Shapkin S.A. (2013). Psixofiziologiya. SPb.: Piter
5. Kirillova E.A., Bocharova S.A. (2020). Psixologiya va pedagogika xabarnomasi
6. Komissarov A.A., Ivanitskiy A.M. (2018). Neyrofiziologiya masalalari
7. Smirnov S.D., Andreeva I.N. (2021). Oliy ta'lim psixologiyasi

## TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK MASHG'ULOTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Shamshetova A.K.,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, pedagogika va psixologiya kafedrasini professori,  
psixologiya fanlari doktori (DSc)

*Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida amaliy psixologik mashg'ulotlarni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Unda talabalarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, psixologik xizmat samaradorligini oshirish, mashg'ulotlar mazmunini amaliy ehtiyojlarga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Shuningdek, psixologik yordamning sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion metodlar va psixotexnika vositalarining amaliy qo'llanilishi ham yoritilgan. Maqola oliy ta'limdagi psixologik xizmatni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy qarashlarni o'zida mujassam etgan.*

*Kalit so'zlar. Amaliy psixologiya, talaba yoshlar, psixologik xizmat, o'z-o'zini baholashi, talaba motivatsiyasi.*

*Аннотация. В данной статье рассматриваются современные подходы к проведению практических психологических занятий в высших учебных заведениях. Представлены рекомендации по укреплению психического здоровья студентов, повышению эффективности психологической службы и адаптации содержания занятий к практическим потребностям. Также освещается применение инновационных методов и психотехнических средств для повышения качества психологической помощи. Статья сочетает в себе научные и практические взгляды на совершенствование психологической службы в системе высшего образования.*

*Ключевые слова. Прикладная психология, студенческая молодежь, психологическая служба, самооценка, мотивация студентов.*

*Annotation. This article explores modern approaches to conducting practical psychological training in higher education institutions. It provides recommendations for enhancing students' mental well-being, increasing the effectiveness of psychological services, and aligning training content with real-life needs. The paper also highlights the practical use of innovative methods and psychotechnical tools aimed at improving the quality of psychological support. It offers both scientific and practical insights into advancing psychological services in higher education.*

*Keywords. Applied psychology, student youth, psychological service, self-assessment, student motivation.*

Bugungi kunda inson hayotini yaxshilash, samarali muloqot qilish, muammolarni hal etish, va ruhiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur vosita hisoblanadi. «Amaliy psixologiya bugungi kunda» mavzusi juda dolzarb va zamonaviy hisoblanadi. Chunki hozirgi kunda jamiyat tez o'zgarimoqda, stress, ruhiy zo'riqish, sotsial muammolar, texnologiyalar ta'siri kabi omillar insonning ruhiy holatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilmoqda. Ana shunday sharoitda amaliy psixologiyaning roli yanada ortib bormoqda. Yangi asrda odamlarning e'tiborini tobora ko'proq odam bilan bog'liq fanlar jalb qilmoqda. Hozirgi kunda amaliy psixologiyaga qiziqish katta va tasodifiy emas va jamiyat juda sekin bo'lsa-da, aslida shaxs bilan bog'liq bo'lgan barcha psixik jarayonlarini va uning holatini o'rganish, inson resurslarini, ongli harakatini, tashabbusini qadrlay boshlaydi, mustaqil fikr yoki fikr erkinligi, faolligi hamda qobiliyatini farqlay boshladi.

Bugungi sivilizatsiyaning negizi inson resurlariga bog'liq ekanligini olimlar ta'kidlab o'tishadi, insoniyatni barcha yutuqlari va kamchiliklari negizida ham inson psixologiyasining alohida o'rnini belgilab beradi.

Psixologiyaning amaliy yo'nalishi insonni ichki aqliy olami va insonning ma'naviy rivojlanishi

haqidagi fan deb ham ta'kidlab o'tishgan [1].

Bizning murakkab hayotimiz, xilma-xil hayotimiz doimo inson uchun ham professional, ham shaxsiy juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq va inson yaratilgan qarama-qarshi hayotiy vaziyatlardan chiqish yo'lini izlaydi. Uni qanday topasiz? Balki, buni sinov va xato bilan amalga oshirish mumkin, ammo bu katta miqdordagi ruhiy zo'riqishlarni, yo'qotishlar, iqtisodiy xarajatlar bilan bog'liq eng qiyin muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Ijtimoiy ish tizimida amaliy psixologiyaning maqsadi ilmiy intizom sifatida talabalarning psixologik ish amaliyotida qo'llaniladigan mazmun va asosiy usullar haqidagi fikrlarini shakllantirishdir, bu esa nazariy kurslar doirasida olingan ma'lumotlarni refleksiv tahlil qilishga imkon beradi. Vigotskiy birinchi marta atrof-muhitning rivojlanish ahamiyati haqidagi bayonotida atrof-muhitning o'ziga xos ta'sir mexanizmini aniqlashni aytgan edi, bu aslida bolaning psixikasini o'zgartiradi va odamlarga xos aqliy funksiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday mexanizm Vigotskiy o'zi boshqa odamlarning xatti-harakatlarini nazorat qilish uchun mo'ljallangan amaliy ravishda yaratilgan inson stimullarini interiorizatsiyalashni ko'rib chiqdi. Rus psixologi Vigotskiy fikrlarida shaxsni psixik taraqqiy etishida ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olgan holda amaliy vazifalarni ham belgilab olish kerakligini ta'kidlagandi.

Amaliy psixologiyaning nazariyasining vazifasi ijtimoiy amaliyotga ilmiy xizmat ko'rsatish, amaliy psixologning kasbiy faoliyatini metodik ta'minlashdan iborat. Amaliy psixologiyaning asosiy vazifasi standartlashtirilgan ijtimoiy-psixologik usullar bilan foydalanishga qaratilgan psixologik amaliy yordam ko'rsatish.

Psixologiyada XIX asrning ikkinchi yarmida eksperimental intizom sifatida rivojlanishining boshidan boshlab har doim tadqiqot va ularni qo'llashning amaliy jihatlari o'rtasida muayyan muammolar mavjud edi. Shunday qilib, amaliy psixologiya fanining predmeti odamlarga o'z bizneslari va hayot qiyinchiliklari haqida malakali psixologik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan uslubiy va tashkiliy muammolar.

Amaliy psixolog mutaxassisiga tashrif buyurishida inson ruhiyati bilan bog'liq muammolarni hal qilishga mo'ljallangan fan ekanligini tushunamiz. Fanni yo'nalishlari umumiy jihatdan quyidagicha:

maslahat berish xizmatlari;

psixologik tashxis quyish, (testlar, anketalar va boshqa metodlar);

psixokorreksiya qilishi.

Amaliy psixologiya psixologiyaning amaliyotga xizmat qiladigan barcha sohalarini birlashtiradi. Uning eng keng tarqalgan maqsadi qiyinchiliklarga duch kelgan odamlarga yordam berish.

Amaliy psixologiya muammolarning uch xil darajasini hal qiladi:

Tadqiqot-turli ijtimoiy tizimlarda psixologik bilimlarni qo'llash texnologiyalari, usullari va usullarini ishlab chiqish uchun shaxsni rivojlantirish va shakllantirish modellarini o'rganish.

Amaliy vazifalar-maxsus o'quv dasturlari, amaliy psixologiyaga oid uslubiy materiallar ishlab chiqish, bunday tadbirlarning me'yoriy hujjatlari loyihalarini yaratish.

Amaliy vazifalar bevosita psixolog-amaliyotchining kasbiy faoliyati joyida belgilanadi.

Amaliy psixolog ruhiy hodisalar va ularning qonuniyatlarini o'rganadi. Ularni boshqarishni, zarur sifatlarini rivojlantirishni va patologik hodisalarni to'xtatishni o'rganadi.

Amaliyotchi psixolog psixodiagnostikani ham olib boradi, psixologik maslahatlarda – shaxsiy va oilaviy masalalarga oydinlik kiritadi, shaxsni, guruhlarni (shu jumladan oilalarni), kollektivlarni psixologik tuzatishlarni amalga oshiradi, muayyan odamlarga psixologik yordam beradi, psixoprofilaktik tadbirlarni o'tkazadi, psixodiagnostik ma'lumotlarga asoslangan xodimlarni tanlaydi, xodimlarni boshqarish psixologiyasi asoslarini biladi va tashkilot, muassasa, firma rahbariyatiga yordam beradi. Amaliy psixologning vazifalarini hal qiladigan beshta faoliyat sohasi mavjud:

Psixoprofilaktika, tashkilot xodimlari yoki bolalarni ta'lim muassasasida, o'quv faoliyatida nuqsonlilikka yo'l qo'ymaslik, muassasada qulay psixologik iqlim yaratish, odamlarning psixologik yuklamasini oldini olish va olib tashlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Psixodiagnostika, shaxs yoki guruh haqida psixologik ma'lumot olish, umumlashtirilgan ilmiy

nazariya tashxizlar asosida aniq bilimlar, ma'lumotlarni berish.

Psixokorreksiya, mijoz ruhiyatining muayyan sohalariga maqsadli ta'sir ko'rsatib, psixologik tuzatishlar kiritish, hamda yoshiga, jinsga mos keladigan psixokorreksion dasturlarni, amaliy tavsiyalarni, yo'l yo'riqlarni ishlab chiqish;

Psixologik maslahat, insonni zarur psixologik axborot bilan ta'minlash va shart-sharoitlar yaratish-psixolog bilan muloqot natijasida-hayotning qiyinchiliklarini samarali bartaraf yetishga qaratilgan maslahatlar berishdir [2];

Psixoterapiya -psixologik kasalliklar ko'rinishlari bo'lmagan jiddiy psixologik muammolari bo'lgan mijozga sog'lom psixologik amaliy-klinik yordam berish. Inson ruhiyatiga psixologik yordam shakli hamda tegishli muammolarni o'rganuvchi tibbiy-amaliy psixologiya sohasi.

Amaliy psixologiyaning sanab o'tilgan sohalar psixologning kasbiy faoliyati natijalari uchun mas'uliyatining ortib borishi va ish jarayonida qo'llaniladigan vositalar majmuasining murakkabligiga ko'ra tartibga solinadi. Yo'nalishlar o'rtasidagi farqlarni psixolog tomonidan qo'llaniladigan vositalarni standartlashtirish darajasini ham ko'rish mumkin [3].

Psixodiagnostika, psixologik maslahat va psixoterapiya eng kam standartlashtirilgan yo'nalish, chunki ular psixologning ijodkorligi va har bir muayyan holatda favqulodda yechimlarni doimiy ravishda izlashni talab qiladi va sohani ta'minlaydi. Keng ma'noda amaliy psixologiyaning vazifalari quyidagilarga kamaytiriladi:

ruhiy hodisalarning mohiyatini va ularning qonuniyatlarini anglashni o'rganing;

ularni boshqarishni o'rganing;

olingan bilimlardan amaliyot tarmoqlarining samaradorligini oshirish uchun boshqa tarmoqlar bilan integratsiyalashgan holda joyida foydalanish

Ruhiy hodisalar qonuniyatlarini o'rganar ekan, psixologlar ob'ektiv olamning inson miyasida aks etish jarayonining mohiyatini ochib beradilar, inson harakatlari qanday tartibga solinishini, aqliy faoliyat qanday rivojlanishi va shaxsning ruhiy xususiyatlari shakllanishini bilib oladilar. Psixika, shaxs ongi ob'ektiv voqelikni aks ettirar ekan, psixologik qonuniyatlarni o'rganish, avvalo, ruhiy hodisalarning inson hayoti va faoliyatining ob'ektiv shart-sharoitlariga bog'liqligini o'rnatish demakdir.

Biroq, har qanday faoliyat har doim tabiiy ravishda insonning hayoti va faoliyatining ob'ektiv shart-sharoitlari bilan emas, balki ba'zan sub'ektiv holatlar bilan ham belgilanadi (insonning munosabati, shaxsiy tajribasi, bu faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarda ifodalangan), psixologiya ob'ektiv sharoitlar va sub'ektiv momentlar nisbatiga qarab faoliyatni amalga oshirish xususiyatlarini va ularning samaradorligini aniqlash vazifasi bilan duch keladi.

Shunday qilib, bilish jarayonlari (sezgilar, idroklar, fikrlash, tasavvur, xotira) qonuniyatlarini o'rnatish orqali psixologiya o'quv jarayonining ilmiy qurilishiga ko'maklashadi, ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv materialini mazmunini to'g'ri aniqlash imkoniyatini yaratadi. SHaxs shakllanishi qoliplarini aniqlab, psixologiya pedagogikaga ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri qurishda ko'maklashadi.

Amaliy psixologiya barcha psixologik nazariyalarni amaliyotda qullash, yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni asosli izohlash, insonlarga amaliy yordam ko'rsatishga qaratilgan bir qator muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Barcha sohalarida insonlarga va ularni mehnat faoliyatida psixologik xizmatni tashkil etishdan boshlanadi.

Adabiyotlar:

Активные методы обучения педагогическому общению и его оптимизация //Под ред. А.А. Бодалева, Г.А. Ковалева. – М.,1983.

Безруких М.М. Прописи для леворуких детей. – М., 1997.

Бурменская Г.В., Карабанова О.В., Лидерс А.Г. Возрастно-психологическое консультирование. – М., 1990.

## **JINOYATCHILIKNI ANIQLASHDA KRIMINAL PROFAYLING USULINING AHAMIYATLI JIHATLARI**

*Qodirov Mirzaakram Sobirjonovich,*

*O'zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatchilarning psixologik portretini tuzish orqali jinoyatlarni fosh etish usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, kriminal profaylingning nazariy asoslari, rivojlanish tarixi, xorijiy davlatlar tajribasi, jumladan, AQSh, Kanada va Germaniyada qo'llanilayotgan VICAP va VICLAS dasturlari tahlil etilgan. Jinoyatchilarning xatti-harakatlari asosida ularning psixologik portretini tuzish yo'llari, ayniqsa agressiv psixotiplarning (isteroid, epileptoid, paranoid, shizoid) xususiyatlari chuqur yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: profayling, profil, psixologik portret, jinoyat, kriminal, psixotip, isteroid, epileptoid, paranoid, shizoid.*

## **ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДА КРИМИНАЛЬНОГО ПРОФИЛИРОВАНИЯ В РАСКРЫТИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ**

*Кодиров Мирзаакрам Собиржонович,*

*Доцент Международной исламской академии Узбекистана, доктор философии (PhD) по психологическим наукам*

*Аннотация. В данной статье рассматриваются методы раскрытия преступлений путём составления психологического портрета преступников и предупреждения преступности. Также проанализированы теоретические основы криминального профайлинга, история его развития и зарубежный опыт, в частности, программы VICAP и VICLAS, применяемые в США, Канаде и Германии. Подробно раскрыты способы составления психологического портрета на основе поведения преступников, особенно характеристики агрессивных психотипов (истероидного, эпилептоидного, параноидного, шизоидного).*

*Ключевые слова: профилирование, профиль, психологический портрет, криминал, преступник, психотип, истероид, эпилептоид, параноид, шизоид.*

## **SIGNIFICANT ASPECTS OF THE CRIMINAL PROFILING METHOD IN CRIME DETECTION**

*Kodirov Mirzaakram Sobirjonovich,*

*Associate Professor at the International Islamic Academy of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences*

*Annotation. This article is dedicated to studying methods of solving crimes by profiling criminals and preventing criminal activity. It also analyzes the theoretical foundations of criminal profiling, its historical development, and international experience, particularly the VICAP and VICLAS programs used in the USA, Canada, and Germany. The article provides a detailed examination of methods for constructing psychological profiles based on offenders' behavior; with a focus on the characteristics of aggressive psychotypes (hysterooid, epileptoid, paranoid, schizoid).*

*Keywords: profiling, profile, psychological portrait, crime, criminal, psychotype, hysterooid, epileptoid, paranoid, schizoid.*

**KIRISH.** Insoniyat taraqqiyoti davomida jinoyatchilikni oldini olish, uni sodir etganidan ko'ra har tomonlama ustun ekanligi kuzatilgan. Hozirgi kunda ham jinoyatlarining oldini olish ularni sodir etgan shaxslarni jazolash orqali jinoyat-chilikka qarshi kurashdan ko'ra har tomonlama yaxshidir. Bu borada mashhur fransuz mutafakkiri Charl Lui Montesyo o'zining "Qonun ruhi

haqida”gi falsafiy-huquqiy asarida shunday fikr bildirgan: “Aqlli qonun chiqaruvchi jinoyat uchun jazo berish haqida emas, jinoyatlarining oldini olish haqida qayg’uradi, ya’ni u jinoyat uchun jazolashga emas, balki axloqni yaxshilashga harakat qiladi”.

Inson xulqi murakkab va ko’p qirrali hodisa bo’lib, uni o’rganishda tizimli yondashuv va ehtimol tutilgan jarayonlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarga ega bo’lish talab qilinadi. Har bir axloqiy hodisaning mohiyati uning shaxs xulqining umumiy tuzilishidagi o’rni bilan bog’liq. Individual rivojlanish jarayonida axloqiy tizimlar individual axloqiy strategiyaning murakkab majmuiga aylanadi va shaxsning axloqiy tipini hosil qiladi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko’plab ilmiy nashrlarda huquq-tartibot va huquqni muhofaza qilish faoliyatida zo’ravonlik jinoyatlarini sodir etgan shaxslarning shaxsi va xulq-atvori haqidagi bilimlarni qo’llash muammolari muhokama qilinmoqda. Xorijiy tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kasbiy faoliyatini psixologik qo’llab-quvvatlashda yangi yo’nalishni paydo qilinishi kerakligini taqozo etmoqda. Ushbu yo’nalishda huquq-tartibot xodimlari jinoyatlarni aniqlashda, hal yetish va tergov qilish jarayonida foydalanish imkonini beradi. Gap psixologik usullar majmuidan foydalangan holda shaxslarning verbal va noverbal xatti-harakatlaridan xususiy belgilarini tahlil qilish asosida uning nima o’ylayotganligini, rost yoki yolg’on gapirayotganligini qisqa fursatlarda aniqlab olish texnikasi, ya’ni profayling metodi to’g’risida bormoqda.

Dastlab “profayling” atamasi jinoyat joyidagi izlar asosida noma’lum shaxsning qidiruv psixologik portretini (profilini) tuzishda qo’llanilgan.

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati doirasida ikki jabhada profayling ishlari olib borilmoqda. Birinchisi, kriminal profayling doirasida. 1888-yilda psixologik portret tuzishga dastlab uringanlardan biri britaniyalik jarroh Tomas Bond (chavaqlovchi Jek shaxsiga nisbatan qo’llagan) hisoblanadi. G’arbda shaxsni profillash 1985-yil-da Federal qidiruv byurosi (FBR)da P. Bruks va R.Ryossler rahbarligida zo’rlik ishlatilgan seriyali jinoyatlarni fosh etishga ko’maklashish maqsadida ishlab chiqilib, zo’ravon jinoyatchilarni ushlab ushlab VICAP (Violent Criminal Apprehension Program) dasturi doirasida qo’llanilgan. Zo’ravon jinoyatchilarni hibsga olish dasturining ishlashi zo’ravon tabiatga ega bo’lgan, maniakl xulq-atvorli shaxslarni ketma-ket jinoyatlarini aniqlashga yordam beradi. Avstriya, Germaniyada bunday dastur VICLAS (Violent Crime Linkage Analysis System) deb ataladi. Aslida, u hodisa joyida qoldirilgan izlar haqidagi barcha ma’lumotlar kiritilgan bazadir. Ushbu dasturning asosiy maqsadi tergovga ko’maklashish bo’lib, xulq-atvoriga oid ko’rsatkichlar aks etgan psixologik portret tuzishda namoyon bo’ladi. Unda juda muhim holat – jinoyatchining shaxsiy xislatlari emas, balki kutilayotgan xulqi ko’rsatiladi.

Profayling to’liq joriy etilguncha tergovchilar o’z ishlarida an’anaviy ravishda “modus operandi”ga (Modus operandi (lotincha –harakatlar obrazi) shaxsning muayyon vazifani bajarish usulini anglatadi; kriminologiya va sud-tibbiyot fanida jinoyatchining jinoyatini qay yo’sinda sodir etilganligini ko’rsatadi va uning psixologik qiyofasini yaratishda asos vazifasini o’taydi), ya’ni jinoyatchining ish uslubiga katta ahamiyat berishadi. Bunda jinoyatchining qilmishi pichoq yoki o’qotar quroldan foydalangan holda sodir etilganmi yoki jabrlanuvchini o’g’irlab ketganmi, shular nazarda tutilishiga e’tibor berishgan.

Misol uchun kriminalistika asoschisi Gans Gross jinoyatchining individual xususiyatlarini ular sodir etgan jinoyatlar orqali aniqlash kerakligini ta’kidlaydi. Xususan: o’g’irlik qilgan kishi jinoyat joyida o’zi haqida juda muhim bir xususiyatni “jinoyat sodir etish usuli”ni qoldiradi. Har bir o’g’ir o’zining “uslubiga” ega bo’lib, u kamdan-kam hollarda o’z uslubidan voz kechadi va odatda uni o’zgartirmaydi

O’zimiz ham to’liq tushunmaydigan sabablarga ko’ra, ketma-ket qotillik sodir etuvchi jinoyatchilarning barchasi erkaklardir. Ushbu holat bo’yicha ko’plab tadqiqotlar o’tkazilgan va tahmin qilingan. Bu ajib hodisaning sababi testosteron gormoni miqdori yuqori bo’lgan odamlar

(ya'ni erkaklar) ushbu gormon pastroq darajadagi odamlarga (ya'ni ayollarga) qaraganda tajovuzkorlikka ko'proq moyilligidir [7]. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaligida zo'ravonlikka uchragan erkaklar keyingi hayotida boshqalarga nisbatan shafqatsiz va zo'ravon bo'lib qolishadi, o'tmishi shunday kechgan ayollar esa g'azab va boshqalarni emas, o'zlarini jazolashadi. Erkak kishi o'zidagi g'azab olovi ta'sirida boshqa bir odamni o'ldirishi, zarar yetkazishi, zo'rqlashi mumkin ammo ayol g'azabini, avvalo, o'ziga aziyat yetkazuvchi o'shnalishga burib yuboradi, masalan alkogol yoki giyohvand moddalarga ruju qo'yishi yoki o'z joniga qasd qilishi mumkin.

Odatda, sud va kriminal psixologiya doirasida olib boriladigan tadqiqotlarda, gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlangan shaxsini o'rganish hajmi aniqlanadi, lekin bu shaxsni o'rganish hajmi yoki sxemasi, har qanday psixologik tadqiqot obyektiga taalluqli bo'lishi mumkin [11]: ijtimoiy-demografik ma'lumotlar; jinoiy-huquqiy ma'lumotlar; tibbiy ma'lumotlar; tashqi (jismoniy) ma'lumotlar; hayot yo'li; turmush tarzi; ahloqi; shaxsning yo'nalganligi; qobiliyatlari; mijozi; tabiati va boshqalar.

Xuquq tartibor organlarining amaliy faoliyatida jinoyatchini portretlash masalalari bilan bir qator xorijiy davlatlar: AQSH, Buyuk Britaniya, Kanadaning mutaxassislari shug'ullanishgan. Natijada bir nechta mustaqil modellar (profilar) yaratilgan: D.Rossmo geografik modeli (Kanada), D.Kanter modeli (Buyuk Britaniya), Federal qidiruv byurosining - FQB modeli (AQSH) [14].

AQSHdagi FQB Akademiyasining (Kvantiko, Virjiniya shtati) xulq-atvor fanlari bo'limi xodimlari tomonidan 1970-yillarning oxirida psixologik profillash dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu usulning ta'rifi R.Ressler tomonidan berilgan: "shaxsning umumiy tavsifini tashkil etuvchi, individumning barcha psixologik ta'riflarini, u tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tahlili asosida identifikatsiyalash jarayoni" [12]. Turli xildagi, shu jumladan terroristik tuzdagi jinoyatlarning kriminalistik tavsiflari, bir vaqtning o'zida qamoqdagi jinoyatchilarning shaxsiy va xulq-atvor fazilatlarini tadqiq etgan holda sinchiklab tahlil qilingan. Ushbu ma'lumotlarni taqqoslash, jinoyatni sodir etgan shaxsning belgilari va u tomonidan sodir etilgan jinoiy harakat belgilari o'rtasida statistik ahamiyatga ega aloqalarni o'rnatishga imkon berdi. Bir necha yillardan keyin, shaxsi aniqlanmagan jinoyatchilik psixologik profilini tuzish uslubi ishlab chiqildi. Ushbu uslubni amaliyotda qo'llash jarayonida jinoyat voqeligining xulq atvor rekonstruksiyasi amalga oshdi [8]. Ushbu muolaja ketma-ketlikda quyidagilarni o'z ichiga olgan:

- psixologik talqin nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni to'plash;
- jinoyatning umumiy ko'rinishida harakatlarni bajarish mantiqi va motivatsion tomonlarini aniqlash;
- jinoyatchi tomonidan bu yoki boshqa harakatlarni bajarish ketma-ketligini aniqlash;
- aybdorning tavsiflari va qidiruv belgilarini aniqlash;
- keyingi qidiruvni o'tkazish strategiyasi bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish [13].

Ko'rgazma misoli sifatida, jinsiy jinoyatlarni qidiruvini amalga oshirishda shaxsning profillanishini qo'llash amaliy tajribasi haqidagi ma'lumotlarni keltirish zarur. Yu.M.Antonyan, jinsiy jinoyatlarga, shaxsning jinsiy kechinmalari, jinsiy qiziqishlari va motivlari, jinsiy hayoti va uning jinsiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan, noqonuniy hayotdan mahrum qilish holatlarini kiritishni taklif qiladi. Bu qotilliklar, shahvoniy, masalan zo'rqlash kabi hatti-harakatlar bilan kuzatilmasa ham, o'zining ichki mazmuni va subyektiv ma'nosi bo'yicha aybdorning jinsiy hayoti, uning qarama-qarshi jinsdagi shaxslar bilan munosabatlari bilan shartlanadi. Bunday qotilliklarda jinsiy turtki (motivatsiya), jinoyatchi tomonidan o'z muddaosini aytish yoki qurbonning jinsiy a'zolari bilan manipulyatsiyalar, shu jumladan simvolik jinsiy harakatlarni bajarish darajasida kuzatiladi [4].

Ushbu muammoni xal etish uchun, kriminal hatti harakatning subyektiv psixologik tomoni elementlarini – jinoyatchining shaxsiy fazilatlarini aks ettiruvchi va jinoyatlar seriyasi doirasida ma'lum bir doimiylikda namoyon bo'luvchi uni xulq atvorining ba'zi bir jihatlarini o'rganish,

qidiruv jarayonida samarali hisoblanadi [16].

Asosiy metodolgik holat, jinoiy huquqbuzarlikni sodir etmoqchi bo'lgan shaxslar, o'zining tashqi qiyofasi, xulq-atvori, yo'l hujjatlari va o'zi bilan olib yurgan narsalarida shubhali belgilarning ma'lum bir yig'indisi mavjud bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu belgilarni o'rganish va tizimlashtirish ehtimoliy jinoyatchining profilini yaratish imkoniyatini berib, uning asosida har bir odam xavfsiz yoki ehtimoliy xavfli deb tasniflanishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan texnologiya doirasida o'tkazilayotgan barcha tadbirlar, ushbu bayonotni tasdiqlash yoki rad etishga qaratilgan. Shunga ko'ra, profayling deganda aniqlanmagan yoki ilgari aniqlanganlar toifasiga kiruvchi ehtimoliy xavfli shaxslarni aniqlash tushuniladi.

Profayling psixotexnikalariga tezkor muloqotni o'rnatish va zarur ma'lumotlarni olish maqsadida muloqot qilish va ehtimoliy jinoyatchiga ta'sir ko'rsatishning turli xil texnikalarini kiritish zarur. Tergovchi profaylingga oid bo'lgan barcha yo'nalishlarni egallay olsa to'g'risida turgan shaxs haqidagi ma'lumotlarni qisqa fursat ichida aniqlay oladi. Buning uchun u vizual psixodiagnostika, grafalogiya, fiziognomika, emotsiyalarni o'qish, paralingvistik vositalar orqali yolg'onni belgilarini aniqlash texnikalarini va boshqa shu kabi kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtira olsa jinoyatchining haqiqiy profillarini yarata oladi.

Kriminal profaylingda, qidiriluvchi, gumonlanuvchi (ayblanuvchi) shaxsini o'rganish asosini amaliy xarakterologiya tashkil qiladi. Xorijiy psixologiyada, ma'lum bir psixotipga (aksentuatsiya) qarab odamlarning shaxs xususiyatlarini turli xil tasniflari mavjud (K.Leongard, K.G.Yung, R.Krechmer, A.Kempinski, A.Ye.Lichko, A.P.Yegides, V.V.Ponomarenko). Shu bilan bir vaqtda, Rossiya yuridik psixologiyasida, jinoyatchini psixologik portretini tuzishning turli variantlari va sxemalari taklif qilingan (A.I.Anfinogenov, V.L.Vasilyev, Yu.V.Chufarovskiy, G.G.Shixansov). Ular seriyali qotil shaxsini batafsil ko'rib chiqqan. Lekin, shu vaqtning o'zida, tergovda ishtirok yetayotgan xodimlar amaliy faoliyati nuqtayi nazaridan yetarli darajada muhim va zarur bo'lib, o'z shaxsining boshqa xususiyatlari bilan birga, terrorchilik harakati, bosqinchilik, talovchilik, bezorilik, salomatlikka turli darajadagi tan jarohatlari yetkazish va boshqalarni sodir etishga moyil bo'lgan agressiv psixotiplarning xarakterologiyasi hisoblanadi.

MUHOKAMA va NATIJALAR. Biz, yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar tomonidan taklif etilgan katta massivdagi psixotiplar tasniflaridan eng batafsil va aniq namoyon bo'luvchi mezonlarga ega bo'lgan tasnif deb, psixolog, sobiq tergovchi V.V.Ponomarenko tomonidan taklif qilingan tasnifni hisoblaymiz [9]. Mazkur tasnifga ko'ra shaxsning kriminal profilini tashkil qilishi mumkin bo'lgan agressiv psixotiplarga quyidagilar kiradi: isteroid, epileptoid, paranoid, shizoid. Boshqa psixotiplarning - gipertim, emotiv, havotirli-shubhali - jinoyatni tashqi ta'sirsiz sodir etishga bo'lgan qobiliyatlari darajasi juda past.

Shaxsning umumiy tavsifi, tashqi ko'rinishi, fe'l-atvorining xususiyatlari: kabi o'ziga xos tomonlarini yanada batafsilroq tahlil qilgan holda, agressiv psixotiplar haqida yanada batafsilroq to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir

Isteroid psixotip.

#### 1. Umumiy tavsifi

Isteroid - boshqa xarakter tiplari ichida eng yorqini. Isteroidlar uchun hayot - teatr, o'zi - aktyor, qolganlar esa tomoshabin. O'zini namoyish qilishni sevuvchi bu shaxslar har doim sizning maqtovingiz, hayratingiz va ma'qullashlaringizga muhtoj. O'ziga juda yuqori baho beradi. Botirday tuyulishi mumkin, lekin faqat atrofdagilargagina shunday. Aslida o'zlariga ishonchi past.

Hissiyotlari nozik va juda o'zgaruvchan. Ammo boshqalarning dardiga sherik bo'lolmaydi, sherik kabi tutishni esa zo'r eplaydi. Kayfiyati tez-tez o'zgaradi, shu qatori qiziqqan sohasiyu tanishlari ham.

#### 2. Tashqi ko'rinishi

Isteroidlar tashqi go'zalligiga doim e'tiborli. Qomati shalvirab qolmasligi uchun sport bilan shug'ullanib yurishadi. Doim oxirgi urfda kiyinadi. Sharf, shlyapa, g'alati turmaklar, turli-tuman

aksessuarlar ularning o'ziga xosligini bildirib turishi kerak.

Nutqi chiroyli, g'alizlik va tutilishlar yo'q. Ovozini istagan ohang va tembrga solishi mumkin. Birovlarning gapirishini mahorat bilan o'xshatib beroladi. Mimikasi juda boy. Yuzi yoqimli.

Yumorni yoqtiradi. Birovlarga o'zini bilag'on va ajoyib ko'rsatish uchun latifa va aforizmlar yodlab yuradi.

### 3. Fe'l-atvorining xususiyatlari

Darhol e'tiborni jalb qilish va eng yaxshi taassurot qoldirish qobiliyati. Egosentrizm. Janjalni yoqtiradi. Yolg'onni ko'p gapiradi. Ijtimoiy moslashuvchanlik, har qanday ijtimoiy guruhga taqlid qilish qobiliyati. Hech narsada chuqur emas, yuzaki. Uzoq kutishga qodir emaslik, sabrsizlik, uzoq muddatli o'zini o'zi boshqarishning yo'qligi. Beqaror ishlash. Sevgisi chuqur emas. Isteroidlarning tanishlari ko'p bo'ladi.

Isteroid psixotipning kriminal profili, terrorchilik harakatlarini sodir yetishga moyilligi bilan ajralib turadi.

#### Epilptoid psixotip.

##### 1. Umumiy tavsifi

Epileptoid - jiddiy, bosiq, o'zini tuta biladigan, o'ziga ishongan shaxs. Ko'proq erkaklarda namoyon bo'luvchi ushbu xarakter o'ta tartibliligi bilan ajralib turadi. Tartibligi, hamma narsaga qoidaga ko'ra yondashishi bilan boshqalarni ham bezor qilib yuboradi. Vaziyat, atrof-muhit uning nazoratida bo'lishi kerak. Hokimiyatga intilish - epileptoid hayotining mazmuni, bosh maqsadi.

##### 2. Tashqi ko'rinishi

Epileptoidning tana tuzilishi atletlarniki singari, kelishgan va pishiq. Biroq besunaqaylik, assimetriyani ham ko'rish mumkin.

Ko'pincha klassik hamda sport kiyimlarini ma'qul ko'radi. Kiyimlari odatda to'q rangda, kulrang va jigarrang bo'ladi. Uni hech qachon pala-partish ko'rmaysiz, doim toza va tartibli. Ko'ylagi ideal darajada dazmollangan, tuflilari yarqiraydi. Kiyimlarini tinimsiz almashtiradi, o'zi esa bir kunda bir necha marotaba dush qabul qilishi mumkin. Soch turmagi doim bir xil, o'zgarmaydi. Ortiqcha aksessuarlarni ko'rmaysiz unda.

### 3. Fe'l-atvorining xususiyatlari

Qiziqqonlik, g'azablilik, jasorat, qat'iyat. Aniqlik, har bir narsalarga e'tiborlilik. O'zini aytganini majburiy qildirish (o'z irodasiga bo'sundirish), ataylab beparvolik. O'zining himoyasi ostida zaif deb hisoblaganlarni himoya qiladi. Yomonlik, yopishqoqlik. Ochko'zlik. Odatda epileptoidlar alkogoldan qochadi, lekin agar ular ichsa, o'zini yo'qotguncha ichadi.

Epilptoid psixotipning kriminal profili - shaxslarga nisbatan o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganliklari bilan ajralib turadi. Masalan vaxshiylarcha odam o'ldirish epilptoid psixotipga xosdir.

#### Paranoid psixotip.

##### 1. Umumiy tavsifi

Bu odatda kuchli ichki yadroga ega bo'lgan odamlardir. Ular, asosan, o'z g'oyalari bilan yashaydilar, buning uchun kurashadilar, azob chekadilar va qo'llab-quvvatlaydilar. Ular tashqi ma'lumotlarga sezgir emaslar. Faqat o'zining fikriga tayanadi, bu ko'pincha boshqalarni tinglashni xohlamaslikka olib keladi. Paranoidlar xafa bo'lsa yo jahli chiqsa, bu holatdan chiqishlari juda qiyin. Tabiatan janjalkash va arazchi bu odamlar kimdir qilgan yomonlikni yillab ko'nglida saqlab yuradi. Arzimas narsalar ustida yaqinlarini xafa qilib, yuzko'rmas bo'lib ketishlari ham mumkin. Ushbu turdagi odamlar, o'jarlik bilan boshqalar uchun erishib bo'lmaydigan maqsadga o'tishadi.

##### 2. Tashqi ko'rinishi

Kuchli tana tuzilishga ega, odatda o'rta bo'yli, faol. Xatti-harakatlari tezkor. Ovozi baland, nutqi tez. Modaga qiziqmaydi, kiyimi o'ziga qulay bo'lsa bo'ldi.

### 3. Fe'l-atvorining xususiyatlari

Mehnatsevarlik. Tirishqoqlik. Aniqlik. Qattiqlik, to'siqdan o'tolmaslik. Barqaror, baquvvat, portlovchi emas. Maqsadlilik. To'g'rilik. Odamlarni o'z tarafdorlari va raqiblarga ajratadi. Bundan tashqari, paranoidning o'zi odatda o'z fikrini o'zgartirmaydi, u juda o'jar va o'ziga ishonadi.

Paranoidning maqsadlari shundan iboratki, odamni yengib bo'lmaydi, shuning uchun har doim ham fikrli odamlarni yollashga intiladi.

Paranoid psixotipning kriminal profili - jinoiy guruhlar, jamoalar, to'dalar, ekstremistik va terroristik tashkilotlarning tashkilotchilari va rahbarlari.

Shizoid psixotip.

#### 1. Umumiy tavsifi

Shizoidlar - bu tabiati ijodiy, yoki boshqacha aytganda g'alati psixotip. Shizoidning mohiyati shundaki, u nostandart fikrlashga ega. Shuning uchun u bilan aloqa qilish qiyin. Shizoidda mantiqiy fikrlash yo'q. Kerak emas joylarda ortiqcha, noo'rin harakatlar qiladi, lozim bo'lgan joylarda indamay turadi. Ammo u har xil murakkab, qiyin masalalarni oson hal qiladi, shizoid ularning mohiyatini tez tushuna oladi.

#### 2. Tashqi ko'rinishi

Gavdasi ko'pincha nomutanosib. Xatti-harakatlari sekin va ifodasiz. Mimikalari kam. Modaga qiziqmaydi, o'zi bilganicha kiyinadi. Biror kiyimni qulay deb bilsa, doim shunda yuradi. Shizoidning tayyorlangan nutqi, uning tashqi ko'rinishidan farqli o'laroq, ko'pincha aqlli va izchil. Ammo shizoid ijtimoiy hayotga moslashmagan. Uning ijtimoiy hayotga moslashuvi juda qiyin kechadi.

#### 3. Fe'l-atvorining xususiyatlari

Oldindan uning hatti-harakatlarini bilish qiyin. Uni boshqarish ham qiyin. Mantiqsiz hissiyotga ega - ular kutilgan joyda hissiyotsiz bo'ladilar. Ular sodda, go'l va ularni aldash juda oson. Qiyin, murakkab masalalarni mohiyatiga oson yetgan xolda oddiy narsalarni tushunmaydilar. Tartibsiz.

Shizoid psixotipning kriminal profili - ketma-ket jinsiy qotillar, shuningdek, ularni sodir yetishning g'ayrioddiy, murakkab sxemalari (masalan, terrorchilik harakati) bilan bog'liq jinoyatlarning turlari.

Shunday qilib, jinoiy ish materiallarini tahlil qilgandan so'ng, mutaxassis xodim shaxsni o'rganish sxemasini ishlab chiqqandan so'ng, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslar doirasini toraytirishi mumkin, bu ko'pincha jinoyatlar agressiv psixotiplar tomonidan sodir etiladi, ular isteroid, epileptoid, paranoid va shizoidni o'z ichiga oladi. Aynan ish jarayonida shu kabi psixologik ma'lumotlarga rioya qilsa vaqt ancha qisqarib, jinoyatchining haqiqiy profili ham ayon bo'lishi mumkin.

XULOSA. Huquq-tartibot organlari xizmat faoliyatining ilmiy-uslubiy ta'minoti tizimini, xizmat vazifalarini xal etish samaradorligini oshirish maqsadida qo'llanilishi zarur bo'lgan kriminologik, kriminalistik, psixiatrik, psixologik texnologiyalarga asoslangan profayling sohasidagi bilim, uslub va texnologiyalar majmuasiga ega bo'lgan tegishli mutaxassislarsiz yaratish va faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Hozirgi vaqtda xuquni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining malaka oshirish dasturlariga, ehtimoliy xavfli subyektlarning (jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan, jinoyat, shu jumladan terroristik xarakterdagi va h.k.) emotsional holati noverbal profillari uslubi sifatida profayling psixotexnologiyasi elementlarini kiritish zarur. Shuningdek, dastlabki tergov jarayonida xulq-atvor tahlili (profayling) sohasida maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan professional psixologlarning ishtiroki muhim hisoblanadi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi guruhlariga profaylerlarni jalb etish, eng murakkab jinoiy ishlar bo'yicha dastlabki tergovni olib borishda samarali hisoblanadi. Mazkur amaliy faoliyatni qotilliklar, bosqinchilik, terrorchilik, iqtisodiy va korrupsion jinoyatlar, shuningdek voyaga yetmagan va keksa yoshdagilarga nisbatan jinoyatlarning ochilishi va oldini olishni ta'minlashga yo'naltirish, profaylerlarning ixtisosliklashuvlarini esa oliy kasbiy ta'lim muassasalari, shu jumladan idoraviy bo'ysunish liniyasi bo'yicha o'tkazish samarali.

## REFERENCES

1. Aseev V.G. Motivatsiya povedeniya i formirovaniya lichnosti. M., 1976. 246 s.

2. Canter D., Heritage R.A Multivariate Model of Sexual Offence Behavior // The Journal of Forensic Psychiatry. 1989. Vol. 1.
3. Cherkasova Ye.S. Profayling kak metod sozdaniya psixologicheskogo portreta potentsialnogo prestupnika na etape organizatsii predvaritelnogo rassledovaniya. Vestnik NGU, seriya: Pravo, 2013, t. 9, vypusk 1, str. 72-75.
4. Feofanov O.A. Agressiya lji. M.: Politizdat, 1987. 318 s.
5. Fernxem A., Xeyven P. Lichnost i sotsialnoye povedeniye. M.: Piter, 2001. 360 s.
6. Filonov L.B. Psixologicheskiye sposoby vyyavleniya skryvayemogo obsoyatelstva. M.: Izd-vo MGU, 1979. 99 s.
7. Jon Duglas. M.Olsheyker. Qotilning psixologik portreti. T.: Yangi asr avlodi. 2022. –B 51.
8. Lagovskiy A.Yu., Skrytnikov A.I., Telejnikova V.N., Begunova L.A. Sostavleniye psixologicheskogo portreta prestupnika: Ucheb.-metod. posobiye. M., 2000.
9. Ponomarenko, V.V. Prakticheskaya xarakterologiya s elementami prognozirovaniya i upravleniya povedeniyem (metodika “sem radikalov”). – Rostov-n/D.: Feniks. 2006. – 252 s.
10. Qodirov M.S. Bojxona xizmatida kasbiy kompetentlikni shakllantirish // Zamonaviy ta’lim. –Toshkent.№ 9 (94) 2020. B. 17-24.
11. Qodirov M.S. Bojxona xizmatida xodimlarida profaylitng asosidagi kasbiy kompetensiyasi shakllanish xususiyatini aniqlash mezonlari // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent.№ 3 (112) 2022. B. 17-26.
12. Ressler R., Burgess A., Douglas J. Criminal Profiling Research on Homicide. Unpublished Research Report. N. Y., 1982.
13. Samovichev Ye.G. Osenka rozyisknogo znacheniya priznakov povedeniya prestupnika na meste prestupleniya // Problemy ispolzovaniya netraditsionnyx psixofiziologicheskix metodov v raskrytii prestupleniy: Sb. nauch. tr. / Pod red. A. I. Skrypnikova i dr. M., 1995.
14. Shixansov G. G. Yuridicheskaya psixologiya : uchebnik dlya vuzov. – M.: Zersalo, 1998. – 352 s.
15. Yenikolopov, S.N., Li, N.A. Psixologicheskiye osobennosti kriminalnogo profaylinga // Psixologicheskaya nauka i obrazovaniye. – 2007. – № 5. – S. 295–299.
16. Znakov V. V. Nepravda, loj i obman kak problemy psixologii ponimaniya // Vopr. psixologii. 1993. № 2. S. 92-99.

## IJTIMOIIY TAQQOSLASH, RIGIDLIK VA IMPOSTER SINDROMINING O‘ZARO ALOQADORLIGI

*Nilufarxon Yuldasheva Sherqo‘zi,*

*Xalqaro Nordik universiteti Psixologiya va maktabgacha ta‘lim kafedrasi katta o‘qituvchisi., PhD*

*Annotatsiya: Ushbu tadqiqot imposter sindromi (o‘zini malakasiz yoki “qalbaki” deb his qilish holati) bilan psixologik xususiyatlar — ijtimoiy taqqoslash, perfektsionizm, nevrotizm, rigidlik va introversiya-ekstroversiya — o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tanlov asosida jalb etilgan ishtirokchilardan yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida korrelyatsion tahlil o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, imposter sindromi eng yuqori darajada ijtimoiy taqqoslash bilan, so‘ngra esa perfektsionizm va nevrotizm bilan o‘rtacha ijobiy bog‘liqlikda bo‘lgan. Rigidlik omili esa zaif, introversiya-ekstroversiya esa ahamiyatsiz salbiy bog‘liqlik ko‘rsatdi. Tahlillar imposter sindromining shakllanishi ko‘p omilli jarayon ekanligini, uni nafaqat individual psixologik xususiyatlar, balki shaxs joylashgan ijtimoiy-psixologik kontekst ham shakllantirishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuqori ijtimoiy taqqoslash bosimi bo‘lgan muhitlar — masalan, akademik yoki professional sohalar — bu sindromning kuchayishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.*

*Kalit so‘zlar: imposter sindromi, taqqoslash, perfektsionizm, nevrotizm, rigidlik, psixologik omillar, strukturaviy kontekst*

## ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ СОЦИАЛЬНЫМ СРАВНЕНИЕМ, РИГИДНОСТЬЮ И СИНДРОМОМ САМОЗВАНЦА

*Юлдашева Нилуфархон Шерқузи кизи,*

*Международный Нордикский университет Кафедра психологии и дошкольного образования Старший преподаватель, PhD*

*Аннотация: Данное исследование направлено на выявление взаимосвязи между импостер-синдромом (состоянием, при котором человек ощущает себя некомпетентным или «обманщиком») и психологическими особенностями, такими как социальное сравнение, перфекционизм, невротизм, ригидность и интроверсия-экстраверсия. На основе выборки участников были собраны данные и проведён корреляционный анализ. Результаты показали, что импостер-синдром в наибольшей степени положительно коррелирует с социальным сравнением, а также в умеренной степени — с перфекционизмом и невротизмом. Ригидность продемонстрировала слабую положительную связь, а интроверсия-экстраверсия — незначительную отрицательную. Анализ указывает на то, что формирование импостер-синдрома является многофакторным процессом, зависящим не только от индивидуальных психологических характеристик, но и от социально-психологического контекста, в котором находится личность. Особенно сильное влияние на усиление данного синдрома оказывают среды с высоким уровнем социального сравнения, такие как академическая или профессиональная сферы.*

*Ключевые слова: импостер-синдром, сравнение, перфекционизм, невротизм, ригидность, психологические факторы, структурный контекст*

## THE INTERRELATION BETWEEN SOCIAL COMPARISON, RIGIDITY, AND IMPOSTOR SYNDROME

*Yuldasheva Nilufarkhon Sherquzi qizi,*

*International Nordic University Department of Psychology and Preschool Education Senior Lecturer, PhD*

*Abstract: This study aims to examine the relationship between impostor syndrome—a psychological state in which individuals perceive themselves as incompetent or “fraudulent”—and*

several psychological traits, including social comparison, perfectionism, neuroticism, rigidity, and introversion–extraversion. Data were collected from participants selected through sampling and analyzed using correlational methods. The results revealed that impostor syndrome showed the strongest positive correlation with social comparison, followed by moderate positive correlations with perfectionism and neuroticism. Rigidity demonstrated a weak positive correlation, while introversion–extraversion showed an insignificant negative relationship. These findings suggest that the development of impostor syndrome is a multifactorial process influenced not only by individual psychological characteristics but also by the socio-psychological context in which the person operates. Environments characterized by high levels of social comparison—such as academic and professional settings—appear to have a significant impact on the intensification of impostor feelings.

*Keywords:* impostor syndrome, social comparison, perfectionism, neuroticism, rigidity, psychological factors, structural context

**Kirish.** Imposter sindromi (yoki imposter hodisasi) — bu shaxsning o'zining yutuqlari va malakasiga nisbatan ichki shubha bilan qarashi, ularni ko'pincha omad yoki tashqi omillar bilan izohlashga moyilligi bilan tavsiflanadi (Clance & Imes, 1978). So'nggi yillarda bu hodisaga nisbatan ilmiy qiziqish ortib, uni faqat individual psixologik xususiyat sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy va strukturaviy omillar bilan bog'liq murakkab holat sifatida tahlil qilishga e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, taqqoslash — ya'ni shaxsning o'zini boshqalar bilan solishtirishi — imposter hissiyotlarini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rilmoqda.

Ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga ko'ra (Festinger, 1954), odamlar o'zlarining kompetensiyasi va muvaffaqiyatini baholashda boshqalarning holati bilan solishtirishga intiladilar. Ushbu taqqoslash jarayoni ijtimoiy muhit — masalan, sinfxonalar, akademik guruhlar yoki ma'muriy muhit — qanchalik rigid (qat'iy, o'zgaruvchanlikka yopiq) bo'lishiga qarab turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rigid muhitlarda muvaffaqiyat aniq va tor mezonlarga bog'lab qo'yilgan bo'lib, bunda taqqoslash salbiy psixologik natijalarga, jumladan imposter sindromining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu maqolada biz imposter sindromi, rigidlik va ijtimoiy taqqoslash o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilamiz. Maqsad — ushbu omillar qanday qilib bir-birini kuchaytirishi yoki barqarorlashtirishini tushuntirish hamda talabalarning psixologik farovonligiga ta'sir qiluvchi strukturaviy omillarni aniqlashdir.

#### Metod

Tadqiqotda imposter sindromining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash maqsadida kvantitativ (miqdoriy) yondashuv asosida ishlangan. Ma'lumotlar yig'ishda psixodiagnostik testlar majmuasidan foydalanildi. Har bir test ishtirokchilarning ma'lum psixologik xususiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ularning ilmiy asoslanganligi va amaliyotda keng qo'llanilishi hisobga olindi.

Imposter sindromining darajasini baholashda Polin Rous Klans tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik I.Klans tomonidan takomillashtirilgan "Imposter sindromi o'lchovi" testidan foydalanildi. Bu test shaxsning o'z yutuqlarini inkor etish, o'zini aldovchi sifatida his qilish, tashqi tasdiqlovga bo'lgan ehtiyoj kabi mezonlar asosida imposterlik hissiyotlarini aniqlashga xizmat qiladi. Test yuqori ishonchlilik va validlik ko'rsatkichlariga ega bo'lib, turli yosh va kasb vakillari orasida muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Rigid tafakkur darajasini aniqlash uchun Spilberg va Xanin tomonidan ishlab chiqilgan "Psixologik holatlarni aniqlash testi" tarkibida keltirilgan rigidlik subshkalasidan foydalanildi. Bu o'lchov shaxsning moslashuvchanlik darajasi, yangi sharoitlarga qarshi psixologik qarshilik, fikrlarni yangilashga bo'lgan ochiqlik kabi ko'rsatkichlarni o'lchaydi. Rigidlik yuqori bo'lgan shaxslar odatda o'zgarishlarga nisbatan konservativ va qat'iy bo'ladilar.

Ijtimoiy taqqoslash darajasi esa klassik Leon Festinger nazariyasi asosida tuzilgan maxsus

test vositasi yordamida baholandi. “Ijtimoiy taqqoslash testi” shaxsning o‘zini boshqalar bilan solishtirish chastotasi, ushbu solishtirishlardan kelib chiqadigan hissiy reaksiyalar, va shaxsiy baholash standartlariga tashqi ta’sir darajasini o‘lchaydi. Festingerning bu yondashuvi ijtimoiy kontekstda o‘z-o‘zini anglash va o‘z bahosini shakllantirish mexanizmlarini tahlil qilishga imkon beradi.

Shuningdek, shaxsdagi mukammallikka intilish holatini aniqlash maqsadida Bill Gaultiere tomonidan ishlab chiqilgan “Perfektsionizmni aniqlash testi” dan foydalanildi. Ushbu test shaxsning o‘ziga va boshqalarga nisbatan mukammal talablar qo‘yish darajasini, muvaffaqiyatsizlikka nisbatan intolerantlikni, shuningdek, o‘z-o‘zini tanqid qilish xususiyatlarini o‘lchaydi.

Ushbu testlar natijalari korrelyatsion tahlil orqali o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlashda asosiy empirik asos bo‘lib xizmat qildi. Har bir test natijalari alohida mezonlar asosida ballarda baholandi hamda yakuniy statistik tahlilga kiritildi.

#### Natijalar

Ushbu tadqiqotda imposter sindromining psixologik omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi korrelyatsion tahlil orqali o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, eng yuqori bog‘liqlik taqqoslash omili bilan kuzatildi ( $r = 0.58$ ). Bu shuni anglatadiki, o‘zini boshqalar bilan tez-tez solishtiradigan shaxslar o‘z yutuqlarini yetarli deb hisoblamaslikka moyil bo‘lib, imposter sindromini kuchliroq his qilishadi. Taqqoslash, ayniqsa raqobat kuchli bo‘lgan muhitlarda yoki ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan shaxslarda o‘zini “qalbaki” deb his qilishni rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Perfektsionizm bilan imposter sindromi o‘rtasida o‘rtacha darajadagi ijobiy bog‘liqlik ( $r = 0.44$ ) aniqlangani, mukammallikka intiluvchi shaxslar o‘zlarining yutuqlarini kam baholashga moyil ekanligini ko‘rsatadi. Perfektsionistlar xatoni muvaffaqiyatsizlik deb qabul qilganliklari sababli, o‘zlarini yetarli emasdek his qiladilar.


Shuningdek, nevrotizm ham imposter sindromi bilan o‘rtacha darajada bog‘liq ( $r = 0.41$ ). Nevrotik xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar – ya’ni o‘ziga nisbatan ishonchsiz, xavotirli va salbiy hissiyotlarga moyil insonlar – imposterlik hissiyotlariga ko‘proq duchor bo‘lishadi. Bu shaxslar ichki tanqidchanlik va tashvish orqali muvaffaqiyatlarini inkor etishadi.

Rigidlik – ya’ni qat’iy, moslashuvchanlikdan yiroq fikrlash – imposter sindromi bilan zaif ijobiy bog‘liqlikka ega ( $r = 0.34$ ). Rigid tafakkur egasi bo‘lgan shaxslar o‘zlarini muayyan an’anaviy me’yorlar asosida baholaydilar. Bunday yondashuv muvaffaqiyat mezonlarini toraytirib, shaxs o‘zini past baholashga olib kelishi mumkin.

So‘nggi ko‘rsatkich – introversiya-ekstroversiya – imposter sindromi bilan salbiy, ammo ahamiyatsiz bog‘liqlikda ( $r = -0.16$ ) bo‘ldi. Bu shuni anglatadiki, ekstrovert yoki introvert bo‘lish imposter sindromiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Biroq, ayrim hollarda introvertlar o‘z hissiyotlarini ifoda etishda ehtiyotkor bo‘lgani sababli, ichki shubhalarni o‘zida saqlab yurishlari mumkin.

### Ijtimoiy taqqoslash, rigidlik va imposter sindromining aloqadorligi

	Korrelyatsiya koeffitsienti	Izoh
<b>Taqqoslash</b>	0.578317854829109	O'rtacha bog'liqlik
<b>Rigidlik</b>	0.3447328165720764	Zaif bog'liqlik
<b>Perfektsionizm</b>	0.4436332821995345	O'rtacha bog'liqlik
<b>Nevrotizm</b>	0.4059233535011829	O'rtacha bog'liqlik
<b>Introversiya-ekstroversiya</b>	-0.16421622501935293	Ahamsiz bog'liqlik



**1-rasm. Ijtimoiy taqqoslash, rigidlik va imposter sindromi bog'liqlik jadvali**

Imposter sindromining shakllanishi va kuchayishida bir qator psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, imposter sindromi ijtimoiy taqqoslash, perfektsionizm, nevtotizm, rigidlik va introversiya-ekstroversiya kabi psixologik xususiyatlar bilan turli darajada bog'liqdir.

Eng yuqori bog'liqlik ijtimoiy taqqoslash omili bilan kuzatildi. O'zini boshqalar bilan tez-tez solishtiradigan shaxslar muvaffaqiyatlarini yetarlicha qadrlamaslikka moyil bo'lib, bu holat o'z navbatida imposterlik hissiyotlarini kuchaytiradi. Bu natijalar ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga

(Festinger, 1954) muvofiq bo‘lib, insonlar o‘z salohiyatini tashqi me‘yorlar bilan baholaganida, o‘zini “qalbaki” deb his qilishga moyilligi oshadi.

Perfektsionizm bilan imposter sindromi o‘rtasida ham o‘rtacha darajadagi ijobiy bog‘liqlik aniqlangan. Mukammallikka intilish, xatolarga nisbatan nol bardoshlilik va o‘ziga nisbatan haddan ortiq talabchanlik shaxsda doimiy ravishda o‘z yutuqlarini inkor etish holatini yuzaga keltiradi. Bu holat boshqa tadqiqotlar (masalan, Clance & Imes, 1978; recent findings by Springer, 2023) bilan ham tasdiqlangan bo‘lib, ayniqsa ayollar orasida bu ikki holat bir-birini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Nevrotizm — hissiy beqarorlik, tashvishlilik va salbiy o‘z-o‘zini baholash — imposter sindromi bilan o‘rtacha darajada ijobiy bog‘liq bo‘lib, bu shaxslar muvaffaqiyatga erishgan taqdirda ham uni ichki hissiy qarama-qarshiliklar bilan qamrab oladi. Bu esa doimiy o‘zini shubha ostiga olishga olib keladi.

Rigidlik — ya‘ni qat‘iy, moslashuvchan emas fikrlash — imposter sindromi bilan zaif bog‘liqlikda bo‘lsa-da, bu omil ham muhimdir. Rigid tafakkurga ega shaxslar muvaffaqiyatni tor mezonlar asosida baholab, o‘zlarining natijalarini kamroq qadrlashga moyil bo‘lishadi.

Introversiya-ekstroversiya ko‘rsatkichi esa imposter sindromi bilan salbiy, ammo ahamiyatsiz bog‘liqlikka ega. Bu shuni anglatadiki, introvert shaxslar imposterlik hissiyotlariga nisbatan ko‘proq duch kelishlari mumkin, biroq bu holat izchil statistik asosga ega emas.

#### Muhokama

Ushbu tadqiqot imposter sindromining shakllanishiga ta‘sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, imposter sindromi ko‘plab omillar, jumladan ijtimoiy taqqoslash, perfektsionizm, nevtotizm, rigidlik va qisman introversiya-ekstroversiya bilan bog‘liq murakkab holatdir. Eng kuchli bog‘liqlik ijtimoiy taqqoslash bilan kuzatilgani ushbu sindromning ijtimoiy-psixologik kontekstda shakllanishini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy taqqoslash omilining imposter sindromi bilan o‘rtacha darajadagi ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘lishi ( $r \approx 0.58$ ) Festinger (1954) tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga mos keladi. Bu holat shaxs o‘zini doimiy ravishda boshqalar bilan solishtirib, o‘z yutuqlarini yetarli emas deb baholashga moyil bo‘lishini ko‘rsatadi. Ayniqsa akademik va professional muhitda bunday taqqoslashlar kuchli stress va o‘zini “qalbaki” deb his qilish holatlarini kuchaytiradi.

Perfektsionizm bilan imposter sindromi o‘rtasidagi bog‘liqlik ( $r \approx 0.44$ ) Clance va Imes (1978) tomonidan o‘tkazilgan ilk tadqiqotlar bilan bevosita bog‘liq. Mukammallikka haddan tashqari intilish, muvaffaqiyatni doimiy inkor etish va o‘ziga nisbatan yuqori talablar qo‘yish shaxsning o‘zini yetarli emasdek his qilishiga olib keladi. Bu holat, ayniqsa akademik va ijodiy sohalarda faoliyat yurituvchi shaxslar orasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Nevrotizmning imposter sindromi bilan o‘rtacha ijobiy bog‘liqligi ( $r \approx 0.41$ ) hissiy barqarorlik darajasining pastligi ushbu sindromning shakllanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shaxs o‘zini noaniq, tashvishli va o‘z yutuqlariga nisbatan shubha bilan qarovchi holatda his qilganda, imposterlik hissiyotlari kuchayadi. Ushbu natija ilgari o‘tkazilgan nevtotizm va o‘z-o‘zini baholashga oid tadqiqotlar (masalan, Kumar & Jagacinski, 2006) bilan hamohangdir.

Rigidlik omilining zaif, ammo mavjud bog‘liqligi ( $r \approx 0.34$ ) esa fikrlashdagi qat‘iylik, o‘zgarishlarga moslashmaslik, va o‘z yutuqlarini faqat ma‘lum andozalar asosida baholashga moyillik imposterlik hissinini qo‘zg‘atishi mumkinligini anglatadi. Rigid tafakkurga ega shaxslar muvaffaqiyat me‘yorlarini tor doirada belgilab, o‘zini bu mezonlarga yetmayotgandek his qilishadi.

Introversiya-ekstroversiya bilan imposter sindromi o‘rtasidagi salbiy, ammo ahamiyatsiz bog‘liqlik ( $r \approx -0.16$ ) shuni anglatadiki, shaxsning ijtimoiy ochiqligi bu sindromga kuchli ta‘sir ko‘rsatmaydi. Biroq ayrim tadqiqotlar introvert shaxslar imposter hissiyotlarini ko‘proq ichki tarzda boshdan kechirishlari mumkinligini ko‘rsatadi (Sakulku & Alexander, 2011).

Umuman olganda, tadqiqot natijalari imposter sindromining nafaqat individual psixologik

holat, balki strukturaviy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa imposter sindromiga qarshi kurashishda faqat terapevtik yondashuv emas, balki ta'lim va mehnat muhitlarida qo'llab-quvvatlovchi, inklyuziv va ijtimoiy solishtirishni kamaytiruvchi strategiyalarni joriy qilish zarurligini ta'kidlaydi.

#### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, imposter sindromining shakllanishi oddiy psixologik holat emas, balki murakkab va ko'p omilli psixosozial jarayon sifatida qaralishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bu sindromning paydo bo'lishi va kuchayishida nafaqat individual xususiyatlar – masalan, perfektsionizm, nevrotizm va rigidlik – balki ijtimoiy-psixologik kontekst, ayniqsa ijtimoiy taqqoslash muhim rol o'ynaydi.

Perfektsionistik shaxslar o'zlariga yuqori talablar qo'yadilar va muvaffaqiyatga erishgan taqdirda ham bu yutuqni yetarli deb hisoblamaydilar. Ular ko'pincha ideal natijalarni kutishadi va har qanday xatolikni shaxsiy muvaffaqiyatsizlik deb talqin qiladilar. Bu esa imposter sindromini kuchaytiradigan ichki bosimni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, nevrotizm – ya'ni emotsional beqarorlik va tashvishlilik – shaxsning ichki tanqidchanlik darajasini oshirib, imposterlik tuyg'usining kuchayishiga olib keladi. Rigid tafakkur – fikrlashdagi qat'iylik va moslashuvchanlikning pastligi – esa muvaffaqiyat me'yorlarini tor doirada belgilashga olib kelib, shaxsga o'zini yetarli emasdek his qilishi uchun psixologik zamin yaratadi.

Eng e'tiborga molik omillardan biri bu – ijtimoiy taqqoslashdir. Odamlar o'zini boshqalar bilan solishtirgani sari, ularning o'z-o'ziga bo'lgan bahosi tashqi standartlarga tobora ko'proq bog'lanadi. Ayniqsa akademik, professional yoki ijtimoiy tarmoqlar bilan to'la muhitlarda bu holat kuchayadi. Bu esa shaxsda o'zining yutuqlarini ichki ishonch bilan emas, balki boshqa insonlar muvaffaqiyati bilan o'lchashga sabab bo'ladi. Natijada, inson o'z yutuqlarini "tasodif", "omad", yoki "atofdagilarning e'tibosizligi" bilan izohlashga moyil bo'ladi – bu imposter sindromining klassik alomatlaridandir.

Shu bois, imposter sindromini tushunishda va u bilan kurashishda faqat individual terapevtik yondashuv yetarli emas. Aksincha, bu masalaga ijtimoiy-psixologik kontekstda qarash, ya'ni insonning faoliyat yuritayotgan muhitini – akademik, professional, yoki madaniy tizimlarni – hisobga olish zarur. Muhitdagi raqobatbardoshlik darajasi, kommunikatsiya uslubi, baholash mezonlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari imposter sindromining kuchayishida yoki kamayishida muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, imposter sindromini chuqur tushunish va samarali yondashuv ishlab chiqish uchun shaxsiy psixologik omillar bilan bir qatorda strukturaviy, madaniy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish zarur. Bu esa sog'lom o'zini baholash tizimini shakllantirish, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish va salbiy taqqoslash jarayonlarini yumshatish orqali shaxsiy farovonlikni oshirish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Clance, P. R., & Imes, S. A. (1978). The imposter phenomenon in high achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. *Psychotherapy: Theory, Research & Practice*, 15(3), 241–247.
2. Festinger, L. (1954). A theory of social comparison processes. *Human Relations*, 7(2), 117–140.
3. Gaultiere, B. (2005). *Assessing and Overcoming Perfectionism*. Soul Shepherding Publications.
4. Spielberg, C. D., Gorsuch, R. L., & Lushene, R. E. (1970). *Manual for the State-Trait Anxiety Inventory (STAI)*. Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press.
5. Kumar, S., & Jagacinski, C. M. (2006). Imposters have goals too: The imposter phenomenon and its relationship to achievement goal theory. *Personality and Individual Differences*, 40(1),

147–157.

6. Sakulku, J., & Alexander, J. (2011). The Impostor Phenomenon. *International Journal of Behavioral Science*, 6(1), 73–92.

7. Clance, P. R. (1985). *The Impostor Phenomenon: When Success Makes You Feel Like a Fake*. Atlanta: Peachtree Publishers.

8. Thompson, T., Foreman, P., & Martin, F. (2000). Impostor fears and perfectionism in university students: The role of achievement goals. *Personality and Individual Differences*, 29(5), 829–843.

9. Parkman, A. (2016). The impostor phenomenon in higher education: Incidence and impact. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 16(1), 51–60.

10. Ferrari, J. R., & Thompson, T. (2006). Impostor fears: Links with self-presentational concerns and self-handicapping behaviours. *Personality and Individual Differences*, 40(2), 341–352.

11. Yuldasheva, N. (2025). Imposter sindromi: mohiyati, sabablari va yechim yo‘llari. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(9), 78-80.

Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan 2020 yil 6 oktyabrda o'z  
Jurnal har oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.  
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexanika, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materi-allarni o'z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O'zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchilari.

Jurnalning kalit so'zlari:

Oliy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya, O'zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi; ta'lim jarayoni; ko'p madaniyatli va mintaqaviy ta'lim; III Renessans, XXI asrdagi ta'lim; ta'lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustuvorliklari; ta'lim sifatini monitoring qilish; uzluksiz pedagogik ta'lim tizimi; ta'lim dasturlari; umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari; o'qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta'lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882

Bosh muharrir: B.B.MA'MUROV

**Bosishga ruxsat etildi:** 10.02.2025 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324

«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar.

<https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi

